



KLASSIK KOREYS NASRI ANTOLOGIYASI




CH0000033813

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

KLASSIK KOREYS NASRI ANTOLOGIIYASI

(Qadimiyatdan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davr)



**TOSHKENT
«ISTIQLOL»
2013**

UO'K: 821.531

KBK: 84(5Kor)

K 49

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
HUZURIDAGI KOREYSSHUNOSLIK MARKAZI**

Mazkur kitob ToshDSH Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan
(bayonnoma №2. 27.09.2013-y.).

Tuzuvchilar:

***Saydazimova U., Choy So Yong, Xvan L., Shakirova N.,
Kim O., Kim Ye.***

Taqrizchilar:

Alimbekov A., Muhibova U.

Mas'ul muharrir:

Hamidov H.

«This work was supported by the Academy of Korean Studies (Korean Studies Promotion Service) Grant funded by the Korean Government (Ministry of Education) (AKS-2012-BBZ-2115)».

**84(5Kor)
K 49**

Klassik koreys nasri antologiyasi: qadimiyatdan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davr / tuzuvchilar: U.Saydazimova, Choy So Yong, L.Xvan (va boshq.); mas'ul muharrir H. Hamidov. — Toshkent: «Istiqlol», 2013. — 504 b.

UO'K: 821.531

KBK: 84(5Kor)

ISBN 978-9943-308-74-9

© «Istiqlol nashriyoti», 2013



KIRISH

Jahondagi ijtimoiy jarayonlarga Koreyaning ta'siri yildan yilga kuchayib bormoqda. Bu uning ilmiy-texnika taraqqiyoti bilangina emas, balki Koreya madaniy merosi jihatidan jahonning eng rivojlangan, boy mamlakatlaridan biri hisoblanishi bilan ham bog'liq. Osiyo qit'asi va Yaponiya orollari o'rtasidagi chorrahada joylashgan, Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan Koreya asrlar mobaynida qo'shnilari hamda boshqa yurtlardan kelgan ko'chmanchilarning hujum va tazyiqlariga dosh bergan.

Ammo, doimiy urushlar, istilolar va tazyiqlarga qaramay, Koreya ko'p asrlik tarixi mobaynida hamisha o'zini madaniyatda namoyon etgan, milliy va madaniy o'ziga xosligini saqlab qolgan, o'z an'analarini rivojlantirish orqali mustaqillikka, barqaror turmush tarzini qaror toptirishga intilgan. Koreya o'zining hozirgi kuch-qudratiga ko'p jihatdan shu omillar tufayli erishdi, Osiyo qit'asida peshqadam mamlakatlardan biriga aylandi, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni yaratdi.

Bugungi kunda Koreyada UNESCO ro'yxatiga kiritilgan butunjahon ahamiyatiga molik 812 ta madaniy yodgorlik bor. Ularning orasida quyidagilarni qayd etish mumkin: «Xunmin Chonim» (koreys alifbosi), «Qirol munshiyxonasi qaydlari kundaligi», «Choson qirollari sulolasining solnomasi», «Jikjisimcheyozjol» kitobi. Koreyaning yuksak madaniyatidan «Koreys an'anaviy operasi — *pxansori*», «Qirolga toj kiydirish marosimi», Dolmeni Kochang, Xvasun, Koguryodagi maqbaralar, Sokkuram g'or ibodatxonasi, Pulguksa ibodatxonasi va hokazolar dalolat beradi. Mamlakat tarixini, xalqning ma'naviy kuchini o'zida mujassamlashtirgan adabiyot Koreyaning noyob ma'naviy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ilk tarixiy davrdan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi an'anaviy klassik adabiyot alohida qimmatga ega.

Koreyslar ilk tarixiy tafakkurining xususiyatlari, xalq og'zaki ijodi, mifologiya an'analari, ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi, davlat-qal'alar paydo bo'lishi va ularning rivojlanishi, birinchi davlat — Qadimgi Choson, ya'ni «Tonggi tozalik mamlakati» yoki «Tonggi osoyishtalik mamlakati»ning paydo bo'lishi (1233), ilk uch podsholik — miloddan

avvalgi 37-yilda Koguryo, miloddan avvalgi 18-yilda – Pekche, milodiy 57-yilda esa – Silla podsholigining vujudga kelishi; mutlaq monarxiya, jamoa aristokratiyasining mustalikamlanishi, feodallar oʻrtasidagi nifoqlar; VII asrda Silla atrofida mamlakatning birlashtirilishi, IX asrda uning parchalanishi; xalq noroziligining kuchayib borishi, 1170-yilda harbiy toʻntarish yuz berishi va hokimiyat harbiy elita qoʻliga oʻtishi, X–XIV asrlarda davlatni Koryo sulolasi boshqarishi (kechki Uch podsholik), Imjin urushi (1592–1598), XV–XIX asrlarda Choson (Li) sulolasining paydo boʻlishi va davlatni boshqarishi; turli davrlarda Koreyaning Xitoy, Yaponiya, Moʻgʻuliston tomonidan istilo qilinishi; 372-yilda «Txexak» («Oliy maktab»), IX asr boshida «Kukxak» («Davlat maktabi») maktabiarining tashkil topishi, milliy sanʼatning rivojlanishi – anʼanaviy klassik adabiyotda oʻz ifodasini topgan tarixiy voqelikning eng muhim bosqichlari ana shulardan iborat.

XIX asr oxiriga kelib milliy oʻzlikni anglash tuygʻusi kuchayishi bilan mamlakatda shahar madaniyatining oʻrni va ahamiyati oshadi, koreyslar Yevropa, uning milliy madaniy merosi haqida ilk bor xabar topadilar; amaliy bilimlarning roli ortadi, mamlakatda ilmiy va gʻoyaviy jarayonlarning rivojlanishini faollashtirgan «*sirxakpxa*» («Real fanlar maktabi») oqimi paydo boʻladi. Davlatning maʼrifatli, uygʻun tuzilishi masalalari birinchi oʻringa chiqadi.

Koreys klassik adabiyotining oʻziga xos xususiyati shundaki, u «XIX asr oxirigacha ikki tilli boʻlgan va ham rasmiy adabiy til *xanmun* (xitoy adabiy tili *venyaning* koreyschaga moslashtirilgan shakli), ham koreys tilida yaratilgan»¹. Dastavval mazkur adabiyot ogʻzaki koʻrinishda va VI asrdan boshlab qoʻllanilgan «*idu*» usuli (koreys tilini xitoy iyerogliflari vositasida ifodalashdan iborat murakkab tizim)dagi yozuvlarda mavjud boʻlgan. Ayni hol, akademik V.V.Vinogradov taʼkidlaganidek, Gʻarb va Sharq xalqlari adabiy tillari rivojlanishining umumiy qonuniyatlaridan biri – yozma adabiy til sifatida oʻz tilini emas, balki oʻzga tilni ishlatish bilan bogʻliq. Chunonchi, «eron va turkiy xalqlarda klassik arab tili, yapon va koreyslarda esa – klassik xitoy tili uzoq yillar mobaynida adabiy til sifatida amal qilgan»².

Koreys adabiy tili – *xanmun* va *iduning* paydo boʻlishi, 1446-yilda buyuk islohotchi – qirol Sejong (1397–1450) tashabbusi bilan koreys milliy alifbosi «Xunmin Chonim» («*Xangil*»)ning yaratilishi milliy

¹ Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. – С. 167.

² Виноградов В.В. Литературный язык. Избранные труды. История русского литературного языка. – М., 1978. – С. 188.

ma'naviyat ta'sirini kuchaytirdi, Koreya milliy madaniyatining yanada boyishi uchun zamin yaratdi, uning ta'siri doirasini kengaytirdi. *Xangilni* ommaviylashtirish uchun unda «Osmon-u falakka ko'tarilgan ajdarga qasida» (1445), «Budda tarjimai holi» («*Sokpo Sanchjoh*») kitoblari chop etildi, «Choson ajdodlari va asoschilariga madhiyalar» («*Enbi ochxonga*») kitobi tuzildi.

Koreya adabiyotining rivojlanishiga buddizm, daosizm, konfutsiychilik ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. «Garchi amalda bu diniy-falsafiy ta'limotlar o'rtasida rasmiy mafkura nomini olish huquqi uchun kurash borgan bo'lsa-da, badiiy adabiyotda ular nisbatan tinch-totuv mavjud edilar»¹.

Buddizm Koreyaga IV asr oxirida kirib keldi. Uning ta'siri hukmron tabaqalarning manfaatlar bilan bog'liq edi. Li Gi Bek bu haqda shunday deb yozadi: «Buddizm qirol hokimiyati qo'lida markazlashgan davlatni mustahkamlashga ko'maklashuvchi eng qulay qurolga aylandi»². Bu tasodifiy bir hol emas, zero, buddizm o'limdan so'ng o'z siyratini o'zgartirish to'g'risidagi ta'limot bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra qul, agar u dunyoviy hayotda ezgu ishlar qilgan bo'lsa, narigi dunyoda rojaga aylanishi mumkin³. Buddaviylikning «Toza yer» deb nomlangan mashhur mazhabi vakillari bu dunyodan uzoqlashishga, o'z ichki dunyosiga chuqur berilishga chaqirganlar. Mazkur dunyoni ular «toza yer», «buddaviylar jannati» deb ataganlar. Buddaviy rohib Vonxyo bu ta'limotning otashin targ'ibotchisi bo'lgan. Buni Vonxyoning «Yusim annakto» («Budda Amitaba podsholigi sari yo'l») deb nomlangan asari ham tasdiqlaydi. Buddizmnı keng yoyishga monastirlar, Budda haykaliari, VIII asrda Sokkuram, Pulguksa va boshqa ibodatxonalarning qurilishi ko'maklashgan. Koryo sulolasining podsholik davrida (IX–XIV asrlarda) buddizm ayniqsa ravnaq topgan va davlat mafkurasi maqomiga erishgan.

Adabiyotning rivojlanishiga buddizm bilan bir qatorda daosizm ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Daosizm asoschisi sifatida Konfutsiyning zamondoshi, miloddan avvalgi VI asrda podsho Chjou saroyida xizmat qilgan Lao-Szi e'tirof etiladi. Daosizm ta'limotiga ko'ra, tabiat va inson hayoti «ilohiy samoviy qonun»ga bog'liq emas, balki narsalarning tabiiy

¹ Концевич А.В. Корейская средневековая проза в ее историческом и жанровом развитии. — М., Liena/ru: Библиотека классики художественной литературы. Литературное наследие.

² Ли Ги Бэк. История Кореи. Новая трактовка. Перевод с корейского С.О. Курбанова, — М., 2000. С. 87.

³ Литературный энциклопедический словарь. — М., 1987. — С. 187.

yo'li, qonuni — «*dao*» («put»)ga asoslanadi. Hayotning tabiiy qonunlari — «*dao*»ga rioya qilish insonga o'z tabiatini butunlikda saqlab qolish imkonini beradi. Daosizm dunyodagi hamma narsalarda qarama-qarshiliklar kurashi yotadi, ular o'zgarishda, harakatda: «bir xil narsalar ketib, boshqa xil narsalar keladi, ba'zi narsalar gullaydi, ba'zilari so'nadi», deb hisoblaydi. XII va XIII asrlarda daosizm ta'limotining dunyo va inson buyuk tabiatning tarkibiy qismlaridir, degan g'oyasi ayniqsa keng tarqaladi.

Adabiyotning rivojlanishiga konfutsiychilik ta'limoti ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Konfutsiychilik qonunlari — «*Xe gen onxe*» («Ota-onaga hurmat to'g'risida»), podshoga sodiqlik, insonparvarlik va boshqalar koreys adabiyotining eng sara namunalarining mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Xalq og'zaki ijodi, mifologiya an'analaridan foydalanish, oila-maishiy sohadagi odatlar, diniy marosimlar va rasm-rusumlarni aks ettirish, o'zining ilohiy kelib chiqishini anglab yetish, Osmon podshosini madh etish, tog'lar ruhiga sig'inish boshqa adabiyotlar singari, koreys adabiyotining ham muhim xususiyati hisoblanadi. Sanab o'tilgan aqidalar Birlashgan Silla davrida davlat ahamiyatiga molik deb e'lon qilingan. Xalq og'zaki she'riyatida ifodalangan milliy ruh koreys folklorining ilk to'plovchilaridan biri, rus yozuvchisi N.A.Garshin-Mixaylovskiyi o'ziga maftun etgan. U koreyslarni eng afsonaviy xalq deb atagan.

Yozuvchining fikricha, nainki tabiat, balki hayotga tashna koreyslarning o'zlari ham afsonaviydir: «Ularning kayfiyati bir zumda senga o'tadi: hayot ular uchun misoli bir ertak, afsona, bu yerda hamma narsa ertaknamo va afsonaviy xususiyatga ega. Tabiat ham»¹. Taniqli koreyashunos olim L.Konsevich fikriga ko'ra, «koreys adabiyoti an'anasi mifologiya asrini boshdan kechirgan, uning hikoya shakllari va janrlari ayni shu davrda kurtak otgan»².

Koreys mumtoz adabiyoti xazinasida tarixshunoslik obidalari alohida o'rin tutadi. Ularning orasida «Uch davlat haqida tarixiy yozuvlar» («Samguk sagi», 1145-yilda Kim Busik tomonidan tuzilgan), buddaviy rahnamo Iryon tomonidan XIII asrda yaratilgan «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asari («Samguk yusa»), Xedon Kosinchanning «Dengizdan sharqda joylashgan mamlakat atoqli rahnamalarining tarjimayi hollari» asari, Kaxxunning «Dengizdan sharqda joylashgan mamlakat atoqli

¹ Гарин-Михайловский Н.Г. Из дневников кругосветного путешествия (По Корее, Маньчжурии и Ляодунскому полуострову). — М., 1952. — С. 244.

² O'sha yerda. — С. 103.

rohiblarining tarjimai hollari» asari, shoir-rohiblar Tegu, Xvasan, Vixon tomonidan tuzilgan «Samdemok» *xyangalar* to'plami, Li Inno, Chxve Cha, Li Gyubo, Kim Sisip, Lim Chje, Kim Manjun, Xo Gyun va boshqa atoqli adiblarning o'lmas asarlari bor.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, XIX asr oxiriga kelib koreys adabiyoti turli lirik (*xyanga*, *sidjo* va boshq.), epik (*pxesol* – qissa, novella, *sosol* – romanlar) janrlar, shuningdek kundalik, ko'rgan-kechirganlar, safarnoma bilan boyidi. Ularda «ham hozirgi hayotga, ham o'tmishga taalluqli bo'lgan ko'p sonli material» jamlangan edi¹. Bu asarlarda biz voqelikning o'ziga xos badiiy in'ikosi bilan birga, xalq istig'foriga, uning ideallari, orzu-umidlari ifodasiga duch kelamiz. Shu bilan bir vaqtda, mazkur asarlarda podsholar madh etiladi, vatanparvarlik, fuqarolik burchi, inson sha'ni va qadr-qimmati, ajdodlar ruhiga hurmat, zo'rlik ishlatmaslik, insoniylik tuyg'ulari, Koreya davlati asoschilari, xalqning bunyodkorlik kuchi, atoqli tarixiy arboblar, cherkov xizmatchilari, millat hurmatiga sazovor zotlar tarannum qilinadi. Shu tufayli ham koreys klassik adabiyotiga butun dunyoda qiziqish kuchli.

MDH mamlakatlarida, shu jumladan Markaziy Osiyoda koreys adabiyotiga qiziqish kuchayib borayotgani Koreya bilan hamkorlik keng rivojlanayotgani, ularning bir qator oliy o'quv yurtlarida koreys tili bo'limi, koreys tilini o'rganish bo'yicha markazlar ochilgani, ayrim o'quv yurtlarida mazkur til o'quv fani sifatida kiritilgani bilan belgilanadi. Shu bilan bir vaqtda, koreys tiliga qiziqishning kuchayishi zamirida koreys adabiyotining eng sara namunalari turli tillarga, shu jumladan rus tili, turkiy tillar (o'zbek till, qoraqalpoq tili va boshq.)ga o'girilgani va nashr etilgani, ularga doir adabiyotshunoslik tadqiqotlari olib borilayotgani yotadi. Bunday nashtlar orasida Kim Busikning «Samguk sagi» («Uch davlat haqida tarixiy yozuvlar», uch jildli, tarjimonlar M.N.Pak, L.R.Konsevich, A.P.Rogachyov; M., 1995; M., 2001; M., 2002) asari, A.F.Trotsevich, M.N.Nikitina, D.D.Yeliseyev, A.Jovtis, M.V.Soldatova va boshqalarning ko'p sonli ilmiy tadqiqotlari bor. Bundan tashqari, koreys adabiyoti namunalari jamlangan quyidagi to'plamlarni ham qayd etish mumkin: «O'rta asrlar novellasi» (tarjimonlar M.N.Nikitina, A.F.Trotsevich, D.D.Yeliseyev, M., 1963), «O'rta asrlar koreys adabiyoti, pxeol: janr kelib chiqishi va rivojlanishining ba'zi bir muammolari» (muallif D.D.Yeliseyev, M., 1978), «Qordagi bambuk» (XVIII–XIX asrlar koreys

¹ Конрад Н.И. Запад и Восток. – М., 1966. – С. 17.

lirikasi, tarjimonlar L.Konsevich, M.Nikitina, A.Jovtis), «Koreyaning yangi nasri» (muallif V.I.Ivanova, M., 1987) va boshq.

Koreys adabiyotini targ'ib qilishda quyidagi to'plamlar, nashrlar va anjumanlar muhim rol o'ynadi: «Sharqiy Osiyo xalqlarining taqvimiy odatlari va marosimlari» (mas'ul muharrirlar R.Sh.Djarligasinova, M.V.Kryukov, M., 1985), «Yangi davr koreys hikoyalari saylanmasi» (tuzuvchilar A.Ni, Kim Sin, M., 2003), «Jahon lirikasi janrlari tizimida sidjo» (muallif N.Ni, M., 2007), «O'rganilayotgan til mamlakati adabiyoti (Koreya)» (tuzuvchilar V.N.Kim, U.T.Saydazimova, I.L.Pak, Toshkent, 2009), rus tilida nashr etiladigan «Koreyashunoslik Markaziy Akademiya-sining madaniy merosi», «Koreana» jurnallari, MDH mamlakatlarida, shu jumladan Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan, Lonionosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Uzoq Sharq instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Jahon tillari milliy instituti (Qozog'iston), Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston)da har yili o'tkaziladigan konferensiyalar va h.k.

Shu bilan bir vaqtda, qadimgi va kechki koreys adabiyotining badiiy xususiyatlari, adabiy janr shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, asatlarda koreys xalqining dunyoqarashi, tarixiy voqelik, ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlarida Koreya ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti o'ziga xosliklarining ifodalanishi tavsifiga bag'ishlangan, shuningdek Koreya taniqli yozuvchilari va shoirlari asarlarining matnlari koreys adabiyotining umum e'tirof etilgan davriy tasnifiga muvofiq xronologik tartibda joylashtirilgan xrestomatiyalar hozircha yetarli emas.

O'z-o'zidan ravshanki, bunday tadqiqotlarning ozligi koreys adabiyotining o'ziga xosligini, uning shak-shubhasiz noyoblighi va betakrorligini to'laqonli anglab yetishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uni o'rganish, undan dars berishda, ilmiy tadqiqotlar olib borishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar ushbu to'plamning yaratilishini, uning mazmuni va tarkibiy tuzilishini belgiladi.

Tarkibiy jihatdan to'plam kirish qismi va uch bobdan iborat. Ishning kirish qismida an'anaviy klassik adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi, klassik adabiyot namunalariga qisqacha sharh beriladi, ishning tarkibiy tuzilishi belgilanadi.

Birinchi bob «Qadimgi g'oyalarning abadiy hayoti» deb ataladi. Unda Uch podsholik va Silla davri adabiyoti (X asrga qadar bo'lgan adabiyot) to'g'risida so'z yuritiladi. Mazkur bobda qayd etilgan davr adabiyotining

xususiyatlariga tavsif beriladi, «Tangun haqida afsona», «Kvangetxo-van yodgorlik toshidagi bitik» asarlari tahlil qilinadi.

«Koryo sulolasi adabiyoti (X–XIV asrlar)» deb nomlangan ikkinchi bobda Kim Busik (1075–1151)ning «Uch podsholik haqidagi tarixiy yozuvlar» asaridan olingan matnlar – «Osmon va Oy o‘g‘li – Tonmyon-Van», «Koguryo solnomalari. Van Temusin. O‘n beshinchi yil. Shahzoda Xodon qissasi», «Ondal», «Sol xonim»; shuningdek, Kanxun, Li Inno, Chxve Cha, Li Chxun, Li Gyubo asarlari keltirilgan. Matnli materialdan oldin ularning g‘oyaviy mazmuni, badiiy va janrga oid xususiyatlari tahlil qilingan.

Choson (Li) sulolasi davri adabiyoti (XV–XIX asrlar), Son Xyon, Li Tokxyon, Kim Sisip, Kim Manchjun, Pak Chivon, Xo Gyun singari mashhur adiblar badiiy ijodining cho‘qqisi hisoblanuvchi asarlarning matnlari kitob uchinchi bobining negizini tashkil etadi.

Mazkur bobda noma‘lum mualliflarning «Sadoqatda tengi yo‘q Chxunxan haqida qissa», «Tustovuq voqeasi» singari asarlari ham keltirilgan, shuningdek ushbu davr adabiyotiga umumiy tavsif berilgan.

Ishning oxirida har bir davr asarlariga sharhlar ilova qilingan.

Ushbu to‘plamni tuzish jarayonida mualliflar taniqli koreyashunos olimlarning nomlari yuqorida zikr etilgan tadqiqotlariga, shuningdek taniqli tarixchilar Li Gi Bek, Xan Yentu, Sin Xyonsin, san‘atshunoslar O.N.Gluxaryova, A.N Kireyeva va boshqalarning asarlariga, Koreya-shunoslik Akademiyasi (Koreya Respublikasi)ning e‘lon qilgan materiallariga, shu jumladan «Madaniy meros» to‘plami (Koreya Respublikasi, 2006-yil)ga tayandilar.

Mazkur ish universallikka, tadqiq etilayotgan mavzuni to‘la-to‘kis asoslashga, albatta, da‘vogar emas. Shunga qaramay, uning mualliflari MDH mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining butun dunyoga ochiqligi sharoitlarida mazkur tadqiqot ko‘p sonli o‘quvchilarni topadi, ularga buyuk mamlakatning ulug‘ ijodkorlari tomonidan ifodalangan milliy o‘ziga xoslikni anglab yetishga yordam beradi, deb umid qiladilar.



I. QADIMGI G'OYALARNING ABADIY HAYOTI

KLASSIK KOREYS ADABIYOTI

ILK ADABIYOT. UCH PODSHOLIK VA SILLA DAVRI (X asrgacha)

X asrga qadar bo'lgan koreys adabiyoti an'anaga ko'ra «ilk», «qadimgi» adabiyot deb ataladi. Adabiy merosni o'zlashtirishda u ancha muhim o'rin egallaydi, zero, u buyuk koreys adabiyotining rivojlanishida dastlabki bosqich hisoblanadi. Adabiyot tarixi koreys xalqi va Koreya davlatining tarixidan alohida qaralishi mumkin emas. Tamiqli xitoyshunos olim V.M.Alekseyev bu xususda shunday deb yozgan edi: «Biron-bir xalqning adabiyoti haqida gapirishdan oldin uning g'oyaviy tarixi asoslarini anglab yetish, mantiqiy jihatdan uning hozirgi kunini o'tmishi bilan yaxlit bir butun qilib bog'lash zarur»¹.

Ilk koreys adabiyotining rivojlanishi u ilk milliy davrni, undan oldingi qadimgi dunyoni o'zlashtirishidan, arxaik madaniyatga, xalq og'zaki ijodi — afsonalar, ertaklarga, oilaviy-maishiy rasmlar va urf-odatlariga murojaat etishdan, xalq hayotini, uning taqdirini to'laqonli aks ettirish maqsadida ularni badiiy adabiyotga olib kirishdan boshlanadi. Ayni hol adabiyot Koreya tarixining o'ziga xos in'ikosi ekanligi bilan izohlanadi. Bu tarix, insoniyat tarixi singari, ilk milliy davrdan, paleolit davridan boshlanadi. Shu tufayli ham, Li Gi Bek ta'kidlab o'tganidek, «Koreya tarixini Qadimgi Chosonga asos solgan qirol sulolalari vujudga kelgan davrdan boshlab o'rganishga urinishning o'ziyoq ilmiy emas»².

¹ Алексеев В.М. Китайская литература. — М., 1978. — С. 21.

² Ли Ги Бэк. История Кореи: новая трактовка. Перевод с корейского под редакцией С.О.Курбанова. — М., 2001. — С. 15.

Darhaqiqat, hali qirol sulolalari paydo bo'lmisidan, bronza asri ravnaq topgan davrda (miloddan avvalgi 1000–300-yillarda) Koreya hududida «qal'a-davlatlar negizida vujudga kelgan siyosiy birlashmalar — Sungari daryosi havzasining shimoliy qismida Puyo, Amnokkan daryosining o'rta oqimida Yemek, Lyaoxe va Tedongan daryolarining havzasida Qadimgi Choson mavjud bo'lgan»¹.

Koreya davlatchiligining shakllanishiga zamin yaratgan birinchi davlat Qadimgi Choson hisoblanadi. Mifologik an'ana («Tangun haqida afsona»)ga, rohib Iryon (1206–1289) tomonidan miloddan avvalgi 2333-yilda yozilgan «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» («Samguk yusa», (1265))ga ko'ra, Qadimgi Choson davlatiga Osmon podshosi — Xvanun va ayolga aylangan ayiq o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan Tangun-Van asos solgan.

«Tonggi tozalik mamlakati» yoki «Tonggi osoyishtalik mamlakati» degan ma'noni anglatgan Qadimgi Choson Manchjuriyadan Koreya yarimoroliga qadar yastangan ulkan hududni o'z ichiga olgan, shu tufayli ham doimiy tajovuzlarga, Xitoydagi Yan davlatining bosqinchilik hujumlariga duchor bo'lgan. Podsho Vimanning sa'y-harakatlariga qaramay, 108-yilda uning hujumlariga dosh berolmay taxtdan qulagan.

U qulaganidan so'ng Qadimgi Choson hududida to'rt harbiy okrug tashkil topgan. Ammo xalqning qahramonona qarshiligi natijasida 313-yilda bu okruglar bekor qilingan. Og'ir turmush sharoitlari, xitoyliklarning doimiy bosqinchilik hujumlari Qadimgi Chosonning ma'naviy qudrati va irodasini buka olmagan, farovon hayot sari intilishiga rahna solmagan.

Xitoylarning «Xanshu» manbasida tilga olingan «Sakkiz taqiqllovchi modda to'g'risidagi qonun»ning qabul qilinishi jamiyat hayotini tartibga solishga ko'maklashgan. Afsuski, bizgacha bu sakkiz moddadan faqat uchasi yetib kelgan. Ularning mohiyati odamlarni jinoiy harakatlardan qaytarish va sodir etilgan jinoyat uchun ularni qattiq jazoga tortishdan iborat. Xususan, kimki

¹ Ли Ги Бэк. История Кореи: новая трактовка. Перевод с корейского под редакцией С.О.Курбанова. — М., 2001. — С. 50.

odam o'ldirgan bo'lsa, u o'lim jazosiga hukm qilinishi, o'g'ri qulga aylantirilishi lozim bo'lgan.

Qadimgi Choson davridan beri saqlanib kelayotgan madaniy boyliklar – sopol haykalchalar (*txou*), bronzadan yasalgan ko'psonli buyumlar, devorga, polga ishlangan rasmlar, dolmen strukturasi, rasm-rusumlar va marosimlar ilk tarixiy davrda koreys qabilalari dunyo sirlarini ilohiy tasavvurlar orqali anglab yetganlaridan darak beradi. Chunonchi, V.M.Tixonov fikriga ko'ra, «Kochang dolmeni Sharq-G'arb o'qiga qaratilgani ularning Quyoshga sig'inish bilan aloqasiga ishora qilishi mumkin»¹.

Qadimgi Choson davrida osmon ruhlariga sig'inish marosimlari, ularga qurbonlik keltirish odatlari shakllanadi, toshlarga rasm chizish rivoj topadi. Taniqli koreysshunos olim M.N.Pak «Milod boshidagi koreys qabilalari tavsifi» asarida turli xil marosimlarni tadqiq etar ekan, Koguryo asoschisi Chumonga bag'ishlangan marosimga alohida to'xtaladi².

Ibtidoiy jamoa tuzumi zavol topishi, shaharlar paydo bo'lishi, ziroatchilikning rivojlanishi, Xitoy ma'naviy qadriyatlari kirib kelishi bilan Koreyaning faol madaniy rivojlanishi boshlanadi.

Qadimgi Choson qulagunga qadar Koguryo, Pekche, Silla davlatlarining dovrug'i dunyoga tarqaladi. Ularning hukmronligi davrini *Uch podsholik davri* deb ataydilar. Bu davlatlarning paydo bo'lishi xronologiyasi Koreya tarixining yozma yodgorligi – Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» («*Samguk sagi*») asarida bayon etilgan: yarimorolning janubi-sharqida Silla (miloddan avvalgi 57-yil – milodiy 935-yil); janubi-g'arbiy qismida Pekche (miloddan avvalgi 18-yil – milodiy 660-yil), shimoli-sharqida Koguryo (miloddan avvalgi 18-yil – milodiy 668-yil). Ko'rib turganimizdek, barcha podsholiklar orasida eng qadimgisi Koguryo bo'lgan. Koguryo davlatchiligining asoslari Van Txejo (53–146) tomonidan yaratilgan. Koguryoning rivojlanishida Van Michxon (300–331) ulkan rol o'ynagan. Ammo

¹ Тихонов В.М. История Кореи. – М., 2001. – С. 52.

² Пак М.Н. Описание корейских племен начала нашей эры. В альманахе «Российское корееведение», вып. №2. – М., 2001. – С. 19.

qudratli davlat sifatida Koguryo Buyuk van Kvangetxo (391–413) va uning o'g'li Chansu (413–401) podsholigi davrida dong taratgan. Ular o'zlarining vatanparvarligi bilan shuhrat qozonganlar, Xitoyning Suy (581–612-yillar) va Tan (618–907- yillar) sulolalari bilan kurashda mardlik va matonat ko'rsatganlar, ularning ustidan g'alaba qozonganlar. Koguryoliklarning qahramonona kurashi, Salsu daryosi bo'yida sarkarda Ilchi Mundok boshchiligida bo'lgan jang Koreya davlatchiligi tarixining oltin sahifalaridan birini tashkil etadi.

Koreya davlatchiligining rivojlanishi va mustahkamlanishida Parxe davlati ham ulkan rol o'ynagan. Bu davlat asoschisi koguryolik sarkardalardan biri, Puyo shahrlilik Tedjoyen (Kovan) bo'lgan. Koguryo bilan bir qatorda Pekche davlati ham ravnaq topadi, uning shuhrati Kinchxogo (346–375) podsholik qilgan davrda ayniqsa keng tarqaladi. Bu davrda Pekche «hozirgi Janubiy va Shimoliy Cholla provinsiyalari hududini hamda Chechjudo orolidagi Txamna mulkini to'liq egallaydi, Sariq dengiz qirg'og'ida – Shandun yarimorolida o'z hokimiyatini o'rnatadi»¹. Olim Koxin tomonidan Pekche tarixi – «Sogi»ning yaratilishi muhim madaniy voqeaga aylanadi. Pekche madaniyatining rivoj topishiga dengizda kema qatnovining yo'lga qo'yilishi imkoniyat yaratadi. Natijada Yaponiya bilan dengiz orqali savdo-sotiq munosabatlari o'rnatiladi. Pekchelik Achjikki va Vanin yaponlarga xitoy yozuvi va konfutsiychilik aqidalarini birinchi bo'lib o'rgatganlari ma'lum. Budda haykallari keng tarqaladi. VI asrda Koguryo va Pekcheda raqib – Silla davlati paydo bo'ladi. U Van Poxin (514–540) hukmronligi davrida qadimgi monarxiyaga aylanadi. Sillaning jadal sur'atlarda rivojlanishiga, shu jumladan, «Xvaran» («Sara yoshlar») tashkiloti olib borgan faoliyat zamin yaratadi. Davlatga, podshoga sadoqat, ajdodlar ruhi va ota-onaga hurmat singari konfutsiychilik aqidalari bu yerda qonun darajasiga ko'tariladi. 668-yilda Silla Koguryo va Pekcheni o'ziga bo'ysundiradi. Mamlakatlarning birlashishi Koreya davlatchiligini mustahkamlash, Xitoyning Tan imperiyasi bilan sulh bitimi tuzish ishida ulkan ahamiyat

¹ Син Хёнсик. История Кореи. – М., 2008. – С. 31.

kasb etadi. Bu Van Sondok (702–736) podsholigi davrida yuz beradi. U va Xitoy imperatori Syan Szun (712–736) o'rtasida Sillani birlashtirgan zot Van Munmu (661–681) kuchli hokimiyat o'rnatadi, xitoy sulolalari bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yadi. Ammo chek yerlar tizimining kengayishi, jamiyatda mulkiy tabaqalanishning kuchayishi, xalqning qashshoqlashishi noroziliklar va g'alayonlarga sabab bo'ladi. Boz ustiga, XIII asrning oxiriga kelib hukmronlik uchun ichki siyosiy kurash kuchayadi. Kurash jarayonida qon-qarindoshlikka asoslangan tabaqaviy guruhlar tizimi («*Kolpxum*») bekor qilinadi. Bularning barchasi Silla davlatining parchalanishiga va ikki davlat — Xubakche (keyinchalik Pekche) va Txeban (keyinchalik Koguryo) tashkil topishiga olib keladi. Kechki Pekche davlati tashkil topgani haqida Sanjudagi zodagonlar oilasining vakili Kyonxvon e'lon qiladi. U Vansan hududidagi Chonju shahrini poytaxt sifatida tanlaydi va Sillaning ashaddiy dushmaniga aylanadi. Sillaning dushmanlari orasida Silla qirol oilasining vakili Kunyo ham bor edi. O'zini Txeban (kechki Koguryo) hukmdori, «bo'lg'usi Budda» deb e'lon qilgan bu zot o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turar edi. Ayni shu sababli uni o'z yordamchilaridan biri taxtdan ag'daradi. Kunyo-ning o'rniga taxtga Van Gon o'tiradi. U Xukoguryo (kechki Koguryo)ni Koryo deb o'zgartiradi va keyinchalik «Koreya» nomi kelib chiqadi. Van Gon kechki Uch podsholikka yakun yasaydi, Koryo sulolasining hukmronlik davrini boshlab beradi.

Uch podsholik va Silla davrida Koreya xalqining mashaqqatli hayoti madaniyatda, adabiyotda o'z aksini topadi. Shu davrda o'z taqdiridan va hukmron tabaqalardan nolib aytilgan qo'shiqlar — *kudjiga* keng tarqaladi. Keyinchalik u yangi janr — *xyangada* rivoj topadi. Qirol Chinson (887–897) davrida «Samdemok» deb atalgan xyangalar to'plami rohib-shoirlar Tegu Xvasin va Vixon tomonidan tuziladi. Yirik adib Kansu diplomatik hujjatlarni tuzuvchi sifatida dovruq qozonadi. *Xyanga* ustalari orasida Tigo, Volmyon, Chxundem singari adiblar ham bor edi. Afsuski, ularning asarlari bizgacha yetib kelmagan.

IX asr o'rtalarida *xanmundagi* she'riyat rivojlanadi. Bu yo'nalishning yorqin vakili Chxve Chxi Von hisoblanadi. U o'zining ijodiy faoliyati mobaynida 30 dan ortiq she'riy to'plamlarni yaratadi. Adabiyotning rivojlanishiga Sunn adabiyoti va musiqasi kuchli ta'sir ko'rsatadi, qo'shiq she'riyatining yangi uslubi — Kyongichxega («Poytaxt uslubi») yaratiladi, konfutsiychi olim An Chxun (1283–1348)ning «Kvandon pyolgou» («Kvandon ohanglari») asari dovuq qozonadi. Oddiy xalq qo'shig'i *changa* («uzun qo'shiqlar»), xususan, «Sogyon pelgok» («Sogyon ohanglari»), «Chxonsip pelgok» («Chxonsip ohanglari») keng tarqaladi. She'riyat bilan bir qatorda, nasr ham rivojlanadi. D.D.Yeliseyev ta'kidlab o'tganidek, «koreys adabiyoti tarixida *«kode sorxva»*, ya'ni qadimgi hikoyat birinchi nasriy janr hisoblanadi»¹.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, ushbu davr adabiyotining g'oyaviy-estetik mazmuni hayot voqeligi — ijtimoiy-siyosiy hayotdagi qirol sulolalarining hukmronligi, buyuk shaxslar faoliyati bilan bog'liq muhim voqealar bilangina emas, balki xalq og'zaki ijodi, mifologiya an'analari — davlatchilik asoschilarini madh etish, Vatan himoyachilari sha'niga hamd-u sanolar aytish, Osmon podshosiga sig'inish, shuningdek konfutsiychilik va buddizm g'oyalarini ifodalash bilan ham belgilanadi.

Davlatni yaratish va mustahkamlash muhimligi va zarurligini tushunish, ichki nifoqlar yaxshilikka olib kelmasligini, o'zaro madadkorlikning muhimligini anglash o'sha davr adabiyotining leytmotivi hisoblanadi. Mazkur leytmotivning rivojlanishiga tarixiy asarlar, xususan, Koxinning «Vatan tarixi» («Kuksa»), «O'tgan kunlar haqida yozuvlar» («Yugi»), «Tarixiy yozuvlar» («Sogi») asarlari ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu o'rinda Iryon (1206–1289) tomonidan yozilgan «Samguk yusa» (1285) tarixiy yodgorligida bayon etilgan «Tangun haqida afsona» alohida diqqatga sazovor. Mazkur afsona ham tarixiy tadqiqotlar, ham adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar doirasida o'rganiladi.

¹ Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья.— М.,1997. — С. 15.

Bu asarning qiziqarli va ancha mufassal tahlili A.F.Trotsevich tomonidan amalga oshirilgan¹. Muallifning «koreys mifologik an'anasi» birinchi o'ringa raqib bilan kurashish va uni tor-mo keltirish g'oyasini emas, balki ikki qarama-qarshi asos tashuvchilarining uyg'un birikishi va natijada davlat bunyodkori bo'lgar qahramonning paydo bo'lishini chiqaradi, degan fikriga² qo'shilish mumkin. Tangun — Osmon podshosining elchisi, birinchi koreys davlati — Chosonga asos solgan afsonaviy qahramon. Qahramonning tug'ilishi, uning faoliyati koinot bilan uyg'unlik timsol hisoblanadi, uning o'zi esa «Tonggi tozalik mamlakati» aholisining birinchi ajdodi, xalq otasi, tog'larning abadiy ruhi sifatida maydonga chiqadi.

Tarixiy voqealikning xayoliy dunyo, xalq og'zaki ijodi an'analar bilan o'zaro nisbati biografik adabiyotning qadimda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan turlaridan biri — toshlarga o'yit yozilgan rasmiy bitiklarda ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi³. Mazkur adabiy janr zahirida xalq odati — varraklarga yozuvlarni qayq etish yotadi. Ushbu odat Quyoshga sig'inishning tarkibiy element sifatida idrok etiladi. Varrakka yozuvlar bitish orqali odamlar Osmondan yaxshilik so'rganlar. Toshlarga rasmiy bitiklarni o'yit yozish an'anasi, shuningdek koreyslarda keng tarqalgan uy eshigiga yozuvlar bitish an'anasi bilan ham bog'lanadi. R.Sh.Djarligasinov bu haqda shunday deb yozadi: «Mazkur bitiklar oilaning eng katta a'zosi tomonidan yozilgan. Yirik ko'rkam iyerogliflar tilsiml (magik) ma'no kasb etgan, yaxshilik timsoli hisoblangan va oilaga ravnaq keltirishi lozim bo'lgan»⁴. Mazkur bitiklarning tilsiml ma'nosi to'g'risida aka-uka Xinbu va Nolbu haqidagi qissada ham aytib o'tilgan.

¹ Троцевич А. Ф. История корейской традиционной литературы до XX века. — Изд-во С.-Петербургского ун-та, 2003. — С. 15.

² O'sha yerda.

³ Ким В.Н., Сайдазимова У.Т., Пак И.Л. Литература страны изучаемого языка (Корея). Учебное пособие. — Ташкент, 2003. — С. 23.

⁴ Календарные обычаи и обряды народов Восточной Азии. Ответ.ред Р.Ш.Джарлыгасинова, М.В.Крюков. — М., 1985. — С. 98.

«Kvangetxo-van qabrtoshidagi bitik» (414) biografik adabiyotning eng oliy namunasi hisoblanadi. Bu qabrtosh qirol Xotxe stelasi deb ham ataladi. U afsonaviy shaxs, buyuk siyosiy arbob, Koguryo imperiyasi asoschisi Kvangetxo (391–419)ga bag'ishlangan. Bitik Kvangetxoning o'rnak bo'ladigan hayoti, uning qahramonliklari, mardligi, Koreya davlatchiligining qudratini saqlash uchun kurashda ko'rsatgan matonati haqida hikoya qiladi. Uning podsholigi davrida 64 shahar-qal'a, 1400 qishloq bosib olingan, Manchjuriyada hukmronlik o'rnatilgan. Kvangetxoning o'g'li Chansu (413–491) uning munosib vorisi bo'lgan. U o'z otasining sharafiga qabrtoshi o'rnatgan, uning shonli yo'lidan ibrat olib yashagan.

Bitik zamirida Osmon podshosining o'g'li – Chxumon haqidagi afsona yotadi. Osmon podshosi bilan Daryo Ilohining qizidan tug'ilgan tuxum yorilib, uning ichidan Chxumo-van chiqadi. Chxumon yerga tushadi va tog' cho'qqisida qudratli shahar – qal'a barpo etadi. Shonli ishni ado etgach, u Sariq Ajdar yordamida osmon-u falakka chiqib ketadi. Uning shonli yo'lidan katta o'g'li Yure – Techuryu avlodi ham boradi. Undan keyin Chxumo-vanning ajdodi – Kukkansan, Kvangetxongen – Xotxe-van davri keladi. U o'n sakkiz yoshida taxtga o'tiradi, harbiy sohada misli ko'rilmagan jasoratlar sodir etib, mamlakat sarhadini kengaytirishga muvaffaq bo'ladi. Dovyurak vanning dovrug'i «To'rt dengiz sarhadlarigacha yetib boradi va dushmanlarni dahshatga soladi. Mamlakat gullab-yashnaydi. Xalq farovon hayot kechiradi». Xotxe-van 39 yoshga to'lganda Osmon charxpalagi mamlakatni tark etadi. Van maqbaraga dafn etiladi va bu yerga qabrtoshi o'rnatiladi. Mazkur qabrtoshiga «uning xizmatlari tavsifi va avlodlarga nasihati» o'yib yoziladi. Bitikning asosiy mazmuni ana shundan iborat. Uning g'oyaviy mazmuni dunyoviy hayot to'laligicha ilohiy kuch tomonidan belgilab qo'yilishidan darak beradi. Biroq, ayni vaqtda, qahramonga xalq, davlat manfaatlarida ezgu ishlar qilish imkoniyati beriladi. Oliy maqsad uning ezgu ishlarini osmonlarga qadar yuksaltiradi. Bitikning o'ziga xos xususiyati shundaki, afsonaviy tafsilotlar, ertaknamo obrazlar (sadoqat, uzoq umr ko'rish va farovonlik timsoli sanalgan

Toshbaqalar, Osmon timsoli hisoblangan Sariq Ajdar) bitik mazmuniga davlat asoschisining oliy maqsad sari qaratilgan tashrifiga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytirish, Osmon elchisini sharaflash uchun kiritilgan. Qabrtoshidagi bitikning o'zi podshoga sadoqat, o'z ajdodlari yo'lidan og'ishmay borishni amr etuvchi konfutsiychilik aqidalari ruhi bilan sug'orilgan. Sehrli yordamchilar – Sariq Ajdar, toshbaqalar obrazlarini hayot voqe-
ligi – shaharlarning nomlari (Shimoliy Puyo), tarixiy shaxslar (Chxumo-van, Kvangetxo, Yure) bilan bog'lash Uch podsholik davridagi Koreya ijtimoiy-siyosiy hayoti, sulolalarning almashuvi, qirol hokimiyatini vorislik qoidasiga muvofiq topshirishga hukmron tabaqalarning ijobiy munosabati haqidagi tasavvurlarni kuchaytiradi.

Shunday qilib, ilk adabiyot, Uch podsholik davri adabiyoti Koreya davlatchiligini harpo etish va mustahkamlash uchun kurash bilan bog'liq voqealarga javoban, ularni tavsiflash uchun yaratilgan, odamlarda yarimorolning keyingi tarixiy yo'lini belgilagan vatanparvarlik, grajdanlik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qilgan.



1. Afsona va rivoyatlar

TANGUN HAQIDA AFSONA

Qadimgi solnomalarda shunday deyilgan: bir zamonlar Xvanin (Osmon Podshosi Indrani shunday deb atashgan)ning o'g'li Xvanun bo'lgan ekan. Xvanun odamlar orasida yashamoqchi bo'libdi va ko'p marta yerga tushishni mo'ljallabdi. Xvanin o'g'lining niyatidan xabar topibdi va Xvanun odamlarga ko'p foyda keltiradi, degan qarorga kelibdi. U yerda uch cho'qqidan iborat Txebek degan baland tog'ni tanlabdi, o'g'liga Osmonning uch muhrini topshiribdi va uni odamlarni boshqarish uchun yuboribdi.

Xvanun o'zining uch ming kishilik lashkari bilan birga Txebekning eng baland cho'qqisiga — ruhlarga qurbonlik keltiriladigan muqaddas daraxt joylashgan yerga tushibdi. Shundan beri bu joyni Ruhlar maskani deb, Xvanunni esa Osmon Podshosi deb atashadi.

Xvanun Shamol, Yomg'ir va Bulutlarning ruhlariga o'z hukmini o'tkazar, har qanday boshqoli o'simlikka unish muddatlarini ko'rsatar, odamlarning taqdirini belgilar, kasalliklarni davolar, jazo tayinlar, yaxshilikni yomonlikdan farqlashni o'rgatar ekan. Xullas, u yilning uch yuz-u oltmish kунidan har birining ishlarini boshqarar, odamlarga bu dunyoda to'g'ri yo'l ko'rsatar ekan.

O'sha zamonda bir g'orda ayiq va yo'lbars yashagan ekan. Ular o'zlarini odamlarga aylantirishni so'rab Xvanunga ko'p marta yolvorishgan ekan. Shunda Xvanun ularga bittadan shuvoq poyasini va yigirmatadan sarimsoq boshini beribdi va ularni yeb, yuz kun Quyoshga ko'rinmaslikni buyuribdi. Biroq yo'lbars

sinovga dosh berolmabdi va odamga aylana olmabdi. Ayiq esa yuz kundan keyin ayolga aylanibdi.

U uzoq yillar ersiz yashabdi. U muqaddas daraxt oldiga kelar va ruhlardan o'ziga farzand ato etishni so'rar ekan. Shunda Xvanun odamga aylanib kelibdi va unga uylanibdi. Ular o'g'il ko'rishibdi va uning ismini Tangun qo'yishibdi.

Xitoy podshosi Yao hukmronligining elliginchi yili, Yo'lbars yilida Tangun Pxenyan qal'asida poytaxtga asos solibdi, mamlatni esa Choson deb nomlabdi. Keyinchalik u poytaxtni Pegaksan tog'i yaqinida joylashgan Asadal shahriga ko'chiribdi va mamlatga bir yarim ming yil podsholik qilibdi.

Quyong yili taxtga o'tirgan chjoulik Xuvan Choson mamlakatidagi yerlarni Szi-sziga hadya etibdi.

Tangun poytaxtni Chandangyonga ko'chiribdi va Asadalga qaytib kelibdi, so'ng odamlar dunyosini tark etib, Tog' ruhiga aylanibdi. O'sha paytda u bir ming to'qqiz yuz sakkiz yoshda bo'lgan ekan.

«PAK HYOKOSSE HAQIDA AFSONA»

Yangi yil hisobi bo'yicha birinchi yil (miloddan avvalgi 69-yil)ning 1-martida Chinxanda olti qishloq ajdodlari o'z o'g'illari bilan birga Alchxon tepaligida to'planishibdi. «Biz xalqni boshqara olmaymiz, shu bois podshosiz xalq o'zini o'zi boshqarib yashayapti. Yuksak fazilatli odamni topishimiz va uni o'zimizga podsho qilib tayinlashimiz, mamlakatni tashkil etishimiz va poytaxtni belgilashimiz kerak».

Ajdodlar baland joyga chiqishibdi va o'z nigohlarini janub tomonga qaratishibdi. Yangsan yaqinidagi Nadjonda quduq oldida yerga osmondan tushgan g'alati bir modda chaqmoq nuri yanglig' yaltirab turgan ekan. Bir to'riq ot shu joyga kelib yerga bo'y cho'zibdi. Bu yerda qirmizi rang tuxum (Quyosh ruhining osmondan tushgan avlodi) turgan ekan. Ot bu yerda odamni ko'rib, uzoq kishnabdi va osmon-u falakka ko'tarilibdi. Yorilgan tuxumdan bir o'g'il bola chiqibdi. U orasta va xushsurat ekan. Hamma hayron bo'lib qolibdi. Bolani Tongchxon bulog'ida

cho'miltirishgach, uning tanasidan atrofga nur tarala boshlabdi. Qushlar va hayvonlar uning ortidan kuzatar va raqs tushar ekan. Shu vaqt Osmon va Yer larzaga kelibdi, Quyosh va Oy esa yanada yorishibdi. Ayni shu sababli bolani qirol Xyokkose deb nomlashibdi, unga Kosilxon (Silla qabilasining qirol, podshosi) unvonini berishibdi. Odamlar bir-birlarini tabriklashibdi va: «Endi Osmon O'g'li yerga tushdi, qoidaga ko'ra biz unga yaxshi xotin topishimiz va ularni qovushtirishimiz kerak», deyishibdi.

Shu kuni Saryangrida joylashgan Alyongchxonda Keryong (boshi va oyoqlari tovuqnikiga o'xshaydigan ajdar) paydo bo'libdi va uning chap qovurg'asidan jajji bir qizaloq tug'ilibdi. U juda chiroyli, og'izchasi esa tovuqning tumshug'ini eslatar ekan. Qizaloqni Volsong shimolidagi buloq suvida cho'miltirishgan ekan, tovuq tumshug'i uzillib tushibdi (bu marosim qizlarning voyaga yetgani, Alyong (qirol xotini) tug'ilganini anglatadi). Shu sababli o'sha daryoni Palchxon deb nomlashibdi.

Namsan ostonasida janub tomonda ko'shklar barpo etishibdi va shu yerda ikki avliyo bola (Xyokkose va Alyong)ni o'stira boshlashibdi. O'g'il bola tuxumdan chiqqan ekan, bu tuxum oshqovoq ko'rinishida bo'lgani bois (odamlar oshqovoqni «pak» deb atashiarkan), uning nasabini Pak deya nomlashibdi. Qiz bolaga nasabni u chiqqan quduq sha'niga berishibdi. Bolalar 13 yoshga to'lgani zahoti o'g'il bola qirol, qiz bola esa — qirolichaga aylanibdi. Davlatni Sorabol yoki Sobol, keyinchalik esa Sara va Saro deb nomlashibdi. Podsho Kechjongda paydo bo'lgani bois bu joyni Kerimguk deb atay boshlashibdi.

Aytishlaricha, qirol Txalxe zamonida, Kim Alchjini qabul qilishganida, o'rmonda xo'roz qichqirgan ekan, shu bois mamlakatning nomini Kerim deb o'zgartirishibdi, keyinchalik esa unga boshqa nom berishibdi — Silla deb atay boshlashibdi. Mamlakat taxtiga o'tirganidan so'ng oradan 61 yil o'tgach podsho Osmonga ravona bo'libdi, uning kulini esa yerga sepishibdi. Qirolning ketidan qirolicha ham vafot etibdi. Odamlar ularni dafn etayotib katta ilon ichkariga kira olmasligi uchun qirolning besh maqbarasini qurishibdi. Uning har bir qismida qurbonlik keltirish marosimini o'tkazishibdi. Bu joy Saring deb ataladi,

Tamomsa orqasida esa qirol qabri joylashgan. Taxt shahzoda Nam Xevangga meros bo'lib o'tibdi.

«QIROL KIM SURO HAQIDA AFSONA»

Dunyo yaratilganidan so'ng hali mamlakat nomi bo'lmagan va sodiq fuqarolar lavozimlarining nomlari mavjud bo'lmagan davr kelgan ekan. Faqat 9 kan mavjud bo'lgan ekan: Adogan, Yodogan, Pxidogan, Odogan, Yusugan, Yuchxongan, Sinch-xongan, Rchxongan, Chinkvigan. Bular xalqni boshqargan qabila oqsoqollari ekan. Mamlakat aholisi jami 75000 kishi ekan. Ularning har biri o'ziga turarjoy qurgan, quduqlar qazigan, bu quduqlardan ular suv ichar va dalada ishlar ekan.

Sillaning uchinchi podshosi olijanob Kvang Muchje taxtga 19-yil (milodiy 42-yil)ning 3-martida o'tiribdi. O'sha joyning shimolida Kuchjidan g'alati bir ovoz eshilibdi. 200—300 kishidan iborat olomon Kuchjibongga yig'ilibdi. Ovoz berayotgan jonzoatning soxt-sumbati ko'rinmas, faqat tovushi eshitar ekan.

Ovoz so'rabdi:

— Bu yerda odamlar bormi?

To'qqiz kan javob beribdi:

— Ha, bor.

Ovoz yana so'rabdi:

— Men qayerdaman?

Ular javob berishibdi:

— Kuchjibongda.

Ovoz yana gapiribdi:

— Xudo menga bu yerga tushishni, yangi mamlakatni ochishni va unga podsholik qilishni buyurdi. Shu bois men bu yerdaman. Sizlar esa tog' cho'qqisidagi yerni kavlayotib albatta qo'shiq kuylashingiz kerak:

*«Toshbaqa, toshbaqa,
Boshingni ko'rsat.
Agar ko'rsatmasang,
Seni pishirib yeyman».*

Shu qo'shiqni aytinglar va raqs tushinglar. O'z podsholaringni quvunch bilan kutib olinglar.

To'qqiz kan xursand bo'lishibdi va qo'shiq aytib, raqs tusha boshlashibdi. Ular qo'shiq aytib raqs tusha boshlaganlaridan so'ng oradan ma'lum vaqt o'tgach, kanlar boshlarini ko'tarishibdi va tepaga qarashibdi. Osmondan yerga to'q qizil rangli arqon tushibdi. Arqon uchidagi qizil «po»da qizil quticha osilib turar ekan. Ular qutini ochishibdi va uning ichida quyosh yanglig' nur sochiayotgan oltita yumaloq tilla tuxumni ko'rishibdi. Odamlar hayratga tushishibdi va xursand bo'lishibdi. Ular ta'zim qilishibdi va tuxumlarni o'rab Adoganning uyiga olib borishibdi. Bu yerda ular tuxumlarni txapsangga qo'yishibdi. Ikkinchi kuni ertalab olomon yana yig'ilibdi va qutini ochibdi. Odamlar olti tuxum o'g'il bolalarga aylanganini ko'rishibdi. Ularning qiyofasi hech kimnikiga o'xshamas ekan. Olomon ularni o'tqizib hurmat bilan ta'zim bajo keltiribdi. O'g'il bolalar kun sayin emas, balki soat sayin o'sishibdi. Oradan o'n kuncha vaqt o'tibdi. Ularning bo'yi 9 *chxok* ekan – xuddi In davlatining podshosi Song Txangniki singari. Ularning yuzlari ajdarnikiga o'xshar ekan – xuddi Xan davlatining podshosi Kochjoniki singari. Ularning qoshlari to'qqiz rangda tovlanar ekan – xuddi Tan davlatining podshosi Yochjeniki singari. Ko'zlarining qo'sh qorachiq-lari esa U davlatining podshosi Sunchjenikiga o'xshar ekan. Keyingi oyning o'n beshinchi kuni (Porim)daular taxtga o'tirishibdi. Birinchi tug'ilgan bolaga Suro deb ism qo'yishibdi. Uni yana Suring deb ham atashar ekan (o'limidan keyingi ismi). Mamlakatni Tekarak deb, keyinchalik esa Kayaguk deb (olti Kaya qabilasidan biri) nomlashibdi. Qolgan besh bola besh Kaya qabilalarining podsholari sifatida taxtga o'tirishibdi. Ular sharqda Xvangsanggang bilan, janubi-g'arbda Changxe bilan, shimoli-g'arbda Chirisan bilan, shimoli-sharqda Kayasan bilan chegaradosh, janubda esa mamlakatimizning etak qismi – Kaya hududi joylashgan ekan. Podsho muvaqqat saroy barpo etibdi va shu yerda yashay boshlabdi. Saroy sodda va sipo ekan, uning tomiga to'shalgan poxol qirqilmagan, sopol zinaning balandligi esa uch *chadan* oshmas ekan.

Podsho Suro taxtga 2-yil (milodiy 43-yil)ning martida o'tiribdi va poytaxtga asos solish zarurligini aytib, Sindappxyonga yo'l

olibdi. To'rt tomonga nazar tashlab, podsho o'z fuqarolariga o'girilibdi va shunday debdi:

«Bu joy suvqalampir donasidek ingichka ekan. Biroq shu yerda tanda qurish mumkin. Boz ustiga bittadan uchtani yaratish mumkin, uch yerdan yetti yerni yaratgan Chilsongni bizga qo'shib oling. Poydevor qursak va yerni o'zlashtirsak, natijada biz buyuk davlatga aylanishimiz mumkin».

Omborlar, aslahaxonalar, turli provinsiyalarning ma'muriy binolari va saroy qurish uchun 1500 *poga* teng bo'lgan maydonni belgilagach, ular saroyga qaytib kelishibdi. Shu oyning 20-chi kuni (12-yilning marti deb ko'rsatilgan) ishchilar va hunarmandlarni yollab, ular Kimyangda qal'a devorini qurishga kirishishibdi va uni 10-martda yakunlashibdi. Qirol saroyini qurish qishloq xo'jalik ishlaridan bo'sh vaqtda amalga oshirilibdi. Qurilish ishlari shu yilning oktabrida boshlanib, kelgusi yilda, ya'ni 3-yil (milodiy 44-yil)ning fevralida yakunlanibdi.

Podsho yaxshi kunni aniqlab, yangi saroyga yo'l olibdi. Bu yerda u o'zining bor kuchini mamlakat siyosiy ishlarini yuritishga bag'ishlabdi.

Vanxaguk mamlakatining podshosi Xamdalning xotini tuqqan tuxumdan chiqqan Txalxe Karak davlatiga kelibdi. Uning bo'yi 3 *chja*, boshining aylanasi esa 1 *chja* ekan. Txalxe podsho Suro saroyiga moneliqsiz kirib boribdi va unga:

— Men sening joyingni tortib olish uchun keldim, — debdi.

Podsho unga shunday deb javob beribdi:

— Osmon menga taxtga o'tirishni, mamlakatni tinch boshqarishni va xalqqa farovon hayot berishni buyurgan. Men qanday qilib Osmonning gapini ikki qila olaman? Senga taxtni bera olmayman, mamlakatimiz xalqini boshqarishni ham senga ishonib topshira olmayman.

Shunda Txalxe taklif qilibdi:

— U holda, kel, kimning qobiliyatlari kuchli ekanini sinab ko'ramiz.

— Yaxshi, — deb javob beribdi qirol.

Txalxe shu zahoti lochinga aylanibdi. Podsho Suro bunga javoban burgutga evrilibdi. Txalxe chumchuqqa aylangan ekan,

podsho Suro qirg'iyga aylanibdi. Ko'p o'tmay Txalxe o'zining asl qiyofasiga kiribdi. Oxir-oqibat Txalxe taqdirga tan beribdi:

— Sen tirik jonzotlarni o'ldirishga qarshi bo'lganing uchun ham men tirik qolgamimni tushundim. Sen bilan taxt uchun raqobatlashish oson ish emas.

Shu so'zlarni aytib u ta'zim bajo qilibdi va chiqib ketibdi. Txalxe dengiz orqali, Xitoydan kelgan kemalarda qochishni mo'ljallabdi. Qirol manzilga yetganidan keyin Txalxe isyon ko'tarishi mumkinligidan qo'rqibdi va uni ta'qib qilish uchun darhol 5 kemadan iborat flotni yuboribdi. Biroq Txalxe qochib ketibdi va Silla yerlarida g'oyib bo'libdi, flot esa orqaga qaytib kelibdi.

Suro podshosining 7-yil (milodiy 48-yil) 27-iyulidagi hukmronligi.

To'qqiz kan qirol huzuriga maslahatli ish bilan tashrif buyurishibdi:

— Bizga Osmondan kelgan Podsho hali-hanuz o'z jufti halolini topgani yo'q. Ruhlarning ixtiyoridagi eng go'zal qizni tanlang va unga uylaning.

Podsho ularga shunday deb javob beribdi:

— Yerga tushgan bo'lsam, bu mening qismatim. Sira tashvish chekmang, Osmon amrlaridan biri — mening uylanishim.

Nihoyat, u Yuchxonganga Myongsandoda oddiy kema va otni tayyorlab o'zini kutishni buyuribdi, Sinkviganga esa Singchjomga borish va o'sha yerda turishni amr etibdi.

Dengizning janubi-g'arbiy tomonida Karak davlati qarshisida birdan qizil yelkanli kema paydo bo'libdi. Kemada alvon bayroq hilpirar ekan. Songsandoda kutib turgan Yuchxongan mash'alni birinchi bo'lib ko'taribdi.

Kema shitob bilan olg'a suzib ketibdi va qirg'oqqa kelib langar tashlabdi. Singchjomda turgan Sinkvigan bu manzarani ko'rib saroyga kelibdi va bu haqda qirolga xabar qilibdi. Podsho behad xursand bo'libdi va to'qqiz kan kemasini kutib olgani jo'nabdi. 9 kan bo'lg'usi qirolichani saroyga kuzatib bormoqchi bo'lishgan ekan, u shunday debdi: «Mening sizlar bilan ishonchli munosabatlarim yo'q, nima uchun men sizlar bilan birga borishim kerak?».

Yuchxongan va boshqalar qaytib kelishibdi va uning soʻzlarini qiroлга yetkazishibdi. Qirol boʻlgʻusi qirolichaning soʻzlarini toʻgʻri deb topibdi va mulozimlarni oʻz ortidan ergashtirib togʻ oldi hududi boʻylab janubi-gʻarbiy tomonga taxminan 60 *po* masofa yoʻl yuribdi, shu yerga chodir quribdi va qirolichani kuta boshlabdi. Qirolicha kemani tark etib quruqlikka tushibdi. Togʻ tepasida dam olayotib u ipak yubkasini yechibdi va uni Togʻ ruhlariga tuhfa qilibdi. Qirolichani ikki soqchi qoʻriqlar ekan. Ularning ismi Sinbo va Chjogvan, xotinlarining ismi esa Mochjong va Moryang ekan. Qirolichani yigirmaga yaqin qullar kuzatib borishayotgan ekan. Shuningdek, qirolicha oʻzi bilan birga ajoyib ipak matolar, kiyim-kechak, tilla taqinchoqlar, chigʻanoqdan yasalgan buyumlar va ayollarning boshqa ashyolarini olib kelayotgan ekan. Ular asta-sekin yurib Xengchjesoga (qirol safarga chiqqanida toʻxtaydigan joyga) kelishibdi. Podsho oʻzining boʻlgʻusi rafiqasini kutib olgani chiqibdi. Uchrashuvdan soʻng u mulozimlarga Buddani qirolichani qoʻriqlayotgan ikki askarga topshirishni, har biriga alohida xona ajratishni, xizmatkorlarni esa xonalarga besh-olti kishidan joylashtirishni, shirin ichimliklar berishni va yaxshi toʻshak tayyorlashni, oʻzlari bilan birga olib kelgan kiyim-kechak, gazlama va qimmatbaho taqinchoqlarni kambagʻallarga boʻlib berishni buyuribdi.

Qirolicha chodirga kirib, podshoga mayin ovozda shunday debdi:

— Men Ayutxa (Hindiston) davlatining malikasiman. Mening nasabim Xo, ismim esa Xvang Ok. Yoshim oʻn oltida. Hali oʻz yurtimda yashayotganimda bir kuni ota-onam menga shunday deyishdi: «Biz, sening padari buzrukvoring va volidang, kecha tunda Tangrini tush koʻrdik. Uning aytishicha, Karak davlatining podshosi Osmon elchi qilib yuborgan avliyo odam ekan. Yerga kelganidan soʻng u haligacha uylanmabdi. Shu bois biz unga albatta malikani yuborishimiz kerak ekan. Bizga shuni buyurgach, Tangri Osmonga chiqib ketdi. Uygʻonganimizdan beri uning soʻzlari qulogʻimizda jaranglayapti. Shu bois biz senga darhol bizni tark etishni va oʻsha joyga yoʻl olishni buyuramiz». Shu tariqa, men dengiz boʻylab suzib, olis Chjingchjoga, soʻng esa Pandoga yetib, endi Qirol qarshisida turibman.

Qirol shunday javob beribdi:

— Men oldinga malika uzoqdan kelishini tugʻilgan paytimdan beri bilar edim. Fuqarolar menga uylanishni nasihat qilishgan boʻlishsa-da, men ularning gapiga quloq solmadim. Endi men baxtliman, chunki Siz oʻzingiz meni qidirib keldingiz.

Oradan ikki tun va bir kun oʻtibdi. Qirolicha oʻzini bu yerga olib kelgan kemani vataniga, Ayutxa davlatiga qaytarib yuborishga qaror qilibdi. Kemadagi 15 kishiga oʻn *sokdan* guruch, oʻttiz oʻramdan gazlama tarqatishibdi va yurtiga joʻnatishibdi.

1-avgustda qirol aravasi saroyga qayta boshlabdi. Qirol qirolicha bilan birga aravada, qirolichani qoʻriqlayotgan xizmatkorlar esa arava yonida borishibdi. Qirolicha keltirgan qimmatbaho buyumlarning barchasi aravaga yuklanibdi va saroyga keltirilibdi. Kun choshgohga yaqinlashgan ekan. Qirolicha Chung saroyida yashashga qaror qilibdi. Qirolichani qoʻriqlayotgan xizmatkorlarga keng va yorugʻ uylarni berishibdi, qolgan yigirma qulni esa uylarga bir necha kishidan joylashtirishibdi. Ularga har kuni anvoyi taomlar berib boqishibdi. Qirolicha keltirgan noyob buyumlar xazinaga joylashtirilibdi.

Bir kuni qirol oʻz mulozimlariga shunday debdi: «Siz, toʻqqiz kan, barcha amaldorlarning boshliqlari, hali-hanuz xizmat mavqeyi va lavozimlarga ega emassiz. Bu yaxshi ish emas. Maʼrifatli ajnabiylar buni eshitishsa, ustimizdan kulishlari tayin».

Pirovardida Ado Agung deb, Yodo Yoxe deb, Pxido Pxichjang deb, Odo Osang deb oʻzgartirilibdi, Yusu va Yuchon nomlarida esa ustki harflar qoldirilibdi, faqat pastki harflar oʻzgartirilibdi. Sinchon Sindo deb, Ochon Oning deb oʻzgartirilibdi, Sinkvi nomida tovushlar qoldirilibdi, faqat iyeroglif sharhi oʻzgartirilibdi. Silla davlatining maʼmuriy tuzilmasi Kakkan, Atkan, Gipkan sinflariga ajratilibdi. Mulozimlarni mamlakat tizimi va qoidalariga tayangan holda taqsimlashibdi. Eski tartib-taomillardan voz kechilibdi, yangi tartib-qoidalar qabul qilinibdi, yangi lavozimlar belgilanibdi va xizmat vazifalari taqsimlanibdi.

Shu tariqa qirol oʻz oilasida va mamlakatda tartib oʻrnatib, qattiqqoʻllik qilmasdan, xalqni oʻz farzandlaridek ardoqlab boshqaribdi. Qirol va qirolichaning hayotini Osmon va Yer, Quyosh

va Oy, erkaklik va ayollik asoslarining uyg'unligi bilan taqqoslash mumkin ekan. Oradan bir necha yil o'tgach qirolicha taxt vorisini tug'ibdi.

Fazilatli qirolicha 157 yil umr ko'ribdi. U 22-yil (milodiy 189-yil) 1-mart kuni vafot etibdi. Butun xalq aza tutibdi. Qirolichani shimoli-sharqiy tomondagi Kuchjibong tepaligiga dafn qilishibdi.

Qirolicha o'z umri mobaynida xalqqa qilgan yaxshiliklarni unutmash uchun u Karak davlatiga kelayotib kemadan birinchi marta qirg'oqqa tushgan yerda joylashgan qishioqni Chjupxochon deb, u Tog' ruhlariga o'zining ipak yubkasini tuhfa qilgan tog' cho'qqisini esa Ningxen deb nomlashibdi.

Qirolichani kuzatib kelgan mulozimlar Sinbo va Chogvan Karakka kelganlaridan so'ng, oradan 30 yil o'tgach ularning har biri ikkitadan qizlik bo'libdi. Oradan bir-ikki yil o'tgach, ularning ota-onasi bu dunyoni tark etibdi. Qolgan xizmatkorlar bu yerga kelganlaridan so'ng yetti yil o'tib ham o'zlaridan nasl qoldira olmabdilar. Shu tariqa ular o'z Vatanlarini qo'msab yashabdilar.

Qirolicha vafot etganidan so'ng qiro'l g'am-hasratga dosh bera olmabdi va qirolichaning o'limidan keyin oradan o'n yil o'tgach, 10-yil (milodiy 199-yil)ning 23-martida bu dunyoni tark etibdi. U 158 yil umr ko'ribdi. Butun mamlakat xuddi o'z ota-onasidan ayrilgandek aza tutibdi.

Saroydan 1 *kil* narida, shimoli-sharqdagi tekis joyda saroy barpo etishibdi va shu yerga qirolni dafn etishibdi. Bu joyni «Suring (Qiro'l Qabri)» deb nomlashibdi.

YEN O RANG VA SE O HYO

Silla davlatining sakkizinchi qiroli Adall hukmronligi davrida sharqiy dengiz bo'yida er-xotin Yen O Rang va Se O Nyo yashagan ekan.

Bir kuni Yen O Rang tamaki tergani dengiz bo'yiga kelibdi. Birdan baliq paydo bo'libdi, u Yen O Rangni o'z yelkasiga mindiribdi va u bilan birga Yaponiyaga qarab suzib ketibdi. O'sha mamlakat odamlari buni ko'rib, Yen O Rang oddiy odam emasligini tushunishibdi va uni o'z podshosi qilib ko'tarishibdi.

Se O Nyo eri qaytmayotganidan xavotir bo'lib dengiz bo'yiga chiqibdi. Bu yerda u erining oyoq kiyimini topib olibdi. Xuddi o'sha baliq Se O Nyoni o'z yelkasiga o'tqizibdi va Yen O Rang singari uni ham Yaponiyaga olib boribdi. O'sha mamlakat odamlari buni ko'rib hayratga tushishibdi va bu haqda o'z podsholariga xabar qilishibdi. Shu tariqa podsho o'z xotini bilan topishibdi va uni birinchi darajali freylina etib tayinlabdi.

Shu vaqt Silla davlatida Quyosh va Oy o'libdi. Munajjim qirolga Quyosh va Oy ruhlari yerga tushganini va ular Yaponiyaga jo'nab ketishganidan beri g'aroyib voqealar yuz berganini xabar qilishibdi. Qirol o'z elchisini shu ikki odamni topib kelgani jo'natibdi. Ular topilgach, Yen O Rang shunday debdi: «Men bu mamlakatga Osmon amri bilan kelganman, qanday qilib endi qaytib ketishim mumkin? Xotinimning chiroyli ipak yopqichi bor, uni Osmonga qurbonlik ramzi sifatida tuhfa qil».

Yen O Rang ipak yopqichni elchiga beribdi. Elchi o'z yurtiga qaytib borgach, bo'lgan voqea haqida qirolga gapirib beribdi va Yen O Rang iltimosiga ko'ra Osmonga qurbonlik ramzi sifatida ipak yopqichni tuhfa qilibdi. Shundan keyin Quyosh va Oy kuchi qaytib kelibdi. Shundan keyin ipak matoni qirolning mahzaniga joylashtirishibdi va uni milliy madaniy boylik deb hisoblay boshlashibdi. Mahzanning o'zini Kvibigo deb nomlashibdi. Osmonga qurbonlik keltirilgan joym Yongilxyon yoki Ukkiya deb atashadi.

OSMON YA OY O'G'LI – TONMYON-VAN

Koguryo asoschisi tabarruk podsho Tonmyon bo'lgan, u Ko urug'idan kelib chiqqan, shaxsiy ismi esa Chumon bo'lgan.

Bu qadim zamonlarda sodir bo'lgan. Puyo mamlakati podshosi Xeburu qarigunga qadar o'g'il ko'rmagan. U tog'lar va daryolardan o'ziga valiahd yuborishni o'tinib so'ragan. Kunlarning birida u otni egarlab, Konyon ko'liga qarab yo'l olgan. Bu yerda u katta bir toshga ko'zi tushgan — undan ko'z yoshi oqayotganini ko'rgan. Podsho taajjublangan va o'z odamlariga toshni ag'darishni buyurgan. Tosh ostidan tillarang qurbaqaga o'xshagan bir chaqaloq chiqqan. Podsho quvonchi ichiga sig'may:

— Osmon nienga merosxo‘r yubordi! — deb xitob qilgan.

U chaqaloqni o‘zi bilan olib ketgan, unga Kimva — Tilla qurbaqa degan ism bergan, voyaga yetkazgan va uni valiahd deb e‘lon qilgan.

Bir kuni vazir Aranbul podshoga quyidagi xabarni yetkazgan:

— Bu kecha tushimda Osmon podshosi oldimga keldi va shunday dedi: «Vaqti kelib mening nabiram bu yerda saltanat barpo etadi, sen esa bu joylarni tark etishingga to‘g‘ri keladi. Sharqiy dengiz bo‘yida yer bor, Kasobvon deb ataladi. U yerda besh donni yetishtirsa bo‘ladigan tekis, serhosil dalalar bor, sen o‘sha yoqqa borib joylash».

Bu gaplarning hammasini Aranbul podshoga yetkazgan. Tez orada poytaxtni yangi yerlarga ko‘chirishgan va mamlakat Sharqiy Puyo deb atala boshlagan. Eski poytaxtda esa Xemosu ismli bir kas paydo bo‘lgan va o‘zini Osmon Podshosining o‘g‘li deb e‘lon qilgan. U poytaxtda yashay boshlagan.

Podsho Xeburu qazo qilgach, taxtga Kimva o‘tirgan. Kunlarining birida u Txebeksan tog‘ining janubidagi Ubalsu daryosi bo‘yida bir ayolni uchratgan va undan kimligini so‘ragan. Ayol o‘zini Daryo xudosi Xabekning qizi Lyuxva deb tanishtirgan va o‘zi haqida quyidagilarni gapirib bergan:

— Bir kuni men singillarim bilan birga sayr qilgani chiqdim. Shu yerda bir erkakni uchratdim. U o‘zini Osmion podshosining o‘g‘li Xemosu deb tanishtirdi, meni Amnokkan daryosining bo‘yidagi Unsimsan tog‘i ostonasida joylashgan kulbaga olib keldi va nomusimga tegdi, biroq ko‘p o‘tmay ketdi va boshqa qaytib kelmadi. Otam va onam unashtirilmagan erkakka ishonganim uchun meni qattiq koyishdi, so‘ng uydan quvib chiqarishdi va Ubalsu daryosi yaqinida joylashtirishdi.

Kimva ajablangan, ayolni o‘zi bilan birga olib ketgan va unga mehmonxonadan joy bergan. Ayol quyosh nurida ajib jilvalangan. Lyuxva yashirinishga harakat qilgan, biroq quyosh nuri unga tinimsiz ergashib, uni yoritgan. Lyuxvaning bo‘yida bo‘lgan va u besh sim kattalikdagi ulkan tuxumni tuqqan. Podsho tuxumni itlar va cho‘chqalar oldiga tashlagan, ammo ular tuxumni yeyishmagan. Shunda podsho tuxumni yo‘lga tashlagan, biroq buqalar va otlar uni chetlab o‘tishgan. Nihoyat podsho tuxumni

dalada qoldirishga qaror qilgan, lekin qushlar uni qanotlari bilan to'sishgan. Podsho tuxumni chaqmoqchi bo'lgan, biroq tuxum chaqilmagan, shu bois u tuxumni onasiga qaytarib bergan. Onasi tuxumni o'rab, issiq joyga qo'ygan. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, tuxum yorilgan va uning ichidan bir bola chiqqan. U juda chiroyli bo'lgan. Yetti yoshidayoq u g'aroyib qobiliyatlarni namoyish etgan. O'zi kamonlar va o'qlar yasab, ulardan otgan. Yuzta o'q otsa, yuzta o'qning hammasi nishonga tekkan! Puyo tilida «kamondan yaxshi otmoq» iborasi «*chumon*» tarzida yangraydi, shu bois uni Chumon deb atashgan.

Kimvaning yettita o'g'li bo'lgan. Ular doim Chumon bilan birga o'ynashgan, biroq iqtidorda undan o'za olishmagan. Kunlarning birida to'ng'ich o'g'il Teso podshoga shunday degan:

— Chumon odam bolasi emas, u juda jasur, agar kelajak haqida oldindan o'ylamasak, boshimiz baloga qolishi hech gap emas! Nima qilib bo'lmasin undan qutulish kerak.

Podsho o'g'lining gapiga quloq solmagan va Chumonni ot boqishga yuborgan. O'smir otboqarlik ishining ko'zini bilgan: yaxshi otlarga ular ozsini uchun kam yem bergan, yomon otlarga ular semirsin uchun ko'p yem bergan. Podshoning o'zi semiz otlarni mingan, oriqlik otlarni esa Chumonga bergan. Kunlarning birida ular dalaga ovga chiqqanlar. Chumon mohir mergan bo'lgani uchun unga oz o'q berganlar, biroq u baribir hammadan ko'p o'lja olgan. Podshoning o'g'illari va a'yonlar Chumonni o'ldirishga qaror qilganlar, ammo uning onasi buni bilib qolgan.

— Podsholik odamlari senga ziyon yetkazmoqchi bo'lish-yapti, — deb ogohlantirgan u o'g'lini. — Sen topqir bolasan. Ulardan qutulishning yo'lini izla. Yaxshisi, bu yerdan ket! Imillasang, halok bo'lasan!

Chumon uch do'sti — Oi, Mari va Xyoppu bilan bu yerdan qochib ketgan. Ular Omxosu daryosiga yaqinlashganlar, biroq undan o'tish uchun ko'priki bo'lmagan. Chumon quvib kelayotganlar ularga yetib olisharidan qo'rqib, daryoga murojaat qilgan:

— Men Osmon podshosining o'g'liman, ona tomondan esa Daryo podshosi Xabekning nevarasiman. Memi quvib kelishyapti, ta'qib qiluvchilar yaqinlashib qolishdi. Nima qilay?

Suv yuzasiga baliqlar va toshbaqalar suzib chiqishgan va ko'prik hosil qilishgan. Chumon va uning yo'ldoshlari daryodan o'tishgach, ular darhol suzib ketishgan va ta'qib to'xtagan, Chumon Modungok vohasiga eson-omon yetib olgan. Yo'lda unga uch odam uchragan. Ulardan biri zig'ir tolasidan to'qilgan matodan tikilgan ko'yalakda, ikkinchisi — qavilgan kiyimda, uchinchisi esa — daryo suv o'tlaridan tikilgan libosda bo'lgan.

— Sizlar kimsizlar? — deb so'ragan Chumon. — Qaysi urug'dansizlar? Ismingiz nima?

Zig'ir tolasidan to'qilgan matodan tikilgan ko'yalakdagi odam javob bergan:

— Mening ismim Chesa.

Qavilgan kiyimdagi odam:

— Mening ismim Mugol, — degan.

Daryo suv o'tlaridan tikilgan libosdagi odam o'zini Mukko deb tanishtirgan. Biroq o'z urug'ini hech kim ayta olmagan. Shunda Chumon Chesaga Kik urug'ining nomini, Mugolga — Chunsil urug'ining nomini, Mukkoga esa — Sosil urug'ining ismini in'om etgan. U xalqqa murojaat etib, shunday degan:

— Men Osmondan davlatga asos solishga fatvo oldim. Yo'lda uch donishmandni uchratdim. Axir bu Osmon hadyasi emasmi?

U har kimga aql-zakovatiga mos ishni tayinlagan va hamma bilan birga Cholbonchxonga kelgan. Bu yerda yerlar tekis, serhosil va go'zal, tog'lar va daryolar esa o'tib bo'lmas ekanligini ko'rib, Chumon shu yerda poytaxt barpo etishga qaror qilgan. Saroy binolarini shoshmasdan qura boshlagan, avvaliga Piryusu daryosining bo'yida qamishdan kulba qurgan va unda yashay boshlagan.

O'z davlatini Chumon Koguryo deb nomlagan, shu bois Ko ismi uning urug'i ismiga aylangan. O'sha paytda Chumon yigirma ikki yoshda bo'lgan va bu Xan imperatori Yuan-di Szyan-chjao shiori ostida podsholik qilgan davrning ikkinchi yiliga, Silla podshosi Xyokkose hukmronligining esa yigirma birinchi yili, ya'ni *kansin* yiliga to'g'ri keladi. Uning dovrug'i olamga tarqalgan va uning mamlakatiga hamma tomondan odamlar yig'ilib kelishgan. Uning yerlari *moxe* manzilgohlari bilan chegaradosh

bo'lgan. Qaroqchilar o'z mamlakatiga ziyon yetkazishidan cho'chib, Chumon ularni quvg'in qilgan va ular qo'rqib bu yerga boshqa hujum qilishmagan.

Kunlarning birida Chumon Piryusu daryosida o't-o'lanlar oqib kelayotganini ko'rgan. U daryoning yuqori qismida kimdir yashashini anglagan va o'sha zahoti qidirishga otlangan. Shu tariqa u Piryuguk mamlakatiga kelib qolgan. Bu yerning podshosi Son'yan uni qarshi olgan va:

— Bu yerda, dengiz bo'yida biz yolg'iz yashaymiz va sizdek olijanob insonni shu paytgacha ko'rmaganmiz. Hozir siz bilan qo'qqisdan uchrashganimiz biz uchun ulug' baxt! Ammo siz qayerdan kelganingiz bizga ma'lum emas, — degan.

Chumon bunga shunday javob bergan:

— Men Osmon podshosining o'g'liman va bu yerlarda poytaxtga asos solish uchun kelganman.

Bunga javoban Son'yan shunday degan:

— Men ushbu nomunosib yerning podshosiman. Mening mulkim uncha katta emas va ikki podsho uchun joy bu yerda topilmasa kerak. Agar siz bu yerda poytaxt qursangiz, meni o'z fuqarongizga aylantirasiz-ku?

Uning gapi Chumonga yoqmagan. Ular bir-biri bilan bahslasha boshlashgan va kamondan o'q uzishda bellashishga qaror qilishgan, ammo Son'yan uni yenga olmagan...

KOGURYO SOLNOMALARI. VAN TEMUSIN. O'N BESHINCHI YIL. SHAHZODA XODON QISSASI

Yozda, to'rtinchi oyda, van o'g'li (shahzoda) Xodon Okcho bo'ylab sayohatga chiqibdi. Yo'lda u Annan (Lolan) vani Chxve Rini uchratibdi. Chxve undan so'rabdi: «Siz olijanob qiyofangizga (qaraganda) oddiy odamga o'xshamaysiz. Mabodo, Shimoliy davlatning tabarruk vani (*Pukkuk-sinvan*)ning o'g'li emasmisiz?».

Shundan so'ng (Chxve) (Xodon) bilan birga (uyiga) qaytibdi va (Xodonga) o'z qizini beribdi. Keyinchalik Xodon o'z davlatiga qaytgach, Chxve uyining qizi oldiga o'z odamini quyidagi xat bilan yashirincha yuboribdi: «Agar sen o'z davlatingning qurol-

aslaha omboriga kirib, (u yerdagi) nog'orani kesib qo'ysang va muguz (gori)ni sindirsang, shunda seni izzat-ikrom bilan qabul qilaman, agar buni uddalay olmasang, unda seni kutib olmayman». Ilgari Annanda dushman qo'shinlari yaqinlashganda o'z-o'zidan ovoz chiqaradigan nog'ora va muguz bo'lgan ekan, shu bois u Chxve uyining qiziga ularni buzib qo'yishni buyuribdi.

Chxve uyining qizi o'tkir pichoq bilan qurol-aslaha omboriga pindhona kiribdi va nog'oraning yuzi bilan muguzning og'zini kesibdi, so'ng bu haqda Xodonga xabar beribdi. Shunda Xodon vanni Annanga hujuin qilishga ko'ndiribdi. Nog'ora va muguz signal bermagani tufayli, Chxve Ri hujumni qaytarishga tayyorgarlik ko'ra olmabdi va bizning qo'shinimiz qo'qqisdan qal'a devorlari ostida paydo bo'libdi.

Nog'ora va muguz shikastlanganidan xabar topgach, (Chxve Ri) o'z qizini o'ldiribdi va so'ng taslim bo'libdi.

ONDAL

Ondal Koguryoda podsho Pxyongan-van hukmronligi davrida yashagan ekan. Uning yuzi og'riqli va qari ko'rinar, bu odamlarda kulgi uyg'otar ekan, uning qalbi esa o'zining tozaligi bilan ajralib turar ekan. Ondal juda qashshoq yashar, onasini boqish uchun u tilanchilik qilishga majbur bo'lar ekan. Ondal ko'chada yirtiq ko'ylak va poshnasi yedirilgan boshmoqda yurar, uni ko'rgan odamlar devona deb o'ylashar ekan.

Podsho Pxyongan-vanning kenja qizi yig'lashni yaxshi ko'rar ekan. Podsho: «Sen nuqul yig'laganing yig'lagan, yig'ingni eshitaverib qulog'im kar bo'ldi. Katta bo'lsang, munosib erga xotln bo'la olmaysan. Seni devona Ondalga berishimga to'g'ri keladi», deb har safar hazil qilgan ekan. Nihoyat podshoning kenja qizi o'n oltiga to'libdi. Podsho uni *sanbu* Koga uzatmoqchi bo'libdi. Bunga malika shunday debdi: «Podshohim, axir siz nuqul meni Ondalning xotimi bo'lasan, der edingiz-ku. Nechuk endi o'z so'zingizdan qaytdingiz? Axir hatto oddiy fuqarolar ham bergan so'zini buzmaslikka harakat qilishadi, siz esa olijanob zotsiz-ku? «Podsho bo'lgan odam gap bilan o'ynashmaydi», deb

bejiz aytishmagan. Sizning bu amringiz xato va men uni qabul qila olmayman». Podshoning jahli chiqibdi: «Sen mening nasihatlarimga quloq solmaysan va shu bois menga qiz bo'lishga munosib emassan. Shunday ekan, qanday qilib biz birga yashaymiz? To'rt tomoning qibla, ketaver!»

Shunda malika bilagiga o'nta qimmatbaho bilakuzuklarni taqibdi va saroydan chiqib, yolg'iz yo'lga tushibdi. Yo'l-yo'lakay u bir odamdan Ondalning uyi qayerdaligini so'rabdi. Ondalning uyiga yaqinlashgach, uning qari ko'r onasiga ko'zi tushibdi. Unga yaqinlashib ta'zim qilibdi va o'g'li qayerdaligini so'rabdi. Keksa ona shunday deb javob beribdi: «Mening o'g'lim qashshoq va tagi past odam, u olijanob zotlar bilan tanish emas. Sendan anvoyi hid kelyapti. Qo'llaringni ushlasam, ular ipak kabi yumshoq. Sen zodagonlardan ekanliging aniq. Kim seni chalg'itib bu yerga yubordi? O'g'lim ochlikka dosh berolmay, toqqa, o'rmondan qayrag'och po'stlog'ini shilib kelgani ketgan».

Ondalning uzoq daragi bo'lmabdi va malika toqqa qarab yo'l olibdi. Bir vaqt qarasa, Ondal yelkasiga qayrag'och po'stlog'ini ortib kelayotgan emish. Malika unga o'z niyatini aytibdi. Ondalning yuzi birdan o'zgaribdi va: «Bu yerda yosh ayollar yurmaydi. Sen odam emas, odam qiyofasidagi tulki bo'lsang kerak», debdi va orqasiga qaramay yurib ketibdi. Malika bir o'zi qaytib kelibdi va tunni shoxlardan o'rilgan darvoza yonida o'tkazibdi. Ertalab u yana Ondalning onasi oldiga kelibdi va unga o'zi haqida gapirib beribdi. Ondal ikkilangandek bo'libdi-yu, biroq malikani kiritishga jur'at etmabdi. Uning onasi: «O'g'lim nasl-nasabi past odam va u olijanob zotga juft bo'lishga munosib emas. Uyim qashshoq va olijanob odamga boshpana bo'lishga yaramaydi», debdi. Bunga malika shunday deb javob qaytaribdi: «Bir dona donni ham tegirmondan chiqarsa arziydi va bir *chxok* mato ham tikish uchun yaraydi, degan qadimdan qolgan gap bor. Hamonki niyatimiz bir ekan, nahotki qo'shilishimiz uchun albatta boylik va olijanoblik kerak?»

Shunda u tilla bilakuzuklarini sotibdi va ularning puliga yer va uy, qullar va joriyalar, sigirlar va otlar, idish-tovoq va mol-mulk sotib olibdi — shu tariqa u kerakli mol-mulkni to'la

tayyorlabdi. Avvaliga ular ot sotib olishibdi. Malika Ondalga: «Otni savdogardan olma, albatta podshoning kasal va oriq otini — haydab yuborishgan otni sotib ol. Keyin biz uni o'zgartiramiz», debdi. Ondal malikaning aytganini qilibdi. Malika otni yaxshi parvarish qilibdi. Ot kundan kunga semirib, kuchga to'lib boribdi.

Koguryoda har bahor uchinchi oyning uchinchi kunida Annan tog'iga ovga chiqishar ekan. Ushlangan to'ng'izlar va bug'ularni Osmonga va tog'lar, daryolarning ruhlariga qurbonlik keltirishar ekan. Shu kuni podsho ovga chiqibdi. Bir to'da saroy a'yonlari, harbiylar va besh palata mulozimlari uni kuzatib borishibdi. Ondal ularga yaxshi parvarishiangan otda ergashibdi. U doim oldinda borar va olgan o'ljalari ham ko'p ekan. Boshqalarda bunday o'ljalar yo'q ekan. Podsho uni o'z oldiga taklif qilibdi va uning nasl-nasabini, ismini surishtiribdi. Eshitib hayratga tushibdi va buni g'alati bir hol deb bilibdi.

Shu vaqt Kechki Chjou sulolasiga mansub imperator U-di Lyaodunni ishg'ol qilish uchun qo'shin jo'natibdi. Podsho o'z qo'shini bilan Ishan tog'i yaqinidagi dalada jangga kirishish uchun unga qarshi chiqibdi. Ondal qo'shinning oldida turibdi. Ayovsiz jangda bir necha o'n dushmani boshidan judo qilibdi. Butun qo'shin uning g'alabasidan foydalanib, qat'iy hujumga o'tibdi va katta g'alaba qozonibdi. Yutuqlarni muhokama qilganda, Ondalni birinchi o'ringa qo'yishibdi. Podsho g'urur bilan: «Bu mening kuyovim», debdi. U marosim o'tkazib, Ondalga *pgexyon* lavozimini in'om etibdi.

Shundan so'ng podshoning Ondalga muruvvati ortib boribdi, uni yanada yuksakroq lavozimlarga ko'taribdi. Ondalning kuchi va martabasi kundan kunga ortib boribdi. Taxtga podsho Yangan-van o'tirgach, Ondal tavoze bilan unga shunday debdi: «Silla (podsholigi) bizning Xansondan shimoldagi yerlarimizni tortib oldi va ularni o'z muzofotlari va viloyatlariga aylantirdi. Xalq azob chekyapti, o'z otalari va onalari davlatini unuta olmayapti. Ulug' podsho, agar meni nodon va hurmatsiz deb topmasangiz, menga qo'shinni ishonib topshirsangiz, (shunda) men bir zumda yerlarimizni qaytarib olgan bo'lardim!» Podsho rozi bo'libdi. Safarga chiqayotib Ondal qasam ichibdi: «Agar Kerip va Chunnyon tog'laridan g'arbdagi yerlarimizni qaytarmasam, (o'zim ham)

qaytmayman». Safarga chiqqach, Silla qo'shinlari bilan Adanson qal'asi yaqinida jangga kirishibdi. Ondalga kamon o'qi tegibdi va u yo'lda jon beribdi. Uni dafn qilishmoqchi bo'lishgan ekan, tobutni joyidan siljita olishmabdi. Shunda malika kelibdi va tobutni qo'llari bilan silab: «O'liklar va tiriklarga ayrilish buyurilgan. Voydod! (Erim) vafot etdi!» Shunda (tobutni) ko'tarishibdi va dafn marosimini o'tkazishibdi. Buni eshitgan podsho motam tutibdi va qattiq g'am-anduhga berilibdi.

SOL XONIM

Sol xonim — amaldor Yullining qizi. Garchi u tagi kambag'al urug'dan bo'lsa-da, xushqad, xushsurat, xulqi ham yaxshi ayol edi. Hamma uning chiroyiga mahliyo bo'lardi, biroq uni haqorat qilishga hech kimning haddi sig'mas edi.

Podsho Chinpxyon-vanning hukmronligi davrida Solning kekxa otasi o'z navbatida Chongokda kuzgi chegara xizmatini o'tashi lozim edi. U nimjon va xasta edi, qizini uzoq ayriliq tashvishga solardi, biroq u ayol kishi bo'lib, otasiga qarash uchun u bilan birga bora olmas edi. Uning kuyinishdan boshqa chorasi yo'q edi.

Shu davrda Saryanbuda Kasil ismli bir yigit yashardi. U kambag'al, tagi ham nasl-nasabli emasdi, biroq u o'zining aqliligi va xushfe'lligi bilan ajralib turar edi. U janobning qizi Solga ko'pdan beri ko'ngil qo'ygan edi, ammo bu haqda og'iz ham ocha olmasdi. Qizning otasi harbiy xizmatga o'tlanishi lozimligini eshitib, u Solning oldiga keldi:

— Garchi men dovyuraklardan bo'lmasam ham, shuni aytishim mumkinki, o'z vaqtida jangovar ruhga ega bo'lganman. Ruxsat eting, men, nomunosib bir kas, sizning padaringiz o'rniga xizmat qilsam.

Sol xursand bo'lib ketdi va bu xushxabarni darhol otasiga yetkazdi. Otasi yigitni huzuriga chaqirdi:

— Eshitishimcha, siz men — qariyaning o'rniga xizmatga bormoqchi ekansiz. Bundan men, albatta, xursandman, biroq bu meni sizning taqdiringizdan tashvish chekishga ham majbur etadi, ayni vaqtda sizni bu xizmatangiz uchun mukofotlashga ham umid

qilaman. Agar bizni o'zingiz uchun tagi past deb bilmasangiz va rad etmasangiz, sizga yosh qizimni xotinlikka bersam degandim. Mashoyixlar aytganidek, uning qo'lida ham elak, ham supurgi bo'ladi.

Kasil ikki marta ta'zim qildi:

— Bunday baxt haqida men orzu qilishga ham jur'at etmagan edim, ammo siz o'zingiz menga shuni ravo ko'rdingiz!

Ketayotib Kasil to'y muddati haqida so'radi. Sol unga shunday deb javob berdi:

— To'y qochmas. Men sizga o'z qalbmni berdim va endi o'la-o'lguncha o'z tuyg'ularimga xiyonat qilmayman. Siz hozir xotirjam xizmatga ketavering, xizmatni tamomlab qaytib kelganingizdan so'ng biz darhol baxtli kunni tanlaymiz va to'yni o'tkazamiz.

Shundan so'ng Sol yonidan ko'zgu chiqardi, uni ikkiga bo'ldi va ular har biri uning bittadan bo'lagini o'ziga oldi.

— Bu bizning sadoqatimiz belgisi bo'lsin, — dedi Sol.

— Vaqti kelib biz ikkala bo'lakni yana birlashtiramiz!

Kasilning oti bor edi. Otni u Solga qoldirdi.

— Bu dunyodagi eng yaxshi ot. Men uni juda qadrlayman, lekin hozir ketishim kerak va unga qaraydigan odam yo'q. Siz unga qarab turing!

Shu so'zlarni aytib yigit xizmatga ketdi.

Kunlar, kunlar ketidan oylar o'ta boshladi. Davlatdagi turli voqealar tufayli chegaradagi xizmatchilarni almashtirishga odam yuborishmadi va Kasil xizmatda yana olti yil ushlanib qoldi. Shunda ota qiziga dedi:

— Xizmatni uch yilga tayinlashgan edi, hozir hamma muddatlar o'tdi. Boshqa odamga turmushga chiqsang bo'lmaydimi?

Qiz otasiga shunday deb javob berdi:

— Padarimning gapiga quloq solib men Kasilga turmushga chiqishga rozi bo'ldim. Kasil menga ishondi va endi uzoq yillardan beri harbiy xizmatda sovuqdan va ochlikdan azob tortyapti. U qo'ldan qurolni chiqarmasdan chegarani dushmanlardan himoya qilyapti. Berilgan va'dani unutish, sadoqatga xiyonat qilish shafqatsizlik bo'lur edi. Men sizning amringizga bo'ysuna olmayman va bu haqda boshqa og'iz ochmaysiz deb umid qilaman!

Qizning otasi qari edi, qarilik asnosida esi ham kirdi-chiqdi bo'lib qolgandi. U faqat bir narsani o'ylar edi: qizim bo'yi yetib qoldi, eri esa yo'q, uni albatta erga berish kerak. Chol ham-qishloqlaridan biri bilan nikoh haqida kelishdi. To'y kunini tayinladilar. Otasi o'sha odamni taklif qildi, biroq Sol unga tegishdan qat'iyan bosh tortdi. Otasi majburlayvergach, u hatto uydan pinhona qochib ketishga qaror qildi. Ketish oldidan u otxonaga kirdi va Kasil tashlab ketgan otga ko'zi tushib, og'ir xo'rsindi va yig'lab yubordi.

Shu orada Kasilni almashtirishdi va u ozib ketgan bir ahvolda, chuvrindi kiyimlarda uyga qaytib keldi. Hatto Sol ham uni tanimadi va begona odam deb o'yladi. Shunda Kasil uning qarshisiga kelib ko'zguning bo'lagini uzatdi. Sol uni ko'rib yig'lab yubordi. Otasi va oila a'zolarining barchasi Kasilning qaytganidan xursand bo'lishdi, baxtli bir kunni tanlashdi va to'y qilishdi. Sol va Kasil birga qo'sha qarishdi.

SOL CHXON VA «GULLAR PODSHOSIGA OGOHLANTIRISH»

Sol Chxonni hamma Chxonji — «Folbin» deb chaqirardi. Bobosining ismi Tamnal, otasiniki esa — Vonxyo edi. Avval Sol Chxon buddaviy rohiblikni qabul qildi va buddaviylarning muqaddas kitoblarini o'rgandi, keyinchalik u dunyoviy hayotga qaytdi va «Sosonlik zohid» degan nom bilan dovrug qozondi.

Chxon teran aql va zakovat egasi edi. U daoslar ta'limotini bolalikdan chuqur o'zlashtirdi. Klassik adabiyot namunalaridan to'qqiztasini ona tiliga o'girdi va buni o'z izdoshlariga ham o'rgatdi. Olimlar hali-hanuz uni hurmat qilishadi. U o'zi ham asarlar yaratgan, biroq uning asarlarini eslovchilar hozir qolmagan. Sol Chxon yodgorlik toshiga o'z qo'li bilan yo'nib yozgan bitik janubdagi olis hududlardan birida saqlanib qolgan, biroq bitik vaqt o'tishi bilan yedirilib, o'qib bo'lmaydigan darajaga yetgan va unda nima yozilgani hozir noma'lum.

Yozning o'rtalarida ulug' podsho Sinmun-van saroyning baland va yorug' xos xonalaridan birida dam olayotib, Sol Chxonga murojaat etibdi:

— Surunkali yomg'irlar endigina tugadi, salqin shabada esa boshiadi. Biz anvoyi taomlar iste'mol qilyapmiz, yoqimli musiqa eshityapmiz, lekin hatto qahr-g'azabni ham yumshatishga qodir bo'lgan nafis nutq va yaxshi hazilga hech narsa tenglasha olmaydi. O'g'lim, senda qiziqarli bir hikoya topilsa kerak. Uni bizga gapirib bermaysanmi?

— Yaxshi, eshiting! — deb javob beribdi Sol Chxon.

Qadim zamonlarda Gullar podshosi yashagan ekan. Uni anvoyi hidlarga to'la bog'da yashil o'tov ostida o'stirishgan ekan. Bahorning uchinchi oyi kelibdi va u gullabdi. Gullar podshosi barcha gullar orasida eng chiroylisi ekan. Shunda turli — olis va yaqinda o'sgan chiroyli gullarning ruhlari podshoni ko'rgani uning huzuriga oshiqiptilar. Ularning orasida shirmoy yuz, tishlari sadafdek oq, pardoz-andozni joyiga qo'ygan, bashang libosdagi bir go'zal ham bor ekan. U podshoga yengil qadamlar tashlab yaqinlashibdi va nazokat bilan ta'zim qilib, shunday debdi:

— Men qordek oppoq qum ustida yuraman, husnimni sof dengiz ko'zgusiga solaman, bahor yomg'irida yuvinaman va hech qachon iflos bo'lmayman. Yenglarim ichida yengil shamol o'ynaydi va menga lazzat baxsh etadi. Men — Qizil atirgulman. Podshoning fazilatleri haqida eshitib, men sizga anvoyi hidli parda ortidagi yostiq oldida xizmat qilmoqchiman. O ulug' podsho, lutf-karamingizni mendan ayamang!

Uning ortidan podshoga kanop ko'ylak kiygan, beliga charm kamar bog'lagan, qo'lida aso tutgan oqsoch bir erkak tavoze bilan yaqinlashibdi.

— Men poytaxtdan tashqarida, katta yo'l yoqasida yashayman, — debdi u. — Mening qarshimda cheksiz tekislik yastanib yotadi, yuqorida esa alpqomat qoyalardan iborat tog'lar joylashgan. Men — Anemon, Oqsoch qariyaman. Sizning a'yonlaringiz yaxshi yashashadi, ularning yegani oldida, yemagani ketida, ular choy va may ichib o'z qalblarini tozalashadi, sandiqlari qimmatbaho buyumlarga to'la, ammo men har doim ruhni bardamlashtirish uchun yaxshi dori-darmonlarga va ko'z tegishidan saqlaydigan tumorlarga ega bo'lish kerak, deb hisoblayman. Axir, «Shohi va nashang bo'lsa ham, qiyoy va qamishni tashlama!», deb bejiz aytishmagan. Shu bois olijanob zot kamomad o'rnini to'ldirish imkonini beradigan narsani har doim tayyor saqlaydi. Podshohim, siz bu haqda nima deb o'ylaysiz?

Yaqinroqda turganlardan biri:

— Ikkitasi keldi. Kimni qoldiraylik, kimni qo'yib yuboraylik? — deb so'rabdi.

— Sen haqsan, — debdi shunda Gullar podshosi, — biroq sohibjamolni topish ham qiyin-ku! Nima qilish kerak?

— Men podshoni oqil va odil deb eshitgan edim, — deb javob beribdi qariya, — shuning uchun ham bu yerga keldim. Ammo podsholar odatda tilyog'lama, laganbardorlarni o'zlariga yaqinlashtiradilar, adolatli va vijdonlilarni esa o'zlaridan uzoqlashtiradilar. Ayni shu sababli Men Ke umrining oxirigacha ham imperatorning iltifotiga sazovor bo'lmagan, Fen Tan esa kichik lavozimda sochi oqarguncha xizmat qilgan. Qadim zamonlardan beri shunday. Nima ham qilardik?

— Men nohaq ekanman! Men nohaq ekanman! — deb baqirib yuboribdi shunda Gullar podshosi.

Hikoyani tinglagach, podsho Sinmun-vanning yuzi qo'qqisdan o'zgaribdi va u shunday debdi:

— Rivoyatingning so'zlari samimiyat va hikmatga to'la. Men uni yozib olishni va «Podsholarga ogohlantirish» deb nomlashni so'rayman.

Sol Chxonga esa u yuqori lavozimni in'om etibdi.

Quyidagi rivoyat avloddan avlodga o'tib keladi: bir arxat o'sha payt Silla elchisi bo'lgan Solga Yaponiyadan she'r keltiribdi, unga so'zboshida esa shunday deb yozibdi: «Bir paytlar men Vonxyo-ning «Olmosli sutraga samadxi haqida shastra» asarini o'qiganman va hayotda shu zot bilan uchrashmaganimdan behad afsus qilaman. Eshitishimcha, Silla elchisi Sol donishmandning nabirasi ekan. Bobongiz bilan uchrashish menga nasib qilgani yo'q, lekin men uning nabirasi bilan ko'rishishdan xursandman. Shu bois men she'r yozdim va uni sizga tortiq qilyapman». Bu she'r hozirgacha saqlanib qolgan, lekin uning avlodlari ismlari ma'lum emas.

Podshomiz Xyonjon taxtga o'tirganining o'n uchinchi yili, *imsul* — boshlang'ich yilda, «Syan-sin» hukmronligi yilida Sol Chxonga o'limidan so'ng «Xon'yuxu» unvoni berildi. Kimdir Sol Chxon Tay davlatiga o'qishga borgani haqida hikoya qilgan edi, ammo bu rostmi, yolg'onmi — noma'lum.



2. *Esse*

CHE CHI VON ISYONCHI XVASONGA MAKTUB

Bu xat Silla qiroli Xongan podsholigining yettinchi yili — 991-yil 8-iyulda janob Xvasonga yuborilgan.

Odatda, biz tanlaydigan yoʻl oqillik yoʻli deb ataladi, biroq xavf tugʻilganda biz vaziyatga qarab ish koʻrishga majbur boʻlamiz va koʻpincha shu vaziyat taqozosiga koʻra oʻz yoʻlimizdan chetga burilamiz. Sof niyatli dono odam oqillik yoʻliga kirgach muvaffaqiyatga erishadi, nodon odam esa, u yoki bu vaziyatdan foydalangan holda axloqqa zid qilmishlar sodir etib, pirovard natijada magʻlubiyatga uchraydi. Inson oʻz hayot yoʻlidan harakatlanar ekan, hamma narsani oldindan koʻra olmaydi, biroq nima boʻlganda ham u vijdonan ish koʻrishi va oʻzi sodir etgan qilmishlarni tahlil qilishi lozim.

Hozir meni isyonchilar va xoinlarni tor-mor keltirish uchun ketayotgan qoʻshinga imperator qilib tayinlashdi, biroq men oʻzimni senga raqib deb hisoblamayman. Ammo sen qarshilik koʻrsatadigan boʻlsang, men sen bosib olgan yerlarni kuch bilan tortib olish va ularni imperator hukmi ostiga qaytarishga majbur boʻlaman.

Hozircha sening oldingda yashab qolish uchun faqat bitta yoʻl bor — bu ham boʻlsa oqillik yoʻlini tanlash. Orqaga, sening oʻtmishingga nazar tashiydigan boʻlsak, yaqindagina sen olis qishloqda yashovchi oddiy odam eding, biroq keyinchalik sen jinoyatchilar toʻdasini toʻplading, oʻzing ham jinoyatchiga aylanding va shaʼningga dogʻ tushirding. Keyinchalik borib bu ham senga oz koʻrindi va sen imperatorga qarashli boʻlgan, unga

Osmon ato etgan yerlarga ko'z tikding. Sen qal'a devorini va imperatorning saroyini ayovsiz buzishga jur'at etding — Osmon bunday gunohni kechirmaydi.

Olis zamonlarni bir esla. An Ruk San, Chuchja singari zotlar va boshqa sarkardalar haqida eshitgan bo'lsang kerak. Hamma ulardan qo'rqqan, ularning qarshisida dir-dir titragan, ular o'zlari haqida maqtovlarni eshitishgan, biroq keyinchalik qirolga xiyonat qilib, uning oilasiga qarshi qo'l ko'tarishga jur'at etishgan. Xo'sh, keyinchalik ularga nima bo'ldi, axir ularni butunlay yo'q qilib tashlashmadimi? Bunday nopok yo'lga kirish va imperator qo'shinlariga qarshi qilich yalang'ochlashga qanday qilib hadding sig'di? Sening harakatlaringni tinchlik va odamlarga qarshi jinoyat deb baholash mumkin, chunki sen ko'targan g'alayon jarayonida, xunrezlik paytida juda ko'p odam halok bo'ldi. Halok bo'lgan odamlar qora yerda yotibdi, ularning halovat topmagan ruhlari esa sening ruhing kelishini kutaypti.

Odatda odamlar o'z xatolarini o'zlari anglab yetishadi. O'tgan safar seni viloyat ma'muriyatiga yuksak lavozimga tayinlashdi, biroq sen shunda ham tinchiganing yo'q. Qayerga borma, sen o'zingdan zaharli bug' chiqarasan, odamlarni o'ldirasan. Oxir-oqibat sen imperatorga ham xoinlik qilding, uning o'zingga nisbatan yaxshi munosabatiga oyoq qo'yding. Harbiy idorada xizmatni o'tayotganingda, sen hokimiyatni egallab olding, yuqori martabali amaldorlarning ko'pchiligini surgun qilding, boz ustiga, sening qo'lingga tushib qolmaslik uchun kimsan — imperatorning o'zi saroydan qochishga majbur bo'ldi! O'zingga ko'rsatilgan muruvvat evaziga sen ana shunday qabih jinoyat bilan haq to'lading!

Axloq me'yorlarida qo'qqisdan kelgan quyun yarim kundan ortiq ushlanib qolmasligi, kuchli sel esa bir kundan ortiq quymasligi aytilgan. Qo'qqisdan paydo bo'lgan narsa tezda yo'qolishi tabiat qonunidir. Bu qoida insonga ham tegishli.

Xitoy solnomalarida yomon odamga yordam berish yaxshi ish emas, ammo birovda shafqatsizlikni o'stirish bundan ham yomon jinoyatdir, deb aytilgan. Bizning yerimizni sening shafqatsizliging bosib ketdi, sen esa, hozirgi shunday xavfli vaziyatda turib, kerakli paytda to'xtash kerakligini tushunishing kerak. Sen

uyning osti ostida in qurgan qaldirg'ochga, qozonga tushgan baliqqa o'xshaysan, halokat yoqasida turganingni anglamayapsan.

Hozir men harbiy harakatlar rejasini ishlab chiqdim. Men butun mamlakatdan dovyurak sarkardalar va jasur askarlardan qo'shin to'pladim. Ular mening chorlovimga to'rt tomondan mo'rmalaxdek yopirilib kelishdi. Dengizda bizning janglarda sinovdan o'tgan, yengilmas kemalarimiz kutib turishibdi. Ulardan hatto suv alvastilari ham qo'rqishadi. Bu son-sanoqsiz qo'shin seni yer yuzidan butunlay supurib tashlash uchun sen tomonga qarab ketyapti.

Kuz kelishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Kuz shamoll yerda yashovchi barcha jonzotlarni sinovdan o'tkazadi. Tonggi shudring qoramtir tus oladi va ahmoqona umidlarni yuvib tashlaydi. To'liqlinlar tinchigach, biz langar tashlaymiz va qo'shinlar qirg'oqqa tushadi, shunda biz barcha yerlarni sendan tortib olamiz.

Ammo bizning insonparvar imperatorimiz odamlar behuda qurbon bo'lishini istamaydi, shu bois biz murosayi madoraga borishga rozimiz. U bizga shunday nasihat qildi:

— «Siz rahmsizlik botqog'iga tushib o'z yo'lini yo'qotgan, adashgan odamni g'afflatdan uyg'otishingiz kerak».

Ushbu xat orqali men senga ahvoling mushkul ekanini xabar qilayapman. Shubha va o'jarlik qilib vaqtini behuda sovurmaysan deb umid qilaman. Zero, bu sen uchun eng so'nggi imkoniyat. Agar sen o'z xatolaringni anglasang va ularni tan olsang, senga yer, mol-mulk va jamiyatdagi mavqeyingni qoldirishadi, sen nainki joningni saqlab qolasan, balki mukofot ham olasan, hurmat-e'tiborni saqlash bilan bir qatorda, o'z avlodlaringga yaxshi nom qoldirishing mumkin. Sen bu vaziyat haqida o'z tanangga o'ylab ko'rib keraksiz shubhalarga berilmaysan va birdan-bir to'g'ri qarorni qabul qilasan, deb umid qilaman.

Men bu buyruqni imperatordan oldim. Mening unga bo'lgan sodiqligim aniq va buloq suvidek toza. Yuzaga kelgan vaziyatda mening harakatlarimni Osmon kuzatib turibdi. Men esa, bu vaziyatdan hatto shaxsan noroziligim bo'lsa ham, imperator menga bergan bu topshiriqqa qarshilik ko'rsatmayman.

Biroq sen o'zingni chulg'agan iblisona g'aflatdan uyg'ona olmasang, imperatorning qo'shinlari sen ko'targan isyonni bostiradi, sening o'zing esa boltani kutayotgan to'nkaga aylanasan. Ayiq va qoplonni mahv etuvchi qo'shinlarimiz ustingga bostirib boradi va baqir-chaqir ovozlari bilanoq sening no'noq askarlaringni to'rt tomonga quvib yuboradi. Sening tanang quyonning tanasidek titraydi, suyaklaring sinib tushadi va kukunga aylanadi. Bundan tashqari, sen o'z oilang haqida ham o'yla. Axir ular shafqatsiz qatl qilinadi, boz ustiga butun urug'ing o'limga hukm etiladi va butunlay qirib tashlanadi.

Seni qo'lga olishgach, kechki pushaymoning foyda bermaydi va hech narsani o'zgartira olmaydi. Hozir sen muhim qaror qabul qilishing kerak. Aytgan gaplarimning hammasini taroziga sol, vaziyatni tahlil qil va ma'qul yo'lni tanla. Menimcha, hozir sen uchun eng ma'qul yo'l — qurolni tashlash. Mamlakat haqida o'yla, axir uni vayron qilishning nima keragi bor, umum ravnaqi yo'lida podshoning amriga quloq sol.

Sen o'z nuqtayi nazarini o'zgartirasan, shubhalaringdan voz kechasan, qat'iyat ko'rsatasan va ahmoqona g'oyalardan voz kechasan, deb umid qilaman.





3. *Tarixchilarning solnomalaridagi epik an'ana*

«KVANGETXO-VAN YODGORLIK TOSHI»DAGI BITIK (414-YIL)

(Bitikning dastlabki ikki qismi)

Qadim zamonlarda birinchi asoschi Chxumo-van davlatga asos soldi. U tagi Shimoliy puyolik edi. Osmon Podshosining o'g'li. Onasi — Daryo xudosining qizi. Tuxum chaqqan edi — uning ichidan o'g'il bola chiqdi. Tug'ilgan bola o'ta dono edi. U otga ikki g'ildirakli aravani qo'shishni buyurdi va janubga qarab yo'l oldi. Puyodan chiqayotib yo'lda (u) Omnitesu daryosiga duch keldi. Van daryodan qanday o'tishni o'ylab, shunday dedi: «Men Buyuk Osmon o'g'liman. Onam — Daryo xudosining qizi. Men uchun, [men daryodan o'tishim uchun], *chara* suv toshbaqalari, tutashing, *kobuk* toshbaqalari, suzib chiqing!» Bu so'zlarga javoban *chara* suv toshbaqalari darhol tutashdilar, *kobuk* toshbaqalari suzib chiqdilar va shu tariqa [Chxumo-van uchun] daryo-ning kechuv joyini hosil qildilar. U Xilobon mulkining g'arbida, Piryugok vohasida tanda qurdi. Tog' cho'qqisida qal'a barpo etdi. Poytaxt shaharga asos soldi. Ammo Chxumo-vanning ko'ngli dunyoviy ishlardan quvonch topmas edi. Shu sababli Osmon Podshosi vanni qarshi olish uchun yerga Sariq Ajdarni yubordi. Van Xilobon mulkining sharqiy tepaligida turgan edi. Sariq Ajdar uni yelkasiga o'tqizib, osmonga olib chiqib ketdi. Osmon Podshosining hukmiga binoan Chxumo-vanning to'ng'ich o'g'li Yuryu-van adolat yo'liga ergashdi va mamlakatda farovonlik va tartibni barqaror etdi. Undan taxt Techuryu-vanga meros bo'lib o'tdi. Techuryu-van o'z ajdodlarining ishini davom ettirdi. Nihoyat, Chxumo-vanning o'n yettinchi bo'g'indagi avlodi

Kukkansan Kvangetxongyon Pxyonan Xotxe-van [«Davlatchilik cho‘qqilariga ko‘tarilgan, Mamlakat sarhadlarini ko‘p kengaytirgan, Farovonlik hadya etuvchi, vanlar ichida eng muhtaram va Ulug‘»]ning vaqti keldi. U taxtga o‘n sakkiz yoshida o‘tirdi va Yonnak Txevan («Boqiy quvonch» so‘zlarini o‘ziga shior qilgan vanlarning eng ulug‘i») shiori ostida podshollik qila boshladi. Uning muruvvati va saxovatli ishlari daragi Buyuk Osmonga yetdi. Uning jangovar qahramonliklari shon-shuhrati To‘rt dengiz sarhadlarigacha yoyildi va uning barcha dushmanlari ko‘ngliga qo‘rquv va g‘ulg‘ula soldi. Har kim o‘z ishida quvonch topdi. Mamlakat gullab-yashnadi. Xalq farovonlikda hayot kechirdi. Besh donli o‘simlik yaxshi hosil berib turdi. Biroq ulug‘ Osmon taqdirarni beg‘araz hal qiladi: van 39 yoshga to‘lganda Osmon aravasi mamlakatni tark etdi. *Kapin* yili 9-oyining 29-sanasida, *ilyu* kunida van daxmada dafn etildi, so‘ngra yodgorlik toshi o‘rnatildi. Va unda vanning xizmatlari avlodlarga o‘rnak bo‘lsin uchun qayd etildi.



II. KORYO SULOLASI ADABIYOTI (X–XIV ASRLAR)

BIRINCHI DAVR

(X asrning birinchi yarmi – XII asr)

Koryo davri adabiyoti Uch podsholikning yemirilishi, Van Gon (918–934) tomonidan boshqarilgan Koryo markazlashgan davlatining barpo etilishi va mustahkamlanishi sharoitida rivojlangan.

Koryo davrida podsho Kvon Djon (945–975) islohotlari bilan bog'liq progressiv jarayonlar yuz bergan. Bular: davlat imtihonlarining joriy etilishi, 1234-yilda jahonda birinchi harakatchan metall bosma shriftning kashf etilishi, 80000 jildli Tripitaki («*Pxalman Tegjangon*»)ning yaratilishi, vanlarning tarixiy solnomalari – «Sillok», 1145-yilda Kim Busik tomonidan «Uch podsholikning tarixiy yozuvlari» («*Samguk sagi*»)ning yaratilishi, savdosotiqning keng rivojlanishi va h.k.

Shu bilan birga, Koryo davrida uning rivojlanishida jiddiy qiyinchiliklar tug'dirgan fojiali voqealar yuz berdi. Bular: 90 yillik harbiy rejim o'rnatilishiga olib kelgan 1170-yilgi harbiy to'ntarish; mo'g'ullar istilosi va hukmronligi (1231–1255), ularning dovyurak van (1351–1344) tomonidan quvg'in qilinishi; xalq noroziligining kuchayib borishi, qudratli qo'shnilar tazyiqining kuchayishi (shimoldan xitoy «qizil bog'ichiilari»ning, janubi-g'arbdan yaponlarning hujumlari); Susima uchun qahramonona kurash va uning 1389-yilda sarkardalar Chxve Yon va Li Songe tomonidan ishg'ol qilinishi; Koreya podshosi (1389–1392)ning taxtdan ag'darilishi, taxtga sarkarda Li Songening o'tirishi va u yangi sulola – Choson (Li) sulolasiga asos solishi.

Bu chuqur o'zgarishlar, fojiali voqealar, xalqning og'ir ijtimoiy ahvoli adabiyotning rivojlanish jarayonida yangi tendensiyalarni – yangi janrlar va mavzularning tug'ilishini belgilab berdi.

Koryo davri adabiyotining rivojlanish jarayoni uning an'analari o'z mavqeyini saqlab qolganidan dalolat beradi. Chunonchi, ilk davrda *xyanga* avvalgidek mashhur bo'lib qoladi. Shoir-rohib Kyunyoning «Poxyon yenbonga» to'plami, shuningdek *koryo-kayodagi xyanga* an'analari («Koryo qo'shiqlari») keng dovruc qozonadi. *Xanmundagi* peyzaj lirikasi rivoj topadi, u «Dengizdan sharqdagi mamlakatdan yetti donishmand» sifatida mashhur bo'lgan anoxoret shoirlarning asarlarida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

XII–XIII asrlarda badiiy nasrning tarixiy adabiyotdan ajralishi «norasmiy tarixlar» («*yasa*»)ning paydo bo'lishini belgilaydi (masalan, buddaviy rohib Iryonning «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asari¹), tarixiy solnomalar qabilidagi soxta tarjimayi hollar yaratiladi (ular «*chon*» belgisi bilan ajratib ko'rsatiladi).

Tarixshunos nomidan tuzilgan muallifning qisqacha kirish so'zi soxta tarjimayi hollarning muqarrar tarkibiy elementi hisoblanadi. Bunday asarlarga Lim Chxunning «Denga haqida hikoyati» (XII asr), Li Gyuboning «Dono Qulmoq hikoyati» (L.Konsevich fikriga ko'ra, uning yozilishiga asos bo'lib XI asrda yashab ijod qilgan xitoy tarixchisi va shoiri Ouyan Syuning «Mamlakatning qulmoq shiyponi» deb nomlangan nasriy dostoni xizmat qilgan), Li Gokning «Bambuk xonim hikoyati» (XIV asr) misol bo'lishi mumkin².

Koryo davri adabiyoti yangi janr — *pxesol*, ya'ni *xanmundagi* kichik nasriy asarlar bilan boyigan. O'rta asrlar nasriy adabiyoti-ning turlaridan biri — *pxesol* (*pxegvan* — *sosol*ning qisqartirilgan va qo'shilgan ko'rinishi) xalq og'zaki ijodi, «og'izdan og'izga o'tib yurgan hikoyalar» va XII–XVII asrlarning norasmiy tarixshunosligi negizida vujudga kelgan³. Li Inno (1152–1220)ning «Bekorhilikdan yozilgan hikoyalari», Li Gyubo (1190–1241)ning «Pegun haqidagi rivoyati», shuningdek muallifi noma'lum novellalar va latifalar xalq orasida keng tarqalgan. XIV–XV asrlar

¹ Литературный энциклопедический словарь. — М., 1987. — С. 315.

² Концевич Л.Р. Корейская средневековая историческая проза в ее историческом и жанровом развитии. <http://liticha.ru>

³ Елисеев Д.Д. Корейская средневековая литература пхэсол. — М., 1968.

chegarasida yangi janr — *sidjo*, ya'ni koreys tilidagi uch misrali she'rlar paydo bo'lgan.

Koryo davrining tarixiy voqeligi yangi janrlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, adabiyotda millatni jipslashtirish, davlatchilikni mustahkamlash, maishiy va ma'naviy an'analarni, turmushning barqaror shakllarini rivojlantirishga bo'lgan milliy ehtiyoj bilan belgilanuvchi muhim muammolarning qo'yilishi bilan ham tavsiflanadi. Koryo davrida quyi tabaqalarning ijtimoiy ahvoli bilan bog'liq masala ayniqsa keskin tus oladi. Bu tasodifiy bir hol emas, zero, yildan yilga ko'payib borayotgan xalq qo'zg'olonlari islohotlarni amalga oshirish, «*nobi*»ga nisbatan jabr-zulmni yumshatish zarurligidan darak berar edi. Adabiyotda o'z hayoti bilan xalqqa xizmat qilish, davlatchilikni yuksaltirish borasida ulkan xizmatlar ko'rsatgan shaxslarning hayoti va faoliyatini aks ettirish zaruriyati alohida milliy ehtiyojga aylanadi. Shu tufayli ham buyuk zotlarning ko'rgan-kechirganlari, xususan, Kim Busikning «Samguk sagi», Kakxunning «Dengizdan sharqdagi mamlakat munosib monarxlarining ko'rgan-kechirganlari», Iryonning «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asarlari alohida ahamiyat kasb etadi¹.

Koryo davri adabiyotining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda konfutsiychilik va buddaviylik g'oyalari, lavozimni egallash uchun davlat imtihonlari tizimining joriy etilishi (1158) va konfutsiychilik xususiy maktablarining ochilishi bilan belgilangan *xanmundagi* adabiyotga bo'lgan qiziqishning kuchayishi o'z aksini topgan. Kim Busikning «Uch davlat haqida tarixiy yozuvlar» («Samguk sagi» (1145)) asari haqli ravishda Koryo davri adabiyotining cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi.

¹ Елисеев Д.Д. Корейская средневековая литература пхэсоль. — М., 1968.



1. *Nafis nasr – allegoriya, soxta (to‘qima) biografiya*

LIM CHXUN (XII ASR)

DENGA HAQIDA HIKOYAT

Dengani Kunfan – «Kvadrat teshik» deb chaqirisharkan, laqabi esa «Bog‘ich» ekan. Qadim zamonlarda uning bobokaloni Shouyanshan tog‘idagi g‘orda yolg‘iz yashagan, hech kimga hech qachon ko‘rinmagan va odamlarga xizmat qilmagan ekan. Uni Xuan-di davrida asta-sekin yuzaga chiqara boshlashibdi, biroq u tabiatan qattiq va hali pechda tozalanmagan – o‘z davrining ishlarida mohir emas ekan. Shunda podsho temirchini chaqirib, undan Denganing bobokaloniga baho berishni so‘rabdi. Temirchi unga uzoq tikilib turibdi va nihoyat, shunday debdi:

— O‘z mohiyatiga ko‘ra u tog‘ning ichidan olingan ruda va uni shu holda ishga solib bo‘lmaydi, chunki u hali xom loyga o‘xshash bir narsa. Ammo uni qozonda eritib, siz, podshohim, narsalarni yaratuvchi va o‘zgartiruvchi joyda bolg‘a bilan urib ishlov bersak, so‘ng uni qirtishiab tozalasak va yaltiratib pardozlasak, o‘shanda uning tabiiy xossalari namoyon bo‘ladi. Siz, dono podshohim, odamlardan xizmatda foydalanar ekansiz, ularga munosib baho berasiz. Podshohim, siz uni yaroqsiz bir mis bo‘lagi deb hisoblamasligingizni istar edim.

Shundan so‘ng Denganing bobokaloni dunyoda dong taratibdi. To‘g‘ri, keyinchalik, olatasir zamonlarda, u ko‘rinmay qolibdi, ta‘bir joiz bo‘lsa, daryolar va ko‘llarda yashirimibdi, shunda u o‘ziga uy quribdi. Denganing otasi – Tanga Chjou sulolasi davrida kansler lavozimiga erishib, mamlakatda soliq ishini boshqargan

ekan. Denganing o'zi sirtidan yumaloq, ichdan to'rtburchak bo'lib, davr ehtiyojlariga, yuz bergan o'zgarishlarga osongina moslashar ekan.

Xan sulolasi davrida Denga jarchi bo'lib xizmat qilibdi, U mulki podshosi Pi haddidan oshib, o'zini imperator kabi tutgan va o'zboshimchalik bilan tanga zarb eta boshlaganda, Denga foyda olish maqsadida u bilan birga ish ko'ra boshlabdi.

U-di zamonida mamlakat xarob bo'libdi. Hukumat g'aznalari va omborlar bo'shab qolibdi. Bundan tashvishga tushgan podsho Dengaga yuqori lavozimni taklif qilibdi, unga «Xalqni boyituvchi knyaz» unvonini beribdi. Denga o'z malayi Kun — «Teshik» bilan birga saroyda tanda quribdi. Kun o'sha payt «Tuz va temir boshqaruvchisining yordamchisi» lavozimida bo'lgan ekan. Teshik Dengani aka deb chaqirarkan, uning ismini aytmas ekan.

Denga tabiatan ochko'z va badkirdor ekan, burchaklari ham, prinsiplari ham yo'q ekan — aylanma yo'llardan g'ildirar ekan. U g'aznani boshqara boshlagach, yengil va og'ir tangalarni bir vaznga solish uning yaxshi ko'rgan ishiga aylanibdi. Denga davlat uchun foydani qadimgi tartiblarni qaytarishdan emas, balki qoliplash va quyish usullaridan qidirish kerak, deb hisoblar ekan. Shuning uchun ham u arzimagan foydani ko'zlab odamlarning g'ashiga tegar, dam narxlarni oshirar, dam tushirar, bug'doyini jini suymas, ayirboshlash vositalarini qadrlar ekan. Denga xalqni asosiy ishi — dehqonchilikni tashlashga va ikkinchi darajali ish — savdoning izidan quvishga da'vat etar ekan. Bularning barchasi qishloq xo'jaligining tagiga suv quyib boribdi.

Podsho maslahatchilari bundan tashvishga tushib, unga ma'lumotlar taqdim etishibdi, o'z tashvishlarini unga og'zaki bildirishibdi, biroq podsho ularning gapiga quloq solmabdi.

Denga esa, dongdor oilalarning xizmatini qilib, ularning pinjiga kira boshlabdi. O'z xizmat mavqeyini suiiste'mol qilib, unvonlarni pulga sotibdi. Mulozimlarni ko'tarish va ishdan bo'shatish — bularning hammasi uning qo'lida ekan! Hatto aksariyat vazirlar unga qulluq qilisharkan.

Denga boylik to'plabdi, uning qimmatbaho qog'ozlari tog'lar silsilasidek uyulib ketibdi, ularning son-sanog'i yo'q ekan. Denga

birov bilan yaqinlashsa, uning yaxshi-yomon odam ekanligi bilan qiziqib o'tirmas ekan, hatto bozorda va quduqlar yonida savdo qiluvchilar bilan ham do'stlashaverarkan. U vijdoni qiynalmasdan boylik to'playveribdi. Ta'bir joiz bo'lsa, Denga bozorda aylanarkan. U hatto to'g'ri yo'ldan ozgan qishloq bolalari bilan qimor ham o'ynarkan. Denga oxir-ketini o'ylamasdan hammaga va'da beraverar ekan. Shu bois zamondoshlari u haqda: «Denganing bitta gapi yuz szin tillaga teng!», deyisharkan.

Textga Yuan-di o'tirgach, Gun Yuy imperator ma'lumot taqdim etibdi: «Denga ko'p sonli ishlar bilan uzoq yillardan beri shug'ullanadi, lekin dehqonchilikning ahamiyatini hanuzgacha tushunmaydi. U faqat g'azna daromadini ko'paytirishni biladi, bu esa davlat ildiziga bolta uradi va xalqqa ziyon yetkazadi. Fuqarolar ham, g'azna ham muhtojlikka yuz tutgan. Poraxo'rlik tartibsizliklar va chalkashiiklarga yo'l ochmoqda, davlat tepasidagilar esa bunga ochiq-oydin yo'l qo'yib bermoqdalar. Eng muhim lavozimlarni mayda odamlar egallagan, natijada buzg'unchilar ko'payib ketmoqda. Bularning barchasi katta o'zgarishlar darakchisidir. Sizdan Dengani lavozimidan olishni so'rayman, toki bu ochko'z va tuban odamlarga o'git bo'lsin».

O'sha payt hokimiyat tepasida turgan odamlar orasida Gulyanning «Bahorlar va Kuzlarga» asariga sharhni bilgani uchun ko'tarilganlar ham bo'lgan ekan. Ular qo'shin uchun mo'ljallangan mablag'lardan yangi chegaraga oid siyosatni o'rnatish uchun foydalanmoqchi bo'lishibdi. Dengani yomon ko'rgan bu odamlar Gun Yuyning maslahatini qo'llab-quvvatlashibdi va shunda imperator uning ma'lumotini inobatga olibdi. Denga lavozimidan olimbdi va davlat ishiaridan chetlatilibdi. O'z malaylariga u shunday debdi:

— Men charxda loyni shaklga solayotgan usta yanglig' o'z xalqi odatlarini o'zgartirayotgan imperator bilan qisqa muddat uchrashdim. Men uning yordamida davlat xazinasini to'ldirmoqchi, oddiy odamlar boyligini ko'paytirmoqchi bo'ldim. Bugun arzimagan bir aybni deb menga tuhmat qildilar va uloqtirib yubordilar, biroq men o'zimning xizmatdagi mavqeyimga biror narsani qo'shganim va undan biror narsani ayirganim ham yo'q.

Shukrki, hayotim o'zimda qoldi, u ingichka ip kabi uzilmadi. Biroq, bo'sh meshdan sharob chiqmaganidek, rad etilgan mulozim ham sukut saqlashi kerak. Men endi davlat ishlaridan uzoqda yashayman. Ko'z yoshlarim qurigan hovuz kabi yo'qoladi. Men esam Yansziszyan va Xuayshuy daryolarida boshqa ishlar bilan shug'ullanaman: Joe soyiga qarmoq tashlayman, baliq tutaman va sharob sotib olaman. Min yurti tojirlari va dengiz savdogarlari bilan birga sharob ortilgan qayiqda suzib ketaman! Hayotni faqat shunday tugatish to'g'ri bo'ladi! Buni men hatto ming *chjun* bug'doydan iborat maoshga va mulozimning ovqatiga, besh uchoyoqda qurbonlik uchun taomlar keltirish imkonini beruvchi yuksak lavozimga ham almashimayman! Ammo men, boshqarish usullarim bir kuni kelib tiklanadi, deb o'ylayman!

Darhaqiqat, Szin sulolasi davrida Dengadan meros qolgan huquqlar haqida eshitgan Xe Pyao ismli bir odam ulardan foydalanibdi va yuzlab millionlar bilan o'lchanadigan cheksiz boylik to'plabdi! Shunda boylikka muhabbat unda ehtirosiga aylanibdi, shu tufayli ham Lu Bao traktat yozibdi va unda buni qoralab, Xe Syao tarqatgan odatlardan voz kechishga chaqiribdi.

Yuan Syuan-szi bag'ri keng zot bo'lib, chakana odamlar bilan muloqotdan ko'ngli to'lmas ekan. U Denganing izdoshlari bilan uchrashar va asosiga tayanib sayrga chiqar, qovoqxonaga kirib, u yerda may ichar ekan.

Usta Van I-fu Denganing nomini hech qachon tilga olmas ekan, u Dengani «buz iflos» deb atarkan. Halol va rostgo'y odamlar undan shunday nafratlanishar ekan.

Tan sulolasi taxtni egallagach, Lyu Yan xarajatlar hisobini yuritish uchun tayinlanibdi. Mablag'lar yetishmagani tufayli, u davlat ehtiyojlarini qondirish uchun Denga joriy etgan boshqarish usullarini tiklashni so'rabdi. Bu haqdagi hikoya «Ovqat va pul haqida traktat»dan o'rin olgan.

Denganing o'zi bu paytga kelib vafot etgan, uning shogirdlari boshqa joylarga ko'chgan va butun mamlakat bo'ylab tarqalib ketgan ekan. Ammo podsho amridan so'ng ularni qidira boshlashibdi, topilganlarini qayta lavozimga tayinlab, ulardan davlat xizmatida foydalana boshlashibdi. Shu bois Denga joriy etgan

usullar Kay-yuan va Tyan-bao davrida keng qo'llangan ekan. Denganing o'ziga imperator farmoni bilan o'limidan keyin Saroy maslahatchisi va kichik g'aznachining yordamchisi unvoni berilibdi.

«Olovli Sun» sulolasidan bo'lgan Shen-szun davrida Van An-shi davlat lavozimiga erishgach, Lyuy Xoy-sinni xizmatga olibdi; ular ikkovlon podshoga davlatni boshqarishda yordam berishibdi va unib chiqqan ekinlar uchun to'lov ta'sis etishibdi. Xitoyda o'sha payt tartibsizliklar boshlanibdi va ulug' muhtojlik qaror topibdi. Su Shi imperatorga ma'lumotlarida o'zlari o'rnatgan yangi tartiblarning bu kamchiligini atroflicha muhokama qilibdi va uni butunlay bartaraf etmoqchi bo'libdi, biroq o'zi fitnaga yo'liqibdi va shundan so'ng lavozimidan olinib, quvg'in qilinibdi. Shundan keyin saroydagi vijdonli olimlar haqiqatni gapirishga jur'at etmay qo'yishibdi.

Ammo bosh vazir lavozimiga Sima Guan o'tiribdi. U podshoga Van An-shi qonunlarini bekor qilish to'g'risida ma'lumot taqdim etibdi. Uning tavsiyasi bilan Su Shini xizmatga qayta olishibdi. Shundan keyingina Denga izdoshlari o'z mavqeyini yo'qotib, soni kamaya boshlabdi. Denganing o'g'li — Yumaloqni o'z davri odamlari yengiltakligi uchun qoralashibdi, u suvlar va bog'larning bosh noziri etib tayinlangach, u qonunni buzib boyigani fosh bo'libdi va uni qatl etishibdi.

Tarixchi deydi:

«Podsho xizmatida bo'la turib o'z manfaati yo'lida ikkiyuzlamachilik qilgan odamni yaxshi fuqaro deb atash mumkinmi? Denganing fikri-xayoli faqat qonun va podshoni aldashda bo'ldi. Podsho Dengani o'ziga do'st tutib, unga cheksiz iltifot ko'rsatdi. U podshoning boyligini ko'paytirishi, unga tahdid solayotgan ziyonni bartaraf etishi va shu tariqa uning marhamatiga minnatdorchilik bildirishi kerak edi. Buning o'rniga u Piga podsho hokimiyatini o'zlashtirishga yordam berdi va o'z atrofiga yaramas tarafdorlarni to'pladi. Ha, Denga podsholik chegarasidan tashqarida tanish-bilish orttirmaydigan yaxshi fuqaro emas edi! Denga vafot etgach, uning izdoshlari «Olovli Sunn» davrida yana kuchga kirdilar. Ularni xizmatga qabul qila boshiashdi. Ular puldorlarni

yaltoqilik bilan hokimiyatga tortdilar, halol odamlarga esa, aksincha, fitna uyushtirdilar. Ishi foyda yoki zarar keltirishini hech kim bilmas edi. Imperator Yuan-di Gun Yuyning maslahatiga quloq solib, Denganing malaylarini bir kuni tongda qatl qilganida, musibatlarining oldini olsa bo'lardi. Ammo u ularni cheklamay va daromadlarni tekshirmay qo'ydi, natijada nuqsonlar keyingi asrlarda ham keng tarqaldi. Bu haqda oldindan ogohlantirgan odam o'z so'zlariga ishonchsizlikdan jabr ko'rganini qanday tushunish mumkin?»

LI GOK

BAMBUK XONIM

Xonim Bambuklar urug'idan bo'lib, uni Tayanch deb atashar ekan. U Veyshuy daryosi bo'yida o'sgan, Szyan-taygunga sibizg'a bo'lib xizmat qilgan o'sha Ulkan Bambukning qizi ekan. Ularning urug'i esa Yosh Bambukdan tarqalgan ekan. Uning bobokaloni kuy va ohanglarni yaxshi farq qilar ekan va nay bo'lib xizmat qila olarkan, shu bois Xuan-di uni kavlab olishni buyuribdi va musiqa ishlarini boshqaruvchi etib tayinlabdi. Farovonlik davrida yangragan Yuyning ajoyib sibizg'a navolari uning avlodi ekan.

Qadim zamonlarda Yosh Bambuk shimoldan, Kunlun tog'laridan sharqqa kelgan ekan. Podsho Fu-si davrida u Teri bilan birga yozuv ishlarini boshqargan va bu borada katta yutuqlarga erishgan ekan. Avlodlari uning ishini davom ettirishibdi va tarixchilar bo'lib yetishishibdi. Ammo Sin kulfatlari kelibdi va Li Sining yozishicha, kitoblarni kuydirishibdi va konfutsiychilarni tiriklayin yerga ko'mishibdi. Yosh Bambukning urug'i siyraklashib qolibdi.

Xan davrida Say Lun uyidan bo'lgan Qog'oz ismli bir zot yozuvni mukammal o'rganibdi va Mo'yqalamni o'ziga og'diribdi. O'sha zamonlarda u janob Bambuk bilan do'st bo'lgan ekan. Ammo o'sha paytdayoq bu Qog'oz buzuq va tuhmatchi sifatida dong taratgan ekan. Bambukning rostgo'yiligi va miardligi unga

yoqmaq. U yemirish uchun Qurti yuboribdi. Qurt zimdan ish ko'rib, Bambukning tagiga suv quyubdi. Qog'oz Bambukning lavozimini egallab olibdi.

Chjou sulolasi davrida Bambukning avlodlari o'sishibdi. Ularning orasida Qarmoq dastasi ham bo'lib, u Taygun bilan birga Veyshuy daryosi bo'yida baliq ovlar ekan. Qarmoq dastasi ko'pincha do'stiga shunday der ekan:

— Eshitishimcha, katta qarmoq yaxshi ilmas emish. Umuman olganda, rost qarmoqni tanlagan ma'qulmi yoki egri qarmoqnimi — ishning muhimligiga bog'liq. Rost qarmoq bilan podsholikni ilintirish mumkin, egri qarmoq bilan esa faqat baliq tutish mumkin!

Taygun uning maslahatiga quloq solibdi: keyinchalik u Venganga ustoz bo'libdi va unga Si mulki hadya qilinibdi. Taygun donishmand Qarmoq dastasini unutmaq va unga Veyshuy daryosi qirg'oqlarini mulk qilib beribdi. Shuning uchun ham bu Bambuklar tagi Veyshuy qirg'oqlaridan. Hozir Qarmoq dastasining avlodlari doirasi kengaygan, xuddi Ingichka Bambuklardan iborat daraxtzorlarni eslatadi. Ularning ayrimlari Yanchjouga ko'chib borgan, Mayda va Yirik Bambukka aylangan, ba'zilar *xu* mulkiga borib, u yerda bambukdan shiyponlar lavozimini olgan.

Bambuklar ham harbiy, ham noharbiy xizmatni bajarish uchun yaxshi qobiliyatga ega bo'lgan ekanlar. Shu bois ularni marosimlarga va musiqa chalishga taklif qilisharkan, ular to'qilgan savat, qurbonlik idishi va sibizg'a bo'lib xizmat qilishar ekan, hatto kamon o'qlari va baliq ovlash uchun qarmoq dastasi bo'lib ham dovuq qozonishgan ekan. O'z-o'zidan ravshanki, ularning mayda ishlari haqida ham kitoblarda yozishar ekan.

Butun oiladan faqat Bambuk Gan tabiatan omilkor emas ekan, odamovi bo'lib, o'qishni istamas ekan. U uzlatnishin hayot kechirar, hech qayerda xizmat qilmas ekan. Shunga qaramay, Ulkan Bambukdek o'g'ilni o'stirgan ekan. Ulkan Bambukning faqat bitta ukasi bo'lgan ekan, uning ismi Yirik Bambuk ekan. U ham akasi Ulkan Bambuk kabi rostgo'yligi va halolligi bilan nom chiqargan ekan... U Van Szi-yu bilan yaxshi do'st bo'lgan ekan. Van Szi-yu u haqda: «Do'stimsiz bir kun ham yashay olmayman!», deb aytgan ekan. Shundan beri uni «Mening

do'stim» deb atasharkan. Buni qarang! Szi-yu o'zi rostgo'y odam bo'lgan va rostgo'y odamlar bilan do'st tutingan ekan — odamning ichidagini ko'ra bilgan ekan.

Ulkan Bambuk Sariq nilufarning qiziga uylanibdi va qizlik bo'libdi. Shu qiz Bambuk xonim bo'lib yetishibdi. U bolalikdan bokiralik bilan ajralib turar ekan. Bambuk xonim bilan bir mahallada Badkirdor degan bir kimsa yashar ekan. U betavfiq bir she'r bitibdi va uni Bambuk xonimga taqdim etibdi. Xonim she'rni o'qib jahli chiqibdi: «Erkaklar va ayollar, albatta, bir-biriga o'xshamaydi, lekin sha'n novdadek nozik va hamma uchun birdek qadrli. Uni bir marta sindirsang, qayta tiklay olmayсан!»

Badkirdor uyatdan loladek qizarib Bambuk xonimning huzurini tark etibdi. Ayol kishining ko'nglini olish buqaning ipidan tortishdek bir gap ekanmi? Qanday qilib bunday betavfiq odam bo'lish mumkin!

Bambuk xonimning bo'yi yetgach, unga Qayrag'och sovchi yuboribdi.

— Knyaz Qayrag'och olijanob odam, — deyishibdi Bambuk xonimning ota-onasi. — Knyazning yaxshi xulq-odobi bizning oilamizga mos keladi.

Shuning uchun ham Bambuk xonimni knyaz Qayrag'ochga erga berishibdi.

Bambuk xonim kundan kunga aqli to'lib, xulq-atvorida sobit bo'lib boribdi. U hamma narsani tushunishga qodir, o'z gapi bilan barcha shubhalarni tumandek tarqata olar ekan. Og'ir davrlarda unga irodalilik namunasi bo'lib mashhur Olxo'ri Meyning shubrati xizmat qilibdi. Bambuk xonimning Olxo'ri Meyga ishonchi baland ekan. Unga qachondir biladigan odam gapirmaydi, deb aytgan Olxo'ri Lining sukuti ham ko'p ma'qul ekan. O'z ajdodi unga o'rnak emas ekan, qariya Mandarinning g'ururi yoki Konfutsiyning nasihatlariga quloq solgan donishmand O'rik haqida-ku, gapirmasa ham bo'ladi! Tumanli tonglarda va oydim kechalarda u Shamol bilan birga she'rxonlik qilar, Yomg'ir bilan shivirlab suhbatlashar ekan. Uning nozik qaddi-qomatini mo'yqalam bilan chizib bo'lmaydi! Men, qiziqarli hikoyalarning

nomunosib havaskori, Bambukni mahorat bilan madh etgan Ven Yuy-ke va Su Szi-chjan kabi, ajdodlarga dur, inju sifatida yetkazish uchun uning chiroyini vasf etishga harakat qildim.

Janob Qayrag'och xotinidan o'n sakkiz yosh katta ekan. Umrining shomida u, umrboqiy zotlarga taqlid qilib, Guchenshan tog'iga yo'l olibdi, lekin bu yerda toshga aylanibdi va uyiga qaytib kelmabdi. Bambuk xonim kunlarni yolg'izlikda kech qilar, qo'shiq aytar va Shamoldan o'zini asrar ekan. Uning yuragi g'am-g'ussaga to'libdi va o'zini tuta olmay, mayga ruju qo'yibdi. Solnomalarda Bambuk xonim hayotining barcha bosqichlari haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan, lekin beshinchi oyning o'n uchinchi sanasi — «bambuk qulmog'i kuni»da Bambuk xonim gultuvakka ko'chib o'tgani va tinimsiz may ichgani ma'lum. Maydan u qoqshoqlik kasaliga yo'liqibdi va avvalgi chiroyini yo'qotibdi.

Bambuk xonim ramaqijon bo'lib qolibdi. Birovning yordamisiz u o'z gavdasini tutib turolmas ekan. Lekin qarigan paytida ham u o'zining yaxshi fazilatlarini yo'qotmabdi. Hamqishioqlari uni doim maqtab gapirisharkan, uch viloyat hokimi va xonimning familiyadoshi — janob Bambuk uning hayotini solnomalarda qayd etibdi. Bambuk xonimga «sodiq xotin» unvoni berilibdi.

Tarixchi bu haqda shunday deydi:

«Bambuk xonimning ajdodlari katta xizmatlari bilan nom chiqargan, ularning barcha avlodlari yaxshi iste'dodlarga ega bo'lgan. Ularning yuksak fazilatlarini butun dunyoda madh etilgan — xuddi Bambuk xonimning donoligi singari! Axir u olijanob inson bilan turmush qurgan, odamlar e'tirofini qozongan, biroq, afsuski, o'zidan zuryod qoldirmay vafot etgan! Osmon yo'llarini tushunish mumkin emas, deb bejiz aytishmagan!»

KUKSUN HAQIDA QISSA

Qadim zamonda Kuksun va uning Chahu ismli o'g'li bo'lgan ekan. Ularning ajdodlari Xitoyning Sin sulolasi davrida Nongso viloyatidan bo'lib, 90 avlodi Mo' qiroli Sun davrida dehqonchilik ishlarini boshqargan. Hujikka yordam bergan va och aholining qornini to'ydirgan. «Shigyong» she'riy to'plamida «Menga bug'doy va arpa berdi» deya aynan shu voqeaga ishora qilingan.

Mo' boshqaruv ishlariga aralashmay yashirini yashar, «mehnat qilib hayot kechiraman», deya dalada kun o'tkazardi.

Bir kuni qirol Mo'ning farzandi borligini bilib, bolani huzuriga olib kelishlarini buyurdi. Buning evaziga o'sha tumanning burchaklarigacha sovg'a jo'natib, u xonadon bilan do'stlik ipini bog'ladi. Shundan so'ng Mo'ning ham ko'ngli ilib, do'stlikka rozilik bildirdi. U sevingancha shunday derdi: «Orzuymgni o'g'ling amalga oshiradi deganlari to'g'ri ekan».

Shundan so'ng Mo'ning toza qalb egasi ekanligi haqidagi xabar hamma yoqqa tarqaldi. Qirol ham bu xonadonni doimo maqtardi. Bundan tashqari, qirol xudoga qurbonlik qilinadigan joy sifatida Chungsanhuri tayinlab, soliq to'lovchi o'n ming uy aholining yarmini soliqdan ozod qildi. Shundan so'ng Mo'ni Kuk deb atay boshladilar. Mo'ning beshinchi avlodi qirol Songga davlat ishlarini barqarorlashtirishda o'z yordamini berdi.

Lekin qirol Kang taxtga o'tirgach, Mo'ning avlodlariga sovuq munosabat ko'rsata boshladi. Keyingi asrlarda uning avlodlari xalq orasida berkingancha yashadilar. Vey sulolasi davri boshlariga kelib, Sunning otasi Juning nomi butun dunyoga tanildi. U qirolga kelgan maktublarga mas'ul shaxs So Mak bilan yaqin do'st tutindi. So Mak Juni shunchalik yaxshi ko'rardi-ki, uning ismini tildan qo'ymasdi. Bu haqida qirolga xabar berib, So Makning ustidan shikoyat qiladilar. «Makning Ju bilan do'stlashishi yaxshilikka olib kelmaydi», deb aytadilar.

Qirolning qattiq jahli chiqib, Makni huzuriga chaqirtiradi va undan mavjud vaziyatga izoh talab qiladi. Mak boshini quyi solgancha qirolidan avf etishini so'rab deydi: «Qulingiz Ju bilan do'stlik aloqasini o'rnatgani rost. Ammo uning avliyolarnikidek qalbi borligi sababli, men u qalbdan bahramand bo'ldim, xolos». Qirol Makni koyib, huzuridan jo'natib yuboradi.

Shundan so'ng Sin davri boshlanishi bilan Ju dunyo izdan chiqib ketishini oldindan bilib, o'z tarafdorlari bilan o'rmon ichiga kirib, o'sha yerda hayotini o'tkazdi.

Juning o'g'li Sun qobiliyatli va oliyhimmat shaxs bo'lib yetishdi. Uning qiziqishlari dengizga o'xshardi: toza qilaman desa ilojisiz, silkitaman desa oqmasdek edi. Uning maqsadi butun

dunyoga o'z maqsadini targ'ib qilish edi. Yoshligidan hamma vaqt rohib Sopop bilan birga yurib, odamlarni qimirlolmas darajada hayratga solardilar. Uning ismi nihoyat mashhur bo'lib, odamlar konfutsiychi olim sifatida taniy boshladilar. Barcha unga muftalo bo'lib, odamlar yig'ilgan paytda Sun yo'q bo'lsa, juda siqildilar: «Sun yo'q bo'lsa, yig'in ham qiziqarli bo'lmaydi».

Sun shu tarzda odamlarning mehrini qozonib, aziz insonga aylandi. Tevi yaxshini yomondan, to'g'rini noto'g'ridan ajrata oladigan odam edi. U Sunni ko'rsatib: «Bir qari kampir shunday tirishqoq bolani dunyoga keltiribdi. Dunyo odamlarini o'qituvchi zot aynan shu boladir», degan ekan.

Uni chaqirib yaxshi aroq bilan mehmon qilishayotganida, holatiga to'g'ri kelmaydigan amaldorlar joyi deya, yana past sifatli aroqni buyurdi. Birozdan so'ng afsuslanib dedi: «men guruch va ot tufayli belimni bukib, yurtimning yosh bolalariga ta'zim qilgandan ko'ra, yaxshisi, mayxonada bolalar bilan suhbat qurganim yaxshi», dedi.

Shu payt odamning yuziga qarab kelajakni aytib beruvchi bir yigit unga qarab bashorat qildi: «yuzingizning qizilligi sizni yuqori mansab va katta foyda kutayotganidan darak beradi. Ozigina kutsangiz bas», dedi. Sin sulolasi vorislari davriga kelib ichonchli oila vakili sifatida chet davlatlar bilan aloqalarga mas'ul bo'ldi. Qirol uning boshqalarga o'xshamas og'ir-bosiqqligini ko'rib, kelajakda mushkul vaziyatlarda yordami tegadi, deya uni yonida olib yurdi. Har davlat majlislarida Sunni chaqirar, qadahini unga to'ldirtirar edi. Uning qadahni to'ldirib uzatishi amaldorlarga ham yoqardi. Qirol esa doimo uni maqtardi: «Sen juda chaqqon va bosiqsan. Senga yuragimni ochib xotirjam bo'lishim mumkin», der edi.

Shunday qilib, Sun hokimiyatga ham istagancha aralashish huquqiga ega bo'ldi. Mezbonlik qilayotganda ham yoshi kattalarni hurmat qilib boshini egib may uzatar, ruhiarga bag'ishlab qirollik xilxonasida o'tqaziladigan marosimlarga ham Sun bosh-qosh edi. Qirol tunda ziyofat qilayotganda ham yonida faqat u va xos soqchigina qolar, eng ishonchli amaldorlarga ham u yerda qatnashishga ruxsat etilmasdi.

Shundan so'ng qirol o'likdek mast bo'lib, davlat ishlari haqida qayg'urmay qo'ydi. Sun buni bilsa-da, og'zini mahkam yopib

maslahat bermas va shu sababdan odob-axloq qoidalarini biluvchi olimlar Sunni yolg'unchilikda ayblashardi. Qirolgina uni o'z hlmoyasiga olardi. Sun pul yig'ib qurbonlik marosimi o'tkazmoqchi bo'lganida ham amaldorlar uni yomon maqsadda qilganlikda aybladi.

Bir kuni qirol so'radi: «Sening qanday yomon odatlaring bor?»

Sun javob berdi: «Avvallari Dao asarini yoqtirar edim, Vangjening so'zlarini sevib o'qirdim va qulingizning pulga qiziqishim bor».

Qirol qattiq kulib yubordi va Sunni yanada qadrlay boshladi.

Kunlarning birida Sun qirol yonida ketayotgan edi. Tabiat qo'ynida sayr qilib yurishganda Sunning og'zidan hid chiqdi va bu holat qirolga yoqmasdan so'z qotdi:

«Sen endi qarib, yuklatilgan vazifani bajarolmaydigan bo'lib qoldingmi?»

Sun bu gapni eshitgach boshidan tojni yechib, avf so'ragancha dedi: «Qulingizni vazifasidan ozod qilishga qarshilik qilmasangiz. Butun vujudimni xavotir egallagan. Kaminani o'z uyimga jo'natsangiz, u yerning ahvolini bilar edim».

Qirol xizmatkorlariga buyurib, Sunni ehtiyotlab uyiga qaytardi. Sun uyiga kelishi bilanoq birdaniga kasal bo'lib, bir kechada vafot etdi. Uning o'g'li yo'q bo'lib, Chong ismli uzoq qarindoshi bor edi. Keyinchalik Tan imperiyasi davrida hokimiyat Nekong Bong qo'lga o'tgach, Mo' avlodlari yana Xitoyda e'zozlana boshlandi. Tarixiy manbalarda shunday deyilgan: «Kuk va uning ajdodlari xalqqa xizmat qildi va adolatlilikni avlodlariga meros qoldirdi».

DONO QULMOQ

Donolar donosi janob Syuy, ya'ni Qulmoq tagi Maybuloq okrugidan bo'lib, laqabi Chjun-chji, ya'ni «Mergan» ekan. Uni yoshligida ulug' mayparast Syuy Mo yoqtirib qolib, unga shu ism va laqabni bergan ekan. Qulmoqning uzoq qarindoshlari Teplin degan joydan bo'lib, ular bu yerda dehqonchilik qilib kun kechirisharkan. Chjen podsholigi qo'shinlari Chjouga hujum qilganda, boshqa o'lja qatori Qulmoqning qarindoshlarini ham

olib ketishgan ekan, shu bois nomi zikr etilgan podsholikda uning ayrim avlodlari yashagan ekan. Bobokalonining ismini tarixchilar saqlab qolishmagan. Bobosining ismi Mou — Arpa ekan. Ayni shu Arpa bir paytlar Maybuloq okrugiga kelib oʻrnashgan va Qulmoqning urugʻiga asos solgan ekan.

Qulmoqning otasi — janob Oq may avval Pinʼyuanda nazoratchi boʻlib xizmat qilgan va shu yerda gʻazna va gʻalla noziri janob Tariqning qiziga uylangan ekan. Koʻp oʻtmay ular oʻgʻillik boʻlishibdi. Qulmoq bolalikdan ogʻir, vazmin ekan. Bir kuni otasining oldiga kelgan mehmon Qulmoqni koʻrib, uni yoqtirib qolibdi. «Bu bolaning yuragi dengizdek keng, — debdi mehmon. — Uni qancha tozalama, bundan ortiq shaffof boʻlmaydi, qancha toʻlqinlama, loyqalanmaydi! Sen bilan suhbatlashgandan koʻra, shu jajji donishmand bilan dilimni xushlaganim maʼqul».

Qulmoq ulgʻaygach, u bilan ziyofatlar kuychisi chjunshanlik Lyu Lin va may kuychisi syunyanlik Tao Syan doʻstlashibdi. Bir kuni ular shunday deyishibdi: «Qulmoqni bir kun koʻrmasang ham oʻzingda baxillik kurtak otayotganini his qilasan». Ular Qulmoq bilan uzzukun birga boʻlishar, toliqish nimaligini bilishmas ekan.

Okrugdan Qulmoqni «May xamirturushlari togʻi» muassasasiga xizmatga chaqirishibdi, biroq u chaqirilgan joyga yetib bormasdan alohida topshiriqlar boʻyicha mulozim uni nomining oʻzidan Toza may hidi keluvchi Sinchjouga taklif qilibdi. Saroy aʼyonlari uni biri olib-biri qoʻyib yuqori lavozimga tavsiya etishibdi. Shunda podsho uni ekipajmeyster qilib tayinlashni amr etibdi. Oradan maʼlum vaqt oʻtgach podsho Qulmoqni oʻz huzuriga chaqiribdi, u bilan suhbatlashibdi va unga javob berayotib shunday debdi: «Demak, Maybuloqda tugʻilgan Qulmoq sen ekansanday? Men sening xushboʻy isming abadiy saqlanishini istar edim». Shuni qayd etib oʻtish lozimki, uchrashuv arafasida saroy tarixchisi podsho huzuriga kelib Szyusisim yulduzi yanada yorqinroq chaqnay boshlaganini maʼlum qilgan ekan, koʻp oʻtmay bu yerda donolar donosi Qulmoq hozir boʻlibdi! Bu tasodif podshoni ancha lol qoldiribdi va u Qulmoqni mehmonlarni kutib olish uchun masʼul shaxsiy soqchi etib tayinlabdi, oradan maʼlum vaqt oʻtgach

uni bosh sharbatdor va shu bilan birga ziyofatlar tashkilotchisi lavozimiga ko'taribdi. Qulmoq ziyofatlardagi marosimlarni, ajdodlar ibodatxonasida bahorgi va kuzgi qurbonlik keltirishlarni ham boshqara boshlabdi. A'lo hazrat uning itoatkorligidan behad xursand ekan. Podsho Qulmoqning iste'dodlarini munosib baholab, uni oliy prokuror etib tayinlabdi va unga katta ehtirom ko'rsatibdi. Qulmoq podsho huzuriga kelganida, a'lo hazrat unga darhol ko'shka ko'tarilishni buyur va ismini aytib emas, balki «janob Qulmoq» deb chaqirar ekan. Podsho biror narsadan xafa bo'lib turgan bo'lsa ham, huzuriga donolar donosi Qulmoq kelayotganini ko'rsa, sevinchdan kula boshlar ekan. Podsho Qulmoqni ana shunday qadrlar ekan.

Mo'min-muloyim Qulmoq a'lo hazratga kundan kunga yaqin bo'la boribdi. U podshoning gapini hech qachon ikki qilmas ekan. Ayni hol uning mansab pillapoyalaridan ko'tarilishiga va dong'i keng tarqalishiga imkoniyat yaratibdi. U podshoni hamma bazm-u jamshidlarda kuzatib borar ekan.

Uning o'g'illari: Ku – O'tkir may, Bao – Yosh may va I – Ajoyib achchiq may podshoning o'z otasiga yaxshi munosabatidan foydalanib hech kimni mensishmas ekan. Ular shu darajada bebosh bo'lib ketishibdi, Mo'yqalam ismli bosh mirza a'lo hazrat nomiga ularning ustidan shikoyat berishga majbur bo'libdi. Shikoyatda shunday deyilgan ekan: «Tabaalaringiz Sizning cheksiz muhabbatigingizni suiiste'mol qilishlari butun mamlakatga ziyon yetkazmoqda. Qobiliyatlarini bambukdan to'qilgan savatga sig'dirish mumkin bo'lgan donishmand Qulmoq bugungi kunda xizmatlar pillapoyasidan jadal ko'tarilmoqda. Garchi Qulmoq oliy uchinchi darajaga erishgan bo'lsa-da, ko'nglida u qip-qizil qaroqchi. U minglab kishilarni yaralash va mayib qilishdan lazzatlanadi. Minglab kishilar boshiari va yuraklari og'riyotganini aytib, undan shikoyat qilishadi. U davlatni qusurlardan xalos etishga qodir bo'lgan sodiq mulozim emas, balki xalqni xarob qiluvchi chinakam qaroqchidir. Boz ustiga, Donolar donosining uch o'g'li ularning otasiga Sizning yaxshi munosabatingizdan foydalanib beboshlik va buzuqlik qilyaptilar, odamlarga faqat yomonlik keltiryaptilar. A'lo hazratdan ularning hammasini

o'limga hukm qilishni va shu tariqa norozi olomonning chakagini o'chirishni so'rayman».

Shikoyat podshoning qulog'iga yetib borgani zahoti Qulmoqning o'g'illari *chjen* qushining patlari solinib zaharlangan may ichib o'zlarini o'zlari o'ldirishibdi, Donolar donosining o'zi esa barcha lavozim va unvonlardan mahrum etilibdi. Charm mesh degan bir kas ham arava g'ildiraklari ostida qolib jon beribdi. Vaholanki, u ilgari yaxshi xulqi va o'tkir aqli bilan ajralib turgan, shu bois podshoning mehrini qozongan va dono Qulmoq bilan do'st tutingan ekan. Safarlarga podsho uni o'zi bilan birga olib chiqar ekan. Bir kuni Charm mesh charchab dam olgani yonboshlabdi, dono Qulmoq esa unga shunday deb hazil qilibdi: «Muhtaram zot, sizning qorningiz juda katta, lekin g'ordek bo'm-bo'sh. Bunaqa qorin sizga nima uchun kerak?» Charm mesh unga shunday deb javob beribdi: «Sizga o'xshagan mulozimlardan yuztasini sig'dirish uchun!» Ular mana shunday hazillashishar ekan.

Donolar donosi lavozimdan chetlatilgandan so'ng Si okrugi va Ge viloyati oralig'ida qaroqchilar to'dasi izg'iy boshlabdi. Podsho ularni o'ldirishni buyurmoqchi bo'libdi, ammo bu ishni topshirish uchun odam topa olmabdi. Shunda u yana Qulmoqni ko'taribdi va uni bosh qo'mondon etib tayinlabdi. Donolar donosi qo'shinni doimiy shay holatda saqlabdi, askarlar bilan to'qlik va yo'qlikni baham ko'ribdi. Chouchen — «Qayg'ular shahri» qal'asini ustidan u may quyib, bir zarba bilan ishg'ol etibdi va bu yerda Abadiy huzur-halovat saroyini bunyod etib, orqaga qaytibdi. Podsho dono Qulmoqni ko'rsatgan jasorati uchun taqdirlabdi va unga «Syan daryosidan sharqdagi mulklar knyazi» unvonini beribdi. Biroq bir yildan so'ng Donolar donosi a'lo hazrat nomiga ariza yozib, unda o'zini iste'foga chiqarishni so'rabdi:

«Kamtarin qulingiz kambag'al bir oiladan chiqqanman. Yoshligimda men qashshoq va tagi past bir odam edim. Siz, a'lo hazratni uchratmagunimcha men hamma narsada boshqalarga qaram edim. Siz menga misli ko'rilmagan mehr-muruvvat ko'rsatdingiz, ko'p marta kulfatlardan xalos qildingiz. Daryolar va ko'llarga yer o'z bag'ridan qanday joy bersa, Siz ham menga

shunday joy berdingiz! Ammo men Sizning buyuk nomingizga dog' tushirdim, mamlakat obro'siga obro' qo'shmadim. Men iltifotli xizmatkor burchini buzdim. Endi men umrimning oxirgi kunlarini o'z qishiog'imda o'tkazmoqchiman. Menga ko'rsatgan marhamatingiz, balki, yo'qolar, biroq menga hayotimning so'nggi qatralarini quyosh va oy nuridan lazzatlanish uchun saqlab qolishga ijozat bering. Ag'darib yuborilgan may idishini qayta to'ldirish, to'ldirgach esa, yana ag'darib yuborish mumkin. Bu tabiatning o'zgartirib bo'lmaydigan qonunidir! Hozir kamtarin qulingiz o'ta chanqoqlik dardiga muhtalo bo'lgan. Uning umri suvdagi pufaklardek tugab bormoqda. Ulkan ayblarda aybdor zot Sizdan unga iste'fo berishni va umrining qolgan kunlarini tincho-soyishta kechirishga ijozat etishni so'raydi».

Podshoning oliy farmoni chiqarilibdi, unda Donolar donosining iltimosiga ruxsat berilgan bo'lmasa-da, lekin a'lo hazrat Qulmoqning uyiga undan hol-ahvol so'rash va xastahik paytida qo'llab-quvvatlash uchun dorivor daraxt po'stlog'i, anvoyi hidli igir va boshqa dori-darmonlar bilan chopar yuboribdi. Shundan so'ng Donolar donosi avvalgi arzi bilan podshoga yana bir nechta noma yuboribdi va oxir-oqibat a'lo hazrat bunga o'z roziligini bildiribdi. Qulmoq o'zi tug'ilib o'sgan joylarga qaytibdi va shu yerda qarilikdan vafot etibdi.

Dono Qulmoqning ukasi ham aqlli zot ekan. U podsho saroyida xizmat qilib, bir yilda ikki mingdan g'alla miqdorida maosh darajasiga erishibdi. Uning bolalari: I – O'ynoqi may, Dou – Ikki marta tozalangan aroq, Yan – Qora aroq va Lin – Uzoq saqlanib yetilgan may abadiy barhayotlikka erishish uchun shaftoli bargidan tayyorlangan qadimgi damlamani ichishibdi. Uning yosh qarindoshlari: Chjou – Uch marta tozalangan aroq, Man – Xamirturush zamburug'l va Tan – Zahar qo'shilgan may ham suvdan foydalanishni nazorat qiluvchi va boshqa xizmatlarga jalb qilinibdilar.

Tarixchi shunday deydi:

«Qulmoqning urug'iga dehqonchilik otameros ekan. O'z fazilatlari va qobiliyatlari yordamida dono Qulmoq podshoning yuksak marhamatiga sazovor bo'libdi, ta'bir joiz bo'lsa, uning

IKKINCHI DAVR (XII asr oxiri – XIV asr boshi)

1. *Pxexol to'plamlaridan*

LI INNO (1152–1220)

BEKORCHILIKDAN

Chirisan (yana Turyusan ham deydilar) shimoldan, Pektusan tog'idan Tebangun uyezdigacha ajabtovur tog' silsilalari va xushmanzara daralar joylashgan. Bu tog'lar shimoldan janubga qarab minglab li masofaga cho'zilgan. Agar ularni aylanib o'tmoqchi bo'lsangiz, bir oydan ko'p vaqt kerak bo'ladi. Ularga o'nlab bo'lislar yopishgan.

Qadim zamonlardan qolgan gapga ko'ra, Chirisanda Turnalar vohasi deb atalgan joy bor. Aytishlaricha, jar ustidagi tor so'qmoqdan bir necha li yurilsa, serhosil yerli vohaga chiqish, bu yerda dehqonchilik qilish mumkin. Mazkur vohada turnalar yashaydi. Bir paytlar bu yerda dunyodan zerikkan odamlar yashagan bo'lsa kerak. Aytishlaricha, bu yerdagi tikanzorlar orasida odamlar yashagan uylarning xarobalari hali-hanuz saqlanib qolgan.

Kunlarning birida biz – kamina va qarindoshim vazir Chxve bu dunyoni butunlay tark etish va Turnalar vohasini izlab topishga qaror qildik. Axir, bambukdan yasalgan katta qutilarda ikki-uchta buzoqmi o'zimiz bilan olib ketsak, dunyo bilan barcha rishtalarni uzib, vohada xotirjam yashashimiz mumkin-ku!

Biz Xvaomsa monastirini tark etdik va Xvagexyon uyezdiga kelib, bu yerda Sinxinsa monastirida to'xtadik. Bu yerda juda chiroyli joylar bor ekan! Tog' cho'qqilari bir-biri bilan bellashib osmonga cho'zilgan; daralarda shaffof suvli soylar oqadi; bambuk poyalaridan to'qilgan uylar yam-yashil butazorlar ortidan ko'zga tashlanadi. Bularning barchasi biz ko'nikkan dunyodan butunlay farq qiladi! Biroq Turnalar vohasini biz topa olmadik. Shunda men qoyaga quyidagi she'rmi o'yib yozdim:

*Turyusan tog'ları uzra
Shom payti bulutlar osildi.
Yuzlab qoyalar va daralar
Go'zallikda Guyszidan qolishmaydi.*

*Qo'limda aso bilan
Turnalar vohasiga yo'lni izlayman.
Uzoqdagi ovloq daradan
Faqat maymunlar qiyqirig'i eshitiladi.*

*Uch muqaddas tog'ning
Xiyol ko'zga tashlanayotgan cho'qqilari
Moxlar ostida yashiringan,
Turli yozuvlarning qadimgi belgilari kabi.*

*Buloqqa eltuvchi yo'lni
So'rab olgan bo'lsam ham,
Baribir yo'ldan adashdim
O'rmonzorlar ortidagi daryolar orasida.*

Kecha o'z xonamda men Besh Majnuntol yaqinida yashagan Zohidning to'plamini varaqlab o'tirib, «Shaftoli chashmasi»ni qayta o'qib chiqdim. Unda Sin davrida olatasirda yashashdan bezor bo'lgan odamlar xilvat bir joyni izlab topganlari va shu yerda tanda qurganlari haqida hikoya qilinadi. Ular tog'lar ko'kka o'rlagan, suvlar sharqirab oqqan, o'tinchilar o'ta olmaydigan joyda yashaganlar.

Oradan ko'p yillar o'tgach, Szin sulolasi davridagi Buyuk ibtido yillarida bir baliqchi shu yerga kelish baxtiga musharraf bo'lgan, biroq u keyinchalik bu yerga yo'lni unutib qo'ygan va uni izlab topa olmagan.

Keyingi avlodlar bu joylarni rasmlarda tasvirlaganlar va she'rlarda kuylaganlar, uni Avliyolar dunyosi deb ataganlar. Bu o'sha, abadiy barhayot insonlar yashaydigan yer bo'lsa, ajab emas.

Besh Majnuntol yaqinida yashagan Zohidning «Shaftoli chashmasi»ni o'qib chiqib, tafsilotlarga ahamiyat bermasdan, o'sha

yer va Chirisan tog'lari bag'ridagi Turnalar vohasi o'rtasida katta farq yo'q, deb aytish mumkin. Nima uchun Lyu Szisziga o'xshagan odamlar u yerga yo'l izlashar ekan?

CHXVE CHA (1188–1260)

«BEKORCHILIKDAN» TO'PLAMIGA QO'SHIMCHALAR

Tedongan daryosi o'zining alohida tarovati bilan ajralib turadi. Odatda daryodan kechuv joyi oldida G'arbiy poytaxtda yashovchilar odamlarni kuzatadilar. Bu yer juda xushmanzara joy, uning dong'i keng tarqalgan.

Bir paytlar davlat kengashi mulozimi Chop Chjisan Tedongan daryosidan kechuv joyi oldida do'stini kuzatayotib, quyidagi misralarni to'qigan:

*Tedongan daryosining suvlari qachondir qurirmikan?
Axir ayriliq ko'z yoshlari yil sayin uning lojuvard to'lqinlarini
to'ldiradi.*

O'sha paytda bu she'r, ayniqsa, mashhur bo'lgan, ammo Du Funing bir she'rida quyidagi misralar bor:

*Ayriliq ko'z yoshlari qadim-qadimlardan
Szinszyan daryosi suvlarini to'ldirar...*

Li Taybo shunday deb yozgan:

*To'qqiz daryo to'lqinlarini bog'lashni istayman,
Axir ular o'n minglab ko'z yoshi oqimlaridan hosil bo'ladi.*

Miyamga bir fikr keldi.

Muhtaram Munsunming «Chogan daryosidagi kuzatish» she'rida shunday deyilgan:

*biz ularning yaxshiliklariga arzimaymiz.
Egasi xavf ostida —
axir u egasini qutqaraman deb halok bo'lmadimi?!
Nahotki itlar ularning yaxshi ishlari haqida gapirishga
arzimaydi?*

Kunlarning birida Chinyan knyazi o'z sig'indisi (ya'ni, Chxve Cha)ga shu it voqeasini yer yuzidagi hamma u haqida eshitishi uchun hikoya qilib yozishni buyuribdi. Uning mazmuni birovdan yaxshilik ko'rgan har kim unga yaxshilik bilan javob berishi lozimligini eslatib turishi kerak. It qilmishi bunga ibratdir.

LI GYUBO (1169–1241)

«OSOYISHTALIK YILLARI HAQIDA TINCHLIK HIKOYALARI»

«G'AROYIB BASHORATCHI (AYTIB BERUVCHI)» TO'PLAMIDAN

PORANI YEB QO'YGAN SIGIR

Bu an'ana uzoq davrdan beri davom etib kelgan an'ana edi. Qirollarning ismlari keltirilgan xotira taxtachalari saqlanadigan ibodatxonalarda qurbonlik sifatida qora rangli sigirlar qabul qilingan. Buning ustiga sigirlar eng oliy turdagi sigirlar bo'lishi lozim va qop-qora rangdagi sigirni topish esa undan-da qiyin edi.

Qirol saroyida sigirlarni tanlash bo'yicha ishlaydigan maxsus lavozimli shaxslar bo'lib, ular tegishli qoidalar bo'yicha sigirlarni saralar edilar. Agar sigir barcha talablarga mos kelsa, o'sha sigir uchun uchta oddiy sigir narxidagi pul to'lanib olib ketilardi. Bir sigir uchun uch sigir narxidagi pulni kim ham istamaydi deysiz. Shu sababdan ham odamlar ataylabdan o'z qora sigirlarini qirol saroyiga yetaklab borar ekanlar. Qora sigirini yetaklab kelganlar soni juda ham ko'pligi sabab, saralash jarayoni boshlangach, xuddi bozordagiga o'xshab, shovqin-suron bo'lib ketar ekan. Ammo

o'sha sigirlardan bor-yo'g'i bittasigina qurbonlik uchun tanlab olinar ekan.

Yongsan viloyatidan bo'lgan bir amaldor yigirma gaz mato evaziga bir sigir sotib olibdi. Bu sigirining juni qop-qora, sigirning o'zi esa yirik xilidan ekan. Amaldor ushbu sigirni bir chorvadorga ishonib topshirib, unga bu sigirning yemishi uchun pulni hecham ayamasligini va alohida e'tibor bilan boqishini tayinlabdi. Chorvador uni qish bo'yi yaxshilab boqibdi, ovqatdan qismabdi va natijada, sigir haqiqatan ham semirib, qurbonlik uchun zarur bo'lgan barcha talablarga javob bera oladigan darajaga yetibdi.

Sigirni, dastavval, qirol saroydagi bir xodimga ko'rsatishibdi. U sigirning oliy sifatli ekanligini aytib, maqtabdi. Bu so'zlarni eshitib, amaldor judayam xursand bo'libdi va o'zining niyati amalga oshishiga ishona boshiabdi.

Bir kuni qurbonlikka atalgan sigirlar uchun bosh amaldorning oldiga bir bola yugurib kelibdi va uning qulog'iga nimalarnidir pichirlab, qo'liga xat bitilgan qog'oz, sharob va yana noma'lum bir narsani tutibdi. Bosh amaldor bola bergan narsalarni qabul qilib, sharobni esa sigir baholovchi hakamlar bilan birga o'z xonasiga kirib ichishibdi.

Shunday qilib, kelishilgan vaqtga sigirni saroyga olib kelishibdi. Bosh amaldor yongsanlik amaldorning sigirini ko'rib, sigir baholovchi hakamdan ushbu sigirga ta'rif berishini so'rabdi. Sigir baholovchi:

— Garchand bu sigir semizgina bo'lsa-da, kasalga o'xshaydi. Shu sababdan bu sigirni biz qurbonlik uchun qabul qila olmaymiz.

Sigir baholovchining bu so'zlarini bosh amaldor ham boshi bilan ma'qullabdi. Shu payt o'sha kungi sharob, xat va yana bir noma'lum narsa keltirgan bola o'z sigirini olib kelibdi. Sigir nisbatan kichkina va ozg'in edi. Biroq sigir baholovchi:

— Bu sigir nisbatan kichikroq bo'lsa-da, bir oylar chamasi yana yaxshilab boqilsa, qurbonlik qila oladigan darajaga yetadi. Qurbonlik uchun sigir tanlanganini rasman e'lon qilib, buni o'z qayd daftarchasiga yozib qo'yibdi. Saroy xodini esa bunda tushunmovchilik bo'lgan deb e'tiroz bildirsa-da, foydasi bo'lmabdi. O'z sigiri tanlanmaganligidan jahli chiqqan yongsanlik amaldor sigirni sotish uchun katta yo'lga haydatibdi. Odamlar bo'lsa,

— Bu sigir kasal sigir. Shuning uchun uni qurbonlikka olishmadi. Kasal sigir yer haydashga yararmidi. Umuman, bunday sigir nimaga ham kerak? — deya bir-birlariga sigirni yomonlay ketishibdi.

Sigir molbozorida bir necha kun qolib ketibdi. Biroq uni hech kim sotib olmabdi. Oxir-oqibat sigirni yarim narxida bu sigir haqidagi voqeani eshitib ulgurmagan odamlarga sotib yuborishibdi.

Kimki, qirol sulolasi xotira taxtachalari saqlanadigan ibodatxona uchun qurbonlik keltirish xizmatida ishlar ekan, u juda ham ehtiyotkor ishlamoq'i lozim. Qanday qilib, qirol xizmatida bo'la turib, o'z vazifasini suiiste'mol qilgan holda, ayyor kishilardan sovg'alar qabul qilish mumkin bo'lsa? O'z xizmati uchun olish tavsiya etilmaydigan bunday sovg'alarni rad etish qiyin bo'lsa? Odamlarning bunday harakatlari nafaqat jirkanch an'anaga sabab bo'lishi, balki Falak qarg'ishiga ham duchor bo'lib, bu orqali odamzod o'zining toza qalbini yo'qotib qo'yishi hech gap emas.

Yana shunday holatlar ham bo'ladiki, aslida aybsiz va haq bo'lgan odam aybdor kishiga sudda yutqazib qo'yadi. Buning barchasiga pora aybdor.

Shuning uchun qadimda oddiy xalq shunday deyishga majbur bo'lgan:

«Katta amaldorlar oldida yaxshi ko'ringandan ko'ra, qora ishchiga qulluq qilgan ma'qulroq».

Iyerogliflardan Kvon Gyyon Sang tarjimasi

KO'ZGU

(badia)

Bir zohidning ko'zgusi bo'lgan ekan. Ko'zguning sirtini qalin chang qatlami qoplagan bo'lsa ham, zohid ertadan kechgacha ko'zguga qarab, xuddi o'z chiroyiga mahliyo bo'lgandek o'tirar ekan.

Bir kuni zohidning mehmoni buni ko'rib qolibdi va unga shunday debdi:

«Ko'zgu — odamga o'zini o'zi ko'rishga yordam beruvchi bir buyum. Agar bu shunday bo'lmasa, haqiqiy erkak uni toza holda

saqlamagan bo'lurdi. Sizda esa ko'zgu tiniq emas, xuddi uning sirtini tuman qoplagandek. Hamonki, siz o'zingizni ko'ra olmas ekansiz, demak, sizda toza saqlanadigan narsaning o'zi yo'q. Ammo siz ertadan kechgacha ko'zguga qarab, xuddi o'z aksingizni ko'rayotgandek o'tirasiz. Buning sababi nimada?»

Zohid javob beribdi:

«Ko'zgu tiniq bo'lsa, chiroyli odamlar unga mehr bilan termulishadi, xunuk odamlar esa unga nafrat bilan qarashadi. Biroq, chiroyli odamlar kam, xunuk odamlar esa ko'p. Agar xunuk odamlardan bittasi o'zini ko'zguda ko'rsa, u albatta ko'zguni sindirib tashlaydi. Ko'zgu xira bo'lgani ma'qul. Xira bo'lsa, u ichki tozalikni yo'qotgandan ko'ra, sirtida xunuk bo'lgani ma'qul. O'n ming kishining orasida bitta chiroyli odam topilsa, u ko'zguni artadi. Buni bajarish hech qachon kech emas.

Afsus! Qadimda ko'zguni toza holatda saqlashgan. Mening ko'zgumni esa xira holatda saqlash kerak. Siz buning nimasiga hayron bo'lyapsiz?»

Mehmon zohidning bu gaplariga javob qaytara olmabdi.

«DU» SOLNOMASIDA YOZILGAN «SINGAN KO'ZA» HIKOYASINI TANQID QILAMAN (badia)

Du Mu solnomasida yozilishicha, uning vafoti oldidan ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan ko'za darz ketgan va Du Mu buni yomonlik alomati, deb aytgan. Menimcha, Du Mu bunday deyishi mumkin bo'lmagan, men Du Mu aytgan deb aytishadigan bu gaplarni rad etaman. Bunday gaplar yolg'onchi shamanlarga yoki omi tarixchilarga ko'proq xos. Agar Du Mu ko'zaning darz ketishi — yomonlik alomati, deb aytgani rost bo'lsa, bu so'zlar chin konfutsiychiga munosib emas. Sun solnomachilari tarixiy kitobga bu anglashilmovchilikni kiritishgan.

Tarixiy kitoblardan birida shunday deyilgan: «Agar tongda tovuq xo'roz bo'lib qichqirsa, shu uyda baxtsizlik yuz beradi». Nafsilamrini aytganda, tovuq hech qachon xo'roz bo'lib qichqirmaydi. Hamonki, tovuqqa xo'roz bo'lib qichqirish xos emas ekan, mabodo

bu yuz bersa, oilani baxtsizlik kutadi. Albatta, tustovuq uchoyoq ustiga o'tirib, «Hov!», deb baqirsa, sichqonlar esa podsho saroyining darvozasi oldida turib raqsga tushishsa, bundan ajablanarli narsaning o'zi yo'q. Shu tufayli ham donishmand Kun-szi kitobda bu yozuvlarni saqlab qolgan, ularni qisqartirmagan.

Ko'zaning darz ketishiga esa yo uning tagiga haddan tashqari baland olov yoqilgani, yo uning ichidagi suv qaynab bitgani sabab bo'lgan. Bu ajablanarli bir hol emas va Du Muning vafoti tasodifan ko'zaning darz ketishi bilan bir paytda sodir bo'lgan. Bu ikki voqeani bir-biri bilan bog'langan deb hisoblash noto'g'ri.

Men buni o'z tajribamda ham ko'rganman. Bultur kuzda, to'qqizinchi oyda uyimda ovqat pishayotgan paytda qo'qqisdan ko'za darz ketdi. Menga bu ajablanarli bir hol bo'lib tuyulgani yo'q. Bu yil ko'za yana ho'kizning mo'rashiga o'xshagan ovoz chiqarib, ikkiga bo'linib ketdi. Uyimdagilar darhol go'yo kelayotgan balo-qazoni to'xtatish uchun ostonaga chiziq tortib qo'yishdi. Oshxonada ishlayotgan xotin-xalaj qo'rquvdan rangi dokadek oqarib, oldimga yugurib kelishdi va yuz bergan voqeani menga gapirib berishdi. Men esa ularning vahimasidan faqat kuldim. Ammo shu payt shaman ayol eshik qoqlib kelib qoldi.

«Darz ketgan ko'za uy egasi bilan baxtsizlik yuz berishi — uning o'lishidan darak beradi, — dedi u. — Agar duo o'qish yo'li bilan bu balo qaytarilmasa, baxtsizlik yuz berishi aniq!».

Xotinim darhol shaman ayolning aytganimi bajo keltirmoqchi bo'ldi, lekin men uni bundan qaytardim:

«Inson hayoti va o'limi taqdiri azal bilan belgilangan. Inson o'lim muddati kelganda bu dunyoni tark etadi. O'limdan biron-bir g'ayritabiyy alomat darak berishi mumkin emas. Balo-qazodan xalos etishni so'rab iltijo qilishning nima ma'nosi bor? Darz ketgan ko'zaning menga qanday aloqasi bor?»

Darhaqiqat, men hanuzgacha o'lganim yo'q. Du Muning hech qanday yaxshi xizmatlari bo'lmagan va shuning uchun ham u ko'za darz ketgani zahoti jon bergan, deb faraz qilaylik. Ammo men qanday yaxshi xizmatlarim uchun hanuzgacha o'lganim yo'q? Axir mening uyimda bir emas, ikkita ko'za sindi-ku! Bu har xil irim-sirimlarni rad etish uchun yaxshi misol emasmi?

Avlodlar solnomalarda keltirilgan Du Muning vafoti oldidan ko'za sinib, bo'lg'usi baxtsizlikdan darak bergani haqida hikoyaga ishonishsa kerak. Shu bois men bunga oydinlik kiritmoqchi bo'ldim.

ZOHID SIGYON

XIZMATKOR MIX

Qishning boshida, ertalab zohid Sigyon ovloqdagi kichkina monastirda o'tirgan ekan. Devorga suyanib o'tirib, u mudrab qolibdi. Birdan hovlidan:

— Yangi xizmatkor Mix keldi! — degan so'zlar qulog'iga chalinibdi.

Sigyon hayron bo'libdi va kelgan xizmatkorni ko'rgani tashqariga chiqibdi. Xizmatkor baland bo'yli, qotma, qorachadan kelgan odam ekan. U xuddi birovning hujumidan himoyalana-yotgandek qizil muguzni boshi uzra baland ko'tarib turar, qora ko'zlari xuddi g'azabdan yonayotgandek yaltirar ekan. U Sigyonga qarab yuribdi, lekin unga yaqinlashmasdan to'xtabdi. Sigyon qo'rqib ketibdi, biroq xizmatkor tez:

— Men oldingizga bir iltimos bilan keldim, — deb uning ko'nglini xotirjam qilibdi.

— Nima uchun sizni Mix deb chaqirishadi? — deb so'rabdi undan Sigyon. — Siz qayerdانسiz va nima uchun keldingiz? Men sizni tanimayman. Nima uchun siz o'zingizni xizmatkor Mix deb tanishtirdingiz? Bu nimani anglatadi?

Zohid hali gapini oxiriga yetkazmasdan, Mix chumchuqdek hakkalab olg'a tashlabdi va vazminlik bilan o'z hikoyasini boshlabdi:

— Qadim zamonda ho'kiz boshli bir donishmand yashagan va uning ismi Fu-si bo'lgan. U mening otam edi. Ilon tanali ayolni esa Nyuy-va deb atashgan. U mening onam edi. Ular meni tug'ib, o'rmonda tashlab ketishdi, hatto boqib ham o'tirishmadi. Men sovuqdan va do'ldan azob chekdim, ochlikdan sillam quridi va o'lishimga bir bahya qoldi, lekin Shamol va Yomg'irning

menga rahmi keldi va tirik qoldim. Uzoq yillar sovuqqa va issiqqa dosh berdim, nihoyat, voyaga yetgach, odamga kerak bo'lib qoldim. Avlodlar ketidan avlodlar keldi, nihoyat, Szin sulolasining podsholik davri boshlandi. Men Fanlar oilasining tabaasiga aylandim. Shunda men o'zimni tagi past odam deb emas, balki munosib inson sifatida ardoqlaydigan zotlarga sodiq bo'la olishim mumkinligini namoyish etdim: o'z egamni halok qilgan yovuz dushmani o'ldirish uchun o'z tanamni lok bilan qopladim, tanib bo'lmaydigan darajada o'zgardim. Tan sulolasining podsholik davri kelgach, men buddaviy rohib rutbasini kiydim va qariya Chjaoga shogird tushdim. Mulohazakorligim va o'qimishlilikim uchun menga «Qattiq tumshuq» degan nom berishdi. So'ng kunlarning birida Dintaoga jo'nadim va yo'lda Mix — Din-sanlanni uchratdim. U menga tikilib turib shunday dedi: «Qarasam, sening tepang ko'ndalang, pasting — tik. Familiyangni meniki bilan bog'lasakmikan?» Shuning uchun ham men hozir uning familiyasidan, o'shandan beri uni o'zgartirganim yo'q. Men doim birovning hojatini chiqarishga tayyorman va mening bu fe'limdan hamma foydalanadi. Garchi unvonim past bo'lsa-da, nomunosib kishilar mendan yordam so'rashga jur'at etmaydilar, shu bois men xizmatini qiluvchi odamlar juda kam. Yaqin vaqtgacha men biron-bir munosib kishini uchratmadim, borishga joyim ham yo'q edi. Kamina dengiz va osmon o'rtasida sarosar kezdin, hatto sopol sanam ham mening ustimdan kuldi. Biroq kecha Osmonning menga rahmi keldi shekilli, shunday deb buyurdi: «Senga Xua-shan tog'idagi kichik monastirda xizmatkor bo'lishni amr etaman! O'sha yerga borib, ustozning xizmatini qil va uni izzatini joyiga qo'yib parvarishla!». Amrni eshitib, men quvonchdan terimga sig'masdan bir oyoqlab yugurib keldim. Muhtaram zot, meni qabul qilishingizga mushtoqman!

Zohid Sigyon bu gaplarga shunday deb javob beribdi:

— Ha, endi bildim sizning qanaqa odam ekaningizni! Marhamat, yuqoriga chiqing, siz axir Donolar donosining avlodisizku! Sizning muguzingiz mardlarni mahv etmagan, ko'zlaringiz esa dovyuraklar oldida yerga qaramagan. Dushmandan o'ch olish uchun tanangizni lok bilan qoplabsiz, kim do'st-u, kim dushman

ekanini yaxshi bilasiz. Naqadar ishonuvchansiz! Naqadar adolatlisiz! Nimani so'rash va nima deb javob berishni darhol anglaysiz, sizga Qattiq tumshuq deb nom berishgani bejiz emas — o, donolar donosi! O, shirinsuxanlar shirinsuxani! Kimning xizmatida bo'lsangiz, o'shani qo'llab-quvvatlaysiz — siz naqadar insonparvarsiz! Odob-axloqqa rioya qilasiz! Kimning xizmatini qilishni tanlaysiz — o, rostgo'ylar rostgo'yi! Oqillar oqili! Siz dunyodagi eng yaxshi fazilatlarini o'zingizda mujassamlashtirgansiz! Umringiz boqiy — o'lmaysiz va qarimaysiz. Agar donolar donosi bo'lmasangiz, ruhingiz o'lmasligi aniq! Sizga qanday qilib umid bilan qaramay bo'ladi? Men sizdek odam xizmatimni qilishi mumkinligini hatto xayolimga ham keltirmaganman. Ustozlik qayoqda, kamina sizga hatto do'st bo'lishni ham o'zinga ep ko'ra olmayman! Bilasizmi, Xuadu viloyatida yana bitta Xuashan tog'i bor. Ikki yildirki, u yerda bir kekxa rohib yashaydi, aytishlaricha, uning ismi «Sahroyi» emish. Tog'larning nomi bir bo'lsa ham, u yerda har xil odamlar yashaydi. Aftidan, Osmon sizga mening oldimga emas, balki o'sha yoqqa borishni amr etgan. Siz yaxshisi o'sha toqqa boring!

Shu so'zlarni aytib, Mixni kuzatar ekan, u shu qo'shiqni xirgoyi qilibdi:

*«Xuashan degan
yana bir tog' bor.*

*U yerda bir sahroyi
uzoq yillardan beri yashaydi.*

*Mening yo'limni sizga
hurmatli qo'l ko'rsatibdi:*

*Axir men sizning tengingiz
emas, bir faqir odamman».*



2. Tarixiy nasr

KAKXUN. «DENGIZDAN SHARQDAGI MAMLAKAT MUNOSIB ROHIBLARINING KO'RGAN-KECHIRGANLARI»

KAKTOK

Sok Kaktok Sillada tug'ilib o'sgan edi. U eshitish va ko'rish qobiliyatining yaxshiligi, bilimi va zehning o'tkirligi bilan ajralib turardi. U oddiy odammi yoki avliyomi — birov buning farqiga bora olmas edi. Sillaga Budda ta'limoti kirib kelgach, odamlar yangi dinga o'ta boshladilar. Ustoz o'zining o'tkir aqli bilan buddizmni targ'ib qilish orqali dunyoni o'zgartirish mumkinligini anglab yetdi. U shunday dedi: «Yuksak o'ringa ko'tarilish uchun chuqur darani albatta tark etish lozim, Yo'lm o'rganish uchun esa albatta o'ziga ustoz topish kerak. Osoyishta hayot kechirish va imillab harakat qilish ota-ona mehr-muruvvatini rad etgan Shakyamuni o'g'illarining ruhiga mos kelmaydi». Shunda Kaktok kemaga o'tirdi va Lyanga keldi. U Qonun izlab Xitoyga kelgan sillaliklarning birinchisi edi. U vatanni qaysi yili tark etganini faqat men bilaman. Bu Silla buddizm ta'limoti yo'liga kirgan davrning avvali edi. Kaktok bir nechta o'qimishli ustozlardan navbatma-navbat saboq oldi.

U ustozlarning og'zaki pand-nasihatlarini to'liq o'zlashtirdi — go'yo so'qir ko'zi ochilgandek, kar qulog'i eshita boshlagandek bo'ldi. Umriining oxirigacha u beparvolik va dangasalik nimaligini bilgani yo'q. U yaxshi fazilatli, yaxshi xulqli odam edi. Uning yo'llari va orzu-istaklari tobora yuksalib bordi. Xazina topgan odam undan bir o'zi foydalanishi mumkin bo'lmaganidek, Kaktok o'z mamlakatiga qaytishni va u yerda ko'p sonli kambag'allarga yordam

Hindistondan kelgan ta'limot dengizdan sharqdagi mamlakatda keng yoyila boshlagach, atoqli arboblardan oldinma-ketin tug'ilib, ishga faol kirishar edilar. Ulardan kimdir uyg'onish darajasiga mustaqil erishar va shu tariqa o'z iste'dodlarini namoyon etar, kimdir Qonunni olisda qidirib, «otlarni egarlashni buyurar» edi. Yosh tabibga qari tabib homiylik qilganda, ilk bor yaxshilik va yomonlik ajratiladi; eski amaldor yangi amaldor bilan o'z bilimlarini o'rtoqlashsa, ustoz tajribasi shogirdga o'tadi. O'sha davrda koreys rohiblari g'arbga o'tlanib, Xitoyga kelardilar. Bu yerga kelganlar [Xitoyda] tajriba to'plab, o'z yurtlariga oldinma-ketin qaytib borardilar.

Ustoz o'zining butun dunyoga mashhur iste'dodi bilan Chinpxyon-van podsholigining yettinchi yili, kuzda, yettinchi oyda, daryodan o'tish joyiga eltuvchi qulay yo'lni surishtirib, Chen shahriga Qonun izlab keldi. Chimyon xuddi bulut yanglig' dengiz va quruqlik bo'ylab darbadar kezdi; xuddi elma kabi u g'arbga va sharqqa shox tashladi. Budda ta'limotiga yo'l ko'rsatuvchilar Yo'lni bilsalar va shon-shuhratga ega bo'lsalar, Chimyon ulardan hamma joyda maslahatlar oldi va ularning pand-nasihatlariga quloq soldi. Shu tariqa yog'och duradgorning randasiga bo'ysunadi, metall idish shakl-shamoyilini kasb etadi. Vaqt — misoli oqar suv: ko'z ochib yumguncha o'n kuz o'tdi. Chimyon ixlos bilan o'qidi va Budda ta'limotining mohiyatini teran anglab yetdi. Unda mazkur ta'limot nuri bilan o'z vatandoshlarini oshno etish niyati paydo bo'ldi. Chinpxyon-van podsholigining yigirma to'rtinchi yili, to'qqizinchi oyda Chimyon imperator saroyida bo'lgan Silla elchisiga ergashib o'z mamlakatiga qaytib keldi. Podsho Chimyonning bilimdan hayratga tushdi va unga izzat-ikrom ko'rsatdi. Chimyon din hukmlari va rohiblik qonun-qoidalariga qat'iy rioya etishini inobatga olib, podsho Xitoyga ziyoratni rag'batlantirish uchun unga *tedok* unvonini in'om etdi.

Ustoz o'z zamondoshlari orasida Sunshan va Xuashan tog'lari yanglig' yuksalib turar, uning qobiliyatlari esa moviy dengiz kabi chuqur edi. U donishmandlik oyi kabi nur sochar, yaxshi fazilatlar shabadasi bilan yelpir edi. Chimyon o'zining qora va oq liboslarga o'ralgan izdoshlariga pand-nasihatlar qilib charchamasdi. Keyin-

chalik unga yana ulug' *tedok* unvoni, ajoyib uy va yuksak lavozim hadya etildi. U qayerda vafot etgani menga ma'lum emas.

Ustoz Chimyon Chen zaminiga birinchi bo'lib qadam qo'yganidan so'ng oradan besh yil o'tgach, bu yerga Qonun bilimdoni Vongvan keldi. Oradan sakkiz yil o'tgach SuygaTamyuk tashrif buyurdi. Oradan yana yetti yil o'tdi va u imperator saroyida bo'lgan Silla elchisi Xemun bilan hirga vataniga qaytib keldi. Ustoz Tamyuk va Chimyon o'zlarining yuksak fazilatlari bilan shuhrat qozondilar. O'sha davrning eng iqtidorli kishilari, hech shubhasiz, o'z fazilatlariga ko'ra ulardan farq qilmaydigan odamlar edilar.

Madhiyada shunday deyiladi:

«Szi Chja Chjou saroyida musiqa ijrosini kuzatdi, Chjunni esa odob-axloq masalalarini Lao Dandan o'rgandi. Buni birinchi bo'lib Szi Chja va Konfutsiy o'rgangan, degan ma'lumot to'g'ri emas. Aksincha, ularning o'tmishdoshlari bo'lgan. Kaktok va boshqa ustozlar Yuqori davlatda bo'lishgan. Ular bu yerda Budda ta'limotini o'zlashtirganlar va o'z vatanlariga qaytganlar. Ular turli fazilatlar bilan tavsiflansalar-da, birdek Xitoyda bo'lganlar va u yerdan qaytib kelganlar!»

XERYUN

Sok Xeryun Sillada tug'ilib o'sgan. Sanskritda uning ismi Prajnyavarman tarzida yangragan. Tanda buni «Marhamat qurol-yarog'i» deb ataganlar. Xeryun o'z mamlakatidagi uyini tark etgan paytdan e'tiboran Hindistonning muqaddas sarhadlari haqida tinimsiz o'ylagan. U kemaga o'tirib Min va Yue mamlakatlaridan o'tgan, piyoda yurib Cha'aniga yetgan. Xeryun yo'lda issiq va sovuqqa dosh bergan, xavf-xatarlar va qiyinchiliklarni yenggan. Yuksak amrni olgach, u Qonun rahnamosi Xyonchjo izidan xizmatchi sifatida g'arbga yo'l olgan. Ular jarliklar ustidan narvonlar orqali o'tganlar. G'arb mamlakatlariga kelgach, Xeryun va Xyonchjo hamma joyda tabarruk izlarni tavof etganlar. Amaravati davlatida joylashgan Chinha monastirida yashash uchun to'xtab, bu yerda ushlanib qolganlar va o'n yil muddat

yashaganlar. Mazkur muddatni ushbu monastirning qadamjolari yaqinida o'tkazib, ular Hindistonning sharqiy chegarasida joylashgan Gandxarachxanda monastiriga ko'chib o'tganlar. Bu monastirning boyliklari behad ko'p bo'lgan, aholi keltiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari va idish-tovoqlar shu darajada ko'p bo'lganki, bundan ortig'ini istashga hojat bo'lmagan, shimol o'lkalaridan Hindistonga kelganlar — varvarlardan bo'lgan rohiblar — xularning hammasi shu monastirda yashashgan. Ular asalari yanglig' in qurganlar va bulutlar yanglig' to'planganlar. Ularning har biri buddaviylarning muqaddas kitoblarini o'rganganlar. Xeryun sanskritni o'rganib olgani uchun «Abxidxarmakosha» traktatini puxta o'zlashtirgan. I-szin kelgan kuni u hali o'sha monastirda yashagan. Bu vaqt uning yoshi qirqqa yaqinlashib qolgan edi. Uning bu yerda keltirilgan tarjimai holi Tripitaki bilimdoni I-szin tuzgan «G'arbiy chegaralarda Qonunni izlagan Buyuk Tan munosib rohiblarining ko'rgan-kechirganlari»da bayon etgan tarjimai hol bilan to'la mos keladi.

IRYON (1206–1289)

QIRQ SAKKIZINCHI PODSHO KYONMUN-TEVAN

Podshoning ismi Innyom ekan. O'n sakkiz yoshida u xvaran bo'libdi. U toj kiyish marosimini o'tkazish uchun belgilangan yoshga to'lgach, podsho Xonan uni saroyga ziyofatga chaqiribdi va: «Sen xvaran bo'lding va g'am-tashvishdan xoli, dunyo kezib yuribsan. Biror joyda g'aroyib narsa yoki voqeaga duch kelganmisan?», deb so'rabdi. Yigit: «Men yaxshi xulq-atvorli uch odamni ko'rdim», deb javob beribdi. Podsho: «Biz ular haqida eshitishni istar edik», deb amr qilibdi. Shunda yigit o'z hikoyasini boshlabdi: «Yuksak lavozimga ega bo'lgan bir odam kamtarlik bilan past mavqeni egallagan. Boshqa bir odam boy bo'lsa-da, lekin kambag'allarga o'xshab juda sodda kiyinadi. Uchinchi bir odam aslzoda, qo'li uzun bo'lsa-da, o'z qudratidan foydalanmaydi. Podsho yigitning hikoyasini eshlitib, uning hikmatini tan olibdi va beixtiyor ko'ziga yosh kelib: «Bizning ikki qizimiz bor. Ulardan

O'N MING TO'LQINNI TINCHLANTIRADIGAN SIBIZG'A

Sulolaning o'ttiz birinchi podshosi Sinmun-vanga o'limidan keyin Chomyon degan ism berishgan, uning o'zi Kimlar urug'idan bo'lgan. U taxtga Kay-xuey davrining birinchi yilida, sinza yili, yettinchi oyning yettinchi kunida o'tirgan. O'shanda u marhum otasi – podsho Munmu-tevan sharafiga Sharqiy dengiz bo'yidagi Kaminsa ibodatxonasini barpo etgan.

Ibodatxona qaydlarida shunday deyiladi: «Podsho Munmu yaponlar qo'shinini mahv etishning yo'lini topmoqchi bo'ldi. Shu bois mazkur ibodatxonani qura boshladi. Ammo ishini oxiriga yetkazmasdan vafot etdi va dengiz hukmdori – ajdarga aylandi. Uning o'g'li Sinmun Kay-xuey davrining ikkinchi yilida taxtga o'tirib, ibodatxona mehrobini pardoqlash ishini oxiriga yetkazdi. Zinapoya ostida sharq tomonga qarab lahm qazildi... Ajdar ibodatxonaga kirib-chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun. Aftidan, vasiyatnomaga ko'ra, bu joy marhumning jasadini saqlash uchun tanlangan; u Tevanam («Ulug' podsho tog'i») deb ataladi. Ibodatxonani esa Kaminsa deb nomladilar. Keyinchalik odamlar ajdar o'zini ko'rsatgan joyni aniqladilar va Igyonde («Qarash qulay bo'lgan ayvon») degan nom berdilar.

Keyingi yilda, *imo* yili, beshinchi oyda (matnlardan birida «Tyan-shou davrining boshida» deb aytilgan, ammo bu xato), *xegvan* – dengiz ishlarini boshqaruvchi, *pxachjichxan* unvoniga ega bo'lgan Pak Sukchxon ismli mulozim podshoga: «Sharqiy dengizda bir kichik tog' paydo bo'ldi. U suv bo'ylab Kaminsa ibodatxonasiga qarab kelyapti, to'lqinlar uni bu yerga dam olib kelyapti, dam bu yerdan olib ketyapti», deb xabar beribdi. Podsho ajablanibdi va *ilkván* – baxtli kunni tanlovchi mulozim Kim Chxunchji-lyu (uni «Chxunilyu» deb ham yozadilar)ga bu borada fol ochib ko'rishni buyuribdi. Mulozim shunday deb e'lon qilibdi: «Endilikda dengiz ajdariga aylangan marhum padari buzrukvo-ringiz Uch Xan davlatini dengiz tomondan asramoqda. Kimlar urug'idan bo'lgan Yusin ismli knyaz, o'ttiz uch osmon o'g'illaridan biri, avlodimiz xotirasida yerga tushdi va buyuk tabaaga

aylandi. Ikki donishmand o'z kuchi — *deni* birlashtirdilar va qal'a devorini muhofaza qilishga qodir xazmani yuzaga chiqarishni lozim ko'rdilar. Agar a'lo hazrat dengiz qirg'og'iga chiqsalar, bebaho xazinaga shak-shubhasiz ega bo'ladilar».

Podsho buni eshitib xursand bo'libdi va shu oyning yettinchi kunida «Qarash qulay bo'lgan ayvon»ga qarab o'tlanibdi. O'sha toqqa uzoqdan nazar tashlabdi va uni ko'rib kelgani odam yuboribdi. Tog' o'z shakl-shamoyili bilan toshbaqaning kallasini eslatar ekan. Uning cho'qqisida ikkita bambuk o'sgan ekan. Kunduzi bambuklar ikkita bo'lib ko'rinar, kechasi ularning tanasi bir butun bo'lib birikar ekan. (Ba'zilar tog' ham kunduzi ikkiga ajralgan, tunda esa xuddi bambukka o'xshab qo'shilgan, deb hikoya qiladilar). Elchi qaytib kelibdi va bu haqda podshoga ma'lum qilibdi.

Podsho tunash uchun Kaminsa ibodatxonasida joylashibdi. Ertasi kuni choshgohda ikki bambuk tanasi yaxlit bir butun bo'lib birlashibdi, yer-u osmon larzaga tushibdi. Shu lahzadan e'tiboran shamol va yomg'ir yetti kun to'xtamabdi, qora bulutlar va zulmat tarqalmabdi. Bu mazkur oyning o'n oltinchi kunigacha davom etibdi. Nihoyat shamol to'xtabdi, to'lqinlar tinchlanibdi. Podsho dengizga chiqibdi va o'sha toqqa boribdi. Bu yerda u ajdarga duch kelibdi. Ajdar podshoga qora yashmadan kamar hadya qilibdi, uni o'z huzurida qabul qilibdi va yoniga o'tiribdi. Podsho undan: «Bu tog' va bambuk dam ikkiga ajralyapti, dam birlashyapti. Buning sababi nimada?», deb so'rabdi. Ajdar javob beribdi: «Bir qo'ling bilan chapak chalsang, ovoz chiqmaydi. Ikki qo'ling bilan chapak chalsang, ovoz chiqadi. Bu yerda ham shunday. Bambuk ikkita daraxt tanasi birlashganidan keyingina ovoz chiqaradi. Bu oqil podsho kurrayi zaminni ovoz chiqarib boshqarishidan nishona. Podshohim, siz shu bambukni oling va undan sibizg'a yasab chaling. Kurrayi zaminda o'sha zahoti osoyishtalik qaror topadi. Sizning marhum padari buzrukvoringiz hozir dengizda buyuk ajdarga, Yusin esa yana osmon ruhiga aylangan. Donolar donosi bo'lgan ikki zot ruh-ongni (niyatlarni) birlashtirdilar, mazkur bebaho xazinani yuzaga chiqardilar va uni Sizga hadya etishimni buyurdilar».

Buni eshitgan podshoning sevinchi ichiga sig'may qolibdi. U ajdarga minnatdorlik izhori sifatida besh rangli guldor parcha, oltin va yashma in'om etibdi. So'ng tog' cho'qqisidagi bambukni kesishni buyuribdi. Podsho o'zi yashaydigan yurtning qirg'og'iga qaytib kelgach, ajdar makon qurgan tog' birdan g'oyib bo'libdi va shu bo'yi yuz ko'rsatmabdi.

Podsho yana Kaminsa ibodatxonasida tunabdi. O'sha oyning o'n yettinchi kunida u Chirimsa ibodatxonasidan g'arbda joylashgan soy oldiga yetibdi va shu yerda tushlik qilgani to'xtabdi. Saroyini qo'riqlash uchun qoldirilgan valiahd Igon (ya'ni, bo'lg'usi podsho Xyoso-tevan) bo'lgan ishlar haqida eshitib, otga minibdi va otasini qarshi olgani chiqibdi. Podsho bilan ko'rishgach, u: «Belingizdagi yashma kamar bo'laklarining hammasi aslida ajdarlar bo'lsa kerak», debdi. «Sen buni qayerdan bilasan?», deb qiziqibdi podsho. Valiahd javob beribdi: «Kamar bo'laklaridan birini yechib, suvga solingiz, shunda o'zingiz ishonch hosil qilasiz».

Kamarning chap tomonidagi ikkinchi bo'lakni yechib olib soy suviga solishibdi. Kamarning bo'lagi o'sha zahoti ajdarga aylanibdi. Ajdar darhol osmonga ko'tarilibdi. Shu joyda po'rtana hosil bo'libdi. Shuning uchun ham bu yerni Yon-nyon — «Ajdar po'rtanasi» deb atashadi.

Podsho poytaxtga qaytibdi va o'sha bambukdan sibizg'a yasatibdi. Sibizg'ani Volson qal'asidagi Chxonchjon ombori («Osmon gardishi ombori»)ga saqlash uchun topshirishibdi. Podsho sibizg'ani chalsa, bostirib kelgan qo'shinlar darhol ortga chekinar, qirg'inbarot urush to'xtar ekan; qurg'oqchilik bo'lsa, yomg'ir yog'ar, yomg'ir yog'ib turgan bo'lsa, u to'xtab, bulutlar tarqalar ekan; shamol to'xtar, to'lqinlar tinchianar ekan. Unga «O'n ming to'lqinni tinchlantiradigan sibizg'a» degan nom berishibdi. Uni davlat xazinasidek qadrlashar ekan.

Xyoso-tevan davrida, Tyan-shu davrining to'rtinchi yili, Kesa yilida Xvaran Sillaning tiriklar oldiga qaytish mo'jizasi yuz bergach, sibizg'aning unvomi oshirilibdi va u «O'n minglab asov to'lqinlarni tinchlantiradigan sibizg'a» deb atala boshlabdi. Bu haqda boshqa bir rivoyatda batafsil hikoya qilingan.

NAKSAN TOG'IDAN KELGAN IKKI ULUG' DONISHMAND VA BODXISATTVA KVANIM

Qadim zamonlarda, ustoz Iysan Xitoy davlatidan birinchi marta qaytib kelgan paytda, u dengiz qirg'og'idagi g'orda Ulug' Hasratnamo onaning o'zi yashar emish, degan gapni eshitgan. Bu tog'ni g'arbdagi, hind yerlaridagi tog' — Patalakaga monand tarzda Naksan, ya'ni «Jajji oq gul» deb atashgan. Shu tog'da oq libosdagi haqiqiy bodxisattva yashagan. Shuning uchun ham bizning tog'imiz ana shunday nomni olgan.

Ustoz yetti kun ro'za tutibdi va so'ng erta tongda o'z chor-poyasida suvga tushib g'or sari suzib ketibdi. G'orga uni ajdar saroyidagi qarollar boshlab kirishibdi. Iysan bu yerda barcha rasm-rusumlarni ado etibdi va shunda uning oldiga havo bo'ylab billur donali tasbeh suzib kelibdi. Iysan tasbehni qabul qilibdi, Sharqiy dengiz ajdari esa unga tilaklarni bajaruvchi qahrabo donasini hadya etibdi. Ustoz uni olibdi va shundan so'ng yana yetti kun ro'za tutibdi. Shundagina u bodxisattvaning asl siymosini ko'ribdi. «Tog' cho'qqisidagi mehrobda ikkita bambuk o'sgan, — debdi unga bodxisattva. — Bu yerda ibodatxona qurilsa, yaxshi bo'lar edi!» Ustoz bu gapni qulog'iga ilibdi va g'ordan chiqib, chindan ham yerdan bambuk o'sib chiqqanini ko'ribdi. Shunda u oltindan xonaqoh quribdi va unda o'zi yasagan bodxisattva haykalini o'rnatibdi. Bodxisattvaning yumaloq yuzi va go'zal siymosi shu darajada ulug'vor ekanki, uni osmonning o'zi yaratgandek bo'lib tuyularkan. Bambuk esa izsiz g'oyib bo'libdi. Shu tariqa mana shu g'orda haqiqiy bodxisattva yashashidan xabar topishibdi. Ayni shu sababli ibodatxona Naksan degan nom olibdi. Ustoz olgan ikki qahrabo donasi ibodatxonaning o'zida saqlanar ekan, biroq keyinchalik ular yo'qolib qolibdi.

Iysandan keyin bu yerga ustoz Vonxyo bodxisattvaning siymosini tomosha qilishga ijozat so'rash uchun kelibdi. U janubiy yerlardan o'tayotganida sholizorda ishlayotgan oq ko'ylakli bir ayolni uchratibdi. Ustoz undan hazillashib sholi boshog'ini so'rabdi, ammo ayol ham hazil tariqasida sholi yaxshi hosil bermaganini aytibdi. Shunda ustoz yo'lida davom etibdi va ko'pri

ostida hayz qonidan ifloslangan lattani yuvayotgan bir ayolga ko'z tushibdi. Ustoz undan ichgani suv so'rabdi, ayol esa unga iflos suvni uzatibdi. Vonxyo bu suvni ichishdan bosh tortibdi. Shunda ayol daryodan suv olib uzatibdi va ustoz bu suvni ichibdi. Shu vaqt dala o'rtasida o'sgan qarag'ayda kengog'iz qushning sayragani eshitilibdi: «Rohib toza qaymoqdan bosh tortdi!», debdi u va g'oyib bo'libdi, qarag'ay ostiga esa poxol boshmoq tushibdi. Ustoz ibodatxonaga kelibdi va bu yerda, Kvanim haykalining ostida u poxol boshmoqning ikkinchi poyini ko'ribdi. Shunda u yo'lda uchragan ayol aslida Kvanim bo'lganini anglabdi. Shundan beri odamlar bu qarag'ayni Kvanim qarag'ayi deb atashar ekan.

Vonxyo bodxisattvani yana ko'rish uchun muqaddas g'orga kirmoqchi bo'libdi, lekin bo'ron tufayli u yerga kira olmabdi va orqasiga qaytib ketibdi.

TIZGINLARDAN XALOS BO'LGAN VONXYO

Donolar donosi ustoz Vonxyoning dunyoviy nasabi Sol bo'lgan. Uning bobosi Inpxi-gon bo'lib, uni Chokte-gon deb ham chaqirishgan. Hozir Chokteyon ko'li yaqinida Inpxi-gonning avloddan avlodga o'tib kelayotgan ibodatxonasi joylashgan. Uning otasi — Tam-nal *nemal* lavozimiga erishgan. Uning o'zi Amnyan uyezdining janubiy qismi (hozir Chansan uyezdi)dagi Pulji qishlog'idan janubroqda joylashgan Yulgok vohasida Pxara daraxti ostida tug'ilgan. Pulji qishlog'ini yana Palji deb ham atashadi (xalqda uni Puldinil deb atashadi).

Pxara daraxti haqida shunday hikoya qilishadi: dono ustozning ajdodlari azaldan shu vohaning janubi-g'arbidagi yerlarda yashashgan ekan. Uning onasi ikkiqatligida oy to'lgan tunda shu vohadan o'tayotib g'aroyib kashtan daraxti tagida ko'zi yorigan ekan. Tabiiyki, shu yerda ushlanib qolib uygacha yetib bora olmagan ekan. Shunda u o'z erining kiyimlarini daraxt shoxlariga osib, ularning panasida tunni o'tkazgan ekan. Shundan beri mazkur daraxtni Pxara — «Ona kiyim osgan daraxt» deb atasharkan.

Bu daraxt mevalari ham g'aroyib ekan. Hanuzgacha bunday kashtanlarni Pxara kashtanlari deb atashadi. Eski solnomada

shunday deyilgan: «Bir kuni monastir boshlig'i xizmatkorga har kuni kechqurun ovqatga ikkitadan kashtan olishga ruxsat beribdi. Xizmatkor monastir boshlig'iga himmati uchun rahmat aytibdi. Monastir boshlig'iga bu shubhali bo'lib tuyulibdi, u kashtanni qo'liga olib ko'zdan kechiribdi. Bitta meva sadaqa uchun idishni to'ldiribdi. Shunda monastir boshlig'i xizmatkorning ulushini teng yarmiga kamaytirib, kechki ovqatga bittadan kashtan olishni buyuribdi. Yulgok — «Kashtanlar vohasi» degan nom shundan chiqqan ekan.

Rohiblik rutbasini kiygach, Vonxyo o'z uyini Chxoge — «Birinci marta ochilgan» nomli monastirga aylantiribdi. Daraxt oldida qurilgan monastirni esa Pxara deb nomlabdi.

Dono ustozning qilmishlari ro'yxatida shunday deyiladi: «U — poytaxtlik ustoz. O'z bobosining izidan borgan». «Tan zohidlarining ko'rgan-kechirganlari»da esa shunday deb yozilgan: «Uning tagi Xasanjudan». «Lin-de» shiori ostida boshqarish yillariga to'g'ri keluvchi ikki yil ichida podsho Munmu-van Sandju va Xadjudan yerlarni ajratib olibdi va Samnyandju viloyatini ta'sis etibdi. Xadju — bu hozirgi Chxannyongun okrugi, Amnyangun azaldan uyezd sifatida Xadju viloyati tarkibiga kirgan, Sandju esa — bu hozirgi Sandju; ba'zan bu nomni boshqacha yozishadi, lekin baribir Sandju deb o'qiladi. Pulji qishlog'i hozir Chaim uyezdi tarkibiga kiritilgan, bunda u Amnyan hududidan ajratib olingan.

Dono ustoz tug'ilganda unga Sodan degan ism berishgan, uning Sindan degan ismi ham bo'lgan («dan» mahalliy lahjada «soch» degan ma'noni anglatadi). O'z vaqtida uning onasi uchgan yulduz ko'ksiga kirib ketganini tush ko'rgan. Shundan uning bo'yida bo'lgan va tug'ish fursati kelganda, osmonni besh rangli bulutlar bosgan. Bu Chinpxyon-van podsholigining o'ttiz to'qqizinchi yilida va Da-e davrining o'n uchinchi yilida sodir bo'lgan.

Dono ustoz bolalikdan hech kimga o'xshamagan va ta'limotda ustozlardan birortasiga ham ergashmagan. U dunyo bo'ylab darbadar kezgani, uning ta'limotni o'zlashtirish jarayoni va Budda nasihatlariga amal qilishi qanday bo'lgani tarixi «Tan zohidlarining ko'rgan-kechirganlari»da va uning qilmishlari ro'yxatida batafsil

keltirilgan va bu yerda ularni eslab o'tirishning hojati yo'q. Faqat bizning davrda yaratilgan solnomalarga joylashtirilgan va uning g'aroyib qilmishlarini aks ettiruvchi bir-ikki voqeaga e'tiborni qaratish o'rinli bo'ladi.

Kunlarning birida Dono ustoz ko'chada zikr tushib: «Kim menga sopsiz boltani topib beradi? Men osmonga tiralgan ustunni kesib tashlayman!», debdi. Hech kim hech narsani tushunmabdi, ammo uning gaplarini eshitgan podsho Txejon shunday debdi:

— Ustoz unga dono o'g'il tug'ib beradigan palagi toza kelin kerakligiga ishora qilyapti. Davlat uchun donishmandga ega bo'lishdan ortiq boylik yo'q!

O'sha payt Yosokkun — «Yashmadan qurilgan saroy»da (hozir u yerda Xagvon — Akademiya joylashgan) malika yolg'iz yashar ekan. U saroy xizmatkorlariga Vonxyoni topib olib kelishni buyuribdi. Xizmatkorlar malikaning amriga binoan Vonxyoni qidirgani o'tlanishibdi. Bu payt Vonxyo Namsandan qaytib kelayotgan va Munchxon daryosi ustiga qurilgan ko'prikdan o'tayotgan ekan. (Bu daryoni yana Sachxon deb atashadi. Mahalliy lahjada esa — Nyonchxon yoki Munchxon. Ko'priknini yana Yugyo deb ham atashadi.) Shu yerda ular uchrashishibdi. Vonxyo o'sha zahoti o'zini jo'rttaga suvga tashlabdi, kiyimi jiqqa ho'l bo'libdi. Uni saroyga boshlab kelishibdi. U kiyimini yechib oftobda qurita boshlabdi. Tabiiyki, saroyda tunash uchun qolibdi. Malika shu tun bo'yida bo'libdi va oy-kuni kelib Sol Chxonni tug'ibdi.

Sol Chxon bolalikdan aqlli, zehni o'tkir bo'lgan ekan. O'zidan oldin o'tgan hamma donishmandlarning kitoblari va tarixiy asarlarni chuqur o'zlashtirgan ekan. Uni Sillaning o'n donishmandidan biri sifatida e'zozlashadi. Sol Chxon narsalarning nomlari, Xitoy va yurtimiz odatlarini o'rganib, o'z ona tilida ularga sharh bergan. O'shandan beri «Dengizdan sharqda joylashgan mamlakat»da konfutsiychilar o'z bilimlarini avloddan avlodga berib keladilar va bu an'ana uzilish nimaligini bilmaydi.

O'shanda Vonxyo diniy amrlarni yo'qotibdi va Sol Chxonni dunyoga keltiribdi. Shundan so'ng u rutbasini dunyoviy libosga almashtiribdi va «Sosonlik zohid» deb atala boshlabdi. Bir kuni u allaqayerdan g'aroyib shakl-shamoyilga ega bo'lgan ulkan bir

oshqovoqni topib kelibdi. Keyinchalik uning andozasiga ko'ra rohiblar idishini yasay boshiashibdi. «Xuayanszin» sutrasida shunday deyiladi: «Faqat bir narsa muhim — odamga xalaqit bermaslik kerak. Birdan-bir yo'l — hayot va o'lim chegarasidan chetga chiqish». Shunda u o'z oshqovog'iga «Mue» — «Xalaqit bermaslik kerak» degan nom beribdi. U avvalgidek qo'shiqlar to'qib, ularni dunyo bo'ylab tarqatar ekan. U o'sha oshqovoqni ko'tarib qishloqma-qishloq kezar, qo'shiq aytib raqs tushar ekan. U odamlarni Ta'limotga o'z qo'shiqlari bilan og'dirar va orqaga qaytar ekan. U barcha gadolar va daydilar Budda ismini yod olishlari va uni madh etishlariga erishibdi. Vonxyoning sa'y-harakatlari bilan dinga kirgan odamlar son-sanoqsiz ekan.

U tug'ilgan qishloq — Pulji; uning monastiri — Chxoge. Uning o'zi o'zini Vonxyo deb atagan, bu esa «Ilk bor charaqlagan Budda quyoshi» degani. Shuningdek, «Vonxyo» mahalliy so'z hamdir. O'sha zamonning odamlari jo'r ovozdan Dono ustozni mahalliy shevada «Tong» deb atashgan.

Rohiblik paytida u Pun-xvansa monastiriga kelib, bu yerda «Xuayanszin» sutrasiga sharh yozgan ekan. Qirqinchi bosqichga kelganda mo'yqalamni qo'lidan qo'yibdi. Bir paytlar uni o'z tanasini yuzlab qarag'aylarga ajratgani va tayanch — «birinchi tuproq»qa sodir bo'lib qolgani uchun sharaflashgan. Bir paytlar, dengiz ajdarining nasihati bilan o'zini yo'lda uchratgan podsho farmoniga binoan Vonxyo «Sanmeyszin» sutrasiga ham sharh yozgan ekan. Bunda u o'z mo'yqalamlari va siyohdonini ho'kizning ikki shoxi o'rtasiga qo'yib ishlagan ekan, shu bois uning asari «Shoxdor arava» degan nom olgan ekan. Bundan tashqari, u osoyishtalikning ikki turi ma'nosini kashf etgan ekan. Ulug' ustoz Tean kelib yozilganlar bilan tanishgan va ularning mag'zini chaqib, Vonxyoga o'z yordamini taklif qilgan ekan.

Dono ustoz Vonxyo nirvana holatiga kirgani zahoti Sol Chxon uning suyaklarini maydalabdi, tasvirini yaratibdi va Punxvansa monastiriga joylashtiribdi. Shu tariqa u Vonxyoga o'zining cheksiz ehtiromini ifodalabdi. Biroq Sol Chxon tasvir oldida marosimni boshlagani zahoti u qo'qqisdan orqaga o'girilibdi. Shundan beri u orqaga o'girilgan holatda ekan.

Aytishlaricha, Vonxyo yashagan g'ordagi ibodatxona yaqinida Sol Chxon uyining xarobalari saqlanib qolgan emish.

Vonxyo sharafiga madhiyada shunday deyilgan:

*«U raqs tushganda shamol turar
va to'lin oy paydo bo'lar edi.*

*U «Shoxdor arava» bilan ilk bor
«Sanmeyszin» sutrasining mag'zini chaqdi.*

*«Yashmali saroy»da malika Volmyon bilan birga
bahorgi uyqu og'ushida bo'ldi...
Puxvansada vafot etdi — cheksiz bo'shliqqa
o'z ruhini u g'arq etdi».*





III. CHOSON (LI) SULOLASI DAVRI ADABIYOTI (XV–XIX ASRLAR)

BIRINCHI DAVR (XV–XVI asrlar)

1392-yilda Li Songe (1335–1408) tomonidan Choson sulolasiga asos solinishi koreys millatining rivojlanish jarayonida yangi bosqich yasadi.

Choson qirol sulolasining rivojlanishi yer egaligi islohoti, oliy tabaqalar, buddaviylarning ibodatxonalaridan yerning musodara qilinishi va uning yangi hokimiyat oʻrtasida taqsimlanishi sharoitida sodir boʻldi.

Choson sulolasining hukmronligi davrida podsho Txechjon (1401–1418)ning hukmronligi bilan bogʻliq olamshumul voqealar yuz berdi. Uning hukmronligi davrida poytaxt Kesondan Xanyan (hozirgi Seul)ga koʻchirildi, shuningdek Xonxe (hozirgi pasportlarga oʻxshash «nomli taxtachalar») tizimi joriy etildi.

Choson davrida Sechjon (1418–1450) qudratli arbob sifatida eʼtirof etilgan. Uning faoliyati mamlakatda sodir boʻlgan madaniy Uygʻonish, saroy Akademiyasi – Chipxenchjon («Donishmandlar majlisi»)ning taʼsis etilishi, koreys alifbosi – «Xunmin Chonim»ning kashf etilishi va yaratilishi (1443), buning natijasi oʻlaroq kitobat ishi, fan, madaniyat, adabiyot va maorifning ravnaq topishi bilan belgilanadi. Sechjon hukmronligi davrida jamiyat huquqiy hayotini belgilovchi qonun hujjatlari toʻplami – «Davlatni boshqarish buyuk kodeksi» («Kenguk Techjon») qabul qilingan, davlatning muxtasar tarixi «Tonsa kanmon» yaratilgan. Xangilda Choson sulolasi asoschilariga bagʻishlangan «Ajodlarga madhiyalar kitobi» («Enbi ochxonga»), «Buddaning tarjimai holi» («Sokpo Sanchjol») tuzilgan, shuningdek podsholarning hukm-

ronlik davrlari solnomalari — «Haqqoniy yozuvlar» («*Sillok*») nashr etilgan.

Shu bilan bir vaqtda, Choson davrida qudratli qo'shnilarning tajovuzlari davom etgan. 1592-yilda Choson yaponlar istilosini boshdan kechirgan. Imchjin urushi degan nom bilan tarixga kirgan bu urush xalq boshiga katta musibatlar keltirgan, uni xonavayron qilgan, ayni vaqtda koreys xalqining bukilmas irodasini amalda namoyish etgan. Yaponlarni mamlakatdan siqib chiqarishda «Iybek» partizanlar otryadlari («Adolat otryadlari»), buddaviy rohiblarning «*Sviben*» lashkari («Rohiblar lashkari») ulkan rol o'ynagan. Imchjin urushi solnomasiga afsonaviy admiral, alohida «Kobukson» toshbaqa-kemasining yaratuvchisi Li Sunsın (1548—1598) ismi haqli ravishda kiritilgan. Dushman o'qi tekkaniga qaramay, admiral jangchilarning jangovar ruhini qo'llab-quvvatlagan, ularni o'limga tik boqib, dushmanni tor-mor keltirishga chaqirgan: «Meming tepamda aza tutmang, o'limim haqida e'lon qilmang. Nog'oralar va karnaylarni chaling, bayroqlarni baland ko'taring va hujumga kiring — jang hali tugagani yo'q. Dushmanni bitta qoldirmay qirib tashlang!» Admiral Li Sunsın xalq matonati, uning bukilmas irodasi timsoliga aylandi. U o'zidan noyob xazina — xalqning qahramonona hayoti izlaridan yozilgan «Safar kundaligi» («Nanchjun ilgi») solnomasini qoldirdi. Yaponlar tor-mor keltirilganidan so'ng xalqning bunyodkorona hayoti 1636-yilda manchjurlar istilosi bilan barham topdi.

Choson davrida mafkurada ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi, buddizmning o'rni va ahamiyati pasayadi, konfutsiychilikning mavqeyi kuchayadi. Neokonfutsiychilik davlat mafkurasi maqomini oladi. «*Sirxak*» («Real fan uchun») ilmiy yo'nalishining yaratilishi jamiyat hayotida muhim voqeaga aylanadi. Mazkur yo'nalish namoyandalari jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh qilishga, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirishga chaqiradilar, yer va soliq tizimini isloh qilish zarurligini ta'kidlaydilar. «*Sirxak*» harakati mamlakat bo'ylab keng yoyilishiga uni podsholar Yenchjo (1725—1776) va Chonchje (1776—1800) qo'llab-quvvatlagani ham imkoniyat yaratadi. Van Chonchjo maxsus organ — «*Kyuchjongap*»ni ta'sis etadi va u ilmiy

tadqiqotlarni olib borish qoidalarini ishlab chiqadi. «*Sirxak*» harakati bilan bir qatorda «Sharq ta'limoti» («*Tonxak*») harakati ham xalq orasida dovuq qozonadi. Uning a'zolari mamlakat hayotiga chet el davlatlarining aralashuvini butunlay rad etadilar. Bu davrda mamlakatga katolitsizm g'oyalari kirib keladi. Choson davrida ijtimoiy munosabatlar keskinlashadi, yanbanlar, oliy tabaqa vakillarining xalqqa nisbatan jabr-zulmi kuchayadi. Qishloq xo'jaligi tanazzulga yuz tutadi, xalq noroziligi kuchayib boradi, amaldorlar o'rtasida nifoqlar faollashadi — bularning barchasi davlatchilik asoslariga putur yetkazadi, Choson davlatining kuch-qudratiga raxna soladi. Natijada davlat XIX asr bo'sag'asida parchalanish yoqasiga kelib qoladi.

Choson davrining ijtimoiy-tarixiy hayoti adabiyot rivoji uchun qulay zamin yaratadi. Yozuvning yaratilishi natijasida adabiyot milliy ahamiyatga molik muhim vazifalarni hal qiladi. Besh yuz yildan ortiq davom etgan Choson davri buyuk voqealarga boy bo'lib, adabiyotning rivoj topishi va yangi janrlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi mazkur davr adabiyotini davriylashtirish zaruriyatini belgilaydi. Taniqli koreyashunos olim A.F.Trotsevizh Choson davri adabiyotini quyidagi davrlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi:

1. Birinchi davr — XV–XVI asrlar, Yaponiya bilan Imchjin urushiga qadar bo'lgan davr. Ushbu davrda «Sijo» va «Kasa» janrlari rivojlanadi. «Sijo» — «Yil fasllari qo'shiqlari», «Zamonaviy laparlar». «Kasa» — «Xirgoyi qo'shiqlar» ohangga solingan nasrni eslatadi¹.

2. Ikkinchi davr — XVII–XVIII asrlar. Mazkur davr milliy nasr janrlari, yirik hikoya shakllari — romanlar (*chanpxyon sosol*), koreys tilidagi kundaliklar, *chan-sijo* (uzun sijo), *kixen kasa* (sayohatlar haqida xirgoyi qo'shiqlar) va *kyuban kasa* (ayollarning xirgoyi qo'shiqlari) rivojlanadi².

¹ Bu haqda batafsilroq qarang: *Hu H.* Сиджо в системе жанров мировой лирики. — М., 2007.

² Bu haqda batafsilroq qarang: *Троцевич А. Ф.* История корейской традиционной литературы (до XX века). — Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2004. — С. 102–238.

3. Uchinchi davr — XIX asr. U koreys tilida o'rta va kichik shakldagi nasriy asarlar (qissalar, hikoyalar), xitoy tilidagi drama, xalq dramasi — *pxansori* uchun mualliflik matnlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Adabiyot rivojlanishi jarayonining uchala davri mobaynida *pxesol* janri o'z mavqeyini saqlab qoladi. U ko'p sonli kichik janrlar — novella, latifa, hikoyat, ocherkni qamrab oladi. Mazkur janrning eng yaxshi namunalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: Kim Ximenning «Qishloq kulgili hikoyalari», Son Xyonning «Yenchjo shingll hikoyalari» (XV asr), Chxon Yening «Dengizdan sharqdagi mamlakatdan turli hikoyalari», Lyu Mon'inning «Ou oddiy hikoyalari», O Sukkvonning «Pxegvan ruhidagi kulgili hikoyalari», Li Chje Sinning «Ahamiyatsiz voqealar haqida yozuvlari», Sin Ximning «Bekorchilikdan yozilgan hikoyalari» (XVI–XVII asrlar).

XVII asrda yirik hikoya janri — *sosol* rivojlanadi. Olimlar fikriga ko'ra, koreys nasri *sosol*ning rivojlanishiga nonia'lum muallif tomonidan yaratilgan «Imchjin urushi solnomasi» zamin yaratgan. *Sosol* janrining eng sara namunalari jumlasiga Xo Gyunning «Xon Gildon haqida qissa» asari, noma'lum mualliflarning «Chon Chji haqida qissa», «Pak xonim haqida afsona», «Chxunxyan haqida qissa» asarlari kiradi.

Kim Sisip, Lim Chje, Kvon Pxil, Kim Manchjun singari adiblar ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mualliflarning asarlarida ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar ko'tariladi, ijtimoiy tengsizlik illati, amaldorlarning kirdikorlari, oiladagi zo'ravonlik ayovsiz fosh qilinadi; sof tuyg'ular, Vatanga muhabbat, fuqarolik burchiga sadoqat, ayollarning bokiraligi madh etiladi.

Choson davri adabiyoti xalq og'zaki ijodi an'analariga tayanish bilan ham tavsiflanadi. Xalq og'zaki ijodi motivlaridan foydalanish adiblarga asarlarning nasihatomez mazmunini ifodalashga ko'maklashish bilan bir qatorda, ijtimoiy-tarixiy hayot illatlarini haqqoniy tasvirlash orqali donishmandlik, yaxshi xulqlilik va grajdanlik fazilatlaridan saboq berishga ham imkoniyat yaratadi.

1. *Pxesol to 'plamlaridan*

SON XYON (1439–1504)

«YONJE SHINGIL HIKOYALARI» TO‘PLAMIDAN YANGLISHDI

Chonpxada Sim va Lyu ismli ikki yigit yashagan ekan. Ularning ikkalasi ham dongdor oilalardan ekan. Ular umrining har kunini aysh-u ishratda, may ichib, go‘zal ayollar bilan birga o‘tkazishar ekan. Kunlarning birida ular bir nechta yaqin do‘stlari bilan birga Simning uyida vaqtichog‘lik qilishga kelishishibdi. Simning mahbubasi – Kisen Chop Yonxva yaxshi asbulachi va raqqosa ekan, davrimizning *kayagim* asbobini cholg‘uvchi ustasi ko‘r Kim Boksan ham o‘z qo‘shiqlarini kuylabdi va hammaning ko‘nglini chog‘ qilibdi. Mehmonlar tor davra qurib o‘tirib, bir-birlariga may to‘la kosalarni uzatishibdi. Ziyofatda totuvlik va xushchaqchaqlik hukm suribdi. Yarim tunda kimdir taklif qilibdi:

— Har bir kishi o‘z hayotidan biron-bir qiziq voqeani hikoya qilib bersin, biz maza qilib kulaylik!

Bu taklifga hamma bir ovozdan qo‘shilibdi. Qiziq voqealarni biri olib-biri qo‘yib hikoya qila boshlashibdi. Mehmonlar beto‘xtov xaxolashibdi. Nihoyat, navbat Kim Boksanga kelibdi.

— Men ham sizlarga o‘z hayotimdan bir voqeani hikoya qilib bermoqchiman, — deb boshlabdi u hamma **jim** bo‘lgach.

— Yaqinda meni bir boy yanbanning uyiga taklif qilishdi. Ziyofatda bir nechta taniqli kisen ishtirok etdi. Ularning orasida eng mohir raqqosa – Simban ham bor edi. Ichkilikbozlikdan keyin hamma mehmonlar — har biri o‘z mahbubasi bilan alohida xonalarga tarqalib ketishdi. Men bilan esa Simban birga bo‘ldi!

— Chindan ham, juda qiziq voqea ekan, — deya xitob qilibdi Sim uyatdan lol-lol qizarib. — Kelinglar, endi boshqa narsa haqida gaplashamiz!

— Ha, chindan ham, tinimsiz hikoya eshitish jonga tegdi, — deyishibdi mehmonlar ham xiyol o'ng'aysizlanib. — Yaxshisi, tunni musiqa ostida, qo'shiq aytib qisqa qilamiz!

Biroq kisen qo'shiq aytishdan bosh tortibdi, mehmonlarning esa kayfiyati tushibdi va ular uy-uylariga tarqala boshlashibdi. Darvozadan ko'chaga chiqishgani zahoti Lyu Kim Boksanga qarab shunday debdi:

— Qanaqa ahmoqlik qilib qo'yganingni bilasanmi? Axir Simban mehmonlar orasida edi-ku. Boz ustiga, u hozir uy egasining mahjubasi. Eh, ko'r bo'lish qanchalik yomon!

— Rostdanmi? — debdi ko'r ikki yuzi uyatdan qizarib. — Endi uning ko'ziga qanday ko'rinaman?! Umuman olganda, hozir u ayolni hamma Chon Yenxva deb chaqiradi, bolalikdagi Simban degan ismini hech kim bilmasa kerak. — Shunday deb u o'zini o'zi ovutishga harakat qilibdi.

Ammo ko'rning xatosi haqida ko'pchilik eshitibdi va bu qiziq voqeani hamma bir-biriga zavqlanib aytib beribdi.

O'Z XOTINIGA JAZMAN BO'LDI

Kunlarning birida bir ko'r odam o'z qo'shnisidan o'ziga biron-bir chiroyli ayolni gaplashib berishini so'rabdi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, qo'shnisi uning oldiga chiqib shunday debdi:

— Qo'shni mahallada bir ayol yashaydi. Oriq ham, semiz ham emas, sohibjamol! Men unga sening gaplaringni yetkazdim, u rozi bo'ldi. Faqat juda ko'p sovg'a-salomlar so'radi.

— Ishtonsiz qolsam qolaman, — deb xitob qilibdi ko'r, — lekin undan hech narsani ayamayman!

Xotini uyda yo'qligida u sandiqlarni ochibdi, ulardan bir qancha buyumlarni tanlab olibdi va qo'shnisiga berib, o'sha ayol bilan uchrashuv kunini kelishishni so'rabdi. Tayinlangan kuni ko'r yasan-tusan qilibdi va uchrashuvga yo'l olibdi. Xotini esa,

yuviniib-taranib, uning ortidan chiqibdi va belgilangan joyga o'z eridan oldin yetib boribdi.

Hech narsadan shubha qilmayotgan ko'r kelibdi. Ular go'yoki nikoh marosimidagidek qoidasini keltirib bir-birlariga ta'zim qilishibdi va shu tunda baxtiyor ko'r o'zining «yangi xotini» bilan qo'shilibdi.

— Umrimda bunday sevinchli tun bo'lmagan edi, — deb xitob qilibdi ko'r ayolning yelkasini silab. — Agar seni va xotinimni taom bilan solishtiradigan bo'lsam, sen — ayiq lahmi va qoplon murtagi, u esa — sho'radan obiyovg'on va suyuq bo'tqa!

Ertalab uning xotini chopqillab uyga eridan oldin kelibdi. U ko'rpaga o'ralib, o'zini uxlayotgandek qilib ko'rsatibdi.

— Kechasi qayerda tunading? — deb so'rabdi u ko'r uyga kelgach.

— Bir vazirning uyida mehmonda bo'ldim, sutra o'qidim. Kun sovuq edi, birdan qornim og'rib qolsa bo'ladimi. Isitilgan maydan biroz ichishimga to'g'ri keldi.

Xotini o'zini tutolmay baqirib yuboribdi:

— Qorning og'rishiga ayiq go'shti, qoplon murtagi, obiyovg'on va suyuq bo'tqani bo'kib yeganing sabab bo'lmadimikan?

Ko'r xotining bu so'zlarini eshitib hang-mang bo'lib qolibdi. U xotini hiyla-nayrangda o'zini lol qoldirganini tushunibdi.

BIR SAVAT TUPROQ

1479-yil qattiq qurg'oqchilik bo'ldi. Yanvardan boshlab yomg'ir yog'madi va qurg'oqchilik deyarli iyulgacha davom etdi. Tuproq qurib qolgani uchun bahor fasli jonsiz o'tdi, yozda esa dalalarda yig'ish uchun hech narsa yo'q edi. O'tlar sarg'ayib qurib qoldi, umid bilan ekilgan ekinlar esa nobud bo'ldi.

Shunda mehnatkash dehqon debdi: «Garchi biz dalani begona o'tlardan tozalasak-da, hosil nobud bo'ladi. Agar tozalamasak ham u nobud bo'lishi muqarrar. Biroq qo'lni qovushtirib, ekinning nobud bo'lishini kuzatib o'tirgandan ko'ra, yaxshisi bor g'ayrat bilan hosilni qutqarishga kirishmoq lozim. Balki to'satdan yomg'ir yog'ib qolar va ana o'shanda bizning sa'y-

harakatlarimiz zoye ketmagan bo'ladi». Shunaqa deya u dalani begona o'tlardan tozalashdan bir zum ham to'xtamabdi va hali butunlay qurib ulgurmagan ekinlarga qayg'uribdi. Shunday qilib, u yil davomida dangasalik qilmay shijoat bilan mehnat qilibdi va dala ishlarini to'xtatmabdi.

Dangasa dehqon ham debdi: «Hozir garchi bu begona o'tlarni yulib tashlasang ham hosil baribir nobud bo'lishi kaftdek ayon. Agar yulib tashlamasang, battar quriydi. Yaxshisi, o'ti-yu ekinini bir martada yulib tashlab, xotirjam yashagan ma'qul. Agar yomg'ir yog'masa, sening qilgan hamma mehnating havoga uchadi». Shunday qilib, dangasa dehqon yil bo'yi osmonga qarab, dalada mehnat qilayotgan boshqa dehqonlarni mazax qilib vaqtini o'tkazibdi.

Yig'im-terim davrida men keng dalaga chiqdim. Bir tomonda begona o'tlar tarvaqaylab ketgan, ikkinchi tomonda esa dehqonning mehnati o'z hosilini berib, yetilgan boshhoqlar yerga tegay-tegay holatida edi. Bir yerdagi ikki xil manzarani ko'rib men hayron bo'lib, o'sha yerlik dehqonlardan buning sababini so'radim. Ularning javobi esa mana bunday bo'ldi:

«Butun hosil nobud bo'lgan yer — bu dangasa dehqonning yeri. Hosil tuggan yer esa umidini yo'qotmay bor kuchini berib, mehnat qilgan dehqonniki bo'ladi».

Kimki, xotirjam hayot va qulaylik izlasa, u doimo och qoladi, kimki qiyinchiliklarga dosh bersa, u har doim qorni to'q yuradi.

Odamlarning davlat xizmatiga kirish uchun she'riyat va kalligrafiyani o'rganish jarayoni umuman boshqacha. Ilmli olimlar hali yosh bo'lganlarida hordiq neligini bilmay, kecha-yu kunduz kitob mutolaa qilib yoki asar yozib, butunlay ilmga sho'ng'iydilar. So'ngra ushbu iqtidorlari bilan imtihonda o'zaro bilim bahsiga kirishadilar. Agar ular imtihonda birinchi bor yiqilsalar — hafsalalari pir bo'ladi, ikkinchi bor o'ta olmasalar — jafo chekadilar, uchinchi bor ham muvaffaqiyatga erishmasalar — hushdan ketadilar.

«Obro' mulohazakorlikka tayanib qo'lga kiritiladi, nimani o'rganganingizga qarab emas. Boylikka erishish bu taqdirga bog'liq, bilimni qanchalik ko'p o'rganganlikka emas».

Shu sababdan ham ko'pchilik ilm yo'lini tashlab ketadi. Ba'zilar esa biroz ilm o'rganib, yarim yo'lda chetga chiqadilar,

yana ba'zi birovlar esa muvaffaqiyat deb atalmish sharaflı manzilga yetay deb qolganlarida orqaga chekinadilar. Uzoq yo'lni bosib, oxirda baland tog'dan o'ta olmaganlik bilan barobar bu yoki bir savat tuproqni to'ldira olmagandek gap. Haligi daladagi ishini orqaga surib yurgan dangasa dehqonning holati, balki bu uning bemulohazaliligidan emasdir.

Agar biz bilim o'rganishdagi mashaqqatni yil bo'yi daladagi mehnat bilan solishtiradigan bo'lsak, bu mashaqqat emas. Biroq bilim olishdan kelgan naf va dalada terilgan hosilni bir-biriga qiyoslash mumkin. Daladagi mehnatdan kelgan foydaning qadri—hech qancha, u nari borsa qornimizni to'q qilishi mumkin. Biroq bilimdan kelgan foyda — bu obro'-e'tibordir.

Faqatgina ilmni anglash bilan mashg'ul bo'lgan insonlar dalada mehnat qilayotganlar o'tkazayotgan mashaqqatlarni tushuna olmaydilar. Shu sababdan ham mazkur hikoya bu haqda bilmaydiganlar uchun yaxshi saboq bo'lishi mumkin.

CHXON YO

«DENGIZDAN SHARQDAGI MAMLAKATDAN TURLI HIKOYALAR»

SANDIQ ICHIDAGI YALANG'OCH CHEDOK

Bir paytlar noharbiy lavozimlarda xizmat qilgan bir odam bo'lgan ekan. Kunlarning birida uni Kyonjuga chedok qilib tayinlashibdi. Har safar o'z uyezdini aylanib yurganida va yo'lida kisen uchraganida, u nafrat bilan:

— Hoy sen! Iblisning bolasi, do'zaxi! Sendaqalarni odam o'ziga yaqin ham keltirmasligi kerak. Senlarni yaxshi ko'radiganlar esa inson farzandlari emas! — deb hayqiribdi.

Shu so'zlarni aytib, u albatta, kisenning boshiga trubkasi bilan urib qo'yarkan. Bu voqea ko'p marta takrorlanibdi. Uni nafaqat barcha kisenlar yomon ko'risharkan, balki gubernatorning ham uni ko'rgani ko'zi yo'q ekan. Bir kuni u bir nechta kisenni to'plab, ularga shunday debdi:

— Agar sizlarning orangizda uning adabini berib qo'yadigan odam topilganda edi, undan yaxshi bir sovg'ani ayamagan bo'lardim!

Bir yosh, go'zal kisen chedokning adabini berib qo'yishga rozi bo'libdi. Chedok yugurdak bola bilan birga Konfutsiy ibodatxonasining xonalaridan birida yashar ekan. Qishloqi ayol ko'ylagini kiyib olgan o'sha yosh kisen bu yerga kela boshlabdi. Ibodatxona darvozasining oldiga kelarkan-da, yugurdak bolani ovoz berib chaqirarkan. Goho sezdirmasdan ichkariga kirarkan, goho darvoza ortidan ichkariga mo'ralarkan. O'zi esa chedokning e'tiborini tortishga harakat qilarkan. Yugurdak bola chiqsa, sho'x jilmayib u bilan nimalarnidir pichirlasha boshlarkan. Yosh kisen bu yerga har kuni, ba'zan ikki martalab kelarkan. Bu hol bir necha kun davom etibdi.

— Hoy, bu ayol kim? — deb so'rabdi chedok boladan. — Har kuni keladi va seni nimagadir chaqiradi!

— U mening opam, — deb javob beribdi bola. — Eri bir yil oldin savdo ishlari bilan jo'nab ketgan edi, haligacha daragi yo'q. U hir o'zi yolg'iz yashaydi va har kuni biror ish bilan chiqadigan bo'lsa, mendan uyga qarab turishni iltimos qiladi.

Kunlarning birida bola kechqurun qayergadir ketibdi. Chedok mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'sh xonada yolg'iz o'tirgan ekan. Yosh ayol yana kelibdi. Darvozaga suyanib, u yugurdak bolani bir necha marta chaqiribdi. Shunda chedok uni ichkariga taklif qilibdi. Ayol o'zini uyalayotgandek qilib ko'rsatib, birpas ikkilanib turibdi-da, so'ng ichkariga kiribdi.

— Bola hozir yo'q, — debdi chedok. — Men trubka chekmoqchiman. Sen menga manqalni olib kel. Oldimga kel, o'tir, — deb davom etibdi u ayol manqalni keltirgach, — sen ham trubkadan bir-ikki marta tort.

— Qanday bo'larkan?

— Hech kim ko'rmaydi-ku. Buning yomon joyi bor ekanmi? Qani, tezroq kel!

Ayol yana o'zini chedokning gapini ikki qila olmaydigan qilib ko'rsatib, ohlsta uning oldiga kelibdi va o'tiribdi. Chedok unga majburlab trubka chekdiribdi.

— Men chiroyli ayollarni ko'p ko'rganman, — deb muloyim ovozda gap boshlabdi chedok, — lekin bunaqa go'zalni birinchi marta uchratishim. Seni bir ko'rdim-u, yeyish-ichishimda, uyqumda halovatimni yo'qotdim. Kecha-yu kunduz xayolmda faqat sensan. Bu oson ekanmi? Kechasi oldimga yashirincha kelsang, juda yaxshi ish bo'lardi-da. Bu yerda men yolg'iz uxlayman, hech kim bilmaydi.

— Nima deyapsiz?! — deb o'zini chedokning taklifidan qo'rqib ketgandek qilib ko'rsatibdi ayol. — Siz, axir, boshliqsiz, olijanob yanbansiz, men esa tagi past bir ayol bo'lsam. Bu gapni o'ylab gapiryapsizmi? Ustimdan kulayotgan bo'lsangiz kerak?

— Aslo, yo'q! Senga buni chin dildan aytyapman. Ustingdan kulish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas! — deya betoqat xitob qilibdi chedok va hatto yolg'on gapirmayotganiga qasam ichibdi.

— Rostini aytsam, o'zim ham sizga ko'ngil qo'yanman. Buyrug'ingizga ham bo'ysunmay ilojim yo'q...

— Seni menga taqdirning o'zi ro'para qildi! — debdi chedok sevimchi ichiga sig'may.

— Faqat bir narsa meni xijolat qiladi. Bu xona maktabda joylashgan va uni hamma e'zozlaydi. Bu yerda ayol bilan qo'shilish munosib ish emas. Men bu yerga kelishga jur'at etolmayman!

— O'-ho! — deb tizzasiga shappati uribdi chedok. — Qishloqi ayol bo'lsang ham balo ekansan. Gaping to'g'ri. Xo'sh, nima qilsak ekan?

— Siz, janob, o'z xohishingiz haqida menga gapirdingiz. Men gapingizga ishonдим va sizga shuni taklif qilishim mumkin. Mening uyim maktab darvozasidan uch qadam narida joylashgan. Men yolg'iz yashayman. Siz uyimga kechasi yashirincha kelishingiz mumkin. Men ukamdan oddiy jun kamzul va qalpoq berib yuboraman. Birov kechasi sizni uchratsa ham o'la qolsa tanimaydi!

— Ajoyib reja! — deb bir necha marta takrorlabdi chedok quvonchi ichiga sig'may. — Bo'пти, shunday qilamiz. Faqat gapingda turgin! — Shu so'zlarni aytib chedok ayolni qo'yib yuboribdi.

Kisen chindan ham maktab darvozasi yaqinida joylashgan kulbalardan birida yashar ekan. Tunda u bolaga kiyim beribdi va uni chedokga olib borib berishni buyuribdi. Chedok kelishilganidek shu kiyimlarni kiyibdi va ayolning uyiga kelibdi. Ayol chedokni kutib olibdi, sham yoqibdi, ichkilik va gazak tayyorlabdi. Ular bir-birining qarshisiga o'tirib, xushchaqchaqlik bilan qadahlar almashib, yeb-icha boshlashibdi. Tez orada chedok yechinibdi va ko'rpa ichiga birinchi bo'lib kirib, ayolni oldiga chaqiribdi. Ayol esa turli bahonalar bilan vaqtni cho'zishga harakat qila boshlabdi. Bir payt eshik ortida kimningdir baqirgan ovozi eshutilibdi. Ayol joyida bir sakrab tushibdi va ovozga quloq solibdi.

— Voy-dod, endi nima qildik?! — deb pichirlabdi u.— Axir bu mening birinchi erim — Chxorxo-ku. Ilgari u mahkamada xizmatkor bo'lib ishlardi, men, sho'rpushona, shu yaramas odam bilan birga yashardim. Bunaqa razil odam dunyoda bitta bo'lsa kerak. U bir nechta odamni o'ldirgan. Uch yil burun men bir amallab u bilan ajrashdim va boshqa odamga turmushga chiqdim. Nima uchun u bugun birdan meni eslab qoldi ekan? Ovozidan mastga o'xshaydi. Agar siz bu yerda qolsangiz, u sizni haqorat qilishi tayin. Nima qilsak ekan?! — Ayol tez o'rnidan turibdi va eshik tomonga qarab: — Kechasi nega shovqin qilasan? Axir hamma uxlayapti-ku! — debdi.

— Hoy, xotin! — deb baqiribdi eshik ortidagi kimsa. — Nima, ovozimni tanimadingmi? Tez och eshikni!

— Sen menga hech kim emassan! Biz allaqachon ajrashganmiz. Nega kechasi kelib to'polon qilyapsan?!

Bu gapni eshitib Chxorxoning battar jahli chiqibdi:

— Sen meni tashlab ketgan eding, darrov boshqasini topibsand-a? O'shandan beri alamdin qutula olmayman. Bugun sen bilan gaplashib qo'ygani keldim!

Eshikni tepib ochib, u ichkariga kira boshlabdi. Ayol xonaga yugurib kirib, chedokga:

— Janob boshliq! Tezroq biron joyga yashirining. Mening kichkina xonamda manavi sandiqdan boshqa yashirinadigan joyning o'zi yo'q. Qo'rqib ketyapman! Tezroq, iltimos qilaman! — deb o'tinibdi.

Chedokni shoshirib, kisen sandiqning qopqog'ini ochibdi. Qo'rquvdan rangida rang qolmagan chedok yalang'och holda sandiqqa tushibdi. Ayol tez sandiqning qopqog'ini yopibdi va darhol unga qulf osibdi. Xonaga mast-alast ovozda g'o'ldirab Chxorxo kiribdi. Ayol darhol unga tashlanibdi.

— Biz sen bilan uch yil oldin ajrashganmiz! — deb baqiribdi u. — Nega yana oldimga kelding va meni haqorat qilyapsan?!

— Sen, albatta, boshqa jazman topgansan. Men o'z pulimga sotib olib bergan ko'ylaklar va idish-tovoqlarni olib ketmoqchiman!

— Ma, hammasini ol! — deb qichqiribdi ayol va unga qandaydir buyumlarni ota boshlabdi.

— Sandiq ham meniki, — debdi bir payt bu nobakor. — Uni ham olib ketaman!

— Qachon u seniki bo'lib qoldi? Axir men uning evaziga ikki bo'lak bo'z berganman!

— O'sha bo'zning bir bo'lagi meniki edi. Shuning uchun ham men sandiqni olib ketaman!

— Sen meni tashlab ketding, endi bir bo'lak lattani deb mendan sandiqni olib qo'ymoqchimisan? O'lsam o'lamanki, sandiqni senga bermayman!

Ular shu sandiq ustida tortishishibdi. Nihoyat, Chxorxo:

— Men sandiqni senga qoldirmayman. Yo'q desang, mahkamaga shikoyat qilaman!

Tez orada kun yorishibdi. Chxorxo sandiqni yelkasiga ortib, mahkamaga yo'l olibdi. Uning orqasidan ayol ham ergashibdi. Mahkamaga kelib, ular okrug boshiig'iga bir-biridan shikoyat qila boshiashibdi. Okrug boshlig'i ularning gapini eshitibdi va shunday qaror chiqaribdi:

— Er va xotin har biri bir bo'lakdan bo'z sarflab, sandiqni sotib olgan ekansizlar. Shu bois qonun buyuradi: sandiq teng ikkiga bo'linsin!

Shu yerning o'zida u sandiqni katta boltalar bilan teng ikki qismga bo'lishni buyuribdi. Soqchilar qo'llariga bolta olib, sandiqning ikki tomoniga turishibdi va uni ikkiga bo'la boshiashibdi. Biroq boltalar sandiqqa urilgani zahoti uning ichidan birovning:

— O'ldirmanglar! Odamni o'ldirmanglar! — degan qichqirig'i eshitilibdi.

— Sandiqning ichida kimdir bor, — debdi boshliq yasama taajjub bilan. — Tez uning qopqog'ini ochinglar!

Soqchilar shu zahotiyoq qulfni buzib, sandiqning qopqog'ini ochibdilar. Sandiqning ichidan qip-yalang'och bir erkak sakrab chiqib, hovlining o'rtasida turib qolibdi. Ne ko'z bilan qarashsinki, bu chedokning o'zi ekan! Okrug boshlig'i ham, mahkama xizmatchilari ham taajjubdan hang-mang bo'lib qolishibdi. Ular bu g'aroyib manzaraga kulmasdan qarab tura olmabdilar va og'izlarini ochmasdan xaxolabdilar.

— Axir bu janob chedok-ku! — deb xitob qilibdi odamlar orasidan kimdir. — U yalang'och holda sandiqning ichiga qanday qilib tushib qoldi? Aql bovar qilmaydi!

Okrug boshlig'ining buyrug'iga binoan chedok choti orasini qo'llari bilan berkitib, baland joyga ko'tarilibdi. U chorpoya ustida uyatdan lol-lol qizarib, boshini xam qilib o'tiribdi. Boshliq va mahkama xizmatchilari uning ustidan miriqib kulishibdi. Shundan keyingina boshliq unga kiyim olib kelishni buyuribdi. Shunda chedokni ko'rishga ko'zi bo'lmagan kisenlar ataylab unga etagi uzun ayollar ko'ylagini olib kelishibdi. Chedok ayollar ko'ylagida, boshyalang va oyoqyalang holatda maktabga yugurib kelibdi va shu kunning o'zidayoq qayergadir gum bo'libdi. Kyonjuda esa unga «Sandiq ichidagi chedok» deb nom berishibdi va u butun okrugga kulgi bo'libdi.

LYU MON'IN (1559—1625)

«OUNING ODDIY HIKOYALARI» TO'PLAMIDAN

Seullik bir musaning Milsonda yerlari bor ekan. U Sonchju va Sanchju uyezdleri o'rtasida u yoqdan-bu yoqqa ko'p qatnar ekan. Yo'l-yo'lakay u doim o'z do'sti — sonbining uyida tunash uchun to'xtar ekan. Ammo vaqti kelib musa ishlari ko'pligidan to'rt-besh yil mobaynida Milsonga biror marta ham yo'li tushmabdi. Nihoyat, u vaqt topib o'sha yerga otlangach, darhol

eski do'stining uyiga kelibdi. Ammo u uch yil burun vafot etgan ekan. Qorong'i tushgani, tunash uchun musa boshqa joyni bilmagani uchun u o'z yo'lqopini yechib, shu yerda ozgina bo'lsa ham dam olmoqchi bo'libdi.

Sonbining xotini marhum erining do'sti kelganini eshitgani zahoti ho'ngrab yig'lab yuboribdi. U xizmatkoriga mehmonxonani tayyorlashni buyuribdi va musaga shu yerda tunashni taklif qilibdi.

Musa o'z do'stini eslabdi, xayoliga turli o'ylar kelibdi va u yarim tungacha uxlay olmabdi. Mehmonxonaning shimol tomonida baland devor bor, hovlida bambuklar g'uj bo'lib o'sgan va kichik bir daraxtzorni hosil qilgan ekan. Oy xira nur sochar ekan. Birdan musa shitirlagan ovozlarni eshitibdi va daraxtlar oralig'idan nimadir o'rimalab chiqayotganini payqabdi. «Yo yo'lbars, yo bo'rsiq!», deb o'ylabdi u va nafasini ichiga yutib, kuzata boshlabdi. Bir vaqt qarabdi-yu o'z ko'zlariga ishonmay qolibdi: qandaydir bir rohib daraxtlar ortidan o'g'rincha mo'ralabdi, atrofga sinchiklab alanglabdi va so'ng birdan oyog'ini qo'liga olib, uyning ayollar yashaydigan qismiga qarab yugurib ketibdi!

Musa shovqin chiqarmaslikka harakat qilib, uning ortidan ergashibdi. Deraza ortida yonayotgan fonus atrofni yoritib turarkan. Musa barmog'ini tupugi bilan ho'llab, deraza ko'ziga yopishtirilgan qog'ozni teshibdi va ichkariga ko'z tashlabdi. Pardoz-andozni joyiga qo'yib, chiroyli ko'ylak kiyib olgan yosh bevaga ko'zi tushibdi. U manqalda go'sht qovuribdi, mayni isitibdi va noz-ishva bilan rohibni mehmon qila boshlabdi. Rohib qorni to'ygach, bevaga shilqimlik qila boshlabdi.

Musa qahrini tiyib tura olmabdi va yoyga o'q solib, derazadan otibdi. Rohib yurakni larzaga soladigan ovozda qichqirib, jon taslim qilibdi. Musa esa mehmonxonaga qaytib kelibdi va o'zini uxlaganga solib, jo'rttaga xurrak ota boshlabdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay uyning ayollar yashaydigan qismidan uy bekasining baqirgan-chaqirgan ovozi eshutilibdi. U xizmatkorlarni chaqirar emish. Uyda birpasda shovqin-suron ko'tarilibdi, qo'ni-qo'shnilar to'planibdi. Musa jo'rttaga hayron bo'lib, nima bo'lganini so'rabdi.

«Xo'jayinimiz vafot etganlar, — deyishibdi unga xizmatkorlar, — xonim u zotga sodiqlar. Bugun tunda uyga qandaydir esi og'gan rohib kirib, xonimning nomusiga tegmoqchi bo'libdi. Ammo xonim bu nobakorni qilich bilan chopib o'ldiribdi va achchiq ustida uning tanasini bo'lak-bo'lak qilib tashlabdi. Xonim hatto alamdand o'zini o'zi o'ldirmoqchi ham bo'lgan edi, biz zo'rg'a ushlab qoldik!»

Musa bu gapga kulgidan o'zini zo'rg'a tiyibdi, qattiq xo'r-sinibdi va bu uyni tark etibdi. Kelgusi yili shu qishioqdan o'tayotganida, bu yerda peshonasiga «Sodiq xotinga!» deb yozilgan ark qad rostlab turgan ekan.

* * *

Sonchjulik kisen — San Sanvol poytaxt Seulga kelibdi va tez orada bu yerda o'zining ajoyib iste'dodi va noyob go'zalligi bilan dovruq qozonibdi. Sohibjamol, qaddi-qomati raso, oq va mayin yuzli bu ayol o'rnini poytaxt oqsuyaklari tashkil etuvchi ziyofatlar va qoyilmaqom bayramlarda hech kim bosa olmas ekan. San Sanvolning marhamatini hech bo'lmasa bir marta qozonishni orzu qilmagan poytaxtlik oliftaning o'zi yo'q ekan. Ammo bu juda mushkul ish ekan.

Kunlarning birida yanbanlar va sonbilar Son Sanvolni Xangan bo'ylab qayiqda sayr qilgani taklif etishibdi. Ishratparastlar mast bo'lib qolishgach, ayol ulardan qochib ketibdi. Poytaxtga qaytayotib Son Sanvol kuchli yomg'ir ostida qolibdi. Uning ustboshi jiqqa ho'l bo'libdi. Havo sovuq, kun shomga qarab og'ib bormoqda ekan. Ayol shaharning janubiy darvozasiga yetib kelganida, u berkilgan ekan.

«Nahotki bu yerda tunash uchun joy bo'lmasa?», deb xayolidan o'tkazibdi Son Sanvol va atrofga alanglabdi. Shu yerdagi sirtini nilufarlar qoplagan hovuz bo'yida joylashgan kulbaning kichkina derazasida chiroq shu'lasi ko'rinibdi va odam ovozi eshitilibdi — kimdir ovoz chiqarib o'qiyotgan ekan. Son Sanvol derazaga yaqinlashibdi, uning ko'ziga qoplangan qog'ozni teshibdi va xonaga nazar tashlabdi. Bu yerda bir yosh talaba yigit kitob

o'qib o'tirgan ekan. Ayol yengil yo'talibdi va eshikni ohista qoqibdi. Talaba kitob o'qishdan to'xtab, eshikka quloq solibdi.

Talaba kulba eshigini ochibdi, biroq, ostonada yosh, sohibjamol ayolni ko'rib, qo'rqib ketibdi: «Bir qashshoq sonbining oldiga bunday go'zal ayol kelishi mumkin ekanmi? Albatta, bu yovuz jodugar!». U ayolni ichkariga kiritishdan qat'iyan bosh tortibdi, barmoqlarini qisirlatib, duo o'qibdi va xuddi birov bo'g'izlayotgandek qichqirib yuboribdi: «Hoy, sen, alvasti! Bu yerga kelishga qanday hadding sig'di?! Meni yo'ldan ozdira ko'rma!»

«Nima deyapsiz, men oddiy ayolman! — deb xitob qilibdi kisen. — Yigitcha, siz odob-axloq qoidalaridan bexabar ko'rinasiz. Odam ham shunaqa beadab bo'ladimi?»

Ammo, ayol qanday mushkul ahvolga tushib qolganini yigitga qancha tushuntirmasin, talabaning qo'rquvi baribir tarqalmabdi. U sira o'ziga kelolmas va yigirma sakkiz burj nomlarini tinimsiz takrorlar ekan.

Son Sanvolning darvoza oldiga cho'k tushib o'tirishdan boshqa iloji qolmabdi. Tong otishini kutib, u tun bo'yi mijja qoqmabdi. Ertalab u derazani ochibdi va talabaning ustidan kula boshlabdi, unga ta'na-dashnomlar yog'diribdi: «Sho'rlik mullavachcha! Nahot poytaxtlik mashhur ashulachi Son Sanvol nomini hech qachon eshitmagansan? Qani, bundan buyog'iga biron-bir talaba meni ochiq kun va oydin tunda sayr etgani taklif qilib ko'rsinchi! Oldin u sendaqa aqidaparast, irim-chirimchi emasligini tekshirib ko'rib, shundan keyingina u bilan gaplashaman! Ust-boshim jiqqa ho'l, sovuqda diydiragan bir ahvolda senga atigi bir tunga isingani kiritishni iltijo qildim. Lekin sen meni kiritmading. Bunaqa noshud odamni umrimda birinchi marta ko'rishim! Menga ko'zingni ochibroq qara. Men yovuz jodugarga o'xshaymanmi?».

Talaba uyatdan ikki yuzi loladek qizaribdi. Son Sanvolga hatto boshini ko'tarib qarashga ham jur'ati yetmabdi. Vaholanki, bu talaba kimsan — keyinchalik oliymaqom mulozim lavozimiga erishgan Kim Yechjon ekan!

Xangandan janubda, Chxongdan shimolda Kvachxon okrugi mahkamasi joylashgan. Mahkama orqasidagi katta yo'l toqqa o'rlagan joyda dovon bor va u Tulki dovoni deb ataladi.

Qadim zamonlarda bu yerdan bir yo'lovchi o'tayotgan ekan. Birdan unga «tuk-tuk, tuk-tuk!» degan ovozlari eshitilardi. Yo'l yoqasida ikki-uch kan keladigan kichkina bir kulba joylashgan ekan. Ovozlar o'sha yoqdan kelayotgan ekan. «Bu nima bo'lishi mumkin?», deb o'ylardi yo'lovchi. U kulbaga kiribdi va bu yerda oppoq sochli bir chol yog'ochdan sigirning boshini yo'nib o'tirganini ko'ribdi.

«Bu sizga nima uchun kerak?», deb so'rabdi yo'lovchi.

«Ro'zg'orda biror narsaga yarab qolar!», deb javob beribdi chol.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach, chol ishini yakunlabdi va sigir boshini mehmonga uzatar ekan, shunday debdi: «Mehmon, siz bu yerda zerikayotgan bo'lsangiz kerak. Hazil uchun shu boshni o'zingizga kiyib ko'ring-chi!». U sigirning yog'ochdan yasalgan boshini mehmonga uzatibdi, unga sigir terisini ham beribdi. Mehmon buni beozor hazil deb o'ylab, boshidan qalpog'ini yechibdi va sigirning boshini kiyib, yalang'och tanasiga sigir terisini ham tashlabdi.

«Endi buni yechib ko'ring-chi!», debdi chol kulib. Mehmon har qancha urinmasin, buni eplay olmabdi — u sigirga aylanib qolibdi. Chol sigirni molxonaga bog'lab qo'yibdi, ertasi kuni tongda uning ustiga minib, bozorga sotgani olib boribdi. Ekin-tikin payti — bahor yaqinlashayotgan ekan. Sigir sotib olgani kelgan dehqonlar biri olib-biri qo'yib, uning narxini oshirishibdi. «Men sigir emasman! Men odamman!», deb qichqiribdi sho'rlik yo'lovchi, lekin uni hech kim eshitmabdi. Faqat olomon orasida kimdir: «Yo bu sigirning buzog'i uyda qolgan, yo u bo'g'oz. Bo'lmasa u tinimsiz bo'kirarmidi?», debdi.

Chol uzoq savdolashibdi va nihoyat, sigirni ellik bo'lak bo'z evaziga sotibdi. «Aytib qo'yay, — debdi u, — bu sigirni turpga zinhor yaqinlashtira ko'rmang. Turp yesa, shu zahoti harom o'ladi. Ehtiyot bo'ling!»

Yangi xo'jayin sigirda og'ir narsalarni tashibdi, uni qo'shga solib yer haydabdi. Sigir charchoqdan oyoqlari chalina boshlasa, egasi uni ayamay savalar ekan. Azob-uqubatlardan sillasi qurigan sigir holidan egasiga shikoyat qilar ekan, biroq egasi, albatta, uni tushunmas ekan. Axir u aslida odam — dunyodagi eng aqlli jonzot edi! Inson qiyofasini yo'qotgach, hayvonga aylangach, sho'rlik hatto o'zini o'zi o'ldirishning ham uddasidan chiqolmas ekan. Og'ir ishdan uning kundan kunga paymonasi to'lib borarkan.

Ammo kunlarning birida egasining o'g'li turp yuvibdi va uni sigir turgan molxona yaqinidagi savat ichlga solib qo'yibdi. Yo'lovchi cholning sigir turp yesa, o'sha zahoti harom o'ladi, degan so'zlarini darhol eslabdi. Hayotdan to'ygan sigir savatni shoxlari bilan qattiq suzibdi. Turp yerga sochilib ketibdi. U darhol bir necha dona turpni yebdi. O'sha zahoti sigir boshi va terisi uning egnidan tushib, u birdan yalang'och odamga aylanibdi! Egasi avval buni ko'rib kapalagi uchibdi, o'ziga kelgach uni savolga tutibdi. Yo'lovchi ko'rgan-kechirganlarini boshidan oxirigacha gapirib beribdi.

Shunda ular ikkovlon cholni topgani dovonga yo'l olishibdi. Biroq cholning kulbasini ham, uning egasini ham bu yerdan topishmabdi. Faqat tosh ostida ikki-uch bo'lak bo'z topishibdi! Shundan beri bu dovonni Tulki dovoni deb atashar ekan.

Dono odamlar shunday degan bo'lishardi: «Albatta, bu hikoya — uydirma. Biroq unda odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqqoniy ko'rsatib berilgan. Ko'pchilik boshiga og'ir kun tushganda, o'zini yo'qotadi, aql bilan ish ko'rmaydi. Vijdonsiz odamlar aldov yo'li bilan ularni chuv tushirsalar — masalan, shu hikoyadagi singari, — ular bor aybni boshqalarga yuklashga harakat qiladilar. Biroq — ming afsuski! — ularga kimning ichi achir ekan?».



O SUKKVON (XVI asr)

«PXEGVAN USLUBIDAGI TURLI QAYDLAR» TO'PLAMIDAN

Yechjon qirolining o'g'li — buyuk knyaz Chean o'ta nodon odam bo'lgan ekan. Bir kuni u o'z saroyi darvozasi oldida o'tirgan ekan, tariq so'rayotgan bir gadoga ko'zi tushibdi.

«Uning tarig'i yo'q ekan, — debdi Chean o'z xizmatkoriga, — biroq u yuziga asal surtilgan kulcha nonlarni yeyishi mumkin-ku!» Uning so'zlariga qaraganda, go'yo gadoda tariqdan boshqa hamma narsa bor ekan.

Kunlarning birida u bir ayol bilan janjallashib qolibdi. Bunga u umr bo'yi inson daosi nima ekanligini anglab yetmagani sabab bo'libdi. Sonme, Yechjondan nasl qolmaganidan hasrat qilib, bir kuni: «Kim Cheanga inson daosini anglab yetishga yordam bersa, u mukofotga loyiq!», debdi.

Kanizlardan biri o'z omadini sinab ko'rmoqchi bo'libdi va Cheanning uyiga kelibdi. Yarim kechasi, Chean qattiq uyquga ketgach, u shunday qilibdiki, ular qovushishibdi. Ammo Chean birdan uyg'onib ketibdi va o'rnidan chayon chaqqandek sakrab turib, boshdan oyoq yuvina boshlabdi. Yuvinayotib u tinimsiz: «Meni bulg'ashdi!», deb baqirar emish.

Chjen-de yillarida Saniyvon palatasi taqish uchun karkidon shohidan tasmalar bilan bezalgan kamar joriy etibdi. Kamar kishini o'ziga mahliyo qiladigan darajada chiroyli ekan. Chean bir kuni qirol saroyidagi qabul marosimlaridan birida ishtirok etar ekan, shu kamarni beliga taqibdi. Marosimdan so'ng u: «Menga shu kamarni tortiq etishni o'tinib so'rayman!», deb iltijo qilibdi. Chunmyo kulib yuboribdi va kamarni unga tortiq etibdi. Kimdir: bo'lmagan gap, Chean nodon odam bo'lmagan, deb aytishi mumkin. Ammo qirol urug'idan bo'lganing uchungina aqlli va fazilatli inson deb hisoblansang, mashoyixlar odamzod o'z nuqsonlarini hamisha yashiradi, degan bo'lsalar ham sening shuhrating uzoqqa cho'zilmaydi.

Erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarga kelsak, ularni tabiat ato etgan. Insonning bu tuyg'usini so'ndirish mumkin emas. Hamonki, kimdir ayol bilan yaqinlashishimi og'ir gunoh deb hisoblar ekan, u qip-qizil ahmoq emasmi?

Rohiblarda mehr-muruvvatlilik yuksak fazilat hisoblanadi. Ular hech qachon hayvonlarni o'ldirishmaydi.

Bir kuni Xvanxedo provinsiyasida tilanchilik qilib yurgan rohib ovchilar quvib kelayotgan yovvoyi to'ng'izga duch kelibdi. Ko'zi qonga to'lgan to'ng'iz kutilmaganda daraxtlar orasidan chopib chiqibdi, rohib esa o'sha zahoti unga yaqinlashibdi va hassasi bilan janubni ko'rsatib: «Eh, sho'rlik! Eh, sho'rlik! Tezroq anavi tomonga yugur!», debdi.

Biroq to'ng'iz unga tashlanibdi va shu yerning o'zida tilka-pora qilib tashlabdi.

LI KI (1522–1600)

«SONVANING ARALASH HIKOYALARI» TO'PLAMIDAN

Seulda, Kichik Janubiy darvoza yaqinida, bir sonbining oilasida beva ayol yashar ekan. Alohida yog'och sandiqda u ota-bobosidan qolgan ulkan boylik: dur-u gavharlar, chiroyli, nafis ipak matolar, chig'anoqlardan taqinchoqlar va boshqa qimmatbaho buyumlarni yashirib qo'ygan ekan. Bu sandiqning sig'imi o'n som bo'lib, sirtiga temir qoplangan, qopqog'i qulf bilan berkitilgan va arqon bilan chandib bog'langan ekan. Sandiqni bundan mahkamroq qulflashning iloji yo'q ekan. U uyning eng tepa qavatida, burchakda turar ekan.

Bu sandiqning daragini o'g'rilar ham eshitishibdi va uni o'g'irlashni rejalashtirishibdi. Ammo bunday og'ir sandiqni ko'tarib olib ketib bo'lmaydi, faqat uning ichidagi narsalarni o'g'irlash mumkin. Sandiqni ochishning ham iloji yo'q. O'g'rilar biron-bir chora o'ylab topisholmabdi, faqat bir-birlariga qarashar va og'izlarining so'lagi oqar ekan.

Ammo bir o'g'ri o'ndan ortiq katta-yu kichik kalitlarni yasashni uddalabdi. Beva xotin va xizmatkorlar uyquga ketishini poylab turib, u bir nechta sheriklari bilan birga devordan oshib

o'tibdi va uyga kiribdi. Hamma kalitlarni sinab ko'rib, o'g'rilar oxir-oqibat qimmatbaho sandiqni ochishibdi va uning ichidagi bor narsalarni olishibdi. Shundan so'ng o'g'riboshi egniga ayiq terisini kiyibdi va sandiq ichiga kirib o'tiribdi, sheriklariga esa sandiqni qayta berkitib, arqonlar bilan o'rab qo'yishni, bir so'z bilan aytganda, uni avvalgi holatiga keltirishni, o'zlariga esa bu yerdan ketishni buyuribdi.

O'g'ri sandiq ichida o'tirib, uning devorini kalit bilan tirnay boshlabdi — xuddi kalamush tirnayotgandek yoki nimanidir kemirayotgandek ovoz chiqaribdi. Xizmatkorlar bu tovushni eshitishibdi va bu haqda bekaga xabar berishibdi. Shamlarni yoqib sandiqni ochishgan ekan, uning ichidan bo'kirib ayiq chiqib kelibdi! Xizmatkorlar qo'llaridagi shamlarni tushirib, yerga yotib olishibdi. Ayiq terisini kiygan o'g'ri esa, hayvonga taqlid qilib, u yoqdan bu yoqqa lapanglab yura boshlabdi. U dam hovliga chiqar, dam uyga qaytib kirar va to'xtovsiz bo'kirar ekan. Uydagilarning hammasi qo'rquvdan karaxt bo'lib qolibdi. O'g'ri esa, yana birpas shu taxlit kezib, derazadan tashqariga sakrabdi va qochib ketibdi.

Tong otgach, xizmatkorlar yana sandiqning ichiga qarashibdi. U mutlaqo bo'm-bo'sh ekan. «Boyliklarim yovuz ruhga aylanib qolgan bo'lsa kerak!», deb o'ylabdi beva. U shaman xotin va ko'r duoxonni chaqiribdi va ulardan duo o'qib yovuz ruhni haydashni so'rabdi. Beva ayol shu tariqa o'z uyidan kulfatni chetlatishni ko'zlabdi. Yuz bergan voqea o'g'rilar nayrangi ekanini u hatto xayoliga ham keltirmabdi. Aftidan, ular anoyi o'g'rilar emas, balki haqiqiy, ayyor o'g'rilar edi.

CHXA CHXONNO (1556—1615)

«OSAN HIKOYALARI O'RMONI» TO'PLAMIDAN

Sonnie podsholigi davrida bir saroy a'yoni qaysidir bir mulozimning qizini ikkinchi xotin qilib olibdi.

Oradan uch kun o'tgach, u qirolga: «Kelin bokira emas ekan!», deb xabar qilibdi va undan yangi xotinini quvib yuborishga izn so'rabdi.

Biroq Sonme bunga ishonmabdi va tabib kampirga qizni ko'zdan kechirishni buyuribdi.

«Qizni yechintirib ko'zdan kechirdim, — deb xabar qilibdi tabib kampir qirolga. — Uning qizligi buzilmagan, iffat pardasi butun. Bunga men kafilman!».

Sonme bu xabardan xursand bo'libdi, tabib kampirni sovg'a-salomlar bilan xursand qilibdi va amr etibdi: «Buyuraman. Er va xotin birga yashasinlar. Kimning aybdorligiga kelsak, qiz juda yosh, erkak esa mast bo'lgan va farqiga bormagan!»

Yaxshiyam Sonme saroy a'yonining gapiga ishonmadi va tabib kampirni chaqirdi: natijada qizning ollasi isnoddan xalos bo'ldi!

LI TOKXYON (1561–1613)

«BAMBUK DARCHA OLDIDA AYTILGAN HIKOYALAR» TO'PLAMIDAN

Sok Kyonil Ryonnamda noharbiy mulozim lavozimida xizmat qilar ekan. U ancha anoyi va sodda odam ekan. Sok Kyonil bolalikdan o'qishga qattiq berilibdi. Har kuni yuztadan iyeroglifni yod olishga ahd qilibdi. Ularni ming marta takrorlamaguncha dars qilishni to'xtatmas ekan. Kyonil shu tariqa o'n yildan ortiq muddat yashabdi. Iyeroglif ketidan iyeroglifni o'zlashtirib, u «Sishu» va «Sanszin»ni boshidan oxirigacha o'qib chiqibdi, ularni yaxshi tushunar va erkin o'qiy olar ekan. Natijada u qadimgi xitoy adabiyotidan imtihondan o'tishga muvaffaq bo'libdi. Xizmat pillapoyalaridan ko'tarilib, u tez orada Konfutsiy maktabida mirza lavozimiga erishibdi va ayni vaqtda muallim vazifasini ham bajara boshlabdi.

Bir kuni erta tongda uning oti qochib ketibdi. Kyonil to'shakdan cho'chib turib ketibdi. Otni tez ushlash kerak ekan. U shosha-pisha yalang'och badaniga xotinlarning qirmizi rang yopqichini tashlabdi, boshiga o'z joriyasining tungi qalpog'ini qo'ndiribdi va otning orqasidan quvib ketibdi. Ot esa qochib maktab hovlisiga kelibdi.

Kyonil maktabga yugurib kelganida tong otib qolgan ekan. Bu ko'rinishda u maktabga kirishini ham, uyga qaytib ketishini

ham bilmay qolibdi. U yoqda ham, bu yoqda ham uning sharmanda bo'lishi aniq ekan. Kyonil maktab darvozasi oldida nima qilishini bilmay turgan ekan, birdan ichkaridan maktab mirzasi chiqib qolibdi. Darvoza oldida muallim Sokni bu ahvolda ko'rib, u o'z ko'zlariga ishonmas emish.

«Janob chinsa, bu qanaqasi bo'ldi? — deb xitob qilibdi u Kyonilning egniga qarab. — Kuppa-kunduzi-ya! Axir ustingizdan odamlar kuladi-ku. Birpas shu yerda kutib turing, men hozir uyimdan mulozim libosini keltiraman va siz o'z uyingizga qaytib ketishingiz mumkin!»

Kyonil ayollar yopqichi va tungi qalpog'ida, hatto ishtonsiz va oyoqyalang holda ko'chada qolibdi. Uyatdan o'zini qo'yishga joy topolmas ekan. «U! U!», deb ingrar ekan u yerdan bosh ko'tarmay. Birpasda uni odamlar o'rab olishibdi. Ular Kyonilni qo'llari bilan ko'rsatib: «Devona! Devona!», deb baqirishibdi.

Nihoyat, mulozim libosini ko'tarib mirza kelibdi, Kyonilga bu libosni kiydirib, uni uyiga qaytarib yuboribdi. Albatta, bu voqea maktab o'quvchilarining qulog'iga ham yetib boribdi. Ular bu voqeani hamma joyda gapirib, Kyonilning uyat alfozdagi rasmini chiza boshlashibdi. Kyonil hammayoqda masxara bo'libdi. Shu tariqa uning kasbiy o'sishi to'xtabdi.

KANG XI MYONG

«CHXONDAM XEI»DAN RIVOYAT

Pxenyanda bir kisen¹ yashagan ekan. U o'ta iste'dodli, go'zallik bobida esa unga teng keladigani yo'q ekan. Kunlarning birida poytaxtga bir isobang² kelibdi. U yuksak lavozimga o'z tanishi — yuqori martabali amaldor orqali tayinlangan, shu bois uning oilasi boy, hatto xizmatkorlari ham qimmatbaho liboslar kiyar ekan. U poytaxtda o'sha kisenning uyi yaqinidagi bir uyga kelib joylashibdi. Isobangning boyliklari haqida eshitgan kisen unga o'z qarmog'ini

¹ Kisen — ziyofatlarda erkaklarning ko'nglini xush qilgan qiz.

² Isobang — oilali erkakka murojaat.

tashlab ko'rmoqchi bo'libdi va o'zini sayr qilib yurgandek qilib ko'rsatib, uning uyiga yaqinlashibdi va noz-ishva bilan: «Bunday yuksak martabali zot kelganini bilmagan ekanman», debdi-da, ortiga burilib ketibdi, isobang esa darhol unga ergashibdi. Kechqurun kisen uning ko'nglini xushlayotib: «Guldek yashnagan paytingiz begona yurtida zerikmayapsizmi?», deb so'rabdi va noz-karashma bilan davom etibdi: «Erim urushga ketgan va bir necha yildirki, undan biron-bir darak yo'q. Bevani faqat beva tushunadi, deb bejiz aytishmagan. Gapim sizga g'alati bo'lib tuyulmasin». Buni eshitgan isobang hamma gapni tushumbdi.

Kisen shunday qilibdiki, isobang o'z boyliklarini unga sarflab, u bilan birga yashay boshlabdi. Har kuni ertalab kisen oshpaz xotinning qulog'iga: «Mazali ovqat tayyorla», deb shivirlar ekan. Shunday go'zal ayolni uchratganidan boshi osmonga yetgan isobang unga kalitlar shodasini to'liq topshiribdi. Bir kuni kisenni xafaqon va o'zining ko'nglini xushlamayotgan holda ko'rib, isobang undan:

— Nima gap? Senga biror narsa yetishmayaptimi? — deb so'rabdi.

— Kiseni bor har bir odam unga o'z muhabbatini tilla taqinchoqlar va ipak liboslar sovg'a qilish yo'li bilan isbotlaydi. Bunday kisen haqida uni ardoqlaydilar, deb aytishadi, — deb javob beribdi kisen.

— Bu men uchun qiyin ish emas. Istagingni bajo keltiraman. Faqat senga yoqsam bas, — debdi isobang va taqinchoqlar sotib olib, ularni kisenga sovg'a qilibdi.

Biroq kisen:

— Nega pullarni behuda sovaryapsan? — deb so'rabdi.

— Boylik — meniki, sening nima ishing bor? — debdi isobang.

Shu so'zlarni aytib ulgurmasidan xizmatkor kiribdi va qimmatbaho ipak matolar bilan savdo qiluvchi odam kelganini xabar qilibdi. Isobang qolgan pullarini olib ularni sarflamoqchi bo'lib turgan ekan, kisen unga:

— Chiroylilikka chiroyli-ku, lekin bunday ipak matodan liboslarni faqat qirollar kiyadi-da. Siz o'zi nima qilyapsiz? — debdi.

Isobang:

— Parvo qilma, yoningda men borman! — deb baqiribdi.

Qorong'i tushishi bilan kisen ipak matolarni olib uydan qochib ketibdi. Isobang chiroqni yoqibdi va yolg'iz o'tirib o'zining xatosi haqida o'ylay boshlabdi. Kisenni qaytishiga umid qilibdi, biroq u quyosh tikkaga kelganda ham qaytmabdi. Yengil nonushta qilib, u sandiqni ochibdi. Sandiqda bir pxun¹ ham pul qolmaganini ko'ribdi. Isobang jahl ustida o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lib turgan ekan, qo'shni kampir kelib qolibdi va:

— Kisen bor uyda bu odatdagi bir hol-ku, nima, sen buni bilmas edingmi? — debdi. — Erta tongdan u oshpaz ayolni chaqiradi, u bilan til biriktiradi va har kuni yashirincha boylik va pullarni o'maradi. Qolgan pullarni ham qo'lga kiritish uchun u qimmatbaho ipak matolar sotuvchi savdogar bilan kelishadi va ular birga seni oxirgi pullaringdan ayirishadi.

Isobang qattiq jahli chiqib:

— Agar bu iblisni uchratsam, o'lasi qilib kaltaklayman, keyin egnidan ust-boshini yechib olaman, — deya baqiribdi.

Shu payt u yo'lga nigoh tashlabdi va unda ketayotgan bir necha o'n kishidan iborat sershovqin olomonni ko'ribdi. Ularning orasida kisen ham bor ekan.

Isobang qo'lga kaltak olib:

— Sen iblis, iflos fohisha, bunday qilishga qanday hadding sig'di? Tilla taqinchoqlar, ipak matolar va boyliklarni qaytar! — deya baqirgancha uning ortidan yuguribdi.

Kisen esa qah-qah urib kulibdi va chapak chalib shunday debdi:

— Hoy, kisenlar, bu yoqqa kelinglar, kisenga sovg'a qilgan narsalarini qaytarishni so'rayotgan manavi esi past, ahmoqqa qaranglar!

Bir nechta kisen unga qaragani kelishibdi. Isobang uyatdan qizarib olomon ichiga kirib berkinibdi va qochib ketibdi. Bor mol-mulkidan ayrilgan isobang tilanchilik qilib, yo'l chetida turib, nihoyat, o'z oilasi yashaydigan uyga kelibdi, biroq uning

¹ Pxun — Koreyada muomalada bo'lgan tanga.

qilmishidan darg'azab bo'lgan qaynonasi uni ichkariga kiritmabdi va haydab yuboribdi. Isobang mustaqil yashashga ko'nikmagan ekan va oxir-oqibat u shu atrofda tilanchilik qilib kun kechira boshlabdi. Uni qo'li bilan ko'rsatib, ustidan kulmagan odam qolmabdi.

OTA NASIHATI

Bir kuni bozorning xilvat joyiga hojatxona o'rnatishibdi. Oddiy odamlar u yerga hojat chiqarish uchun kirib-chiqib yuradigan bo'lishibdi. Ziyolilar esa oddiy odamlar foydalanadigan joyga kirishga or qilib, agar shunday qilsalar, sharmanda bo'lamiz, gunohga botamiz, deya o'sha hojatxonaga umuman kirmas ekanlar.

Bozor yaqinidagi xonadonlardan biridagi zodagonning serg'ayrat o'g'li otasiga bildirmasdan o'sha hojatxonadan foydalanar ekan. Bu haqda bilib qolgan zodagon ota o'g'lini rosa ko'yibdi, lekin baribir o'g'il o'z bilganidan qolmabdi. Garchand o'g'il o'ziga shuni ep bilsa-da, bozordagilar o'g'ilning bu harakatini nomaqbul hisobiabdilar. O'g'il hojatxonaga kirishga ikkilanib turgan kimsani uchratsa, uning ustidan kular ekan:

«Ey, irodasiz odam! Nimadan qo'rqasan? Men shu yerga liar kuni qatnayman, qara, hech qanaqa kasal bo'lmadim! Shunday ekan, nimadan buncha qo'rqasan?»

O'g'ilning bu xatti-harakatlari otasiga yetib boribdi va u o'g'lini urishibdi:

«Bozor — bu har qanaqa qalang'i-qasang'ilar yig'iladigan joy! Sen zodagon bolasisan va o'sha yerga qatnaysan. Bu uyat emasmi? Odamlar nafaqat senga nafrat bilan qarashadi, balki zahrini ham sochishlari mumkin. Nahotki sen o'z harakatlaringni to'g'ri deb o'ylasang?»

O'g'il:

«Ota, men birinchi marta o'sha hojatxonada o'z hojatini chiqarayotgan ziyolini ko'rganimda, uni so'kkanman va yuziga tupurganman. Biroq bir kuni men ham juda zarur bo'lib qolganda, o'sha hojatxonadan foydalanganman va yengil tortganman. O'shandan so'ng, agar o'sha joydan foydalanmasam, qandaydir

ko'nglim taskin topmay boshladi. Avvalboshi, meni u yerda ko'rganlar mazax qilishdi. Keyin esa ularning soni kamaya bordi. Endi esa u yerda mening orqamdan gapirib, tanqid qiladiganlar umuman qolmadi. Men u yerdan o'z hojatim uchun foydalansam ham bu mening qadrimga hech qanday yomon ta'sir o'tkazmaydi».

Ota:

«Dahshat! Odamlar sendan yuz o'g'irganga o'xshaydi! Ular boshda sening zodagon farzandiliging uchun yurish-turishingga ta'sir o'tkazish maqsadida mazax qildilar. Endi bo'lsa, sening ustringdan kuladigan biror kimsa qolmabdi. Chunki ular seni odam sanamay qo'yibdilar. O'zing o'ylab ko'r. Hech bir zamonda odamlar katta ko'chada hojatini chiqarayotgan it yoki cho'chqani ko'rib kuladilarmi? Xulosa shuki, sen qanchalik ahmoqona harakat qilsang-da, odamlar endi sening ustringdan kulmaydilar. Sababi, ular sening qiyofangda it yoki cho'chqani ko'rmoqdalar. Sen uchun bu qayg'uli emasmi, o'g'lim?»

O'g'il:

«Boshqalar bunaqa o'ylashmaydi. Faqat siz shunday hisoblaysiz. Boshqalar bu ishim uchun menga ta'na qilmaydilar, aksincha, faqat siz ta'na qilayapsiz».

Ota:

«Odamlar sening harakatlaringga e'tibor bermaskanlar, tabiiyki, ular senga ta'na ham qilishmaydi. Nahotki bu holat sen uchun qayg'uli emas. Bularning barini ko'rib, sen uchun qayg'uryapman bolam. O'zing yaxshilab o'ylab ko'r. Dunyoda ota-onasi olamdan o'tgan farzandlarga yo'l ko'rsatadigan insonlar yo'q. Sen bu so'zlarimni otang allaqachon bu hayot bilan vidolashganidan so'ng anglab yetasan».

Otasining so'zlarini tinglab bo'lgach, o'g'il tashqariga chiqib o'ziga-o'zi debdi:

«Qariya meni yaxshi bilmaydi, faqat tanbeh berishni biladi».

Oradan biroz vaqt o'tib ota hayotni tark etibdi. O'g'il esa har doimgidek o'sha hojatxonaga boribdi. Bir mahal to'satdan kimdir uning peshonasiga qattiq zarba tushiribdi va o'g'il hushdan ketibdi. O'ziga kelgandan keyin esa o'sha zarba tushirgan odamni tutib olib, so'rabdi:

«Sen kimsanki, bunday nomaqbulchilik qilishga jazm etding. Men bu yerga o'n yildan beri qatnayman, ammo bozordagi hech kim menga biron so'z aytgani yo'q. Qanaqadir bir yalangoyoq menga qo'l ko'tarasan!»

O'g'ilni urgan odam javob beribdi:

«Shu paytgacha bozordagi hamma senga chidab keldi, biroq sen oxir-oqibat sabr-kosamizni to'ldirding». Shunday deya u o'g'ilni mahkam ushlab, bozorning o'rtasiga olib boribdi va odamlar uni toshbo'ron qilib ketishibdi.

Uyiga qaytgan o'g'il jarohat-u og'riqlardan bir oy davomida o'rnidan tura olmabdi. Va shu vaqt ichida u, otasining nasihati esiga tushib, ko'z yosh to'kib o'zini ayblabdi:

«Otam haq ekanlar. Tabassum ortida xanjar tig'i yashirin, achchiq so'z ortida esa mehr-muhabbat. Endi otamning nasihatlarini qanchalik tinglashni orzu qilsam-da, buning sira imkoni yo'q».

O'g'il xatolarini tushunib, otasi qabriga bosh qo'yib ta'zim qilibdi va shu davrgacha qilib kelgan nomaqbul xatti-harakatlarini tuzatishga bel bog'labdi. Endi u pok niyatli ziyoliga aylangandi.

NOMA'LUM MUALLIF

«BEKORCHILIKDA YOZILGAN KICHIK HIKOYALAR» TO'PLAMIDAN

AGAR BAMBUK SENIKI BO'LSA...

Qadimgi Chudjin qishlog'ida bir odam yashagan ekan. Uni hamma Un Su muallim deb chaqirar ekan. Uning g'alati-g'alati qiliqlari bor ekan. Bu yerda u o'ziga ikki-uch kap keladigan, ustiga poxol yopilgan kulba quribdi, Tao Yuan-minga ergashib xrizantema o'stirar, ko'lda esa, Chjou Mao-shuga o'xshab, nilufarlar o'stirar ekan. Un Su tabiatni juda yaxshi ko'rar ekan. U banan daraxtining yaproqlarini terib, ular bilan bug'ularni boqar ekan. U turnalarga qayrag'och urug'ini tashlab, ularni qo'lga o'rgatibdi. Bo'sh vaqtida Un Su to'shakda yotib Chjuan-

szining «Uzoq umr ko'rish asoslari» kitobini o'qir yoki Chjun Chjan-tunning «Ravnaqqa erishish haqidagi yaxshi nutqlari»ni qiroat qilar ekan. Ertalablari u tonggi shabadadan bahira olish uchun boqqa chiqar, kechqurunlari esa tog' ortiga o'tib yashirinayotgan quyoshni zavqlanib tomosha qilar ekan.

*Poxol qalpoq bitta —
bu o'rmon zohidi.
Ichiga sharob to'ldirilgan
choynakchalar ko'p —
Bu shirakayf
daos.*

*Bo'm-bo'sh osmonda
oy charaqlayapti,
Turnalar juftligi
uchyapti...
Shaftoli daraxti
yashilga burkalgan...
O, bu rango-rang dunyo!*

Xayolan bu dunyoni tark etib, Un Su singari butunlay boshqa, g'aroyib dunyoga tushish mumkinligi hatto she'rda ham aytilgan. Bir kuni Un Su qayerdandir ajoyib bir bambuk ko'chatini topib kelibdi va uni o'z bog'iga ekibdi. Bambukning tanasi ajabtovur tarzda bukilgan, har bir novdasi o'ziga xos tarzda qiyshaygan ekan. Agar u Vey podsholigidagi Si qirg'oqlaridan olib kelingan bo'lmasa, u holda Anshandan olib kelingani aniq! Un Su bambukni mehr bilan parvarish qilibdi. Kecha-yu kunduz unga mehr bilan termular, asrab-avaylar ekan.

*Oydin tunda
uning shitiri yangraydi,
Jazirama yozda
u shabada keltiradi!*

Naqadar go'zal! Bunday do'stsiz bir kun ham yashab bo'larmikan?

*Ovqatsiz —
odam oriqlaydi,
Bambuksiz —
yurakni g'ussa chulg'aydi...
Ovqat bo'lsa —
u yana to'lishadi,
Yuraksizlik esa —
u yo'qolmaydi!*

Un Su yana Lin Bu singari olxo'rini yaxshi ko'rar ekan. Janob Li singari u ajoyib toshlarni yig'ar ekan!

Kunlarning birida o'sha bambuk birdan hovli devoridan oshib o'tib, birovning hovlisida shox ota boshlabdi. Asta-sekin o'sib, yangi novda Un Sunikidan ham chiroyli bambukka aylanibdi.

Nafsilamrini aytganda, Un Su aqli to'mtoqroq odam ekan. U nima bo'lganini darhol fahmlamabdi. Fahmlagach esa fig'oni falakka o'rlabdi.

— Urug'lar meniki-ku, — debdi u qo'shnisiga. — Buyog'i necha puldan tushdi, axir bambukka amalda sen egalik qil-yapsan-ku?

Shu vajni keltirib, Un Su qo'shnining bambukini kesib tashlamoqchi bo'libdi. Biroq qo'shnisi — qari chol unga e'tiroz bildiribdi:

— Urug'lar, albatta, seniki, lekin ular mening hovlimda o'sgan. Binobarin, bambuk meniki bo'lmay, boshqa kimniki bo'lishi mumkin?

Shu tariqa ular, xuddi chegarada o'sgan tut daraxtini talashgan U va Chu knyazliklari kabi, talashishibdi. Chegaradagi egatni deb janjallashgan Yuy va Juy kabi janjallashishibdi. Ularning qaysi biri haq-u, qaysi biri nohaq ekanini aniqlash qiyin ekan. Ularning nizosini hal qilib berishga qodir mard esa anqoning urug'i ekan. Oradan yarim kun o'tibdi hamki, ular o'rtasidagi janjalning oxiri ko'rinmabdi. Kechasi Un Su qo'shnining hovlisiga shox tashlab o'sgan bambukni kesib olibdi.

Bu voqeadan so'ng oradan bir yilcha vaqt o'tibdi. Kunlarning birida qo'shnining buqasi Un Suning sigirini qochiribdi. Sigir tuqqach, qo'shni chol o'sha zahoti yugurib kelibdi va buzoqni ko'tarib olib, o'z uyi tomon yo'nalibdi.

— Hoy, sen nega kuppa-kunduz kuni birovning buzog'iga chang solyapsan? — debdi Un Su g'azabi qaynab.

Qo'shnisi xotirjam e'tiroz bildiribdi:

— O'tgan yili sen o'z urug'laringdan mening hovlimda o'sib chiqqan bambukni kesib tashlading. Nima ham derdim, sen o'shanda haq eding. Mana bu buzoq — menga qarashli buqaning urug'i. Uni o'zimga olishim adolatdan bo'lmaydimi?

Shunda ular shikoyat bilan uyezd mahkamasiga borishibdi.

— Har bir narsaning o'z egasi bo'ladi, — deb qaror chiqaribdi mahkama boshlig'i. — Agar egasi uni yo'qotib qo'ygan bo'lsa, narsa egasiga qaytarilishi kerak. Bambuk ham, buzoq ham har biri o'z egasiga qaytarilgan. Nimaga shikoyat qilyapsizlar? Axir bu kulgili-ku! — Shunday deb u birdan qaq-qah otib kulib yuboribdi.





2. *Kichik nasriy asarlar*

KIM SI SIP (1435–1493)

«OLTIN TOSHBAQA TOG‘IDA ESHITILGAN YANGI HIKOYALAR» DAN

SUZUVCHI LOJUVARD PAVILYONIDAGI MAST ODAM

Pxenyen shahri qadimdan Choson deb ataladigan yerda joylashgan. Chjou podshosi U-van Shan davlati ustidan g‘alaba qozongan davrda u o‘sha yerda donishmand Kidjani ziyorat qilgan va donishmand podsho bilan «To‘qqiz bo‘limdan iborat ulug‘ reja»ni o‘rtoqlashgan. U-van donishmandga shu joyni mulk qilib bergan, lekin Kidjani o‘z fuqarosi deb e‘lon qilmagan.

Pxenyanda nimalar yo‘q emas: Guldor tog‘, Qaqnus minorasi, To‘rli orol, Yakkashox g‘ori, Osmonga Qaragan tog‘, qadimgi Chxunam shahri... Qadim zamonlardan beri tildan tilga tushib kelayotgan go‘zal va diqqatga sazovor joylarni sanab sanog‘iga yetolmaysan. Shulardan biri – Abadiy tiniqlik monastiri yaqinidagi Suzuvchi lojuvard pavilyoni. Bu monastir ilgari «To‘qqiz zinali saroy» deb atalgan va unga podsho Tonmyon-van egalik qilgan. Monastir shahar devoridan shimoli-sharq tomonda, undan yigirma li narida joylashgan. Monastir minorasidan turib pastga qarasangiz, daryoni ko‘rasiz, uzoq-uzoqlarga ko‘z tashlasangiz, qarshingizda bepoyon tekislik ochiladi. Bundan go‘zal manzaraning o‘zi bo‘lmasa kerak!

Oqshomlari sirtiga gul solingan qayiqlar va savdo kemalari Tedonmun darvozasidan o‘tib, odatda daryoda majnuntollar quyuv o‘sgan tik qoya yaqinida to‘xtaydi. Yo‘lovchilardan kimdir bu yerda tunab qolishga qaror qilsa, u albatta daryo bo‘ylab

yuqoriga ko'tariladi, monastirni sinchiklab ko'zdan kechiradi va behad mamnun bo'lib ortga qaytadi. Pavilyondan janubroqda ikkita tosh zina bor. Ularga quyidagi bitiklar o'yib yozilgan: chap tomondagisiga — «Oq bulutlar zinasi», o'ng tomondagisiga — «Qora bulutlar zinasi». Naqshdor tosh ustunlar chetdan kelganlarni hayratga soladi.

«Osmonga Itoat qilish» davrining boshida Sogyonda Xon ismli bir yigit yashagan ekan. U o'ziga to'q oiladan ekan. Xon xushsuratligi, xushmuomalaligi va shirinsuxanligi bilan nom chiqargan ekan. Kunlarning birida Kuz o'rtasidagi bayram paytida (u doim oy to'lgan pallaga to'g'ri keladi) yigit sheriklari bilan birga Pxenyanga sotgani bo'z va ipak matolar olib kelibdi. Xonning kemasi qirg'oqda langar tashlab, yigit kemadan tushganida, shahardagi nomi chiqqan qo'shiqchi ayollarning barchasi uni ko'rgani shahar darvozasidan tashqariga yog'ilibdilar.

Xonning shaharda yashaydigan eski oshnasi — Li ismli zot uning sharafiga ziyofat beribdi. Yigit kemaga shirakayf holda qaytib kelibdi. Tun sovuq ekan, Xonning uyqusi qochibdi va beixtiyor Chjan Szining shoir tunda Zarang ko'prigiga suzib kelgani haqidagi she'rini eslabdi. Xon birdan suvda turgan qayiqqa sakrab tushibdi va oy yog'dusi ostidagi daryo bo'ylab suzib ketibdi. Tez orada u Suzuvchi lojuvard pavilyoni ostonasiga yetib boribdi. Qayiqni qamishzorga bog'lab, yigit zina bo'ylab tepaga ko'tarilibdi. To'siqqa tirsak tirab turib, u uzoq-uzoqlarga nazar tashiabdi. Dimog'i shamolning toza nafasini tuyibdi. Oy atrofni yoritar, uning nurlari ostida daryo sirti dengizdek tovlanar, daryo to'lqinlari qirg'oqqa urilar, sayozliklar uzra yovvoyi g'ozlar qichqirar, qayrag'ochlar orasida sovuqda qolgan turna dir-dir qaltirar ekan. Atrof sovuq va sukunat qo'ynida ekan. Yigit o'zini osmon-u falakka, oy bag'riga ko'tarilgandek his qilibdi. U tepadan turib qadimgi poytaxtga nazar tashlabdi: baland minoralar tuman og'ushida, to'lqinlar nuragan devorlar ostonasiga bosh urmoqda... In saroylarining xarobazorlarida o'sgan bug'doyni ko'rgandek xo'rsingisi kelibdi. Shunda Xon she'r to'qib, ularni ayta boshlabdi. Mana ular:

«Men ilhomim jo'shib
Pxegan daryosi ustidagi pavilyonga kirdim.
To'liqlar yig'layapti — ularning nolasi
tuman osha mengacha yetib kelyapti.
Bu qadimgi xarobazorlarda
yo'lbars ruhi va ajdar ruhi yo'q.
Ammo tashlandiq shahar
o'z viqorini hanuzgacha yo'qotmagan.
Kumushrang sayozliklar yaltiraydi
oq oy yarim tunda baland ko'tariladi,
Uchib o'tayotgan yovvoyi g'ozlar
qumni suv deb o'ylaydilar.
Quyug maysazorda, tumandagi yulduzlar kabi,
chirildoqlar galasi yaltiraydi,
Pxegan qirg'oqlari kimsasiz,
shahar asrlar osha bo'm-bo'sh...

* * *

Saroy ko'shki o'rnida — kuzgi maysalar...
Qadimgi saroy shamol va ayozga to'la.
Ravnaq va shon-shuhrat yillari qayda?
Zina osmonga o'rlagan va unga yo'l yo'q...
Qo'shiqchi ayollar yashagan joyda tikanak o'sgan.
Devor xarobalarida, oqtob oy ostida,
Faqat quzg'unlar sayraydi va osmonga ko'tariladi,
Sovuq o'rmon uzra, muzli sukunat og'ushida.
Nahotki bir umrga, abadiy?... Nahotki?
Boylik va hashamat, issiq va shinamlik qayda?
Faqat daryo to'liqlari avvalgidek shovqin taratadi,
Va g'arbga, dengiz sari yuguradi, yuguradi ...
Taqdirlar naqadar o'zgaruvchan!... Lekin odamlar
O'limga tik qarab o'ziga in quradi!
G'am-g'ussa og'ushida mulohaza yuritir ekanman,
Tog' ibodatxonasi qo'ng'irog'ining ovozi qulog'imga
chalinadi.

* * *

*Pxenganda to'lg'in — osmondek
ko'm-ko'k,
qalbm esa g'ussaga to'la:
Vayrongarchilik, g'uluv, g'alayon... Afsus!
o'tmishdagi buyuklik endi qaytmas.
Unutilgan quduq uzra barglar uchadi,
quduqda suv allaqachon qurib bo'tgan,
Quduq uzra yulg'unlar va qayrag'ochlar,
bulutlar bag'rida esa yulduz yiltiraydi.
Men Osmonning unutilgan mehrobiga qarayman,
u hozir begona o'tlar og'ushida.
Shamol shivirlaydi, o'zim ham tinimsiz shivirlayman she'r-
larning shitirlovchi misralarini.
Bu olis va begona yurtida o'z vatanimni
shirakayf holatda, g'ussa bilan eslayman,
Uxlashga holim yo'q, ayvonda turibman,
oydin tunda, g'arbiga chopayotgan daryo ustida.*

* * *

*Kuz pallasidagi bu bayramda naqadar yaxshi
to'lin oy sochayotgan nur!
Ammo men tog' yonbag'rida o'z qarshimda paydo bo'lgan
o'lik shaharga hasrat bilan qarayman. Kidja ibodatxonasi
oldidagi daraxtlar qaribdi,
Tangun ibodatxonasi uzoqda ko'rinadi.
Ko'ryapman uning yam-yashil devorlarini, chirmovuqlar
qoplagan ularni.
Qahramonlarning qudratli lashkari qani, ketgan pahlavon-
larning izlari qani?
Ular haqida faqat daraxtlar va maysalar gapiradi
yana necha yillar o'tganini eslaydi.
Oy o'sha qadim zamonlardagi kabi, mening lbosimni yoritadi,
Yerga tikiladi va o'zining kumushrang nurlarini sochadi.*

* * *

*Sharqiy tog' uzra oy suzib o'tyapti,
hakka va qarg'alar tovushi tinmaypti!...
Tun, sovuq tun atrofda,
libosimda shudring yaltirar.
Mulozimlarning liboslari va qalpoqlari qani?
qadimgi olimlarning davot va qalamlari-chi?
Allaqachon qumga va yer osti suvlariga singib ketgan va
unutilgan, tubga cho'kkan...*

*Qadimgi shahar vayron bo'lgan.
Osmon saroyiga qirol chiqib ketgan; biroq u hozir
Yerga adashib kelib qolganida,
bu yerda nima topgan bo'lardi?
Uning oltin aravalari, otlaridan
iz ham qolgani yo'q, —
Yo'lni o't bosgan va unda ahyon-ahyonda
rohiblar yuradi...*

* * *

*Ayozli kuz... O'tlarni shudring bosgan,
uzoqda bulutlar oqarib ko'rinadi.
Olis-olislardan ovozlar eshitadi —
Suy askarlarining ruhlari daryoga ergashadi.
Malikaning ruhi keladi va shivirlab kuylaydi,
uning qo'shig'i sira tinmaydi!
Imperator yo'li bo'm-bo'sh: unda endi birorta ham arava
ko'rinmaydi.*

*Saroy o'rnida — xaroba, qulagan daraxtlarning tanalari, faqat
qo'ng'iroq sukunat bilan bellashadi...*

*Tog' cho'qqisiga chiqib she'r to'qiyapman, lekin men bilan
birga hech kim qarayotgani yo'q,*

Qalbmida g'uluv va suruv, tungi shamol esyapti.

Men esam yengil tuman osha qarayapman,

*To'lin oy yoritayotgan tog'larga, pastda chopayotgan
Pxeganga...».*

Oltinchi she'r oxiriga yetganda, yigit chapak chalib va raqs tushib, ularni misrama-misra takrorlay boshlabdi. Vaqti-vaqti bilan u to'xtab, nafas rostlab olar ekan. Yigitning qo'shig'iga tor va nay navosi jo'r bo'lmasa-da, bu qo'shiq his-tuyg'ularga to'la ekan: dam chuqur darada ajdar raqs tushayotgandek, dam yakka qayiqda baxtiqaro beva yig'layotgandek bo'lib tuyularkan.

Soqchilar uchinchi marta almashganda yigit nihoyat qo'shig'ini to'xtatibdi va kemaga qaytmoqchi bo'libdi, biroq shu payt birdan g'arb tomondan yaqinlashib kelayotgan qadamlar ovozi eshitilibdi. Xon bu rohiblardan biri ovozimni eshitib, hayron bo'lib, nima gapligini aniqlagani kelayotgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilibdi. Yigit zinaga o'tirib kuta boshlabdi. Bir vaqt qarasa, yelpig'ich ko'targan ikki oqsoch kuzatuvida go'zal bir qiz kelayotgan emish. Egnidagi libosi va o'zini tutishidan qiz dongdor oiladan ekanligi ko'rinib turarkan. Xon zinadan tushibdi va devor orqasiga yashirinib, ularning keyingi harakatlarini kuzata boshlabdi.

Qiz pavilyonning janubiy qismidagi to'siqqa tirsak tirab, oyga termulgancha past ovozda qo'shiq boshlabdi. Uning yuzida sho'x jilva paydo bo'libdi, lekin ayni vaqtda u o'z olijanobligini aslo yo'qotmabdi. Oqsochlar qizning qarshisiga parcha jildli yostiqlar qo'yishibdi.

Qiz o'tirib kiyimini to'g'rilabdi va yangroq ovozda:

— Bu yerda she'r o'qiyotgan odam qayerga yo'qoldi? Axir men yo'ldan ozdiruvchi ruh yoki nilufar oyoqli avroqchi emasman-ku!.. — debdi. — Bugun juda yaxshil kun bo'ldi, qayerga qarama — toza osmon, minglab li masofada yastangan, oy yorqin nur sochyapti, uning nurlari ostida hatto Kumush daryo ham oqarib ko'rinyapti! Dolchin daraxtidan mevalar uzilib tushyapti, Nefritli kulbada ham shabada kezyapti. Bunday ajoyib tunda har bir qo'shiqni bir qadah may bilan kuzatmay, his-tuyg'ularni to'kib-sochmay bo'larkanmi!

Xon qo'rqishi yoki xursand bo'lishini bilmasdan uzoq ikkilanib turibdi. Nihoyat, u ohista yo'talib qo'yishga qaror qilibdi. Shu zahoti uning oldiga oqsochlardan biri kelibdi va:

— Xonim sizni o'z oldilariga chorlayaptilar, — debdi.

Yigit qizga uyalibgina yaqinlashibdi va ta'zim bajo keltirib, tiz cho'kibdi. Sohibjamol unga alohida izzat-ikrom ko'rsatmabdi, faqat:

— Bu yerga ko'tarilishingiz mumkin, — debdi.

Oqsoch bir lahzada ularning o'rtasiga parda tutibdi va qizning yuzini yarmiga to'sibdi. Qiz pinak buzmay gapimi davom ettiribdi:

— Siz hozir qanday she'r o'qiyotgan edingiz? Ularni men uchun yana o'qib bering!

Yigit olti she'rning hammasini oldimma-ketin o'qib beribdi.

— Siz, yaxshi, she'rning farqiga borar ekansiz! — debdi sohibjamol tabassum bilan va oqsochlarga may va gazak keltirishni buyuribdi.

Gazaklar bu dunyoning odami ko'nikmagan taomlardan iborat bo'lib, tishlab ham bo'lmaydigan darajada qattiq, may esa og'izga olib bo'lmaydigan darajada achchilq ekan.

Qiz istehzo bilan:

— Bu o'tkinchi dunyo odami oq yashma sharbati va qizil ajdar go'shtini munosib baholashga qodirmikan! — debdi va oqsochga: — Tez Muqaddas himoya monastiriga borib, rohiblardan qaynatilgan guruch olib kel, — deb buyuribdi.

Sizga shuni aytish kerakki, monastirda hech qanday rohiblar yo'q, faqat arxatlarning haykallari qo'yilgan ekan.

Oqsoch buyruqni bajarish uchun yugurib ketibdi va tez orada qaynatilgan guruchni ko'tarib qaytib kelibdi, lekin unga biron-bir qayla solinmagan ekan. Shunda yana sohibjamolning ovozi yangrabdi:

— May tog'iga borib, biron-bir gazak olib kel. (Tog' ostidagi ko'lda ajdar yashar ekan.)

Oradan ko'p o'tmay, mayda to'g'ralgan zog'orabaliqdan iborat taom paydo bo'libdi. Xon bajonidil uni tanovul qila boshlabdi. U ovqatlanib bo'lmasidan qiz dolchin daraxti barglaridan tayyorlangan qog'ozga kayfiyat jihatidan yigitning she'rlariga hamohang bo'lgan misralarni bitibdi. Oqsoch orqali u she'rlarni Xonga uzatibdi. Mana, o'sha she'rlar:

* * *

«Sharqiy shiypon uzra oy nuri
tun zulmatini haydayapti.
Dilkash suhbat ba'zan g'am-g'ussa paydo qiladi... Nega?
Daraxtlar — baayni yashil tom,
ularning tanasi ustunga o'xshaydi,
Daryo tovlanadi, uning to'lqinlari
ko'ylak etagi kabi hilpiraydi.
Janubga uchayotgan qushlar galasi yanglig'
bu yerda zamonlar o'tgan,
Voqealar oldinma-ketin yuz bergan, daryoda to'lqin ketidan
to'lqin kelgani kabi.
Yuragimda g'uluv, hayajon...
Tungi yarim tushimni kim tushunadi?
Chirmovuqlar tomondan, tuman osha
qo'ng'iroq ovozi eshitiladi.

* * *

Shahardan janubga qarab, vohalar osha,
ikkita irmoq bo'lib daryo oqadi.
G'ozlar galasi qichqirib uchadi irmoqlar ayrilgan joyda.
Qirol aravasi hech qachon
bu yerga kelmaydi; ajdar yashirindi.
Yer qabrga aylandi, — uning tushiga o'tgan zamonlar nay
navosi kiradi.
Bulutlar bag'rini yorib
kechki quyosh o'z nurlarini sochmoqda...
Yomg'ir oldidan tashlandiq ibodatxonada qorong'i tushguncha
she'r to'qiyapman.
Daraxtzorlar bag'rida yashiringan yashil rang mis tuyalarga
achinib qarayapman,
G'alaba bo'ronlariga dosh bergan hayot
yomg'ir olib keluvchi bulutga aylandi...

* * *

*Qurigan shoxda chirildoq nola qilyapti, sariq maysalar shitirlab
bosh egyapti...*

Baland shiyponga ko'tarilganim zahoti

qalbimni g'am-hasrat chulg'adi.

Tinayotgan yomg'ir va tarqalayotgan bulutlar

chopqir asrlar haqida menga eslatdi,

O'tkinchl hayot timsoli o'laroq,

bir dasta yaproq suvga yiqildi.

To'lqinlar esa tinimsiz shovullaydi v toshli devorga kelib uriladi.

Daryo oqimi orasidagi shiypinni

oy o'z nurlari bilan yoritadi.

Qudratli hayotning qadimgi tarzi

qachondir bu daryo uzra yashnagan,

Endilikda bu kimsasiz xarobalar

yurakni g'am-g'ussaga to'ldiryapti.

* * *

*Tog'lar parchadan-da yorqin, havo shaffof ma'dan-da toza,
lekin kuz manzarasi hasratli...*

*Shovqin-suron bilan oqayotgan daryo qirg'og'idagi daraxtlarni
xaroba devorlari to'sadi.*

Olisdan g'alati tovushlar quloqqa chalinadi,

bu g'o'lalarning toshlarga urilish ovozi.

Qayiqni qirg'oqqa chorlayaptilar va

tuman og'ushidagi daryodan ovozlari kelyapti.

Tog' yaqinidagi yolg'iz daraxt

alam bilan xo'rsinadi.

*O'tgan zamonlar zulmati bag'ridan qadimgi yodgorlik yuz
ko'rsatadi...*

Shiyponda to'siqqa tirsak tirab

sukut saqlab turibman.

Oy nuri va to'lqin qalbimga kirdi —

unda g'am-hasrat va g'alayon.

* * *

*Osmon Podshosi saroyini
yulduzlar galasi yorityapti.*

*Oy to'lin, Somon yo'li bo'zarib ko'rinadi, dunyoda uyqu hukm
suradi.*

*Ravnaq izsiz yo'q bo'lib ketishini
men faqat endi tushunib yetdim,
Yangi suvrat menga
faqat yangi og'riq keltirishini ham.*

*Lekin qadahda may qurigani yo'q va u bizni mast qilayotir.
O'tmishni allaqachon chang qoplagan, qo'msa, qo'msama —
naf yo'q!*

*Shon-shuhrati rivoyatlarda abadiy
saqlanishi kerak bo'lgan qahramonlar
Hokka aylandi.
Ulardan hozir faqat
quruq nomlar qoldi.*

* * *

Tun tongga qarab bormoqda.

*Shuncha zamonlarni ko'rgan devor xarobalarini,
Osmonni tark etayotgan befarq oy nurlari yorityapti.*

*Yaqinda biz har birimiz o'z dunyomizga ketamiz, daryo kabi
oqib ketamiz.*

*Faqat men bilan bo'lgan quvonchli uchrashuv xotirasi
minglab kunlar osha saqlanib qoladi.*

*Afsus, biz bu sershovqin daryo tepasida,
shu shiyponda xayrlashishimiz kerak!*

*Nur sochayotgan yulduzlar uyquga ketdi, maysalar sirtida
shudring yaltirayapti.*

Ammo she'r she'r bilan yana topisharmikan?

Biz yana biron joyda uchrasharmikanmiz? —

*Bundan yalang'och qoyada shaftoli yetilishi, dengizlardagi
suvning qurishi osonroq!..»*

Qizning she'rlari yigitni hayratga solibdi. Ammo shu lahza unga sohibjamol pavilyonni tark etishga taraddud ko'rayotgandek bo'lib tuyulibdi. Qizni bu yerda ko'proq ushlab qolishga intilib, Xon unga savol bilan murojaat etibdi.

— Siz qaysi urug'dan ekanligingizni va qutlug' ismingizni bilsam bo'ladimi? — deb so'rabdi u.

Qiz g'amgin xo'rsinib javob beribdi:

— Sizning kamtarin suhbatdoshingiz Kidja urug'idanman, ajdodlarim — In podsholari. Bobokalonim bu joyni mulk sifatida olganida, u hamma narsada — urf-odatlar va musiqada, qonunlar va jazolarda xalqqa sakkiz muqaddas amr yordamida nasihat qilgan. Shu tufayli ham mamlakatimiz ming yildan ortiq muddat gullab-yashnagan, unda ma'rifat keng tarqalgan. Biroq vaqti kelib Osmon o'z muruvvatini bizdan forig' aylagan va mamlakatimiz boshiga qurg'oqchilik va boshqa kulfatlar yog'ilgan. Podsho, mening marhum otam, ismini hech kim bilmaydigan nasl-nasabsiz bir kasdan mag'lub bo'lgan va u o'z ajdodlari saroyini tark etishiga to'g'ri kelgan. Olatasir zamondan foydalanib Vi Man uning taxtini o'g'irlagan. Choson mamlakati boshiga musibatlar tushgan. Men, bir ojiza, g'am-hasrat va chorasizlik og'ushida, taxtga sadoqatni hayotim evaziga bo'lsa ham saqlab qolishga ahd qildim. Bir kuni oldimga qaysidir avliyo keldi va meni yupatar ekan, shunday dedi: «Men shu davlatning asoschilaridan biri bo'laman. Menga tayinlangan podsholik muddati tugagani zahoti, kamina dengiz o'rtasidagi orolga ketganman va umrboqiylar davrasiga qo'shilganman. Bunga ko'p ming yillar bo'ldi. Qizim, sen men bilan birga Qirmizi saroy va Yashirin poytaxtga ketishga, u yerda emin-erkin va shod-xurram yashashga tayyormisan?»

Men, ha, tayyorman, deb aytdim. Shunda u meni qo'limdan ushlab, o'zi bilan boshlab ketdi. U meni bir pavilyonga joylashtirdi va Yashirin orollardan obi hayot olib kela boshladi. Oradan bir necha kun o'tgach, men vujudim yengillashganini, ruhim bardam topganini his qildim; menga hatto butun vujudim qayta bino bo'lgandek bo'lib tuyula boshladi. Shundan beri men yer-u osmon o'rtasida erkin uchaman, koinotning eng ovloq burchaklariga

yetib boraman, o'n yurt va uch orolda — g'orlarda umrboqiy zotlar yashaydigan muqaddas joylarda bo'ldim.

Kunlarning birida, kuz osmoni tiniq bo'lgan, oy o'z nurlarini yerga to'kayotgan pallada, men oyni va dolchin daraxtini kuzata boshladim. Shu lahza menda oyga uchib ketish istagi paydo bo'ldi va men uchib ketdim, u yerda Sovuq va Bo'shliq makonida bo'ldim va Billur saroyda Chan-e qarshisida bosh egdim. U mening bokiraligimni, kamtarinligimni va boz ustiga, fanlardan xabardor ekanligimni ko'rib, menga shunday nutq bilan murojaat etdi:

— Garchi sizlarda umrboqiylar makonini huzur-halovat yurti deb atashsa-da, u aslida hok va turobdan bino bo'lgan. Osmon-u falakda kezish, oq qaqnusni aravaga qo'shish, alvonrang dolchin daraxti soyasida shirin atirlarni hidlash va lojuvard osmonda quyosh nurlaridan bahra olish, Nefritli poytaxtda sayr qilish va Kumush daryoda cho'milish naqadar ajoyib!

Menga Chan-e xushbo'y isli narsalar qo'yilgan mehrob oldida xizmat ko'rsatish va unga har ishda yordam berishni buyurdi. Men bu yerda so'z bilan tavsiflab bo'lmaydigan huzur-halovat his qildim.

Ammo shu tun men birdan o'z vatanimni qo'msab qoldim. Tepadan bu o'tkinchi dunyoga nazar tashiadim, bolalikdan tanish joylarni izlab topdim. Bu yerda hamma narsa avvalgidek saqlanib qolgan, faqat yaqin kishilarim endi yo'q. Janglar bo'lib o'tgan maydonlarni oy o'z nurlari bilan yorityapti, xarobazorlar oq shudring bilan yuvilgan. Men shosha-pisha yerga tushdim va ajdodlarim qabrini ziyorat qildim. So'ng daryo tepasidagi pavilyon bo'y-lab kezigim, g'am-hasratlardan xalos bo'lgim keldi... Bu yerda men, olim yigit, sizni uchratdim. Qalbimni quvonch va uyat hislari chulg'adi. Men sizning ajoyib she'rlaringizga o'zimning no'noq mo'yqalamim bilan bir nechta misralar qo'shishga jur'at etdim. O'zimda nafis so'z san'atiga iqtidor topganim uchun emas, balki faqat sizga o'z his-tuyg'ularimni oshkor etish uchun.

Xon qizning qarshisida tiz cho'kibdi va yerga bosh urib:

— Men, bir faqir odam, podsho urug'idan bo'lgan qiz, samoviy malika misralarimga javob berishi mumkinligiga hatto umid ham qilmagan edim! — debdi.

U qizning she'rlari bitilgan yaproqlarni ko'ziga yaqin keltiribdi, ularni yana bir marta o'qib chiqibdi va yod olibdi. So'ng yana tavoze bilan ta'zim qilib, shunday debdi:

— Men, bir osiy banda, umrboqiylar taomining lazzatini his etishga qodir emasman. Bitiklar va rasmlarni tushunishim, osmon-u falak qo'shiqlaridan xabardorligim bir mo'jiza, xolos. Men, albatta, hayotning barcha to'rt lazzati haqida orzu ham qilolmayman, lekin sizdan menga nasibat tarzida «Kuz tunida daryo tepasidagi shiyponda oyga tikilaman» mavzusida ikki misrali she'rlar yozib berishingizni iltimos qilaman.

Sohibjamol yigitning iltimosiga rozi bo'lib bosh silkibdi, mo'yqalamni siyohga botirib olibdi va uni bir siltagan ekan, qog'oz uzra bulutlar va quyuq tutun pardasi paydo bo'libdi. Lahza o'tmay yigit so'ragan she'rlar tayyor bo'libdi:

*«Suzuvchi lojuvard pavilyoniga
oydin tunda shudring tushdi.
Somon yo'li
osmonni o'z nuri bilan forig' etdi.*

*Pavilyon soyasi
jazirama issiqdan xalos eta olmaydi.
Oydin dunyo
kumushga sho'ng'idi.*

*Bu yerdagi o'n ikkita shiypon
har biri o'zicha yaxshi.
Anvoyi hidlarga to'la makonda
yengil shabada keza boshladi.*

*U toliqqan kipriklarga
ohista tegib o'tdi,
Mudrayotgan qushlarni uyg'otgandek
ularni uyg'otdi.*

*Yugurik to'liqlar bag'rida
uch kuruchli qayiqlar ko'rinadi,
Kambag'alning kulbasini
oy nurlari yoritadi.*

*Qamishlar qalin o'sgan
orol ko'zga tashlanadi,
Sukunat bag'rida
qo'shiq navolari yangraydi.*

*Bu joylar go'zalligi
ko'zlarni qamashtiradi,
Atrofdagi narsalarning hammasi
go'yo yashma bolta bilan yasalgan.*

*Saroy naqadar go'zal,
bu yerda podsho — suv osti ajdari.
Dunyo — go'yo o'liklar saltanati,
bu yerda ulkan mash'al yoqilgan.*

*Gun-yuan va Chji-vey
bu yerda men bilan birga bo'lishgan.
Oy nuri pastga
muz oqimi kabi yog'iladi.*

*Vey podsholigida
uzun dumli hakkalarni cho'chitadi...
Bu qanday jazirama bo'ldi,
shabadadan hatto asar ham yo'q!*

*Oy o'z nurlari bilan
U knyazligining qora ho'kizlarini yorityapti...
Ushbu pallada butun yer
oyga ko'z tikadi.*

*Biz qulfni
eski kalitimiz bilan ochamiz
Va ikkovlon
ko'nglimizni xush qilgani boramiz.*

*Shu pallada Li Bo
o'z qadahini ko'tarishni yoqtirgan,
U Gann esa
dolchin daraxtini kesgan...*

*Osmonga qadalgan nigohim
oq pardadan hayratda:
Ipak matoga
rangli gullar solingan.*

*Tepamda
muz g'ildirak — oy,
Boshim uzra u
xuddi ko'zgudek yaltiraydi.*

*Oy ostida
qirg'oqda to'lqin tilla rangda tovlanadi.
Atrofda esa —
sukunat, sukunat...*

*O'tkir qilichimni ko'taraman
va ayyor baqani o'ldiraman.
Oy quyonini
pistirmaga aldab olib kelaman.*

*Osmon chetidan
qora bulutlar tarqala boshladi.
Va tog' so'qmoqlariga tushgan
tumanni ham o'zi bilan olib ketdi.*

*Bu qadimgi shiypon bo'sag'asi
eski daraxtlardan ham balandda,
Daryoga esa
o'n mingta yo'l olib keladi.*

*Bu daryo oldida
kim o'zining to'g'ri yo'lini topa olmasa,
Begona yurtlarda
g'am-hasratdan ado bo'ladi.*

*Men uyimga qaytdim,
o'z ona yurtimga.
Do'stni uchratdim
va uning yonida turibman.*

*Biz hozir bir-birimizning
eng yuksak tuyg'ularimizni tekshiryapmiz,
Bizni may nima bilandir
Bir-birimizga yaqinlashtirdi.*

*She'r to'qiyotib,
biz hozir kakchxok o'tkazdik
Va har bir qultumni
boshqa qultum bilan kuzatyapmiz.*

*Manqalda olov
allaqachon o'chgan bo'lsa ham,
Qadahlarimizda may
olov kabi yonyapti.*

*U qadahdan ko'pirib toshyapti
va anvoyi hidlar taralyapti.
Turnalar qayrag'ochlar orasida
tashvish bilan qichqiryapti.*

*Qulog'imga shu payt
chirildoq sayrashi chalindi —
Qalbimni yana
g'am-hasrat chulg'adi.*

*Uzoq-uzoqlarda ko'ryapman:
In Xao minorada Yuy Lyan bilan birga...
Vaqt qush kabi uchyaпти!
Minora turgan joyda hozir begona o'tlar.*

*Qal'a devori xarobalari
oldidagi qayrag'ochlarda
Shudring donalari miltillaydi,
oy nurlari ostida yaltirab ko'rinadi...*

*Sariq qamishlarni
yengil shabada titratadi,
Sehrli mamlakat uzra
osmon juda keng.*

*Bu yerda qachonlardir
hashamatli go'zal saroy turgan,
Endi esa —
faqat bir uyum xaroba.*

*Bizdan faqat
kulrang toshga yo'nilgan ism qoladi!
Turnalar,
o'tmish haqida menga gapirib bering!*

*Daraxtlar dengizi uzra
oyning oltin o'rog'i paydo bo'ldi,
Bu dunyoda inson,
afsuski, omonat!..*

*Bir paytlar bu yerda saroy bor edi,
endi faqat tepalik ustida ibodatxona,
Podsholar hoki
o'rmonlarda va zulmaida adashib qoldi.*

*O'rmon chetida
chirildoqlar galasi uchyapti.
Uy moviy
shu'lalarga to'la...*

*O'tmishni eslab va vaqtning
shoshqinligini o'ylab hasrat chekaman.
Ammo hayot
bugun ham tashvishga to'la.*

*Tangundan faqat
Monmyokda suyaklar qoldi,
Kidadan esa —
faqat tosh va chirmovuqlar.*

*Go'yo yakka shox
g'or soyasiga o'z izini yashirdi,
Dalalarda esa
sushen o'qlarining uchlari...*

*Ammo Tikuvchi tezlagan
yashil ajdar shoshilib kelyapti,
Lan-syan
ham taxtga qaytyapti.*

*She'r to'qib charchagan shoir
mo'yqalam va siyohni chetga surib qo'ydi.
Xayrlashyapmiz...
Suhbat uchun endi vaqt yo'q.*

*Pari o'z qo'shig'ini tugatdi,
o'zining tingan konxusini olib ketdi,
Faqat eshkakning
suvga urilgan ovozi eshitilyapti».*

Qiz mo'yqalamni chetga itqitibdi va osmon-u falakka ko'tarilib, bir lahzada g'oyib bo'libdi. Ammo, yigitni tark etishdan oldin, unga quyidagi so'zlarni yetkazishni oqsochga buyuribdi: «Osmon podshosining amrlari qat'iy. Fursat keldi — oq qaqnusni aravaga qo'shishyapti; nafosatga to'la suhbatimiz oxiriga yetgani yo'q, qalbini g'am-g'ussa chulg'adi».

Birdan qayoqdandir quyun uchib kelibdi, yigitni oyoqlaridan chalib yiqitibdi va qo'llaridan she'rlar bitilgan varaqlarni yulib olib ketibdi. Aftidan, boshqa dunyodan kelgan mehmon qizning she'rlari odamlar orasida tarqalmasligi uchun. Xon nima qilishini bilmay turib qolibdi. Chuqur o'ylarga berilibdi. «Bu tushmidi? Tush emas edi shekilli... O'ngimda bo'ldimi bu? O'ngimda bo'lganga ham o'xshamaydi...». To'siqqa tirsak tirab turib, u sohibjamol qiz aytgan har bir so'zni eslashga harakat qilibdi. Hanuz ajoyib uchrashuv ta'siridan to'lg'inlanib, u qizga o'z tuyg'ularini izhor eta olmaganidan afsus qilibdi va pirovard natijada quyidagi misralarni to'qibdi:

*«Pavilyondagi ajoyib uchrashuv!
U — xuddi oy ostidagi tush.
Bu ajoyib ichimlikni
yana qachondir sipqorarmikanman?
Hatto sovuq to'lg'inlar ham
men bilan birga yig'layapti!»*

She'rni ovoz chiqarib o'qib, u atrofga alanglabdi va quloq solibdi: tog'dagi ibodatxonadan qo'ng'iroq ovozi taralar, daryo bo'yidagi qishloqda xo'rozlar qichqirar, oy g'arbga qarab ketgan, osmonda yulduzlar charaqlar ekan. Faqat pavilyon yaqinida kalamushlar chiyillar va chirildoqlar chirillar ekan. Xonning

qalbini g'am-hasrat chulg'ab olibdi. Qizni ushlab qololmaganidan u qattiq afsus chekibdi. Yigit daryoga tushib, qayiqqa o'tiribdi va kayfiyati buzilib, o'z yo'ldoshlarini tark etgan joyga qarab suzib ketibdi. Kemada undan tunni qayerda o'tkazganini surishtira boshiashibdi. Xon bunga javoban yolg'on to'qibdi: «Oydin tunda baliq ovlagim keldi. Qarmoqni olib Chan-gyonmunga — Uzoq baxt darvozasiga bordim va Osmonga qaragan tog' oldida joylashdim. Tanga baliq tutmoqchi bo'lgan edim, lekin tun sovuq keldi va muzday suvda qarmoqqa hatto laqqa baliq ham ilinmadi. Afsus!». Buning rost-yolg'onligini yo'ldoshlaridan birortasi ham surishtirib o'tirmabdi.

Shundan beri sohibjamol qiz Xonning xayolidan ketmay qolibdi. U yemay-ichmay qo'yibdi va ozib cho'p bo'lib qolibdi. Uyga yetib borganida, uning o'ylari aloq-chaloq, gaplari esa almoyi-aljoyi ekan. U to'shakda uzoq yotibdi, lekin kasallik hech o'tmabdi.

Kunlarning birida yigit tushida antiqa libosdagi bir go'zal qizni ko'ribdi. Qiz unga yaqinlashib shunday debdi:

— Pari-xomim Osmon egasi oldida siz haqingizda gap ochdi. Xonimning iste'dodini e'zozlagani uchun Osmon egasi sizni Cho'pon burji xudosining a'yonlari qatoriga kiritishga izn berdi. Osmon podshosining hukmi shunday va umi hech kim buza olmaydi!

Yigit qo'rqib uyg'onib ketibdi va o'sha zahoti uyidagilarga o'zini yuvintirish va kiyintirishni, anvoyi hidli shamlarni yoqishni, hovlini supurib-sidirish va so'rilarini o'rnatishni buyuribdi. Shundan so'ng u yotibdi, yuziga kaftini tirabdi va joni uzilibdi. Bu yilning to'qqizinchi oyida, oy to'lgan pallada yuz beribdi. U tobutda bir necha kun yotibdi, lekin yuzining rangi o'zgarmabdi. Odamlar yigit avliyolar qatoriga qo'shildi, degan qarorga kelishibdi.



LIM CHJE (1548–1587)

«KEMA OSTIDAGI SICHQON» (parchalar)

Qadim zamonlarda qishloqqa o't tushgan taqdirda g'allani saqlab qolish uchun omborlarni ovloqda, turarjoylardan uzoqda qurishar ekan. Vaqt o'tishi bilan omborlarga eltuvchi so'qmoqlarni o't-o'lan, tosh bosar, to'siq devorlarini chirmovuqlar qoplar, mog'or hidi hatto omborning tosh zinapoyalarini ham chulg'ab olar ekan. Ayni hol odamlar uzoqda yashashi, ular bu yerga kamdan kam mehmonlar hisoblanishi bilan izohlanar ekan.

O'sha zamonlarda chuqur bir inda Sichqon yashagan ekan; uning tanasi uzunligi yarim *cha*, yungi – ikki *chxi* ekan; ayyorlik va nayrangbozlikda u hamma sichqonlarni orqada qoldirarkan. Boshqa sichqonlar uni ustoz deb hurmat qilishar ekan. Qari sichqonning xayolida fitna-fasod va hiyla-nayrangdan boshqa narsa yo'q ekan. Qachondir u guruch solingan xumchada o'ziga in qurganini, Mushukning bo'yniga qo'ng'iroq osib qo'yanini hamma bilarkan.

Bir kuni Sichqon-ustoz o'z shogirdlarini huzuriga chorlabdi va mo'ylovini silab, yashash qiyinlashib borayotgani haqida gap boshlabdi.

— Zaxiralarimiz yo'q, turarjoyimiz devor bilan o'ralmagan, istalgan vaqtda bizga dam odamlar, dam itlar tahdid solishadi, bir so'z bilan aytganda, ahvolimiz havas qilgudek emas. Eshitishimcha, Qirol omborxonasida durdek oq guruchlar tog' bo'lib uyulib chirib yotgan emish. Devorni teshib kirib, o'sha yerda in qursak, o'lguncha huzur-halovatda yashar edik! Ori rost, osmon muruvvatini bizdan darig' tutgani yo'q! Eh, endi biz maza qilib yashaymiz!

Sichqon-ustoz sichqonlar galasini to'plabdi va ularni Qirol omborxonasiga boshlab boribdi. Sichqonlar devorni kemira boshlashibdi. Yarim kun o'tmasdan devorda katta teshik ochillbdi. Sichqon omborxonaga kiribdi, atrofni ko'zdan kechiribdi va bu yerda in qursak, yomon bo'lmaydi, degan qarorga kelibdi. Uning orqasidan omborga son-sanoqsiz sichqonlar yopirilib kirishibdi

va hammayoqni titkilab, barcha burchaklarni hidlay boshlashibdi. Qarashsa, chindan ham tuproq polga guruchlar tog'-tog' qilib to'kib qo'yilgan, ularni yeb oxiriga yetkazib bo'lmaz ekan...

Sichqonlar galasi Qirol omborxonasida o'n yilcha yashabdi. Oxiri omborxona butunlay bo'shab qolibdi.

Shu vaqt omborxona Ruhi uyqudan uyg'onib qolibdi. U hisob-kitob daftarlarini olib, mavjud don miqdorini yozuvlar bo'yicha tekshira boshlabdi. Omborxonada juda ko'p *som* guruch yetishmayotganini aniqlab, uning kapalagi uchib ketibdi. Ruh shu zahoti Muqaddas lashkarni chaqiribdi va aybdorlarni qidirib topishni buyuribdi. Askarlar tez orada Sichqon-ustozni qo'lga olishibdi.

Ruh ayblanuvchiga o'z g'azabini sochibdi:

— Iflos hayvon! Sen kimligingni unutib qo'ydingmi?! Sening uying — qora yer tagidagi in, ovqating — iflos yuvindi! O'z malaylaring bilan devorga teshik ochish va omborxonada tanda qurishga qanday hadding sig'di?! Yuz yillik don zaxirasining boshiga yetish va xalqni guruchsiz qoldirishga qanday jur'at etding?! Butun zotingni oxirgi sichqongacha bo'g'ib tashlash kerak — faqat shunda o'g'rilikka barham berish mumkin bo'lsa kerak! Sheriklaring va dalolatchilaringga kelsak, hech kimga rahm qilmayman, hammasiga munosib jazosini beraman!

Sichqon Ruhning gapini yasama xijolatpazlik bilan eshitibdi va old oyoqlarini qovushtirib, chiyillay ketibdi:

— So'z aytishga ruxsat bering: garchi men qari va ko'rinishdan notavon bo'lsam-da, aslida hali ko'p ishlarga yarayman, zero, tabiat menga ko'p iqtidorlar ato etgan. Hayvonlar orasida men, albatta, birinchi emasman, lekin hammadan orqada ham qolmaganman: qadimgi shoirlar men haqimda «Shiszin»da yozishgan, Barkamol zot mening nomimni «Liszi»da tilga olgan. Bu esa, bizning urug'imiz odamlarga qadimdan tanish ekanligini anglatadi. Biroq, a'lo hazrat, bir eslang-a: hatto Inson, tabiatning bu ikki oyoqli podshosi ham ertadan kechgacha dalada mehnat qilsa-da, hech qachon qorni to'yib ovqat yemaydi — doim ochlikdan qiynaladi. Men-chi? Axir, bir kampir bo'lsam, bo'm-bo'sh inda qanday yashayman? Axir, kampir bo'lsam ham yashagim keladi... Ochlikdan men bug'doy kepagi va bambuk poyasini kemira

boshiadim! Mana, boshim qanday kunlarga qoldi! Nima, to'qlikdanmi bu? Yo'q, muhtojlikdan!

Tan olaman, aybim katta. Biroq nima qilay: oilam och, bolalarim qiynalayotgan bo'lsa. O'g'illarim Sharqiy uy oldiga qo'yilgan qopqonda, nevaralarim esa — G'arbiy uy oldidagi qopqonda halok bo'lishdi. Ha, boshimga juda katta musibat tushdi. Ko'zlarim xiralashib yaxshi ko'rmaydigan bo'lib qoldi, o'zim ham munkillab qolganman, salga nafasim tiqiladi, tez yugurish qayoqda... Endi men hech narsaga yaramayman. Bu ahvolda men kimga ham kerakman? Rostini aytyapman: sich-qonlar orasida mening sheriklarim yo'q!

Shu tariqa makkor Sichqon hayvonlarga, nainki hayvonlar, balki o'simliklar va Ruhlarga ham tuhmat qila boshlabdi; go'yoki ular Sichqonni jinoyat sodir etishga da'vat etishgan emish! Vijdoni zarracha qiynalmasdan u o'z aybini bironvga og'dirish uchun yolg'on ketidan yolg'on to'qibdi...

Ayyor Sichqon omborxona Ruhi qarshisiga o'tirib olib, uning ko'ziga tik qarabdi va o'z gapini quyidagi so'zlar bilan boshiabdi:

— Sizga shuni aytishim mumkinki, men hamisha rost gapiraman: dunyoda bir marta bo'lsa ham ayb ish qilmagan hayvonning o'zi yo'q. Ammo siz, a'lo hazrat, juda muruvvatlisiz — hech kimni jazolamaysiz. Shu tufayli ham hech kim o'z jinoyatlariga iqrar bo'lmaydi! Men esam avvalboshdan gapning rostini gapiryapman. Siz meni qari lo'ttibo deb hisoblaysiz, vaholanki, bu hayvonlarning hammasi mendan ayyorroq! Axir, quruq tuhmat kimga yoqadi?

Masalan, Shiliqqurtni olaylik: uning yetti teshigi ham, oyoq-qo'llari ham yo'q. Bu jirttaqi gunoh qilsa ham, gunoh qilganini bilmaydi!

Yoki, masalan, Chumolini olaylik: o'zi bir misqol bo'lsa ham qal'a devorlarini buzishga qodir. O'zboshimchalik bilan qirol nomini o'ziniki qilib olgan, Osmon O'g'liga taqlid qilib yashaydi. Ammo, uning nobop qilmishlarini jazosiz qoldirgandan ko'ra, ming marta o'lgan yaxshi! Hamonki u qirol rutbasini o'zlashtirib olishga jur'at etgan ekan, meni Qirol omborxonasiga o'g'rilikka tushishga da'vat etish unga bir chaqalik ish bo'lsa kerak.

Yoki bo'lmasa Chirildoq: u haqda nima deyish mumkin? Katta olov — Quyosh va Oy, kichik olov — chiroq va shamlar. Chirildoq esa bo'yi bir chxidan oshmaydi: olovi ham zo'rg'a miltillaydi; Chirildoq daraxtga yopishib, o'z fonarini yoqsa, bu olov suvda ham o'chmaydi. Shuning uchun ham Chirildoq tunni kunduzga aylantira olaman, deb maqtanadi! Ammo bundan kimga bir tiyinlik foyda bor? Kuz kechalari uning tark etilgan xotini yolg'izlik azobini tortadi; u yomg'irda qolgan, toliqqan yo'lovchilarni o'z olovi bilan chalg'itadi — ularga shu yaqin orada karvonsaroy bordek bo'lib tuyuladi. Buning nimasi yaxshi? Ayni vaqtda, u ayyor Tulki, makkor Silovsin, vahshiy Yo'lbars va zolim Shoqolga yo'l ko'rsatadi. Chirildoq ularga devordan oshib o'tish, Inson uyiga kirish, misli ko'rilmagan yomonhiklarni sodir etishga yordam beradi. Garchi u o'zi kichkina bo'lsa-da, juda katta ziyon yetkazadi!

Xo'roz-chi? U Inson uyida yashaydi, uning saxovatidan foydalanadi, demak, uning xizmatini qilishi kerak. Biroq Xo'roz amalda nima qiladi? Inson mehnat qiladi, sabzavotlar yetishtiradi — Xo'roz bo'lsa ularni payhon qiladi, Insonga oltin va javhardan ham qimmat bo'lgan donni yeb qo'yadi. Tovuq ertadan kechgacha qaqag'lagani-qaqag'lagan, Xo'roz esa erta sahardayoq tomoq yirtishni boshlaydi. Nonko'r!

Ma'lumki, Kakku hammaga otning qashqasidek taniqli: patlari siyrak, kakkulab qon qusadi, o'z polaponlarini boshqa qushlarning inlariga tashlab qo'yadi, hamma qushlarni o'z xizmatkorlari deb hisoblaydi. Shuning o'ziyoq uning omiligini ko'rsatadi. Baland tog'lar va keng daryolardan boshqa hech narsani pisand qilmaydi. Ba'zan siz ketayotganingizda u jim turadi, lekin birdan sizni orqaga qaytarmoqchi bo'ladi va ashulasini boshlaydi: «Orqaga qaytgan ma'qull!» Garchi u qadimgi imperatorning ruhi o'zida mujassam ekanligini aytsa-da, bu qip-qizil yolg'on! Nega u daraxtzorni tark etib, odamlar yashaydigan joyga uchib keladi va kakkulaydi? Kunduzi qanday balolarga sababchi bo'lgani uchun u kechasi bunday nola qiladi? Nima deb o'ylashimni ham bilmayman.

Hayvonlar orasida birgina to'ti inson tilini tushunadi, uning mag'zini chaqa oladi. Holbuki, Osmon tirik jonzotlarni yaratgandan beri Inson va Hayvon turli tillarda gapiradi: bu —

tabiat qonuni. To'ti bo'lsa, mehmon kelayotganda albatta bu haqda o'z egasiga xabar beradi, biror voqea yuz bersa ham darhol uning daragini yetkazadi! Jodugar qush! Siz, a'lo hazrat, «avliyo» To'tining so'zlariga ishonib, mening chin dildan iqrorimni yolg'on deb bildingiz. Axir, mashoyixlar: «Jodugarlik donishmandlikni yenga olmaydi!», deyishgan-ku. Demak, bu quruq gap ekan-da?

Zarg'aldoq qush haqida nima deyish mumkin? Uning patlari qanchalik chiroyli bo'lmasin, rasmda u chiroyliroq chiqadi; uning ovozi qancha jarangdor bo'lmasin, musiqa bilan uni tenglashtirib bo'lmaydi! Shunga qaramay, odamlar Zarg'aldoq qushning o'zini ko'rish uchun rasmdan yuz buradilar! Uning sayrashini musiqadan afzal ko'radilar! Bu jodugarlik emasmi?! Boz ustiga, Zarg'aldoq qushning ovozi dam quvonchga, dam qayg'uga to'la — u Odamlarni dam quvonishga, dam hasrat chekishga majbur etadi. Axir bu jodugarlik emasmi? Hamonki, uning ovozi joduli ekan, demak, uning qalbi ham joduga to'la! Binobarin, a'lo hazrat, bu dunyoda makkor faqat mening o'zim emasman.

Yoki Kapalakni olaylik. U besh muqaddas amrdan butunlay bexabar. Kapalak — juda abgor hasharot. Shunga qaramay, Inson bu yengil va mo'rt jonzotga mahliyo bo'lib qaraydi, shoirlar Kapalakning jilodor qanotlarini vasf etishadi. Nima uchun? Shuning uchunki, Kapalak Insonga yoqish ilinjida uning qarshisida har turda tovlanadi. Bu jajji jonzot sehr-joduning ustasi: u dam faylasufning tushiga kiradi, dam sohibjamol qiyofasida paydo bo'lib, yosh yigitni yo'ldan uradi. Kapalakning sehr-jodusi ins-u jinslar kuchiga teng! Aynan u kemiruvchiga aylanib, Qirol omborxonasidagi bor donni yeb tushirmaganiga kim kafolat bera oladi?

Qaldirg'ochga kelsak, unda, ma'lumki, yaxshi xislatning o'zi yo'q, boz ustiga, uning aqli ham past: faqat behuda javrash va u yoqdan-bu yoqqa pildirashdan boshqasiga yaramaydi. U, xuddi chopardek, birovning xatlarini tashiydi — buni munosib mashg'ulot deb hisoblash mumkinmi? Qaldirg'och o'z inida polaponlarini ovutish uchun o'yinga ham tushib beradi, lekin amalda olovni ham yoqa olmaydi! Befarosat!

Endi Qurbaqa haqida ikki og'iz gap. U tun bo'yi vaqillaydi, xuddi birovdan sadaqa so'raydi, kunduzi ham ertadan kechgacha

g'o'ldiraydi va Insonning g'ashiga tegadi. Boz ustiga, uning vaqillashini hech kim tushunmaydi. U kimni aldamoqchi bo'ladi? Faqat sizni, a'lo hazrat!

Ko'rsichqon — bizning urug'imizga yaqin jonzot. Avval bizning urug'imiz qashshoq edi, muhtojlikda yashardi, shuning uchun ham Ko'rsichqon o'z urug'iga qarshi bosh ko'tardi, qabiladoshlari bilan orani ochiq qildi va uchar jonzotlar tomoniga o'tib ketdi. Tilanchilik qilib qanotga erishdi va qushlar kabi yashay boshladi. Ma'lumingizkim, u hozir o'z qabiladoshlari sha'nini bulg'ab, yakkamoxov bo'lib yashaydi. O'shanda men barcha Sichqonlarni yig'dim, bu iflos hayvonni chaqirdim, ajdodlar mehrobi qarshisiga o'tqizib, so'roq qilmoqchi bo'ldim. U bo'lsa qanot qoqib tepaga ko'tarildi va: «Men haqiqiy qushman, Sichqonlar bilan teng emasman!», deb, uchib ketdi. Qushlar tomoniga o'tgach, uning asl basharasi to'liq namoyon bo'ldi. «Uyda suvni to'kkan idish dalada ham suvni to'kadi», deb bejiz aytishmagan. Qushlar ham Ko'rsichqonni o'zlaridan haydashdi. Qayoqqa borishini bilmay, u mening oldimga keldi, «xolajon» deb shirin gapirdi, kechirim so'radi, lekin basharasidan surbet ifoda tarqalgani yo'q. Men uni sovuq qarshi oldim, hatto koyidim. Shundan beri uning menda xusumati bor. Hali-hanuz menga tuhmat toshini otadi. Boshimga musibat tushganini eshitib, xursandlikdan o'yinga tushgan emas... Ko'rsichqon mening himoyam uchun to'g'ri gap aytadi deb o'ylaysiz?

Chumchuq-chi? Bo'yi menikidan past, aqli ham menikidan ortiq emas, lekin u nuqul o'z iste'dodlari bilan maqtanadi va bizning urug'imizga ta'na toshlarini otadi. Inson Chumchuqning qanotini urib tushirsa, u darhol inimga emaklab keladi va mendan panoj so'raydi. Biroq, urug'imizning sha'nini o'ylab, men uni quvib solaman. Inimning bo'sag'asida u ochlik va sovuqdan azob tortishga majbur bo'ladi. Shuning uchun ham u meni yomon ko'radi va qulay fursat kelgani zahoti cho'qib olmoqchi bo'ladi. Nahot bu unga qarshi dalil bo'la olmaydi?

Endi qarg'a haqida. Uning xulqi yomon, ovozi ko'ngilni behuzur qiladigan darajada. Odam o'lsa, buning daragini birinchi bo'lib Qarg'a yetkazadi, birovning tobi qochsa ham u darhol buni atrofga nog'ora qiladi. Shuning uchun ham Odamlar Qarg'ani ins-u jinslar yuboradi,

deb o'ylashadi. Qarg'a bo'lsa, maqtanadi: «Men o'n ikki ovozda sayrayman!» Biroq, uning sayrashini kim eshitadi?!

Hakka — ayyor qush. Hamma uni esli-hushli, chaqqon qush deb hisoblaydi, u esa qip-qizil ahmoq. Erta tongda hakka sayrasa, xushxabar keladi, deyishadi. Bo'lmagan gap! Hakka daraxtda janub tomonda in qursa, bu yaxshilikdan darak, deyishadi. Bu ham quruq gapdan boshqa narsa emas. Demak, Hakka haqidagi yaxshi gaplarning hammasi bekor. Uning uyalmaganini-chi?

Kalxat va Boyo'g'lini eslang: haq-huquqlari bilan ham, ishlari bilan ham ular bir-biriga o'xshash. Don hammaga yoqadi, Kalxat esa uni toqat qilolmaydi, o'limtik yeb kun kechiradi. Quyosh nuridan hamma bahra oladi, Boyo'g'li esa undan qo'rqadi, faqat qorong'i tunni tan oladi. Ular mana shunaqa razil qushlar! Ochig'ini aytсам, ularning yo'rig'iga yurganimdan qattiq afsusdaman.

Endi G'oz va O'rdak haqida ikki og'iz gap. Ular mening inimga yaqin joyda yashashadi, tinimsiz g'ag'illab tinchimni buzishadi. Kunlarning birida qaynab kelgan jahlimni tiyolmay, ularning uyasiga sezdirmasdan kirdim va G'ozning oyog'ini tishlab oldim — u dod solib qochishga tushdi; shunda men tishiarimni O'rdakning tanasiga botirdim, uning ko'ksini tilib tashladim — yog'i oqdi, suyaklari ko'rinib qoldi, lekin u hatto pinak buzmad, g'ing deb ovoz chiqargani ham yo'q! Ko'rib turibmizki, G'oz yengiltak, O'rdak esa o'ta o'jar qush. Ularning iqroriga yaxshi gap bilan erishish mumkinmi?

Bigiztumshuqqa kelsak, ochig'ini aytganda, uning e'tiborga loyiq biron-bir jihati yo'q.

Kaptar haddan tashqari yuvosh, boz ustiga, hech narsaga yaramaydi.

Bedana va Qirg'ovulning xayolida faqat bir narsa — o'z hayotini saqlab qolish: ularning go'shti juda mazali. To'g'ri, ular juda befahm qushlar, lekin ularni menga yordamchilikka yaramaydi, deb o'ylasangiz, xato qilasz. Har bir jonzo'tning yashirin qobiliyati bor. Hatto Qurt ham o'rmlashni biladi!

Lochin va Qirg'iyning qobiliyatlari boshqa qushlarda yo'q, shuning uchun ham Inson ularni ovlaydi. Gapning po'stkallasini aytganda, hech qanday qobiliyatga ega bo'lmagan ma'qul!

Masalan, meni olaylik: agar shunday aqlli va ayyor bo'lmagam, boshimga kulfat tushmagan bo'lardi!

Yovvoyi g'oz va Oqqush-chi? Birov sezgani zahoti ular uchib ketishadi. Qo'l tekkizsang, qo'rquvdan dir-dir titraydi. Ammo ular ko'pincha suvyong'oq va nilufar mevalarini qidirib qamish-zorga kirib qolishadi — shunda ularga Odamlarning o'qlari va nayzalari sanchiladi. Shu qushlarning qilmishlari menikiga o'xshamaydimi? Axir men ham umrimni uzaytirish maqsadida uni xavf ostida qoldiraman! «Och qorin turmaga eltadi», deb bejiz aytishmagan!

Laylak va Yovvoyi o'rdak haqida nima deyish mumkin? Ularning afzal tomonlari — birining uzun tumshug'i va ikkinchisining uzun oyoqlari. Lekin aqlari kalta — shuning uchun ham ular Inson o'qlaridan halok bo'lishadi. Ular abjir emas, shuning uchun ham ularni tosh bilan urib tushirishadi. Ovqat topib yeyishga fahm-farosatlari yetadi, lekin o'z hayotini asrab qolishga ularning aqli kaltalik qiladi! Men, qari Sichqon, shu qushlarga o'xshamaymanmi?

Chag'alay va Qarqara sirti oq bo'lsa-da, ichi qora qurum — shu bilan ular boshqalardan farq qiladi. Ular qarg'aning ustidan: «Qoravoy!», deb kulishadi, uning ichi ham sirti kabi qora deb o'ylashadi. O'zlari-chi? Ularning patlari oq bo'lsa ham, ichlari qora. Hamonki ularning ichlari qora ekan, ular jinoyatchilardir. O'g'rilikka yo'lni menga shular ko'rsatgan.

Burgut haqida ham, Shunqor haqida ham gapirmay o'ta olmayman. Bu qushlar irodasi kuchli, yuragi shafqat bilmaydi, o'limga tik qaraydi; hamonki ular hech kimdan va hech narsadan qo'rqmas emas, ular hech qachon hech narsaga iqror bo'lishmaydi.

Ko'ktorg'oq qush va Mandarin o'rdagi-chi? Ularning patlari chiroyli, shuning uchun ham ular jazodan qutulib qolishgan! Hamma, hatto hakamlar ham faqat sirtga qaraydi! Menimcha, bu qushlar sirtidan qaraganda ham har qanday olijanoblikdan xoli. Meni xunuk deb aytadilar, lekin ajdodlar muruvvati bilan men ular singari chiroyli bo'lganimda, albatta, hech bir jinoyatga iqror bo'lmam edim!

Tungi Qarqara va Kraxal ertadan kechgacha baliq ovlashdan boshqa narsani bilmaydi. Baliqqa bunday o'ch bo'lgan jonzo

guruchga ham shunday o'ch emasmikan? Qadimgi donishmandlar haqida eshitgan bo'lsangiz kerak? Qutlug' yosh — oltmishga yetgandan keyin ular baliq yemasa, qorinlari to'ymas ekan. Omborxonaga ko'chib kirganimdan so'ng men har kuni uch soatdan guruch yer edim, birdan ko'nglim baliq yeyishni qo'msab qoldi. Shunda men Kraxal bilan shartnoma tuzdim: u meni baliq bilan ta'minlaydi, men uni guruch bilan ta'minlayman.

Luan va Turna, Qaqnus va Tovus chiroyli mevalar kabi tovlanadi. Sher, Fil va Yakkashox — bularning hammasi antiqa hayvonlar. Erkagi va urg'ochisiga bir lyapdan hisoblasak, ularning narxi o'n to'rt lyap kumushga teng. Siz ularni ozod qilishga tayyorsiz. Biroq, men ham aqlim, qobiliyatlarim va mavqeyimga ko'ra oddiy hayvon emasman-ku. Nahot meni ham kechirish mumkin emas?

Pen qushi va Klt haqida nima deyish mumkin? Ular mendan ming, o'n ming karra kuchli. Vijdon va g'urur ularda kamroq: Pen qushi, ma'lumki, yer-u osmonni ag'dar-to'ntar qilib tashiashga, Kit esa — dengizdagi barcha baliqlarni yetti yamlab bir yutishga qodir. Bunaqa ochko'zlik va beboshlikni siz yana qayerda ko'rgansiz? Agar bularga qo'yib bersangiz, hamma kuchlilar hokimiyatni egallashadi va hammayoqda qonunsizlik qaror topadi. Bu holda ojiz va himoyasiz hayvonlar, ota — Osmon va ona — Yer bolalari zorini kimga aytadi?

Hasharotlar — Asalari va Chirildoq, O'rgimchak va Beshiktebratar, Bir kunlik kapalak va Ninachi, Pashsha va Chivinga kelsak, ularning yo qanoti bor-u, dumi yo'q, yo dumi bor-u, qanoti yo'q. Ammo, bu hasharotlar ko'rinishdan hayvonlarga o'xshamasa-da, fe'l-atvoriga ko'ra ular hayvondan boshqa narsa emas. Barcha hayvonlar — kattasi ham, kichkinasi ham — bir narsada bir-biriga o'xshaydi: ularning hammasi makkor! O'g'rilikka meni ular og'dirishdi!

Omborxona Ruhi qari Sichqonning uzun nutqini miq etmasdan eshitib o'tiribdi. Xuddi charchoqdan holi qolmagandek ko'zlarini berkitibdi.

Sichqon gapini tugatgani zahoti yonida o'tirgan It og'zidan so'lagi oqib, unga olayib qarabdi, qo'rqinchli Mushuk chang solishga hozirlik ko'rayotgandek taraddudlanibdi. Buni ko'rgan

Sichqon qo'rquvdan dag'-dag' titray boshlabdi. Shumshayib nimalarnidir xayol qilibdi va birdan boshini ko'tarib bidillay ketibdi:

— Mening kun-soatim keldi! Tan olish naqadar qiyin bo'lsa-da, lekin bo'ynimga olaman: shu vaqtgacha men faqat yolg'on gapirdim. Endi sizlarga haqiqatni ochaman, dalolatchilarni fosh qilaman!

Shundagina Ruh Sichqonning iqrori boshidan oxirigacha g'irt yolg'on ekanligini tushunibdi. U g'azabdan junbushga kelibdi. Stol ustiga musht solib, baland ovozda o'z Askarlariga buyuribdi:

— Hovlida yotgan toshni olib, bu ablahning tishlarini qoqib olinglar!

Sichqon Ruhning oyoqlari ostiga o'zini tashlabdi va to'lg'anib iltijo qila boshiabdi:

— Tan olaman: Osmon podshosining hukmi bilan meni omborxonadagi donni yeyishga Osmon, yer va dala ruhlari, Tog' ruhlari, yashil Qayrag'och, adlqomat Kedr, yengil Shabada, zich Bulutlar, xira Tuman, nam Shudring, miltilloq Yulduzlar, yorqin Quyosh, kumushrang Oy majbur qildi! Bu jinoyatda men aybdormanmi?

Omborxona Ruhi qo'rquvdan o'zini yo'qotgan Sichqonning iltijolarini eshitib, chapak urib kulib yuboribdi:

— Senga qarab turib, Osmon podshosi nobakor sichqon zotini u dunyoga yomonlik keltirishi uchun yaratgan, deb o'ylash mumkin. Bir necha oy sen qushlar va hayvonlarga tuhmat toshini yog'dirding, oxiri o'z jinoyatingga Osmon podshosini ham sherik deb e'lon qilishga jur'at etding! Bu endi oddiy jinoyat emas, balki juda katta kufrlilik. Men o'z hukmim bilan seni jazolashga haqli emasman va bo'lgan voqea haqida Osmon podshosiga ma'lumot berishga majburman. Senga hukmni Osmon podshosining o'zi chiqaradi.

Ruh Sichqonni oyoq-qo'llariga kunda urib, zindonga tashlashni va jinoyatchidan ko'z uzmaslikni buyuribdi, o'zi esa, uch kunlik tahoratni bajo keltirib, sud hujjatlarini tayyorlabdi va Osmon podshosining saroyiga qarab yo'l olibdi. Ruh Osmon podshosiga barcha so'roqlarning batafsil qaydlarini taqdim etibdi, tavoze bilan shunday debdi:

— Osiy bandangiz xalq haqida sira g'am chekmaydi. Nobakor jinoyatchini nazardan qochirganim uchun abadulabad la'natga mahkumman! Hammasiga aybdor menman! Zindon to'la aybdor, lekin birortasi ham aybini bo'yniga olgani yo'q. Adolatli hukm chiqarishga esa men o'zim qodir emasman. Oliy podsho, osiy qulingizga yo'l ko'rsating!

Osmon podshosi sud hujjatlari bilan tanishib chiqib, hukm qilibdi:

— Jinoyatchilar qattiq jazoga tortilishi, muqaddas qushlar va hayvonlar esa — taqdirlanishi kerak. Sen, omborxona Ruhi, o'z mulkingga qaytib, omborxona oldidagi maydonda o'g'ri Sichqonni qatl etasan, kulini esa havoga sovurasan. Qatl oldidan sen tumshuqli, tirnoqli yoki tishli jonzotlarning barchasiga Sichqonning tanasini qismlarga ajratish, tirnash va tishlashni buyurasan, toki hayvonlar o'zlarining haqli g'azablariga to'la erk bera olsinlar. Sichqonning tuhmati bilan zindonga tashlanganlarning hammasi ozod qilinsin; jinoyatchining ini tag-tugi bilan qo'porib tashlansin, qabiladoshlari yo'q qilinsin. Bu zararli urug' butunlay quritilsin.

Omborxona Ruhi Osmon podshosining hukmini eshitib, qulluq qilibdi va darhol sudga qaytibdi. U qari Sichqonning boshini tanidan judo etishni buyuribdi, so'ng zindon eshigini ochib, u yerda nohaq azob chekayotgan hayvonlarni ozodlikka chiqaribdi va ularga shunday debdi:

— Osmon podshosi sizlarga o'ch olish huquqini beradi!

Bu gapni eshitgan qushlar va hayvonlar zindondan yopirilib chiqibdilar va xursandlikdan raqs tusha boshiabdilar. So'ng qushlar qanot qoqib osmonga ko'tarilishibdi; hayvonlar yugurgilab o'rmonlarga tarqalib ketishibdi. Ular ketishganidan so'ng atrofga sukunat cho'kibdi.

Shunda Mushuk va It Sichqon yashagan inga qarab yugurishibdi, uning urug'lari — otasi, onasi, opa-singillari, aka-ukalari, bolalari va nabiralarini izlab topishibdi va ularning hammasini Qirol omborxonasi qarshisidagi maydonga sudrab chiqishibdi.

Shoqol va Silovsin sichqon urug'iga so'yloq tishlarini botiribdi, Qarg'a va Kalxat sichqonlarning qorniga chang solibdi, Lochin

va Qirg'iy ularning oyoqlarini cho'qibdi, To'ng'iz va Qunduz ularning bo'yni va yolidan tishlab tortibdi, Tipratikan ularga o'z ignalarini sanchibdi, Beshiktebratar sichqonlarning dumidan changallab, ularni osmonga olib chiqib ketibdi, Xo'roz olomon qilinganlarning go'shtlarida in qurgan qurtlarni terib yebdi, Hakka sichqonning terisini teshibdi, Chuvalchang, Pashsha, Chivin va Chumoli sichqonning qomini so'rishibdi. Yangi qonga tashna bo'lgan jonzotlarning barchasi sichqon go'shtini bo'laklarga ajratibdi, g'ajibdi va yebdi.

Ammo, Yo'lbars, Ajdar, Turna va Luan singari hayvonlar zindondan chiqqani zahoti qochib ketishibdi va qari Sichqonning bo'laklangan tanasiga hatto qayrilib ham qarashmabdi. Yakkashox va Qaqnus qonli jangni ko'rib:

— Hammani ozod qilishdi-ku, o'likning tanasini tahqirlash-nimg nima keragi bor? — deyishibdi.

Ular bu gapni qushlar va hayvonlarga aytishibdi. Shunda ularning hammasi uy-uyiga tarqalib ketishibdi.

Omborxona Ruhi esa Muqaddas lashkarga Sichqonning inini ochib, uni ko'zdan kechirishni buyuribdi. Askarlar Ruhning amrini bajarishibdi va Sichqonning barcha qarindoshlari va qabildoshlarini Mushuk yeb bitirganini ko'rishibdi. Shunda Askarlar Sichqonning inini hatto kichkina teshik ham qoldirmay tuproq va tosh bilan ko'mib tashlashibdi, Mushuk va Silovsinni esa ilgari jinoyatchining uyasi bo'lgan joyni navbatma-navbat qo'riqlashga majbur qilishibdi. Shundan keyin Qirol omborxonasidan don-dun boshqa hech qachon yo'qolmabdi.



IKKINCHI DAVR (XVII–XVIII asrlar)

XVII–XVIII asrlarda koreys adabiyotining rivojlanishi jarayoni Choson davlatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidagi yangi tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Bu tendensiyalar halokatli urushlar – Imchjin urushi (1592–1598), 1636–yilgi manchjurlar istilosidan so‘ng davlatchilikni tiklash va mustahkamlash yo‘lidagi harakatlar bilan bog‘liq. Mazkur maqsadga erishish uchun iqtisodiy tizim isloh qilinadi, qonunlar – «Tedongon» («Natural o‘lponlarni teng undirish to‘g‘risidagi qonun», 1608), «*Kyu nen pop*» (1750) qabul qilinadi, ekin maydonlari kengaytiriladi, Choson yoshlarini faollashtirish, ularni ma‘rifatchilik g‘oyalari keng yoyish, fanning rivojlanishida amaliy asoslarni kuchaytirishda ulkan rol o‘ynagan «Sirxak» ilmiy yo‘nalishi asosida yangi fanlar bilan oshno etish amalga oshiriladi. Hayotdagi yangi jarayonlar adabiyotda ham o‘z aksini topadi. Adabiyotning rivojlanishidagi yangi tendensiyalarning umumiy mazmuni shunda ifodalanadiki, unda satirik ohanglar paydo bo‘ladi. Bunga yozuvchilar va shoirlarning hayotni haqqoniy tasvirlash, chinakam hayot mazmunini, milliy ma‘naviyatning abadiy qadriyatlarini ko‘rsatib berishga intilishi turtki beradi.

O‘tgan davr adabiyotining yutuqlariga, xalq an‘analariga asoslangan holda, inson hayotini tasvirlashga qiziqish kuchayadi. Kundalik janrida yaratilgan asarlar ayniqsa keng tarqaladi. Ularning orasida Xon Si (1735–1815)ning «Azob-uqubatda yozganlarim» («*Xanchjunok*») bor. XVII asrda an‘anaviy koreys romani janri rivojlanadi. Uning paydo bo‘lishini haqli ravishda Kim Manchjun ismi, uning «Sa xonimning janub bo‘ylab sarson-sargardonligi» («*Sassi namchon ki*»), «Bulutlar qa‘ridagi tush» («*Ku um mon*») romanlari bilan bog‘lanadi. Koreyashunos olim A.F.Trotsevich roman janrining rivojlanishi haqida gapirar ekan, ularni quyidagi tiplarga ajratadi: ijtimoiy roman, janr belgilari

«*ki*» yoki «*nok*» — «yozuvlar», «tavsiflar» yoki sarlavhasi «ajoyib uchrashuvlar» — *kibon*, «ajoyib taqdirar» — *kiyon* soʻzlari bilan yakunlanadi¹. Ijtimoiy romanlar bilan bir qatorda, «tush-romanlar» ham rivojlanadi. Soʻnggi zikr etilgan romanlarda voqealar tushda sodir boʻladi, voqelik esa tushdan keyin qaytadi. Koʻrib chiqilayotgan davrdagi adabiyotning turli janrlari uchun umumiy asos sifatida tendensiyalilik — hayotning uning barcha ijobiy va salbiy tomonlari bilan birga tasvirlashga, kishilar tafakkuriga taʼsir koʻrsatishga urinish, ularni mamlakatdagi ijtimoiy islohotlarda, uning qudratini mustahkamlashda faol ishtirok etishga ragʻbatlantirish amal qiladi.



¹ Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы до XX века. Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2004. — С. 187–194.



1. *Koreys an'anaviy romani*

KIM MANCHJUN (1637–1692)

«TO‘QQIZ KISHINING BULUTLI TUSHI»

YUKKVAN OTANING SHOGIRDI SON CHJIN SUV OSTI SALTANATIGA OTLANADI

Xitoyda beshta mashhur tog' bor, ularni ba'zan besh muqaddas cho'qqi deb ham atashadi: sharqda – Tayshan, g'arbda – Xuan-shan, janubda – Xenshan, shimolda – Xinshan va markazda – Sunshan. Shulardan Xenshan tog'i Xitoyning markaziy hududlaridan ayniqsa uzoqda joylashgan. Undan janubda Szyuishan tizma tog'lari yastanib yotadi, shimol tomonda Duntin ko'li joylashgan, Syaosan daryosi uning ostonasi bo'ylab oqadi. Xenshanning besh cho'qqisi bor: Olov xudosi, Ametist cho'qqisi, Osmon ustuni, Xarsang tosh va Nilufar cho'qqisi. Ammo bulutlar ularning yuzini berkitadi, tuman ularning yelkalarini chulg'ab oladi va ob-havo yaxshi bo'lmagan kunda ularning shakl-shamoyili odam ko'ziga ko'rinmaydi.

Szin sulolasi davridayoq umrboqiylikka erishgan pari – Vey xonim Osmon podshosining hukmiga binoan go'zal yosh parilar to'pining rahbari etib tayinlangan va shu tog'larda qo'nib, Janubiy cho'qqi bekasiga aylangan. Shundan beri u sodir etgan qilmishlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.

Tan sulolasi davrida esa Xenshan tog'ining Nilufar cho'qqisiga yuqori martabali bir qariya, hindistonlik rohibning nazari tushadi va bu yerda u olti yuzga yaqin shogirdini to'plab, Budda haykali o'rnatilgan katta ibodatxona barpo etadi. Bu ibodatxonada ular duolar o'qishadi va sutralarni yodlashadi. O'sha qariyani Yukkvan

ota deb atashgan. U barcha tiriklarga to'g'ri yo'l ko'rsatgan, ins-u jinslarni jilovlagan va shu tufayli ham uni yerga tushgan Budda sifatida e'zozlashgan.

Yukkvaning o'z hayotini Buddaga bag'ishlagan shogirdlari orasida yigirma yoshga to'lgan, chiroyli husn-tarovatga ega bo'lgan Son Chjin ismli yigit alohida ajralib turgan. U buddaviylikning barcha aqidalarini yoddan bilgan, o'tkir zehn va teran aql bilan tavsiflangan. Yukkvan ota uni juda ardoqlagan va kelajakda uni o'z vorisi etib tayinlashni o'ylab yurgan.

Kunlarning birida, Yukkvan ota o'z shogirdlari bilan ibodat qilib turgan paytda, Duntin ko'lining Ajdari oddiy bir cholg'a aylanib, ibodat qilayotganlar safiga kelib qo'shilibdi va ularni tinglay boshlabdi. Yukkvan ota ibodatni tamomlab, o'z shogirdlariga murojaat etibdi:

— Men qaridim va holdan toydim, o'n yildirki, toqqa chiqqanim yo'q. Qaysi biringiz Ajdarga hurmat-ehtiromni ifodalash uchun mening o'rnimga Suv osti saltanatiga borishga tayyorsiz?

Shunda Son Chjin oldinga bir qadam tashlabdi:

— Men, osiy banda, ustoz o'rniga borishga tayyorman!

Yukkvan ota bundan behad xursand bo'libdi va unga fatvo beribdi. Ustoz o'gitini tinglab, So Chjin og'irligi sakkiz kin keladigan tasbehni bo'yniga osibdi, sehrli asoni qo'higa olibdi va Duntin ko'li tomonga qarab yo'l olibdi.

TOSH KO'PRIKDAGI SAKKIZ PARI

Oradan ma'lum vaqt o'tgach, qorovul-daos Yukkvan otaga xabar beribdi:

— Janubiy cho'qqidan Vey xonim sakkiz parini yuboribdi, ular darvoza oldida kutib turishibdi.

Yukkvan ota ularni ichkariga qo'yish haqida ko'rsatma beribdi. Parilar oldinma-ketin kirib kelishibdi, Yukkvan otaga hurmat bilan ta'zim qilishibdi va tiz cho'kib o'z xonimlarining so'zlarini yetkazishibdi:

— Yukkvan ota — tog'ning g'arbiy yon bag'rida, men — tog'ning sharqiy yon bag'ridaman; o'rtamizdagi masofa uncha

katta emas, lekin doimiy bandlik menga va'zingizni eshitish uchun huzuringizga borishga vaqt ajratish imkonini hali-hanuz bergani yo'q, aqlim noqisligi tufayli yaxshi qo'shnihilik munosabatlariga yo'lni berkitib kelaman. Endi sizning oldingizga o'z xizmatkorlarimni sog'lig'ingizdan xabar olgani yuboryapman va fursatdan foydalanib sizga o'z hurmatimni osmon guli, shaftoli mevasi, shuningdek oltin, kumush, ipak va boshqa qimmatbaho buyumlar bilan birga bildiraman.

Parilar o'z nutqini tamomlab, Yukkvan otaga Vey xonimning sovg'alarini oldinma-ketin taqdim eta boshlashibdi. Yukkvan ota sovg'alarni qabul qilib olib, ularni o'z shogirdlariga uzatibdi, shogirdlari esa sovg'alarni Budda haykali qarshisidagi qurbonlik beriladigan joyga taxlab qo'yishibdi. Yukkvan ota qo'llarini qovushtirib, quyidagi so'zlar bilan o'z minnatdorchiligini izhor etibdi:

— Qari rohib qaysi xizmatlari evaziga bunday qimmatbaho sovg'alarga ravo ko'rilibdi?

Shundan keyin u parilar sharafiga ziyofat uyushtiribdi va izzat-ikrom bilan ularni kuzatib qo'yibdi.

Yukkvan ota bilan xayrlashgach, parilar darvozadan chiqishibdi va o'zaro so'zlasha boshlashibdi:

— Janubiy cho'qqining diqqatga sazovor joylari — daryo burilgan joy va bir cho'qqining o'zi, lekin bu bizning uyimiz, bizning dunyomiz. Nilufar cho'qqisining ajoyib manzaralari yonimizda-yu, biz bo'lsak Yukkvan ota bu yerga kelib joylashgandan beri ularni ko'rganimiz yo'q. Endi biz bu yerga xonimning topshirig'iga binoan keldik — juda qulay fursat! Boz ustiga, bahor bo'yoqlari behad go'zal, tog'larda kun hali botgani yo'q. Fursatdan foydalanib toqqa chiqsak, she'rlar o'qisak, tabiatni tomosha qilsak, nima deysizlar? Saroyga qaytgach, hammaga aytib maqtangan bo'lardik.

Ular qo'l ushlashib ohista yo'lga chiqishibdi. Sharshara suvlarining shitob bilan quyilishini tomosha qilishibdi, so'ng daryo yoqalab ketishibdi va tosh ko'prik ustida dam olish uchun to'xtashibdi. Bahorning uchinchi oyi — tabiat gullagan, bulutlar va tumanlar quyuqlashgan palla ekan. Qushlar bahordan zavqlanib sayrar, tabiat go'zalliklari insonni o'ziga maftun etar ekan. Ular

parilarni ham chetlab o'tmabdi — ularning qalbiga g'uluv solibdi. Parilar ko'prik ustida o'tirib, to'siq osha suvga termulishibdi. Ularning ko'k qoshlari ko'zgudagi kabi aks etibdi — ular chinakam pari-paykarlar ekan. Parilarga bu nianzara juda yoqib qolibdi. Ular o'zlarining suvdagi aksidan ko'z ololmay qolishibdi. Bahor o'zlarida uyg'otgan his-tuyg'ular bilan shivirlashib o'rtoqlasha boshlashibdi. Oqshom tushganini ham bilmay qolishibdi.

SON CHJINNING SAKKIZ QAHRABOSI

Shu orada Son Chjin Duntin ko'liga yetib boribdi, o'zini suvga tashlabdi va Billur saroy oldiga tushibdi. Huzuriga Yukkvan otaning elchisi kelayotganidan Ajdar xabardor ekan. U elchini qarshi olgani a'yonlari qurshovida saroy darvozasidan tashqariga chiqibdi. Son Chjin o'ziga tuzalgan dasturxonga qiziqish bilan ko'z tashlabdi — odam yeydigan taomlar yo'q ekan: qandaydir yovvoyi mevalar, notanish sabzavotlar qo'yilgan ekan.

Ajdarning o'zi qadahga may quyibdi va uni quyidagi so'zlar bilan mehmonga uzatibdi:

— Beshinchi hukm menga yaxshi ma'lum. Ammo bizning mayimiz odamlar ichadigan maydan ancha farq qiladi: u odamga kuch baxsh etish va uning qalbini junbushga keltirishga qodir emas. Tortinmasdan ichaver!

O'ziga ko'rsatilgan e'tibordan ko'ngli ko'tarilgan Son Chjin rad etishga haddi sig'mabdi, mayni ichibdi, so'ng uch marta ta'zim bajo keltirib, Ajdar bilan xayrlashibdi va Suv osti saltanatini tark etibdi. Yengil shabada uni Nilufar cho'qqisining ostonasiga uchirib kelibdi va shu yerda u may miyasiga urganini his qilibdi, ko'z oldi tinibdi.

«Ustozning ko'ziga bunday ahvolda ko'rinadigan bo'lsam, undan niaqto'v eshitmasam kerak!», deb xayolidan o'tkazibdi Son Chjin va kayfini tarqatishga qaror qilibdi. U daryo bo'yiga tushib, ustki kiyimini yechibdi, uni toza qum ustiga qo'yibdi va kaftiga suv olib yuzini yuva boshlabdi. Birdan yengil shabada uning dimog'iga yoqimli hidni olib kelib uribdi. Son Chjinning yurag duk-duk urib ketibdi.

«Daryoning boshida biron-bir anvoyi gul o'ssa kerak. Uning hidi oqim bo'ylab shu yergacha yetib kelgan ko'rinadi, — deb taxmin qilibdi u. — Borib qidirib ko'raman». U kiyinib, daryo yoqalab yurib ketibdi va tosh ko'prik ustida u yerda o'tirgan sakkiz pari bilan yuzma-yuz kelibdi. Son Chjin hassasini yerga qo'yib, parilarga qo'l qovushtirib salom beribdi va ularga shunday debdi:

— Muhtaram xonimlar, kamtarin qulingiz — rohibning so'zlariga quloq tutsangiz. Men daoslar, Yukkvan otaning shogirdiman. Ustozimning amriga binoan Ajdarning saroyida bo'ldim va endi uyga qaytib kelyapman, lekin bu tor ko'prikdan o'tish uchun menga joy yo'q, chunki unda sizlar o'tiribsizlar. Iltimos, menga yo'lni bo'shatsangiz.

Parilar unga shunday deb javob qaytarishibdi:

— Biz Janubiy cho'qqidagi Vey xonimning xizmatkorlarimiz. Xonim bizni Yukkvan otaning sog'lig'idan xabar olgani yuborgan edi. Endi biz orqaga qaytyapmiz va shu yerda biroz dam olishga qaror qildik. Adashmasak, biz odob-axloq qoidalariga rioya qildik — sizga o'zimizni tanishtirdik, endi biz yo'limizda davom etishimiz mumkin; sizning yo'lingiz — chap tomonga, bizniki — o'ng tomonga. Bu ko'prik chindan ham juda kichkina. Bu yerga biz sizdan oldin kelganimiz uchun boshqa yo'ldan yurishingizni so'raymiz.

Son Chjin qo'llarini qovushtirib ularga ta'zim bajo keltiribdi va:

— Daryo chuqur, boshqa yo'l esa yo'q. Qayerga borishimni buyurasiz? Iltimos, biroz chetga chiqib turing! — debdi.

— Bir vaqtlar din targ'ibotchisi Ananda nilufar bargida dengizni suzib o'tgan ekan, — deb javob berishibdi parilar. — Agar siz chindan ham Yukkvan otaning shogirdi bo'lsangiz, barcha yo'llarni o'rgangan bo'lsangiz kerak. Nahot kichik bir daryodan o'tish siz uchun shuncha qiyin bo'lsa? Yo'lni deb qizlar bilan bahslashib o'tiribsiz-a!

Son Chjin kulib yuboribdi:

— Sezishimcha, sizlar yo'lovchidan o'lpon undirmoqchi bo'lyapsizlar. Ammo bechora rohibda shu sakkiz qahrabodan boshqa hech vaqo yo'q. Ularni sizlarga yo'l haqi sifatida beraman.

Shu soʻzlarni aytib u shaftoli shoxini sindiribdi va uni parilarga otibdi: gullar anvoyi hid taratib sakkiz dona qahraboga aylanibdi. Parilarning har biri hadya uchun tabassumi va nigohi bilan Son Chjinga rahmat aytibdi, shu zahoti ular oʻrinlaridan turishibdi va bulut ustiga chiqib, osmonga koʻtarilishibdi. Son Chjin koʻprikka qadam qoʻyib, atrofga alanglaganda, sakkiz goʻzaldan asar ham qolmagan ekan. Koʻp oʻtmay kamalakning barcha ranglari aks etayotgan bulut gʻoyib boʻlibdi, xushboʻy hid ham yoʻqolibdi.

SON CHJINNING DUNYOVIY XAYOLLARI

Yuragiga gʻulgʻula tushgan Son Chjin oʻz ustози oldiga borib, unga Ajdarning soʻzlarini yetkazibdi. Yukkvan ota kech qaytgani uchun uni koyibdi.

— Ajdar meni juda quyuq kutib oldi, ertaroq qaytishning sira iloji boʻlmadi, — deb javob beribdi Son Chjin.

Yukkvan ota unga boshqa savol berib oʻtirmabdi va shu zahoti kirib uxlashni buyuribdi. Son Chjin oʻz hujrasiga qarab yoʻl olibdi. Parilarning jaranglagan ovozi hujrada ham uning quloqlarini tark etmabdi, ularning chiroyli chehralari yigitning koʻz oldidan ketmabdi. U qancha urinmasin, oʻz mayllarini jilovlay olmabdi. Ruhiiy iztiroblar va shirin xayoliar unga uyqu bermabdi. Birdan kallasiga shunday bir fikr kelibdi: «Oddiy odam boʻlib tugʻilganimda, bolaligimdan boshlab Kun-szi va Men-szini oʻqigan, ulgʻaygach, oqil podshoga sadoqat bilan xizmat qilib oʻzimni koʻrsatgan va balki butun qoʻshinga sarkarda boʻlgan yoki barcha amaldorlarni boshqargan, bashang kiyingan, belimga tilla kamar taqqan, koʻzlarim chiroyli buyumlardan quvnagan, quloqlarim ajoyib ohanglardan lazzatlangan, suluvlarning qalblarini mahv etgan, shon-shuhratim oʻlganimdan keyin ham yashagan boʻlar edi... Bularning barchasi oddiy odam uchun tabliiy bir hol! Biz, rohiblarning qismati esa — bir tovoq guruch va bir piyola suv. Boʻyningga bir yuz-u sakkiz donali tasbehni osib olasan-da, sutralarni oʻqiysan. Buni juda ulugʻ qismat, deb aytishsa-da, u naqadar zerikarli! Oliy qonunlarning barchasini oʻzlashtirib,

Ustozning yo‘lidan borib, nilufardan taxtga o‘tirdim ham deyslik; lekin bu dunyoda Son Chjin bo‘lganini birov eslarmikan?»

Shunga o‘xshash fikrlar Son Chjinning qalbini o‘rtabdi va uyqu uni tark etibdi. Oy tikkaga kelibdi haniki, uning ko‘zi ilinmabdi — sakkiz pari uning xayolidan ketmabdi. Son Chjin istig‘for keltirishga harakat qilibdi. «Buddaviylik aqidalariga ko‘ra bilim qalbni forig‘laydi. Rohiblikni qabul qilganimga o‘n yil bo‘ldi. O‘tgan davr ichida bu ishimning to‘g‘riligiga menda zarracha shubha tug‘ilmagan edi. Hozir esa bunday fikrlar xayolimdan ketmay qoldi... Bu bilan men o‘z kelajagimni barbod qilmayapmanmi?»

U chilim chekibdi, tiz cho‘kibdi va tasbeh o‘girib, o‘tgan kun voqealarini xotirasida tiklay boshlabdi. Birdan deraza tomondan ovoz kelibdi:

— Birodar, uyg‘oqmisiz? Sizni ustoz chaqiryapti.

Son Chjin hayron bo‘libdi: «Yarim tunda chaqiryaptimi, demak, muhim bir gapi bor». U ibodatxonaga qarab yo‘l olibdi.

SON CHJINNING IKKINCHI TUG‘ILISHI

Yukkvan ota mash‘allar yoritayotgan xonada shogirdlari qurshovida o‘tirgan ekan. U:

— Son Chjin, qilgan gunohingni anglaysanmi? — deb so‘rabdi.

Son Chjin ustozning oyoqlari ostiga o‘zini tashlabdi va:

— O‘n yildirki, men sizning xizmatigingzdaman va shu davr ichida biron-bir yomon ish qilganimni eslayolmayman! — debdi. — Agar gunoh ish qilsam, uni sizdan yashira olarmidim? Siz mendan jahi bilan so‘rayapsiz, lekin men chindan ham o‘z aybimni bilmayman!

Yukkvaning battar g‘azabi qo‘zibdi:

— Ajdarning saroyida rohib mayxo‘rlik qilishining o‘zi katta gunoh! Qaytayotib u tosh ko‘prikda sakkiz pari bilan suhbat quradi, shaftoli shoxini sindiradi va ermak uchun gullarni qahraboga aylantiradi, hoz ustiga, qaytib kelgach, Budda ta‘limotini butkul unutib, dunyoviy hayot haqida orzularga beriladi;

uning isyonkor qalbiga bizning turmush tarzimiz endi ma'qul emas! Bunday odamga bu yerda o'rin yo'q!

Son Chjin yerga bosh uribdi va ustoziga yolvora boshlabdi:

— Men chindan ham gunohkorman! Ammo quyidagi holatlarni e'tiborga oling: Ajdarning saroyida may ichganimning sababi shundaki, mezbonning iltimosini rad eta olmadim; ko'prikda parilar bilan gaplashgan bo'lsam, ulardan faqat menga yo'l bo'shatishni so'radim; hujramda dunyoviy hoyu havaslarga berilgan bo'lsam-da, lekin darhol esimni yig'dim va qilmishimdan pushaymon bo'ldim. Bor gunohim — shu, boshqa gunoh ish qilganim yo'q. Agar boshqa gunohlarim bo'lsa, ulardan meni ogohlantirish va to'g'ri yo'lga solish sizning burchingiz! Meni ibodatxonadan quvg'in qilish insofdan emas. Bu to'g'ri yo'lga kirish uchun imkon bermaslik bilan barobar! O'n ikki yoshimda ota-onamni tashlab, sizning huzuringizga keldim va rohiblikni bo'ynimga oldim. Sizni o'z otamdek e'zozladim, siz ham menga o'z o'g'lingizdek qaradingiz. Men rohiblik qoidalariga doim qat'iy rioya qilib kelganman. Nilufar cho'qqisidan endi qayerga boraman?

— Qayerga borishni orzu qilgan bo'lsang, o'sha yerga borasan, bu yerda qolib nima qilasan? Qayerga boraman, deb so'raganingni-chi! Qayerga borishni istagan bo'lsang, o'sha yerga yo'l olishing mumkin, — deb javob beribdi unga Yukkvan va baland ovozda e'lon qilibdi: — Hoy, barzangi, Sariq Bog'ich! Bu jinoyatchini ol-da, uni Yomvanga olib bor!

Bu so'zlarni eshitgan Son Chjin dahshatga tushibdi. Ming bora ta'zim qilib, ko'z yoshi to'kibdi va Yukkvan otaga yolvora boshlabdi:

— Ustoz, gapimni eshiting! Bir vaqtlar Ananda fohisha bilan yotganida, Budda uni o'limga hukm qilmagan, balki oddiy jazo berish bilan kifoyalangan ekan. Men ehtiyotsizlik tufayli qilgan gunoh buning oldida hech narsa emas. Nima uchun siz meni Nilufar cho'qqisidan quvib, Yer osti saltanatiga surgun qilyapsiz?

Yukkvan ota pinak buzmasdan javob beribdi:

— Ananda fohisha bilan yotgan bo'lsa-da, uning fikrlari o'zgarishsiz qolgan; sen bo'lsang, suluv qizlarni bir marta

ko'rding-u, e'tiqoddan ayrilding, birinchi sinovga ham dosh berolmading.

Son Chjin ko'z yoshi to'kib Budda va ustozga vidolashuv so'zlarini aytibdi, birodarlari bilan xayrlashibdi va Sariq Bog'ichning ortidan ergashayotgan ekan, Yukkvan uni yupatish uchun quyidagi so'zlarni aytibdi:

— Hamonki qalbingning tozaligini saqlay olmagan ekansan, tog'larda qolsang ham Daoni oxiriga yetkaza olmaysan. Ammo eng muhim aqidalarni unutmasang, o'n yo'lning changini tarqatib bo'lsa ham bir kuni bu yerga qaytib kelasan. Qaytish niyatini bildirsang, men o'zim seni olib kelaman. Endi shubhalarni o'zingdan hayda va jo'na.

* * *

Son Chjin va Barzangi do'zaxga tushishibdi va Vatanni qo'msash darvozasidan o'tib, do'zax devoriga yaqinlashishibdi. Qorovul ulardan kimsizlar, qayerga boryapsizlar, deb so'rabdi.

— Yukkvan otaning buyrug'iga binoan sizlarga gunohkorni olib keldim, — deb javob beribdi Barzangi.

Qorovul darvozani ochibdi va ularni ichkariga kiritibdi. Barzangi Yomvan saroyiga kelib, ishning mohiyatini bayon etgach, do'zax podshosi Son Chjinni ko'rsatib:

— Osiylar dunyosidan kelgan bu odamning tanasi Nilufar cho'qqisida qolgan, ismi esa Yer osti saltanati Hukmdorining butxonasida yozib qo'yilgan. Sen dunyoni qutqarish haqida o'ylabsan-u, bu yerga tushibsang. Bu qanday yuz berdi? — debdi.

Son Chjin avvaliga o'zini yo'qotibdi va bir so'z ham ayta olmabdi, so'ng javob beribdi:

— Men oxirini o'ylamay Ustoz oldida ayb ish qilib qo'ydim. Endi sizning oldingizga keldim, jazolang!

Ko'p o'tmay Barzangi yana paydo bo'libdi. Bu safar u o'zi bilan birga sakkiz parini olib kelibdi. Yomvan ularga tiz cho'kishni buyuribdi va:

— Janubiy cho'qqi parilari! Axir sizlarga umrboqiylik, abadiy huzur-halovat ato etilgan edi-ku, bu yerga qanday kelib qoldinglar? — deb so'rabdi.

Parilar uyatni yengib, javob berishibdi:

— Biz Vey xonimning buyrug'iga binoan Yukkvan otaning oldiga hol-ahvol so'ragani borgan edik. Qaytayotib yo'lda Son Chjin bilan gaplashib qoldik. Avliyo ota bu haqda Vey xonimga yozib yuboribdi. A'lo hazrat, bizga rahmingiz kelsin. Shunday qilingki, biz yaxshi yerda tug'ilaylik!

Yomvan to'qqiz soqchini chaqiribdi va ularga:

— Bularning hammasini yerga, Odamlar salatanatiga kuzatib qo'yinglar! — deb buyuribdi.

U shu so'zlarni aytishi bilan saroyga dovul bostirib kelibdi va osiy bandalarni chulg'ab olib, osmonga olib chiqibdi va dunyoning turli tomonlariga ulotqirib yuboribdi.

Kuchli shamol ta'sirida osmonga ko'tarilgan Son Chjin o'z soqchisi ortidan noma'lum tomonga qarab uchibdi. Nihoyat, shamol shovqini tinibdi va uning oyoqlari yerga tegibdi. U ko'zini ochib atrofga alanglabdi: yam-yashil tog'larga, ulardan oqib tushayotgan sharsharalarga ko'zi tushibdi. Daraxtzorlar osha Son Chjin devorni va poxol tomni ilg'abdi. U chirmovuq qoplagan eshik oldiga kelibdi va hovlida gaplashib turgan uch odamni ko'ribdi.

— Yanning xotini ellikdan oshganida bo'yida bo'libdi, — degan so'zlar uning qulog'iga chalinibdi. — Kamdan kam uchraydigan bir hol. Tug'adigan payti kelgan, lekin chaqaloq ovozi haligacha eshitilgani yo'q. Bularning hammasi g'alati va tashvish uyg'otadi.

Son Chjin bu so'zlarni eshitgach, xayolidan quyidagilar o'tibdi: «Men hozir dunyoga kelsam kerak. Hamma narsani ko'ryapman, hamma narsani tushunyapman, lekin bu mening ruhim, xolos, tanam esa Nilufar cho'qqisida qolgan va allaqachon o'tda kuydirilgan bo'lsa kerak. Yosh bo'lganim uchun o'zimdan shogird qoldirganim yo'q. Tanamni yerga kim qo'yar ekan?»

Bu o'y-xayollardan Son Chjin g'amga botibdi. Ammo shu payt soqchi paydo bo'libdi va uni qo'li bilan imlab chaqiribdi.

— Bu yer Buyuk Tan imperiyasi, Xuaynan provinsiyasi, Shouchjou uyezdi, — debdi u. — Sen hozir iste'fodagi amaldor Yanning uyi oldida turibsan. U sening otang. Uning xotini —

Lyu xonim sening onang. Sen uning o'g'li bo'lishing kerak. Tezroq qimirla, qulay fursatni boy berma.

Son Chjin hovliga kiribdi. Dag'al matodan tikilgan libos va ot yolidan to'qilgan qalpoq kiygan amaldor ayvonda manqal yonida o'tirib, dori qaynatayotgan, dorining hidi uning kiyimiga o'tirib qolgan ekan. Uydan xotinining nolasi eshitilayotgan ekan.

— Uyga kir! — deb shoshiribdi Son Chjinni soqchi, lekin u imillashda davom etibdi. Shunda soqchi Son Chjinning yelkasidan itaribdi. Turtkidan Son Chjin yerga yuztuban yiqilibdi, ko'z oldi qorong'ilashibdi va u bor ovozda qichqiribdi. Tovush bo'g'zidan otilibdi, so'zlari tomog'iga tiqilibdi. Chaqaloqning «Inga! Inga!» degan ovozi yangrabdi.

SON CHJINNING OTASI UMRBOQIYLIK KASB ETADI

Dori tayyorlash bilan band bo'lgan janob Yanning qulog'iga birdan chaqaloq ovozi eshilibdi. U sevinchdan o'zini yo'qotib xotinining oldiga qarab chopibdi. Xotini omon-eson ko'zi yorigan ekan. Baxtiyor ota chaqaloqni xushbo'y suvli tog'oraga solib yuvibdi va xotinining sha'niga maqtovlar aytibdi.

Chaqaloq qorni ochsa yig'lar, qorni to'ysa yig'idan to'xtar ekan. Ammo endigina dunyoga kelgan chaqaloqning fikr-u yodi avvalgidek Nilufar cho'qqisiga qaratilgan ekan. Ulg'ayish jarayonida u asta-sekin ota-onasiga ko'nika boshlabdi, eski hayoti yodidan ko'tarila boshlabdi va nihoyat, xotirasidan butunlay o'chibdi.

Iste'fodagi amaldor o'g'liga qarab ko'zi to'ymas ekan.

— Bu bola xudo yuborgan elchi bo'lsa kerak, — debdi bir kuni u xotiniga.

Bolani So Yu deb atashibdi. Uni mehr-muhabbat bilan, ardoqlab o'stirishibdi. Oradan birpasda o'n yil o'tibdi. So Yu chiroyli, kamtar va aqlli bola bo'lib o'sibdi. Ota-onasi unga katta umidlar bog'lashibdi.

Bir kuni janob Yan Lyu xonimga shunday debdi:

— Rostini aytсам, men bu dunyoning odami emasman. Buni men sen bilan er-xotin bo'lganimiz uchun ham uzoq yillar sir

saqlab keldim. Penlay tog'idagi umrboqiy do'stim meni xat yozib chaqirganiga ko'p bo'lgan, lekin seni bu yerda yolg'iz tashlab ketolmaganman. Endi osmon saxovati bilan ajoyib o'g'limiz bor, u senga tayanch bo'ladi. Qariganda sen albatta ro'shnolik ko'rasan, men bu dunyoni tark etayotganimdan sira g'am chekmanglar.

Shu so'zlarni aytgani zahoti u qo'llarini tepaga ko'tarib oq turnada osmon-u falakka o'rlabdi va xotini og'iz ochishga ulgurmay izziz g'oyib bo'libdi. Ona o'g'li bilan birga g'am chekishibdi, vaqti-vaqti bilan osmonga xat yozib yuborishibdi, lekin javob olishmabdi.

XUAIN UYEZDIDA YAN SO YU BIR QIZNI UCHRATADI

Umrboqiy Yan bu dunyoni tark etgach, ona va o'g'il bir-birini qo'llab-quvvatlab yashay boshlashibdi. So Yuning iste'dodi uyezd boshliqlarining e'tiborini tortibdi va ular behad iqtidorli bu bolani imperator oilasiga tanishtirishga qaror qilishibdi. Ammo Yan So Yu qari onasini yolg'iz qoldirishni istamay, buni rad etibdi va u yerga bormabdi.

O'n besh yoshida So Yu husnda Pan Yuega o'xshash, adabiy iste'dod bobida Li Boga teng, yozuv uslubiga ko'ra Van Si-chji bilan bellashishga qodir o'smir bo'lib yetishibdi; boz ustiga, u Sun Bin va U Si kabi o'tkir zehnli va topqir ekan; astronomiya, geografiya va taktikani u a'lo darajada bilar ekan; nayza o'ynatish va qilich tushishda hech kim unga bas kelolmas ekan. Xullas, u bilmaydigan narsaning o'zi yo'q ekan. O'z-o'zidan ravshanki, o'tgan hayotdagi gunohlarini yuvayotgan odamni qalbning tozaligi jihatidan ham, ehtiroslilik jihatidan ham, bilimdonlik jihatidan ham oddiy odam bilan tenglashtirish mumkin emas ekan.

Bir kuni u onasiga quyidagi so'zlar bilan murojaat etibdi:

— Otam osmonga chiqib ketishdan oldin menga boylik, dongdorlik va shon-shuhratga erishishni vasiyat qilgan edi. Hozir biz qashshoq yashaymiz, siz hanuz mehnat qilishga majbursiz. Agar men uyni qo'riqlaydigan itga, dumini zo'rg'a sudrayotgan toshbaqaga aylanib, bu dunyoda dovruc taratmasam, otamning xohish-irodasini

hech qachon ro'yobga chiqara olmayman. Eshitishimcha, yaqinda mamlakatimizda davlat imtihonlari o'tkaziladi va eng iste'dodlilarni tanlab olishadi. Shu bois men baxtimni sinab ko'rish uchun qadrdon go'shamni qisqa muddatga tark etmoqchiman.

Lyu xonim o'g'lining dalillariga e'tiroz bildira olmabdi, lekin yo'lning uzoqligi va ayriqliq haqidagi o'ylar uni tashvishga solibdi. Shunga qaramay, o'g'lini yo'ldan qaytarishga jur'ati yetmabdi va unga oq fotiha beribdi.

— Sen hali yoshsan, tajribang yo'q, — debdi ona o'g'lini yo'lga kuzatar ekan. — Uzoq safarga birinchi marta chiqyapsan. O'zingni ehtiyot qil va tezroq qaytib kel: qari onang seni intizorlik bilan kutayotganini unutma.

Ona nasihatini eshitgach, So Yu u bilan xayrlashibdi va bo'yi uch chxok keladigan xizmatkor bolani ergashtirib, eshakda yo'lga chiqibdi.

Bir necha kun yo'l yurib, ular Xuachjou provinsiyasining Xuain uyezdiga kelishibdi. Bu yerdan poytaxtgacha bir qadam ekan.

O'lka tabiati So Yuni o'ziga asir qilibdi. Imtihon kuni hali uzoq bo'lgani bois, u har kuni bir necha li masofaga sayr qilar, dam bu o'lkada mashhur bo'lgan tog'ni tomosha qilar, dam tarixiy joylarni qidirar va bu uni qadrdon go'shasi yodidan ma'lum darajada chalg'itar ekan.

Bir kuni xilvat yerda joylashgan kulba uning e'tiborini tortibdi. So Yu eshakdan tushib, majnuntollar orasida joylashgan shu kulba sari yuribdi. Majnuntollarning yergacha egilgan uzun va kalta shoxlari unga boshini yuvib, sochlarini shamolda quritayotgan suluvni eslatibdi. «Bizning o'lkalarda ham ajoyib daraxtlar bor, — deya chuqur xo'rsinibdi So Yu, — lekin bunday majnuntolni birinchi marta ko'ryapman». U shu zahoti «Majnuntol» degan qasida to'qibdi va uni ovoz chiqarib o'qibdi:

*Majnuntolning libosi yashil ipdan to'qilgan,
Uning shoxlari soyasi ayvonda o'ynaydi...
Sendan ko'zimni uza olmayapman —
Bunday chiroyli daraxti yana qayerda bor?*

*Libosing bu darajada ko'rkamligining sababi nimada?
Tanang misoli ipakdan eshilgan ...
Shoxni sindirishga jur'atim yetmay,
Sendan ko'z uzolmay qotib turibman...*

Yigitning ovozi aks sado bo'lib atrofga taralibdi. Bu ovozlarning kulbaning yuqori qismida uxlayotgan suluvning quloqlariga yetib boribdi. U uyg'onib yostiقدan bosh ko'taribdi va derazani ochib atrofga alanglabdi, ovoz egasini qidiribdi. Bir vaqt ko'zlari qo'qqisidan Yanning ko'zlari bilan to'qnashibdi... Ular lom-mim deyshibdi, faqat bir-birlaridan ko'z uzolmay turib qolishibdi.

Yan xizmatkor bolani karvonsaroyga kechki ovqatni hozirlash uchun yuborgan ekan. Shu vaqt u ovqat tayyor ekanligidan darak berish uchun kelib qolibdi. Go'zal qiz Yanga his-tuyg'ularga to'la oxirgi nigohini tashlab, deraza ortida g'oyib bo'libdi. Faqat yengil shabada uning shirin atrini yigitning dimog'iga olib kelib uribdi. Qiz yigitni xizmatkor bola bilan gaplashishda davom etyapti deb o'ylab, parda ortidan mo'ralaganda, yigitga Yaoshuy daryosi to'liqlari mavj urgandek bo'lib tuyulibdi. Xizmatkor bola ortidan yo'l olar ekan, u har qadamda ortga uch martadan o'girilibdi, lekin deraza boshqa ochilmabdi.

Karvonsaroyga qaytib kelgach, Yan uzoq muddat his-tuyg'ularini jilovlashga holi yetmasdan, tosh qotib o'tiribdi.

LANTYAN TOG'LARIDA YAN SO YU DAOS BILAN UCHRASHADI

O'sha kechasi Yan So Yu ko'z yuma olmabdi, to'shakda u yoqdan bu yoqqa ag'darilib, xo'rozlar qichqirishini kutibdi. Aksiga olib bahor tuni har doimgidan ham uzoqqa cho'zilibdi. Nihoyat, tong otibdi, nog'oralar ovozi eshitilibdi. Yan xizmatkor bolani chaqirib, unga eshakka yem berishni buyuribdi. Birdan eshik ortida ko'p sonli otlar dupuri eshitilibdi. Yan qo'shnisidan nima gapligini so'rabdi. Qo'shni mohir sarkarda Szyuy Shi-lyan o'zini van deb e'lon qilgani va qo'shin bilan poytaxt sari yurgani, shunda Osmon o'g'li poytaxtni tark etib, Yanchjouga ketgani, buni

eshitgan sarkarda qo'shin bilan Yanchjouga yo'l olgani, shuningdek, Guanchjunda to'polon bo'layotgani, isyonchilar oddiy xalqni talayotgani, Xanguda chegara yopilgani va undan hech kimni o'tkazishmayotgani, nasl-nasabiga qaramay, hammani harbiy xizmatga olishayotgani haqida gapirib beribdi.

Bu xabardan Yan tashvishga tushibdi. U xizmatkor bolaga eshakni egarlashni buyuribdi va tog'-u toshlar qurshovidagi darada yashirinish uchun Lannyan tog'lariga qarab jo'nabdi. Bir vaqt cho'qqilardan birida, daraxtlar orasida tomi poxol bilan yopilgan kulbaga ko'zi tushibdi. Tomiga turna in qurganini ko'rib Yan kulba kimsasiz emas degan xulosaga kelibdi. Xizmatkor bolaga birpas kutib turishni buyurib, darada so'qmoqni topibdi va undan kulba sari ko'tarilibdi.

Kulbada zohid daos xontaxtaga suyangancha yonboshlab yotgan ekan, Yan So Yu paydo bo'lgach, u o'rnidan turib o'tiribdi va:

— Sen, qochoq, xuaynanlik iste'fodagi amaldor Yanning o'g'li bo'lasan, — debdi.

So Yu hayratga tushibdi va ikki marta ta'zim bajo keltirib, ko'zida yosh bilan javob beribdi:

— Men chindan ham iste'fodagi amaldor Yanning o'g'liman. Otam bizni abadiy tark etganidan so'ng mushtipar onamning birdan-bir suyanchiman. Qo'limdan hech narsa kelmasa-da, orzuga ayb yo'q deb, davlat imtihonlarini topshirishga otlangan edim. Xuainga yetmasimdan birdan tartibsizliklar boshlandi. Men panoh izlab shu tog'larga keldim va tasodifan sizning kulbangiz oldidan chiqdim. Bu sehrli o'lkaga meni Osmonning o'zi yuborgan ko'rinadi. Otamdan ko'pdan beri hech qanday darak yo'q. Sezi-shimcha, siz u haqda nimadir bilasiz. Avliyo ota, sizdan o'tinaman, otam haqida bilganingizni menga ayting. U hozir muqaddas tog'lardan birida bo'lsa kerak. Uning hol-ahvoli qanday?

Daos kulib yuboribdi va:

— Ametistlar tog'ida otang bilan paduk o'ynadik, yaqindagina bir-birimiz bilan xayrlashdik. U qayerga ketganidan xabarim yo'q. Ko'rinishi hech o'zgargani yo'q, hatto sochlariga ham oq tushmagan, sen u haqda sira tashvish chekma, — debdi.

— Avliyo ota, padari buzrukvorim bilan bir marta bo'lsa ham ko'rishishga yordam bering, — deya yum-yum yig'lab yolvoribdi So Yu.

Daos yana iljayibdi.

— O'g'ilning otaga muhabbati qancha kuchli bo'lmasin, umrboqiylar yurtiga o'tishning iloji yo'q, — debdi u. — Senga yordam berishni qanchalik istamay, qo'limdan hech narsa kelmaydi. Umrboqiylarning uch tog'i uzoqda, orollari juda keng, hozir otang qayerdaligini bilishning ham iloji yo'q. Sen hozircha shu yerda yashab tur, tartibsizliklar to'xtagach qaytarsan.

Yan otasining daragini eshitgan bo'lsa-da, u bilan uchrashishga umidi yo'qolibdi, chunki daos unga yordam berishni xayoliga ham keltirmabdi. G'am-hasrat ko'z yoshlari yigitning ko'ylagini jiqqa ho'l qilibdi.

— Uchrashuvlar va ayriliqlar, ayriliqlar va uchrashuvlar — bu tabiat qonuni, — deb yupatibdi uni daos. — Qancha g'am chekma, qancha ko'z yoshi to'kma — baribir qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

So Yu ko'z yoshlarini artibdi va dunyoviy fikrlari birdan g'oyib bo'libdi. U pastda xizmatkori va eshagi poylab turganini ham unutib, kursiga borib o'tiribdi va daosga rahmat aytibdi.

OQ AJDAR KO'LI BO'YIDA YAN SO YU PEK NIN PXANI UCHRATADI

Marshal Yan o'sha zahoti dushman qo'shiniga chopar yuboribdi, Kuchiilar kuchlisiga «Mushuk ko'zi» qulagani haqida xabar berishni buyuribdi. So'ng qo'shin yana yo'lga tushibdi va bir necha kundan so'ng Tayshan tog'i ostonasiga yetibdi. Tog' so'qmog'i tor — unga ikkita ot ham sig'mas ekan. Shu bois bir necha yuz li masofani soy yoqalab piyoda bosib o'tishlariga to'g'ri kelibdi. Nihoyat, keng dalaga chiqqach, Yan shu yerda qo'nishni va askarlarga dam berishni buyuribdi. Askarlar toliqqan va chanqagan ekan, lekin, qancha qidirishmasin, suv topilmabdi. Tasodifan kimdir shu atrofda sirtini nilufarlar qoplagan katta ko'lga duch kelibdi — askarlar o'sha zahoti unga tashlanib,

chanqovlarini qondira boshlashibdi. Bir vaqt ularning yuzlari bo'zdek oqaribdi, asta-sekin ranglari ko'kara boshlabdi, tillari o'zlariga bo'ysunmay qolibdi — aftidan, hayot ularni tark eta boshlabdi. Buni eshitgan marshal voqeaga shaxsan guvoh bo'lish uchun ko'l sari osbiqibdi. Ko'lga yaqinlashibdi: u juda chuqur, suvi yam-yashil va muzday ekan. Yan qirg'oqda turib uzoq o'y suribdi va nihoyat eslabdi:

— Axir bu Sim Yo Yon aytgan Banshagu vohasi-ku!

O'sha zahoti u sog' askarlarning barchasiga quduq qazishni buyuribdi. Askarlar yuzdan ortiq joyni qazib ko'rishibdi, lekin suv chiqmabdi. Hafsalasi pir bo'lgan marshal lagerni boshqa joyga ko'chirishni buyuribdi. Ammo shu vaqt go'yo tog'lar ortidan shimol shamoli esa boshlabdi, yer-u ko'k titrabdi, tog'-u toshlar ingrabdi va buning aks sadosi daralar bo'ylab taralibdi — bu dushman qo'shini kelayotganidan darak ekan.

Yanning qo'shimi og'ir ahvolga tushib qolibdi: askarlar chanqagan, ularning bir qismi o'lim to'shagida, chekinishning iloji yo'q: barcha yo'llarni dushman kesib qo'ygan...

Marshal o'z chodirida o'tirib jang rejasini tuza boshlabdi. Kutilmaganda uning dimog'i shirin hidni tuyibdi: u boshini ko'tarib o'z qarshisida turgan ikki pari paykarga ko'zi tushibdi. Parilar marshalga ta'zim qilib:

— Biz huzuringizga beka nomlaridan keldik. U kishl sizni mehmonga chaqiryaptilar, — deyishibdi.

— Bekangiz kim va u qayerda yashaydi? — deb so'rabdi marshal taajjub bilan.

— Bekamiz — Duntin ko'liming hukmdori bo'lmish Ajdarning kenja qizi. Yaqinda ular Billur saroyini tark etdilar va shu o'lkada tanda qurdilar.

— Ajdarlar Suv osti saltanatida yashaydi, — debdi Yan So Yu. — Men u yerga qanday qilib tushaman?

Elchilar unga tushuntirishibdi:

— Sizga sehrli tulpor yuborishgan. Tulporni egarlaganingiz zahoti u sizni aytgan joyingizga bir lahzada eltib qo'yadi.

Parilar marshaldan o'z ortlaridan yurishni so'rashibdi. Marshal chodirdan chiqibdi. G'alati kiyimdagi notanish otboqarlar unga

chiroyli bir tulporni keltirishibdi. Marshal egarga sakrab minibdi va ot shu zahoti uni uchirib ketibdi.

Ular ko'p o'tmay Suv osti saltanatiga yetib kelishibdi. Yanning baliq kallali askarlar tomonidan qo'riqlanayotgan hashamatli dengiz saroyi namoyon bo'libdi. Saroydan xizmatkorlar chiqishibdi va darvozani ochib, marshalni ko'shklardan biriga olib kiribdi. Bu yerda uni ipak yostiqlar to'shalgan taxtiravonga o'tqizib, saroyning ichiga olib kirishibdi. Birozdan so'ng saroy bekasi o'nga yaqin oqsoch qurshovida paydo bo'libdi. Bu oqsochlarning chiroyini so'z bilan ta'riflab bo'lmas ekan! Oqsochlardan biri olg'a qadam taslabdi va marshalga qarab:

— Duntin ko'li hukmdorining qizi marshal Yan bilan tanishmoqchi!

Yan So Yu uyalib ortga chekinibdi, lekin oqsochlar uning qo'llaridan ushlab Ajdarning qizi oldiga boshlab kelishibdi. Marshal uyalganidan hech narsa ko'rmabdi, faqat dimog'i gullar atrini tuyibdi va quloqlari qimmatbaho taqinchoqlarning jarangini eshitibdi. U o'ziga kelib bekaga ta'zim qilibdi va undan o'z yonidan joy olishni taklif qilibdi. Uning taklifi o'sha zahoti bajo keltirilibdi.

— Men odam bolasiman, siz esa Suv osti saltanatida yashaysiz. Meni qabul qilishingizning sababi nimada? — deb so'rabdi Yan So Yu.

Ajdarning qizi unga shunday javob qaytaribdi:

— Men Duntin ko'li hukmdorining kenja qiziman, ismim Pek Nin Pxa. Men dunyoga kelganimda, bashoratgo'y Chan to'rt sanani o'rganib chiqib, shunday degan ekan: «Bu qiz — qaysidir qilmishi uchun Osmon podshosining mulkidan quvg'in qilingan pari. Bugun u Ajdarning qizi qiyofasini kasb etgan, lekin oradan bir necha yil o'tgach, u odamlar dunyosida paydo bo'ladi, yuqori martabali mulozimga xotin bo'ladi, boylik va shon-shuhratga erishadi. O'limidan oldin u rohiblik rutbasini kiyadi va Buddaga xizmat qiladi!» Menga shunday taqdir bashorat qilingan.

Biz, ajdarlar, dengiz va daryolar ruhlarining avlodlarimiz. Biz inson qiyofasiga kira olamiz, Buddani va barcha ruhlarni e'zozlaymiz.

Opam Szinshuy daryosining ajdariga turmushga chiqqan edi, lekin ko'p o'tmay ular urishib qolishdi va ajrashishdi. Shundan keyin opam ikkinchi marta erga tegdi — bu safar u muhtaram Yu Chjinning oilasiga tushdi.

Menga ham dongdor odamga turmushga chiqish bashorat qilingan. Otam meni ardoqlab katta qilgan. Saroy oqsochlarining hammasi meni pari deb bilishadi. Ulg'ayganimdan so'ng husnimning dovrug'i Janubiy dengiz Ajdarining o'g'li O Xyonning qulog'igacha yetib bordi va u menga og'iz soldi. Bizning ko'limiz — Duntin Janubiy dengiz tarkibiga kiradi, shu bois otam O Xyonga rad javobini to'g'ridan to'g'ri berishga haddi sig'madi. U Janubiy dengiz podshosining huzuriga borib, Channing bashorati haqida unga gapirib berdi. Sevimli o'g'liga rad javobini berishganidan Janubiy dengiz Ajdari qattiq norozi bo'ldi, otamni koyiy boshladi... Bundan xabar topgach, men otamni o'zim bilan bog'liq ko'ngilsizliklardan xalos etish uchun qadrdon go'shamni tark etdim. Ovloq bir o'rmonga qochib borib, ko'l bo'yida kulba qurdim va qabiladoshiarimdan uzoqda yolg'iz yashay boshladim.

Janubiy dengiz podshosi o'g'lini menga uylantirish niyatidan qaytmadi, lekin uning barcha iddaolariga otam: «Qizimiz rad javobi bilan sizni xafa qilmoqchi emas, shuning uchun ham u qadrdon go'shani tark etib, uzoqda bir o'zi yashayapti», deb javob berdi. O Xyon mening yolg'izligimga ishonmadi va meni o'ziga tegishga majburlash uchun ko'lga o'z qo'shini bilan keldi. Ammo Osmon o'tinchimga quloq soldi va menga yordam berdi: ko'l suvi birdan do'zaxdek qoraydi va muzday bo'lib qoldi — O Xyonning askarlari uni suzib o'ta olishmadi. Shundan beri men butun dunyodan ajralganman, bir necha yildirki, bu yerda hech kim qadam bosgani yo'q.

Bugun men sizni huzurimga dardimni to'kish uchun chaqirganim yo'q. Askarlaringizga rahmim keldi — ularni dushman ta'qib qilib kelyapti, turli joylarda quduq qazishganiga qaramay, ular suv topa olishmayapti.

Bu suvlarning haqiqiy nomi — Toza to'lqinlar. Men bu yerga kelib joylashganimdan so'ng ular zaharli bo'lib qoldi: ko'l suvidan

ichgan har bir inson kasal bo'lib qoladi va vafot etadi. Shuning uchun ham uni Oq ajdar ko'li deb qayta nomlashgan.

O'tgan yillar mobaynida men bu yerda doim qo'rqib yashadim. Mana, endi bu yerga siz keldingiz va endi himoya izlab sizga murojaat etsam bo'ladi. Bundan buyon men sizning abadiy do'stingizman: sizning qayg'ungiz — mening qayg'um. Qo'limdan kelgancha sizga yordam beraman! Qarang: hozir ko'l suvi shifobaxsh tus oladi. Askarlaringiz uni ichishsin — ularga hech qanday zarar yetmaydi. Tobi qochganlar esa tuzaladi.

Qizning e'tiboridan ko'ngli ko'tarilgan marshal shunday debdi:

— Men gapingizni diqqat bilan eshitdim va Osmonning o'zi bizni bir-birimiz uchun yaratganini tushundim. Menimcha, Oy ostidagi qariya bilan bitim haqida o'ylasak ham bo'ladi! Siz rozimisiz?

— Aytdim-ku, men siznikiman, lekin nikoh bitimini tuzishga shoshmaganimiz ma'qul, — deya javob beribdi Ajdarning qizi.

— Birinchidan, bunga ota-onamizdan rozilik olishimiz kerak. Ikkinchidan, men suyagim va terimni o'zgartirganimdan keyingina siz bilan birga bo'lishim mumkin: tanga bilan qoplangan tanam va pahmoq yolim nikoh to'shagini bezamasa kerak!

Bundan tashqari, Janubiy dengiz podshosining o'g'li O Xyon o'z odamlarini yashirincha yuborgan, ular mendan ko'z uzishmaydi va uyimdagi barcha o'zgarishlar haqida o'z xo'jayiniga yetkazib turishadi. Agar nikohga kirishga qaror qilganimizning daragi O Xyonning qulog'iga yetib borsa, u darg'azab bo'lib bizga to'lqinlar va shamol yuboradi va biz halok bo'lamiz. Hozir qo'shiningiz oldiga qaytib, uni ko'targaningiz ma'qul. Dushmanni tor-mor keltirib, poytaxtga g'alaba bilan qaytganingizdan so'ng men bu yerni tark etaman va ortingizdan boraman.

Marshal bosh chayqabdi:

— Yaxshi gaplarni aytdingiz, lekin men ularga qo'shila olmayman. Menimcha, siz bu yerga o'z ixtiyoringiz bilan emas, balki bashoratgo'y Chan va otangiz Ajdar sizga shu yerda yashashni va Osmon peshonangizga yozgan Yan So Yu ismli zotni kutishni buyurgani uchun kelgansiz. O'ylashimcha, bizning bugungi uchrashuvimiz bilan ota-onangizning orzusi ushaldi.

Hozir siz Ajdarning qizi qiyofasidasiz, lekin aslida pari bo'lib tug'ilgansiz, demak, ayol qiyofasiga kira olasiz! Teringizdagi tangalar va yoldan qo'rqmasangiz ham bo'ladi.

Men o'zim alohida iqtidorga ega bo'lmasam-da, Osmon o'g'li menga qirol qo'shinini ishonib topshirgan. Uning saflarida pahlavonlar Fey-lyan va Xay-yao bor. Ajdarvachcha O Xyon ularning qarshisida chivin yoki chumoliday bir gap! Agar u oxirini o'ylamay menga qarshi chiqadigan bo'lsa, qilich bilan uning adabini berib qo'yaman!

Bugun Osmon bizga uchrashuv quvonchini hadya etdi — keling, bu tun bizniki bo'lsin! Mayllarimizni tiyib nima qilamiz!

Shu so'zlarni aytib Yan So Yu Ajdarning qizini quchoqlabdi... Bu tushmikin yoki ro'yo — buni faqat baxtiyor sevishtanlar bilisharkan!

CHON GYON PXENING O'TINCHLARI

Qo'shin bilan safarga chiqqach, marshal o'z g'alabalari haqida darak berib saroyga bir necha marta chopar yuboribdi. Uning g'alabalaridan Osmon o'g'li behad xursand ekan. Bir kuni xotini bilan suhbatlashayotib u marshal sha'niga maqtovlar aytibdi va shunday deb qo'shimcha qilibdi:

— Yan So Yu — bu hozirgi fenyanchik Go. Qaytib kelgach, uni mamlakat oldidagi xizmatlari uchun bosh vazir etib tayinlaymiz. Afsuski, malikaga uylanishga uni hanuzgacha ko'ndira olmadik... Safardan qaytgach, Yan So Yu o'jarlikni qo'yib, hukmimizga bo'ysunsa, yaxshi bo'lardi. Yo'qsa, bunday davlat arbobi qamab ham bo'lmaydi. Bosh vazirga odatdagi jazo choralari qo'llash mumkin emas.

Imperatorning xotini o'ylanib qolibdi.

— Marshal noib Chonning qizini sevadi va o'z ixtiyori bilan undan voz kechmasa kerak. So Yuning yo'qligidan foydalanib Chonning qizini boshqa odamga erga tegishga majburlasak-chi? Shunda Yan o'z iddaolaridan voz kechishga majbur bo'ladi va oliy hukmni ado etadi.

Imperator uzoq jim o'tiribdi va oxir-oqibat hech qanday javob bermasdan chiqib ketibdi. Imperatorning xotini oldiga uning qizi — malika Nan Yan kelibdi.

— Tushunmadim: bu gaplar chikora? Axir marshal faqat sizning ruxsatingiz bilan uylanishi mumkin, Chonning qizini erga berish — bu uning o'z oilasining ishi!

— Men bu sen uchun, davlat uchun muhim bo'lgani tufayli bu haqda gapiryapman, — deya tushuntira boshlabdi imperatorning xotini. — Marshal Yan So Yu — saroydagi eng chiroyli va o'qimishli erkak. Osmonning o'zi uni senga erlikka tanlagan: sehrli txunso chorlovini esla! Sen unga turmushga chiqishdan aslo voz kechmasliging, undan boshqa birov haqida o'ylamasliging kerak! Afsuski, So Yu noib Chonning oilasi bilan yaqin. Bu yerda men nima qilishni ham bilmayman. Balki So Yu qaytgach, to'yingizni o'tkazib, keyin unga Chonning qizini kanizak qilib olishni taklif qilganimiz ma'quldir? U yo'q demasa kerak. Bunga sen nima deysan?

— Men rashkchi emasman, — deb javob beribdi malika, — Chonning qizi ham menga cho't emas. Ammo bu yaxshimikan, axir janob Chon oliy martabali mulozim-ku, qizi kanizaklikka olinishiga qanday qararkan?

— Xo'sh, seningcha, hammasi yaxshi bo'lishi uchun nima qilish kerak?

— Qoidaga ko'ra imperator a'yonining uchtagacha xotini bo'lishi mumkin, — debdi malika. — Agar marshal Yan g'alaba bilan qaytib kelsa, u kamida bosh vazir lavozimiga erishadi — ikkita xotinli bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Shunda u menga va Chonning qiziga uylanadi! Xo'sh, bunga nima deysiz?

— Bu mumkin emas! — deb javob beribdi unga onasi. — Sen marhum imperatorning suyukli qizi, Osmon o'g'liming yolg'iz singlisisan. Sen go'zalsan va yuksak martaba egasisan; nahot seni oddiy qiz bilan bir qatorga qo'yish mumkin?

— Oqil podsholar aqlli va iste'dodli odamlarni nasl-nasabidan qat'i nazar, hurmat qilganlar, — deb e'tiroz bildiribdi malika. — Ular odamlarni qobiliyatlarini uchun e'zozlaganlar, ba'zan oddiy odamlarni ham o'z do'stlari deb hisobiaganlar. Martabamning

bu yerda ahamiyati yo‘q. Chiroyi va xulq-atvoriga ko‘ra Chonning qizi hammaga ibrat bo‘larli deb eshitganman. Bu gapda jon borgan o‘xshaydi. Shu bois meni u bilan solishtirish men uchun isnod emas, balki katta sharaf. Ammo mish-mishlar yolg‘on bo‘lishi ham mumkin. Shu bois men noib Chonning qizini o‘z ko‘zim bilan ko‘rmoqchiman. Agar uning husni va boshqa fazilatlari odamlar aytgandek bo‘lsa, men uning oldida ta‘zim qilaman. Aks holda u kanizak bo‘ladimi, qul bo‘ladimi — menga baribir.

Imperatorning xotini xo‘rsinibdi.

— Odatda ayollar o‘z raqiblarining chiroyi va iste’dodiga hasad bilan qarashadi. Qizim bu nuqsondan xoli ekanligidan men behad xursandman. Noib Chonning qiziga kelsak, ertaga men uni chaqirtiraman. Men ham u bilan yaqindan tanishmoqchiman.

— Buyrug‘ingizni olgach, Chonning qizi o‘zini kasal qilib ko‘rsatishi va bu yerga kelmasligiga mening ishonchim komil, — debdi malika. — Dongdor oiladan bo‘lgan qizni saroyga tahdidlar bilan chaqirish mumkinmi? U ibodatxonaga keladigan kunni bilsak, o‘sha yerda uni ko‘rgan bo‘lardik.

Imperatorning xotini malikaning fikrini ma’qullabdi va darhol xizmatkorni tegishli topshiriq bilan jo‘natibdi. Xizmatkor Chon Pxé Vonning ibodatini qabul qiluvchi rohib ayol bilan gaplashibdi va xizmatkorga quyidagilarni ma’lum qilibdi:

— Noib Chonning oilasi bizning ibodatxonada Buddaga sig‘inadi, lekin Chon xonimning o‘zi bu yerga kelmaydi. Uch kun burun ibodatxonaga uning oqsochi, marshal Yan So Yuning sevgilisi Chxun Un kelgan edi. U noibning qizi yozgan duolarni olib keldi. Shu duolardan birini olishingiz va saroydagilarga topshirishingiz mumkin.

Xizmatkor qog‘ozni olib saroyga qaytib kelibdi va hamma gaplarni imperatorning xotiniga yetkazibdi. Imperatorning xotini iljayibdi:

— Bu qizni ko‘rish oson ish emas ekan!

U keltirilgan qog‘ozlarni ochib, malika bilan birga mutolaaga berilibdi: «Chon Gyon Pxé ta‘zim bajo keltiradi va oqsoch Chxun Un orqali qudratli Buddaga yolvoradi! Hozirgi va o‘tgan hayotdagi barcha gunohlarim uchun Osmon hukmi bilan bu dunyoda ayol

bo'lib tug'ilganman va achchiq qismat — yolg'izlik peshonamga yozilgan — aka-ukam ham, opa-singlim ham yo'q. Bir necha yil oldin janob Yan So Yu bilan unashtirilgan va unga sodiq xotin bo'lishga hozirlik ko'rayotgan edim. Yaqinda janob Yanni podsho kuyov qilib tanlaganini eshitdim... Imperatorning buyrug'i qat'iy. Endi men nima qilaman? Nima uchun Osmon hukmi va odamlar xohishi bir-biridan bunchalik uzoq?! Men juda baxtsizman — sevikli yorim bilan qovushishni istayman, lekin buning iloji yo'q. Umr bo'yi ota-onamning uyida yashash peshonamga yozilgan ko'rinadi!

Muruvvatli Budda! Menga rahim qil! Sendan o'tinib so'rayman: kekxa ota-onamga uzoq umr ber — hech bo'lmasa ular o'z suyuqli farzandini har kuni ko'rib baxtli bo'lishsin! Onam va otam menda doim yoshi bolani ko'rishsin! Ular bu dunyoni tark etishganidan so'ng men dunyo tashvishlarini tark etish va monastirga ketish, sutralarni o'qish, bokiralikni saqlash, Buddaga sig'inish va ko'rsatgan marhamati uchun bodisattvalarga qulluq qilishga va'da beraman!

Chxun Un bilan men bolalikdan yaqinman. Unvonga ko'ra biz beka va xizmatkor bo'lsak-da, amalda opa-singilmiz. Bir vaqtlar Chxun Un janob Yanning kanizagi bo'lgan, lekin ularning ittifoqi uzoqqa cho'zilmagan, chunki Chxun Un sevikli yorini tark etgan va eski xo'jayinlarining uyiga qaytib kelgan. Shundan beri biz quvonch va qayg'u, hayot va mamotni u bilan baham ko'rib kelamiz. Bodisattvalar, sizdan o'tinaman: shunday qilingki, yangi hayotda biz ayol bo'lmaylik, o'tmishdagi gunohiarimiz kechirilsin, avlodlarimiz baxtli bo'lishsin, ular farovon o'lkalarda tug'ilishsin va g'am-hasrat nimaligini bilishmasin!»

O'qishni tugatgach, malikaning qovog'i uyilibdi.

— Endi tushundim: bir odamning baxti boshqa odamlar uchun baxtsizlik keltirishi mumkin ekan.

Imperatorning xotini gapini ichiga yutibdi.

VAZIRNING XOTINLARI VA KANIZAKLARI QASAMYOD QILISHADI

Cho Yo Yon va Nin Pxa tabiatni ardoqlashini So Yu yaxshi bilar ekan. Uning mulkida hovuz bor ekan. Bu hovuzning suvi ko'l suvidek shaffof ekan. Hovuz o'rtasiga Yanyalou degan shiyp on qurilgan ekan. Shu shiyp onga u Nin Pxani joylashtiribdi. Hovuzdan janubroqda Geshan tog'i qad rostlagan, uning cho'qqisi tarashlangan qayroqtoshga o'xshar ekan. Tog'da Binshuay deb nomlangan shiyp on bor ekan. Bu yerga So Yu Sim Yo Yonni joylashtiribdi. Vazirning xotinlari va kanizaklari bog'da sayr qilgan paytda, Yo Yon va Nin Pxa tog'da bekalik qilishiarkan. Nin Pxaning taqdiri hammani qiziqtirar ekan, unga:

— Qanday qilib odamga aylanishga muvaffaq bo'ldingiz? — degan savol bilan ko'p murojaat etisharkan.

— Oldingi hayotimda men Ajdarning qizi edim, — deb javob berar ekan Nin Pxa. — Ammo bir kuni koinot kuchlari mening tanga qoplagan terimni shilib oldi va ayolga aylantirdi. Endi men tabiat kuchlarini boshqara olmayman, xuddi molluskaga aylantirilgan chumchuq ucha olmaganidek.

Suhbatdoshiari faqat hayratdan yoqa ushlashar ekan.

...Yo Yon vaqti-vaqti bilan Lyu xonim, vazir va malikalar uchun qilich bilan raqsni ijro etar, ular bilan tez-tez bog'da sayr qilar va o'ziga hazil qilishlarini avvalgidek yoqtirmas ekan.

— Agar qilichni yaxshi o'ynata olmaganimda, vazir Yanning sevgilisi bo'lish menga nasib etmagan bo'lar edi. Ilgari sizlarning hazilingizga tishimni tishimga qo'yib chidar edim, lekin bundan buyon bunday qilmayman, — der ekan u hazilkashlarga.

Suvda baliqlar va osmonda qushlar o'zlarini qanday baxtli his qilishsa, Yan So Yuning xotinlari va kanizaklari ham o'zlarini shunday baxtli his qilishar ekan. Ular bir-birlarini qo'llab-quvvatlar, bir-birlariga yordam berar, opa-singillardek ahil yashar ekan. Yan ularning hammasini birdek yaxshi ko'rarkan. U ko'pincha: «Ikkala xotinim va olti kanizim opa-singillardek ahil yashashadi, Osmonning irodasi shu bo'lsa kerak-da?!», deb o'ylar ekan. Darhaqiqat, uyda tinchlik-totuvlik hukm surarkan, zero,

vazir, uning xotinlari va kanizlari o'tgan hayot rishtalari vositasida bir-biri bilan uzviy bog'langan ekan.

— Bir-biringiz bilan inoq bo'ling, nasl-nasabingiz dongdor yoki tuban ekanligiga qaramang! — der ekan Yan So Yu.

Yanning mahbubalari uning maslahatiga quloq solishga tayyor ekanlar, faqat Chxun Un, Kyon Xon va Som Vol kamtarlik qilib o'zlarini boshqalarga teng deb hisoblashga rozi bo'lishmas ekan. Malika Yon Yan ularni ko'ndirishga harakatlar qilarkan:

— Bir vaqtlar Lyu Syuan-de, Guan Yun-chan va Chjan I-de og'a-ini bo'lishga qasam ichishgan ekan! Biz ham Chxun Un bilan azaldan yaxshi do'stmiz, endi opa-singil bo'lsak, buning nimasi yomon? Qadimda Shi-Szun ismli bir zotning xotini dongdor va fazilatli, uning raqibi — nasl-nasabi past va yengiltak bo'lgan ekan, lekin oxir-oqibat ularning ikkalasi ham rohiblik rutbasini kiyishibdi va bir-biriga mehr qo'yishibdi! Endi o'zingiz xulosa chiqaring: o'z nasl-nasabini eslash doim ham o'rinlimi?

Malikaning bu gaplariga hamma qo'shilibdi. Shundan keyin vazir Yanning ikkala xotini va olti kanizi birga ibodatxonaga yo'l olishibdi. Ular tutatqilar yoqib, bodisattva Avalokiteshvara haykaliga ikki marta ta'zim qilibdilar va qasamyod matnini yozibdilar. Mana, bu qasamyod: «Budda sutralarida: «Xitoyning barcha odamlari — og'a-inilar», deb yozilgan. Bu jumlarining ma'nosi va ruhi bir. Ammo shunday odamlar ham borki, ular «samoviy munosabatlar aloqasi»ni tan olsalar-da, o'z birodarlariga begonalardek qaraydilar. Bu yuqorida zikr etilgan jumlaning ruhi va ma'nosiga zid.

Biz hammamiz turli joylarda tug'ilganmiz: birimiz — janubda, boshqamiz — shimolda, lekin keyinchalik butun dunyoga tarqalib ketganmiz — kimdir g'arbga, kimdir sharqqa. Oxir-oqibat biz hammamiz bir tom ostida yashab, ayni bir odamning xizmatini qila boshladik. Bizning fikrimiz va tuyg'ularimiz bir. Demak, hamma odamlar — og'a-ini, dunyo bo'ylab tarqalib ketishsa ham keyinchalik bir joyga yig'ilishadi! Dunyo katta va keng bo'lsa ham ular bir tom ostiga yig'ilishadi. Odamlarni nima birlashtiradi? Samoviy rishtalar va baxtli tasodif!

Biz, sakkiz ayol, bundan buyon opa-singildek yashashga, quvonch va qayg'uni, hayot va mamotni baham ko'rishga

qasamyod qilamiz. Oramizda kim bu qasamni buzsa, Osmon unga o'lim yuborsin! Avalokiteshvara, senga yolvoramiz: bizga baxt hadya et, bizni yomonliklardan xalos qil, yuz yildan so'ng narigi dunyoda yana yig'ilishimizga yordam ber!»

Avval qasamyod so'zlarini ikki malika, so'ng olti kanizak aytishibdi. Kanizaklar malikalarni odamlar oldida opa yoki singil deb chaqirishga jur'at etishmasa-da, lekin ularga qattiq bog'lanib qolishibdi.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach sakkiz ayolning hammasi ona bo'libdi. Ikkala malika, Chxun Un, Som Vol, Yo Yon va Kyon Xon o'g'il, Chxe Bon va Nin Pxa esa — qiz tug'ishibdi. Ularning hammalari o'z farzandlarini yaxshi tarbiyalashibdi, shuning uchun ham ulardan hech qachon yomonlik ko'rishmabdi.

MASLAHATCHI YAN TEPALIKKA CHIQADI VA UZOQQA TIKILADI

Maslahatchi Yan ko'rsatgan mehr-muruvvati uchun Osmon o'g'liga rahmat aytibdi va oilasi bilan birga Szuymeyga jo'nab ketibdi. Bu saroy xushmanzara Chjunnanshan tog'larida joylashgan ekan. Imperatorning farmoniga binoan bu yerda maslahatchining o'zi yashay boshlabdi. Malikalar va kanizaklar saroy atrofidagi pavilyonlarga joylashishibdi.

Maslahatchi kunduzi daryo qirg'og'i bo'ylab sayr qilar, to'qigan she'rlarini qoyaga o'yib yozar, ba'zan qayrag'och soyasida o'tirib komungo chalar ekan.

Sakkizinchi oyning o'n oltinchi sanasida maslahatchining tug'ilgan kuni ekan. O'g'illari va qizlari kelishibdi, oilaviy bayram tashkil etishibdi — u o'n kundan ortiq davom etibdi. Bayram tugagach, bolalari yana uy-ulariga tarqalib ketishibdi, saroy yana bo'shab qolibdi...

Shu orada to'qqizmchi oy boshlanibdi. Xrizantemalarning bargi to'kilibdi, daraxtlarning shoxlarida mevalar chayqala boshlabdi — oltin kuz kelibdi!

Szuymey saroyidan g'arbda baland tepalik bor ekan. Unga chiqilsa, bu yerdan sakkiz yuz li uzoqda joylashgan Sinchuan

okrugi kaftdek ko‘rinib turarkan. Maslahatchi bu yerda bo‘lishni yoqtirarkan. Bir kuni u xotinlari va kanizlari bilan birga tepalikka chiqibdi. Ular sochlariga xrizantema shoxlarini suqib, may ichib, kuz manzaralarini tomosha qila boshlashibdi.

Maslahatchi txunsoni olib, qandaydir bir g‘amg‘m kuyni chala boshlabdi. Ayollarni g‘am-hasrat chulg‘abdi, hamma biroz o‘zini yo‘qotibdi. Birinchi bo‘lib malikalar o‘ziga kelibdi.

— Janob maslahatchi! Siz boy va dongdorsiz! Bunday shuhratga hatto qadimda ham kamdan kam odam erishgan! Hozirgi kunda sizning o‘rningizda har qanday odam o‘zini baxtli deb hisoblagan bo‘lardi. Qarshingizda ajoyib kuz manzarasi, atrofigizda — go‘zal ayollar; bularning barchasi inson qalbini faqat shod etishi kerak! Ammo chalayotgan kuyingiz shu darajada g‘amg‘inki, ko‘zimizga yosh quyilyapti. Xo‘sh, g‘am-hasratm-gizning sababi nimada?

Maslahatchi txunsoni chetga qo‘yibdi va shunday deb javob beribdi:

— Shimolga qarasam, keng tekislikni, unda yolg‘iz bo‘rtib turgan tepalikni ko‘raman; quyuq maysazorlar orasida sin podshosi Shi-xuan yashagan Efangun saroyi ko‘zga tashlanadi. So‘ng g‘arbga qarayman: o‘rmonda shamol daraxtlarni tebratadi, tog‘ cho‘qqisidagi xan podshosi U-dining maqbarasini qora bulutlar chulg‘agan. Sharqda esa — yam-yashil tog‘lar, ularning ortida shafaq bo‘zaryapti, oy dam paydo bo‘lyapti, dam yo‘qolyapti. Bu yerda men bir paytlar Sgoan-szun va Yan Guy-fey bazm qurgan, hozir ship-shiydam bo‘lib yotgan Sinxuagun saroyini ko‘raman. Atrofga qaradim deguncha meni g‘am-hasrat chulg‘aydi: qadimning bu mashhur qahramonlari — Shi-xuan, U-di va Syuan-szun qani?!

Men Chu mamlakatida tug‘ildim, podshoning marhamati bilan yuksak lavozimlarga erishdim, xotinlarim va kanizaklarim bor, ular bilan tinch-totuv yashab umrimni poyoniga yetkaz-yapman; agar ular bo‘lmasa, men hayotda hech narsaga erishmagan bo‘lardim. Ammo biz hammamiz o‘lgach, baland tog‘ qulaydi, hovuz yuzini nilufarlar qoplaydi, sizlar bugun raqs tushgan va qo‘shiq aytgan uy to‘kilib tushadi va uning o‘rnida

chirmovuqlar o'sadi... O'tinchilar va molboqarlar bir-biriga shu g'amgin qissani hikoya qiladi: «Qachondir bu yerda maslahatchi Yan xotinlari va kanizlari bilan birga yashagan ekan. Maslahatchi boy va dongdor, xotinlari suluv bo'lgan ekan!» Men hozir saroylarga va qadimgi uch qahramonning qabriga qanday o'ylar bilan qarayotgan bo'lsam, ular Szuymeyga shunday o'ylar bilan qarashadi. Inson hayoti bir lahza, deganlari shu bo'lsa kerak!

Dunyoda uch ta'limot bor: konfutsiychilik, buddizm va daosizm. Men shulardan faqat buddizmni yuksak baholayman. Konfutsiychilik odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiradi, o'z ishini yaxshi bajarish va ismini avlodlarga qoldirishni amr etadi, xolos. Daosizm shamanlikka yaqin turadi — unga azaldan ko'pchilik qo'l urgan, lekin hech kim muvaffaqiyat qozonmagan. Bunga ishonch hosil qilish uchun sinlik Shi-xuan, xanlik U-di va Syuan-szunning ko'rgan-kechirganlarini o'qish kifoya.

Xizmatni tark etganimdan beri har kechasi tushimga Budda kiradi. Men hayotimni o'zgartirishim kerakligini tushundim. Shundan beri men boshqa hayotni qo'msayapman, xuddi Chjan Szi-fan Chisun-szini qo'msagandek. Menda Janubiy dengiz bodisattvasi, Avalokiteshvara oldiga borish, bodisattva Manchju-shri ibodatxonasiga yetish, umrboqiy ta'limotni o'zlashtirish va insoniyatni azob-uqubatlardan xalos etish niyati tug'ildi. G'am-hasratlarimni men txunsoda kuy qilib chaldim. Umrinning yarmini men xotinlarim va kanizlarim bilan birga o'tkazdim, lekin endi ulardan uzoq-uzoqlarga ketaman...

Ayollar ma'yus bo'lib qolishibdi:

— Siz farovonlik saltanatida g'am chekyapsiz — Osmonning shu ishini adolatdan deb bo'ladimi?! Siz ketasiz, lekin biz, sakkiz opa-singil, shu yerda sizga sodiq bo'lib qolamiz, kecha-yu kunduz Buddaga sig'inamiz va sizning qaytishingizni kutamiz. Bu safar siz dono ustozni, yaxshi do'stlarni uchratishingizga, ular bilan birga yangi hayot sari yo'lni topishingizga ishonamiz! Sizdan faqat bir narsani so'raymiz: o'zingiz anglab yetgan haqiqatlarga bizni ham oshno eting!

SON CHJIN VA SAKKIZ PARI UYQUDAN UYG‘ONADI VA VOQELIKKA QAYTADI

Bu so‘zlar maslahatchini quvontiribdi.

— Biz, to‘qqiz kishi, ma‘naviy jihatdan bir jon-u bir tanga aylanganmiz, aslo g‘am chekmang! Men ertagayoq yo‘lga chiqaman.

Ayollar shoshib qolishibdi.

— Biz sizni kuzatib qo‘yamiz — har birimiz sizga bir qadahdan may keltiradi!

Ular shu zahoti oqsochlarni chaqirib, ularga may keltirishni buyurishibdi. Shu vaqt hassaning do‘qillagan ovozi eshitilibdi. Hammaning qulog‘i ding bo‘libdi.

— Bu kim bo‘lishi mumkin?

Bir necha daqiqadan so‘ng ustoz-rohib paydo bo‘libdi. Tepalikka chiqib u maslahatchining ro‘parasiga kelib o‘tiribdi, u bilan so‘rashibdi va:

— Tog‘ odami mashhur mulozim bilan ko‘rishgani keldi! — debdi.

Ammo maslahatchi qarshisida o‘tirgan odam oddiy rohib emasligini tushunibdi. U o‘rnidan turib rohib bilan so‘rashibdi.

— Yo‘l bo‘lsin, avliyo ota?

— Siz eski do‘stlaringizni tanimayapsiz! — deb jilmayibdi rohib. — Dongdor kishilarning xotirasi zaif bo‘ladi, deb eshitgan edim; ori rost ekan!

Yan So Yu rohibning yuziga sinchiklab tikilibdi — bu odam unga tanishdek bo‘lib tuyulibdi, lekin uni qayerda uchratganini eslay olmabdi. U o‘z mahbubalariga nazar tashlabdi — uning ko‘z oldida Pek Nin Pxaning chehrasi gavdalanibdi.

— Tushimda men Duntin ko‘lining podshosi — Ajdarning ziyofatida bo‘ldim. Qaytayotib toqqa chiqdim va u yerda shogirdlariga sutra o‘qiyotgan qari rohibni ko‘rdim. Siz tushimga kirgan o‘sha rohib bo‘lsangiz kerak?

Rohib jilmayibdi:

— Haqqast rost! Ammo siz tushingizda bir marta ko‘rgan odamlarni esladingiz-u, bir tom ostida o‘n yil birga yashaganlarni unutdingiz!

Va u baland ovozda chaqiribdi:

— Sonchjin! Sonchjin! Bu dunyoning odami bo'lish yaxshi ekanmi?!

So Yu ko'zlarini katta ochibdi — qarshisida ustoz! Yukkvan ota turgan ekan! U ustozga ta'zim qilibdi va ko'zlari yoshlanib shunday debdi:

— Men to'g'ri yashamadim, lekin bu mening aybim, mening xatoyim. Agar siz tushimga kirmasangiz, bu hayot davom etgan bo'lardi! Ko'rsatgan ulug' muruvvatingiz uchun mendan qanday hadya istaysiz?!

Yukkvan bosh chayqabdi:

— Sen o'z ixtiyoring bilan ketding va o'z ixtiyoring bilan qaytyapsan, bunga mening daxlim yo'q. Sen tushingda ruhlarning qayta tug'ilishini ko'rganingni, tush va ro'yoni farqlashingni aytyapsan. Demak, sen hali uyg'onganing yo'q!

— Men, osiy banda, tushni uyqudan farqlay olmayman! — debdi Sonchjin. — Iltimos, menga yo'l ko'rsating, meni ro'yoga qaytaring!

— Yaxshi! — deb rozi bo'libdi ustoz. — Men senga «Olmos sutra» ta'limotini tushuntirib beraman va seni uyqudan uyg'otaman. Biroz kutib tur, tez orada bu yerga shogirdlarim kelishadi.

U gapini yakunlashga ulgurmasidan daos-qorovul kelibdi va mehmonlar — Vey xonimning sakkiz xizmatkori — parilar tashrif buyurishganini ma'lum qilibdi. Parilar ustoz qarshisida yarim davra qurib o'tirishibdi, jo'r ovozda salom berishibdi va shunday deyishibdi:

— Biz uzoq vaqt xonimning o'ng va chap tomonida o'tirdik, lekin hech narsani o'rganmadik. Dunyoviy hoy-u havaslar bizning tinchimizni buzdi. Gunohlarimiz ko'p va shu bois biz uyqudan uyg'onib, ro'yoga qayta olmaymiz. Kelganingizni eshitib, biz Vey xonim bilan xayrlashdik va unga uzrimizni aytib, sizning oldingizga keldik. Ustoz, gunohlarimiz uchun bizni kechiring va bizga to'g'ri yo'l ko'rsating!

Ular yuzlaridagi upa-elikni artishibdi, shohl liboslarini rohiblar kiyimiga almashtirishibdi, sochlarini qirqishibdi va rohiblikni qabul qilishibdi.

— Sizning istigʻforingiz meni shod etdi, — debdi ustoz va ularga oʻziga yaqinroq oʻtirishni buyurib, Budda taʼlimotini tushuntira boshlabdi. Son Chjin va sakkiz rohib ayol bu taʼlimotning mohiyatini anglab yetishibdi. Yukkvan ota oʻz oʻrnini Son Chjinga boʻshatib beribdi, uning qoʻliga «Olmos sutra»ni tutqazibdi va:

— Haqiqat va barkamollik yoʻli sen uchun ochiq! — debdi.

Shu soʻzlarni aytib u bu yerni tark etibdi va Hindiston tomonga qarab yoʻl olibdi.

Son Chjin Nilufar choʻqqisida sakkiz rohib ayolga Budda taʼlimotini oʻrgatishda davom etibdi.

CHE SU

SOL KON CHAN HAQIDA QISSA

Qadim zamonda Sun Chang nomli joyda buyuk avlod vakili Sol Chung Ran yashagan ekan. Bu shaxs juda ham boy boʻlib, uning bir qiz va oʻgʻli bor ekan. Qizi turmush qurganiga ancha yillar boʻlganiga qaramay, farzandi yoʻq ekan, buning ustiga u koʻp vaqt oʻtmay vafot etibdi. Sol Chung Ran oʻgʻlining ismi Kon Chan boʻlib, bolaligida uni Suk Dong deb atashgan ekan. Kon Chan bolaligidan juda ham iqtidorli boʻlib, kitob oʻqishni yaxshi koʻrar hamda savodxon ekan. Ammo u yigirma yoshga toʻlganida, uylanishga ham ulgurmasdan ogʻir xastalikdan koʻz yumibdi.

Kon Channing otasi uzoq vaqt qaygʻuga choʻmibdi, u har kuni oʻgʻli dafn etilgan joyda yigʻlab oʻtirib aza tutar ekan. Maʼlum vaqt oʻtgach, Chung Ran oʻzining jiyaniga shunday debdi: «Aza vaqti tugadi, bechora oʻgʻlim hatto uylanishga ham ulgurmasdan bu dunyoni takr etdi». Shundan keyin u mozorga borib, ochlikda qahr oldida gʻamga botib oʻtiribdi.

Sol Chung Ranning Sol Chung Su ismli akasi bor ekan. Uning Kon Chim ismli oʻgʻli boʻlib, uni yoshligida Ob Chong deb atashar ekan. Ular Seulda istiqomat qilishar ekan. Shu bilan

birga Sol Chung Ranning kichkina ukasi Ob Tong Sunchanda yashar ekan. Kon Chim yoshligida ilm o'rgangan bo'lsa-da, u bu sohada yutuqlarga erishmagan ekan.

Qirol Chong Dok hukmronligi davrida 20- iyulda Kon Chim Chung Su uyiga kelibdi. Shu payt qo'shnining bolasi ham kelibdi va shunday debdi: «Kon Chimga nimadir bo'ldi, menimcha, u kasal bo'lib qoldi, chunki u o'zini g'alati tutmoqda, oldingi Kim Chonni tanib bo'lmayapti».

Otasi Sol Chun Su buni eshitib, o'g'lining kasal ekanligini bilib yig'lay boshlabdi. Kasallik esa kundan kunga kuchaya boshlabdi.

«Nega mening o'g'lim kasal bo'lib qoldi», —deb otasi qayg'ura boshlabdi. Kon Chimdan nima bo'lgamini so'rabdi, ammo o'g'li javob bermabdi. U faqat jim yotar ekan. Shunda otasi ruhlarni haydash uchun shamanni chaqirishga majbur bo'libdi. Shamanning ismi Kim Sok San ekan, u shaftoli daraxtining shoxlari yordamida ruhlarni hayday boshlabdi. Shu payt shayton shamanga shunday debdi: «Men ayol kishiman, shu sababli sizni yenga olmayman, ammo hozir Kon Chan ukamning ruhini chaqiraman».

Kon Channing ruhi kelib, Kon Chimning tanasiga kiribdi va shunday debdi: «Amaki, siz turli xil yo'llar bilan baxtsizlikni yo'qotmoqchisiz, ammo bu harakatingiz bilan o'g'lingizni yanada qattiq azobda qoldirasiz. Men faqat osmon ostida uchib yuraman, siz menga qanday yomonlik qila olasiz? Keling, ostonaga himoya tasmasini bog'lab qo'ying, shunda men uyga kira olmayman». Chun Su jiyani unga bergan maslahati bo'yicha uyining ostonasiga himoya tasmasini bog'lab qo'yibdi. Ammo bu yordam bermabdi, Kon Chan esa o'zini kulgudan tiya olmabdi. U shunday debdi: «Amaki, siz hamma narsaga ishonasiz, shuning uchun ham turli xil aldovlarga uchraysiz».

Shunday qilib, Kon Channing ruhi Kon Chimni azoblashda davom etibdi. U Kon Chimning tanasiga kirib olganida, Kon Chim juda ham vazmin bo'lib qolar, shiyponda uch vaqt chap qo'li bilan ovqatlanar ekan. Otasi Chun Su buni ko'rib hayron qolibdi, chunki o'g'li har doim o'ng qo'li bilan ovqat tanovul qilgan ekan,

nimagadir endi ovqatni chap qo'li bilan yemoqda. Kon Chan shunday deb javob beribdi: «U dunyoda hamma ovqatni chap qo'li bilan yeydi». Kon Channing ruhi Kon Chimni tark etsa, u juda ham qattiq xafa bo'lar, hech narsa yemasdan butun kiyimi ho'l bo'lguncha yig'lar ekan. Kon Chim otasiga Kon Channing xafagarchiligi va o'jarligining sababini aytibdi. Shuning uchun otasi yana shamanni chaqirib, ruhlarga qarshi maxsus yozuvni yozdirishni va uni Kon Channing qabriga muhrlab qo'yishni rejalashtiribdi. Bu bilan u o'g'lini boshqa bezovta qilmaydi, deb o'ylabdi. Chun Su shamanning oldiga bir kishini yuboribdi, u esa yo'l-yo'lakay ko'ringanlarning hammasiga bu haqida gapirib beribdi. Buni eshitgan Kon Channing ruhi qattiq g'azablanib, amakisiga shunday debdi: «Amaki, agarda Siz menga zarar yetkazsangiz, men ham sizni ayab o'tirmayman». Shu zahoti Kon Chimning oyoqlari mayishib, tili osilib qolibdi. Burni esa tepaga ko'tarilib, quloqlari orqaga qarab cho'zilibdi. Kon Chimning otasi qattiq qo'rqib ketib, baqira boshlabdi: «Men shamanni chaqirmayman». Oradan biroz vaqt o'tib hamma tinchlanibdi va hamma narsa o'z o'rniga tushibdi.

Bir kuni Sol Kon Chan o'zining Sol Vo va Yun Cha Sin ismli qarindoshlarini chaqiribdi. Ikkovlon kelishibdi, ammo Kon Channing ruhi kelmabdi. Kon Chim o'zining akalariga xastaligi va tez orada bu dunyoni tark etishini aytibdi. U boshini yostiqqa qo'yib achchiq-achchiq yig'labdi, ammo Kon Channing ruhi kelmabdi. Kon Chim arz qilishda davom etibdi: «Otam Kon Channing ruhi hech qachon meni tark etmaydi, degan edi». Kon Chim kerishib o'rnidan turibdi va to'shakka o'tiribdi. Akalariga qarab shunday debdi: «Men sizlarni besh yil davomida ko'rmadim, bu vaqt men uchun juda ham qayg'uli bo'ldi». Buni eshitib, akalari hayron bo'lishibdi. Gap boshqa inson ustida borayotgan ekan, ular undan o'zga dunyo haqida so'ray boshlashibdi.

Kon Chim o'z hikoyasini boshlabdi: «O'zga dunyo bu yerdan juda ham olisda, taxminan 40 li masofada dengiz bo'yida joylashgan. Ammo biz juda ham tez uchamiz, agar kechki soat sakkizda uchsak, soat o'n ikkilarda u yerda bo'lamiz. O'zga dunyo

darvozalari kechasi soat ikkida ochiladi. U yer Tanvol deb nomlanadi. Xitoy va boshqa yurtlarda o'lgan odamlar shu yerga tushadi. U yerda odamlar shunchalik ko'pki, ularni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bizning qirolni Pisamunchon deb atashadi. Inson u yerga borganida, undan hamma narsa haqida so'rashadi: otasonasi, akalari, opalari, qarindoshlari kimlar, shu bilan birga temir tayoq bilan urishadi, agar kaltaklardan qo'rqsang, kitobni ochib, sen haqingda ma'lumotlarni o'rgana boshlashadi. Agar sening isming kitobga yozilmagan bo'lsa, seni qo'yib yuborishadi, agar isming yozilgan bo'lsa, sening qo'llaringdan ushlab o'zlari bilan olib ketishadi. Meni ham o'limimdan so'ng tayoq bilan savashdi va o'zlari bilan olib ketishdi. Men ularga onam, singlim haqida gapirib berdim, ular meni yana savashmoqchi edi, ammo Sol Vi ismli qarindoshimizdan xat olishdi va meni qo'yib yuborishdi. Bizning Sol Vi amakimiz bu dunyoda katta amaldor bo'lgan, u dunyoda ham katta amal egasi.

O'zga dunyoda tartib shunaqa: agar inson bu dunyoda qirol kansleri bo'lsa, o'zga dunyoda ham qirol kansleri lavozimiga tayinlanadi. Agar sen bu dunyoda yaxshi ilm olgan bo'lsang, o'zga dunyoda senga muhim ishlarni topshirishadi va sen rohatfarog'atda yashaysan. Agar sen urushda qirolga sodiq bo'lib halok bo'lgan bo'lsang, o'zga dunyoda seni yuqori lavozimga tayinlashadi. Ammo sen qirol bo'lib, tartibsizliklarga yo'l qo'ygan bo'lsang, seni albatta do'zaxga tashlashadi. Agar bu dunyoda amaldor bo'lmasdan ko'p yaxshiliklar qilgan bo'lsang, senga yaxshi amal berishadi. Agar amaldor bo'lib, yomonliklar qilgan bo'lsang, o'zga dunyoda ko'p mehnat qilishga va azob tortishingga to'g'ri keladi. Agar amaldor bo'lib, odamlarga yashashlari uchun xalaqit berib, xiyonat va sotqinlik qilgan bo'lsang, kelib chiqishingga qaramasdan tegishli jazo olasan. Masalan, bizning Min Xu o'tli tanishimiz bu dunyoda ko'zga ko'rinarli ish qilmagan bo'lsa-da, to'g'ri yashagani uchun o'zga dunyoda yaxshi amal egasi. U yerda yana qirol Yemra bor. Uning hovlisi shunday hashamatliki, hatto xitoy qirolining hovlisi u bilan bellasha olmaydi. Qirol Yemrani chaqirishsa, barcha, qirol va mashhur insonlar kelib,

hujjatlarni yozib o'tirishadi. Men qirol oldida o'tirganlarga nazar tashlaganimda, Sol Vi Min Xularni ko'rdim.

Bir kuni Sonxva qirol Yemra qirol oldiga xizmatkorini yuborib, undan shuni iltimos qilibdi: «Men juda ham qadrlaydigan bir inson bor, uni bir yilga qo'yib yuborish mumkinmi?». Ammo qirol Yemra javob beribdi: «Bir yil — haddan tashqari uzoq muddat, men faqat bir necha oyga bo'shatishim mumkin». Ammo qirol Sonxva o'zga dunyo qirol Yemradan bu odamni yana bir yilga qo'yib yuborishni o'tinib iltimos qilibdi. Qirol Yemra: «Tushunaman, sen qirolsan, ammo insonning hayoti va o'limi mening qo'limda. Shunday ekan, bir oydan keyin mening xizmatkorlarim sen iltimos qilgan odamni ushlab mening oldimga olib kelishadi». Matn uzilib qolgan.

Qissa xitoy iyeroglifida yozilgan va koreys tiliga o'girilgan.

Mazkur qissa 1511-yillarda yozilgan, o'sha davr amaldorlarini tanqid qilgani uchun yoqib yuborilgan.

1997-yili matndan parcha topilgan.





2. *Klassik koreys qissasi – 1000*

XO GYUN (1569–1618)

XON GILDON HAQIDA QISSA

BIRINCHI BOB

Rivoyatlarga qaraganda, qadim zamonlarda, podsho Sedjon davrida ismi Xon, nasabi esa Mo bo'lgan bir amaldor yashagan ekan.

Xon mashhur aslzoda zotlar urug'idan ekan. O'smirlik paytidayoq u davlat imtihonlaridan o'tib, xizmatlari evaziga unvonlar palatasi boshlig'i lavozimiga erishibdi. Xonning ismi barcha shaharlar va qishloqlarga tarqalibdi, u yaxshi o'g'il va qirolning sodiq xizmatkori sifatida dong taratibdi.

Xonning ikkita o'g'li bor ekan. To'ng'ichining ismi Inxyon ekan. Uning onasi, Xonning qonuniy xotini Lyu urug'idan ekan. Kenja o'g'li Gildon oqsoch qiz Chxunsomdan tug'ilgan ekan.

Gildon tug'ilishidan oldin otasining tushida moniaqaldiraq guldirab, chaqin chaqibdi va osmondan uning ustiga pahmoq soqollari shamolda hilpirayotgan yashil ajdar tushib kela boshlabdi. Xon Mo uyqudan cho'chib uyg'onibdi. Ajoyib tush, chumolilar podsholigi Nanke haqidagi tushga o'xshash! U quvonch bilan: «Tushda ajdar ko'rsang, yaxshi o'g'il ko'rasan!», deb o'ylabdi va xushxabarni xotiniga yetkazgani uyning ayollar qismiga qarab yuguribdi.

Lyu xonim uni o'rnidan turib qarshi olibdi. Xon Mo uning oppoq qo'llaridan ushlabdi va shu zahoti uni bag'riga bosib o'pmoqchi bo'libdi. Ammo Lyu xonim uni o'zidan nari itaribdi:

— Kap-katta odamsiz-u, o'zingizni xuddi yosh boladay tutasiz-a!

Xon Mo xotinining oldidan xafa bo'lib chiqibdi. Shu vaqt oqsoch qiz Chxunsom unga choy olib kelibdi. Qizning husniga asir bo'lgan Xon Mo shu zahoti uni qo'shni xonaga olib kirib ketibdi. O'sha payt Chxunsomning yoshi o'n sakkizda bo'lgan ekan.

Shu kundan e'tiboran u ostonaga hatlab ko'chaga chiqmabdi va begona erkaklarga hatto ko'z qirini ham tashlamabdi. Janobga bu juda ma'qul kelibdi va u qizni kanizak darajasiga ko'taribdi. Oradan roppa-rosa o'n oy o'tgach, Chxunsom qo'chqordek o'g'il ko'ribdi. Bundan otasi behad xursand bo'libdi va bunday ajoyib o'g'il qonuniy xotinidan tug'ilmaganiga afsus qilibdi.

Gildon kun sayin emas, balki soat sayin o'sibdi va sakkiz yoshida aql bobida hammadan o'zib ketibdi. Faqat nasl-nasabining pastligi unga otasini ota, akasini esa aka deb chaqirish imkonini bermas ekan. Xayoli chalg'ib, bu taqiqni buzsa, unga shu zahoti xatosini ko'rsatishar ekan. Hatto xizmatkorlar ham uni zarracha hurmat qilishmas ekan.

Kuz kunlarining birida, osmonda oy barq urgan, yengil shabada esayotgan bir pallada Gildon kitob o'qib o'tirgan ekan. Bir vaqt u kitobdan bosh ko'tarib qattiq xo'rsinibdi va:

— Erkak bo'lib tug'ilgan bo'lsam-da, Konfutsiy va Mensziga ergashish mening peshonamga yozilmagan, — debdi. — Undan ko'ra harb ishini o'rganganim yaxshi emasmi! Harbiy sarkarda bo'laman. Qarshimda Sharq tiz cho'kadi, G'arb bosh egadi. Bu davlat uchun ulkan jasorat, Gildonga esa — shuhrat keltiradi... Erkak kishiga shunday jasoratlar loyiq! Biroq men nima uchun yolg'izman?.. Mening otam va akam bor, lekin otamni ota, akamni aka deyishga haqqim yo'q. Bu dunyoda bundan ortiq baxtsizlik bormikan?!

Gildon hovliga chiqibdi va qilichbozlikni mashq qila boshlabdi.

Shu tunda Xon Mo oy nuriga mahliyo bo'lib turganda o'g'liga ko'zi tushibdi.

— Nega uxlamayapsan? — deb so'rabdi u.

— Oy nuriga mahliyo bo‘lib turgan edim, — deb javob beribdi Gildon tavoze bilan. — «Osmon minglab narsalar va jonzotlarni yaratgan, u yaratgan jonzotlarning eng oliysi — inson». Meni esa hech kim qadrlamaydi. O‘zi men insonmanmi?

— Bu qanaqa gap bo‘ldi?! — debdi otasi jahli chiqib. Gildon davom etibdi:

— Meni shu narsa tashvishga soladi: men sizning o‘g‘lingizman, lekin sizni ota deb, akamni esa aka deb atashga haqli emasman. Men inson deb atalishga loyiqmanmi?! — Uning ko‘z yoshi ko‘ylagiga oqib tushibdi.

Otasi Gildonning gapini eshitibdi, lekin uni yupatib o‘tirmabdi, bunga jur‘ati yetmabdi:

— Oilamda nasl-nasabi past bitta sen emassan. Bu qanday shakkoklik bo‘ldi? Bu haqda boshqa og‘iz ocha ko‘rma!

Gildon ovoz chiqarmay yig‘lashda davom etibdi. «Jo‘na bu yerdan», degan so‘zlarni eshitgach esa, o‘z xonasiga kirib ketibdi va hasrati yanada kuchayibdi.

Ha, u iqtidorli, aqlli, mehribon va rahmdil, lekin qalbida orom, uyqusida esa halovat yo‘q.

Bir kuni Gildon onasining oldiga kelibdi va unga shunday debdi:

— O‘tgan hayotda taqdir menga sizning o‘g‘lingiz bo‘lishni buyurgan ekan. Bu men uchun katta baxt. Biroq men siz bilan xayrlashishga majburman. Taqdir bilan bahslashish qiyin. Onajon, nobakor o‘g‘lingiz haqida g‘am chekmang va o‘z noyob sog‘lig‘ingizni asrang.

Onasi tashvishga tushibdi:

— Uyimizda nasl-nasabi past faqat sen emassan-ku, yuragimni ezib bunaqa gaplarni gapirishning nima keragi bor?

O‘g‘li javob beribdi:

— Chan Chxunning o‘g‘li Kilsan ham nasl-nasabi past bo‘lgan. U onasini tark etib, Unbonsan tog‘lariga ketgan, u yerda Yo‘l haqidagi buyuk ta‘limotni o‘zlashtirgan va avlodlar uning ismini hurmat bilan yod etishadi. Men ham shu yo‘lni tanladim. Siz hech qayg‘urmang va keyin nima bo‘lishini kuting. Meni faqat bir narsa tashvishga solyapti: koksanlik xola nima uchundir menga

yoqinqiramay turibdi. Otamning unga bo'lgan e'tibori kundan kunga kuchayib boryapti. U bizga biror yomonlik qilmasa edi, deb qo'rqaman. Men haqimda esa siz sira tashvish chekmang.

Bu gapdan onasi battar g'amgin tortib qolibdi.

Darhaqiqat, janobning Chxoran — Ertanilufar ismli sevikli kanizagi bor ekan. Bir paytlar Koksanda uni hamma *kisen* sifatida bilar ekan, shuning uchun ham u koksanlik xola degan laqabni olgan ekan. U juda fe'li buzuvchi xotin ekan. O'ziga yoqmagan har kimni o'sha zahoti janob oldida yomonotlik qilarkan. Uyda hamma yomonlik shu ayoldan tarqalar ekan. Hovlidagi xizmatkorlar uni yomon ko'risharkan. Chxunsom o'g'il ko'rib, bu janobga ko'p ma'qul bo'lganidan so'ng, Chxoran hasaddan Xon Gildonning boshiga yetishga qaror qilibdi.

Bir kuni Chxoran o'z huzuriga shaman xotinni chorlab, unga shunday debdi:

— Shu bolani yo'q qilmaguncha tinchimayman. Istagingni bajo keltirsang, xizimating evaziga yaxshi mukofot olasan.

— Poytaxtning Sharqiy darvozasidan chiqqanda bir folbin yashaydi, — deb maslahat beribdi shaman xotin. — Odamning yuziga qarab u haqda hamma narsani gapirib beradi: nima bo'lgani va nima bo'lishini, nima baxt va nima kulfat keltirishini. Unga o'z istagingni aytgin-da, keyin janobning oldiga olib kel. Folbinning bashoratlari uni vahimaga soladi va bu dunyodan o'g'lining izini quritishni uning o'zi istab qoladi. Istagingni bajo keltirishning yo'li shu. Ishqilib, omadimizni bersin!

Chxoranga uning maslahati ma'qul kelibdi va xursand bo'lganidan unga ellik lyan kumush hadya etibdi, oldiga tez-tez kelib turishni taklif qilibdi. Shaman uning huzuridan xursand bo'lib chiqibdi.

Ertasiga Xon Mo uyning ayollar qismida xotini — Lyu xonim bilan kenja o'g'li haqida gaplashib, uning iste'dodlarini maqtab o'tirishgan ekan, qo'qqisdan xonaga bir ayol kirib kelibdi va janobga bosh egib ta'zim qilibdi. Janob hayron bo'libdi:

— Kimsan? Nega kelding?

— Men bir faqir folbinman. Huzuringizga kirdim.

Xon Mo shu zahoti Gildonni nima kutayotganini bilmogchi bo'libdi. Uni chaqirishibdi va folbinga ko'rsatishibdi. Folbin:

— O'g'lingiz oddiy odam emasligini ko'ryapman. Ammo uning nasl-nasabi past... Bor gap shu... — debdi u xijolatomuz bir ohangda.

Xon Moning qiziqishi ortib:

— Keyin-chi, keyin? Oxirigacha gapir! — deb buyuribdi.

Folbin biroz ikkilanib turib, so'ng davom etibdi:

— O'g'lingizning yuzidan uning bag'rikengligi va mehribonligi ko'rinib turibdi. Qoshlarining o'rtasida men tog'larimiz va daryolarimiz ruhini aniq ko'ryapman. Yuz ko'rinishi podsho-larnikidek. Ammo u ulg'aygach, butun urug'ingizning boshiga yetadi. Sizdan o'tinib so'rayman, bu haqda o'ylab ko'ring!

Xon Mo xayol surib qolibdi, ammo folbinga:

— Taqdirdan qochib qutulolmaysan, — debdi, so'ng unga: — Bu gapni boshqa hech kimga aytma! — deb buyuribdi va xizmatining haqini to'lab, qo'yib yuboribdi.

Shu kundan e'tiboran Xon Mo Gildonni tog'dagi xilvat uyga joylashtiribdi va uning har bir qadamini kuzatishni buyuribdi.

Gildonning yuragida g'am-hasrat yanada kuchayibdi. U «Olti reja» va «Uch taktika» bo'yicha harb ishini, yulduzlar harakati va geografiyani o'rgana boshlabdi.

Bu haqda eshitgan Xon Mo tashvishga tushibdi:

— Bu nobakorning qobiliyati zo'r. Uzoqni ko'zlagan rejalariga yo'l ochib bersam, folbinning bashorati o'ngidan kelishi hech gap emas!

Janobning yuragini qo'rquv bosibdi.

Chxoran ming tillaga Txikche ismli qotilni yollabdi, janobning qulog'iga esa tinimsiz quya boshlabdi:

— Juda zo'r folbin-da! Odamning ichidagini ko'radi! Gildonni nima qilishga qaror qildingiz? Undan tezroq xalos bo'lganimiz yaxshi emasmi?

Biroq janobning qovog'i osilibdi:

— Bu — mening tashvishim. Behuda gaplarni gapirma!

Shu so'zlarni aytib, u Chxoranni o'z oldidan haydab solibdi.

Tinchi va uyquda halovatl yo'qolgan Xon Mo kasal bo'lib yotib qolibdi. Xotini va to'ng'ich o'g'li Inxyon tashvishga tushishibdi, Chxoran esa eski ashulasini boshlabdi:

— Janobning tobi qochdi. Hammasiga Gildon sababchi. Menimcha, bu bola narigi dunyoga ravona bo'lmaguncha, janob tuzalmasa kerak. Shunda urug'imizning tinchini hech kim buzmaydi. Bu haqda o'ylab ko'ringlar!

— Odamlar o'rtasidagi bu munosabatlar qadimda belgilangan va ularni buzishga hech kimning haqqi yo'q, — deb e'tiroz bildiribdi Lyu xonim.

Chxoran esa o'z gapini uqtirishda davom etibdi:

— Txikche degan bir kimsa bor emish. Odam o'ldirish uning uchun qo'lini o'z cho'ntagiga tiqishdek bir gap ekan. Ming tilla evaziga u qorong'i tunda bolani narigi dunyoga jo'natadi. Janob bu haqda eshitganda, kech bo'ladi. Yaxshilab o'ylab ko'ringlar!

Lyu xonim va to'ng'ich o'g'il ko'zlari yoshlanib javob berishibdi:

— Biz bunday ishga qaror qila olmaymiz, lekin davlat ravnaqi, otamiz va erimizning hayoti, Xonlar urug'ini asrab qolish uchun, mayli, bilganingni qil.

Chxoran bu gapni eshitib tanasiga sig'may sevinibdi. Oldiga Txikcheni chaqirib, unga shu tunning o'zida Gildonni o'ldirishni buyuribdi. Qotil qorong'i tushishini kuta boshlabdi.

Bu vaqt Gildon o'ziga bo'lgan yomon munosabatdan hanuz g'am chekayotgan ekan. Biroq, nima ham qilardi, axir, otasining irodasiga qarshi bora olmaydi-ku. Gildon uyqusi kelmay, sham yorug'ida «O'zgarishlar kitobi»ni mutolaa qila boshlabdi. Bir vaqt qarg'aning qag'illashi qulog'iga chalinibdi. Gildon hayron bo'libdi: «Qarg'a odatda tundan qochar edi, hozir esa sayrayapti. Bu kulfat belgisi!»

U yana «O'zgarishlar kitobi» ustida muk tushib, sakkiz trigrammani o'rgana boshlabdi. Biroq, shu zahoti sakrab o'rnidan turibdi-da, xontaxtani o'zidan nari itarib, duo o'qibdi va ko'rinmas odamga aylanibdi. Shu vaqt eshik ohista ochilibdi va xonaga xanjar bilan qurollangan bir kimsa kiribdi.

Ko'rinmas Gildon duo o'qibdi. Shu zahoti bo'ron turibdi, uy g'oyib bo'libdi va qotilning ko'z o'ngida tog'lardagi ulug'vor bog' manzarasi paydo bo'libdi. Qotil qo'rqib ketibdi, Gildon afsungar ekanini tushunibdi va xanjarini qiniga yashirib, bu yerdan tuyog'ini shiqillatmoqchi bo'libdi. Ammo baland tog'lar uning yo'lini to'shibdi. Txikche qo'rquvdan o'zini yo'qotibdi.

Shu vaqt qayerdandir nay ovozi eshitiilibdi. Qotil dadillashib atrofga alanglabdi. Qarasa, eshak mingan bola kelayotgan emish. Bola uning oldiga yetib kelgach, nay chalishdan to'xtabdi va unga qarab:

— Meni nima uchun o'ldirmoqchi bo'lding?! Osmon seni jazolaydi! — debdi va shu zahoti duo o'qibdi.

Osmonni qora bulutlar bosibdi, yomg'ir yog'a boshlabdi, osmondan yerga tosh va qum yog'ilibdi. Shunda Txikche o'z qarshisida Gildon turganini tushunibdi.

«Afsungar bo'lsa ham, menga kuchi yetmaydi!», deb o'ylabdi qotil va xanjarini qinidan chiqarib, quyidagi so'zlar bilan olg'a tashlanibdi:

— Meni aylama! Bu hammasi Chxoranning ishi, u shainan xotin va folbinni yordamga chorlab, seni o'ldirish kerakligini janobning qulog'iga quydi.

Gildon g'azabini zo'rg'a tiyib, yana duo o'qibdi va Txikchedan xanjarni tortib olibdi.

— Sen oltinga uchib odam o'ldirmoqchi bo'ldingmi? Bunday yovuz odamlarni shafqatsiz qatl qiladilar!

Uning qilichi qotilning boshini tanasidan judo etibdi. Txikchening boshi polga yumalab tushibdi. Gildon g'azabi qaynab shu tunning o'zidayoq shaman xotin va folbinni izlab topibdi, ularni Txikchening murdasi yotgan xonasiga sudrab kelibdi va:

— Senlar Chxoran bilan birga meni, aybsiz bir odamni o'ldirmoqchi bo'libsangiz, buning jazosi shu! — debdi va ularga tashlanibdi.

Uch yovuzning jazosini bergach, Gildon osmonga qarabdi. Tong otib kelayotgan ekan. Kumush daryo g'arbga og'ib borar ekan. Oy nuri tarqalibdi va muzday shabada esa boshlabdi. Tabiat xuddi Gildonning ruhiy iztiroblarini yumshatmoqchidek evrila

boshlabdi. Gildon jahl ustida Chxoranni ham o'ldirmoqchi bo'lib turgan ekan, biroq, otasi uni yaxshi ko'rishini o'ylab, qilichni tashlabdi. U ona yurtini tark etishga qaror qilibdi va otasining huzuriga vidolashish uchun yo'l olibdi.

Otasi kimdir deraza ostida turganini payqab, uni ochibdi va Gildonga ko'zi tushibdi.

— Ko'chada tun, sen bo'lsang uxlamasdan derazalar ostida daydib yuribsan. Senga nima bo'ldi?

Gildon otasining qarshisida tiz cho'kibdi va shunday debdi:

— O'zimni voyaga yetkazgan ota-onam menga qilgan yaxshiliklarining mingdan birini ularga qaytarishni orzu qilgan edim, afsuski, bu peshonamga yozilmagan ekan. Menga tuhmat toshini otishdi va faqat mo'jiza tufayli men tirik qoldim. Sizga xizmat qilish menga nasib etmagan ko'rinadi. Endi biz uzoq vaqt ko'rishmaymiz va men siz bilan xayrlashgani keldim.

— Boshingga qanday kulfat tushdi? Sen hali bolasan-ku, uyni tark etmoqchi bo'lyapsan. Qayerga otlanyapsan? — deb so'rabdi Xon Mo.

— Ertalab hammasini bilib olasiz... Mening taqdirim osmonda haydalayotgan bulutni eslatadi. Quruq tuhmatdan xalos bo'lish uchun nima qilishim kerak? — U gapini davom ettirishga holi yetmay, ko'zlari yoshlanibdi.

Xon Mo o'g'lini ovuta boshlabdi:

— Ko'nglingga qanchalik ozor yetganini men tushunaman. Mayli, bundan buyon meni ota, akang Inxyonni esa aka deb chaqir.

Gildon otasiga ikki marta ta'zim qilibdi va:

— Otajon, siz ko'nglimga malham bo'ldingiz, endi menga hech qanday o'lim cho't emas. Umringiz uzoq bo'lsin, baxtli bo'ling.

Xon Mo o'g'lini ahddidan qaytara olmabdi va unga omonlik tilabdi.

Gildon onasi bilan xayrlashgani kiribdi:

— Onajon, men sizni tark etyapman, lekin vaqt keladi va men yana siz haqingizda g'amxo'rlik qilaman. O'zingizni asrang!

Chxunsomning ko'ngli yomon ish bo'lganini sezibdi. U o'g'lining qo'llarini bag'riga bosib:

— Qayerga ketyapsan? Axir biz bir-birimizga qattiq bog'lanib qolganmiz, har doim bir tom ostida yashaganmiz, endi sen noma'lum bir joyga ketyapsan! Tezroq qaytib kel! Ona qalbi ayriliqqa dosh bera olarmikan!

Gildon onasiga ikki marta ta'zim qilibdi va uyni tark etibdi. U shahar darvozasidan tashqariga chiqibdi. Atrofdagi cho'qqilarini bulutlar chulg'agan tog'lar yastangan emish. Gildon boshi oqqan tomonga qarab yo'l olibdi.

Bularning hammasi naqadar qayg'uli, shunday emasmi?!

Shu orada Txikchedan darak bo'lmagani uchun Chxoran hid olib kelgani odam yuboribdi. U kelib Gildonning qorasi o'chganini, Txikche, folbin va shaman xotin uning xonasida o'lib yotishganini xabar qilibdi. Chxoran qo'rqib ketibdi va oyog'ini qo'lga olib Lyu xonimning oldiga chopibdi, bo'lgan voqeani unga gapirib beribdi.

Lyu xonimning ham qo'rquvdan rangi o'chibdi. Shu zahotiyog Inxyonga chopar yuboribdi. Bo'lgan voqea haqida janobga xabar berishibdi. Janob ham qo'rquvdan ovozi titrab:

— Gildon kechasi oldimga ko'zi yoshlanib xayrlashgani keldi. O'shanda bu menga g'alati bo'lib tuyulgan edi. Gap bunda ekan-da! — debdi.

Inxyon bo'lak chidayolmay, otasiga Chxoranning fitnasi haqida gapirib beribdi. Xon Moning g'azabi qo'zibdi va Chxoranni uydan haydab yuboribdi, xizmatkorlarga murdalarni bu yerdan gum qilib, bo'lgan voqea haqida hech kimga og'iz ochmaslikni buyuribdi.

Otasi va onasi bilan xayrlashganidan so'ng Gildon o'zi tug'ilib o'sgan uyni tark etibdi va dunyo bo'ylab keza boshlabdi. Kunlarning birida u juda go'zal bir joyga daydib borib qolibdi. Boshpana qidirayotib bir g'orda tosh devorga ko'zi tushibdi. Gildon eshikni ohista ochib, ichkariga kiribdi va qarasa, qarshisida keng vodiy yastanib yotgan emish. Unda taroqning tishlaridek uylar zich joylashgan, atrof to'la odam, xursandchilik avjida, bazm-u jamshid bo'layotgan ekan.

Ma'lum bo'lishicha, bu yerda qaroqchilar yashashar ekan. Ular Gildonga ko'z tashlab, u oddiy odam emasligini tushunishibdi va uni iliq qarshi olishibdi:

— Siz kimsiz va huzurimizga nechuk tashrif buyurdingiz? Biz bu yerda hammamiz botir yigitlarmiz, lekin o'zimizga yo'lboshchini sira tanlay olmayapmiz. Agar kuchingiz bo'lsa va biz bilan qolishni istasangiz, anavi xarsangtoshni ko'tarishga harakat qilib ko'ring!

Gildonga bu gap ma'qul kelibdi va u ikki marta ta'zim qilib, javob beribdi:

— Men poytaxtdanman, unvonlar palatasi boshlig'i va uning oqsochining o'g'liman. Ismim Gildon. Tug'ilib o'sgan uyimda xo'rliklarga chidayolmay, men u yerdan bosh olib chiqib ketdim va maqsadsiz daydib shu yerga kelib qoldim. Siz menga o'z yo'lboshchingiz bo'lishni taklif qilyapsizmi? Buning uchun sizlardan behad minnatdorman. Mard odamga qandaydir bir toshni ko'tarish cho't bo'lmasa kerak. — Shu so'zlar bilan u xarsangtoshni ko'taribdi va uni bir necha qadam nariga olib borib tashlabdi. Xarsangtosh juda og'ir, ming kin kelar ekan!

Qaroqchilar xursand bo'lishibdi, uni tabriklashibdi:

— Siz chindan ham pahlavon ekansiz! Ichimizda, bir necha ming kishining orasida, hech kim bu toshni ko'tara olmagan edi. Bugun Osmon bizga muruvvat ko'rsatdi va yo'lboshchi hadya etdi.

Shu zahotiyuq ular Gildonni to'rga o'tqizishibdi, may keltirishibdi. Qaroqchilar oq ot so'yib, Gildonga sodiqlikka qasam ichishibdi, so'ng bir-birlarini tabriklashibdi. Bazm-u jamshid yarim kechagacha davom etibdi.

Keyingi kundan boshlab yigitlar Gildon bilan birga harb san'atini tinimsiz o'rganishibdi. Oradan oylar o'tibdi va ularning harbiy mahorati eng yuksak darajaga yetibdi.

Bir kuni qaroqchilar shunday deyishibdi:

— Xapchxon uyezdidagi Xeinsa monastirini bosish va uning boyligini qo'lga kiritish niyati tug'ilgan edi, lekin ishni qanday boshlashga sira aqlimiz yetmayapti. Siz bunga nima deysiz?

— Yaqinda otryad yuboraman, sizlar faqat mening aytganimni bajaringlar, — deb javob beribdi Gildon.

U yashil libosda, belida qora kamar, eshakda yo'lga chiqibdi va ketayotib qaroqchilarga:

— Monastirga borib hid olib kelaman, — debdi.

Gildon monastirga kelibdi va uning boshlig'ini chaqirishni buyuribdi.

— Men poytaxtdan keldim, unvonlar palatasi boshlig'ining o'g'liman. Bu yerga sizlardan ilm o'rgangani keldim. Ertaga sizlarga yigirma *sok* guruch yuborishni buyuraman, sizlar yegulik tayyorlang va ziyofat tashkil etamiz, — debdi Gildon va fursatdan foydalanib monastirdagi boyliklarni ko'rib olibdi.

Gildon rohiblar bilan kelishgach, qaytib ketibdi. Rohiblar bo'lg'usi ziyofat daragini eshitib behad shod bo'lishibdi, Gildon esa, o'z yigitlarining oldiga qaytib kelgach, eng avvalo va'da qilingan guruchni monastirga jo'natibdi, so'ng o'z rejasini ularga tushuntira boshlabdi.

Belgilangan kunda Gildon yigitlari bilan birga Xeinsa monastiriga yo'l olibdi. Rohiblar uni hurmat bilan kutib olishibdi. Gildon monastir boshlig'idan guruch yetdimi deb so'rabdi.

— Qanday qilib yetmasin, sizdan behad minnatdormiz! — deb javob beribdi monastir boshlig'i.

Gildon to'rda o'tirib rohiblarni may bilan mehmon qilibdi. Ular behad minnatdor bo'lishibdi. Nihoyat, Gildonning o'zi ham taomga qo'l uribdi. Kishi bilmas bir siqim qum olib, og'ziga solibdi va chaynay boshlabdi, tishlari orasidan qumning g'ijirlagan ovozi eshutilibdi. Buni payqagan rohiblar qo'rqib ketishibdi va o'zlarini oqlay boshlashibdi. Gildon esa o'zini jahli chiqqan qilib ko'rsatibdi:

— Hoy, odamlarni nima bilan boqyapsizlar?! Buni sizlar ataylab, meni haqorat qilish uchun qilgansizlar! — Shu so'zlarni aytib, u rohiblarning barchasini arqon bilan bog'lash va bir qator qilib o'tqizishni buyuribdi. Rohiblar qo'rquvdan o'zlarini yo'qotib qo'yishibdi. Bir zumda yuzlab yigitlar paydo bo'lishibdi va monastirdagi bor boyliklarni supurib ketishibdi. Rohiblar buni bo'kirib tomosha qilishdan boshqa chora topisholmabdi.

Shu payt ish bilan ketgan xizmatkor bola monastirga qaytib kelib qolibdi. U rohiblar boshiga tushgan kulfatni ko'rib, uyezd mahkamasiga bu haqda xabar bergani yuguribdi. Uyezd hokimi qaroqchilarni ushlagani o'z mirshablarini yuboribdi. Yuzlab mirshablar qaroqchilarni quvib ketishibdi. Bir vaqt qarashsa, qalpoq va qora rido kiygan bir rohib qoya ustida turib ularga baqirayotgan emish:

— Qaroqchilar shimoliy yo'ldan ho'v o'sha yoqqa qarab ketishdi! Ularni tezroq ushlanglar!

Mirshablar shimolga, rohib ko'rsatgan tomonga burilishibdi va o'sha tomonga qarab bo'rondek yopirilishibdi.

Qorong'i tusha boshlabdi. Mirshablar qaroqchilarni quvib yetolmay, orqaga qaytishibdi.

Qoya ustida turgan rohib Gildon ekan. Qaroqchilarni katta yo'ldan janubga jo'natgach, u rohib libosini kiyibdi va mirshablarni aldabdi. Shundan so'ng omon-eson qaroqchilar turgan joyga, vodiya yetib olibdi.

O'g'irlangan boyliklarni allaqachon joy-joyiga qo'ygan qaroqchilar Gildonni uning sha'niga hamd-u sanolar aytib qarshi olishibdi.

— Yo'lboshchi birinchi navbatda ustomon bo'lishi kerak! — debdi kulib Gildon.

Shundan so'ng Gildon va uning yigitlarini «kambag'allarning himoyachilari» deb atay boshlashibdi.

«Kambag'allarning himoyachilari» Koreyaning barcha sakkiz provinsiyasida ish ko'rishar, nohaq yo'llar bilan topilgan boyliklarni tortib olishar, kambag'allarga yordam berishar ekan. Ammo oddiy xalqqa ozor yetkazishmas, davlat mulkiga tegishmas, adolat bilan ish ko'rishar ekan.

Bir kuni Gildon o'z yigitlarini to'plabdi va ularga e'lon qilibdi:

— Gubernator Xamgyondo — ochko'z odam. U xalqni ayovsiz talayapti, odamlar qashshoq yashashyapti. Biz buni shunday qoldira olmaymiz. — U yigitlariga yakka-yakka bo'lib shaharga yo'l olishni buyuribdi.

Kelishilgan kunda Janubiy darvoza ortida yong'in chiqibdi. Gubernator qo'rqib ketibdi va shahar ahliga uni o'chirishni

buyuribdi. Past unvonli mulozimlar va oddiy xalq yong'in chiqqan joyga qarab yugurishibdi. Shu vaqt Gildonning yigitlari shaharga bostirib kirishibdi, barcha omborlarni ochishibdi, u yerdagi guruch va qurol-aslahani aravalarga ortib, shaharni Shimoliy darvoza orqali tark etishibdi.

Shahar olov ustidagi doshqozondek qaynay boshiabdi. Sarsimada qolgan gubernator nima bo'lganini tushunmas emish. Tong otgach, don va qurol-aslaha omborlari bo'shab qolgani ayon bo'libdi. Gubernator qo'rqib ketibdi va qaroqchilarni nima qilib bo'lmasin ushiashga qaror qilibdi.

Shu orada Shimoliy darvozada quyidagi bitik paydo bo'libdi: «Don va qurol-aslahani «kambag'allarning himoyachilari» yo'l-boshchisi Gildon olib ketdi».

Gubernator qaroqchilarni ushlagani mirshablarni yuboribdi.

Gildonning yigitlari omborlardagi bor boylikni olib chiqib ketishgach, u izlaridan quvib kelayotgan mirshablar yetib olishmasligi uchun o'zining afsungarlik qobiliyatini ishga solibdi va hammasi yaxshi tugabdi.

Gildon yana odamlarini o'z huzuriga chorlabdi:

— Biz Xeinsa monastirining boyliklarini supurib keldik, gubernator Xamgyondoning omborlarini ship-shiydam qildik. Bu hammayoqqa ovoza bo'ldi. Mening ismim qidiruv mahkamasining darvozasiga yozib qo'yilgan. Bunaqada boshdan ayrilishim hech gap emas. Men bir narsani o'yladim, ko'ringlar! — Shu so'zlarni aytib, u bir zumda somondan yettita tulum yasabdi. So'ng duo o'qib, ularga dam solgan ekan, tulumlarga jon bitibdi va qo'llarini qimirlatib g'o'ldiray boshlashibdi. Haqiqiy Gildon qayerdaligini farqlab bo'lmas emish!

Sakkiz provinsiyaning har biriga bittadan Gildon jo'nabdi, ularning har biriga yuztadan yigit ergashibdi. Haqiqiy Gildon qayerdaligining farqiga borib bo'lmas ekan.

Gildonlar butun davlat bo'ylab ish ko'ra boshlashibdi. Ba'zan bir tunning o'zida turli joylardagi omborlardan don izsiz g'oyib bo'lar, provinsiyadan poytaxt amaldorlariga yuborilgan sovg'a-salomlar yo'qolar ekan.

Davlatda tartib yo'qolibdi. Tartibsizliklardan odamlar tunda uxlashga qo'rqib qolishibdi, ko'chalarda harakat to'xtabdi. Gubernatorlar podsho nomiga yozgan xabarnomalarda shunday deyilgan ekan: «Qayerdan bino bo'lgani noma'lum Gildon ismli qaroqchi shamollar va bulutlarni boshqarib, barcha uyezdlardagi mol-mulkning o'zlashtirib oldi. Mollar poytaxtga yetib bormayapti. Uning bebobshliklarining cheki yo'q. Agar uni tez ushlamasak, oqibati nima bo'lishini hech kim bilmaydi! Qidiruv mahkamasiga bu qaroqchini ushlash to'g'risida ko'rsatma berishingizni so'raymiz».

Podsho bu xabarlardan taajjublanibdi va qidiruv mahkamasining o'ng va so'l boshliqlariga barcha provinsiyalardan xabarlar keltirishni buyuribdi. Ma'lum bo'libdiki, hamma joyda qaroqchilar yo'lboshchisining ismi Gildon ekan, sakkiz provinsiyaning hammasida bosqinchilik va talonchilik bir vaqtda sodir etilarkan.

Podshoning taajjubi oshibdi:

— Bu qaroqchi quvlik va abjirlikda hatto Chi-yudan ham o'zibdi-ku! Biroq, nima bo'lsa ham, ayni bir odam bir vaqtning o'zida sakkiz joyda qaroqchilik qilishini tasavvur qilib ham bo'lmaydi! Bu anoyi qaroqchiga o'xshamaydi, uni ushlash oson ish emas. Men sizlarga mirshablarni olib, Gildonni ushlab kelishni buyuraman!

Shunda so'l boshliq Li Xip oldinga chiqibdi:

— Men, kamtarin qulingiz, bu qaroqchini ushlab keltirishga harakat qilaman. Tashvish chekmang, podshohim! Bir sho'rtumshuq isyonchini ushlagani ikkalamizni qo'shin bilan birga yuborish shartmikan?!

Podsho uning fikriga qo'shilibdi va darhol yo'lga chiqishni buyuribdi. Li Xip ta'zim qilib chiqib ketibdi va o'sha zahoti katta bir otryad bilan yo'lga chiqibdi. Mirshablar Mungyonga yakka-yakka bo'lib borish va belgilangan kunda u yerda uchrashishga kelishib, to'rt yoqqa tarqalib ketishibdi va har biri o'z yo'lidan kelishilgan manzilga qarab jo'nashibdi. Li Xipning o'zi kiyimini o'zgartiribdi va bir nechta mirshab bilan birga yo'lga chiqibdi.

Ular yo'l yurishibdi, yo'l yursalar ham mo'l yurishibdi va kechqurun bir qovoqxonada dam olgani to'xtashibdi. Shu vaqt qovoqxona oldiga eshak mingan bir yigitcha kelibdi va ichkariga

kirib salom beribdi. Li Xip yigitchaning salomiga alik olibdi. Yigitcha kutilmaganda qattiq xo'rsinib, shunday debdi:

— «Osmon osti — podshoning mulki, podsho fuqarolari esa uning sodiq qullari bo'lishlari kerak», deyishadi. Men bir omi qishloqi bo'lsam-da, davlatimizga ichim achiydi.

— O'zi nima gap? — deb o'zini qiziqqan qilib ko'rsatibdi Li Xip.

— Gildon ismli qaroqchi barcha provinsiya bo'ylab izg'ib yuribdi, — deb davom etibdi yigitcha. — Ko'ngliga siqqan ishni qilyapti. Xalq tashvishda, uni esa hanuzgacha ushlagani yo'q. Qanday qilib g'azablanmaslik mumkin?!

— Mardligingiz yuzingizdan ko'rinib turibdi, — deb jonlanibdi Li Xip. — Gaplaringizdan podshoga sodiq ko'rinasiz. Keling, bu qaroqchini birgalashib ushiaymiz. Rozimisiz?

— Men uni ushlashni ko'pdan beri o'ylab yuribman, lekin ishonchli sherik topilmayotgan edi, — debdi yigit xursand bo'lib. — Sizni uchratganimdan behad baxtliman! Ammo siz nimaga qodir ekanligingiz menga qorong'u. Keling, biror ovloq joyga boramiz va kuch sinashib ko'ramiz.

Ular shunday joyni izlab jo'nashibdi. Yigitcha baland qoyaning chetiga o'mashib o'tirib olibdi va Li Xipga:

— Meni bu yerdan pastga itarib tushirishga harakat qiling, faqat qattiqroq itaring, — debdi.

Li Xip: «U qanchalik kuchli bo'lmasin, nahot itarib tushirilmayman?», deb xayolidan o'tkazibdi va yigitchani bor kuchi bilan pastga itaribdi. Yigitcha unga o'girilib:

— Siz haqiqiy pahlavon ekansiz! Men bir nechta odamni sinab ko'rdim, lekin ularning birortasi ham meni hatto joyimdan qo'zg'ata olmadi. Sizning zarbangizdan butun vujudim titrab ketdi. Endi orqamdan yuring, borib Gildonni ushlaymiz, — debdi va uni chuqur dara bo'ylab boshlab ketibdi.

«Men doim o'zimni kuchli deb o'ylar edim, lekin bu yigitning kuchi hayratga arzigulik ekan! Ishqilib, u meni aldamasa edi!», deb xayolidan o'tkazibdi Li Xip yo'l-yo'lakay.

Yigitcha esa birdan to'xtabdi va:

— Bu yer Gildon qaroqchilarining makoni. Men borib tekshirib kelaman, siz esa shu yerda poylab turing, — debdi.

Li Xipning ko'ngliga shubha oralabdi. Biroq, nachora — shu yerda qolishga majbur bo'libdi, faqat yigitchaga Gildonni asir olmasdan qaytmaslikni buyuribdi.

Bir vaqt Li Xip qarasa, dara bo'ylab qandaydir askarlar baqir-chaqir bilan yugurib kelishayotgan emish. U vahimaga tushibdi, lekin yashirinishga ulgurmabdi — uni ushlabdi va bog'lab qo'yishibdi.

— Sen qidiruv mahkamasining boshlig'i Li Xipmisan? Biz Do'zax podshosining amriga ko'ra seni ushlagani keldik.

Ular sho'rlik Li Xipni temir qamchilar bilan urib haydab ketishibdi. Li Xipning joni tanasidan chiqishiga, uning aqldan ayrilishiga sal qolibdi. So'ng uni tiz cho'ktirib o'tqizishibdi. Li Xip o'ziga kelgach, boshini ko'taribdi va hashamatli bir saroyda, sariq bandli ko'p sonli pahlavonlar qurshovida turganini, taxtda esa ularning hukmdori o'tirganini ko'ribdi.

U Li Xipga:

— Hoy, nobakor, Gildonni izlashga qanday hadding sig'di? Biz seni Shamollar oroliga, yer osti podsholigiga badarg'a qilamiz, — deb bo'kiribdi.

Li Xip bor kuchini jamlab, yalinibdi:

— Men hir bechora, aybsiz jabrlangan odamman!.. Sizdan o'tinaman, meni hayotdan mahrum etmang.

Bunga javoban taxtdan malomat va kulgi yog'ilibdi:

— Ko'zingni kattaroq och! Men — «kambag'allarning himoyachilari» yo'l boshchisi Xon Gildonman. Meni ovlayapsanmi?.. Nima ham derdim! Axir yashil libosdagi o'sha yigitcha men edim. Seni bu yerga aqling va kuchingni sinagani boshlab keldim. Mening qudratimga endi ishonch hosil qilgandirsan?

Gildon Li Xipning qo'lini yechishni buyuribdi, uni dasturxon atrofiga o'tqizibdi va may bilan mehmon qilar ekan:

— Bu yerda behuda salanglab yurishning keragi yo'q! Jo'na bu yerdan va meni ko'rganing haqida hech kimga og'iz ochma, aks holda holing voy bo'ladi! — debdi.

Gildon unga yana may quyib uzatibdi va soqchilarga Li Xipni qo'yib yuborishni buyuribdi.

«Bu tushimmi yoki o'ngimmi? Bu yerga men qanday tushib qoldim? — deya taajjublamibdi Li Xip. — Afsungar ekan-ku bu Gildon!»

U o'rnidan turmoqchi bo'lgan ekan, qo'llarini ham, oyoqlarini ham qimirlata olmabdi. Uzil-kesil hushiga kelgach, Li Xip charm qop ichida o'tirganini ko'ribdi. U amal-taqal qilib qop ichidan chiqibdi. Qarasa, yo'lda yana uchta shunday qop turgan emish. Qoplarning og'zini ochgan ekan, ularning ichidan Li Xip o'zi bilan birga olgan uch mirshab chiqibdi.

— Nima bo'ldi? Axir biz Mungyonda uchrashishga kelishgan edik-ku? Bu yerga qanday kelib qoldik?

Atrofga qarashsa, ular poytaxt yaqinidagi Pugak tog'ida turishgan emish. Poytaxtning o'zi ham bu yerdan kaftdek ko'rinib turgan emish.

— Sizlar bu yerga qanday kelib qoldinglar? — deb so'rabdi Li Xip.

— Biz tunash uchun joylashgan edik. Birdan, tushimizdami, o'ngimizdami — kuchli quyun turdi va bizni uchirib ketdi. Biz hushimizni yo'qotdik va bir lahzada shu yerda paydo bo'ldik. Bu qanday yuz berganini tushunganimiz yo'q.

Li Xip:

— Bunday ishlarga inson qodir emas. Lekin bu haqda birovga og'iz ochsa ko'rmanglar. Gildon — qo'lga tushmas qaroqchi, oddiy odamning unga kuchi yetishi gumon. Agar biz hozir poytaxtga qaytib boradigan bo'lsak, bizni jazolashadi. Yaxshisi, bir-ikki oy poylab turamiz.

Shu orada podsho Gildonni ushiash to'g'risidagi farmonlarni mamlakatning barcha burchaklariga yuboribdi. Gildon esa, afsungarlik yo'li bilan o'z qiyofasini o'zgartirib, dam katta amaldor kabi aravada yurar, dam ikki ot qo'shilgan aravada sayr qilar, dam podsho taftishchisi bo'lib yurt kezar ekan. Ochko'z amaldorlarni jazolagach, poytaxtga: «Buni Xon Gildon qildi», — deb xabar yuborarkan.

Podshoning sabr kosasi to'libdi:

— Bu isyonchi ko'ngli siqqan joyda sayr qilib yuribdi. Beboшлиklarining keti ko'rinmaydi. Uni ushlash oson ish emasga

o'xshaydi. Nima qilamiz? — deb murojaat etibdi u bir kuni o'z a'yonlariga.

Shu vaqt Gildon haqidagi yangi xabarlarini olib kelishibdi. Podsho ularni ko'zdan kechiribdi va darg'azab bo'lib a'yonlarga:

— Bu odam emas, iblis! Orangizda gap nimada ekanligini tushunishga qodir odam bormi? — debdi.

Shunda a'yonlardan biri bir qadam olg'a tashlabdi:

— Xon Gildon — unvonlar palatasi boshlig'i Xon Moning nikohsiz o'g'li va harbiy palata mulozimi Xon Inxyonning ukasi. Ularni chaqirib so'roq qilish kerak, balki shunda biror narsa oydinlashar.

— Nima uchun bu haqda menga endi xabar beryapsizlar?! — debdi podsho jahli chiqib.

O'sha zahotiyoq Xon Moni qidiruv mahkamasiga, Inxyonni esa — podshoning huzuriga keltirishibdi.

Shundan so'ng nima bo'lganini keyingi bobdan bilib olasiz.

IKKINCHI BOB

Shunday qilib, Xon Moni qidiruv mahkamasiga keltirishibdi, Inxyonni esa podshoning o'zi so'roq qilibdi.

Podsho unga shunday debdi:

— Qaroqchi Gildon sening o'gay ukang ekan. U davlatga shuncha zarar keltirishiga sen nima uchun yo'l qo'yib berding? Zudlik bilan uni ushla. Yo'qsa, taxtga sodiq mulozimning boshqalarga o'rnak bo'lguli o'g'li ekaningga ham qarab o'tirmayman! Buyruqni tez bajar! Gildon meni boshqa bezovta qilmasin.

Inxyon ta'zimga tiz cho'kib bidiray ketibdi:

— Ukam oqsochdan tug'ilgan. Bolaligidayoq qotillik qilib, uydan qochib ketgan. Necha yildirki, biz uning qorasini ko'rganimiz yo'q. Uni deb qari otam kasal bo'lib qoldi. Bu beadab bola siz, a'lo hazratga ham ko'p tashvishlar keltirdi. Men aybdorman, lekin sizdan o'tinib so'rayman — otamni avf eting. Agar menga uyga qaytish va otamga qarashga ijozat bersangiz, jonimni qurbon qilib bo'lsa ham Gildonni ushlayman va aybimizni yuvaman.

Podsho Xon Moni ozod qilishni buyuribdi, Inxyonni esa Kyonsando gubernatori etib tayinlabdi:

— Gubernator bo'lsang, qaroqchini tezroq ushlaysan. Senga bir yil muhiat beraman, — debdi.

Inxyon minnatdorlik izhori sifatida yuz marta qulluq qilib, podsho saroyini tark etibdi va shu zahotiyoq yo'lga chiqibdi. Kyonsandoga kelgach, u Gildonga murojaatnomalarni barcha uyezdlarga yopishtirib chiqishni buyuribdi. Ularda shunday deyilgan ekan:

«Odamzod tug'ilgandan boshlab besh amrga amal qilishi kerak. Toki bu amrlar buzilmas ekan, davlatda insoniylik va adolat, oqillik va hurmat hukm suradi. Kimki ularni tan olmasa, otasi va podshosiga itoat qilmasa, behurmat o'g'il va xoin fuqaroga aylansa, bunday odamga yerda joy yo'q. Gildon, uka, buni yod et va ma'murlarga taslim bo'l. Seni deb otamiz kasal bo'lib qoldi, podshohimiz o'z tinchini yo'qotdi. Sening qilmishlaringga toqat qilib bo'lmaydi. Meni Kyonsando hokimi etib tayinlagan podshohimiz seni ushlashni buyurdi, aks holda urug'imiz nomiga isnod tushadi. Umid qilamanki, sen tanangga o'ylab ko'rib, qismatingni yengillashtirish va urug'imiz sha'nini saqlab qolish uchun o'z aybingga iqror bo'lib kelasan.

O'ylab ko'r! Bu yo'ldan qayt!»

Murojaatnomalarni hammayoqqa yopishtirishni buyurgach, Inxyon barcha ishlarni chetga surib, Gildonning kelishini kuta boshlabdi. Kunlarning birida Inxyonning uyi oldiga eshak mingan bir yigitcha xizmatkorlar kuzatuvida kelibdi va o'zini qabul qilishni so'rabdi. Inxyon yigitchani uyga taklif qilibdi. Yigitcha kirgach, Inxyon sinchiklab tikilib, unda o'zi ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan Gildonni tanibdi. Inxyon xursand bo'lib ketibdi, a'yonlarini chiqarib yuborib, ukasining qo'lini siqibdi va ko'ziga yosh olibdi:

— Sen uydan bosh olib chiqib ketgan lahzadan boshlab sening tirikliging ham, o'likliging ham bizga qorong'i edi. Otam kasal bo'lib yotib qoldi. Sen o'zingni bebosh o'g'il sifatida namoyon etding, eng ayanchlisi — davlat uchun xavfli odamga aylanding. Otamizga nisbatan hurmatsizlik qilishga, podshoga sadoqatni buzishga qanday hadding sig'di? Boz ustiga, qaroqchilarga

qo'shilib, ko'p yomon ishlar qilibsana. Podshoning g'azabi qo'zib, menga seni ushlashni buyurdi. Sen o'ta og'ir jinoyat sodir etgan odam sifatida darhol poytaxtga jo'nashing va oliy hukmni kutishing kerak.

Gildon akasining gaplarini bosh egib tinglabdi.

— Men otam va akamni kulfatdan xalos etaman, — debdi u. — Boshqacha ish ko'ra olmayman. Agar avvalboshdan menga o'z otamni ota, akamni aka deb chaqirishga ijozat berilganda, ish shungacha borib yetgan bo'larmidi? Ammo endi o'tmish haqida gapirgandan foyda yo'q! Meni bog'la va poytaxtga jo'nat!

Inxylon g'am-anduh bilan poytaxtga xabar yuboribdi. Gildonning bo'yniga kangu, oyoqlariga esa kunda kiydirishibdi va ko'p sonli soqchilar ostida poytaxtga olib ketishibdi. Ular kecha-yu kunduz to'xtamasdan yurishibdi. Gildonning jasoratlari haqida eshitgan xalq uni ko'rgani yo'lga chiqibdi.

Shu orada yana yettita Gildonni ushlashibdi. Poytaxt mulozimlari va shaharliklar buni eshitib hayron bo'lishibdi, hammadan ko'ra ko'proq podsho taajjublanibdi: u saroy a'yonlarini yig'ib, so'roq o'tkazishga tayyor bo'lganda, uning oldiga sakkizta Gildonni olib kelishibdi. Sakkiz asirning hammasi darhol bir-biri bilan bahslashib, hatto yoqalashib ham ketishibdi:

— Men Gildon emasman, Gildon sensan!

— Yo'q, sensan!

Haqiqiy Gildon kimligini bilish amrimahol ekan! Bundan podshoning aqli shoshibdi va u Xon Moni olib kelishni buyuribdi:

— Ota o'z jigargo'shasini hammadan yaxshiroq taniydi, deyishadi. Shu sakkiz kishining orasida o'z Gildoningni top-chi!

Xon Mo yergacha egilib ta'zim qilibdi:

— Bundan osoni yo'q: uning chap oyog'ida xoli bor. — So'ng Gildonlarga o'girilib, ularni koyiy ketibdi: — Oldingda podsho va otang turibdi. Shuncha jinoyat sodir etding, endi hech bo'lmasa munosib jon ber!

Shu so'zlarni aytishi bilan Xon Moning og'zidan qon otilibdi va u behush yiqilibdi.

Podsho tashvishga tushibdi. U saroy tabiblarini chaqiribdi, lekin ularning harakatlari naf bermabdi.

Sakkiz Gildon esa yig'lay boshlashibdi, cho'ntaklariga qo'llarini tiqib, bittadan hapdori chiqarishibdi. Ularni Xon Moning og'ziga tiqishgan ekan, u o'ziga kelibdi. Gildonlar jo'r ovozda podshoga murojaat etishibdi:

— Otam sizdan ko'p marhamat ko'rgan. Nahot hozir men nomunosib ish ko'rishim mumkin bo'lsa? Tug'ilgan paytimdan boshlab men otamni ota, akamni aka deb chaqirish huquqidan mahrum etildim. Uydan bosh olib chiqib ketganim va qaroqchilarga qo'shilganim uchun umr bo'yi azob chekdim. Ammo oddiy xalqqa men ozor yetkazganim yo'q, faqat kambag'allarni siqib suvini ichayotgan uyezd boshliqlarining mol-mulkini tortib oldim. Oradan o'n yil o'tdi va endi men panoh topdim. A'lo hazrat, siz boshqa tashvish chekmang, faqat meni ushlash haqidagi farmonlarni bekor qiling!

Shu zahoti sakkiz Gildonning hammasi yerga qulabdi. Qarashsa, Gildonlar yo'q, ularning o'rnida faqat poxol tulumlar yotgan emish.

Podsho hayratdan lol bo'lib qolibdi. U yana barcha provinsiyalarga haqiqiy Gildonni ushlash to'g'risida farmonlar yuboribdi. Gildon esa, yana mamlakat bo'ylab kezib, poytaxtning to'rt darvozasiga quyidagi mazmundagi murojaatnomalarni yopishtirib qo'yibdi:

«Gildonni ushlashga qancha urinmang, toki uni harbiy palata boshlig'i etib tayinlash to'g'risida farmoyish chiqmas ekan, uni ushlay olmaysiz!»

Podsho bu murojaatnomani o'qibdi va saroy a'yonlarini maslahatga yig'ibdi. Ular bir ovozda shunday deyishibdi:

— Bu qaroqchini izidan quvib ushlay olmadik, endi harbiy palata boshlig'i etib tayinlaymizmi?! Bu qanday bedodlik!

Podsho ularning fikriga qo'shilibdi va yana Kyonsando provinsiyasining gubernatoriga Gildonni ushlash to'g'risida qat'iy ko'rsatma yuboribdi.

Inxyon bu ko'rsatmani o'qib, qo'rquvdan titray boshlabdi. Nima qilarini bilmay qolibdi.

Ammo bir kuni uning oldiga Gildon osmondan tushib kelibdi va:

— Men haqiqiy Gildonman. Tashvish qilma. Meni bog‘lab, poytaxtga jo‘nat, — debdi.

Inxyon yana ko‘z yoshi to‘kibdi:

— Esi yo‘q! Biz axir tug‘ishgan aka-ukamiz-ku, sen bo‘lsang mening ham, otamizning ham gapiga kirishni istamayapsan, davlatning tinchini buzyapsan. Bu haqda afsus qilmay bo‘larkanmi? Ammo sen nihoyat o‘z aybingga iqrar bo‘lib kelding, hibsga olishni va qo‘l-oyog‘ingni bog‘lashni so‘rayapsan. Bu haqiqiy ukaning ishi!

Gildonning oyog‘idagi xolni ko‘rgach va shu tariqa bu haqiqiy Gildon ekanligiga ishonch hosil qilgach, Inxyon shu zahoti uning qo‘l-oyoqlarini bog‘lashni buyuribdi va soqchilar qurshovidagi aravada poytaxtga jo‘natibdi. Bunga Gildon hatto pinak ham buzmabdi.

Oradan bir necha kun o‘tgach, ular poytaxtga yetib kelishibdi. Saroy darvozasiga yaqinlashganda Gildon xiyol qimirlagan ekan, temir kishanlar uzilibdi, arava sochilib ketibdi. Ilon eski po‘stini tashlagandek, Gildon ham kishanlarni uloqtiribdi va osmonga ko‘tarilib, bulutlar bag‘rida ko‘zdan yo‘qolibdi.

Soqchilar hayratdan lol qolishibdi. Ular faqat osmonga qarashar va qanday ish ko‘rishni bilishmas ekan. Voqea haqida podshoga xabar berishga majbur bo‘lishibdi. Uning tepa sochi tikka bo‘libdi:

— Yo alhazar!

Saroy a‘yonlaridan biri maslahat beribdi:

— Uni o‘zi istaganidek harbiy palata boshlig‘i etib tayinlab, so‘ng undan Koreyani darhol tark etishni talab qilsak-chi? Ko‘rsatilgan marhamat uchun tashakkur izhor etgani kelishi bilan unga buyruqni topshiramiz.

Podsho mulohaza yuritib ko‘rib, shunday ish ko‘rish zarur degan qarorga kelibdi. O‘sha zahoti Xon Gildonni harbiy palata boshlig‘i etib tayinlash to‘g‘risidagi farmonni shahar darvozalariga osib qo‘yishibdi.

Bu xabarni eshitgan Gildon mulozim kiyimida, aravada viqor bilan o‘tirgan holda, saroy oldiga kelibdi va o‘zining tashrifi haqida podshoga xabar berishni buyuribdi. Harbiy palata xizmatkorlari

to‘dalashib uni qarshi olishibdi va podshoning huzuriga kuzatib qo‘yishibdi. Mulozimlar: «Gildon hozir podshoga ko‘rsatgan marhamati uchun tashakkur bildiradi va qaytib chiqadi. Boltalar va nayzalar bilan qurollangan askarlardan pistirma tashkil etamiz. Chiqqan zahoti uni o‘ldiramiz», deb reja tuzishibdi.

Gildon podshoga o‘zini tanitibdi va ta‘zim qilibdi:

— A‘lo hazrat, mening aybim katta, lekin sizning marhamatingiz cheksiz. Yelkamdan tosh qulagandek bo‘ldi. Men bu yerni abadiy tark etaman va sizga, a‘lo hazrat, uzoq umr va baxt-saodat tilayman.

Shu so‘zlarni aytib, Gildon osmonga ko‘tarilibdi va bulutlar bag‘rida izsiz yo‘qolibdi.

— San‘atingga qoyil, — debdi podsho xo‘rsinib. — Gildon Koreyani tark etishga va‘da berdi, demak, tartibsizliklar barham topadi. O‘zini g‘alati tutgan bo‘lsa ham, u har qalay olijanob odam va bundan buyon bizni bezovta qilmasa kerak. — U Gildonni avf etish to‘g‘risidagi farmonni barcha provinsiyalarda e‘lon qilishni va uni ushlash to‘g‘risidagi farmonlarni bekor qilishni buyuribdi.

Gildon esa, o‘z yigitlarining oldiga qaytib kelibdi va ularga:

— Men sizlarni vaqtinchalik tark etaman. Sizlar o‘zboshimchalik qilmanglar va mening qaytishimni kutinglar, — deb buyuribdi.

Shu zahoti osmonga ko‘tarilib, Janubiy poytaxt sari uchib ketibdi. Gildon dunyo kezib yurib Yuldoguk yurtiga borib qolibdi. Qayerga qaramasin, hammayoqda yashil tog‘lar yastangan, shaffof suvli daryolar oqmoqda ekan. Odamlar bu yerda baxtli yashasharkan. «Jannatmakon yurt», deb o‘ylabdi Gildon va yo‘lida davom etibdi. So‘ng, Janubiy poytaxtni tomosha qilgach, Chedo orolida bo‘libdi, bu yerda go‘zal tog‘lar va daryolarni tomosha qilib lazzatlanibdi, odamlarni kuzatibdi. Ammo eng xushmanzara joylarni u Obonsan — «Besh kalla» tog‘larida ko‘ribdi. Qariyb yetti yuz *liga* teng maydonda hosildor dalalar va yam-yashil o‘tloqlar yastangan ekan. Mana, inson uchun jannat qayerda! Gildon: «Koreya bilan men vidolashdim. Shu yerga ko‘chib kelaman va huzur-halovatda yashab, buyuk jasoratlarga tayyorgarlik ko‘raman», deb qaror qilibdi.

U yigitlarining oldiga qaytib kelibdi, ularga daryo bo'yiga chiqib, kemalar qurishni va Xangan daryosi bo'ylab ularni tayinlangan vaqtda poytaxtga olib kelishni buyuribdi. O'zi esa podshoning huzuriga ming *sok* guruch qarz so'rash uchun yo'l olibdi.

Kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Gildon haqida hech qanday xabar yo'q ekan. Xon Mo tuzala boshlabdi. Podshoning tinchini ham hech kim buzmad.

Kuz tunlarining birida podsho bog'da oy nuriga mahliyo bo'lib sayr qilib yurgan ekan. Qo'qqisdan yengil shabada ko'tarilibdi va osmondan nay navosi ostida xushsurat yigitcha tushibdi. U hayratdan lol qolgan podsho qarshisida tiz cho'kibdi.

— Go'zal yigit, sen yerga nima uchun tushding? Bizga qanday xabar yetkazmoqchisan? — deb so'rabdi podsho.

O'z savoliga u quyidagi javobni eshitibdi:

— Men o'sha, siz harbiy palata boshlig'i etib tayinlangan Xon Gildonman.

Podshoning taajjubi ortibdi:

— Yarim kechasi bu yerda nima izlayapsan?

— A'lo hazrat, sizga umr bo'yi xizmat qilishga tayyor edim, — deb javob beribdi Gildon, — lekin men oqsochning o'g'liman. Noharbiy unvonga imtihondan o'tsam, hatto mayda amaldor bo'lib ham xizmat qilolmayman. Harbiy unvonga imtihondan o'tsam ham, baribir, davlatga foyda keltira olmayman. Shuning uchun ham men darbadar kezdim va davlatda tartibsizliklarga sababchi bo'ldim. Qilgan ishlarimning daragi hatto siz, a'lo hazratning qulog'iga ham yetib keldi. Sizning marhamatingiz tufayli men qalbmimdagi behalovatlikdan xalos bo'ldim. Endi siz bilan xayrlashib, vatanni tark etaman va uzoq yo'lga chiqaman. Ketishdan oldin sizdan bir narsa so'ramoqchiman: menga o'z omborlaringizdan ming *sok* don berishni va ularni Xangan daryosiga jo'natishni buyursangiz. O'z muruvvatingiz bilan siz ko'pchilikning hayotini saqlab qolgan bo'lardingiz.

Podsho Gildonning iltimosini bajarishga rozi bo'libdi.

— Shu paytgacha yuzingni yaxshilab ko'ra olganim yo'q, — debdi u. — Hech bo'lmasa hozir, oy nuri ostida menga qara.

Gildon boshini ko'taribdi, lekin ko'zlarini ochmabdi.

— Sen nega ko'zlarini ochmayapsan?

— Agar ko'zlarimni ochsam, siz qo'rqib ketasiz.

Shunda podsho tushunibdi: «Ha, u chindan ham bu dunyo-ning odami emas!»

Ko'rsatgan muruvvati uchun podshoga ta'zim qilib, Gildon osmonga ko'tarilibdi va g'oyib bo'libdi.

Gildonning sehr-jodusi podshoni hayratga solibdi. Ertasiga podsho Gildon so'ragan ming *sok* donni berishni va Sogandagi kechuv joyiga uni yetkazib berishni buyuribdi. Don berish masalalari bilan shug'ullanadigan mulozimlar bundan hayron bo'lishibdi, lekin podshoning amrini aniq bajarishibdi. Shu zahoti qandaydir odamlar paydo bo'lishibdi va donni podsho Xon Gildonga hadya etganini aytishib, uni kemalarga ortishibdi. Bu haqda podshoga xabar berishgan ekan, u Gildonga mazkur donni hadya qilganini tasdiqlabdi.

Gildon guruchni olib, uch ming nafar yigiti bilan birga ochiq dengizga chiqibdi va Janubiy poytaxt tomonga, Chedo oroliga qarab suzib ketibdi. Bu yerda ular qirg'oqqa tushishibdi va ishga kirishishibdi: uylar qurishibdi, dalalarni shudgorlab, ekin-tikin qilishibdi, qurol-yarog' yasab harb ishini o'rgana boshlashibdi. Gildon omborlari g'allaga to'la, qo'shini mohir askarlardan iborat ekan. Bu joylarni hech kim bilmas, o'lka esa juda boy ekan.

Bir kuni Gildon yigitlarni huzuriga chaqiribdi:

— Men Mantanshan tog'iga o'qlarga surkash uchun zahar olgani ketyapman, sizlar hushyor turinglar va orolni hamma tomondan qo'riqlanglar.

Mantanshan tog'iga yo'l Lochuan uyezdining yerlari orqali o'tar ekan. Bu yerda Bo-lun — «Oq ajdar» ismli bir boy yashar ekan. Boyning bitta-yu bitta qizi bo'lib, u go'zal, aqlli, o'qimishli va qo'lda qilich tuta olar ekan. Ota-onasi o'z sohibjamol qizlarini yer-u ko'kka ishonmas, uni faqat pahlavonga uzatishni orzu qilishar ekan.

Bir kuni kuchli bo'ron turibdi, yer-u osmon zulmat ostida qolibdi va ularning go'zal qizi g'oyib bo'libdi. Ota-onasi dod-

faryod qilishibdi, qizini topgan odamga katta mukofot va'da qilishibdi va u kim bo'lmasin, kuyov qilishlarini aytishibdi.

Ayni shu vaqt bu yerdan Gildon o'tib qolibdi. U bo'lgan voqea haqida eshitib, achinibdi va Mantanshan tog'iga qarab o'z yo'lida davom etibdi. Qorong'i tushibdi va u qayerga borishni bilmay qolibdi. Bir vaqt uzoqda qandaydir ovozlar qulog'iga chalinibdi, qarasa, olisda chiroq ham miltillayotgan emish. Gildon chiroq tomonga qarab yuribdi. Borib qarasa, bir gala notanish mavjudotlar bir-biri bilan bahslashayotgan ekan. Gildon sinchiklab qarabdi: bu jonzotlarning faqat yuzi odamnikiga o'xshar, aslida esa ular hayvonlar ekan. Bu maxluqlarni uldonlar deb atasharkan. O'lim ularga yot, qarilikda faqat cheksiz evrilishlarga duchor bo'lisharkan.

«Dunyoni ko'p kezganman, lekin bunaqa maxluqlarni birinchi marta ko'rib turibman. Ularni darhol bitta qoldirmay qirib tashlash kerak», deb o'ylabdi Gildon va kamondan ularga qarata o'q uzibdi. O'q maxluqlardan biriga tegibdi. Achchiq faryod yangrabdi, qolgan uldonlar esa qochishga tushishibdi.

Gildon ularning ortidan quvmoqchi bo'libdi, lekin keyin fikridan qaytibdi: bu qorong'i tunda, boz ustiga tog'lar orasida birovni tutib bo'larkanmi?!

U daraxt ostida yonboshiab tunni qisqa qilibdi, ertalab esa, kamoni va o'qlarini yashirib qo'yib, dorivor giyohlarni qidira boshlabdi.

Birdan qarshisida uldonlar paydo bo'lishibdi.

— Bu xilvat joylarga nima uchun kelding? — deb so'rashibdi ular.

Gildon:

— Mening tagim Choson mamlakatidan, tabiblik san'atidan xabardorman, kasalliklarni davolay olaman. Bu yerda shifobaxsh dorivor giyohlar o'sishini eshitganman, shuning uchun ham bu yerga keldim. Sizlar bilan uchrashganimdan behad xursandman, — deb javob beribdi.

Uning gapini eshitib uldonlar xursand bo'lishibdi, atrofida gir aylanib uni ko'zdan kechirishibdi va:

— Biz Mantanshan tog'ida ko'pdan beri yashaymiz. Kecha podshomizning to'yi bo'lib turgan paytda Osmon uni mahv etdi. Hozir u o'lim to'shagida yotibdi. Agar dorivor giyohlar bilan uni davolasang, bu yaxshiligingni senga yuz karra oshirib qaytaramiz. Ortimizdan yur, — deyishibdi.

«Mana, men kecha kimni otgan ekanman!», deb o'ylabdi Gildon.

Ular saroyga yaqinlashishibdi. Saroyning darvozasi ortidan qon oqib chiqayotgan emish. Gildondan shu yerda poylab turishni so'rashibdi, so'ng hashamatli saroyning ichiga boshlab kirishibdi. Qarasa, to'shakda yovuz ruh ingrab yotgan emish. Mehmonni ko'rib maxluq xiyol qimirlabdi.

— Kecha, to'y kuni, Osmon o'qi meni mahv etdi, o'lyapman... Qutqar meni! Bilimingni ayamasang, yaxshi mukofotlayman.

Gildon yara xavfli emas, deb aldabdi.

— Avval sirtidagi yaralarni davolash uchun iste'mol qilinadigan giyohlardan foydalanish, so'ng quvvatga kiritadigan giyohlarga o'tish kerak, — debdi u. — Shunday qilsak, tez orada otday bo'lib ketasiz.

Maxluq quvonchdan yoyilib iljayibdi. Gildon doim yonida turli-tuman hapdorilarni olib yurar ekan. Maxluq quvonib turgan paytda u o'z zaxiralaridan juda o'tkir zaharni chiqaribdi, uni iliq suvga aralashtirib, bemorga ichish uchun beribdi. Ko'p o'tmay uldonlar podshosi vahshiyona bo'kirib, o'z qorniga mushtlay boshiabdi, qattiq talvasaga tushibdi va yotgan joyida ikki marta sakrab, jon beribdi.

Shunda qolgan maxluqlar qilich ko'tarib Gildonga tashlanishibdi.

— Qotilga o'lim! Podshomiz uchun o'ch olamiz!

Ammo osmon-u falakka ko'tarilgan Gildon Shamol ruhini chaqiribdi. Birdan kuchli bo'ron turibdi, Gildonning o'zi esa tepadan dushmanga o'q yomg'irini yog'diribdi. Uldonlar sehr-joduda qancha o'tkir bo'lishmasin, afsungar Gildonning oldida ular ip esha olishmabdi. Qisqa olishuvda ularning hammasi halok bo'libdi.

— Biz Mantanshan tog'ida ko'pdan beri yashaymiz. Kecha podshomizning to'yi bo'lib turgan paytda Osmon uni mahv etdi. Hozir u o'lim to'shagida yotibdi. Agar dorivor giyohlar bilan uni davolasang, bu yaxshiligingni senga yuz karra oshirib qaytaramiz. Ortimizdan yur, — deyishibdi.

«Mana, men kecha kimni otgan ekanman!», deb o'ylabdi Gildon.

Ular saroyga yaqinlashishibdi. Saroyning darvozasi ortidan qon oqib chiqayotgan emish. Gildondan shu yerda poylab turishni so'rashibdi, so'ng hashamatli saroyning ichiga boshlab kirishibdi. Qarasa, to'shakda yovuz ruh ingrab yotgan emish. Mehmenni ko'rib maxluq xiyol qimirlabdi.

— Kecha, to'y kuni, Osmon o'qi meni mahv etdi, o'lyapman... Qutqar meni! Bilimingni ayamasang, yaxshi mukofotlayman.

Gildon yara xavfli emas, deb aldabdi.

— Avval sirtagi yaralarni davolash uchun iste'mol qilinadigan giyohlardan foydalanish, so'ng quvvatga kiritadigan giyohlarga o'tish kerak, — debdi u. — Shunday qilsak, tez orada otday bo'lib ketasiz.

Maxluq quvonchdan yoyilib iljayibdi. Gildon doim yonida turli-tuman hapdorilarni olib yurar ekan. Maxluq quvonib turgan paytda u o'z zaxiralaridan juda o'tkir zaharni chiqaribdi, uni iliq suvga aralashtirib, bemorga ichish uchun beribdi. Ko'p o'tmay uldonlar podshosi vahshiyona bo'kirib, o'z qorniga mushtlay boshlabdi, qattiq talvasaga tushibdi va yotgan joyida ikki marta sakrab, jon beribdi.

Shunda qolgan maxluqlar qilich ko'tarib Gildonga tashlanishibdi.

— Qotilga o'lim! Podshomiz uchun o'ch olamiz!

Ammo osmon-u falakka ko'tarilgan Gildon Shamol ruhini chaqiribdi. Birdan kuchli bo'ron turibdi, Gildonning o'zi esa tepadan dushmanga o'q yomg'irini yog'diribdi. Uldonlar sehr-joduda qancha o'tkir bo'lishmasin, afsungar Gildonning oldida ular ip esha olishmabdi. Qisqa olishuvda ularning hammasi halok bo'libdi.

Gildon maxluqlarning yashash joyiga kiribdi va tosh darvoza oldida ikki qizga ko'zi tushibdi. Bular ham uldonlar zotidan bo'lsa kerak, deb o'ylab, ikkalasini ham o'ldirmoqchi bo'libdi, ammo ular yig'lab iltijo qilishibdi:

— Axir biz odamlarmiz-ku! Maxluqlar ikkalamizni qo'lga olishdi va sho'rimizni quritmoqchi bo'lishdi. Biroq Osmon bizga rahm qildi: mard yigit kelib, ularning hammasini qirib tashladi va bizni o'limdan qutqardi. Endi bizga yurtimizga qaytishga yordam bering!

Asiralar abgor ahvolda ekan. Biroq, sinchkovlik bilan qarab, Gildon ularning chiroyi podsholiklarni ag'darishga qodir ekaniga ishonch hosil qilibdi.

Yigit qizlardan ularning kimligi va qayerdanligini so'rabdi. Biri Oq ajdarning, ikkinchisi — Chjao Tening qizi bo'lib chiqibdi.

Ular uchovlon shu zahoti Lochuan daryosiga qarab yo'l olishibdi. Gildon Oq ajdarni qidirib topibdi, bo'lgan voqea haqida gapirib beribdi va qizini unga topshiribdi. Ota-onasi qizini tirik ko'rishga umid qilmay qo'yishgan ekan. Ko'zlarining qarog'ini ko'rib, ular sevinchlari ichiga sig'masdan qizlarini quchoqlashibdi va ko'z yoshi qilishibdi. Chjao Te ham qizini topganidan behad shod bo'libdi.

Baxtli otalar o'zaro maslahat qurishibdi. So'ng yaqin va uzoq qarindoshlarini ziyofatga chorlab, Gildonga ikkala qizni ham uzatishibdi. Oq ajdarning qizi birinchi xotin, Chjao Tening qizi esa — ikkinchi xotin bo'libdi.

O'sha payt Gildonning yoshi yigirmadan oshgan bo'lsa ham, nar va modar o'rdaklar baxtini u hanuz totib ko'rmagan ekan. Bir vaqtning o'zida u ikkita xotinlik bo'libdi! Ular baxtli yashay boshlashibdi.

Kunlar ketidan kunlar o'tibdi, nihoyat uy haqida o'ylash fursati ham kelibdi. Gildon ikkala xotini, qarindoshlari va mulkini olib, Chedo oroliga qarab suzib ketibdi. Hammani baxtli qilibdi. Xotinlari uchun koshona barpo etibdi va ular hammalari tinch-totuv yashay boshlashibdi.

Yettinchi oyning oy to'lgan pallasi birdan Gildonning ko'ngliga g'am tushibdi. U yulduzlarga termulib ko'zi yoshlanibdi. Buni

ko'rgan birinchi xotini tashvishga tushib, eridan g'amginligi sababini so'rabdi.

Gildon shunday deb javob beribdi:

— Men dunyodagi barcha o'g'illarning eng munosibiman. O'zim bu yerlik emasman. Men Choson mamlakatida, unvonlar palatasi boshlig'i Xonning oilasida tug'ilganman. Onam oqsoch bo'lgan. Odamlar orasida xo'rlanish oqibatida ko'p azob chekdim, nihoyat, uydan bosh olib chiqib ketgach, otam og'ir kasalga chalingani va o'lim to'shagida yotganidan xabar topdim. Men o'z uyimdan juda uzoqdaman va otamni tirik ko'rish endi menga nasib etmaydi.

Bu gapni eshitib xotini ham ma'yus tortibdi.

Ertasiga Gildon toqqa yo'l olibdi va Oy cho'qqisiga ko'tarilib, dafn etish uchun yaxshi joyni tanlabdi. Darhol bu yerda ish qaynabdi, o'z hashamatiga ko'ra podsholarnikidan qolishmay-digan daxma va qabr toshi barpo etilibdi.

So'ng Gildon o'z odamlarini chaqirib, ularga katta kemani jihozlash, Xangan daryosi qirg'oqlariga qarab suzish va o'sha yerda kutib turishni buyuribdi. O'zi esa, sochini qirib tashlab, rohib libosini kiyibdi-da, kichikroq kemada Choson mamlakatiga yo'l olibdi.

Bu orada Gildonning yo'qligida sakson yoshgacha g'am chekmay yashagan qari Xon bedavo dardga yo'liqib yotib qolibdi. O'lim oldidan u xotini va to'ng'ich o'g'lini oldiga chaqiribdi:

— Men sakson yoshgacha yashadim va endi xotirjam jon beryapman. Faqat bir narsadan tashvishdaman: Gildondan xabar yo'q, tirikmi u, o'likmi — bilmayman. Shuning uchun ham ko'zimni xotirjam yuma olmayman. Biroq, agar u tirik bo'lsa, albatta qaytib keladi. Sizlar tagi pastligini uning yuziga solmanglar. Onasiga yaxshi muomala qilinglar.

Shu so'zlarni aytib qari Xon jon beribdi. Uyda hamma aza tutibdi. Hamma marosimlarni rasamadini keltirib o'tkazishibdi, biroq, afsuski, qabr uchun munosib joy topa olishmabdi.

Shu vaqt xizmatkorlar darvoza oldida rohib turgani, u marhumni ko'rish va uning oilasiga ta'ziya izhor etish uchun kirishga ruxsat so'rayotganini xabar qilishibdi. Bu hammaga g'alati

bir ish bo'lib tuyulibdi, lekin unga ruxsat berishibdi. Rohib esa kirgan zahoti o'kirib yig'lab yuboribdi. Yana hamma hayron bo'libdi:

— Janob rohiblar bilan hech qachon yaqin bo'lmagan edi, shekilli. Nega u bunday g'am chekyapti?

Rohib esa, Inxyonga qarab:

— Nahotki meni tanimayapsan? — deb so'rabdi.

Inxyon rohibga sinchiklab tikilibdi. Axir bu Gildon-ku! U ukasini mahkam quchibdi, ko'zlari yoshlanib:

— Berahm! Qayerlarda yuribsan? Otamiz o'limi oldidan seni esladi, sen bilan ko'rishmasa, bu dunyoni xotirjam tark eta olmasligini aytdi. Eh, achchiq qismat! — debdi, so'ng Gildonning qo'lidan ushlab, uni onasi va Lyu xonimning oldiga boshlab kiribdi.

Ona va o'g'il yig'lab bir-birlarini quchishibdi. Onasi Gildonning aft-angoriga qarab:

— Rohiblikni bo'yningga oldingmi? — deb so'rabdi.

Gildon javob beribdi:

— G'am-hasratdan joy topolmasdan, men avval qaroqchilarga qo'shildim. Otam va akamning boshidan kulfatni haydash uchun vatanni tark etdim. So'ng geomantiya bilan shug'ullana boshladim. Otam o'lim to'shagida yotganini eshitib, uyga keldim. Onajon, sira g'am chekmang!

Buni eshitgan onasi va Lyu xonim ko'z yoshlarini artishibdi:

— Geomantiyani o'rgangan bo'lsang, Osmon ostida dong'ing balanddir. Otangni ko'mish uchun yaxshiroq joyni tanlashga harakat qilsang kerak.

Gildon bunday joyni u tanlab qo'rganini, faqat u bu yerdan ming li uzoqda ekani va u yerga yetib borish oson emasligini aytibdi.

— Men sening iste'dodlaringga ishonaman va sodiq o'g'il ekanligingni ko'rib turibman, — debdi Inxyon quvonib. — Joy yaxshi bo'lsa, bas. Uzoq yo'l bizga cho't emas!

— Akam rozi bo'lsa, ertagayoq yo'lga chiqamiz. U yerda daxmani qurishyapti, dafn sanasi tayinlangan. Tashvishga hojat yo'q.

Gildon onasiga o'zi bilan birga ketishni taklif qilibdi. Lyu xonim ruxsat beribdi, onasi ham rozi bo'libdi. Ular uchovlon o'sha zahoti marhumni kuzatib, o'zlarini kema kutib turgan daryoga kelishibdi. Kemaga o'tirib, yo'lga tushishibdi. Chek-chegarasiz dengizda yo'ldosh shamol esibdi va kema manzilga qarab o'qdek uchibdi.

Orol oldida ularni o'nlab kemalar qarshi olishibdi. Qirg'oqda Gildonni olomon kutib olibdi va uyigacha kuzatib qo'yibdi. Bu ajoyib manzara ekan!

— Bu nimasi? — deb so'rabdi Inxyon tushunmay.

Shunda Gildon unga darbadarlikda o'zi bilan bo'lgan voqealarning barchasi haqida gapirib beribdi.

— Mening dalalarim ming *li* masofaga cho'zilgan, omborlarim donga to'la, xotinlarim boyliklarini sig'dirishga joy topolmaydi. Menga yana nima kerak?

Aka-uka tog' cho'qqisiga ko'tarilishibdi. Atrofda ulug'vor tog'lar qad rostlagan ekan. Gildon akasini o'zi tanlagan joyga boshlab boribdi. Inxyon bu yerda qurilgan daxma o'z hashamatiga ko'ra podsholarnikidan qolishmasligiga ishonch hosil qilibdi.

— Nahotki shu? — deb so'rabdi Inxyon o'z ko'zlariga ishonmay.

— Ha, hayron bo'lma, — deb javob beribdi ukasi.

Tayinlangan vaqtda otasini yerga qo'ygach, Gildon aza tutibdi. Dafn marosimidan onasi va Inxyon bilan birga qaytib kelishganda, ularni ikkala xotini qarshi olishibdi, qaynonasi va qaynag'alari tavoze bilan qulluq qilib turishibdi. Inxyonning ukasiga havasi kelibdi.

Shundan so'ng oradan ancha vaqt o'tibdi.

Bir kuni Gildon Inxyonga qarab shunday debdi:

— Otamizni yaxshi joyda dafn etdik, endi urug'imiz ravnaq topadi. Sen uyga qaytib onangga qara, otamizga tirikligida xizmat qildi, o'limidan so'ng uning xizmati endi mening bo'ynimda. Nasib qilsa, yana ko'risharmiz. Darhol yo'lga chiq, onangning ko'zini to'rt qilma.

Inxyon ukasining gapi to'g'riligini tushunib, otasining qabri bilan xayrlashibdi. Yo'lga hozirlik ko'rishga buyruq berishibdi.

Bir necha kundan so'ng Inxyon uyiga yetib olibdi va Gildondan eshitganlari, ko'rganlarini onasiga gapirib beribdi. Lyu xonim eshitgan gaplaridan hayratga tushibdi.

Otasini Chedo zaminiga qo'ygach, Gildon barcha ma'rakalarni rasamadini keltirib o'tkazibdi va bu bilan odamlarda hayrat uyg'otibdi. Uch yilni u azada o'tkazibdi. Nihoyat, Gildon o'z yigitlarini yana huzuriga chorlabdi, ular harb ishini o'rganishibdi, yerlarni shudgorlab, ekin-tikin qilishibdi. Yillar o'tibdi va Gildon yana sara qo'shinga va don to'la omborlarga ega bo'libdi.

O'sha zamonlarda Chedo oroliga yaqin yerda Yuldoguk mamlakati joylashgan ekan. Bir necha li masofaga cho'zilgan bu mamlakat devorlar bilan o'ralgan ekan. U jannatmakon yurt sifatida tilga tushgan ekan. Gildon u haqda ko'pdan beri o'ylar, unda podsho bo'lishni orzu qilarkan.

Bir kuni u o'z yigitlariga shunday debdi:

— Dunyo kezib yurgan paytim Yuldoguk zamini ko'nglimga qattiq o'tirib qolgan edi. Endi men taqdirni sinab ko'rmoqchiman. Agar hammangiz bir jon-u bir tan bo'lib menga ergashsangiz, buyuk jasorat sodir etamiz.

Ular kun tanlashibdi. Bu kun «kapcha» yilining to'qqizinchi oyiga to'g'ri kelibdi. Gildon o'z qo'shinini Yuldoguk sari, Temir tog' tomonga boshlabdi. Shu yerdagi okrug hokimi Kim Xyonchxun qayerdandir bino bo'lgan otliq qo'shinni ko'rib, kapalagi uchibdi. U o'sha zahoti poytaxtga podsho nomiga xabar yuboribdi, o'zi esa askarlarini jangga boshlabdi. Ammo Gildonning qo'shiniga uning kuchi yetmabdi, chekinishga majbur bo'libdi va qal'a devorlari ortiga yashirinibdi.

Gildon o'z askarlarini maslahatga chaqiribdi:

— Ovqatimiz va otlar uchun yemimiz kam. Qamalni cho'zadigan bo'lsak, hech narsaga erisha olmaymiz. Okrug hokimini hiyla bilan qo'lga olish, don va otlar uchun yem topish, so'ng poytaxtga hujum qilish kerak. Buning uchun qo'shinlarimiz pistirmada turishl, Ma Suk esa besh ming askar bilan mening aytganimni qilishi kerak!

Gildonning buyrug'iga binoan ish ko'rib, Ma Suk o'z qo'shini bilan jangga kirishibdi. Kim Xyonchxun uni ta'qib qila boshlabdi.

Gildon esa, Osmonga qarab duo o'qibdi. Shu zahoti dunyoning besh qit'asi podsholari o'z askarlari bilan paydo bo'lishibdi: sharqdan — yashil podsho, janubdan — qizil podsho, g'arbdan — oq podsho, shimoldan — qora podsho. Ularning o'rtasida oltin dubulg'a kiygan va qo'lda qilich ushlagan Gildonning o'zi jang qilibdi. Og'ir jangda u Kim Xyonchxunning otini chopib tashlabdi va uning o'zini yerga ko'tarib uribdi:

— Joningdan umiding bo'lsa, taslim bo'!

— Men sening qo'lingdaman, bir qoshiq qonimdan kech! — deb yalinibdi u.

Raqibi mahv etilganini ko'rib, Gildon uning bir qoshiq qonidan kechibdi. So'ng, qal'ani qo'riqlashni buyurib, o'z qo'shinlari bilan poytaxt sari yuribdi, Yuldoguk yurtining podshosiga esa noma yuboribdi:

«Adolat qo'shini yo'lboshchisi Xon Gildon Yuldoguk yurti podshosiga yorliq yo'llaydi. Ma'lumki, podsholar odamlar hukmiga ko'ra emas, balki Osmon hukmiga ko'ra yurti boshqaradilar. Chen Tan Szeni jazolagan, U-van esa Chjouni taxtdan ag'dargan. Osmon yozig'i o'z-o'zidan amalga oshadi. Men o'z qo'shim bilan Temir tog'idagi qal'ani ishg'ol qildim. Mendan hamma qo'rqadi, ismimni eshitgani zahoti taslim bo'ladi. Urushmoqchi bo'lsang urush, bo'lmasa — taslim bo'!»

Podsho nomani o'qib, dami ichiga tushib ketibdi: «Temir tog'i davlatimiz tayanchi edi, endi u dushman qo'lida. Nima qilish kerak?»

U zahar ichib o'libdi, unga xotini va o'g'li ham ergashishibdi.

Gildon poytaxtga kiribdi, fuqarolarni tinchlantiribdi va askarlarni ziyofat qilisi uchun buqalar so'yishni buyuribdi.

Nihoyat, Gildon taxtga o'tiribdi. Bu *ilchxuk* yilining birinchi oyida yuz beribdi. Uning safdoshlari ilk bor lavozimlarni egallashibdi. Ma Suk so'l vazir, Kim Djon — o'ng vazir etib tayinlanibdi. Gildon boshqalarni ham xafa qilmabdi. Chxve Chol podsho taftishchisi lavozimini egallabdi va olti provinsiya, uch yuz to'qson okrugni tekshirish uchun yo'l olibdi. Mulozimlar yangi podshoni hurmat qilishar, xalq esa uni ardoqlar ekan.

Gildonning ikkala xotiniga malika unvoni, otasiga o'limidan so'ng Xyondok-van — «Oqil va odil podsho» nomi berilibdi. Gildonning onasini buyuk malika deb atay boshlashibdi, Gildonning ikki xotini otalari esa podshoning qaynotalari degan nom olishibdi. Ularning har biriga bittadan saroy hadya etilibdi. Gildon otasining daxmasi «podsho daxmasi» degan nom olibdi va bu yerda uning ruhiga doimiy ravishda qurbonlik keltirila boshlabdi. Lyu xonim beva malika unvonini olibdi. Buyuk malika va beva malikaga Gildon saroy a'yonlari va shaxsiy soqchilarni yuboribdi.

Gildon Yuldoguk mamlakati taxtiga o'tirganidan so'ng oradan uch yil o'tibdi. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukm surar, podshoning fazilatlarini Chen Tanning fazilatlarini bilan tenglash-tirish mumkin ekan.

Kunlarning birida Gildon katta bir ziyofatda o'z onasi sharafiga qadah ko'tarar ekan, o'tmishni eslabdi va chuqur xo'rsinibdi:

— Agar men o'shanda uyda yollanma qotil qo'lida halok bo'lganimda, biz shu kunlarga yetgan bo'larmidik? — Uning kiyimi ko'z yoshidan jiqqa ho'l bo'libdi. Onasi va ikki malika g'amgin bo'lib qolishibdi.

Gildon suhbatni to'xtatib, Oq ajdarni taklif qilibdi va unga shunday debdi:

— Yuldoguk taxtida men — koreyalik o'tirganim taqdirning taqozosi. O'z yurtimning podshosi menga ming *sok* guruch hadya qildi. Uning marhamatini faqat dengiz va daryolarda suvning mo'lligi bilan tenglashtirish mumkin. Uning bu marhamatini men o'lguncha unutmayman. Yaxshiligini qaytarish uchun sizni o'sha yoqqa yubormoqchiman. Mehnatingizni ayamang. Oq yo'l sizga! — Gildon shu zahoti podshoga noma va ayni vaqtda Xon oilasiga xat yozibdi va ularni qaynotasiga tutqazibdi. Oq ajdar kemaga don ortib, o'z a'yonlari kuzatuvda jo'nab ketibdi.

Podsho Gildonga don hadya etganidan so'ng oradan o'n yilcha vaqt o'tgan, u haqda hech qanday darak bo'lmagan ekan. Podsho bundan taajjubda ekan.

Ammo bir kuni podshoga Yuldoguk yurtining hukmdoridan noma keltirishibdi. Podsho xatni ochib, quyidagi so'zlarni o'qibdi:

«Sobiq harbiy palata boshlig'i, endilikda Yuldoguk davlatining podshosi, Sizning sodiq fuqarongiz Xon Gildon Choson podshosi qarshisida yuz karra ta'zim bajo keltiradi.

Men tagim pastlligidan umr bo'yi azob chekdim. Yomon fuqaro sifatida Sizning tinchingizni buzdim, otamga nomunosib o'g'il bo'ldim, men tufayli u dard chekdi. Ammo Siz meni kechirdingiz, lavozim berdingiz va ming sok guruch hadya etdingiz. Yaxshilingizga javob qaytarish imkoniyatiga ilgari ega emas edim. Dunyo bo'ylab kezib, men qo'shin to'pladim, Yuldoguk mamlakatiga keldim va uni egalladim. Hozir men bu yerning podshosiman. Marhamatingizdan abadiy minnatdorligimni izhor etib, donni Sizga qaytaryapman. Qilgan gunohlarim uchun meni kechirishingizni so'rayman. Sizga sihat-salomatlik va baxt-saodat tilayman».

Podsho nomani o'qib, hayratga tushibdi. O'sha zahoti Inxyonni o'z huzuriga chorlabdi va Yuldoguk podshosining nomasini ko'rsatibdi. Bu vaqtga kelib Inxyon xizmatda ko'tarilgan va yuksak lavozimga erishgan ekan. U Gildon Xonlar oilasiga yuborgan xatni hozirgina o'qib chiqib, hayratga tushgan ekan, podshoga kelgan nomani o'qib hayrati yanada oshibdi. Shu zahoti u podshoga iltimos bilan murojaat etibdi:

— Gildon — mening o'gay ukam. Boshqa davlatga borib, u o'sha yerda dongdor odamga aylandi. Ammo bularning barchasi faqat sizning marhamatingiz tufayli yuz berdi. Garchi bu haqda nomada aytilmagan bo'lsa-da, otamizning hoki Yuldoguk yurtiga — qo'shni mamlakat zaminiga ko'milgan. Menga otamning qabrini ziyorat qilgani bir yil vaqt bersangiz.

Podsho rozi bo'libdi va Inxyonga Yuldoguk mamlakatiga borib kelishiga ruxsat beribdi.

Inxyon onasining oldiga kelib, unga podsho bilan bo'lgan suhbat haqida gapirib beribdi.

— Men Gildonning xatimi o'qidim. U meni ham sen bilan birga chaqiryapti. Birga boramiz.

O'g'li onasini fikridan qaytara olmabdi va ular birga yo'lga chiqishibdi. Uch oydan so'ng ular kemada Chedo oroliga suzib kelishibdi. Ularni podshoning o'zi a'yonlari va ikki malika bilan birga qarshi olibdi.

Oradan vaqt o'tibdi. Lyu xonim kasal bo'lib yotib qolibdi, hech qanday dorilar unga yordam bermabdi. Bir kuni Lyu xonim xo'rsinib, shunday debdi:

— Begona yurtda jon berishdan yomonlarni yo'q, faqat erimning qabrini ziyorat qilganim ko'nglimga taskin baxsh etadi.

Shu so'zlarni aytgach, uning joni uzilibdi. Aka-uka uni daxmaga, erining yoniga dafn etishibdi. Oradan bir necha oy o'tgach, Inxyon ukasiga qarab shunday debdi:

— Bu yerga kelganimga bir necha oy bo'ldi. Boshimizga katta musibat tushdi — onamiz vafot etdi. Endi mening qaytadigan paytim keldi. Afsus, xayrlashishga majburlamiz. Baxtli bo'l.

Aka-uka xayrlashishibdi va bir necha kundan so'ng Inxyon o'z uyiga yetib kelibdi. U podshoga o'z safari haqida ma'lumot beribdi. Podsho Inxyonning qayg'usiga hamdardlik bildiribdi va uch yil aza muddati o'tganidan so'ng xizmatga kirishishga ruxsat beribdi.

Yuldoguk mamlakatining podshosi akasini kuzatgani zahoti, uning onasi kasal bo'lib yotib qolibdi va ko'p o'tmay vafot etibdi. Podsho va ikki malika g'am-hasratga berilishibdi. Podshoning onasini hurmatini joyiga qo'yib daxmaga dafn etishibdi va uch yil aza tutishibdi.

Giidonning podsholigini chillak o'ynovchining qo'shig'ida kuylanadigan Yao va Shunning podsholigi bilan tenglashtirish mumkin ekan.

Podshodan uch o'g'il va ikki qiz tug'ilibdi. To'ng'ich o'g'lining ismi Xyon bo'lib, u birinchi xotinidan tug'ilibdi. O'rtancha o'g'lining ismi Chxon, kenjasining ismi esa — Yol ekan. Ularning ikkalasi ham podshoning ikkinchi xotinidan tug'ilibdi. Ikki qizi kanizaklardan tug'ilishibdi. Bolalar ota-onasiga ko'p jihatdan o'xshar ekan. O'g'illar iste'dodli va olijanob, qizlar — kamtar va bokira ekan. To'ng'ich o'g'il taxt vorisi deb, kichik o'g'illar — shahzodalar deb e'lon qilinibdi. Ikkala qizni ham munosib odamlarga erga berishibdi.

Gildonni fen'yanlik Go bilan tenglashtirish mumkin ekan.

Gildon taxtga o'tirganidan so'ng oradan o'ttiz yil o'tibdi, u yetmish yoshga to'libdi. Kunlarning birida u Abadiy lazzat kulbasida xotinlari bilan she'r va musiqa eshitib o'tirishgan ekan.

— Nafsilamrini aytganda, hayot yaproq uchiga qo'ngan shudring donasiga o'xshaydi, — debdi Gildon. — Yuz yil yashasang ham, baribir, u osmon bo'ylab suzayotgan bulutga o'xshaydi. Nasl-nasabli zot ham, tagi past odam ham baribir o'ladi. Hayotni orqaga qaytarib bo'lmaydi. Kechagina yosh, navqiron edik, ko'z ochib ulgurmasimizdan sochimizga oq tushdi.

Birdan besh rangli bulut tushibdi va butun saroyini chulg'ab olibdi. Ularning qarshisida aso ko'targan, boshiga qalpoq, egniga turna patlaridan ko'ylak kiygan bir chol paydo bo'libdi:

— Dunyoning ishlarini oxiriga yetkazdingmi? Unda ketdik!

Podsho va ikki malika shu zahoti g'oyib bo'lishibdi. Buni ko'rgan uch o'g'il va saroy a'yonlari qattiq g'am chekishibdi, achchiq faryod qilishibdi. Daxmaga uch bo'sh tobutni qo'yishibdi va unga «Donolar donosining maqbarasi» degan nom berishibdi. Taxtga valiahd o'tiribdi. Minglab fuqarolar yangi podshoni qutlashibdi, unga uzoq umr tilashibdi. Soliqlarni to'qqiz yilga pasaytirish to'g'risida farmon barcha uyezdnlarga yuborilibdi. Xalq yangi podshoni sharaflabdi, u esa otasiga aza tutibdi va mamlakatni oqillik bilan boshqaribdi.

Xalq podshoni behad hurmat qilar ekan. Uning davrida dalalar yaxshi hosil beribdi. Odamlar chillak o'ynovchi bir paytlar to'qigan qo'shiqlarni kuylashibdi.

Oradan bir necha yil o'tibdi va yangi podshoning uch o'g'li tug'ilibdi. Ularning hammasi noyob iste'dodlarga ega ekan. Ular avloddan avlodga davlatni oqilona boshqarishibdi.

Dunyoning ana shunaqa ajoyib ishlari ham bo'lar ekan!

QUYONNING SARGUZASHTLARI

Xitoyda to'rtta katta dengiz bor: Sharqiy va G'arbiy, Janubiy va Shimoliy dengizlar. Har to'rt dengizdan birining o'z ajdar-podshosi bor. Sharqiy dengizda — Guan'yuan-van, Janubiy dengizda — Guanli-van, G'arbiy dengizda — Guande-van, Shimoliy dengizda — Guansze-van.

To'rt dengizning to'rt podshosidan uchasi — umrboqiy. Faqat Janubiy dengiz podshosi Guanli-vangina o'limi muqarrar ekan.

Kunlarning birida u kasal bo'lib qolibdi. Ajdar-podshoga yuz xil dori ham naf bermabdi va u zo'rg'a nafas oladigan bir holga yetibdi. Shunda podsho o'zining barcha a'yonlarini huzuriga chaqiribdi va ularga shunday debdi:

— Qazo kunim yaqinlashganga o'xshaydi. O'lsam, ovloq Beymanshan tog'larida «mening oq suyaklarim xokka aylanadi», hozirgi mavqeyim, shon-shuhratim va boyliklarimning hammasi behuda ekani ayon bo'ladi.

Holbuki, mendan oldin ham kimsan — olti podsholikni birlashtirgan imperator Sin Shi-xuanga Uch muqaddas tog'da o'sadigan umrboqiylik giyohi kerak bo'lgan, bu giyohni olib kelgani u besh yuz yigit va qizni yuborgan ekan. Shundan keyin ularning hammasi bedarak ketgan ekan.

Xitoyni zir titratgan xan imperatori U-di ham umrboqiylikka erishmoqchi bo'lib sarv daraxtidan yasalgan to'sinlardan ayvon qurgan va unda mo'jizakor shudringni alohida bir kosaga to'plagan ekan.

Ammo Sin Shi-xuanning dafn marosimiga guvoh bo'lgan Lishan tog'i uzra yaltirayotgan tonggi hilol va U-dining Maolindagi qabri uzra esayotgan kuz shamoli hatto buyuk podsholardan ham bir siqim xok qolishidan darak beradi. Hamonki shunday ekan, men — bir xokisor podsho taqdirdan nima kutishim mumkin?

Bizning zotimizda avloddan avlodga o'tib kelayotgan taxtni abadulabad tark etishimga va hayot bilan vidolashishimga to'g'ri keladi. Mashhur bir tabibni topsammikan, tomir urishimni diqqat bilan kuzatib, dori ichsammikan?

Ajdar-podsho shu zahoti amr qilibdi:

— Mening kasalligim o'ta xavfli tus olgani bois, siz, a'yonlar, menga o'z sadoqatingizni isbotlang, nomi chiqqan tabibni toping va meni hayotga qaytaring. Shunda hammamiz shod-xurram bo'lamiz.

Shunda a'yonlardan biri oldinga chiqibdi:

— Eshitishimcha, U va Chu yurtlarida uch mashhur zot bor ekan: Yue podsholigining birinchi maslahatchisi Fan, Szin podsholigi elchisi Chjan va Tan imperiyasining mashhur olimi

Lu. Shularning uchalasini ham chorlaganimiz va ular bilan maslahatlashganimiz ma'qul emasmikan?

Hamma bu a'yon podshoga azaldan sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan, yoshi mingdan oshgan qari zog'orabaliq ekanini ko'ribdi.

Ajdar-podsho uning gapiga kiribdi, sovg'a-salomlar tayyorlashni va uch buyuk zotni chaqirishni buyuribdi. Oradan bir necha kun o'tgach, hamma narsa tayyor bo'lganidan so'ng, u Billur saroyda mehmonlarni qabul qilibdi. Yashmadan yasalgan taxtda o'tirib u mehmonlarga quyidagi so'zlar bilan murojaat etibdi:

— Muhtaram mehmonlar, siz «ming lini ham uzoq deb bilmadan», o'z tashrifingiz bilan meni behad shod etdingiz. Nima qilsam sizlar xursand bo'lasizlar?

Uch buyuk zot shunday deb javob berishibdi:

— Behalovat dunyodagi hayot mantiqsizdir. Shu bois biz moviy bulutlar va qizg'ish chang bilan vidolashib, qalbimiz hukmiga binoan U va Chu yurtlarining ajoyib osoyishta go'shalari bo'ylab kezdik. Shu tariqa ayovsiz yillar behuda o'tdi. Kutilmaganda siz, a'lo hazratning hukmini oldik va hozir sizning qarshingizda bosh egib turibmiz.

Ajdar-podsho mehmonlarning so'zlaridan shod bo'lib shunday debdi:

— Peshonamga ayanchli taqdir yozilgan ekan: men kasal bo'lib qoldim. Uzoq yillardan beri kasallik suyaklarimni yemiryapti, yegan va ichgan dorilarimning son-sanog'i yo'q, lekin ulardan bir tukimga ham foyda bo'lgani yo'q. Tirik qolish uchun nima qilsam ekan? Agar sizlar ulkan mehr-shafqat ko'rsatib, meni hayotga qaytarganingizda! Osmon kabi buyuk bu yaxshiligingizdan men behad minnatdor bo'lur edim.

Uch buyuk zot ajdar-podshoning so'zlarini tinglab, biroz sukut saqlashibdi va so'ng shunday deyishibdi:

— Ma'lumki, sharob — insonni es-hushidan ayiradigan zahar, ayollarga o'chlik esa — umrning egovi. A'lo hazrat, hozir siz may va ayollarga haddan tashqari o'ch bo'lganingizning jazosini tortyapsiz. Bu haq jazo va unda aybdorning o'zi yo'q. Garchi

may va ayollar yoshlikda hammaga xos bo'lgan qiziqish hisoblansa-da, aynan o'sha paytda orttirilgan kasallikni Xua To yoki Byansyaoni chaqirib ham davolab bo'lmaydi. Osmonda yashovchilar giyohini va umrboqiylik o'tini kaftlab yesangiz ham, jenshen va bug'u shoxidan tayyorlangan dorilarni kecha-yu kunduz tinimsiz ichsangiz ham naf bermaydi. Agar boy bo'lsangiz, bu kasallikni yengishga xazinangiz, hammadan qudratli bo'lsangiz — kuchingiz yetmaydi. Qancha o'ylamang, afsuski, hayotingiz o'z poyoniga yetgan va kasallik jarayoniga ta'sir ko'rsatish mumkin emas.

— Eh, achchiq qismat! — debdi ajdar-podsho peshonasiga urib. — Agar men bu dunyoni tark etsam va meni tog'lar-u daryolar oralig'idagi osoyishta bir joyga dafn etsalar, ortga men hech qachon qaytmayman. Avji bahorda shaftoli va olxo'ri gullashini, bahor oxiri va yoz boshida xushbo'y giyohlar nish urishini, kuz kelishi bilan daraxtlarning barglari qizarishini va sariq xrizantemalar ochilishini, qishda qor orasida yovvoyi olxo'ri gullashini boshqa hech qachon ko'rmayman. Boz ustiga saroyning o'ttiz ming kamonqosh suluvlarini eski boshmoq singari tashlab yuborishim va narigi dunyo mehmoniga aylanishimga to'g'ri keladi! O, bundan ortiq azob bormi?!

Biroq, muhtaram mehmonlar, o'z bilimlaringizni ishga solib, menga biron-blr dorining nomini ayting. Mayli, u menga yordam bermasin, narigi dunyoga jo'nashim aniq bo'lsin, ammo achchiq qismatimni biroz yengillashtirsin.

Podshoning ko'zlaridan yosh daryo bo'lib oqibdi.

Uch buyuk zot ajdarning so'zlarini tinglashibdi va yengil tabassum bilan unga shunday deb javob berishibdi:

— A'lo hazrat, kasalligingizning alomatlari g'ayrioddiy. Umuman olganda, har qanday kasallikni davolashning o'z vositasi bor. Masalan, ich terlamada quyosho't damlamasini ichadilar, bezgakda «erkaklik kuchini me'yorga soluvchi va darmonga kirituvchi dori» beradilar, qattiq isitmalaganda ko'knori o't va puyerariya ildizlaridan tayyorlangan damlamani ichadilar, kuchdan qolganda «olti dorivor giyoh»dan tayyorlangan damlama foyda beradi, me'daning sustligida oshqozon ovqatni hazm qilishiga

ko'maklashadigan tomchilarni qabul qiladilar, oyoq zirqirab og'riganda bo'kiz tizzasining ko'zidan qaynatma davo bo'ladi, ko'z og'riganda «jigarni tozalovchi va ko'zni o'tkir qiluvchi damlama» foyda beradi, ruhiy holatning buzilishidan suv qandalasidan tayyorlangan ezibichki xalos qiladi. Olampanoh, sanab o'tilgan dorilarning birortasi ham sizga to'g'ri kelmaydi. Ammo bir mo'jizakor vosita bor: tirik quyonning jigari. Agar uni hali issiq holda yesangiz, shifo topishingiz mumkin.

— Nima uchun menga tirik quyonning jigari yordam berishi mumkin? — deb so'rabdi ajdar-podsho.

Uch buyuk zot javob berishibdi:

— Quyon — shunday bir jonzotki, unda Yer va Osmon jonivorlari, yaxshilik va yomonlik asoslari — Yan va In uyg'un birikkan. Shunday bir qonun bor: kasallik besh unsur bir-biriga kirgan yoki bir-biridan g'olib chiqqan holda tuzaladi. Tog'lar — yaxshilik, daryolar — yomonlik asosi. Jigar deb atalgan a'zo o'rtada turadi va shu bois daraxt stixiyasi bilan birikadi. Shu sababli, siz, a'lo hazrat, tirik quyonning jigarini yesangiz, yaxshilik va yomonlik asoslari bir-biri bilan birikadi va siz kasallikdan forig' bo'lasiz.

Shu so'zlarni aytgach, ular ajdar-podsho bilan xayrlasha boshlabdilar:

— Biz yashil daryolar va tog'larning do'stlari bilan Ulin shaftolizorlarida uchrashishga kelishganmiz. Shu sababli ko'nglimiz notinch va sizni shoshilinch tark etishga majburmiz. Olampanoh, sizdan faqat bir narsani so'raymiz: o'zingizni ehtiyot qiling.

Shu so'zlarni aytib ular zinadan pastga tushishibdi va Oq bulutlar tog'i tomonga qarab ketayotib birdan izsiz g'oyib bo'lishibdi.

Ajdar-podsho mehmonlarni kuzatgach, saroy ahlini o'z huzuriga chorlabdi va a'yonlarga shunday deb murojaat etibdi:

— Kasalimga biron-bir dori shifo bo'lmas ekan. Aytishlaricha, faqat tirik quyonning jigari menga yordam berishi mumkin ekan. Qaysi biringiz tirik quyonni olib kelgani odamlar dunyosiga borishga jur'at etasiz?

— Men, ojiz banda, podsho hukmini bajarishni o'z zimmamga olaman, — debdi a'yonlardan biri.

Qarashsa, bu yoshi mingdan oshgan qari sakkizoyoq ekan.

— Sizning dovyurakligingiz menga yaxshi ma'lum, — debdi ajdar xursand bo'lib. — Agar tirik quyonni olib kelsangiz, sizni katta mukofot kutadi.

Sakkizoyoqqa «Omadli o'qimishli zot» faxriy unvoni bilan sarkardalik lavozimini beramiz deb turishganida saroy a'yonlaridan biri chiqib sakkizoyoqning go'riga g'isht qalay boshlabdi:

— Seni ulug' va hatto obro'li zot deb aytishadi, lekin sen bir aqlli gap ham ayta olmayсан. Mardlik haqida gapirishni senga kim qo'yibdi! Odamlar darhol seni ushlashadi va mayda-mayda qilib bo'laklashadi. Olxo'ri va xrizantemalarning gullarini kesishadi. To'y dasturxoniga yoki uy egasi oltmish yoshga to'lishi munosabati bilan berilayotgan ziyofatda mehmonlarga seni tortishadi. Yoki go'zal ayoilar va olijanob yigitlar bazmida seni tanovul qilishadi yoki bo'lmasa biron-bir boyning uyida mehmonlar uchun tuzalgan dasturxonga qo'yishadi. Sening bo'laklaringni bolalarga o'ynagani berishadi, balki ishratparast sarbozlarga gazak bo'lishga ham yararsan. Sen zarracha qo'rqinchli va dahshatli emassan! Agar tirik quyonni olib kelgani men borsam, Men Xoni yetti marta asir olgan va yetti marta qo'yib borgan Chjuge Lyan singari o'zimni ko'rsatgan bo'lar edim. Iblisning ham xayoliga kelmagan makr-u hiyla ishlatib quyonni ushlab kelgan bo'lardim. Bu men uchun qo'lni siltashdek bir gap!

Bu gaplarni «Solnomachi» laqabli yoshi mingdan oshgan qari toshbaqa aytibdi.

Toshbaqaning gaplarini eshitib sakkizoyoqning g'azabi qo'zibdi:

— Hoy sen, nodon toshbaqa! Gapimni eshit! Sen mening oldimda hali yo'lbarsni ko'rmagan kuchukvachchaga o'xshaysan! Qilgan gunohlaringning barchasini sanaydigan bo'lsam, Tayshan tog'i uning oldida kichik bir tepalik bo'lib qoladi, daryo va dengizlar ko'lmak bo'lib tuyuladi! Sen avval turqingga bir qara! To'rt tomondan yassi, yog'och tovoqqa o'xshaysan. Olijanob zotlarga aql o'rgatishga hali yoshlik qilasan! Odamlar seni ko'rgani zahoti kki qo'li bilan senga chang solishadi va qozonga solib pishirishadi. Toshbaqa sho'rva juda mazali ovqat! Uni oqsuyaklarning bolalari

yeyishadi. Xo'sh, sen o'limdan qanday qilib qutulib qolmoqchisan?!

Toshbaqa bunga javoban shunday debdi:

— Sen — quduqdagi qurbaqasan! Dovyurak U Szisyuy yaltiragan qilich tig'ini ko'rib yuragi tovoniga tushib ketgan, jasur Chu podshosi Gaysya yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchragan ekan. Sening ahmoqona mardliging mening donishmandligim bilan teng kelar ekanmi! Sen yaxshisi iqtidorim haqidagi gapimga quloq tut. Men cheksiz dengiz suvlari bo'ylab shamol quvayotgan qog'oz varag'i yanglig' suzaman. Boshimni kosam ichiga suqib, kimningdir oyog'i ostiga tushib qolsam, tarvuzdek yumaloq, qozon qopqog'idek yapaloq bo'laman-qolaman, shunda meni o'tinchi bolalar ham, baliqchi chollar ham tanishmaydi. Men Tayshandek baland, xarsangtoshdek tekisman! Men zimdan, o'z qiyofamni ko'p karra o'zgartirib, quyonni izlab topaman va uni ushish yo'lini o'ylab topaman. Men uni Li Szoche Chu podshosini hiyla bilan aldagandek chuv tushiraman. Faqat men uni ushlashga qodirman, hiylakorlik bobida sen mening oldimda ip esha olmaysan!

Sakkizoyoq bu gaplarni eshitib (ularning har biri haqiqat ekan) alam bilan ensasini qashibdi va har tomonga chayqalib davradan chiqib ketibdi.

Ajdar esa toshbaqaning qo'lidan ushlabdi va unga qadahda may uzatibdi:

— Sizning aqlingiz va nutqingiz ajoyib! Jasorat ko'rsatib qaytib kelsangiz, mardlik, dongdorlik, boylik va shon-shuhrat yetti pushtingizga nasib etgay!

— Men, sizning kamtarin qulingiz, umr bo'yi podsho saroyida yashaganman. Quyon esa tog'da yashaydi va uni ko'rish menga hech qachon nasib etmagan. A'lo hazrat, rassomlarga uning rasmini chizishni buyursangiz, ayni muddao bo'lur edi, — debdi toshbaqa.

Ajdar toshbaqaning so'zlarini o'rinli deb topibdi va rassomlarga quyonning rasmini chizishni buyuribdi. Rassomlar yig'ilibdi. Ular ajoyib portretchi Mao Yaninou, mohir peyzajchi U Daotszi, ajdarlar rasmini chizib dong taratgan Li Sisyun

atrofida davra qurib o'tirishibdi va quyon rasmini chizishga tayyorlanishibdi.

Olim xonasining to'rt xazinasini keltirishibdi. Siyohdonlarga bir qarang! Bu yerda kuzgi suvlardagi tilla qumda yashaydigan toshbaqa kosasidan yasalgan siyohdon ham, Nampxo lojuvard toshidan ajdar ko'rinishida yasalgan siyohdon ham, Olmos tog'idagi Maxayons monastiridan keltirilgan siyohdon ham, qizil shaftoli rangidagi siyohdon ham bor ekan. Mana, siyohning eng sara navlari: «shamol va oy kuychilari siyohi», «nilufar zalidan keltirilgan siyoh», «Shouyanshan tog'ida qishda gullagan olxo'ri» siyohi, «ajdarning kekirigi» siyohi.

Mo'yqalamlar-chi! Ariq sichqoni junidan yasalgan mo'yqalam, qo'y junidan yasalgan mo'yqalam, uslubchi Szyan Yanning adabiy asarlar uchun mo'yqalami, tarixchi Ban Guning tarixiy solnomalar uchun mo'yqalami, muhrlar uchun iyerogliflarni yozishda ishlatiladigan mo'yqalam.

Turli nav qog'ozlar-chi! «Oq paxta» qog'ozi, «qor guli» qog'ozi, qalin qog'oz, Chonjudan keltirilgan «yashil bambuk» qog'ozi, Sunchxandan keltirilgan «elpig'ich» qog'oz, Chxonpxundan keltirilgan qaydlar uchun qog'oz, o'rama xitoy qog'ozi, Cholladodan keltirilgan qog'oz, she'rlar va xatlar uchun qog'oz, kitoblar va xaritalar uchun qog'oz, Se Tao qog'ozi va «xat uchun yashma taxtacha». Bularning barchasi atrofga yoyib qo'yilibdi.

Turfa xil bo'yoqlardan ko'z quvnaydi! Mana, maxsar gulidan tayyorlangan qizg'ishrang bo'yoq, mana, qizil va och yashil xitoy bo'yoqlari, mana, to'q yashil, lojuvard-yashil tusdagi bo'yoqlar, mana, «xo'roz toji» toshidan yasalgan apelsinrang va sariq bo'yoqlar. Mana, simob rudasidan tayyorlangan bo'yoq! Mana, shaftoli guli rangidagi kukun, suvga solib aralashtirilgan kukun, oltin va kumush varaqlar, majnuntol ko'miri.

Rassomlar davra bo'lib o'tirib quyonning rasmini chiza boshlabdilar. Xitoyning ajoyib manzaralarini ko'rib quvnayotgan ko'zlarni chizishibdi; to'ti va kakku qushlar sayrashini eshitayotgan quloqlarni chizishibdi; orxideya, xushbo'y gul va giyohlarni yeyayotgan og'izni chizishibdi; qishda sovuq shamoldan saqllovchi yungni chizishibdi; bulutlar orasida o'n ming turna va mingta

burgutdan o'zuvchi oyoqlarni chizishibdi; ikki ko'zi olazarak, oldi oyoqlari kaltaroq, orqa oyoqlari — uzunroq, quloqlari ding — tirik quyondan sira farqi yo'q ekan!

Ajdar-podshoga rasm juda ma'qul bo'libdi. U rassomlarni oltin va ipakka ko'mibdi, rasmni esa toshbaqaga tutqizibdi. So'ng uch marta yashma qadahni minglab kunlarga mast qiluvchi sharob bilan limmo-lim to'ldirib, toshbaqaga uzatibdi:

— Men sizni olis yo'lga jo'natyapman. Sizning menga bo'lgan sadoqatingizdan boshim osmonda. Og'riqni yengib sizga xayrlashuv she'rini yozaman va u sizga mening o'ylarim haqida hikoya qiladi.

Ajdar shu so'zlarni aytib, ipak o'ramiga mo'yqalam bilan quyidagi misralarni yozibdi:

*Siz hozir meni deb
erta saharda yo'lga chiqyapsiz.
Bahorda soy bo'yida
kungaboqarlar chappar urib gullaydi.
Uzoq yo'l daryo ortiga tomon boshlaydi,
bulutlar oqarib ko'rinadi,—
Uzoq yillar yashashim uchun
menga dori keltiring!*

Toshbaqa a'lo hazratning she'rini tavoze bilan qabul qilibdi, unga ta'zim bajo keltiribdi va shu zahoti ayni shu qofiyalarga she'r yozib, uni podshoga taqdim etibdi:

*Podsho erta saharda
elchini yo'lga kuzatmoqda.
Tungi soatlar tugayapti,
tong otib kelyapti.
Men bo'lg'usi yo'l haqida
tinimsiz o'ylayapman —
Axir dori topolmasam
men uchun ortga yo'l yo'q.*

Ajdar she'rni qabul qilib olibdi, uning yuzi quvonchdan yorishibdi va u toshbaqani maqtabdi:

— Siz o'z samimiy sadoqatingiz bilan boshqa a'yonlar orasida ajralib turasiz. Men ko'nglimni to'q qilishim mumkin: ayyor quyonni ushlash sizga albatta nasib etadi.

Shundan keyin u she'rni o'z a'yonlariga o'qish uchun beribdi. Ular toshbaqaning she'rini ko'klarga ko'tarib maqtashibdi.

Nihoyat, toshbaqa o'z podshosi bilan xayrlashibdi. U quyonning rasmini o'z yelkasiga qantarib olmoqchi bo'libdi, biroq rasm suvda ivib ketishi mumkinligini o'ylab bu fikridan qaytibdi. Shunda u o'zining ajin bosgan bo'ynini cho'zib, rasmni kosasi ichiga yashiribdi va ko'ngli joyiga tushibdi.

«Solnomachi» uyiga kelib, xotini va bolalari bilan xayrlashibdi. Xotini yum-yum yig'lab eriga yolvoribdi:

— Odamlar dunyosi xavfli, ehtiyot bo'ling! Sizga jasorat ko'rsatishni va omon-eson qaytib kelishni tilayman. Iloyim yaxshi kunlarda ko'rishaylik, umringiz uzoq bo'lsin!

Eri uni yupatibdi:

— Uzoq umr va barvaqt o'lim, yaxshilik va yomonlik — bularning barchasi Osmonning irodasi va bizning xohish-istagimizga bog'liq emas. Safardalik paytimda qari ota-onamga, bolalarga qara, men haqimda esa tashvish chekma.

Toshbaqa yo'lga tushibdi. U dengizda uzoq suzib bir toqqa yetibdi.

Avji bahor pallasi, daraxtlar, maysalar, butun tiriklik hayotdan quvonayotgan ekan. Osmonda kapalaklar juft-juft bo'lib parvoz qilar, yashil majnuntollar daryo uzra bosh eggan ekan. Zarg'aldoq qush yoqimli ovozda sayrab juftini chorlar ekan. Gullar orasida mudrayotgan turnalar qadamlar tovushidan cho'chib osmonga ko'tarilayotgan ekan. Daraxtlarning shoxlarida kakkular xush ovozda suhbat qurmoqda ekan. Xullas, atrofdagi ertaknamo manzara hukmron ekan! Syao-syan g'ozini xayrlashayotib: «Uchib ket-yapman!», deya g'a-g'alarmish. Szyannandan uchib kelgan qaldirg'och: «Uchib keldim!», deb bijirlarmish. Tobulg'izorda bulbul xonish qilayotgan emish. Piyongullar orasida qovoqari ovoz chiqarib uchayotgan emish. «Qo'ng'iroqcha» qush

sayrayotganmish. Kakkular kukular, qarg'alar qag'illar, kaptarlar g'ug'ular emish. Bundan ajibroq manzara bormikan?!

Toshbaqa o'zini qurshagan go'zal manzaradan bahra olib daryoning bosh qismiga ko'tarila boshlabdi. Atrofga olazarak qarab quyonning izlarini qidiribdi. Qarasa, bu yerda olmaxon, bug'u, shoqol, bo'ri, ayiq, to'ng'iz, yumronqoziq, kirpi, yo'lbars, arslon, maymun, fil, bo'rsiq va tulkinning izlari bor ekan. Ammo ko'p sonli izlar orasida quyonning izlari ko'rinmabdi. Toshbaqa ajin bosgan bo'ynini oldinga cho'zib atrofga alanglabdi. Shu payt orqada qandaydir hayvonning sharpasi eshilibdi. O'girilib qarasa, rasmdagi hayvonga quyib qo'ygandek o'xshash bir jonivor turganmish! Ha, albatta, bu quyon! Toshbaqa xursand bo'lib ketibdi va quyonning odatlarini o'rganish uchun uni kuzata boshlabdi. Mana, quyon o't izlay boshlabdi, nish urayotgan akas kurtaklarini chimdib yebdi. Baland xarsangtoshlar ustidan sakrab o'tibdi, tepalikdan pastga o'mbaloq oshib tushibdi.

Toshbaqa quyonga tavoze bilan murojaat etibdi:

— Omadingiz bor ekan: baland tog'da yashaysiz. Mabodo, janob quyon o'zlari emasmi? Ha, tog' qahramoni deganlaricha bor ekansiz! O'zimga munosib do'st qidirib uzoq kezdim va bugun sizni uchratdim. Janob quyon bilan yuz ko'rishib turganimdan behad xursandman. Agar men bilan do'stlashishga rozi bo'lsangiz, aslo attang qilmaysiz.

Quyon toshbaqaning so'zlarini tinglab, balandparvoz ohangda so'rabdi:

— Memi izlovchi, sen kimsan? Tog'lar baland, daralar chuqur va bu ajib joylarda sen meni izlayapsan. Kimsan o'zing?

Shouyanshan tog'ida Boi va Shusi qirqquloq izlagandek izlayapsanmi?

Syuy-yu Inchuan daryosi suvida qulog'ini yuvgan ekan, — meni shunday izlayapsanmi?

Fuchuninan tog'ida Yan Szilin yer haydagan ekan, — meni shunday izlayapsanmi?

Sze Szituy olis tog'lar bag'rida qolib ketgan ekan, — meni shunday izlayapsanmi?

Xan podshosi mulozimi Chjan Szifan sibizg'a chalgan ekan, — meni shunday izlayapsanmi?

To'rt o'rtoq — shanshanlik qariya shashka o'ynagan ekan, — meni shunday izlayapsanmi?

Syuy Yuan Milo daryosiga o'zini tashlab, yordamga odam chaqirgandek meni izlayapsanmi?

Shoirilar podshosi Li Bo she'r yozgandek meni izlayapsanmi?

Lyu Lin o'z she'rlarida niyati madh etganidek meni izlayapsanmi?

Lyansi, Loyan, Guanchjun va Minchjun donishmandlari shamol va oyni madh etganlaridek meni izlayapsanmi?

Budda o'z ta'limotini targ'ib qilganidek meni izlayapsanmi?

An Sishen va Chi Sunszi obi hayotni topganlaridek meni izlayapsanmi?

Dono Chjuge Na-nyandagi kulbayi xarobada yashayotib tush ta'birini to'g'ri topgandek meni izlayapsanmi?

Lyu Bey shaftolizorda o'z do'stlarini uchratganidek meni izlayapsanmi?

Su Dunpo daryo bo'ylab Qizil devor ostidan qayiqda suzib o'tganidek meni izlayapsanmi?

O'zini shirakayf qariya deb atagan Ouyan Syu ziyofatlar tashkil qilganidek meni izlayapsanmi?

Xo'sh, sen kimsan?

Quyong ikki qulog'ini ding qilibdi va toshbaqaga ohista yaqinlashibdi. Qarasa, oldida qandaydir yumaloq, qora, yapaloq jonzo turgan emish. Quyonga u xavfli bo'lib tuyulmabdi, shunga qaramay u xavfsirashini qo'ymabdi. Toshbaqa esa quyonga yaqinroq kelishni taklif qilibdi. Shunda quyong, nima bo'lsa bo'ldi, — deya qaror qilib, toshbaqaga juda yaqin kelibdi. Ular bir-birlariga ta'zim qilishibdi va o'tirib, birinchi tanishuv uchun kumushdan yasalgan, ichiga eng sara tamaki navlari — «anvoyi giyoh», «Pxenyan giyohi», «Olmos tog'ida o'sgan giyoh» solingan chilimlarni, so'ng yantar va yashmadan yasalgan chilimlarni chekishibdi. Keyin chilimlarni bir chekkaga qo'yib, yong'oq va akas barglarini tanovul qilishibdi.

Birinchi bo'lib toshbaqa gap boshlabdi:

— Men mashhur quyon janoblari haqida ko'p eshitgan va u bilan bir marta bo'lsa ham ko'rishishni orzu qilgan edim. Bugun men nihoyat shu sharaftga erishdim. Nima uchun bu shu qadar kech yuz berdi?

— Men dunyoning to'rt burchagida bo'lganman, lekin bunaqa qo'rqinchli jonzotni birinchi marta ko'ryapman. Sen guvala devorini buzayotib boldirsiz qolganmisan? Shuning uchun ham oyoqlaring bu qadar kaltami? Yo biron-bir mulozimni haqorat qilganing uchun sochingdan tortishgan va bo'yni cho'zilib ketganmi? Yo kisenning oldiga kirganingda uning jazmanlari oyog'i ostida qolib yalpoq bo'lib qolganmisan? Yog'och lagandan sira farqing yo'q-ku?! Xo'sh, ismi sharifing nima? Senga aytgan gaplarimning hammasi hazil. Mendan xafa bo'lma!

Bu gaplardan toshbaqa bir qop semiribdi, biroq bu yerga nima uchun kelganini eslab sevinchini ichiga yutibdi va shunday deb javob beribdi:

— Mening ismim toshbaqa, laqabim — «Solnomachi». Yelkam kengroq, lekin u menga suvda suzish va cho'kmaslik imkonini beradi. Oyoqlarim kalta, lekin yerda yuraman va yiqilmayman. Bo'ynim uzun, lekin uzoqmi ko'raman. Men yumaloq bo'lib tug'ilganman va dunyoda shunday yashayman. Shuning uchun ham men suv hayvonlarining sardoriman, harbiy va noharbiy amaldorlardan yuqori turaman.

— Men o'z umrim mobaynida ko'pni ko'rganman, lekin bunday atoqli zotga birinchi marta duch keliishim, — debdi quyon.

— O'tmishingiz juda boy ekan. Yoshingiz nechchida? — deya qiziqibdi toshbaqa.

— Necha marta oltmish yoshga to'lganim aniq yodimda yo'q. Yoshligimda men Oysaroyda po'stloqli daraxt soyasida yotganimda o'qchi Ining xotini obi hayot qidirib kelgani esimda. Yoshi bir yuz-u sakson mingdan oshgan Dunfan Sho mening shogirdim bo'ladi. Sakkiz yuz yil yashagan Pen Szu mening oldimda chaqaloq. Sening otang tenging bo'lsam kerak.

Bunga toshbaqa e'tiroz bildiribdi:

— Bu gaplaringiz bilan siz o'zingizni Osmon O'g'li bilan tenglashtiryapsiz. Agar mening hayot kitobimga yugurik nazar tashlasangiz, hayratdan yoqa ushlashingiz muqarrar. Pangu tug'ilganda, men uning onasiga dengiz o'tlaridan sho'rva ichirganman. Taxtga Tyan-xuan o'tirganda, men mehmonlar dasturxoniga baliq tortganman. Di-xuan va Jen-xuan yerni to'qqiz viloyatga ajratgan o'sha mashhur kun xuddi kechagidek esimda. Yuchao shoxlardan chayla qurishi, Suyjen gulxanda ovqat pishirishi mening ishtirokimda o'tgan. Podsho Fusi maxluq yelkasiga yozilgan sakkiz trigramma javobini men bilan birga topgan. Gungun Chju-yun bilan jangda osmon ustunini buzganda, men besh rangli tog' va Nyuyvani maydalab, u bilan osmonga uloq solganman. Shen-nun dehqonchilik qurollarini yaratib, barcha giyohlarni sinab ko'rgan, ulardan dori-darmonlar tayyorlaganda, men unga yordam berganman. Xuan-di qayiq yasayotganda, men duradgorlik qilganman. U Chjolu yaqinida Chiyu bilan jang qilayotganda, mening maslahatim bilan qo'qqisdan zarba bergan va Chiyumi asir olgan. Men Szin-tyanga taxtni egallash yo'lini ko'rsatganman va Chjuan-syuyga davlatni idora qilishni o'rgatganman. Gao-sin tug'ilayotib o'z ismini aytganini men o'z qulog'im bilan eshitganman. Imperator Yao davrida ko'chalarda yangragan qo'shiqlar hanuzgacha qulog'imda jaranglaydi, imperator Shunning «Janub shamoli» qo'shig'ini esa xuddi kecha eshitgandekman! Imperator Yuy to'qqiz yil to'xtamagan suv toshqinlarini bartaraf etganida, men uning sha'niga hamd-sano aytganman. Podsho Tan davrida tutzorda Osmondan yomg'ir so'rab yolvorish, Chju podsholari Chjou, Ven-van va U-van davrlari, ularning podsholigida amal qilgan, Chjou-gungning sa'y-harakatlari bilan tartibga keltirilgan va madh etilgan marosimlar va musiqalar ham kechagidek yodimda. Faqat men Milo daryosida halok bo'lgan Syuy Yuanni qutqara olmaganman, chunki shu paytda men G'arbiy dengizga sayohat qilayotgan bo'lganman. Buni men hali-hanuz afsus bilan eslayman. Bundan chiqdi, men sizdan ancha kattaman va sizga bobolikka yarayman. Shunday emasmi? Keling, bu gaplarni qo'yib, dunyoda qanday mo'jizalar borligi haqida so'zlashaylik.

— Agar men odamlarning ishlari haqida gapiradigan bo‘lsam, sen hayratdan hammayoqni ho‘l qilib qo‘yasan va shu ko‘lmak bo‘ylab qayiqdek suzib ketasan, — debdi quyon.

— Ko‘p maqtanmasdan, gapira qoling! — deb uning so‘zini bo‘libdi toshbaqa.

Quyon o‘z hikoyasini boshlabdi:

— Bizning yurtimizda go‘zal Uchtog‘ cho‘qqilari qilich yanglig‘ osmonni kesadi. Tog‘larni bir chetga qo‘yib, suvlarga qarasak, qarshimizda «bahor suvlari ko‘llarni to‘ldirgani»ni, orqamizda esa — «yoz bulutlari ajib cho‘qqilarni o‘z og‘ushiga olgani»ni ko‘rishimiz mumkin.

Tog‘ ostida bir joyni tozalab, tomiga poxol yopilgan kichkina bir kulba qurasan. «Bir tomonida xo‘jayin — sovuq shamol, ikkinchi tomonida — yaltiragan oy». Tuproq zinalarda yomg‘ir-po‘sh va qalpoq shu qadar orasta va tozaki, bunaqasini boshqa hech qayerdan topolmaysan! Turnalar qurilaydi, osmonda qaq-nuslar parvoz qiladi. Tog‘larda shifobaxsh giyohni izlab topasan, daryoda baliq tutasan. Bundan ortiq rohat bormi?

Moviy osmonda oy yaltiraydi. Sen tog‘ cho‘qqilari va daralar orasida yolg‘iz, eshikni berkitasan. Erkin bulutlar bu yerda o‘z soyalariga termuladi. Bunday ajoyib go‘zallik dunyoda yagona. Bulutlar yanglig‘, sen ham dunyo tashvishlaridan xolisan. Bu yerda seni kim izlab topadi?

Sovuq kunlar o‘tadi va yana havo isiydi. Shundan men fasllarni ajrataman. Kunlar, kunlar ketidan oylar o‘tadi. Men vaqt hisobini yo‘qotganman.

Ko‘m-ko‘k daryolar va yam-yashil tog‘lar joylashgan o‘sha ovloq go‘shada anvoyi gullar va xushbo‘y giyohlar o‘sadi. Qaqnus va tovuqlar bir-biri bilan gurung qiladi. Zarang tog‘larida to‘tiqushlar, kakkular va zarg‘aidoqlar biri olib, biri qo‘yib sayraydi. Erta tongda ajoyib manzaralarni kuzatib bahra olasan. Kunlun cho‘qqilarida oq bulutlarni chetga surib pastga qaraysan. Mana, Tayshan tog‘i — yashil ajdar, Xuashan — oq yo‘lbars, Xenshan — qora toshbaqa, yana bir Xenshan — qizil qaqnus. Syao, Syan daryolari va Pinli ko‘li menga ko‘ylak bo‘lib, Xuanxe va Yansziszyan daryolari esa — kamar bo‘lib xizmat qiladi. Qizil

devor ostidagi daryo go'zalliklarini men she'rda vasf etaman. Emey tog'larida yaltiragan oyni tomosha qilib lazzatlanaman. Uchtog'da dorivor giyohlarni istagancha yulaman. Duntinxu ko'lining suvida cho'milib tog'lar bag'riga qaytaman. Baland tog'lar — mening uyim. So'ligan gullar — mening to'shagim. Daraxtlar orasidan mo'ralayotgan oy — mening yaqin do'stim. Qayrag'ochzorni tebratayotgan shamol ovozi — komungoda chalinayotgan kuy. Boshimga toshni yostiqliq qilib qo'yaman-da, hamma narsani unutamani. Qayerdandir eshitiladigan turnalar qurillashi meni uyg'otmasa, bas! Ozmi, ko'pmi vaqt o'tadi va men uyg'onib, tosh so'qmoqdan, hassaga tiranib, Xanipanga ko'tarilaman. Ko'nglim tusagan joyda kezaman. Oq bulutlar ming, o'n ming li masofaga cho'zilib ketgan. Daryolarda oy nuri aks etadi. Atrofda baland tog'lar qad rostlagan. Men shu tog'lar va daryolar bag'rida yashayman. Bu go'zal manzaraga eng yuksak lavozimni ham almashtirmayman!

Men toqqa sharq tomondan ko'tarilaman. Muzday shabada esadi va men undan cheksiz bahra olaman.

Ba'zan daryo bo'yida kezib she'r to'qiyman. Ammo hayratimni ifodalashga so'z ojiz. «Oy bulutlar ortidan qalbimga nur sochadi. Majnuntollar tomondan esayotgan shamol yuzimni silaydi». Muzday shamol va yorqin oydan-da yaxshiroq do'st bormi?! Men Fusi fuqarosi yanglig' dushmansiz yashayman, ajoyib o'lkada tarkidunyo qilgan zohid kabi tog'lar va daryolar manzarasidan ko'nglimga siqqancha bahra olaman. Kim menga ta'na toshini otadi?

Shaftoli va olxo'rilar gullaydi, majnuntollar yashil to'nga burkanadi. Daryolarning bo'ylarida butun dunyo go'zallari kir yuvishadi. Ba'zan kaftlariga suv olishadi-da, atrofga olazarak qarab, marmardek oq ko'kraklarini yuvishadi. Bu qizlar menga Yashma ko'lidagi nilufarlarni eslatadi.

Tano kuni soyalar yanada chuqurlashadi, giyohlar yanada xushbo'y hid taratadi. Yashil ko'ylak va qizil yubka kiygan suluvlar arg'imchoq uchishadi. Bu Kvanxallu minorasi oldida yuz bergan voqeani eslatadi!

Men, go'zal tog'lar va daryolar bag'rida yashovchi jonzo't, bu tengi yo'q suluvlarni kuzatib lazzatlanaman.

Toshbaqa kulib yuboribdi:

— Voy o'lib qolaman! Xa-xa! Gaplaringiz quruq maqtanishdan boshqa narsa emas. Bu safsatani kim eshitadi?! Hayotingizda sizni sakkiz ko'ngilsizlik kutadi. Ikkala qulog'ingizga ham yaxshilab quyib oling!

Sovuq qishda yerni oppoq qor bosadi. Baland tog'lar va cho'qqilarni muz qoplaydi, aksariyat daralarni ham tizza bo'yi qor qoplaydi. Shunda siz qayerga qochasiz? Bu — birinchi.

Shimol shamoli sovuqni haydah keladi, shunda tog'-toshlar orasida siz yeyishga biror narsa topa olmaysiz. Faqat burningizni yalab qaltiraysiz! Achchiq qismat haqida kuylay boshlaysiz. Bu — ikkinchi!

Bahor shamoli issiq havo olib keldi ham deylik. O't-o'lanlardan to'yguningizcha yeb toqqa qaytasiz. Shunda qayerdandir bir burgut paydo bo'ladi va sizga chang soladi. Siz toshlar orasida g'ujanak bo'lib olishdan boshqa chora topolmaysiz. Shunda ko'zingizga iblislar ko'rinadi. Bu — uchinchi!

Yozda, jazirama kunlarda tog'lar va vohalarda birdan yong'in chiqadi, daryolardagi suv qaynab ketadi. Yong'inda qolib kuyasiz, tilingiz bir qarich osilib buloq sari chopasiz. Bundan-da ayanchli hol bo'lmasa kerak! Bu — to'rtinchi!

Kuz keladi. Siz turli xil mevalardan yeb qorningizni to'y-g'azasiz va uxlash uchun xilvat joy qidirasiz. Ammo sizni ovchi o'z lochini bilan birga ta'qib qiladi. Ov itlari hidingizni olib, izingizdan quvishadi. Siz yelday uchib qochasiz, qo'rquvdan vujudingizni sovuq ter qoplaydi. Bu — beshinchi!

Baxtingiz kulib o'limdan qutulib qoldingiz, deb faraz qilaylik. Ammo mergan ovchilar pistirmada turib naq yuragingizni poylab otishadi. Siz esa, qo'rquvdan yuragingiz yorilib, bor kuchingiz bilan chopasiz, yashirinish uchun joy qidirasiz. Bu — oltinchi!

Siz sillangiz qurib o'rmonga qochib kelasiz, bu yerda esa sizni ulkan bir yo'lbars tishini g'ijirlatib qarshi oladi. U nafas olsa — daraxtlar chayqaladi, o'kirsa — tog'-u toshlar larzaga keladi.

Osmonni bulut qoplaydi, yurak esa tovonga tushib ketadi. Bu — yettinchi!

O'limdan bazo'r qutulgach, siz tekislikka qarab chopasiz. Ammo u yerda o'tin terib yurgan bolalar va podachilar qichqirib sizga kaltak bilan tashlanishadi. Sizning nafasingiz tiqiladi, tomog'ingiz quriydi va siz duch kelgan joyga qarab yugurasiz. Bu — sakkizinchi!

Bunday xavf-xatarlar va qoch-qochlar silsilasida tabiat manzaralari, muqaddas tog'lardagi gullar va giyohlar, Duntinxu ko'lida cho'milish yurakka sig'arkanmi?! Ammo, sanab o'tganlarimdan tashqari, boshqa ko'ngilsizliklar ham bisyor. Quloqqa yoqmaydigan narsani gapirmagan ma'qul!

Quyvon toshbaqaning gaplarini oxirigacha eshitibdi, e'tiroz uchun u bir so'z ham topolmabdi va shunday debdi:

— Shirinsuxanlikda siz Su Sin va Chjan Idan ham o'tar ekansiz! Shao Yundek karomatgo'y ekansiz! Ammo birovning kulfati haqida gapirish o'rinsiz: tinglovchining bu xususda o'z fikri bor. Buyuk donishmand Konfutsiy Chen va Say yurtlari chegarasida xor-u zor yashagan ekan, Chu podshosi, buyuk qahramon o'zini ko'lga tashlagan ekan. Yaxshilik va yomonlikni Osmon hadya qiladi, to'qchilik yoki yo'qchilik esa — taqdir tuhfasi. Bu yerda kuch ham, aql ham yordam bermaydi, demak, bu haqda gapirishdan foyda yo'q. Yaxshisi, suv osti saltanati haqida gapirib bering. Men bajonidil eshitaman.

Toshbaqa tomoq qirib gap boshlabdi:

— Gapni suv osti saroyidan boshlayman. Besh rangli bulutlar quyuqlashgan joyda marvarid va qimmatbaho toshlardan qurilgan qasr qad rostlagan. Zinalari oq yashmadan, ustunlarining poydevorlari — qahrabodan, ustunlarning o'zi esa — koralldan yasalgan. Saroy naqshinkor panjara bilan o'ralgan, tomiga oltin cherepltsa yotqizilgan. Oynavand derazalarida va billur bilan bezalgan pardalarida fonarlar — tunda yaltiraydigan marvaridlar jilosi aks etadi. Koshona yetti inju bilan bezalgan. Yaltirashi quyosh nurini kesadi. Osmonda baxtli nishonalar yo'qolmaydi. Har kuni ziyofat, ziyofatlarda — she'rlar va musiqa. Nilufarlarga o'xshash suluvlar juft-juft bo'lib raqs tushishadi. May daryo bo'lib oqadi,

qahrabo laganlarda, billur xontaxtalar ustida umrboqiylik hadya etuvchi giyohlar yotadi, ko'ngil quvnaydi, tan bahra oladi. Ajoyib manzaralarni — Emey tog'i peshtoqidagi yarimoyini, Qizil devor ostidagi daryoni, Penlay, Fanchjan, Inchjou tog'larini tomosha qilamiz. Qaytib kelgach, Sayshiszyan va Syaosyan tog'lari, Duntinxu va Penlisze ko'llari bo'ylab qayiqlarda sayr qilamiz. Daryoga oq qirov tushadi va suv rangi osmon rangi bilan birikadi. «Oqshom shafag'i flamingo bilan birga tushadi. Kuzgi suvlar va cheksiz osmon — bitta rangda». «U va Chu podsholiklarini bir-biridan Duntinxu ko'li ajratadi: biri — ko'lining sharq tomonida, ikkinchisi — uning janub tomonida. Ziyo va zulmat, syan va kun unda kecha-yu kunduz aks etadi». Tekis qumga g'oz qo'nadi, oq chag'alaylar uxlash tadorigini ko'radi. Shunda sibizg'aning g'amgin ohanglari baliqchining ovozi bilan qo'shiladi. Suv ostida ajdar raqs tushadi. Yakka qayiqda beva ayol ko'z yoshi to'kadi. Osmonda oy yaltiraydi, yulduzlar miltillaydi, qarg'a va hakkalar janubga uchadi. Imperator Shunning xotinlari — Exuan va Nyuyin chalayotgan surnay ovozi g'amgin o'ylarga yetaklaydi. «Daryo ortida bozorchi xotinlar kuylayotgan «Ayol xonasidagi gul» qo'shig'i esa qalbga umid baxsh etadi». Mana, «Xan-shan tog'idagi monastir, bu yerda tunda qo'ng'iroq ovozi eshitiladi». «Shamol qo'log'och ovozini olib keladi». Demak, qishloq yaqin. Mana, baliqchilar Chu daryolarida «aynay»ni hirgoyi qilmoqdalar. «Oltin va yashma ko'llarda qizlar xirgoyi qilib, nilufar ildizlarini kavlamoqdalar». Bu hayratomuz bir hol emasmi? Dengiz saroyi dunyoning bir mo'jizasi, desak, aslo adashmaymiz!

— Siz chindan ham baxtli jonzot ekansiz, — deb rozi bo'libdi quyon. — Men esa, omadsiz, shu tog'lar va o'rmonlarga bog'lanib qolganman, tarkidunyo qilib yashayman. Boshqa daryo va ko'l-larga bormay bekor qilgan ekanman.

— Men sizga do'st sifatida bir narsani taklif qilmoqchiman, — debdi shunda toshbaqa. — Siz o'ylamasdan rozi bo'lavering. Mashoyixlar: «Xavfli mamlakatga qadam bosma; notinch mamlakatda yashama», degan ekan. Bunday beqaror dunyoda yashab nima qilasiz? Uchrashuvimiz tasodifiy bir hol emas. Bu tashvishlarga to'la hayot bilan xayrlashib, men bilan birga dengiz

saroyiga yo'l oling. U yerda siz osmon ahli orasida lazzatlanib yashaysiz, har kuni iloha Sivanmu bog'larida o'sgan shaftoli, umrboqiylik giyohini tanovul qilasiz, «yuz kungacha mast qiladigan» may, mo'jizakor shudring ichasiz. Saroy ko'shklarida Ushan parisi bilan bazmi jamshid qurasiz. Shunning besh torli sinini, shahzoda Syaoning yashmadan yasalgan sibizg'asini chialasiz, «Yanan haqida qo'shiq» va «Bahorgi tush»ni kuylaysiz, Yueyan minorasi yoki Ten-van shiyponida bazm qurasiz, Bronza Chumchuq minorasida she'rlar yozasiz, Qaqnus koshonasida mayxo'rlik qilasiz, xullas, bearmon davr surasiz. Balki shunda dunyoning g'am va tashvishlarini hech bo'lmasa tushda eslarsiz?

Quyonga bu gaplar shubhali bo'lib tuyulibdi va u bosh chayqabdi:

— Gaplaringiz yoqimli, ammo ularning zamirida xavf yashirilib yotgan bo'lsa-chi? Axir, «Tulkidan qochsang, yo'lbarsga tutilasan», «Xumga tushgan sichqon undan chiqa olmaganidek, taqdirdan qochib qutulolmaysan», deb bejiz aytishmagan. Quruqlikda yashaydigan jonzotga dengiz saroyida nima bor? Axir dengiz saroyida meni yerdagidan ko'proq qiyinchiliklar kutadi. Birinchidan, men nafas ola olmayman. Tirik jonzot nafas olmay yashashl mumkinmi? Boz ustiga, oyoqlarim chaqqon bo'lsa-da, men suzishni bilmayman. Hamonki shunday ekan, dengiz qa'riga qanday qilib tushaman? Peshonamga yozilmagan ne'matlarga qiziqib, bu dunyoni tark etib sizga ergashdim ham deylik. Darhol boshimdagi yetti teshikdan suv kiradi va men jon taslim qilaman. Agar mening tanam baliq ichida o'ziga qabr topsa, jonim uysiz och ruhga aylanadi. Baliqlar va qisqichbaqalar mening do'stlarim bo'ladi, men Syuy Yuan bilan juft bo'laman. Agar bu yuz bersa, qarindoshlarim va avlodlarimdan birortasi ham meni qidirib topa olmaydi. Nima bo'lganda ham bu xavfli reja ekani aniq. Mechju pishirayotganda unga tuz solish kerakligini hamma biladi. Biroq haddan tashqari ishonuvchan bo'lish yaramaydi. Meni behuda alqamang!

Toshbaqa kulib yuboribdi:

— Nodonlik qilmang! Mashoyixlar: «Qamish bog'lamida ham daryoni kechib o'tish mumkin», deyishgan. Shu sababli chao-

chjoulik Yuy Shanven Guyanmyaogun dengiz saroyiga tushgan va saroy ustunlarini bezagan she'rlarni yozgan. Li Vo suvda oyni ushlamoqchi bo'lib kitda osmonga ko'tarilgan. O'qituvchi Syuan-szan bu yerdan uch ming li naridagi Chjan'exe daryosidan o'tib Tripitakani keltirgan. Xan podshosining mulozimi Chjan Syan solda Kumushdaryo boshiga ko'tarilib, tikuv dastgohining mokisini olib kelgan. Ananda G'arbiy o'lka bo'ylab sayohat qilar ekan, nilufar bargida cheksiz dengiz bo'ylab suzgan. Agar uning hayotini Osmon boshqargan bo'lsa, uning o'limi behuda bo'lgan, deb aytish mumkinmi?! Mard bo'lib tug'ilgan jonzot o'zini qo'rqqoqday tutishining nima keragi bor? Axir olijanob inson birovni xavfli yerga boshlamaydi. Qanday qilib men sizni halokatga boshlashim mumkin? Dono Konfutsiy: «Olijanob er aldovda ham qoidalarga rioya qiladi», shuningdek: «Notinch yurtida yashama», degan ekan. Olijanoblik qonida bo'lgan mendek bir zot sizni aldab nima qiladi? Birov menga ning tilla va xou unvonini bersa ham bunga rozi bo'lmayman. Birovni aldab xavfli joylarga olib borishdan menga ne naf?!

Toshbaqa gapida davom etibdi:

— Oynaga bir qarang. Yungingiz oltindek tovlanyapti. Ma'lumki, oltin suvni paydo qiladi va suv bilan chiqishadi. Bo'yingiz uzun — demak, o'z yurtigingizni bilasiz va o'zga yurtlarda ham yashay olasiz. Iyakni ko'tarsang, hamma narsa sog'lom fikr bilan to'qnashadi va har bir ish mushkul tus oladi. Uni tushirsang, hamma narsa sog'lom fikr bilan muvofiqlashadi va har qanday ish xayrli yakun topadi. Toza quloq birovning gaplarini yaxshi eshitadi, boylik va dongdorlik hadya etadi. Peshonangizga Ajdar darvozasiga yetish va dovruq qozomish yozilgani haq. Ovozigingiz ajoyib. Umr bo'yi birorta ham noto'g'ri qilmish sodir etmagansiz. Siymongizdan barkamollik ufurib turibdi! Har qadamda sizni shon-shuhrat, baxt-saodat va boylik kutadi. Siz Yan-guyfey Tan podshosi Min-xuanga, shudring yig'ish uchun kosa esa — Xan podshosi U-diga yetkazgan lazzatlarni tuyasiz. Sizni yuz o'g'ilning otasi va ming nabiraning bobosi bo'lgan Go Szining taqdiri kutadi. Siz Shi Chun kabi boy bo'lasiz. U podshosining qo'shig'i «Dayxu-an», Sun podshosining qo'shig'i «Fennyao» va Chjan

Szifan surnayning navolari sizga orom baxsh etadi. Sim Syanju torining navolari ostida Chjo Venszyunning o'zi oldingizga devor oshib keladi. Aldash usullari haqida gapiradigan bo'lsak, shakarguftorlikda siz biri olti podsholikni birlashtirishni, ikkinchisi esa — ularni ajratishni ko'zlagan Su Sinn va Chjan Idan qolishmaysiz. Davlat darajasida fikrlash bobida Chjuge Lyan o'zining sakkiz istehkom rejasi bilan sizning oldingizda ip esholmaydi. Bunday iroda, tashqi qiyofa, strategik qobiliyatlari hech kimda yo'q. Siz — tog'larni talqon qilishga qodir qahramonsiz! Shunday qobiliyatlarga ega bo'la turib siz ovloq bir joyda yashayapsiz, mavjud lazatlardan birortasini ham tatib ko'rmagansiz. Bu yerda sizni faqat musibatlar kutadi. Bu joyni tark eting va boshqa yurtlarga qarab yo'l oling. Shunda siz o'n ming orzuigingizning hammasi bir vaqtda ro'yobga chiqishini ko'rasiz. Gapimga quloq soling, o'ylab ham o'tirmasdan vaziyatdan foydalaning va dengiz saroyiga tashrif buyuring. Bunday imkoniyat faqat bir marta beriladi. Agar Osmon yuborgan bu ne'matdan foydalanmasangiz, keyin afsus qilasiz.

Quyvon e'tiroz bildiribdi:

— Men, shubhasiz, buyuk zotman, lekin sizning bashoratlaringiz shubhali. Axir uzoq umr yoki barvaqt o'lim, qashshoqlik va omad bashoratga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, boylik haqidagi bashoratni olaylik. Oq bulutlar shiypni deb atashadigan Uch boshli tog' cho'qqisida oyoq uzatib yotsam ham Shi Chun xazinasini o'zi meni qidirib kelarkan-da? Uzoq umr haqidagi bashorat-chi! Zolimlar Sze va Chjou odamlarni kuydirganidek, meni ham olovda kuydirishsa, tirilishim mumkin ekan-da? Bunday gaplarga ishongan har kimni oldinda kulfatlar kutadi.

Toshbaqa esa o'z gapidan qolmabdi:

— Bu so'zlaringizning barchasi sizning omiligingizdan dalolat beradi. Sizga bunday qiyofa bekorga berilmagan. Burni uzun Xan podshosi Gao-szu yoshligida oddiy soqchi bo'lgan va keyinchalik sulola asoschisiga aylangan. Tan podshosi Tay-szun ham ilgari olim bo'lgan va o'z qiyofasi sharofati bilan sulolaga asos solgan. Sunn podshosi Tay-szu to'rtburchak yuz va shalpang quloqlarga ega bo'lgan holda Osmon O'g'liga aylana olgan. Boshqa

qahramonlar va atoqli zotlarning barchasi ham yuksak mavqega o'z qiyofasi bilan erishgan. Bu gap barcha podsholar, vazirlar, boyonlar va sarkardalarga tegishli.

Mashoyixlar: «Yo'lbars iniga kirmasang, yo'lbars bolasini tuta olmayсан», deyishgan. Buyuk zot tug'ilib, davlat ishlarini bajara boshlasa, uni ikki og'iz gapidan tanib olish mumkin. Bu yerda o'zingizni xarob qilishingizdan ne foyda? Ikkilangan odam azaldan hech narsaga erisha olmagan ekan. Siz halok bo'lasiz, qadimda Kuay Tunming gapiga kirmagan Xan Sin singari, sizni gulxanda pishirishadi. Agar Chjun Fan Lining gapiga kirganida, xunrezlik yuz bermagan bo'lardi. O'tmishni bila turib kelajakka xulosa chiqarmaslik nodonlik emasmi? Maslahatimga quloq solmasdan, keyin attang qilib yurmang.

Quyon avvalgidek ikkilanishda davom etibdi va jilmayib, shunday javob beribdi:

– Menimcha, siz boshqa odamlarga o'xshamaysiz. Siz behad oliyjanob va oliyhimmat zotsiz, umringizda hech kimni aldamagan bo'lsangiz kerak. Mendek bir faqirga ajoyib o'lkada yashashni taklif qilyapsiz. Bundan men behad xursandman. Biroq saroyga borsam, u yerda munosib lavozimga erisha olamanmi?

Toshbaqa terisiga sig'may sevinibdi: «Bu go'lah qopqonga ilindi shekilli!» Og'izda esa u shunday debdi:

– Gaplaringizdan siz hayotni ham, tarixni ham bilmaydiganga o'xshaysiz. Lishan tog'larida yer haydagan Shun Yaodan taxtni olgan ekan. Veyshuy suvlarida baliq ovlagan Szyan-taygun Chjou podshosi U-vanning maslahatchisi lavozimiga erishgan ekan. Oddiy dehqon bo'lgan I In podshosi Chentanning eng yaqin mulozimiga aylangan ekan. Fusyanda ariq qazigan Fu Yue In podshosi Gao-szunning maslahatchisi bo'lgan ekan. Ho'kiz boqqan Boli Si Sinn podshosi Mu-gunning o'ng qo'liga aylangan ekan. Kirchi xotindan bir burda non so'rab tilangan Xan Sin Xan podshosi Gao-szuning sarkardasi bo'lgan ekan. Suv osti podsholigida siz odamlar dunyosidagi kabi yuksak martabaga erishishingiz mumkin.

Oqil podsho mulozimlarmi tanlaydi, dono vassal esa – podshoni. Bizning hukmdorimiz urushlarga chek qo'ygan va o'z

saltanatida ishlarni boshqarish bilan band. U dono yordamchilarga muhtoj. Iqtidorli odamlar bizda mansab pillapoyalaridan tez ko'tariladi. Hatto men, faqirga ham saroy mulozimi lavozimini berishgan. Sizdek noyob iste'dodli atoqli zot saroyda paydo bo'lganingiz zahoti yuksak mavqe va boylik o'zi sizga yopishadi!

Hozir suv osti saltanatida tarixchi suv bilan havodek zarur. Bu lavozimga erishish uchun adabiy iste'dodingizning o'ndan biri ham kifoya qiladi. Qo'lingizga mo'yqalamni olganingiz zahoti mashhur Dun Xuga xos bo'lgan fazilatlarni namoyon etasiz va bu nainki saltanatimiz ravnaqiga, balki sizning o'z shon-shuhratingizga ham xizmat qiladi. Sizning dovrug'ingiz butun Xitoyga tarqaladi. Saroyga yetib borganimiz zahoti men sizni podshomizga tanishtiraman.

Quyon jilmayibdi:

— Gaplaringiz yoqimli-ku, lekin mening bugungi tushim baxtsizlikdan darak beradi va bundan men qattiq tashvishdaman.

— Yoshligimda men tushlar ta'birini bilganman, — debdi toshbaqa. — Xo'sh, u qanday tush ekan, bilsam bo'ladimi?

— Tushimda men qilichni qinidan sug'urib qorninga bosibman va butun tanam lok bilan qoplanibdi. Bir kulfat yuz bermasa edi.

Toshbaqa shu zahoti quyonning gapini bo'libdi:

— Tashvishingiz behuda, bu juda yaxshi tush. Qorningizga qilichni bosibsiz, qilich — bu temir. Demak, belingizga oltin kamar taqasiz. Tanangiz lok bilan qoplanibdi — bu qizil libos kiyishingizdan darak. Dovrug'ingiz davlat chegarasidan tashqariga chiqadi va butun dunyoga tarqaladi. Bu baxt-saodat va boylikdan darak beruvchi ajoyib tush! Konfutsiy tushida Chjou-gunni ko'rganida, bu donishmand odamning tushi bo'lgan. Chjuan-szi tushida kapalakka aylangan ekan, bu faylasufning tushi. Chjuge Lyan tushida xarob kulbani ko'rgan ekan — bu atoqli zotning tushi. Boshqa odamlarning tushlari — oddiy tushlar. Ammo sizning tushingiz — tushiar podshosi. Agar siz dengiz saltanatiga ko'chib borsangiz, hammadan yuksakka ko'tarilasiz.

Quyon bu gaplardan bir qop semiribdi. Oliy harbiy va noharbiy mulozimlarning muhrlari allaqachon o'z kamariga osilgandek sevinibdi.

— Siz tushlarni ruhdek talqin qilyapsiz! Shao Kansze va Li Chunfen tirilib qolsa, talqiningizga bir soʻz qoʻshishga ojiz boʻlar edi. Yaxshilikdan darak beruvchi tushni koʻrdim. Demak, boylik va dongdorlik menga kafolatlangan. Ammo cheksiz dengiz orqali men qanday oʻtaman?

Toshbaqa sevinchdan oʻyinga tushib ketishiga oz qolibdi.

— Tashvish qilmang, — debdi u, — yelkamga chiqib oʻtirsangiz, har qanday dengiz ham sizga choʻt emas. Koʻz ochib yumguncha manzilga yetib olamiz. Shu ham ish boʻldimi?!

Quyvon ichida xursand boʻlsa ham, odob yuzasidan oʻzini bozorga solibdi:

— Doʻst uchun siz joningizni ham ayamas ekansiz. Haqiqiy doʻstlik aslida shunday boʻlishi kerak. Ammo yelkangizga chiqib oʻtirsam, sizga malol kelmasmikan?

— Eh, sodda odam! — deya kulibdi toshbaqa. — Veyshuy suvlarida baliq ovlagan Lyuy Shan Chjou podshosi U-van bilan aravada teng odamlardek ketgan ekan. Darvozani qoʻriqlagan Xou In Sinlin-szyusey bilan yonma-yon oʻtirgan ekan. Fuchunshan togʻida yer haydagan Yan Szilin Xan podshosi Guanʼu-di bilan bir yostiqa bosh qoʻyib uxlagan ekan. Doʻst haqida gap ketganda yuksak yoki tuban mavqening nima ahamiyati bor?! Suv osti saltanatida yashasak, biz gʻam-tashvish va shon-shuhratni birga baham koʻramiz. Tortinmay ustimga minavering!

Quyvon quvonchdan boshi osmonga yetibdi.

— Sizning bu yaxshiligingizni men oʻla-oʻlguncha unutmayman. Bu dunyoda men koʻp musibatlariga duch kelganman. Hammayoqda miltiq koʻtargan odamlar izgʻib yurishadi, meni ushiab yemoqchi boʻlishadi. Toʻngʻich oʻgʻlimni oʻtin terib yurgan bolalar ushlab olishgan va pishirib yeyishgan. Oradan yetti-sakkiz yil oʻtmasdan ikkinchi oʻgʻlimni ovchl itlar ushlab burda-burda qilishgan, u qargʻalar va hakkalarga yem boʻlgan. Bu bir necha yil oldin yuz bergan. Esolasam, haligacha yuragim uvishadi. Bu bebaqo dunyoni tark etishni oʻylab, kecha-yu kunduz bosh qotirayotgan paytim men qoʻqqisdan sizdek oliyjanob doʻstga duch keldim. Endi men sizning sharofatingiz bilan yaxshi kunlarga yetaman! Bunga Osmon imkon berdi, ruhiar esa koʻmaklashdi!

Dononi dono bir chaqirimdan taniydi, deydilar. Agar siz bo'lmasangiz, mening siymomda atoqli zotni kim tanib olgan bo'lardi? Agar sizni menga Osmonning hukmi yubormaganida, men tog'da qolib ketgan bo'lardim. Biroq, agar men bo'lmasam, dengiz saltanati fuqarolari mendek atoqli zotni hech qachon uchratmagan bo'lishardi.

Quyong gerdayib toshbaqaning yelkasiga chiqib o'tirmoqchi bo'lgan ekan, birdan tosh ostidan qandaydir hayvon chopib chiqibdi va unga qarab baqiribdi:

— Men sizlarning safsatangizni boshidan oxirigacha eshitdim. Nodong quyon, gapimga quloq sol! Boylik va yuksak mavqe, shon-shuhrat osmonda suzayotgan bulutga o'xshaydi. Peshonangga nimadir yozilgan ekan, toshbaqaning quruq va'dalariga uchib nima qilasan? «Vatanni razil odam tark etadi», degan maqol bor. Dengiz saroyiga bording ham deylik, nima, boylik va yuksak mavqe qo'lingga osongina tushar ekanmi? Maslahatinga quloq sol, bu puch orzulardan voz kech!

Quyong qulog'ini ding qillbdi va joyida ikkilanib turib qolibdi. Bu qanday hayvon bo'ldi deb qarasa, gapirgan bo'rsiq ekan.

Toshbaqaning g'azabi qo'zibdi, biroq u o'zini bosibdi: «Ming hiyla-nayrang bilan ahmoq quyonni laqqa tushirgan paytimda manavi hayvon bor harakatimni chippakka chiqarmoqchi. Unga nima kerak o'zi? Hozir sal past kelsam ham ayyor quyon fikridan qaytishi mumkin. Manavi go'lahning vajlarini chippakka chiqarsam, quyon o'z ahdidan qaytmaydi».

Toshbaqa bo'rsiqqa istehzo bilan qarab shunday debdi:

— Kimligingizni bilmadim-u, lekin bunday omi jonzotni birinchi marta ko'rib turibman! Chaochjoulik Yuy Shan-ven qashshoq bir olim bo'lsa-da, dengiz saroyiga kelib va uni o'z asarlarida madh etib, podshomizdan mehnati uchun o'nta brilliant, xos qalpoq va karkidon suyagidan kamar olgan ekan. Buning daragi butun Xitoyga tarqalgan. Nahotki siz qulog'ingiz bo'la turib buni eshitmagansiz?

Tarixchi lavozimi — davlatda muhim lavozim. Men muhtaram quyonning adabiy iste'dodi va xattotlik mahorati behuda sovrilayotganini ko'rib uni o'zim bilan birga ketishni taklif qildim.

Siz bo'lsangiz asossiz shubhalar bilan do'stimni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'lyapsiz. Agar niyatimning sofligiga kimdir shubha qilayotgan bo'lsa, men muhtaram quyonni o'zim bilan birga olib ketishdan bosh tortaman.

Toshbaqa quyonga qarab shunday debdi:

— Axir biz bir-birimizni hech narsada shubha qilganimiz yo'q-ku. Sizni biron-bir shubhali ishga tortishga haddim sig'arkanmi?! Hanionki menga bir marta ishongan ekansiz, yaxshi do'stingizning maslahatlariga oxirigacha quloq soling.

Men podshomizning amriga binoan Sharqiy dengizga ish bilan borgan edim. Qaytayotib bu yerga yo'lim tushdi. Ortiq bu yerda ushlanib qololmayman. Salomat bo'ling!

Toshbaqa yeng siltab dengiz tomonga qarab yuribdi. Bo'rsiq, gapirishga tili lol, uyatdan qizarib turib qolibdi. Toshbaqa bo'rsiqni izza qilgani va endi qo'l siltab ketib borayotganini ko'rgan quyonning fig'oni falakka o'rlabdi va bo'rsiqqa tashlanibdi:

— Nega sen birovlarining ishiga burningni tiqasan?! — So'ng u bor ovozda: — To'xtang, gapimni eshiting! — deya baqirib, toshbaqaning ortidan yuguribdi.

Toshbaqa jo'rttaga yana ikki-uch qadam olg'a yuribdi va shundan keyingina ortga o'girilibdi:

— Orqamdan nega yuguryapsiz?

— Men faqir bo'lsam ham bu nodonning gapiga ishonmayman! — debdi u. — Meni qat'iyatsiz deb o'ylamang, hoziroq siz bilan yo'lga chiqishga tayyorman!

Toshbaqa ichida behad sevinib, quyon bilan birga dengiz qirg'og'iga kelibdi, quyonni yelkasiga o'tqizib, to'lqinlar osha suzib ketibdi.

Toshbaqaning podshoga sadoqati o'z cho'qqisiga yetibdi. U ayyor quyonni chuv tushirib podshoning oldiga olib keta boshiabdi. Quyon toshbaqaning yelkasida o'tirib, atrofga nazar tashlabdi. Uning qarshisidan Syao, Syanning chuqur suvlari, cheksiz Duntinxuning sariq suvlari oqib o'tibdi. «Osmon hukmi bilan men toshbaqaga duch keldim. Tog'dagi mushkul hayotdan xalos bo'ldim. Endi saroyda yashayman, boylik va shon-shuhratga erishaman. Bundan ortiq rohat bormi dunyoda!»

U sevinchdan qo'shiq ayta boshlabdi:

*Men g'am-tashvishga to'la dunyoni tark etdim
Va uzoq yo'lga chiqdim.
Bizning Yashil tog'lar vohamiz
Suv osti saltanatidan kichikroq.
Toshbaqaning yelkasiga minib,
Men olg'a suzib ketyapman.
Bulutlar yuziga qarab kulaman —
Ular ortimdan quvib yetolmaydi.
Tarixchining mo'yqalamini qo'lga olaman,
Dengiz xalqini o'z iste'dodimni tan olishga
Va qarshimda bosh egishga majbur qilaman,
Uch ming kishining hammasini.
Men boylik va yuksak lavozimni
Ozodlik bilan birlashtiraman.
Tinchlik va osoyishtalikda ming yil
Yashashga umid qilaman.*

Quyvon o'z qo'shig'ini tamomlab kulib yuboribdi, toshbaqa esa istehzo bilan: «Bu dog'ulining burni haddan tashqari ko'tarilib ketdi-ku!», deya xayolidan o'tkazibdi va she'r bilan javob qaytaribdi:

*Mening ko'ksimdan sodiq qul yuragi
Mustahkam o'rin olgan.
Men Yashil tog' sari
Notanish so'qmoq bo'ylab oshiqdim.
Mening vujudim
Eng og'ir mehnatdan ham qo'rqmaydi.
Chuqur suvda men to'lqinlar bo'ylab
U yoqdan bu yoqqa suzaman.
Ayyor quyonni ushlab,
Bu haqda podshoga xabar qilaman
Va uning yuzida
Minnatdorchilik alomatini uqaman.*

*Men ajdar-podsho kasallikdan
Forig' bo'ladi deb umid qilaman,
Shunda men uni mamlakatda osoyishtalik
Qaror topgani bilan tabriklayman.*

Quyong bu so'zlarni eshitib sarosimaga tushib qolibdi:

— Qo'shig'ingizda qandaydir chuqur ma'no yashiringa o'xshaydi. Nima gap?

Toshbaqa uni tinchlantirishga oshiqibdi:

— Hech qanday ma'no yo'q, shunchaki bir qo'shiq.

Biroq quyoning shubhalari tarqalmabdi:

— «Ayyor quyonni ushlab, bu haqda podshoga xabar qilaman va uning yuzida minnatdorchilik alomatini uqaman. Men ajdar-podsho kasallikdan forig' bo'ladi deb umid qilaman», deganda, siz nimani nazarda tutgansiz?

«Sen mening qo'limdasan, lekin o'zingma nisbatan shubha uyg'otishning foydasi yo'q», deya xayolidan o'tkazibdi toshbaqa va savolga javob bermasdan suv ostidagi saroy sari oshiqibdi. Bu yerda u quyonni yelkasidan tushiribdi va unga:

— Behuda shubhalar bilan o'zingizni qiynamang va mehmonlar uchun uyga to'g'ri kirib boravering, — debdi.

Quyong tinimsiz atrofga alanglar ekan. Bu yerda yer va osmon cheksiz, quyosh va oy yorqin nur sochar ekan. Ajoyib saroylar osmonga o'rigan, yuz berishi lozim bo'lgan baxtli voqealar nuri eshiklar va derazalarda qotib qolgan ekan. Quyonga yaxshi kayfiyat qaytibdi va u toshbaqaning ortidan mehmonlar uchun uy tomon yo'l olibdi.

Toshbaqa quyonni uyga kiritib:

— Shu yerda birpas bo'lib turing, men siz bilan birga podshoning oldiga kirish uchun ijozat olib kelaman, — debdi va uni tez tark etibdi.

Quyoning ko'ngliga yana shubha oralaibdi: «Nima uchun u meni uyga kiritdi va uzoq yo'ldan keyin bir piyola may ham taklif qilmasdan, darhol saroyga chopqillab ketdi? Bunda bir gap bo'lmasa edi?»

Ammo shu zahoti ko'nglidan quyidagi gap o'tibdi: «Mening shonli ismim dengiz saltanati fuqarolariga ma'lum bo'lsa kerak. Toshbaqa avval o'z podshosiga xabar bergani ketdi va uning shaxsiy farmoniga binoan menga qirol munshiyxonasi boshlig'ining muovini lavozimini berishadi. Hamonki oddiy mehmondo'stlikni ham unutishgan ekan, podsholikning ko'p yillik tarixi tezroq yozilishini istashayotgan ko'rinadi».

Quyondoshbaqaning kelishini poylab o'tiribdi. Toshbaqa esa bu vaqt saroy sari oshiqayotgan ekan.

Saroyda toshbaqa paydo bo'lgani zahoti a'yonlar unga o'z hayratlarini bildirib boshlashibdi. Kimdir darhol bu haqda ajdarga xabar qilibdi. Ajdar zudlik bilan toshbaqani olib kirish va uni o'z taxti oldiga o'tqizishni buyuribdi. Toshbaqadan hol-ahvol so'ragach, ajdar undan quyondoshbaqa haqida surishtiribdi. Toshbaqa unga ta'zim qilib javob beribdi:

— Sizning buyrug'ingizni olgach, men besh ko'l va uch daryodan moneliksiz o'tdim va Sharqiy dengiz qirg'og'iga yetdim. Tog'lar orasida men quyonni topib, ming hiyla-nayrang bilan uni bu yerga kelishga ko'ndirdim. Mashaqqatlar bilan uni o'z yelkamga o'tqizgach, men nihoyat bu yerga qaytib keldim. Quyonni mehmonlar uchun uyda qoldirdim, o'zim esa sizning huzuringizga chopdim.

Toshbaqa quyonni qanday qilib aldaganini ajdarga gapirib beribdi. Ajdar uning hikoyasini eshitibdi, xursand bo'libdi va o'z tizzasiga urib, toshbaqani maqtabdi.

— Podshoga bunday sadoqat va so'zamollik davlatimizda boshqa hech kimda yo'q. Osmon sizni menga buyuk marhamat sifatida yuborgan.

So'ng ajdar o'z a'yonlariga murojaat qilibdi:

— Osmon hukmi bilan men uch ming dengiz hayvoniga boshliq qilinganman. Bir kuni men kasal bo'lib qoldim va uni davolashning yo'li uzoq vaqt topilmadi. Uch buyuk zotning maslahati bilan «Solnomachi» laqabli toshbaqa odamlar dunyosiga borib, u yerdan quyonni olib keldi. Shu tariqa u o'zining menga bo'lgan sadoqatini namoyon etdi. Endi men shu quyonning jigarini yesam, kasaldan forig' bo'laman. Bu davlatimiz uchur

buyuk voqea bo'ladi. Shu bois men hammaga Abadiy fozillik saroyida ziyofatni kutishni, «Solnomachi» laqabli toshbaqani esa Janubiy dengiz davlati bo'yicha farmon bilan lavozimda ko'tarishni buyuraman.

Saroy a'yonlari farmon bilan tanishib, xursand bo'lishibdi va bir-birlarini tabriklashibdi. So'ng hammalari birga saroyga kelishibdi va bu yerda quyidagicha o'rin olishibdi: eng faxrli joyda Oliy kengash boshlig'i, ayni vaqtda tibbiyot sho'basi va butxonalarni muhofaza qilish sho'basi boshlig'i — katta toshbaqa o'tiribdi. Uning yonidan — katta toshbaqaning o'rinbosari va ayni vaqtda qo'shinlarni tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan kit o'rin olibdi. Undan keyingi o'rindiqdan katta toshbaqaning boshqa bir o'rinbosari — timsoh joy olibdi. Undan keyinda lavozimlar sho'basi boshlig'i — zog'orabaliq o'tiribdi. Uning yonidan moliya sho'basi boshlig'i treska balig'i, marosimlar sho'basi boshlig'i qalqonbaliq, harb ishi sho'basi boshlig'i dengiz olabug'asi, jinoyat ishlari bo'yicha sho'ba boshlig'i puzanok, qurilish sho'basi boshlig'i tunes, poytaxt sho'basi boshlig'i kefal, podshoning shaxsiy asarlari sho'basi boshlig'i va ayni vaqtda saroyda kitobat ishi bo'yicha sho'ba boshlig'i va shu bilan bir vaqtda munshiyxona boshlig'i tovonbaliq, uning o'rinbosarlari — sakkizoyoq va qiyshiqog'iz o'rin olibdi. Ulardan keyinda boshqa baliqlar — turli sho'balar va bo'limlarning yuksak martabali mulozimlari joy olishibdi.

Qutlash marosimidan so'ng ajdar quyonni olib kelishni buyuribdi. Qidiruv sho'basi mulozimi — mintay balig'i soqchilarni boshlab mehmonlar uchun uyga yo'l olibdi.

Bu vaqt quyon uyda yolg'iz toshbaqani kutib o'tirgan ekan. Birdan qidiruv sho'basi mulozimi soqchilar bilan birga paydo bo'libdi va farmonni e'lon qilibdi. O'ng va chap tomondan quyonni soqchilar o'rab olishibdi, qo'l-oyog'ini bog'lashibdi va saroy tomonga sudrab ketishibdi. Ko'z ochib yumguncha uni ajdar qoshiga yetkazishibdi va tiz cho'kib o'tqizishibdi.

Quyon yurak yutib boshini ko'taribdi va ajdarga nazar tashlabdi. Ajdar boshiga toj, egniga qizil libos kiygan, qo'lida farmonlarni yozish uchun yashmadan yasalgan taxtachga ko'tarib

olgan ekan. Saroy a'yonlari uning ikki tomonida saf tortib turisharkan. Bularning barchasi o'ta tantanavor bir manzara ekan.

Ajdar adyutantlar sho'bası mulozimi orqali quyonga o'z hukmini yetkazibdi:

— Men — dengiz saltanati podshosiman. Sen — mayda tog' hayvonisan. Men uzoq yillardan beri betobman. Kasallikdan meni sening jigaring tuzatishi mumkinligini eshitib, seni olib kelgani «Solnomachi» laqabli toshbaqani yubordim va u seni olib keldi. Seni o'lim kutmoqda, lekin sen bundan g'am chekma. O'lganingdan keyin seni ipak bilan kafanlashadi, oq nefrit va qahra-bodan yasalgan tobutga solishadi va xushmanzara joyda dafn etishadi. Men tuzalganim zahoti sening sharafingga ibodatxona qurdiraman. Tog'da ham sen baribir yo'lbarsga yem bo'lar yoki ovchilar o'qiga uchrar eding. Behuda o'lib ketgandan ko'ra shon-shuhrat qozongan yaxshi emasmi? Men seni aldamoqchi emasman va sen o'lganingdan keyin ruhga aylangach, mendan xafa bo'lmayсан.

Shundan keyin ajdar o'z mulozimlariga tezroq quyonning qornini yorish va uning jigarini chiqarib olishni buyuribdi. Shu yerda turgan soqchilar darhol quyonning oldiga yugurib kelishibdi, qilichlarini yalang'ochlashibdi va o'z hukmdorining buyrug'ini bajarishga hozirlanishibdi.

Ajdarning so'zlaridan quyonning esi og'ibdi. «Shon-shuhrat va boylikka uchib o'z yurtimni tark etdim, ammo bu yerda men o'z o'limimni topadiganga o'xshayman, — deya xayolidan o'tkazibdi u. — Bu yerda qanoting bo'lsa ham foyda bermaydi. Masofani qisqartirish sehrini bilsang ham qochib ketolmayсан. Nima qilsam ekan? Ammo qadimgi qoida bor: o'limdan oldin o'lma! O'lishga ulguraman, hozir tirik qolishining yo'li haqida o'ylashi kerak». Quyonning miyasiga ajoyib bir fikr kelibdi. U shu zahoti, yuz ifodasini o'zgartirmasdan, boshini ko'taribdi va ajdarga murojaat etibdi:

— Men, bir faqir, o'limga tayyorman, lekin bundan oldin gapimni aytishga ruxsat eting! Siz — dengiz saltanati podshosisiz. Men — mayda tog' hayvoni quyonman. Agar mening jigarim sizning azoblaringizni ozgina bo'lsa ham yengillashtirishga qodir

bo'lsa, sizga uni taklif qilmasligim mumkinmi? Boz ustiga, o'limimdan keyin meni shunday izzat-ikrom kutarkan, mening sharafiga ibodatxona qurilarkan. Sizning marhamatingiz Osmon kabi ulug'. Men o'lsam kim ham g'am chekar edi? Ammo, shunga qaramay, men oddiy hayvonlardan farq qilaman. Men yerga Fan burjidan yulduzda tushganman. Har kuni ertalab men yashmaga qo'ngan shudringni ichaman, kecha-yu kunduz anvoyi giyohlar va gullarni yeyman. Shuning uchun ham jigarim chinakam obi hayotga aylangan. Odamlar buni bilishiadi va uchrashganimizda doim mendan jigarimni so'rab tilanishadi. Oxiri ular mening toqatimni toq qilishdi. Men o'z jigarimni yuragim bilan birga sug'urib oldim, yashil tog'lar orasida toza suvda uni bir necha marta yuvdim va toshlar orasiga yashirib qo'ydim. O'zim esa sayr qilgani yo'l oldim. Yo'lda menga toshbaqa uchradi. Podshoning kasali haqida bilganimda, jigarimni o'zim bilan birga olib kelgan bo'lardim.

Quyvon toshbaqaga qarab gina qilibdi:

— Podshoga shunday sodiq ekansan, nega menga haqiqatni aytmading?

Ajdarning g'azabi qaynabdi:

— Sen chindan ham ayyor hayvon ekansan! Hayvonlar o'z jigarini olib qo'rganini kim eshitgan? Tirik qolish uchun sen ayyorlik qilib meni chalg'ityapsan! Meni o'z tuzog'imga ilinadi deb o'ylayapsanmi? Meni aldashga urinayotganing — katta jinoyat. Tez jigaringni ber! Aks holda qorningni yoraman va ham shifo topaman, ham aldov uchun seni jazolayman.

Yana quyvonning nafasi ichiga tushib ketibdi, xuddi jigari erib ketgandek butun vujudini ter bosibdi. Yurak urishi deyarli to'xtabdi, ko'ksi siqa boshlabdi va u: «O'limim aniqqa o'xshaydi», deb o'ylabdi. Shunga qaramay, iljayishga urimbdi:

— A'lo hazrat, so'zlarimga quloq soling. Qornimni yorsangiz-u, jigarni topolmasangiz, sog'lig'ingiz yaxshilanmaydi. Meni behuda hayotdan mahrum qilasiz va jigarni undirish imkoniyatidan ham mahrum bo'lasiz. Afsus qilasiz, lekin kech bo'ladi. Tanangizga yaxshilab o'ylab ko'ring.

Ajdar quyonning gaplarini eshitibdi, uning yuz ifodasi o'zgarmagani ham ko'ribdi, lekin baribir shubhasi tarqalmabdi:

— Balki gaplaring rostdir. Ammo jigar chiqadigan joyda qandaydir iz qolgan bo'lishi kerak-ku!

Quyon xursand bo'lib ketibdi: «Bo'ldi, o'limdan qutuldim!» Sirtida esa shunday debdi:

— Uchadigan va sudralib yuradigan jonzotlardan faqat menda tanamning quyi qismida uchta teshik bor. Shulardan biri — jigarni chiqarib olish va qayta solish uchun.

Ajdarning battar jahli chiqibdi:

— Gaplaring — qip-qizil hiyla, nayrang! Uchadigan yoki sudralib yuradigan hayvonda shunaqa teshik bo'lishi mumkinmi?!

Quyon esa o'z fikrini asoslashga kirishibdi:

— Quyonda uch teshik qayerdan bo'lgan? Birinchi bo'lib osmon, keyin — yer, uchinchi bo'lib — inson, to'rtinchi bo'lib — o'n ming narsa va ularning orasida hayvonlar paydo bo'lgan. Hayvonlar paydo bo'lgan dam «myo» deb ataladi. Mening laqabim ham shunday yangraydi. Uchadigan va sudralib yuradigan hayvonlarni jiddiy o'rgansak, quyon hayvonlar va qushlar podshosi ekani ayon bo'ladi! O'tni payhon qilmaydigan silin quyondan past. Tariq yemaydigan qaqnus ham uch yorug'lik manbai — quyosh, oy va yulduzlar sharafiga tanasining quyi qismida uch teshik bilan yaratilgan quyon oldida ip esholmaydi. A'lo hazrat, agar so'zlarimga ishonmasangiz, meni ko'zdan kechirib, bunga o'zingiz ishonch hosil qilishingiz mumkin.

Ajdarning qoshlari chimirilibdi, ammo soqchilarga u quyonni yaxshilab ko'zdan kechirishni buyuribdi. Qarashsa, quyonning tanasida, u aytgan joyda chindam ham uch teshik bor ekan. Biroq ajdar shubha qilishda davom etibdi:

— Sen jigarni sug'urib olish qo'limdan keladi, deding. Demak, sen uni joyiga ham solib qo'yarkansan-da?

Quyon: «Hiylam ish berdi!», deya xayolidan o'tkazibdi va ajdarga qarab shunday debdi:

— Biz, quyonlar, ko'p jihatdan boshqa hayvonlar bilan o'xshashmiz. Bola qilmoqchi bo'lsak, oyga qarashimizning o'zi kifoya qiladi. Tug'ish vaqti kelgach, bolalar og'zimizdan chiqadi.

Eski kitoblarga qarang, ularda bu haqda aytilgan. Jigarni joyiga solish kerak bo'lganda, men bu ishni faqat og'zim orqali bajaraman.

Ajdarning shubhasi ortibdi:

— Sen boya jigarni chiqarib olaman va joyiga solib qo'yaman, deding. Balki hozir jigaring qayerdaligi yodingdan chiqqandir? Qani, tezroq uni chiqargin-da, meni davola!

— Men, albatta, jigarni chiqarib olaman va joyiga solib qo'yaman, lekin hammasining o'z mavridi bor. Har oy birinchidan o'n beshinchigacha men uni o'zimda saqlayman, quyosh va oy efirlaridan nafas olaman, oq va qora bug'larni shimaman. O'n beshinchidan o'ttizinchigacha men jigarni sug'urib olib yashma ko'lida tozalab yuvaman. So'ng hech kim ko'rmasligi uchun uni qayrag'och va bambuklar quyuk o'sgan joyda, xarsangtoshlar orasida yashiraman. Shuning uchun ham odamlar jigarni chinakam obi hayot deyishadi. Hozir — oltinchi oyning birinchi o'n kunligi. Toshbaqani uchratganimda, beshinchi oyning oxiri edi. Agar menga podshoning kasalligi haqida gapirishganida, men jigarni olib kelgan bo'lardim. Hamma ayb toshbaqada!

Umuman olganda ajdar o'ta ishonuvchan ekan. U quyoning gaplarini eshitib: «Agar uning gaplari rost bo'lsa-chi? Qornini yorsag-u, jigarni topolmasak-chi? Quyong o'lib qolsa, hammasi barbod bo'ladi-ku! Yaxshisi, borib jigarni olib kela qolsin», deya xayolidan o'tkazibdi va quyoning qo'l-oyoqlarini yechib, saroyga olib kirishni buyuribdi. Quyong avval bosh tortibdi, lekin keyin qo'rquvdan qalt-qalt titrab ichkariga kiribdi. Ajdar unga shunday debdi:

— Muhtaram quyong, yaqinda yuz bergan anglashilmovchilikdan xafa bo'lmang! — Shu so'zlarni aytib u quyonga oq nefritdan yasalgan qadahda «ming kunga mast qiladigan» may uzatibdi. Yana u quyondan uch marta xafa bo'lmaslikni so'rabdi. Quyong qadahni tavoze bilan olibdi va mayni ichib, ajdarga minnatdorchilik bildiribdi.

Shu vaqt saroy a'yonlaridan biri oldinga chiqibdi va shunday debdi:

— Men quyondan makkor hayvon yo‘q, deb eshitganman. Boz ustiga, «Olijanob zot olijanoblik bilan aldaydi», degan qadimdan qolgan gap bor. Quyoning yolg‘oniga quloq solmang, tezroq uning jigarini sug‘urib oling va o‘z kasalligingizni davolang!

Hamma ovoz kelgan tomonga qarabdi: bu sudlov sho‘basida ishlaydigan mayda baliq ekan. Ajdar bunga javoban:

— Muhtaram quyon — tog‘lar orasida yashaydigan zohid. U qanday qilib meni aldashi mumkin? Bilmasangiz gapirmang!

Mayda baliq jahli chiqqan bo‘lsa-da, tilini qisishga majbur bo‘libdi. Ajdar quyon sharafiga ziyofat berishni buyuribdi. Oq nefritdan yasalgan laganlarga abadiy navqironlik o‘tini solishibdi, qadahlarga ajoyib may quyishibdi, sehrli musiqa yangrabdi, suluvlar juft-juft bo‘lib raqs tusha boshlashibdi, «Linbo ko‘li» kuyi quloqqa chalinibdi.

Quyon mast bo‘lib qolibdi va: «Jigardan ayrilib tirik qolish mumkin bo‘lganida, men qariguncha shunday yashagan bo‘lar edim!», deya xayolidan o‘tkazibdi.

Ajdar quyonga shunday debdi:

— Men suv osti saltanatida yashayman, siz esa — tog‘larda umrguzaronlik qilasiz. Suv va quruqlik bir-biridan uzoqda joylashgan. Bugungi uchrashuvimizni karma ming yil oldin belgilagan. Agar siz menga o‘z jigaringizni olib kelsangiz, sizning oldingizda qarzdor bo‘lib qolmayman! Sizni nafaqat mukofotlayman, balki o‘sha lahzadan e‘tiboran siz boylik va shonshuhratdan lazzatda yashaysiz. Buni yaxshilab o‘ylab ko‘ring.

Quyon sal bo‘lmasa xaxolab yuborayozibdi, ammo o‘zini qo‘lga olibdi va quvonch bilan xitob qilibdi:

— Tashvish chekmang, olampanoh! Sizning marhamatingiz bilan o‘zimga berilgan kunlarni oxirigacha yashayman. Sizning yaxshiligingizni qanday qilib qaytarishni bilmayman! Hozir menda jigar yo‘q, men sizga hayot hadya qilish yoki sizni o‘limdan qutqarishdan ojizman va bundan qattiq afsusdaman.

Ajdar xursand bo‘libdi. Ziyofatdan keyin u saroy a‘yonlariga quyonni alohida xos xonaga olib borib yotqizishni buyuribdi.

Quyonni hashamatli bir xonaga olib kelishibdi. Oldiga dasturxon yozib, odamlar dunyosida bo‘lmagan anvoyi taomlarni

tortishibdi. Ammo sho'rlik quyon o'zini xuddi igna ustida o'tirgandek his qilibdi.

«Ajdarini-ku aldading, lekin bu yerda uzoq qolmaganim ma'qul», deya qaror qilibdi quyon. Tunni bedor o'tkazgach, u ertasi kuni ajdarga taklif qilibdi:

— A'lo hazrat uzoq yillardan beri kasaldan qutula olmayapti. Men o'z jigarimni olib kelgani tog'larga yo'l olmoqchiman. Sizga bo'lgan sadoqatimni inobatga oling.

Ajdar sevinchi ichiga sig'may o'sha zahoti toshbaqani chaqiribdi:

— Mehningni ayama, muhtaram quyon bilan birga odamlar dunyosiga otlar.

Toshbaqa boshini kosasi ichiga yashirib amrni eshitibdi. Ajdar esa, quyonga murojaat qilib, undan tezroq qaytishni so'rabdi va ikki yuz dona marvarid hadya etibdi:

— Bu, albatta, xamir uchidan patir, lekin avval siz o'z sadoqatingizni isbotlashingiz kerak.

Quyon tavoze bilan hadyani qabul qilibdi va ajdar bilan xayrlashibdi. U darvozadan tashqariga chiqqanida, hamma unga oq yo'l tilabdi va tezroq qaytishni so'rabdi. Faqat sudlov sho'basidagi mayda baliqqina quyonni kuzatgani chiqmabdi.

Quyon toshbaqaning yelkasiga minib, yana cheksiz dengizni kesib o'tibdi va qirg'oqqa tushibdi. Shunda u: «Men tuzoqdan qutulib chiqqan qush, pistirmadan omon chiqqan yo'lbarsman. Agar mening ayyorligim bo'lmaganida, qadrdon tog'lar va daryolarni qayta ko'rish menga nasib etarmidi?» — deya xayolidan o'tkazibdi u va sevinchdan joyida dik-dik sakray boshlabdi.

Toshbaqa:

— Tezroq ortga qaytishning yo'lini qilsang-chi! — deya quyonni shoshiribdi.

Quyon esa xaxolab kulib yuboribdi:

— Eh, ahmoq! Qanday qilib ichki a'zolardan ajralish va jigarmi sug'urib olish mumkin? Men o'zimning tengi yo'q ayyorligim bilan sening suv osti saltanatingni aldading. Ajdaring bilan mening necha pullik ishim bor? O'lsa, o'lib ketavermaydimi! Sen bo'lsang, tog'da tinchgina yashab yurgan jonzotni aldab, yuksak martabaga

erishmoqchi bo'lding. Dengiz saltanatida qanday qo'rquvni boshdan kechirganimni eslasam, sochim tikka bo'ladi! O'zi seni o'ldirish kerak edi! Ammo, mehnatingni inobatga olib, — axir sen meni dengiz osha yelkangda olib kelding, — seni tirik qo'yib yuboraman. Tezroq bu yerdan qorangni o'chir va o'sha qari ajdaringga borib ayt: hayot va mamot taqdirning qo'lida, u o'zining ahmoqona umidini uzaversin! — Shunday deb quyon yana xaxolab yuboribdi. — Podsholigingdagi hammani chuv tushirdim. Bo'm-bo'sh davlat deb shuni aytishsa kerak-da!

Quyon qayrag'ochzorga sho'ng'ib ko'zdan g'oyib bo'libdi. Toshbaqa quyon ortidan umidsizlik bilan ko'z tikib chuqur xo'rsinibdi: «Men podshoga lozim darajada sodiq emasman, shuning uchun ham quyon meni aldadi. Endi nima qilaman? — U yana xo'rsinibdi: — Davlatimizning sho'rlik fuqarolari. Podsho endi o'ladi. Men qaysi yuz bilan u yerga qaytib boraman, podshoning, fuqarolarning ko'ziga qanday qarayman? Yaxshisi, bu yerda o'lganim ma'qul!» — Toshbaqa boshini urib yorgani qoya tomonga qarab yuribdi.

Shu payt uni kimdir chaqiribdi:

— Hoy, «Solnomachi», qari odamning gapiga quloq soling!

Toshbaqa o'girilib qarasa, qarshisida qalpoq va pushti libos kiygan zohid-daos turgan emish. U jilmayib toshbaqaga shunday debdi:

— Podshoga sadoqatingizga qoyil qolish mumkin! Men Osmon amriga binoan sizga mo'jizakor dorini topshiraman. Tezroq yurtigingizga qaytib boring va podshoni davolang!

Shu so'zlarni aytib u yengining ichidan dori chiqaribdi. Toshbaqa behad xursand bo'lib, ikki marta ta'zim qilibdi va o'ziga berilgan dorini qabul qilib olibdi. Toshbaqa yana bir marta ta'zim bajo keltiribdi va zohidga minnatdorchilik bildiribdi:

— Ustoz, sizning bu yaxshiligingizni saltanatimizda hech kim unutmaydi. Sizning muhtaram ismi sharifingizni bilsam bo'ladimi?

— Mening ismim — Xua To, — deb javob beribdi zohid va yengil qadamlar tashlab undan uzoqlashibdi.

CHANXVA VA XONNYON

Bu voqea sharqda dengiz bo'yida joylashgan Tonggi subhidam mamlakatida, shonli qirol Sechjon davrida yuz bergan ekan. Pxenan provinsiyasining Chxolsan uyezdida Pe Muyon ismli zot yashagan ekan. Ota-bobosi yanban o'tgan bu odam umr bo'yi bo'lis boshlig'i lavozimida xizmat qilgan, olijanob va o'ziga to'q inson sifatida dong taratgan ekan. Bo'lis boshlig'i va uning xotini faqat bir narsadan g'am chekar ekan: ularning naslni davom ettiruvchisi — o'g'li yo'q ekan.

Kunlarning birida bo'lish boshlig'ining xotini Chan xonim toliqib dam olgani yotibdi va uxlab qolibdi. Tushiga osmondan tangri tushib, unga gul uzatayotgani kiribdi. U gulni olmoqchi bo'lib qo'l uzatgan ekan, birdan to'fon turibdi va gul uning ko'z o'ngida pariga aylanibdi, unga ohista yaqinlashibdi va... uning vujudiga singib ketibdi.

Chan xonim taajjublanib uyg'onib ketibdi. «Bu yaxshi belgi, xuddi chumolilar podsholigi Nanke kabi!», deya xayolidan o'tkazibdi u va erini chaqirib ko'rgan tushini unga sevinch bilan gapirib beribdi.

Xotinining gapini eshitib u:

— Osmonning bizga rahmi kelib o'g'il hadya qilayotganga o'xshaydi! — deya xitob qilibdi.

Darhaqiqat, shu kunning o'zidayoq Chan xonim bo'yida bo'lganini his qilibdi. Er-xotin quvonchining cheki yo'q ekan. Oradan o'n oy o'tibdi. Ajoyib tonglardan birida Chan xonimning xonasi anvoyi hidlarga to'libdi va bir go'zal qizaloq dunyoga kelibdi. Baxtiyor ota-ona chaqaloqqa qarab ko'zi to'ymas ekan. Ular qizaloqqa Chanxva, ya'ni «Atirgul» degan ism qo'yishibdi va ko'z qorachiqalaridek avaylab voyaga yetkaza boshiashibdi.

Oradan bir necha yil o'tibdi va Chan xonimning yana bo'yida bo'libdi. Er-xotin o'zlariga o'g'il berishni so'rab Osmonga kecha-yu kunduz yolvorishibdi. Oradan o'n oy o'tib yana qiz tug'ilgach, ularning butunlay hafsalasi pir bo'libdi. Biroq nachora — ular taqdirga tan berishga majbur bo'lishibdi. Chaqaloqqa Xonnyon, ya'ni «Qizil Nilufar» degan ism berishibdi.

Er-xotin o'z qizlarini mehr bilan voyaga yetkazishibdi. Qizaloqlar g'am-tashvish nimaligini bilmay ulg'ayishibdi. Yillar o'tib Chanxva sohibjamol bir qizga aylanibdi. U atrofdegilar e'tiborini o'z chiroyi va nazokati bilangina emas, balki ota-onasiga bo'lgan hurmati bilan ham tortibdi.

Biroq Pe Muyonning uyida baxtli kunlar uzoqqa cho'zil-mabdi — Chan xonim qo'qqisdan kasal bo'lib qolibdi. Otasi katta qizi bilan birga bemorni parvarish qila boshlashibdi. Dori tayyorlayotganda Chanxva har safar Osmondan o'z onasiga shifo berishni so'rar ekan. Biroq Chan xonimning ahvoli kundan kunga og'irlashib boribdi va uning tuzalishiga hech qanday umid qolmabdi.

Kunlarning birida, butun oila bir yerga to'plangan paytda, Chan xonim o'z qizlarini quchoqlabdi va eriga qarab shunday debdi:

— Men oldingi hayotimda ko'p gunoh qilganga o'xshayman, bu dunyodagi kunlarim oxiriga yetgan ko'rinadi. Animo meni hozir faqat bir narsa tashvishga solyapti: qizlarimga kim g'am-xo'rlik qiladi? Oxirgi iltimosimni bayon etishga ijozat bering... Agar siz, qadrli erim, o'lganimdan keyin qayta uylanadigan bo'lsangiz, yangi tashvishiarangiz paydo bo'ladi... Biroq sizdan o'tinib so'rayman, har doim adolatli bo'ling, qizlarimizni ardoqlang, ular voyaga yetgach, bitta oilaga ularni kelin qilib uzating. Iloyim ularning nikohi tabarruk qaqnus qushlarinikidek baxtli bo'lsin. Men esa soyalar saltanatida sizni duo qilib o'tiraman.

Chan xonim o'zining so'nggi iltimosini aytgach, chuqur xo'rsinibdi va jon beribdi. Opa-singil bir-birini quchoqlab achchiq ko'z yoshi to'kishibdi — bu g'amgin manzaraga hatto tosh yurak ham dosh berolmas ekan.

Chan xonimni ajdodlar tog'iga dafn etishibdi. G'am-qayg'u kuchli ekaniga qaramay, Chanxva ma'rakalarni o'tkazish uchun kerakli barcha narsalarni tayyorlashga o'zida kuch topibdi va qurbonlik keltirish marosimlarini bittasini ham qoldirmay o'tkazibdi.

Chan xoninning vafotidan so'ng oradan uch yil o'tibdi, biroq Chanxva va Xonnyon g'am-hasratdan xalos bo'lmabdi, ular

marhum onalariga aza tutishda davom etishibdi. O'tgan yillar mobaynida bo'lis boshlig'i xotini o'limidan oldin aytgan so'zlarni unutmabdi, biroq voris haqidagi fikr uni avvalgidek tinch qo'yabdi va u ikkinchi marta uylanishga qaror qilibdi. Beva erkakka tegishga rozi ayollar topilmabdi va u Xo ismli bir xotinga uylanishga majbur bo'libdi.

Xo shunday bir tasqara ekanki, uni ko'rgan odam qo'rquvdan yoqa ushlarkan: yuzlari buldog itnikiga, ko'zlari — ikki mis qo'ng'iroqqa, burni — xumchaga, og'zi — laqqa baliqnikiga, sochlari — cho'chqaning tukiga o'xsharkan, bo'yi past, ovozi yovvoyi hayvonning o'kirishini eslatar, beli ikki quloch ekan! Boz ustiga, bir qo'li shol, oyoqlari semiz, quyonlab, yuzi cho'tir ekan. Fe'l-atvori bundan ham xunuk — u hamma narsaga burnini suqar va hammaga yomonlik qilishga intilar ekan. Shu ayol bo'lis boshlig'ining xotini bo'libdi va birinchi oydayoq bo'yida bo'lib, tez orada unga oldinma-ketin uch o'g'il tug'ib beribdi.

Bo'lis boshlig'i yangi xotiniga sira ko'nika olmas, nuqul marhum Chan xonimni eslab kuyinar, qizlariga qattiq bog'lanib qolgan ekan. Ulardan uzoqda o'tkazilgan bir kun ham bo'lis boshlig'iga bir umrdek bo'lib tuyular ekan. Kechqurun uyga qaytib kelgach, u birinchi navbatda qizlari bilan ko'rishar va ularni quchoqlab yig'lar va:

— Men, sizlarning qari otangiz, sizlar onangizni qo'msab kuyinayotganingizni ko'rsam, ko'z yoshimni tiyib tura olmayman, — der ekan.

Buni ko'rgan yangi xotinning rashki qo'zibdi va o'gay qizlarining tagiga suv quyishga qaror qilibdi. Xotining niyatini payqagan bo'lis boshlig'i uni o'z oldiga chaqiribdi.

— Bir paytlar men kambag'al odam edim, — debdi u. — Ammo birinchi xotinining sharofati bilan men boyib ketdim va hozir biz to'q yashayapmiz. Uydagi hamma narsa marhumaning puliga kelgan. O'z farovonligimiz uchun biz faqat unga rahmat aytishimiz kerak. Uning bolalariga yomon muomala qilishga qanday hadding sig'di?! Ular senga nima yomonlik qilishdi? Boshqa bunday qilma!

Biroq makkor xotin o'zining yovuz niyatidan voz kechmabdi. Erining bu gaplaridan keyin uning battar jahli qo'zibdi va Chanxva bilan Xonnyonni uydan ketqizish yo'lini izlay boshlabdi.

Bir kuni Pe Muyon qizlari bilan o'tirib, ularning qo'llaridan ushlabdi va yig'lab yuboribdi.

— Marhum onangiz yodi sira xotiramdan chiqmayapti, — debdi u qattiq xo'rsinib. — G'am-anduh meni kecha-yu kunduz tark etmayapti. Sizlar katta bo'ldingiz, — debdi u o'zini bosib. — Onangiz ko'rsa, qanday xursand bo'lar edi!.. Men-chi, men... Yolg'iz yashay olmadim, nima qilay, peshonamga Xo xonim bitgan ekan... Bilaman, u sizlarga yaxshi muomala qilmaydi. Ammo men sizlarni unga xafa qildirib qo'ymayman.

Yovuz xotin bu gaplarning hammasini eshitibdi va g'azabi battar qo'zibdi. Birdan uning miyasiga bir fikr kelibdi... U o'g'li Chansveni chaqirib, unga kalamush tutib kelishini buyuribdi. Xotin kalamushni qaynoq suvga solib kuydiribdi, ichak-chavog'ini ag'daribdi, tukini yulibdi va qonga belab unga odamning o'lik homilasi tusini beribdi. So'ng u o'gay qizlari uxlaydigan xonaga yashirincha kirib, «chaqaloq»ni Chanxvaning ko'rpasi ostiga tiqib qo'yibdi.

Ertasiga erining qadam tovushlarini eshitgan Xo:

— Hay-hay-hay! — deya bosh chayqab unga peshvoz chiqibdi. Eri ha, nima bo'ldi deb so'ragan ekan, Xo ovozinig boricha baqira boshlabdi:

— Bu uy emas, iblisning ini! Siz nuqul hamma narsada meni ayblaysiz. Biroq endi men jim o'tirmayman. Siz o'z qizlaringizning otasisiz, ular esa sizni bir chaqaga olishmaydi, shuning uchun ham boshiga shu kunlar tushgan... Men nima? Men ularning o'z onasi emasman, bir so'z ham ayta olmayman — dardimni ichimga yutishga majburman. Ammo bugun... Yo'q, siz buni bir eshitng! Qarasam, katta qizingiz xonadan chiqmayapti. Bir narsa bo'lmadimikan, deb xavotir bo'ldim. Kirib kimni ko'rdim deng? O'lik chaqaloqni! Qizingiz meni ko'rib dovdirab qoldi. Birovning xayoliga ham kelmaydigan ish bo'ldi! Yaxshiyam buni faqat biz ikkimiz bilamiz! Axir siz nasliy yanbansiz-ku! Odamlar bilsa nima bo'ladi, ularning ko'ziga biz qanday qaraymiz?!

— Endi nima qilamiz?! — deb so‘rabdi Pe Muyon o‘zini yo‘qotib.

Makkor xotin o‘z nayrangini ishga solibdi.

— Bu dahshat! — debdi u pichirlab. — Ammo biz jinoyatchi qizni o‘ldirsak va shu yo‘l bilan izlarni yashiradigan bo‘lsak, ahmoq odamlar o‘gay ona aybsiz qizning boshiga yetibdi, deyishlari mumkin. Hammasini qanday bo‘lsa, shunday qodirsak, el-yurt orasida yuzimiz shuvut bo‘ladi. Yo‘q, bundan ko‘ra mening o‘lganim yaxshi...

— Nima deyapsan, — deya uning gapini bo‘libdi eri kapalagi uchib. — Men senga ishonaman... Nimadir qilish kerak... Biroq bu nobakorni nima qilish mumkin? Ayt, sen nima desang — shuni qilaman.

«Mana, mening kunim ham keldi», debdi Xo ichida xursand bo‘lib, sirtida esa, jo‘rttaga xo‘rsinib:

— Men bu uydan ketmoqchi va shu tariqa o‘zimdan shubhani chetlatmoqchi edim, biroq sizni ko‘zim qiymaydi va siz uchun hamma narsaga chidashga tayyorman, — debdi. — Lekin bu nobakor qizdan xalos bo‘lmasak, sharmandayi sharmisor bo‘lamiz. Boshqa yo‘l yo‘q. Faqat tez va yashirincha ish ko‘rish kerak.

Sho‘rluk Pe Muyon ikki o‘t orasida qolibdi. Marhum Chan xonimning so‘zlarini eslab, battar iztirobga tushibdi. Ammo el-yurt oldida yuzi shuvut bo‘lishini o‘ylab, g‘azabi qo‘zibdi va u Xodan nobakor qizni nima qilish mumkinligini so‘rabdi.

— Chanxvani chaqiring va unga amakisini, ya‘ni ukangizni ko‘rgani borishni buyuring, — deb maslahat beribdi Xo. — U bilan birga Chansveni yuboramiz. Yo‘lda Chansve qizni Nilufar ko‘liga itarib yuboradi. Xo‘sh, ma‘qulmi?

Eri uning gaplarini eshitibdi, o‘ylab ko‘ribdi va rozi bo‘libdi.

Opa-singil bu vaqt qattiq uyquda ekan. Ular hatto uyqusida ham marhum onalarini qo‘msashayotgan ekan. Yovuz Xoning niyatini ular yetti uxlab tushida ko‘rmagan ekan!

Yarim kechasi Chanxva uyg‘onib ketibdi, yuragi g‘ash bo‘lib uyqusi o‘chibdi. Otasi o‘zini chaqirganini eshitib, uning qoshiga oshiqibdi.

— Hoziroq Nilufar ko'lida yashaydigan amakingni ko'rgani jo'na, — debdi otasi quruqqina qilib.

Otasining g'alati buyrug'idan Chanxva avval hayron bo'libdi, so'ng qo'rqib ketibdi va yig'lab yuboribdi.

— Shu paytgacha ota-onamning uyidan bir qadam ham chetga chiqmaganman, boz ustiga, amakim qayerda yashashini bilmayman. Nima uchun qorong'i tunda meni o'zim bilmaydigan joyga yuboryapsiz?

— Buyuraman: ukang Chansve bilan birga darhol yo'lga chiq! — debdi otasi jahl bilan. — Gapimni qaytarma! Yo ota amrini bajarishdan bosh tortasanmi?!

— Gapingizni ikki qilishga haddim sig'arkanmi, — debdi Chanxva ko'zlari yoshlanib. — Agar buyursangiz, siz uchun hoziroq jonimni fido qilaman. Ammo sizning qaroringiz meni qo'rqityapti: kimdir yomon niyatda menga tuhmat qilgan ko'rinadi. Iltimos, menga tong otguncha kutishga ruxsat bering.

Pe Muyonning battar g'azabi qo'zibdi, ammo u qizini juda yaxshi ko'rar ekan, shu bois ikkilanib qolibdi. Shunda eshik ortida gap poylab turgan yovuz Xo eshikni oyog'i bilan tepib ochib, xonaga otilib kiribdi va Chanxvani qarg'ay ketibdi:

— Otangning aytganini qil! Nima, karmisan?!

Chanxva o'gay onasiga qarabdi va yuragi o'rtanibdi. U achchiq faryod qilibdi.

— Yaxshi, otajon, men sizga boshqa hech narsa demayman, aytganingizni qilaman.

U xonadan chiqibdi va singlisi Xonnyonning oldiga kelibdi:

— Singiljon! Otamga nima bo'lganini tushunmayapman — qorong'i tunda u meni uydan quvyapti. Menga bu yerdan zudlik bilan jo'nash buyurilgan. Faqat bir narsadan — sendan ayrilayotganimdan g'amdaman. Onamiz vafot etganlaridan beri biz bir lahza ham bir-birimizdan uzoqlashganimiz yo'q, bir jon-u bir tan bo'lib yashadik. Hozir, sen yolg'iz qolishingni o'ylab, qalbm sitamga to'lyapti. G'am-hasratimni ifodalashga so'z ojiz... Agar yodingdan chiqmasam, meni kut. Men esa kiyinaman va yo'lga chiqaman.

Chanxva yo'l tadorigini ko'rib, yana singlisini quchoqlabdi va u bilan yig'lab xayrlashibdi:

— Otamizning va... o'gay onamizning gapini ikki qilma. Agar meni kutsang, men tez qaytaman, sira g'am chekma. Axir menga ham oson emas... Mayli, xayr!

Opa-singil ho'ngrab yuborishibdi va bir-birlarini quchoqlashibdi. Marhum onayizor o'z jigarbandlarini hozir bir ko'rsa edi! Opasining so'zlari Xonnyonning qulog'iga kirmabdi, u opasini o'z quchoqlarida ushlab qolishga urinib ovoz chiqarmasdan yig'lashda davom etibdi. Yurakni o'rtovchi bu sahnani tasvirlashga qalamimiz o'jiz.

Shu payt yovuz Xo opa-singillarning xonasiga quyundek otilib kiribdi.

— Nimaga shovqin qilyapsanlar?! — deb baqiribdi u, so'ng o'g'li Chansveni chaqirib, unga: — Opangni ol-da, yo'lga tush! — deb buyuribdi.

Chansve, go'yo narigi dunyo hukmdori — Yan-vanning amrini bajarayotgandek gerdayib, eshikni bir tepib ochibdi va:

— Qani, opa, tezroq qimirlang! — deb baqiribdi. — Otamiz nima deganlarini eshitdingizmi? Unda darhol oldimga tushing! Bekorga gap eshishga toqatim yo'q!

Nailoj — Chanxva singlisini oxirgi marta bag'riga bosib xayrlashibdi va eshik tomonga qarab yuribdi, biroq Xonnyon uning etagiga mahkam yopishib olibdi:

— Axir biz doim birga bo'lganmiz, hech qachon bir-birimizdan ayrilmaganmiz. Nima uchun endi meni tashlab ketyapsiz?!

Chanxvaning yuragi o'rtanibdi, singlisiga rahmi kelibdi. Xonnyonni yelkasidan silab yupatibdi:

— Yig'lama, men tezda qaytaman. Bo'pti, xayr...

Opa-singilning xayrlashishini kuzatib turgan xizmatkorlar ko'z yoshlarini tiya olmabdilar. Xonnyon esa, avvalgidek, opasining etagidan mahkam ushlab olgan, uni hech qo'yib yuborgisi kelmas ekan. Buni ko'rgan o'gay onaning fig'oni falakka ko'tarilibdi va Xonnyonni qo'lidan tortib, opasidan ayirishga urinibdi:

— Opang amakingni ko'rgani ketyapti-ku, muncha doddlaysan?!

Xonnyon beixtiyor opasining etagini qo'yib yuboribdi va jim bo'lib qolibdi. Xo Chansvega zimdan ishora qilgan ekan, u tez yo'lga tushibdi. Chanxva uning ortidan ergashishga majbur bo'libdi. U singlisi bilan xayrlashgach, otasiga ta'zim qilibdi va otga minibdi, yo'l-yo'lakay achchiq o'ylarga berilibdi...

Chansve otlarni ayamay haydabdi... Nihoyat, ular qaysidir tog' vohasiga kirishibdi. Atrofda ulug'vor cho'qqilar osmonga o'rlagan, tog'lar ostonasi qayrag'ochzor va archazorlarga burkangan, shu yaqin orada tog' jilg'asi sharillab oqar, ora-sira kakku ovozi quloqqa chalinar ekan.

Shu yerga kelganda Chansve to'xtabdi va Chanxva u bilan tenglashgach, qiz mingan otning jilovidan ushlabdi va unga tushishni buyuribdi.

— Nima uchun? — debdi Chanxva hayron bo'lib.

— O'zingni go'llikka solma! Nima gunoh qilganingni bil-maysanmi? Nima, chindan ham amakimizni ko'rgani yuborishgan deb o'ylayapsanmi? O'sha... hm... gunohing uchun... menga seni bu yerga olib kelishni va ko'lga cho'ktirishni buyurishgan. Mana, yetib keldik. Qani, tush suvga!..

— Osmon oldida qasam ichib aytaman, mening gunobim yo'q! E voh, nima uchun meni uydin haydashdi, yuzimga qora surkashdi va bu tubsiz ko'lga cho'ktirishni buyurishdi? Osmon! Nolamni eshit! Umr bo'yi eshik hatlab ko'chaga chiqmagan bo'lsam ham meni sayoqqa chiqarishdi! O'tgan umrimda ko'p og'ir gunohlar qilgandirmanki, sevikli onajonimdan bevaqt ayrildim, endi bo'lsa kimningdir yovuz amri bilan men, bokira qiz, kapalak yanglig' bu dunyoni tark etishim kerak. O'lish qo'rqinchli emas, lekin yomonotliq bo'lib o'lishdan yomoni yo'q! Mensiz singlim Xonnyonning holi nima kechadi?!

Chanxva shunday nola qilibdiki, unga hatto tosh yurak ham dosh berolmas ekan. Biroq qizning nolasini rahmsiz Chansvega qilchalik ta'sir ko'rsatmabdi.

— Hozir tun, tog'da odam zoti yo'q. Ming baqirsang ham baribir hech kim eshitmaydi. Vaqtini cho'zmasdan o'zingni tezroq suvga tashla!

Chanxva unga yalina boshlabdi:

– Gapimga quloq sol! Axir biz bir-birimizga begona emasmiz, otamiz bir-ku. Bir-birimizni qanchalik yaxshi ko‘rganimiz yodingda bo‘lsa kerak. Agar men hozir narigi dunyoga ketsam, nahot menga achinmaysan? Ozgina sabr qil, amakimni ko‘rib kelishga, onajonimning qabrini ziyorat qilishga va Xonnyon bilan yana bir marta uchrashishga imkon ber... Meni aldamoqchi, deb o‘ylama, – yo‘q! Axir o‘zimni oqlashga urinadigan bo‘lsam, onangning g‘azabiga uchrayman, o‘limdan qochib qutulmoqchi bo‘lsam, otamning irodasiga qarshi borgan bo‘laman. Nimani buyurishgan bo‘lishsa, shuni bajaraman. Ammo sendan o‘tinib so‘rayman, iltimosimni bajar! Men qaytib kelaman va o‘zimni o‘lim qo‘liga topshiraman...

Biroq Chansve uning gapini eshitishni ham istamabdi. Shunda Chanxva osmonga murojaat qilibdi:

– Osmon! Gapimga quloq sol! Men shirin hayot kechirmadim: yetti yoshimda onamdan mahrum bo‘ldim va singlim bilan qolib, kecha-yu kunduz g‘am-hasrat chekdim. Chiqayotgan quyoshga yoki botayotgan oyga termulsam ham, bog‘da o‘sgan gullarga yoki hovlida nish urgan maysalarga qarasam ham yuragim sitamga to‘ldi, ko‘z yoshim chelaklab quyildi. Rahmsiz o‘gay ona ham meni g‘am-hasratdan xalos eta olmadi: kunduzi xayolim otamda bo‘ldi, kechalari esa, avvalgidek, marhum onam haqida o‘ylashda davom etdim. Yorug‘ kunlarda, uzun tunlarda biz, singlim ikkimiz, g‘am-hasrat chekdik. Men rahmsiz o‘gay onaga yoqmadim va bugun shu ko‘l suvida halok bo‘lishim kerak. O Osmon! Quyosh, oy, yulduzlar! Ishoning – mening hech qanday aybim yo‘q! Sho‘rlik Xonnyonga rahmingiz kelsin, u ham men singari halok bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang!

Shundan so‘ng u Chansvega o‘girilibdi:

– Men yomonotliq bo‘lib o‘lyapman. Ammo sen Xonnyonga g‘amxo‘rlik qil, unga ota-onani hurmat qilishni o‘rgat. Ota-onamga esa mening so‘nggi ta‘zimimni yetkaz...

U qulog‘idan yashma ziraklarini yechibdi, oyoqyalang bo‘libdi va qizil ko‘ylagining etaklaridan ushlab, ko‘zida yosh bilan ko‘lga tusha boshlabdi.

— Azizim Xonnyon, — deb pichirlabdi Chanxva, — sen bir o'zing qolding. Yuragim hasratdan o'rtalyapti. Endi seni kim yupatadi? Men o'lyapman.

Chanxva shu so'zlarni aytibdi va — e voh! — deb o'zini ko'lga otibdi. Birdan — o mo'jiza! — ko'lda ulkan to'liqlar paydo bo'lib osmonga o'rlabdi, kuchli dovul turibdi, oy yuzini bulut to'sibdi, tog'lar orasidan ulkan yo'lbars yugurib chiqibdi va sukunat bag'rini uning baland ovozi tilibdi:

— Pe Muyonning ikkinchi xotini yomon — u begunoh qizning boshiga yetdi! Osmon bunga befarq qarab turmaydi!

Yo'lbars Chansvega tashlanibdi, uning ikkala qulog'ini, so'ng qo'li va oyog'ini uzib olibdi va g'oyib bo'libdi. Chansvening oti hurkib qochibdi.

O'gay qizini gum qilishga erishgan yovuz Xoning sevinchdan terisi ichiga sig'mas, Chansvening qaytishini kutar ekan. Birdan hovlida ot kishnagani eshilibdi. Xo hovliga chiqib qarasa, boshdan oyoq ko'pikda ot turganmish, otliq esa yo'q emish. U hayron bo'lib xizmatkorlarni chaqiribdi, chiroqlarni yoqishni buyuribdi va ular bilan birga otning izlari eltgan tomonga oshiqibdi. Ko'l yaqinida ular Chansveni topishibdi. Uning ikki qulog'i, qo'li va oyog'i yo'q, butun tanasi qon ekan. Buni ko'rgan Xo qo'rqib ketibdi. Birdan shamol turibdi va atrofga xushbo'y hid taralibdi. Xo bu yaxshilik alomati, deb o'ylabdi. Ma'lum bo'lishicha, bu hid ko'ldan taralayotgan ekan...

Xizmatkorlar Chansveni uyga olib kelishibdi va onasi o'g'lining jarohatlarini bog'lab, uni parvarish qila boshlabdi.

Chansve hushiga kelgach, Xo undan nima bo'lganini so'rabdi. Chansve bo'lgan voqeani onasiga gapirib beribdi. Xoning g'azabi battar qo'zibdi va endi u Xonnyonning boshiga yetish yo'lini o'ylay boshlabdi.

Bo'lis boshlig'i Osmonning jazosini olgan Chansveni ko'rib, nihoyat, qizi Chanxva begunoh halok bo'lganini tushunibdi. U og'ir xo'rsinibdi, yuragini g'am-hasrat chulg'abdi.

Birgina Xonnyonning hech narsadan xabari yo'q ekan. Uydagi shovqinni eshitib, u hayron bo'libdi va shovqin sababini o'gay onasidan surishtiribdi. O'gay onaning jahli chiqibdi:

— Shoʻrlik Chansve sayoq opangni amakingnikiga kuzatib ketayotganida, yoʻlbars unga hujum qilibdi va tishlab olibdi. Endi u ogʻir kasal yotibdi.

Xonnyon yana nima haqdadir soʻramoqchi boʻlgan ekan, oʻgay ona qoʻrs ovozd:

— Menga nimaga yopishib olding? — deb uning gapini boʻlibdi.

Bunday muomalaga koʻnikmagan Xonnyon yigʻlab yuboribdi. U oʻz xonasiga kiribdi va opasini chaqiribdi, biroq hech kim javob bermabdi. Xonnyon yigʻlab-yigʻlab uxlab qolibdi. Tushida sariq ajdar ustida toʻlqinlar bagʻridan chiqib, Shimoliy dengiz sari yoʻl olgan Chanxvani koʻribdi. Xonnyon uni chaqirgan ekan, Chanxva oʻzini eshitmaganga olibdi. Xonnyon yigʻlab yuboribdi:

— Opajon, nega meni koʻrmayapsiz, bir oʻzingiz qayerga ketyapsiz?

Chanxva koʻzlari yoshlanib unga javob beribdi:

— Endi mening yoʻlim boshqa. Osmon podshosi menga Uch muqaddas togʻdan obi hayot topishni buyurdi. Men juda shoshib turibman va shu bois toʻxtay olmayman. Men haqimda yomon oʻylama, tez orada seni olib ketgani kelaman!

Birdan ajdar qattiq oʻkiribdi va Xonnyon choʻchib uygʻonibdi. Gʻalati tush! Undan yurak ogʻrir, tana terlar, bosh aylanar emish.

Xonnyon tushini otasiga gapirib beribdi:

— Bugun men oʻzinini xuddi eng aziz narsasini yoʻqotgan odamdek his qilyapman. Chanxva ketgan boʻlsa, buning bir sababi bordir. Balki unga tuhmat qilishgandir?

Otasi uning gapini eshitibdi, biroq uni yupatish uchun bir soʻz ham ayta olmabdi, faqat yigʻlabdi. Yovuz Xo esa buning hammasini koʻrib va eshitib turibdi.

— Bu qiz nima deb mingʻirayapti? — deb baqiribdi u. — Keksa odamning koʻnglini buzmasang-chi! — deb Xonnyonni xonadan itarib chiqaribdi.

Xonnyon oʻz xonasiga kelibdi va oʻylay boshlabdi: «Tushni gapirib berayotganimda, otam gʻam-anduhga berildi va lom-mim demadi, Xo xonimning esa jahli chiqdi va menga qoʻpol gapirdi. Bularning hammasi bekorga emas!» Xoʻsh, gap nimada?

Bir kuni, yovuz Xo uyda yo'qligida, Xonnyon Chansvening oldiga kiribdi va undan haqiqatni ochishni o'tinib so'rabdi. Chansve bo'lgan voqeani qizga gapirib beribdi.

Faqat shunda Xonnyon opasi begunoh halok bo'lganidan xabar topibdi. Buni tushungach, u hushdan ketibdi.

Hushiga kelgach, Xonnyon shunday deb nola qilibdi:

– Aziz opajon! Yovuz o'gay ona o'n oltinchi bahoringizda nomingizni bulg'adi va siz o'zingizni suvga tashlab, abadiy darbadar kezuvchi ruhga aylandingiz. Sho'rlik opaginam, qayerdasiz? Baxtsiz Xonnyonni nega tashlab ketdingiz? Soyalar podsholigiga tushsam ham sizni sog'inishdan, qonli ko'z yoshi to'kishdan to'xtamayman. Bunday achchiq qismat yana kimning boshiga tushgan? O, har narsadan ogoh Osmon! Rahm qil! Uch yoshimda men onamdan ayrildim va opam uning o'rnini bosdi. Gunohlarim shunchalik og'irimi, u meni yolg'iz tashlab ketdi? Meni ham opam singari yomonotliq qilishlarini istamayman. Bundan ko'ra o'lganim yaxshi. Mayli, ruhiarimiz birga darbadar kezsин...

Xonnyonning qayg'usi va nolasining cheki yo'q ekan...

U opasi g'arq bo'lgan ko'lga bormoqchi bo'libdi, biroq qiz bola eshik hatlab ko'chaga chiqishi mumkin emas ekan. Xonnyon uyqusi o'chib va ishtahasi yo'qolib, o'z niyatini ro'yobga chiqarish yo'lini izlay boshlabdi.

Bir kuni ertalab boqqa qushcha uchib kelibdi va gullar uzra aylana boshlabdi. «Opam uyni abadiy tark etayotgan kun ham shu qush bog'da uchib yurgan edi. Balki u menga ko'l sari yo'lni ko'rsatar?», deya xayolidan o'tkazibdi Xonnyon. Bu fikr uni bir lahza ham tark etmabdi, biroq qushcha uchib ketibdi va Xonnyon yana tushkunlikka tushibdi.

Yangi kun kelibdi va Xonnyonda balki qushcha yana uchib kelar, degan umid paydo bo'libdi. Biroq qushchadan darak bo'lmabdi. Xonnyon ko'ngli to'lib yig'labdi, quyosh botgach, deraza oldiga kelibdi va o'yga botibdi: «Qushcha uchib kelmadi, lekin men baribir Chanxva halok bo'lgan joyni topib boraman! Otamga aytishning keragi yo'q – ruxsat bermaydi. Balki unga xat yozib qoldirgan ma'quldir?!»

U qog'oz olibdi va mo'yqalamni siyohga botirib yoza boshlabdi:

«G'am-hasrat qalbimni o'rtayapti. Men onamdan erta ayrildim va kunlarni opam bilan birga o'tkazar edim. Yovuz odamlar opamga tuhmat qilishdi va uning hayotiga zomin bo'lishdi. Sog'inch va qayg'u yuragimni o'rtayapti. Men, qizingiz Xonnyon, sizga ta'zim qilib, sho'rlik Chanxvani qidirib jo'nayapman. Men endi otamning siymosini ko'rmayman, uning ovozi eshitmayman. Shu o'yning o'ziyoq ko'z oldimni qorong'i qiladi, qalbimni o'rtaydi. Iltimos, meni o'ylab g'am chekmang, baxtli bo'ling!»

Yarim kechasi birdan o'sha qushcha uchib kelibdi va daraxtga qo'nib sayray boshlabdi.

— Qushcha, opamga yo'l ko'rsata olasanmi? — deb so'rabdi Xonnyon.

Qushcha bunga javoban «in» degan tovushga o'xshash ovoz chiqarib sayrabdi.

— Agar sen meni olib ketgani kelgan bo'lsang, bajomidil ortingdan ergashaman! — debdi Xonnyon.

Qushcha boshini xam qilibdi va yana rozilik alomati sifatida «in» degan tovushga o'xshash ovoz chiqarib sayrabdi.

— Meni kutib tur, hozir chiqaman!

Qiz o'zining vidolashuv xatini devorga yopishtiribdi va xonadan chiqayotib yig'lab yuboribdi:

— Men hozir uyni tark etyapman, uni qayta ko'rish menga nasib etarmikan?..

U qushcha ortidan ergashibdi. Qushcha Xonnyonni ko'l bo'yiga olib kelibdi. Xonnyon atrofga alanglabdi. Birdan ko'l uzra kamalak ranglarida mavj urayotgan bulutlar orasidan Xonnyonga qaratilgan g'amgin ovoz yangrabdi:

— Nima uchun sen barcha umidlardan ayrilib, bebaho hayotingni bu yerda qoldirmoqchisan? Axir hayot bir marta beriladi va uni behuda barbod qilish kerak emas! O'lim haqida boshqa o'ylama, uyga qayt, otamizning yupanchi bo'! Erga tegasan, bola-chaqali bo'lasan va shunda marhum onamizning ruhi orom topadi!

Xonnyon opasining ovozi tanib:

— Opajon! Qaysi aybim uchun meni tashlab ketdingiz va endi bu o'lkada yolg'iz kezyapsiz? Men sizsiz yashay olmayman! Men siz bilan birga bo'lmoqchiman! — deb xitob qilibdi.

Osmondan g'amgin ovoz eshutilibdi... Xonnyon tiz cho'kibdi va osmonga qarata bor ovozda nola qilibdi:

— Osmon! Opamni nohaq aybdan forig' et! Har narsaga qodir Osmon! Mening o'tinchimga quloq sol!

Xonnyonning faryodi yer-u ko'kni larzaga solibdi. Osmondan kelgan g'amgin ovoz elitib, u ko'ylagining etagini ko'taribdi va — e voh! — o'zini ko'lga tashlabdi. Quyoshning yuzini qora bulut to'sibdi...

Shundan beri ko'lni chulg'agan quyuq tuman bag'ridan yovuz o'gay ona halok qilgan begunoh qizlar haqida darak berib g'amgin nola kechasi-yu kunduzi to'xtovsiz yangrar ekan.

Osmon Xonnyonning o'tinchlga quloq solibdi. Ammo har safar Chxolsanga yangi uyezd boshlig'i tashrif buyurib, sirli ish tafsilotlarini aniqlash uchun mahkamaga kelganida, opa-singilning ruhi unga ko'rinar va uyezd boshlig'i qo'rquvdan jon taslim qilar, uyezd yana boshliqsiz qolar ekan. Chxolsanni «pxeip», ya'ni «xosiyatsiz shahar» deb atay boshlabdilar.

Chindan ham bu yerda bir necha yil qurg'oqchilik bo'libdi va ko'plab odamlarning yostig'ini quritibdi, odamlar Chxolsandan bosh olib chiqib keta boshlabdilar va ko'p o'tmay shahar huvillab qolibdi. Chxolsanga yog'ilgan kulfatlar daragi podshoning qulog'iga yetib boribdi va bu uni qattiq tashvishga solibdi. U o'zining sodiq a'yonlaridan birini oldiga chaqiribdi va unga:

— Chxolsanda tushunarsiz ishlar bo'layotgan emish. U xosiyatsiz shahar sifatida nom chiqaribdi. Seni o'sha yerga boshliq qilib yubormoqchiman. Ehtiyotkorlik bilan ish ko'r va xalqni tinchitishga harakat qil, — debdi.

Yangi uyezd boshlig'i podshoga tavoze bilan ta'zim qilibdi va shu kuniyoq o'zi tayinlangan joyga jo'nab ketibdi.

Manzilga kelgach, u darhol qishloq oqsoqolini o'z oldiga chaqiribdi.

— Bu yerda hokimlar lavozimga o'tirgan kunning ertasiga jon berar emish. Shu rostmi?

— Muhtaram janob, so'nggi besh-olti yildan beri yangi tayinlangan hokim Chxolsanga kelgan kunning o'ziyoq kechasi qandaydir dahshatli tush ko'radi va ertalab biz uni o'lik holda topamiz. Buning sababi nimada ekanini men sizga ayta olmayman.

Uyezd boshlig'i bu gapni eshitib buyuribdi:

— Kechasi hech kim chiroqni o'chirmasin, nima bo'layotganini sinchiklab kuzatsin.

Oqsoqol ta'zim qilib chiqib ketibdi. Uyezd boshlig'i esa o'ziga ajratilgan uyga kelibdi va sham yoqib, «O'zgarishlar kitobi»ni ochibdi. Yarim kechasi kuchli shamol turibdi va shu zahoti xonaga yashil kofta bilan qizil yubka kiygan bir suluv kirib, uyezd boshlig'i qarshisida tiz cho'kibdi.

— Sen kimsan? — deb so'rabdi uyezd boshlig'i o'ziga kelgach. — Yarim kechasi oldimga seni nima boshlab keldi?

Suluv bosh egibdi, o'rnidan turibdi va so'ng yana tiz cho'kibdi.

— Men bo'lis boshlig'i Pe Muyonning qizi Xonnyonman. Men uch yoshga, opam Chanxva esa yettiga to'lganida sevikli onamizdan ayrildik va otamizning qo'lida qoldik. Ko'p o'tmay otamiz yovuz va makkor bir ayolga uylandi. U otamizga oldinmaketin uch o'g'il tug'ib berdi. Otamiz yovuz o'gay ona tuhmatiga ishondi va opam Chanxvaga zug'um o'tkaza boshladi. Chanxva Xo xonimga yoqishga harakat qilganiga, hatto uni ona deb ataganiga qaramay, o'gay onaning muomalasi yaxshilanmadi. Otamizning vafotidan so'ng uning bor boyligi opam ikkiniizga o'tishidan qo'rqib, o'gay ona bizning boshimizga yetish yo'llarini o'ylay boshladi. U otamiz ko'z o'ngida opamni yomonotliq qildi va o'g'li Chansvega uni ko'lga cho'ktirib kelishni buyurdi. Men bundan xabar topgach, dahshatga tushdim: balki oldinda meni ham shunday qismat kutayotgandir? Men opam halok bo'lgan o'sha ko'lga borib cho'kib o'lishga qaror qildim. Bu qilmishimdan men pushaymon emasman, ammo bir narsa menga tinchlik bermaydi: opam yomonotliq bo'lib qolgani! Nima uchundir bizni ko'rgan har kim o'sha zahoti qo'rquvdan jon beradi va men o'z dardimni hech kimga ayta olmayman. Nihoyat, o'z ayanchli taqdirimdan sizni ogoh etishga muvaffaq bo'ldim, dono hukmdor.

Iltilmos, o'tinchimga quloq soling — opamning sha'nidan bu yomon muhrni olib tashlang!

Shu so'zlarni aytib suluv o'rnidan turibdi, ta'zim qilibdi va g'oyib bo'libdi. Uyezd boshlig'ining ko'ngli yorishibdi: «Ha, mana, Chxolsanga yog'ilgan kulfatlar sababi nimada ekan!»

Ertalab u mahkamaga kelibdi va oqsoqolni o'z oldiga chaqiribdi:

— Bu yerda Pe Muyon ismli bo'lis boshlig'i yashaydimi?
— Xuddi shunday, muhtaram janob, yashaydi.
— Uning nechta bolasi bor?
— Ikki qizi bor edi, ikkalasi ham o'lib ketgan. Uch o'g'li qolgan.

— Qizlari nimadan o'lgan?
— Aniq ayta olmayman, muhtaram janob, lekin eshitishimcha, to'ng'ich qizi gunoh ish qilib qo'ygan va ko'p o'tmay o'zini Nilufar ko'liga tashlagan. Kichlgi esa, yolg'iz qolgach, ko'p g'am chekkan, chunki opa-singil bir-birini juda yaxshi ko'rgan, keyin opasini qidirib ko'lga borgan va u ham o'sha yerda cho'kib ketgan. O'lganidan keyin ular abadiy darbadar ruhlarga aylanishgan. Ular har kuni ko'ldan chiqib, qirg'oqda: «Biz o'gay onamizning makri tufayli halok bo'ldik», deb nola qilishar ekan. Aytishlaricha, ko'l yaqinidan o'tganlarning birortasi ham yig'idan o'zini tiya olmaskan!

Uyezd boshlig'i alohida topshiriqlar bo'yicha mulozimni chaqiribdi va unga Pe Muyonni xotini bilan birga darhol o'z huzuriga keltirishni buyuribdi.

Buyruq darhol bajarilibdi.

— Eshitishimcha, birinchi xotiningizdan ikkita qizingiz va ikkinchi xotiningizdan uchta o'g'lingiz bor ekan. Shu rostmi? — deb so'rabdi uyezd boshlig'i Pe Muyondan.

— Ha, muhtaram janob.

— Ular hammasi omonmi?

— Qizlarim o'lgan, o'g'illarim esa omon.

— Qizlaringiz nimadan o'lgan? Faqat rostini gapiring! Qiynoqqa solishga majbur etmang!

Pe Muyonning rangi oqarib ketibdi, tili gapga aylanmay qolibdi. Shunda oraga uning xotini qo'shilibdi:

— Qanday yolg'on bo'lishi mumkin, muhtaram janob, axir hamma gap sizga nia'lum-ku? Darhaqiqat, erimning birinchi xotinidan ikki qiz qolgan edi. Kattasi sayoq edi, shu bois bo'yida bo'lib qoldi. Keyin qo'rqib yashirinch hamila tushirdi. Bundan xabar topgach, men odamlar: «Ming qilsa ham o'gay ona-da, yaxshi qaramagan, mana ahvol!», deb gapirmasligi uchun uni oldimga chaqirdim va: «Senga rahmim keladi, biroq sen o'lsang, hamma o'gay ona o'ldirgan, deb o'ylaydi. Mayli, men seni kechirdim. Ammo bundan buyog'iga esingni yig', bu ish boshqa takrorlanmasin! Otang ikkimiz haqimizda ham o'yla: odamlar bilsa, sharmanda bo'lamiz!», dedim. Xullas, uni koyidim. U qilmishidan qattiq pushaymon bo'ldi. O'sha tundayoq u hech kimga hech narsa demasdan uydan qochib ketdi. Ko'p o'tmay uning ortidan singlisi ham ergashdi — bir yildirki, ularning daragi ham yo'q. Yanbanlarning bolalari uydan qochib ketsa, ularni qidirishdan naf yo'q. Shuning uchun ham biz odamlarning ko'ziga ko'ringanimiz yo'q...

— Agar aytganlaring rost bo'lsa, o'lik homilani keltira olasanmi?

— Albatta. Men ularning o'z onasi emasman, gapimga hech kim ishonmasligi uchun uni saqlab qo'yanman va hatto bu yerga o'zim bilan birga olib keldim.

Shu so'zlarni aytib makkor ayol qo'ynidan «chaqaloq»ni chiqaribdi va uni uyezd boshlig'iga uzatibdi. Uyezd boshlig'i qarasa, ayol uzatgan narsa chindan ham oy-kuni yetmagan chaqaloqni eslatar ekan...

— Gaplaring rostga o'xshaydi. Oradan ancha vaqt o'tgani bois, bevosita dalillar topilmasa ham kerak. Mayli, men bir qarorga kelarman, sizlarga esa ruxsat, — debdi uyezd boshlig'i.

Shu kechasi uning qarshisida yana Xonnyon paydo bo'libdi va tiz cho'kib, shunday debdi:

— Muhtaram janob, huzuringizga birinchi marta kelganimda sizdan mening va opamning sha'nidan yomon muhrni olib tashlashni so'ragan edim. Ammo yovuz Xo o'z yolg'oni bilan

sizni ham chalgʻitishi mumkinligi xayolimga ham kelmagan edi. — U hoʻngrab yigʻlab yuboribdi va soʻng davom etibdi: — O, muhtaram janob! Oʻtinchimga quloq soling! Aytishlaricha, podsho Shun ham bir vaqtlar oʻgay ona gʻazabiga yoʻliqqan ekan. Axir Xoning makkorligini hamma, hatto bolalar ham yaxshi biladi, siz boʻlsangiz uning yolgʻon soʻzlariga ishonib oʻtiribsiz! Iltimos, oʻgay onamizni yana huzuringizga chaqiring, unga «chaqaloq»ni keltirishni buyuring. «Chaqaloq»ni yaxshilab koʻzdan kechiring! Menga va opamga rahmingiz kelsin, adolatni tiklang! Otam soddaligi tufayli bu makkor xotinning toʻriga tushgan, nima qilayotganini bilmagan. Oʻtinaman sizdan: uning bir qoshiq qonidan oʻting!

Xonnyon oʻrnidan turibdi, taʼzim qilibdi va turnaga minib osmon-u falakka chiqib ketibdi. Uyezd boshligʻi uning soʻzlaridan Pe Muyonning xotini Xo oʻzini aldaganini tushunibdi. U darhol ularga «oʻlik chaqaloq»ni keltirishni buyuribdi. Uyezd boshligʻi «chaqaloq»ni diqqat bilan koʻzdan kechiribdi va gap nimada ekanini darhol tushunibdi.

— Qornini yor! — deb buyuribdi u mulozimga.

Mulozim kalamushning qornini yoribdi va shunda makkor Xoning kirdikori hammaga ayon boʻlibdi. Mahkamada yigʻilgan odamlarning hammasi u tomonga qarab tupuribdi va begunoh halok boʻlgan Chanxva bilan uning singlisini yod etib koʻz yoshi toʻkibdi.

Uyezd boshligʻi qoʻliga qilich olibdi va Xoga qarab shunday debdi:

— Sen, razil maxluq, yomon ishni qilib yolgʻon soʻzlar bilan oʻzingdan shubhani haydashga urinding. Balki sen bundan buyon ham hiyla-nayrangni davom ettirarsan? Sen qonunni buzding, misli koʻrilmagan yovuzlik qilding — begunoh oʻgay qizlaringni oʻldirding! Agar qilmishingga iqror boʻlsang, men senga atalgan jazoni yumshataman.

Voqea shohidi — Pe Muyon qizlari begunoh qurbon boʻlganini tushunibdi. U achchiq faryod chekibdi:

— Osmon meni jazoladi! Men, ahmoq, qanday qilib chaqaloq bilan kalamushning farqiga bormadim?! Marhum Chan xonim

aqli ayol edi, biroq, ming afsuski, bu dunyoni u erta tark etdi. Undan ikki qiz qoldi. Ular bir-birini qanday yaxshi ko'rar edi! Ularga qarab ko'nglim quvonchga to'lardi. Kelajak haqida o'ylamasdan, men ikkinchi marta uylandim — yangi xotin menga uch o'g'il tug'ib berdi va men baxtli edim. Bir kuni uyga kelsam, xotinim menga jahl bilan: «Siz nuqul Chanxvani maqtab erkalaysiz, u nima qilganini bilasizmi? Borib ko'ring!», dedi. Ko'z oldim qorong'ilashdi. Qizlarimning xonasiga kirib ko'rpani ochdim va u yerda «o'lik chaqaloq» yotganini ko'rdim! O, men nodon! Birinchi xotinimning nasihatini unutdim, bu ablah meni chuv tushirishiga yo'l qo'yib berdim... Meni o'ldirishingiz mumkin, lekin aytganlarimning hammasi rost!

Pe Muyon ho'ngrab yig'lab yuboribdi. Uyezd boshlig'i unga o'zini bosishni buyuribdi, jinoyatchi xotinni esa kundaga solishni amr etibdi va uni so'roq qilishga kirishibdi. Yovuz Xo qiynoqlarga dosh berolmay, qilgan barcha jinoyatlariga iqror bo'libdi:

— Otamning oilasi katta edi. U kasodga uchradi va biz och-nahor yashiy boshladik. Ayni shu payt bo'lis boshlig'i Pe Muyon menga sovchi yubordi va men unga tegdim. Erimning birinchi xotinidan ikkita qizi bor edi, ikkalasi ham kamtar-kamsuqum qizlar edi. Ular o'n ikki yil mening bolalarim bilan birga o'sishdi va hammasi yaxshi edi. Biroq keyin ular o'zgarishdi, mendan gap yashira boshlashdi, muomalasi ham yomonlashdi... Albatta, mening jahlim chiqdi. Ularni koyidim, yaxshi gap bilan to'g'ri yo'lga solishga urindim — foyda bo'lmadi. Bir kuni ularning yashirin suhbatini eshitib qoldim. Ne ajabki, men doim qo'rqib yurgan narsa yuz beribdi! Erimga aytsam, hamma aybni menga to'nkaydi, deb o'yladim. Aldov ishlatishga to'g'ri keldi — men kalamushni tutib qonga beladim va Chanxvaning ko'rpasi ostiga solib qo'ydim. Erim uni o'lik chaqaloq deb o'ylashiga umid qildim... Keyin men o'z rejalarimni o'g'lim bilan o'rtoqlashdim. U Chanxvani amakisinikiga kuzatib borayotib uni Nilufar ko'liga cho'ktirib keldi. Chanxvaning singlisi Xonnyon esa, ota-ona g'azabidan qo'rqib, uydan qochib ketdi. Bilaman, men eng og'ir jazoga loyiqman. Ammo Osmon meni jazolagan: o'g'lim majruh bo'lib qolgan. Menga rahmingiz kelsin, muhtaram janob!

Chansve va uning ukalari — uchovlon jo‘r ovozda yolvorishibdi:

— Biz hech narsa so‘ramaymiz, faqat bizga ota-onamiz o‘rniga o‘lishga ruxsat bering!

Uyezd boshlig‘i Pe Muyonning xotini so‘zlarini eshitibdi, uning o‘g‘illari gapini ham bo‘lmabdi. Xo va Chansve unda qattiq nafrat uyg‘otibdi.

«Bular o‘ta og‘ir jinoyatchilar, — deya xayolidan o‘tkazibdi u, — ularning taqdirini men o‘z hukmim bilan hal qila olmayman!»

Uyezd boshlig‘i ishni sudga topshiribdi. Hakam ish bilan tanishibdi va hayratga tushibdi:

— Ha-a! Dunyo bunaqa yovuzlikni hali ko‘rmagan!

Shu xulosa bilan u ishni podsho saroyiga yuboribdi.

A‘lo hazrat ma‘lumot bilan shaxsan tanishib chiqibdi va Chanxva bilan uning singlisi ayanchli qismati xususida afsus bildiribdi. So‘ng podshoning quyidagi farmoni chiqarilibdi:

«O‘gay onaning jinoyati abadulabad kechirilmaydi. Kelajakda bunday qilmishlarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun yovuz xotinning qo‘llari va oyoqlari olomon ko‘z o‘ngida qirqilsin, so‘ng uning boshi tanasidan judo qilinsin. Uning o‘g‘li — Chansve osib o‘ldirilsin. Opa-singil Chanxva va Xonnyonga yodgorlik o‘rnatilsin, unga bu qizlar begunoh qurbon bo‘lgani haqidagi bitik o‘yib yozilsin. Ularning otasi oqlansin».

Podshoning farmonini olgach, hakam uni Chxolsan mahkamasiga yuboribdi. Uyezd boshlig‘i darhol soqchilarni chaqiribdi va yovuz ayolni kundaga, Chansveni esa — dorga yuboribdi.

Qarshisida tiz cho‘kib o‘tirgan Pe Muyonga uyezd boshlig‘i shunday debdi:

— Sen, ahmoq, qanday qilib razil maxluqning aldoviga uchding?! Sening jazong — begunoh qizlarningning o‘limi. Ularning ruhlari seni omon qoldirishni so‘rashdi va podsho ularga quloq soldi. Sen avf etilding!

Pe Muyon rahmdilligi uchun uyezd boshlig‘iga rahmat aytibdi va qolgan ikki o‘g‘li bilan birga uyiga jo‘nabdi.

Uyezd boshlig'i esa mulozimlari bilan birga Nilufar ko'liga yo'l olibdi. Ko'l suvini quritishgan ekan, uning tubida ikkala qiz ham xuddi tirikdek bir-birining pinjiga kirib yotishganini ko'rishibdi. Ular pari yanglig' suluv ekan. Bu manzarani ko'rib, uyezd boshlig'ining ko'zlari yoshlanibdi...

Opa-singilni tobutga solishibdi va muqaddas tog'da ularni dafn etishibdi. Qabr ustida toshdan yodgorlik o'rnatishibdi va unga quyidagi so'zlarni o'yib yozishibdi:

«Sharqda dengiz bo'yida joylashgan Tonggi subhidam mamlakatidagi Pxyonando provinsiyasining Chxolsan uyezdida yashaydigan Pe Muyonning qizlari, begunoh qurbonlar Chanxva va Xonnyonga yodgorlik».

Dafn marosimidan so'ng uyezd boshlig'i o'z mahkamasiga qaytibdi — bu yerda uni ishlar kutayotgan ekan.

Bir kuni uyezd boshlig'i toliqib dam olgani yotibdi va uxlab qolibdi. Tushida uning oldiga Chanxva singlisi bilan birga kelishibdi va tiz cho'kib unga minnatdorlik so'zlarini aytishibdi:

— Muhtaram janob bizning o'tinchimizga quloq soldi, mayitlarimizni izlab topdi, otamizga marhamat ko'rsatdi. Sizning yaxshiligingiz cheksiz dengiz — Tayshandan ham ulug'! O'liklar saltanatida sizga toj kiydiriladi! Shuni bilingki, tez orada siz yuksak lavozimga erishasiz!

Shu so'zlarni aytib ular g'oyib bo'lishibdi. Uyezd boshlig'i hayron bo'lib uyqudan ko'z ochibdi. U ajoyib tush tafsilotlarini o'z daftarchasida qayd etibdi va ko'p yillardan so'ng unga nazar tashlabdi: darhaqiqat, o'sha kundan e'tiboran u mansab pilla-poyalaridan jadal sur'atlarda ko'tarila boshlabdi va tez orada uch janubiy provinsiya dengiz va quruqlikdagi qo'shinlarining sarkardasi lavozimiga tayinlanibdi.

Yovuz Xo munosib jazosini olgan bo'lsa-da, Pe Muyon bu dunyoda orom topmabdi — u Chanxva va Xonnyonni eslab kecha-yu kunduz yig'lar ekan. Dam ko'z o'ngida ularning siymosi gavdalanar, dam ularning ovozlari qulog'iga chalinar ekan... Yolg'izlikda u juda qiynalibdi: ovqat pishirib berishga odami, dardlashishga uning hamrohi yo'q ekan. U uchinchi marta uylanishga qaror qilibdi. Uning nazari shu yerlik zodagonning

o'n sakkiz yashar qizi —aqli, kamtar va kamsuqum Yun Gvanxoga tushibdi. Pe Muyonning baxtiga, uning taklifi qabul qilinibdi va er-xotin tinch-totuv yashay boshlashibdi...

Bir kuni Pe Muyon o'rnida yarim kechagacha uxlayolmay yotibdi — qizlarini eslabdi. So'ng uni mudroq uyqu bosibdi va tushiga to'ng'ich qizi Chanxva kiribdi. Chanxva otasiga ta'zim qilibdi va uning oldiga kelib shunday debdi:

— Men dunyoga kelib baxt ko'rmadim: aftidan, o'tgan hayotimda ko'p gunoh qilgan bo'lsam kerak. Men onamdan erta ayrildim va ko'p o'tmay uning o'rnini o'gay ona egalladi. U meni yomonotliq qildi va men o'zim tug'ilib o'sgan uyni tark etishga majbur bo'ldim. Dardimni Osmon podshosi bilan o'rtoqlashgan edim, u menga shunday dedi: «Ha, qismating og'ir, lekin bundan kuyinma. Otang odamlar oldida oqlandi. U hayotni yangidan boshlasin, ayol bilan mikohga kirib tinch-totuv yashasin!»Osmon podshosi sizga shuni xabar qilishimni buyurdi va men uning so'zini ikki qilolmadim.

Pe Muyon qizini ushlab qolib, u bilan ozgina bo'lsa ham gaplashmoqchi bo'lgan ekan, xo'roz qichqiribdi va u g'oyib bo'libdi. Pe Muyonning esa tinchi yo'qolibdi, u uzoq vaqt hardamxayol bo'lib yuribdi.

Uning xotini — Yun xonim ham tush ko'ribdi: bulutlar bag'ridan bir pari tushib kelibdi va unga ikkita gul uzatib, shunday debdi:

— Bu Chanxva va Xonnyon. Ularning ayanchli taqdiridan ko'ngli buzilgan Osmon podshosi sizlarga ikkita qiz hadya etishga qaror qildi. Ularni o'stiring va baxtli bo'ling!

Yun xonim uyg'onib qarasa, qo'hida ikkita gul turganmish, xonani ularning shirin atri tutib ketganmish... U xursand bo'lib oldiga erini chaqiribdi va unga o'z tushini gapirib beribdi.

— Kim bu — Chanxva va Xonnyon? — deb so'rabdi u.

Eri uning gaplarini tinglab, gullarga nazar tashlabdi, ular erkalanib o'zi sari talpinayotgandek bo'lib tuyulibdi... Pe Muyonning ko'zlari yoshlanibdi — u xuddi o'z qizlarini ko'rgandek bo'libdi. Yun xonimga qizlarining ayanchli taqdiri haqida gapirib beribdi va qo'shimcha qilib:

— Bir paytlar birinchi xotinim ham shunga o'xshash tush ko'rgan edi. Menimcha, bu ikkita qiz ko'rishimizga ishora! — debdi.

Er-xotin xursand bo'lishibdi. Ular gullarni qimmatbaho vazaga solib, javonga qo'yishibdi va har soat ularni tomosha qilishar ekan. Qayg'uli o'ylar bo'lis boshlig'ini asta-sekin tark eta boshlabdi...

Shu oydan boshlab Yun xonim ona bo'lishga tayyorgarlik ko'ribdi. Oradan o'n oy o'tgach, uning qorni behad kattalashibdi va u egizak ko'rishi ayon bo'lib qolibdi.

Oy-kuni yaqinlashgan paytda Yun xonim toliqib dam olgani yotibdi va hech kutilmaganda ko'zi yorib ikkita qiz tug'ibdi. Hovlida yurgan eri darhol chaqaloqlarni ko'rgani yugurib kelibdi: ularning yuzi ham, gavda tuzilishi ham behad chiroyli, qarab ko'z to'ymas ekan!

Er-xotin o'zlarida yo'q sevinib javondagi gullarga qarashibdi, biroq ular g'oyib bo'lgan ekan. Shunda ular mazkur gullar qizlarga aylanganini tushunishibdi. Ular chaqaloqlarga Chanxva va Xonnyon degan ism qo'yishibdi va ularni ko'z qorachiqilaridek asrab katta qila boshiashibdi.

Oradan yillar o'tibdi, qizlar o'sa boshlashibdi. Besh yoshida ular o'z tengdoshlari orasida yaxshi xulq-atvori va qizlarga xos izzat-ikromi bilan ajralib turar ekan. O'n besh yoshida ular behad go'zal va dilbar qizlarga aylanishibdi. Ota-onasi ularni jonidan ortiq ardoqlar ekan.

Qizlarni turmushga uzatish haqida o'ylash vaqti kelibdi va bo'lis boshlig'i xotini bilan birga sovchilarga murojaat etishibdi. Oradan vaqt o'tibdi, ammo munosib kuyovlar topilmabdi va er-xotin bundan g'am chekibdi.

Shu vaqt Pxenyanda Li Yenxo ismli bir zot yashar ekan. U boy, lekin farzandsiz bo'lib, merosxo'r yo'qligidan cheksiz hasratda ekan. Umrining oxirida uning oldiga vahiy kelibdi va tez orada xotini unga ikkita o'g'il tug'ib beribdi. Bolalarga Yunpxil va Yunsok degan ism qo'yishibdi. Ular o'n olti yoshga to'lganda aqlli, xushqomad va xushsurat yigitlar bo'lib yetishibdilar. Boz ustiga, ular adabiy iqtidorga ham ega ekan. Shaharda qizlik

odamlarning ko'pchiligi Li Yenxo bilan qarindosh bo'lishni orzu qililar va unga sovchilar yuborar ekan. Li Yenxo egiz tug'ilgan o'g'illari uchun xotinlikka egizaklar — Chanxva va Xonnyonni tanlabdi. Katta to'y qilishibdi. Ota-onalar yangi kelin-kuyovlarga qarab ko'zlari to'yimas ekan. Ular uzukka ko'z qo'ygandek bir-biriga munosib ekan. Ikkala kelin ham qaynona-qaynotasini hurmat qililar, erining so'zini sira ikki qilmas ekan. Tez orada Chanxva ikki o'g'il va bir qiz tug'ibdi. Uning to'ng'ich o'g'li yuksak martabaga erishibdi, podshoga yaqin saroy a'yonlari qatoridan o'rin olibdi; kichik o'g'li harbiy sohada katta boshliq lavozimiga ko'tarilibdi. Xonnyon ikkita o'g'il tug'ibdi: katta o'g'li saroyda yuksak lavozimni egallabdi, kichik o'g'li esa katta olim bo'lib yetishibdi.

Bo'lis boshlig'i to'qson yil umr ko'ribdi va unga podsho Hukumat kengashl raisining katta yordamchisi unvonini beribdi. Shu unvonda u vafot etibdi. Oradan bir necha yil o'tgach, uning ortidan Yun xonim ham ergashibdi. Chanxva va Xonnyon otanasining vafotidan qayg'urib ko'p g'am-hasrat chekishibdi.

Ota-onasining o'limidan keyin Yunsok ukasi bilan bir hovlida yashay boshlabdi va ular o'z nabiralari bilan birga voyaga yetkazishibdi. Chanxva yetmish yoshida singlisi bilan birga, Yunsok yetmish besh yoshida ukasi bilan birga — bir kunda vafot etishibdi. Ularning nevaralari o'zlaridan ko'p sonli avlod qoldirishibdi va ular hiammasi rohat-farog'atda yashashibdi.

XINBU VA NOLBU

I

Chxunchxondodami, Cholladodami, Kyonsandodami Yon urug'iga mansub bir syusay yashagan ekan. Undan ikki o'g'il qolibdi. To'ng'ich o'g'ilning ismi Nolbu, kichik o'g'ilning ismi esa Xinbu ekan.

Shunisi ajabianarlik, aka-uka bitta qorindan talashib tushgan bo'lsa-da, ularning fe'l-atvori bir-birinikiga umuman o'xshamas ekan. Xinbu yuvosh, muloyim bola bo'lib, ota-onasini hurmat

qilar, akasini qattiq yaxshi ko'rar ekan. Nolbu esa o'zini boshqacha tutarkan. U farzandlik burchiga rioya qilmas, ukasini ham uncha jini suymas ekan.

Barcha odamlarda besh a'zo va olti bo'shliq bor. Nalbuda esa, uning yomon fe'lini hisobga olganda, ular yettita ekan: aftidan, unda qo'rslik va o'jarlikni o'zida mujassamlashtirgan bitta ortiqcha a'zo bor bo'lib, u jigar atrofida joylashgan ekan; bu a'zo ishga tushgudek bo'lsa, Nolbu o'z atrofida qilarga ko'p ozor yetkazar ekan.

Nolbu maishatbozlikni yoqtirar, janjalkashlik esa uning jon-u dili ekan. Mushtlashishda ham u ortda qolmas ekan. Aza tutilayotgan uyda u raqs tushar, endigina tuqqan ayolning uyi yonida it so'yar, o't chiqqan joyda olovni puflab, yong'inni kuchaytirar ekan. Nolbu bozorda paydo bo'lsa, o'z molini odamlarga zo'rlab tiqishtirar ekan.

Yosh bolani tutib olsa, uni axlat yeyishga majburlar va uyiga yig'latib jo'natar ekan. Yoki bo'lmasa, aybsiz odamga he yo'q-be yo'q yuziga tarsaki tortib yuborar ekan. Qarzlari evaziga ayolni uyidan olib chiqib ketish, mo'ysafid odamning yoqasidan olish yoki homilador ayolga qo'l ko'tarishdan ham u tap tortmas ekan.

Quduq yonida hojatga chiqish, sholizordagi suvni ochib yuborish, qozonda pishayotgan ovqatga tuproq solib qo'yish, bug'doyzorni payhon qilish, hovuzda teshik ochish yoki hali pishmagan qovoqlarni teshib qo'yish Nalbuning sevimli «ermaklari» ekan. U bukur odamni yiqitib oyoqlari bilan toptashi, hojatga chiqayotgan odamni turtib o'tishi, majruh odamning yuziga musht solishi yoki kulolning mahsulotlarini sindirib tashlashi mumkin ekan. Ajdodlar xokini ko'chirishayotgan bo'lsa, u suyakni yashirib qo'yarkan, kechasi bor ovozda baqirib odamlarning uyqusini buzarkan. Bevaning nonusiga tegish yoki birovning to'yini buzishdan ham tap tortmas ekan.

Dam qayiq tubini teshib qo'yar, dam cho'mllayotganlarga loy otar ekan. Shamollagan odamni davolamoqchi bo'lib, uning burniga igna sanchar yoki kasal ko'zlariga qalampir sochar ekan. Tishi og'riyotgan odamning yuziga tarsaki solar, yosh bola uchrasa, uni chimchilamasdan qo'yib yubormas ekan. Ba'zan u

odamlar yuradigan so'qmoqda ular tushib ketishi uchun o'ra qazib qo'yar yoki qo'shnilar ajdodlar ruhiga qurbonlik keltirayotgan paytda xo'rozni qichqirishga majburlar ekan, yomg'ir yog'ayotgan paytda esa ichiga soya solingan idishlarni ochib qo'yar ekan...

Nolbu ana shunaqa odam ekan. U qing'ir yo'ldan bir qadam ham chetga chiqmas ekan.

Xinbu esa butunlay boshqacha odam ekan. U yuvosh, muloyim bo'lib, akasining beboshliklariga qarab chuqur xo'rsinar ekan, vaqti-vaqti bilan uni to'g'ri yo'lga solishga urinar, biroq akasi uning so'zlarini bir chaqaga olmas ekan. Oxir-oqibat u akasiga gapirmay qo'yibdi; u o'ziga qanday ovqatni bersa, shu ovqatni yer, qaysi ishni buyursa, shu ishni qilar ekan. Bag'ritosh Nolbu vijdon azobi nimaligini bilmas ekan.

Ochko'z Nolbu ota-onasidan qolgan bor meros: ko'p miqdorda pul, xizmatkorlar, katta dalalar va mol-holning barchasini egallab olibdi. Ximbuni esa u xizmatkorlardan ham battar xo'rlar ekan. Biroq ukasi yuvoshligi tufayli bularning barchasiga chidar ekan.

Qissamiz voqealari sodir bo'lgan paytda Nolbu uydagi bor mol-mulkka, barcha dalalarga bir o'zi egalik qilayotgan, ta'bir joiz bo'lsa, yegani oldida, yemagani ketida — yallo qilib yashayotgan ekan. Biroq marhum ota-onasini xotirlash kunlarida Nolbu ma'rakaga pul sarflashni istamas ekan. U ma'raka dasturxoniga qog'oz parchalarini qo'yib, ularning biriga non narxini, boshqasiga esa — meva-chevalar narxini yozib qo'yar ekan... Ma'raka tugab, dasturxon yig'ishtirib olingach, u: «Bu safar xarajat qilmay degan edim, lekin nasib etmadi...», deb afsus qilarkan. Shamga besh chaqa sarflashni u o'z xonumonidan ayrilish bilan teng qo'yar ekan!

Kunlarning birida yorug' dunyoda kam uchraydigan shu ablah odamning xayoliga: «Uydan Ximbuni quvib yuborsam, u yeydigan osh-ovqat yonimga qolgan bo'lardi. Boshqa sarf-xarajatlar ham kamayardi...», degan o'y kelibdi.

O'z fikrini xotini bilan o'rtoqlashgach, Nolbu ukasini chaqiribdi va unga shunday debdi:

— Aka-uka bolalikda birga yashashadi. Ular oila qurgach, alohida-alohida yashashlari lozim. Hayot qonuni shunday. Xotining va bola-chaqangni ol-da, bu yerdan jo'na!

Bu gapni eshitib Xinbu qo'rqib ketibdi va ko'zida yosh bilan akasiga javob beribdi:

— Aka-uka — bamisli qo'l va oyoq: agar biz, ikki aka-uka, alohida yashaydigan bo'lsak, oilamizda tinchlik va adolat bo'lmaydi. Aka, sizdan o'tinib so'rayman, bu fikringizdan qayting!

Biroq Nolbu ukasini uyda qoldirishni xayoliga ham keltirmasligi, unga kichik bir hujrani ham ravo ko'rmasligiga ishonch hosil qilish uchun uning aftiga nazar tashlashning o'zi kifoya qilar ekan. Bu ham mayli, u ukasini uydin qurug'ay haydab chiqarmoqchi ekan! Ukasi o'ziga gap qaytarayotganini ko'rib, Nalbuning g'azabi qaynabdi va u yeng shimarib qichqiribdi:

— Voy, sen ablah-ey! Yaxshi yashaymanmi, yomon yashaymanmi — bu mening ishim. Qachongacha sen mening nonimni tuya qilasan? Balki umr bo'yi akangning yelkasida o'tirmoqchidirsan? Ko'p gapirmasdan, tezroq qorangni o'chir!

Xushfe'l Xinbu: «Akam o'zi shunaqa odam. Agar men shovqin ko'tarsam va bo'lgan gapdan qo'shnilar xabar topadigan bo'lsa, akamning battar g'azabi qo'ziydi», deya xayolidan o'tkazibdi. Shu bois u boshqa bir so'z ham demay, uyning o'z bo'lagiga kelibdi va nima qilishni xotini bilan maslahatlasha boshlabdi.

Xinbuning xotini ham eri singari xushfe'l va yuvosh ayol ekan. Erining gapini eshitib, uning ko'zlari yoshlanibdi.

— Ha, qaynag'amni o'zgartirib bo'lmaydi! — debdi u. — Biroq bu yerdan chiqib qayerga boramiz? Axir bizning o'z burchagimiz yo'q-ku. Bola-chaqa bilan qayerdan boshpana topamiz?

Ular butun tunni kuyinib o'tkazishibdi. Kallayi saharda Nolbu bino bo'libdi va ularning eshigi oldiga kelib bo'kira boshlabdi:

— Hoy, iflos, men senga kecha mima degan edim? Nega hali ham shu yerdasan? Agar hoziroq bu yerdan qorangni o'chirmasang, seni o'lasi qilib kaltaklayman va ko'chaga olib chiqib tashlayman!

Bunday muomalaga qachongacha toqat qilish mumkin?!

Xinbu unga bir soʻz bilan ham javob qaytarmabdi. Xotini va bola-chaqasi bilan birga u indamay darvozadan chiqibdi va boshi oqqan tomonga qarab yoʻl olibdi.

Ular bir togʻdan oshib oʻtishibdi. Oʻsha yerda, togʻ ostonasida Xinbu gʻor qazibdi. Shu yerda ular bir joyda gʻuj boʻlib oʻtirib tunni oʻtkazishibdi.

Xinbu qancha bosh qotirmasim, boradigan joyi yoʻq ekan. U shu yerda, oʻziga qadrdon joylar yaqinida ikki-uch kan keladigan gʻarib kulba qurishdan boshqa chora topolmabdi. Bu kulbada Xinbu choʻzilib yotsa, oyogʻi devordan tashqariga chiqib qolarkan. Qayerda yashayotganini unutilib, qaddini gʻoz qilib tursa, boshi tomni teshib chiqarkan. Xinbu uyqusida kerishsa, uning oyoqlari hovliga, qoʻllari — kulba devorlaridan, keti esa — chetan devordan tashqariga chiqib qolar ekan. Kulba oldidan qishloqda yashaydigan qoʻshnilari oʻtib qolishsa, uning qoʻllari va oyoqlariga qoqilib soʻkimisharkan. Shunda Xinbu choʻchib uygʻonar va gap nimada ekanini tushungach, koʻzlari yoshlanib, oʻz taqdiridan nolishga tushar ekan:

— Oh, mening achchiq qismatim! Omadli odamlar ham bor-ku. Taqdir ularga yuksak lavozim va faxrli unvonlar hadya etadi. Ular davlat maslahatchisi, vazir mavqeyiga ega boʻlishadi. Xos xonalarda yashashadi, boylik va shon-shuhratdan lazzatlanishadi, ipakka burkanib yurishadi, dasturxonidan nefritdek oppoq guruch arimaydi. Menga oʻxshaganlarga esa faqat kulbayi vayronada och-nahor yashash nasib etadi. Teshik tomimdan yulduzlar koʻrinib turadi, yomgʻir yogʻsa, boshimga chelaklab quyiladi, xuddi sheʼrda aytilganidek: «Moviy osmonda paydo boʻlgan oʻtkinchi bulutdan birdan mayda yomgʻir sevalay boshlasa, mening kulbamga sel keladi». Bunday hayotga ortiq toqat qilolmayman!

Muhtojlik oʻz yoʻliga-ku, lekin kechalari u tirishib ter toʻkkan ekan: xudoning bergan yili oila hir boshga koʻpayarkan. Bolalar qoʻziqorindek potrab oʻsar ekan. Ularni yeb-ichirishning oʻzi boʻtarkanmi? Kiyintirish haqida-ku, gapirmasa ham boʻladi: kulba eshigimi ochsang, xuddi daryo boʻyiga kelgandek boʻlasan — bir gala shiryalangʻoch bola-baqrani koʻrasan.

To'yib ovqat yeyish nari borsa uch oyda bir marta nasib etgan bir vaqtda, kiyim-kechak haqida orzu qilmasa ham bo'ladi! Xinbu bu ahvoldan qutulish yo'lini erta-yu kech izlasa ham jo'yali bir fikr miyasiga kelmabdi.

«Topdim!», debdi u bir kuni. Qayerdandir poxol chiptaning katta bir bo'lagini tilab olib, Xinbu unda bolalar boshi soniga teng miqdorda teshiklar ochibdi. So'ng ularning hammasini bir burchakka haydab kiritib, ularga chiptani kiydiribdi. Chiptadan bolalarning boshlari mosh donalaridek chiqib turar, ulardan biri «kattasi» yoki «kichkmasi»ni qilgani yugursa, uning ortidan qolganlar ham xuddi katta amaldorning a'yonlari singari ergashar ekan.

Boz ustiga, ular doim nimanidir so'rab tilanishar ekan.

— Oyijon, go'shtli sho'rva ichgim kelyapti! — der ekan biri.

— Men go'shtli va tuxumli dimlama yegim kelyapti! — deb qo'shilar ekan ikkinchisi.

— Sholgo'mdan kulcha yegim kelyapti! — deb hiqqillar ekan uchinchisi.

— Jim, zumrashalar! Uyda qovoqdan yovg'on sho'rva ham yo'q-ku, senlarning ko'ngling nimalarni tusamayapti! — deya xo'rsinib javob berar ekan ularga onasi.

O'lganning ustiga tepgandek, to'ng'ich o'g'il:

— Oyi, meni qachon uylantirasizlar? — deb oraga tiqilar ekan.

Ammo uyda yeyishga hech vaqo bo'lmagan paytda ham Xinbu hech kimga hasad qilmas, birovga yomonlik tilamas, g'am-tashvishdan qutulish yo'lini maydan izlamas ekan. Bunday fe'l-atvor bilan boylik va amalga erishishga umid qilish mumkin ekanmi?!

— Menga qarang, — debdi bir kuni Ximbuga uning xotini. — Behuda olijanoblikni qo'ying. Bolalaringizning qornini to'ydirish haqida o'ylang. Akangizning oldiga borib, undan ozgina bo'lsa ham guruch yoki pul so'rang.

— Akamdan qishda qor so'rab bo'lmaydi-ku. Arpa bilan mehmon qilsa ham katta gap, — deb javob beribdi unga Xinbu.

Sodda xotini Ximbuga e'tiroz bildiribdi:

— Buni qarang-a! Nima, arpa, sizningcha, ovqat emasmi? Arpa qurg'oqchilik yillari non o'rnini bosadi. Uni xumchaga solib dimlasak, guruchdan ham to'yimli ovqat chiqadi!

Ximbu bunga shunday javob beribdi:

— E, xotin, arpa deganimda sen ekiladigan arpani tushungan ko'rinasan! Agar akam o'z dasturxonidagi ushoqlarni birov terib yeyotganini ko'rsa, qarindoshmi u, begonami — qarab o'tirmaydi, o'sha zahoti to'qmog'ini olib uning adabini beradi. Men ana shunday «arpa»ni nazarda tutyapman.

Ammo xotini o'z gapidan qolmabdi:

— Bunday demang. Axir: «Sadaqa berishmasa, cho'zilgan qo'lga ham urishmaydi», degan maqol bor. Sizdan nima ketdi? Chiqmagan jondan umid. Avval bir urinib ko'ring, bermasa, qaytib kelarsiz.

Xotinining gaplaridan so'ng Xinbu yuragi po'killab bo'lsa ham akasining oldiga yo'l olibdi. Kuchli shamolda qolgan kasal odamdek gandaraklab, Xinbu akasi Nolbuning uyiga bir amallab yetib olibdi. Hovliga kirib qarasa, hammayoq donga to'la, oyoq qo'yishga joy yo'q emish. Sodda Xinbu quvonchdan o'zini yo'qotib qo'yibdi. Ammo birdan shu yerda Nolbudan yegan kaltaklari esiga tushibdi va hali akasini ko'rmasdan yuragi tovoniga tushib, oyoqlari qaltiray boshlabdi.

Xinbu darvoza oldida turib, ehtirom bilan qo'lini ko'ksiga qo'yibdi va tinimsiz ta'zim qilib, akasidan hol-ahvol so'rabdi.

Nolbuning o'rnida boshqa odam bo'lganida, o'sha zahoti ukasining oldiga yugurib borgan, uning qo'llaridan ushlab, yaxshi so'zlar bilan ichkariga boshlab kirgan bo'lar edi. Axir aziz mehmon bilan hovlida gplashib bo'larkanmi?!

Ammo adolat hissi Nolbuga begona ekan. U Xinbu o'zidan pul yoki guruch so'ragani kelganini tushunib, ukasini tanimganga olibdi va undan kim ekanini bir necha marta so'rabdi.

— Men Xinbuman, — deya bo'g'iq ovozda javob beribdi unga ukasi.

— Qanaqa Xinbu? Men hech qanaqa Ximbuni tanimayman! — deb bo'kiribdi Nolbu.

Shunda Xinbu xo'rlikka chidayolmay yig'lab yuboribdi:

— Aka, bu nima deganingiz? O'tinaman sizdan, bizga yordam bering! Sho'rlik bolalarim ochlikdan batamom sillasi qurigan, ularga berishga hech vaqom yo'q. Uyatni yuzimdan sidirib tashlab, oldingizga yordam so'rab keldim. Axir akamsiz-ku, bir siqim guruchni mendan ayamang. Buning evaziga men sizga ishlab beraman. Yaxshiligingizni o'la-o'lguncha unutmayman, oldingizda umrbod qarzdor bo'lib qolaman! Axir biz sizning jigarlaringizimiz. Halok bo'lishimizga yo'l qo'ymang!

Ukasining gaplarini eshitib, Nolbu yaralangan yo'lbarsdek o'rnidan sapchib turibdi, qon to'lgan ko'zlarini lo'q qilib Xinbuga tashlanibdi:

— Vijdonsiz hayvon! Gaplarimni qulog'ingga yaxshilab quyib ol. Osmon nomsiz giyohni yaratmaydi. Sen nega baxtsizsan? Nima uchun sen nuqul o'z iltimoslaring bilan mening jonimga tegasan? Diydoyolaringdan toqatim toq bo'ldi-ku!

— Ochlikdan bolalarimning sillasi qurigan, — deya javob beribdi unga Xinbu ko'zida yosh bilan. — Shuning uchun ham men, vijdonsiz, akamning oldiga yordam so'rab keldim. Yolvoraman, yeyishga biron narsa bering. Ovqatingiz bo'lmasa, uch tanga qarz bering, ikki-uch kun shunga tirikchilik qilaylik.

Nolbuning battar g'azabi qo'zibdi:

— Gapimni eshit, ablah! Omborlarim guruchga to'lib yotibdi, lekin senga berish uchun qopning og'zini ochishim kerak bo'ladi. Hovlimda ham guruch uyulib yotibdi, biroq senga bersam, uyum sochilib ketadi. Uyimda pul ham ko'p, lekin senga bersam, yangi shodani yechishim kerak bo'ladi. Senga un bergan bo'lardim, biroq xumim to'liq bo'lmay qoladi. Senga kiyim-kechakdan yordam beradigan bo'lsam, xizmatkorlarimni yalang'och qoldirgan bo'laman. Senga bir qoshiq guruch bo'tqa bergan bo'lardim, lekin itim och qoladi. Senga yug'indimni bergan bo'lardim, biroq cho'chqalarim bolalari bilan och qoladi. Senga bir qop mosh bersam, to'rtta ho'kizimga berishga hech narsa qolmaydi. Senday vijdonsiz, sharm-hayosiz odam dunyoda yo'q!

— Hamma gaplaringiz to'g'ri, lekin iltimos, ukangizni halokatdan qutqaring! — deya yalinishda davom etibdi Xinbu.

Oxiri Nolbuning toqati toq bo'libdi. U baland ovozda xizmatkorini chaqiribdi va unga:

— Uy orqasidagi omborni och, — deb buyuribdi. — U yerda kirgan zahoting qoplarda arpa uyib qo'yilgan.

Bu gapni eshitgan Xinbu xursand bo'lib ketibdi. «Akamning menga rahmi kelgan va ozgina bo'lsa ham arpa berishga qaror qilgan ko'rinadi», deya xayolidan o'tkazibdi u.

Nolbu arpa qoplari ortiga yashirib qo'yilgan to'qmoqlar uyumi orasidan qo'liga mos keladiganini tanlab olibdi va Xinbuga tashlanibdi. Avvaliga u ukasining qanshariga inusht solibdi, so'ng uni to'qmoq bilan kaltaklay boshlabdi.

— Voy! Aka, bu nima qilganingiz?! — deya baqiribdi Xinbu. — Yovuz Chje, makkor Guanshu va Sayshu ham sizning oldingizda farishta ekan! Axir biz bir qorindan talashib tushgan aka-ukalar emasmizmi? Bergingiz kelmasa — bermang. Urib nima qilasiz? Voy, o'laman!

Rahm-shafqat nimaligini bilmaydigan Nolbu ukasining nolasiga quloq solmay, uni beayov kaltaklabdi. Nihoyat, u charchabdi va to'qmoqni nari uloqtirib, ukasiga do'q uribdi:

— Agar yana ko'zimga ko'rinsang, omon qolmayсан!

Shu so'zlarni aytib u eshikni qars etib yopibdi va uyga kirib ketibdi.

Xinbuning butun vujudi simillab og'riyotgan bo'lsa ham u bu yerdan quruq ketgisi kelmabdi va akasining xotinidan biron narsa so'rab olishga umid qilib, o'choqboshi tomonga qarab emaklay ketibdi. Bu yerda qozonda bo'tqa pishayotgan ekan. Bir necha kundan beri tuz totmagani bois, shirin hiddan Xinbuning ichki a'zolari ag'darilib tushgandek bo'libdi. O'choq oldiga kelgach, Xinbu akasining xotiniga quyidagi so'zlar bilan murojaat etibdi:

— Kelinoyi, hech bo'lmasa bir qoshiq guruch bering! Ukangizga rahmingiz kelsin!

Biroq Nolbuning xotini eri bilan qorong'ida qatiq yalashgan ekan. U Xinbuga qarab:

— Tashvishim o'zimga yetarli! Boshimga endi sen bormiding?— deya o'shqiribdi va qozondan yolog'ini olib, u bilan Xinbuning o'ng yuziga solibdi.

Bunday «siylov»dan Ximbuning ikki ko'zidan o't chiqqandek bo'libdi, boshi aylanibdi. Yuzini o'g'rincha silagan ekan, unga bir chimdim qaynatilgan guruch yopishib qolganini payqabdi. Xinbu guruchni tili bilan yalab olibdi va:

— Rahmat sizga. Meni ham kaltak, ham bo'tqa bilan mehmon qildingiz. Malol kelmasa, chap yuzimga ham uring. Yolog'iga ko'proq bo'tqa solib uring. Hech bo'lmasa bolalarimning ko'zi to'ysin!

Bu gapni eshitib akasining xotini yolog'ini bir chetga qo'yibdi va qo'liga kosovni olib, u bilan Ximbuni shunday uribdiki, uning dami ichiga tushib ketibdi.

Nachora — Xinbu achchiq faryod qilib, o'z kulbasi sari yo'l olibdi.

Bu vaqt Ximbuning xotini bolalarini ovutayotgan ekan:

— Yig'lama, bo'talog'im, yig'lama... Sizlar nimaga yig'layapsizlar? Kecha kechqurun men muhtaram Kimning sholizorida ishladim, o'zim bilan bir kosa guruch olib keldim va hammasini sizlarga qaynatib berdim. Otangiz ikkimiz haligacha tuz totganimiz yo'q. Otangiz amakingizning oldiga ketgan. Hozir u pul yoki guruch olib keladi, shunda sizlarga ham bo'tqa, ham yovg'on sho'rva pishirib beraman. Sizlarni ham to'ydiraman, o'zim ham biron narsa yeb olaman... Yig'lama, bo'talog'im, yig'lama!

Ammo uning gaplari kor qilmabdi. Axir qorni och bolalarni gap bilan to'ydirib bo'larkanmi?!

Nihoyat, Ximbuning qorasi ko'rinibdi. U yegan kaltaklarining og'rig'idan afti burishib, mast odamdek gandraklab kirib kelibdi.

— Yaxshi keldingizmi? — deya qarshi olibdi uni xotini. — Qarindoshlaringizning mehri iyib ketgan ko'rinadi. Akangiznikida rosa ichibsiz-ku! Qani, kira qoling tezroq! Guruch olib kelgan bo'lsangiz, birpasda bo'tqa pishiraman, pul keltirgan bo'lsangiz, Kimning oldiga borib, undan yeyishga biron narsa sotib olamiz.

Xotinining so'zlarini eshitar ekan, Ximbuning tomog'iga mushtdek bir narsa kelib taqalibdi. Ammo, tabiatan xushfe'l odam bo'lgani bois, akasining uyida bo'lgan voqeani darhol gapirib berishga Xinbu jur'at etmabdi. U xotirjam ovozda gap boshlabdi:

— Gapimni eshit, xotin. Men akamning uyiga bordim. Akam kelinoyim bilan birga meni qarshi olishdi, qo‘limni siqib, nima uchun oldinroq kelmaganimni so‘rashdi. So‘ng ichkariga taklif qilishdi, may va issiq ovqat bilan mehmon qilishdi. Akam besh lyan pul va uch chora guruch berdi, kelinoyim yana uch lyan pul va ikki chora loviya qo‘shimcha qildi. «Tezroq uyingga borib, bolalaringning qornini to‘yg‘az», deyishdi. Akam xizmatkorini chaqirib, hadyalarni uyimga olib borib berishni buyurdi, lekin men xizmatkorga: «Kerak emas, o‘zim eplayman», dedim. Akamning uyidan chiqib toqqa ko‘tarildim. Bu yerda birdan yerdan chiqishdimi yo osmondan tushishdimi — qaroqchilar paydo bo‘lishdi. Bor bud-shudimni tortib olishdi. Uyga quruq qo‘l bilan kelishdan boshqa choram qolmadi.

— Qo‘ysangiz-chi! Nima, men qaynag‘am va ovsinimni bilmas ekanmanmi? Qanaqa besh lyan, qanaqa uch chora guruch?! Bo‘lmagan gapni gapirmang!

Shu yerda xotini Xinbuga sinchiklab nazar tashlab, erining hammayog‘i qon ekamini, yuzi shishib ketganini, tanasida sog‘ joyi qolmaganini ko‘ribdi.

Xotmining nafasi ichiga tushib ketibdi. U yerga cho‘k tushib o‘tirib, nola qila boshlabdi:

— Voy dod, bu qanday ko‘rgulik bo‘ldi! Axir erim akasining oldiga yordam so‘rab borishni istamagan edi! Men uni zo‘rlab jo‘natdim. Mana, oqibat nima bo‘ldi! Sho‘rim qursin! Hatto o‘z erimga ham yaxshi xizmat qilishga qodir emasman. Sizni bu ahvolda ko‘rguncha, qora yerga kirganim yaxshi emasmi?! Hovlisida tog‘ bo‘lib uyulib yotgan guruchini qizg‘angan, sizni ayamay kaltaklagan o‘sha rahmsiz, yovuz yanbanning qo‘li sinsin!

— Kuyinma, xotin. Axir, «Ochlarning hammasini to‘ydirishga davlatning ham qurbi yetmaydi», degan maqol bor. Akamdan gina qilmasak ham bo‘ladi. Birga mardikorlik qilgani chiqamiz. Amallab qorin to‘ydirarmiz.

Xinbuning xotini rozi bo‘libdi va ular ikkovlon mardikorlik qilgani otlanishibdi.

Biroq Xinbu erta-yu kech tinimsiz mehnat qilmasin, oilasining och-yalang‘och hayoti o‘nglanmabdi.

Bir kuni Xinbu boshqa chora topolmaganidan uyezd markaziga borish va davlat omboridan bir qop guruch so‘rashga qaror qilibdi.

— Xotin, gapga quloq sol. Ish bilan shaharga, uyezd markaziga borib kelishim kerak, — debdi u xotiniga va safarining maqsadi haqida og‘iz ochmasdan, yo‘lga tadorik ko‘ra boshiabdi.

Xinbu boshiga eski mangonni qo‘ndiribdi, egniga juldur ko‘ylak va ishtonni kiyibdi, beliga chilvir bog‘labdi. Savlatli ko‘rinish uchun u buning ustidan qirq yamoq yanbanlar choponini kiyibdi, qo‘liga chubug‘ini olibdi va mast odamdek gandiraklab, qoqilib-suqilib uzoq yo‘lga chiqibdi.

Shaharga yetib kelgach, Xinbu ming mashaqqat bilan uyezd ma‘muriyati mahkamasi joylashgan binoni topibdi va munshiyxona boshlig‘ining huzuriga kirib, garchi qo‘rquvdan yuragi yorilay deb turgan bo‘lsa-da, ichidagini sirtiga chiqarmasdan, amaldorga dimog‘ bilan murojaat etibdi:

— Xo‘sh, sizlarda nima yangiliklar bor? Janobi oliylari — shahar hokimi sog‘-omonmilar? Ha, yaxshi, yaxshi. Men, bo‘lmasa, o‘tira qolay. Bu yerga men o‘ttiz li yo‘l yurib keldim. Oyoqlarimda oyoq qolmadi, belim lo‘qillab og‘riyapti...

Xinbu o‘tirib chubug‘iga tamaki to‘ldira boshlabdi.

— Syusay Yon nima istaydilar? — deb so‘rabdi undan mirza.

— Davlat omboridan guruch so‘ragani keldim. Bu xususda farmoyish bera olasanmi?

— Davlatning noyob donini so‘rashga qashshoq odamning qanday haddi sig‘ibdi! Muhtaram syusay, sizga qachondir tayoq yeyish nasib etganmi?

Bu so‘zlarni eshitib Xinbuning yuragi tovoniga tushib ketibdi.

— Nega sen birdan tayoq haqida gapirib qolding? Yaxshisi, menga guruch topishga yordam ber. Hech bo‘lmasa bolalarimning qornini to‘yg‘azay.

— Syusay, guruch so‘rashni xayolingizga ham keltirmang. Tayoq yemoqchi bo‘lsangiz — marhamat. Bu yerlik boy Kimga tuhmat qilishdi. Gubernator uni qamoqqa olish va tegishli idoraga topshirishni buyurdi. Kim esa kasal bo‘lib yotib qoldi, qarindosh-urug‘larining ham o‘sha zahoti tobi qochdi. Shu bois Kim mendan o‘zining o‘rniga odam topishni so‘radi. Agar syusay Yon guberniya

mahkamasiga Kim o'rniga borishga va uning o'rniga tayoq yeyishga rozi bo'lsa, buning evaziga o'ttiz lyan haq oladi. Xo'sh, nima deysiz? Birovning o'rniga tayoq yeyishga rozimisiz?

Munshiyxona boshlig'ining so'zlarini eshitib Xinbu xursand bo'libdi. Mazkur jazoga dosh berish qay darajada og'ir ekanligini u hatto xayoliga ham keltirmabdi.

— Jazo og'irmi?

— Kamida o'ttiz tayoq urishsa kerak.

— Yegan o'ttiz tayog'im uchun men o'ttiz lyan olamanmi?

— Albatta. Har bir tayoq uchun bir lyan olasiz.

— Kelishdik. Faqat bu haqda boshqa hech kimga og'iz ochmang, — debdi Xinbu. — Qishlog'imizda yashaydigan Kvese buning daragini eshitsu, u yerga mendan oldin yetib boradi. Bu yangilikni hech kimga aytmang.

Munshiyxona boshlig'i Xinbuga guberniya mahkamasiga yo'llov xati yozib beribdi va yo'l xarajatlari uchun unga besh lyan pul ham beribdi.

— U yerga tezroq boring. Bu xatni guberniya mahkamasidagi mirshablarga berasiz. Sizni faqat xo'jako'rsinga urishadi. Boyvachcha Kim ortingizdan guberniya garnizoniga yuz lyan pul yuboradi. Sira tashvish chekmang.

Munshiyxona boshlig'i bilan suhbatni sensirab boshlagan Xinbu sevinchdan behad xushmuomala bo'lib qolibdi.

— Xo'p bo'ladi, janob boshliq! — debdi u va amaldor qarshisida bosh egib, ta'zim qilibdi.

So'ng olingan besh lyan pulni belbog'iga qistirib, «txaryon»ni xirgoyi qilgancha uyiga jo'nabdi.

Xinbu xotinini uzoqdan ilg'abdi va unga qarab:

— Xoy, xotin! Bir vaqtlar Li Shan o'z sadoqati uchun oltinga ko'milgan ekan. Mashhur sarkarda Guan Yuy Vey mamlakatiga kelganida, otda o'tirgan payti ming o'lchov, otdan tushganidan keyin esa yana yuz o'lchov oltin hadya qilishgan ekan. Shunday baxt bugun menga ham nasib etdi: uyezd markaziga yetib borganim zahoti menga osmondan o'ttiz lyan tushdi. Xotin, qani, etagingni och! — deb baqiribdi.

Xotini uni xursand bo'lib qarshi olibdi.

– Qanaqa pul haqida gapiryapsiz? Sudxo‘rdan pul qarz oldingizmi?

– Qo‘ysang-chi! Sudxo‘rga qarzni to‘lashga qurbim yetarkanmi?

– Unda, balki, yo‘lda topib olgandirsiz?

– Bu pullar aslida taqdir tuhfası, – deya kulib javob beribdi xotiniga Ximbu.

– Albatta, siz ularni yo‘lda topib olgansiz! Shu o‘ttiz lyanni yo‘qotgan odam hozir qattiq kuyayotgan bo‘lsa kerak! Gapimga quloq soling. Hoziroq pulni topgan joyingizga boring va uni o‘sha yerga qo‘ying. Egasi qidirib kelsa, darhol unga peshvoz chiqing. U sizga rahmat aytadi, balki mukofotiga ko‘nglidan chiqarib uchto‘rt lyan ham berar. Mana bu adolatdan bo‘ladi!

Bunga javoban Ximbu shunday debdi:

– So‘zlaring, albatta, ularga amal qilishga loyiq. Ammo men bu pulni yo‘lda topib olganim ham, uni menga birov tekinga bergani ham yo‘q. Uyezd markaziga bordim. U yerda Kim ismli bir boyga birov tuhmat qilib, guberniya mahkamasiga xat yozgan ekan. Boy hozir kasal bo‘lgani bois, o‘zining o‘rniga mahkamaga borib, o‘ttiz tayoq jazoni olishga rozi bo‘lgan odamga o‘ttiz lyan va yo‘l xarajatlari uchun yana besh lyan pul va‘da qilibdi. Axir bu baxtli tasodif emasmi? Axir bu omadning chopgani emasmi – atigi o‘ttiz tayoq uchun ko‘z ochib yumguncha o‘ttiz lyanga ega bo‘lish?

Ximbuning xotini bu gapni eshitib qo‘rqib ketibdi.

– Nega siz o‘zingizni sotdingiz? Axir siz bu odamning aybini ham bilmaysiz-ku, uning gunohini o‘z bo‘yningizga olmoqchi bo‘lyapsiz! Balki u odam o‘ldirgandir yo birovni talagandir yoki bo‘lmasa makr-hiyla bilan birovning mol-mulkini egallab olgandir? Och, oriq ahvolingizga mahkamada sizni tayoq bilan savalashsa, o‘lib qolishingiz ham hech gap emas. O‘tinaman sizdan, bu niyatingizdan qayting. Agar o‘z bilganingizni qilmoqchi bo‘lsangiz, oldin meni o‘ldiring va ko‘mib qo‘ying. O‘lsam, hech narsani bilmayman va shunda siz ko‘nglingizga siqqan ishni qilishingiz mumkin. Biroq, toki men tirik ekanman, siz hech qayerga bormaysiz.

Xinbu xotinini ko'ndirishga urinibdi:

— Hayotimiz qanday o'zgarishi mumkinligini sen bir tasavvur qilgin-a!.. Men davlat imtihonlaridan o'tib, amaldor bo'lib ketishim yoki poytaxtdagi besh qo'shinga qo'mondon bo'lishim mumkin. Yoki meni sakkiz provinsiyadan biriga gubernator qilib tayinlashlari mumkin. Uyezd mahkamasida munshiyxona boshlig'i yoki hech bo'lmasa qishlog'imiz oqsoqoli bo'lishim mumkin. Shunda menga hammayoqda to'rdan joy berishadi. Hozir sog' dumba menga nima uchun kerak? Guberniya mahkamasiga borib, atigi o'ttiz tayoqqa dosh bersam, bizda o'ttiz lyan pulimiz bo'ladi. O'n lyanga men jazodan keyin quvvatga kirish uchun go'sht sotib olaman, yana o'n lyanga guruch sotib olaman va butun oilamning qornini to'ydiraman. Qolgan pulga esa ho'kiz sotib olaman. Biz uni bo'rdoqiga boqib sotamiz va puliga to'ng'ich o'g'limizni uylantiramiz. U farzandli, biz esa nevarali bo'lamiz. Axir bu baxtli tasodif emasmi?

«Bularning hammasi yaxshi-ku, lekin bu yo'ldan borish yaramaydi», deya xayolidan o'tkazibdi Ximbuning xotini va erini o'z niyatidan qaytarishga urinishda davom etibdi.

Shunda butun xayoli tezroq mahkamaga yetib borish haqidagi o'y bilan band bo'lgan Xinbu o'zini xotinining gapiga ko'ngandek qilib ko'rsatishga majbur bo'libdi va unga shunday debdi:

— Mayli, sening aytganing bo'la qolsin. Men hech qayoqqa bormayman. Faqat muhtaram Kimning oldiga borib kelaman: undan choriq to'qish uchun bir quchoq poxol so'rayman.

Xotinini shu yo'l bilan aldab, Xinbu to'ppa-to'g'ri guberniya mahkamasiga yo'l olibdi. U yerga Xinbu, albatta, otda emas, balki piyoda jo'nabdi, o'ttiz lyan pul topish umidida kuniga yetmish li yo'l bosibdi va bir necha kundan so'ng mahkamaga yetib kelibdi.

Xinbu guberniya mahkamasi binosini umrida birinchi marta ko'rib turishi ekan. Nima qayerda joylashganini bilmasdan, u darvoza oldida turib qolibdi. Bir vaqt ichkaridan to'liq forma kiygan mirshab chiqib kelibdi. Uni ko'rgan Xinbu xaxolab kulib yuboribdi:

— Buning qalpog'ini qaranglar! Qizil g'uddasi bor ekan!

Nihoyat, Xinbu ichkariga kirishga jur'at etibdi. Kiribdi-yu qo'rquvdan joyida taqqa qotibdi: hovli mirshablarga va mahkama-ning boshqa xizmatchilariga to'la ekan; dam u yerdan, dam bu yerdan qo'ng'iroqchalar jarangi quloqqa chalinar, soqchilarning hayqirig'i ko'kka o'rlar ekan.

— Ishqilib, narigi dunyoga tushib qolmadimmikan?! — debdi Xinbu o'ziga o'zi ovoz chiqarib. — Bu yerdan tirik chiqadiganga o'xshamayman. Bekorga xotinimning gapiga kirmabman, o'jarlik qilibman...

Biroq Xinbu o'z qilmishidan pushaymon qila boshlagan paytda qo'ng'iroqchalar jiringlab qolibdi va: «Bo'ysunaman», degan ovoz yangrabdi. Xinbu kapalagi uchib boshidan qalpog'ini olibdi va mirshablar boshlig'iga yaqinlashib, unga:

— Muhtaram janob, men birinchi bo'lib keldim! Meni oldinga o'tkazib yuboring! — debdi.

— Bu telba yanban kim bo'ldi? — debdi mirshablar boshlig'i hayron bo'lib. — Jo'nang bu yerdan!

— Odamning ustidan kulmang. Meni tezroq o'tkazib yuboring! — deya yolvoribdi Xinbu.

— Siz o'zi kimsiz va bu yerda sizga nima kerak? — deb so'rabdi Ximbudan mirshablar boshlig'i.

— Men uyezdimizda yashaydigan boy Kimga tayinlangan jazoni o'z tanamga olmoqchiman.

— Ha, Podokchxon qishlog'ida yashovchi syusay Yon sizmisiz?

— Ha, muhtaram janob, menman.

Mirshablar boshlig'i qo'l ostidagi xizmatchilaridan birini chaqiribdi va unga:

— Mana bu yanban boy Kimning o'rniga kelgan. Uni olib borib so'roq qil. Ko'p qiynama. Munshiyxonamizga xat va yuz lyan pul kelgan, — debdi.

Boshqa mirshablar Ximbuning ishidan hayratga tushishibdi va uni yupata boshlashibdi.

Biroq shu vaqt jarchining: «Odamlar-u odamlar! Eshitmadim demanglar!», degan hayqirig'i quloqqa chalinibdi va darvozadan taxtiravon ko'targan odamlar kirib kelishibdi. Taxtiravonda bir

amaldor qo‘r to‘kib o‘tirgan ekan. U pastga tushib, qirol farmonini o‘qib eshittiribdi.

— Qirol nomidan barcha provinsiyalar va uyezdlarda hamma jinoyatchilar, odam o‘ldirganlardan tashqari, qamoqdan ozod qilinadi.

Shu vaqt yana mirshablar boshlig‘i paydo bo‘libdi.

— Mana, syusay Yon, ishingiz to‘g‘ri bo‘ldi, — debdi u Xinbuga.

— Demak, men Kimning jazosini o‘z tanamga olishim mumkin ekan-da? — debdi Xinbu xursand bo‘lib.

— Hamma jinoyatchilarni ozod qilish buyurilgan. Uyingizga jo‘nang.

Xinbuning hafsalasi pir bo‘libdi.

— Gapimga quloq soling, axir men bu yerga tayoq yegani kelganman-ku. Kelishuv shunday bo‘lgan: har bir tayoq uchun — bir lyan. Agar men quruq qo‘l bilan qaytadigan bo‘lsam, bor umidim chippakka chiqadi.

— Gap bunday, syusay Yon, — debdi mirshablar boshlig‘i. — Siz bu yerga boy Kimning ishi bo‘yicha kelgansiz. Agar u tayoq yemaganingizni vaj qilib ko‘rsatib, sizga haq to‘lashdan bosh tortsa, mahkamaga keling. Biz undan sizning foydangizga hech bo‘lmasa yuz chaqa pulni bir amallab olib beramiz. Hozir esa uyingizga boring.

Nachora — Xinbu quruq qo‘l bilan ortga qaytishga majbur bo‘libdi. Bo‘lis boshlig‘i mahkamasi oldidan o‘tayotib, u davlat omboriga sholi topshirniagan sho‘rliklarni tayoq bilan urib jazolashayotganini ko‘ribdi va alam bilan xo‘rsinibdi:

— Mana, tayoqning boy hosili qayerda ekan!..

Bu vaqt Xinbuning xotini eri guberniya mahkamasiga ketganini tushumb, toat-ibodat qilishga kirishibdi. Tangridan erini sog‘-omon qaytarishni so‘ragach, u o‘z kulbasiga qaytib kelibdi. Bo‘m-bo‘sh kulbada bir o‘zi o‘tirib, u achchiq ko‘z yoshi to‘kibdi:

— Osmondek beg‘ubor va beozor erim! Qashshoqlikdan o‘zini qiynoqlarga duchor qilgan erim! Sizni tirik ko‘rish menga nasib etarmikan? Sizga nima bo‘lganini men endi qayerdan bilaman?

Balki siz hozir kaltaklardan a'zoyi badaningiz momataloq bo'lib, ming bir talvasada jon berayotgandirsiz...

Shu vaqt ostonada Xinbu ko'rinibdi. Xotini quvonchdan hayqirib eriga peshvoz chiqibdi.

— Ko'zlarimga ishonmayman: erim qaytib keldi! Albatta, sizni aybsiz deb topishgan va qo'yib yuborishgan! Yoki... nahot sizni qiynashdi? Bunday og'ir jazoga siz qanday qilib dosh berdingiz? Jarohatlaringizni bir ko'ray-chi!

Omadi yurishmaganidan kuyinayotgan Xinbuga xotining bu gaplari yoqmabdi.

— Jarohatlarimni ko'rmoqchi emish! — deb to'ng'illabdi u. — E, tovuqmiya, menga birov hatto qo'l ham tekkizmagan bo'lsa, jarohat qayerdan bo'lsin?

— Juda yaxshi-da! — debdi Ximbuning xotini. — Tayoq yegani ketgan ering bus-butun qaytib kelsa! Bundan ortiq baxt bormi dunyoda!

Xotini xursand bo'layotganini ko'rgan Ximbuning tomog'iga mushtdek bir narsa kelib tiqilibdi. O'zining achchiq qismati, bolalarining och-yalang'ochligi xayoliga kelibdi va ko'nglini oldingidan ham kuchliroq g'am-g'ussa chulg'abdi. Ximbuning ikki ko'zidan duvillab yosh to'kilibdi. Buni ko'rgan xotinining quvonchi g'ippa bo'g'ilibdi. Uni ham ayanchli o'ylar birpasda chulg'ab olibdi va u ham eriga qo'shilib yig'lab yuboribdi.

— Yig'lamang, — deya hiqillab erini yupatibdi u. — Avliyo Yan Yuan muhtojliklarga dosh bergani va o'z taqdiridan nolimaganini eslang. Fuyanda g'isht teruvchilik qilgan Fu Yue odil podshohi uchratib, boylik va shon-shuhratga erishgan ekan. Shan vaziri I In-chi? Sinda yer haydab, bug'doy ekib yurgan bu odam Chen-tandek oqil podshohi uchratib, uning o'ng qo'liga aylangan ekan. Xan sarkardasi Xan Sin-chi? Yoshligida ko'p g'am-sitam chekkan bu odam Gao-szu qo'shinida yirik sarkarda bo'lgan ekan. Bu dunyoda yuz bergan g'aroyib voqealarning sanab sanog'iga yetib bo'larkanmi! Qadimda: «Kimki dalada halol ter to'ksa, uni hatto Osmon ham gado qila olmaydi», deb bejiz aytishmagan.

Xinbu xotinining fikriga qo'shilib, o'tirgan joyida chiuqur o'yga botibdi.

Shu vaqt boy Kimning jiyani shu qishloqdan o'tib qolibdi. Xinbu qaytib kelganidan darak topib, undan hol-ahvol so'ragani kelibdi.

— Ochlikdan oyog'ida zo'rg'a turgan odam mahkamada bunday og'ir jazoga qanday dosh berdingiz? — deb so'rabdi yosh Kim hayratlanib.

Bir necha lyan pul olish umidida Xinbu o'zini qanday qilib tayoq bilan ayovsiz kaltaklashgani haqida gapirib berish uchun og'iz juftlagan ekan, biroq tabiatan to'g'riso'z odam bo'lgani bois, u bo'lgan voqeani miridan sirigacha ro'yi-rost so'zlab beribdi.

— Meni tayoq bilan kaltaklashganida, albatta, yomon bo'lmas edi, biroq omadim kelmadi, — deya yakunlabdi u o'zining g'amgin qissasini.

Yosh Kim Xinbuning gaplarini diqqat bilan eshitibdi va:

— Siz chindan ham oqko'ngil odam ekansiz! — debdi. — Ammo uyga sog'-omon qaytib kelganingizning o'zi uchun pul so'rasangiz, adolatdan bo'lmasa kerak. Yonimda yetti yoki sakkiz lyan pul bor. Shuni oling va o'zingizga bir chora guruchi sotib oling.

Pulni bergach, boy Kimning jiyani Xinbu bilan xayrlashib, o'z yo'lida davom etibdi.

Xinbu mehmon ortidan uzoq tikilib turibdi. «Mahkamada menga birov qo'l tekkizgani ham yo'q, men bo'lsam birovning pulini xotirjam olib o'tiribman. Bundan ortiq vijdotsizlik bormi?! Ammo, qadimgilar: «O'n kun och o'tirsang, vijdon nimaligini unutasan», deb bejiz aytishmagan. Bundan boshqa ilojim bormidi?», deya xayohidan o'tkazibdi u.

Boy Kimning jiyani bergan pulning bir qismiga Xinbu guruch sotib olibdi, qolganini esa turli ziravorlarga sarflabdi. Shu tariqa ular bir necha kun tirikchilik qilishibdi.

Uyda yana yeyishga hech vaqo qolmabdi. Nima qilish kerak?

«Poxoldan choriq to'qib sotsammikan?», deya xayolidan o'tkazibdi bir kuni Xinbu va xotiniga qarab shunday debdi:

– Qo‘shnimiz – muhtaram Kimning oldiga chiqib, undan bir quloch poxol so‘ra. Dalasiz ekin-tikin qilib, pulsiz savdo-sotiqni boshlab bo‘lmaydi. Menga esa poxol kerak: undan choriq to‘qiyman.

Biroq xotini uni bu niyatidan qaytarishga urinibdi:

– Biror narsa kerak bo‘lsa, darhol ularnikiga yuguramiz. Narsa so‘rayverib uyatdan yuz qolmadi-ku.

Xinbuning jahli chiqibdi.

– Bo‘pti! O‘zim chiqaman! – debdi u va Kimning oldiga yo‘l olibdi. Eshikni unga uy egasining o‘zi ochibdi.

– Xo‘sh, senga nima kerak?

– Bunday oila bilan och-yalang‘och yashash jonga tegdi, – debdi Xinbu. – Poxoldan choriq to‘qib sotmoqchiman. Bir quloch poxol berib turing.

Xinbuning gapini eshitib, muhtaram Kim unga shunday debdi:

– Eh, sen sho‘rlik. Akang – boyvachcha, sen bo‘lsang bir burda nonga zorsan. Senga rahm qilmay bo‘larkanmi!

Shundan keyin u uyining orqa tomoniga o‘tibdi va u yerda uyib qo‘yilgan g‘aramdan bir necha quloch poxolni Xinbuga olib chiqib beribdi. Uyda Xinbu shu poxoldan bir necha juft choriq to‘qibdi va ularni bozorda sotibdi, lekin qilgan daromadi uch chaqadan oshmabdi. Shu pulga u oila qornini bir marta to‘ydi-rishga bazo‘r yetadigan guruch va ziravor sotib olibdi. Ammo har safar birovdan poxol so‘rayvermaysan-ku!

Xinbu yana og‘ir xo‘rsinib, bola-chaqasini yupatibdi. Yuzidan esa duv-duv yosh oqibdi.

II

Shunday qilib, Xinbu muhtojlikni yengishga urinibdi. Vaqt esa o‘ta boshlabdi, oy ketidan oy o‘tibdi va nihoyat, ajoyib bahor fasli kelibdi.

Xinbu bir vaqtlar o‘zi yod olgan bir nechta iyeroglifni eslabdi va Bahor bayrami sha‘niga ularni gaolyandan qurilgan kulbasining devoriga yozibdi.

Nihoyat, uchinchi oyning uchinchi kuni ham kelibdi. Syaosan g‘ozlarining galalari uchib ketayotib: «Yaxshi qolinglar!», deya

xayrlashishibdi. Shu zahoti Szyannandan uchib kelgan qaldirg'ochlar: «Biz keldik!», deb chug'ullashibdi. Qushlar Xinbuni ko'rib, quvonch bilan sayray ketishibdi: aftidan, kulba devoridagi iyerogliflar ularga yoqqan bo'lsa kerak.

Ximbu qaldirg'ochiarni ko'rib, ularga shunday debdi:

— Keng va chiroyli uylar sizlarga kammi? Nega sizlar gaolyandan qurilgan kulbaga kelib, bu yerda o'zlaringga in qurmoqchi bo'lyapsizlar? Axir yomg'irlar faslida kulbam qulab tushishi mumkin, bu holda sizning holingiz voy bo'ladi-ku?! Sizlarga maslahatim: yaxshi uy topinglar, o'sha yerga in quringlar va polaponlaringizni o'sha yerda o'stinglar.

Biroq qaldirg'ochlar Xinbuning gapiga quloq solishmabdi, tumshuqlarida xas-xashak tashib, shu yerda in qurishda davom etishibdi. Polaponlari tuxumdan chiqqan zahoti, qaldirg'ochlar ularga uchishni o'rgata boshlashibdi. Jajji qaldirg'ochlar dam quyundek osinonga ko'tarilishar, dam yashindek yerga qarab uchishar ekan.

Biroq kunlarning birida qayerdandir katta bir ilon o'rmlab kelibdi va polaponlarga tashlanib, ko'z ochib yumguncha ularni yeb qo'yibdi.

Bu yovuzlikni ko'rib Xinbuning jahli chiqibdi.

— Hoy, gazanda! — deb baqiribdi u. — Senga boshqa yemish kammi, endi tuxumdan chiqqan polaponlarga yopishibsan? Yovuz maxluq! Axir bu qaldirg'ochlarning ilk ajdodi oqil va odil podsho bo'ladi. Ular odamlar yeydigan o'simliklarga tegishmaydi, har doim eski xo'jayinining uyiga qaytishadi. Shuning uchun ham odamlar ularni ardoqlashadi. Ota-onasi o'z polaponlarini asrab qololmadi: bu gazanda ularning hammasini bir lahzada yutib yubordi! Nahot senda bir tomchi ham shafqat yo'q?

Shu so'zlarni aytib, Ximbu qo'lga boltani olibdi va ilonning boshini chopib tashlabdi.

Ammo shu lahza osmondan yerga bir polapon yiqilibdi. Uning hammayog'i qon, kuzgi yaproq kabi titrar ekan. Polaponni ko'rib Ximbu uning oldiga yugurib boribdi va ehtiyotkorlik bilan uni qo'lga olib, muloyim ovozda:

— Bechora qaldirg'och! Mendan qo'rqma! — debdi.

Xinbu polaponning singan oyog'ini Chxilsan dengizida uchraydigan tillabosh baliqning ingichka terisi bilan mahkam o'rabdi va xotinidan:

— Qaldirg'ochning oyoqchasini bog'lash uchun ipak ipingdan ber, — deb iltimos qilibdi.

Xinbuming xotini o'zida kelinlik paytidan saqlanib qolgan xitoyi ipak ipni tez izlab topibdi va Xinbu polaponning oyoqchasini ehtiyotkorlik bilan bog'lab, so'ng uni salqin shudring ustiga yotqizibdi.

Kun ketidan kun o'tibdi, o'ninchi kun deganda yarador qaldirg'ochning singan oyoqchasi butunlay tuzalibdi. Qushcha yana ko'kda charx urib yoki kir osish uchun tortilgan dorda o'tirib sayray boshlabdi.

Xinbuga qaldirg'och quyidagi so'zlarni aytib sayrayotgandek bo'lib tuyulibdi: «Qadim zamonlarda, Ju Szin zindonband etilgan paytda, hakka unga xushxabar keltirgan ekan. Quvg'inga uchragan amaldor chumchuqning sayraganini eshitganidan keyin o'z lavozimida tiklangan ekan. Garchi men jajji bir qush bo'lsamda, lekin yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytara olaman».

Nihoyat, qaldirg'ochlar safarga otlanadigan payt ham kelibdi. Syaosyan g'ozlari: «Mana, biz keldik!», deya g'a-g'alab paydo bo'lishibdi, qishlov uchun Szyannanga uchib ketadigan qaldirg'ochlar xayrlasha boshlashibdi: «Ko'rishguncha xayr, biz ketaypmiz!»

Bizning qushchamiz ming li masofani ortda qoldirib, qaldirg'ochlar podshosi oldiga boribdi. Podsho undan:

— Nega oqsayapsan? — deb so'rabdi.

Qaldirg'och unga javob beribdi:

— Ota-onam Choson mamlakatiga borib, Xinbu ismli bir zotning kulbasida in qurishgan edi. Ammo kunlarning birida yovuz ilon kelib butun oilamizga qiron keltirdi. Men, oyog'im singan bir ahvolda, o'lim yoqasida turgan edim, biroq kulbaning egasi — Xinbu meni qutqarib qoldi. Agar olampanoh Xinbuga qashshoqlikdan qutulishga yordam bersalar, men bir umr sizdan minnatdor bo'lur edim.

Podsho qaldirg'ochning gaplarini eshitib, unga shunday debdi:
— Hamdardlik — olijanob insonning eng yuksak fazilati. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish — barkamol insonning burchi. Xinbu chindan ham serhimmat inson ekan. Biz uning yaxshiligiga yaxshilik bilan javob qaytaramiz. Unga oshqovoq urug'ini hadya etamiz. Mana bu urug'ni ol-da, uni o'z xalos-koringga eltib ber.

Qaldirg'och tuhfa uchun olampanohga tashakkur bildirib, saroyni tark etibdi. Bir zumda qish ham o'tibdi. Bahor kelishi bilan qushlar yo'l tadorigini ko'ra boshlashibdi. Qaldirg'ochimiz o'z podshosi bilan xayrlashibdi va tumshug'ida oshqovoq urug'i bilan osmon-u falakka ko'tarilib, tez-tez qanot qoqib uchib ketibdi.

Ko'p o'tmay Chendu ko'rinibdi. Lyu Beyning ikki xotini — Mi va Gan saroyi xarobalariga nazar tashlab, qaldirg'och bir vaqtlar Chjan Fey makkor Sao Saoni so'kkan Chanfan ko'prigi oldida bir daqiqa ushlanib qolibdi. Yansziszyan uzra uchib o'tayotib, u qadimda Su Dunpo tabiat bag'rida dam olgan joylarni tomosha qilibdi. Yanszinda qaldirg'och nafas rostlagani poytaxt darvozasi — Szinxuamenga qo'nibdi, poytaxtga birrov nazar tashlabdi va so'ng yana osmonga ko'tarilibdi. Tonjakkap daryosini kesib o'tgach, qaldirg'och ma'lum vaqtdan so'ng janubiy provinsiyalardan biri — Chxunchxondo, Chollado yoki Kyon-sandodagi Xinbu yashaydigan qishloqqa yetib kelibdi.

Qaldirg'ochni birinchi bo'lib Xibuning xotini payqabdi. U sevinchi ichiga sig'masdan erini chaqira boshlabdi:

— Tezroq bu yoqqa keling! Qarang, o'tgan yilgi qaldirg'ochimiz uchib yuribdi! Tumshug'ida nimadir bor!..

Xinbu kulbadan tashqariga uchib chiqibdi va qaldirg'ochga qarabdi. Qaldirg'och Xibuning tepasida aylanib, tumshug'ida olib kelgan urug'ni unga tashlabdi.

Xinbu o'sha zahoti urug'ni qo'lga olibdi va:

— Xotin, buni qara! Biz o'tgan yili singan oyoqchasini tuzatgan qaldirg'och bizga bir narsa tashlab ketdi! — debdi. — Rangi sariq... Tilla emasmikan? Ammo nimaga u bunchalik yengil?

— Ichlda sariq bir narsa ko'rinyapti. Balki chindan ham tilladir? — debdi Xibuning xotini.

— Qanaqa tilla! — deb javob beribdi unga Xinbu. — Eshit-maganmisan, Chu va Xan podsholiklari urushayotgan paytda Chen Pin Fan Yafuni ushlab uchun raqib lashkargohiga qirq ming kin oltin tashlab qo‘ygan ekan? Shundan o‘zing xulosa chiqaraver: hozir oltin qayoqda!

— Unda bu yashma bo‘lsa kerak!

— Yashma haqida odamlar shuni hikoya qilishadiki, kunlardan biri Kunlun tog‘ida yong‘in chiqibdi va bor yashma hamda boshqa toshlar yonib ketibdi. Ba‘zi joylarda butun qolgan yashmadan Chjan Szifan o‘ziga nay yasabdi va oydin tunda Sziminshan tog‘ida uni chalib, o‘zining g‘amgin kuyi bilan Szyandunning sakkiz ming askarini uxlatibdi. Yo‘q, bu yashma emas.

— Balki bu hatto tunda ham o‘zidan nur taratadigan marvariddir? — deb taxmin qilibdi Ximbuning xotini.

— Bunaqa marvarid dunyoda qolmagan. Si podshosi Vey-van Vey podshosi Xuen-van oldida bunday marvaridlarning o‘n shendan ko‘prog‘ini urib sindirgan va hozir ularni kunduzi chiroq yoqib ham topolmaysan.

— Balki qahrabodir?

— Hozir qahrabo ham anqoning urug‘i. Avval uni Chjou podshosi Shi-szun egallab olgan, keyin bor qahrabodan Tangalga may uchun qadah yasashgan.

— Unda temirdir?

— Hozir temir ham yo‘q. Sin podshosi Shi-xuan davrida Xitoyning barcha to‘qqiz viloyatidagi bor temirni yig‘ib olishgan va imperator qudratini yuksaltirish uchun o‘n ikkita muhr yasashgan. Shundan so‘ng temir qolgani yo‘q.

— Balki bu toshbaqaning kosasi yoki korallidir?

— E, qo‘ysang-chi! Toshbaqaning kosasi — parda, qizil korall esa — panjara. Guanli-van o‘zining suv osti billur saroyini qurish uchun dengiz javohirlarining barchasini unga ishlatgan. Yo‘q, bu toshbaqaning kosasi ham, korall ham emas.

— Menga qarang, bu urug‘ emasmi?

Xuddi shu taxmin Ximbuning xayoliga ham kelibdi. Diqqat bilan tikilib, u urug‘ning qoq o‘rtasida uch iyeroglifdan iborat yozuvni o‘qibdi: «Qovoq — yaxshilik uchun mukofot».

— Bu chindan ham oshqovoq urug'iga o'xshaydi, — debdi Xinbu. — Bir vaqtlar Suyxu ko'ldan ilon og'zida marvarid donasini olib kelib, o'z xaloskoriga mukofot sifatida tashlab ketgan ekan. Qaldirg'och ham bu urug'ni hizning yaxshiligimiz evaziga hadya qilib keltirgan bo'lsa-chi? Nima bo'lsa ham, berganning yuziga qarama, deyishgan. Bir siqim tuproq tuhfa qilishgan bo'lsa, uni oltin deb bilamiz, oddiy tosh hadya etishgan bo'lsa, uni yashma deb hisoblaymiz. Hatto bu sovg'a yomonlik keltirsa ham uni baxt o'rnida ko'ramiz.

Taqvimdan eng qulay kunni tanlab, Ximbu kulbasining sharq tomonidagi bir parcha yerga qaldirg'och tashlab ketgan urug'ni ekibdi.

Ikki-uch kundan so'ng urug' unib chiqibdi. To'rtinchi yoki beshinchi kunda u kurtak otibdi va tugunlarda barglar ko'zga tashlanibdi. Shundan keyin har bir novdada gullar ochilibdi va besh dona qovoq unibdi. Ular yum-yumaloq bo'lib, har birining kattaligi Tedongan daryosidagi qayiqni yoki poytaxtning Qo'n-g'iroqlar ko'chasidagi qo'ng'iroqni yoki bo'lmasa avliyo Yukkvan-ning ulkan nog'orasini eslatar ekan. Ba'zan Xinbu qovoqlarga termulib o'tirib, shunday mulohaza yuritar ekan:

— Iyunda gulladi, iyulda esa meva tugdi. Hammasi mataldagidek: «Yiriklari — xumday, maydalari — xumchaday». Quvonmay bo'larkanmi!.. Menga qara, xotin! «Bir kosa guruch dunyodagi bor ipakdan a'lo», deb bejiz aytishmagan. Kel, qovoqlardan birini uzamiz! Etini pishirib yeymiz, bo'shagan pallalarni esa quritib cho'michga pullaymiz. Puliga guruch sotib olamiz va bir bo'tqaga to'yamiz!

Xotini unga shunday deb javob beribdi:

— Bu qovoqlar oddiy qovoqlar emas: ular hatto bir kunda ham pishib yetilishi mumkin. Sal kattalashsin — shunda uzib olamiz!

Ko'p o'tmay kuz bayrami — Chxusok yaqinlashibdi. Xim-buning hujrasida esa ochlik battar kuchayibdi. Shunda Ximbuning xotini arra ko'tarib kelibdi.

— Turing, turing! — deb erini turtib uyg'ota boshlabdi u. — Qovoqni uzamiz va pishirib yeymiz.

Xinbu zo'rg'a o'rnidan turib, qovoqlardan birini uzibdi. So'ng er-xotin arrani olib, qovoqning qoq belidan kesa boshlashibdi. Birdan qovoq qars etib yorilibdi, osinonga rang-barang bulutlar ko'tarilibdi va ularning ortidan ko'k libos kiygan ikki o'spirin chiqib kelibdi.

— Sho'rim qursin! Bu nimasi? — deb qichqirib yuboribdi Xinbu kapalagi uchib. — Qovoqning ichida odamlar bor ekan. Yegani o'zimizga hech vaqo yo'q-ku, qo'shimcha nonxo'rlar paydo bo'lganiga nima deysan?!

Ammo o'spirinlarga bir qarang! Agar ular Penlay tog'ida turnalarni chorlaganlar safidan bo'lmasa, inuqaddas tog' — Tyantayda sehrli giyoh terganlar jumlasidan ekani aniq. Har birining chap qo'lida ko'za, o'ng qo'lida esa — toshbaqa kosasidan yasalgan quti. Idishlar va qutilarni boshlari uzra baland ko'tarib, o'spirinlar Xinbuga yaqinlashishibdi va quyidagi so'zlar bilan qo'lidagi narsalarni unga tuhfa qilishibdi:

— Kumush ko'zada o'liklarni tiriltiradigan ichimlik bor. Yashma ko'zaga ko'rlarning ko'zini ochadigan may solingan. Zarhal qog'ozlardan o'ramlar ichida soqovlar, bukurlar va falajlarni tuzatuvchi giyoh hamda karlarni davolovchi giyoh bor. Tugunlarga esa yosh kiyiklar shoxi, jenshen, ayiq o'ti va turfa nav ziravor solingan. Agar bu dori-darmonlarning barchasini pulga chaqsangiz, o'n ming martadan ortiq yuz miliion lyan chiqadi. Ular bilan o'z foydangizga bermalol savdo qilishingiz mumkin.

Xinbu o'spirinlarning so'zlarini eshitib, angrayib qolibdi. Nihoyat, u o'ziga kelib, bularning barchasi qayerdan kelganini so'ramoqchi bo'lganida, bu yerda o'spirinlarning izi ham qolmagan ekan.

— Kulbamizda dorixona ochsak bo'ladi, — deb taklif qilibdi Xibuning xotini.

— Agar biz hozir dorixona ochadigan bo'lsak, to buning daragi odamlar qulog'iga yetib borgunicha qancha vaqt o'tadi? — debdi Xinbu. — Odamlar qachon dori sotib olgani kelishadi?! Men uchun hozir guruch bo'tqadan a'lo dori yo'q!

— Shundaylikka shunday-ku. Balki ho'v anavi qovoqning ichida bo'tqa bordir? Keling, uni ham kesamiz!

Er-xotin navbatdagi qovoqni arralay boshlashibdi. Arra bir maromda oldinga va orqaga borib kela boshlabdi. Bir vaqt qovoq qars etib yorilibdi va ikkiga bo'linibdi, uning ichidan atrofga turli-tuman buyumlar sochilibdi. Ularning orasida atlas ko'rpalar va parcha to'shaklar ham, ipak yostiqlar ham bor ekan. Ko'rpa-to'shak va yostiqlar ortidan barcha navdagi va nomdagi qog'ozlar yog'ilibdi. Qog'ozning oxiri ko'rinib ulgurmay, qovoq ichidan rang-barang gazlama va matolar qaynab chiqa boshlabdi. Ip-gazlama matolar o'rmini rang-barang gullar solingan ipak matolar egallabdi. So'ng Xechju ustalarining mahsuloti va Mo'g'uliston cho'llaridan keltirilgan ip-gazlama matolar, jilosi ko'zni qamashtiradigan «mobondan» ipagi va qalin «mochxodan» ipagi, ko'rpa uchun tukli ipak hamda yengil va shaffof «yonchxo» va «kvansa» ipaklari paydo bo'libdi. Aqlni lol qiluvchi bu boyliklarni ko'rgan Xinbuning xotini sevinchdan sakray boshlabdi. Endi uning hamma narsasi ipakdan: ro'mollari ham, belbog'lari ham, kamzuliari ham, ko'ylak-ishtonlari ham. Hatto payoqlari ham ipakdan!

— Kel, navbatdagi qovoqni so'yamiz, — debdi Xinbu.

Qovoqning qog'oz o'rtasidan to'g'ri chiziqli tortib, Xinbu unga arrani solibdi. Arra bir maromda u yoqdan bu yoqqa borib kela boshlabdi. Bir vaqt qovoq qars etib yorilibdi va uning ichidan toza oltindan yasalgan, og'ziga toshbaqa ko'rinishidagi oltin qulfi solingan sandiq ko'rinibdi. Sandiq ortidan ovoz eshutilibdi:

— Sandiqni och, Xinbu!

Xinbu sevinchi ichiga sig'may cho'k tushibdi va sandiqni ochibdi: uning ichi oltin, sof kumush, qora kumush yombi va boshqa qimmatbaho toshlarga to'la ekan. Xinbu sandiqni bo'shatibdi, biroq u yana qimmatbaho toshlarga limmo-lim to'libdi. Yana bir marta bo'shatgan ekan, sandiq yana avvalgidek to'libdi.

Er-xotinning sevimchi ichiga sig'mas ekan. Ular yeyish va ichishni ham unutib, olti kecha-yu olti kunduz surunkasiga sandiqni bo'shatish bilan shug'ullanishibdi. Ko'z ochib yum-guncha Xinbu misli ko'rilmagan boylik egasiga aylanibdi.

Hayratdan lol qolgan Xinbu xotiniga shunday debdi:

— Bularning hammasini joylashtirish uchun kulbami torlik qiladi. Kel, ho‘v anavi qovoqni so‘yib, undan o‘zimizga uy qurishga urinib ko‘ramiz!

Shu so‘zlarni aytib Xinbu qolgan qovoqlardan yana bittasini uzib olibdi va er-xotin yeng shimarib ishga kirishishibdi.

— Qani, xotin, yana ozgina g‘ayrat qil! Arrani qattiqroq tort!

Arra bir maromda oldinga va orqaga borib kela boshlabdi. Bir vaqt qars etgan ovoz eshitilibdi va qovoq ikkiga bo‘linibdi. Uning ichidan bir gala ustalar va duradgorlar chiqishibdi, so‘ng barcha turdagi donlar yog‘ilibdi.

Duradgorlar avval uy qurish uchun qulay joy tanlashibdi, so‘ng maydonchani tozalashibdi va uy qurishga kirishishibdi.

Ular qurayotgan uyda hamma narsa bor ekan: ayollar bo‘limi, mehmonxona, xizmatkorlar uchun hujralar, omborlar, ayvonlar, shiyponlar. Uy oldi va orqasidagi boqqa quruvchilar ajoyib gullar va anvoyi giyohlar ekishibdi. Hovlining quyosh tushadigan tomoniga sholi tegirmon o‘rnatishibdi, soya-salqin joyda quduq qazishibdi. Darvoza oldiga majnuntol ko‘chatlarini o‘tqizishibdi, devor ortiga esa qovun ekishibdi. Omborlarni don bilan to‘ldirishibdi. So‘ng xushsurat va baquvvat qullar paydo bo‘lishibdi va darhol xizmat qilishga kirishishibdi. Ularning ottidan og‘ir yuk ortilgan ho‘kizlar paydo bo‘lishibdi. Yuklarni o‘sha zahoti tushirishibdi va yana uy oldida va orqa hovlida ichiga don solingan qoplar tog‘-tog‘ bo‘lib uyulibdi. Xinbu va uning xotini sevinchi ichiga sig‘may raqs tusha ketishibdi.

— Menga qara, xotin! — debdi Xinbu. — Eгатda yana bitta qovoq qolgan. Kel, uni ham so‘yamiz!

Xotini bunga javoban:

— Shu qovoqni so‘ymang! — debdi.

Xinbu unga e‘tiroz bildiribdi:

— Omad kelib turganda foydalanib qolish kerak! Behuda gaplarni qo‘yib, arrani qattiqroq tort!

Yana qars etgan ovoz eshitilibdi va qovoq ikkiga bo‘linib, uning ichidan bir suluv chiqibdi va tavoze bilan Xinbuga ta‘zim qilibdi.

Hayratdan lol qolgan Xinbu suluvning ta‘zimini qabul qilibdi.

— Siz kimsiz va nima uchun menga bunday hurmat ko'rsatyapsiz? — deb so'rabdi u.

Suluv jilmayib javob beribdi:

— Men — Hilol saroyi parisi Chan'eman.

— Mening uyimga nima maqsadda tashrif buyurdingiz?

— Szyannanlik qaldirg'ochlar podshosi menga sizning kanizingiz bo'lishni buyurdi va men huzuringizga keldim.

Bu gapni eshitib Xinbu bir qop semiribdi. Xotining esa avzoyi o'zgaribdi: birpasda qovog'i osilib, to'ng'iliabdi:

— Aytuvdim-a, shu qovoqni so'ymaylik deb?!

Xinbu unga shunday deb javob beribdi:

— Tashvish chekma! Shuncha yil azob-uqubatlarni men bilan birga baham ko'rgan xotinimni e'tiborsiz qoldirar ekanmanmi?

Shu so'zlarni aytib, Xinbu xotini va kanizagini yangi qurilgan hashamatli uyga boshlabdi va bu yerda ular rohat-farog'atda yashay boshlashibdi.

III

Xinbu misli ko'rilmagan boylikni qo'lga kiritganining daragi Nolbuning qulog'iga ham yetib boribdi. Yomonlikdan boshqa narsani bilmaydigan bu odamning xayoliga: «Ukam kimnidir talagan bo'lsa kerak», degan o'y kelibdi va hid olgani uning oldiga borishga qaror qilibdi. Ximbuning yangi uyini ko'rib, uning og'zi ochilib qolibdi.

Ichkaridan go'zal oqsoch qiz chiqib, Nolbuga tavoze bilan murojaat etibdi:

— Mehmon qayerdan tashrif buyurdilar?

Bunday suluvni Nolbu umrida ko'rmagan ekan. Kutilmaganda u oqsoch qiz qarshisida qulluq qilib:

— Men faqirni avf etasiz. Bu uyning egasi qayerga gum bo'lganini menga ayta olmaysizmi? — debdi.

Oqsoch qiz uyalib uyga kirib ketibdi va bekaga:

— Bir g'alati kimsa keldi. Eringizni mensimay gapirdi, — deb xabar qilibdi.

Bu mehmon kimligini fahmlagan Ximbuning xotini uni qarshi olgani chiqibdi.

Ximbuning xotini kiygan libos va uydagi hashamatni ko'rgan Nalbuning g'azabi qaynabdi.

— Hm, guberniya markazidagi kisendan farqing qolmabdi... — deb to'ng'illabdi.

Ximbuning xotini bu so'zlarni eshitmaganga olibdi va mehmondan:

— Sog'-omonmisiz, bola-chaqangiz yaxshimi? — deb holahvol so'rabdi.

Biroq Nolbu faqat janjal uchun vaj izlayotgan ekan.

— Sog' bo'lmaganda nima, bu bilan sening necha pullik ishing bor? — deb to'ng'illabdi u yana.

Ximbuning xotini oqsochni chaqiribdi va unga mehmonning oldiga dasturxon solishni buyuribdi.

— Qadimgilar: «Xotin buyruq berayotgan uyda yaxshilik kutma», deyishgan ekan, — deya to'ng'illashda davom etibdi Nolbu. — Mayli. Guruch va ziravorni olib kel. Mo'lroq va mazaliroq bo'lsin!

Mehmondorchilik mehmondorchilikni emas, balki dongdor zot sharafiga berilayotgan ziyofatni eslatar ekan. Dasturxonda odamning jonidan boshqa hamma narsa bor ekan. Xizmatkorlar anvoyi taomlarni mehmon oldiga keltirib qo'ygach, ulardan biri Nalbuning qarshisida tavoze bilan bosh egib, mezbonning uzrini keltiribdi:

— Taomlar shoshilinchda tayyorlangani va dasturxon ko'ngildagidek bezalmagani uchun beka sizdan uzr so'raydi.

Bunday boy dasturxonni Nolbu hali ko'rmagan ekan. Bularning barchasini ko'rib uning ishtahasi bo'g'ilibdi. Qarshisidagi xontaxtani urib sindirish orqaligina Nalbuning ko'ngli taskin topishi mumkin ekan. U qoshiqlar va ovqat yeyish uchun mo'ljallangan tayoqchalarni qo'lga olib, ular bilan xontaxtani ura boshlabdi.

— Bu idish-tovoqlarning barchasi uchun necha pul berdinglar?

Shu so'zlarni aytib Nolbu xontaxtani yanada qattiqroq taqilata boshlabdi.

Xinbuning xotini uni:

— Xitoy chinnisi juda nozik bo'ladi, sinib qolishi ham hech gap emas. Iltimos, bunday qattiq urmang! — deb ogohlantiribdi.

— Hali shunaqa degin?! — debdi Nolbu g'azabi qaynab. — Sening ovqatingsiz o'lib qolmayman! — Shu so'zlarni aytib u qarshisidagi xontaxtani bor kuchi bilan tepibdi. Xontaxta ag'darilibdi, idish-tovoqlar sinibdi, qoshiqlar va ovqat yeyish uchun mo'ljallangan tayoqchalar pol bo'ylab sochilibdi, dasturxonga qo'yilgan taomlar yer bilan bitta bo'lib to'kilibdi.

— Qaynag'ajon, mehmondorchilik sizga yoqmagan bo'lsa, idish-tovoqda nima ayb? Undan ko'ra, odamlarni uring! — debdi Xinbuning xotini.

Shu payt Xinbuning o'zi ham paydo bo'libdi. U xizmatkorni chaqirib, unga ko'rsatma beribdi:

— Janobga yangi dasturxon tuzanglar!

Bu gapni eshitib, Nolbuning battar g'azabi qaynabdi.

— Eshitishimcha, sen nobakor tungi shudring bo'ylab yurishni odat qilganmishsan?! — debdi u.

— Qanaqa tungi shudring? — debdi hayron bo'lib Xinbu.

Nolbu esa ukasini so'kib davom etibdi:

— Qani, tungi shudring bo'ylab necha marta yurganing va qancha pul o'g'irlaganingni gapirib ber-chi?

Xinbu qo'rqib ketibdi:

— E, nima deyapsiz, aka?

So'ng bo'lgan voqeani akasiga batafsil so'zlab beribdi.

— Unday bo'lsa, yur, uyingni yaxshiroq ko'zdan kechiramiz.

Shu so'zlarni aytib, Nolbu uy egasining kuzatuvida xonalar bo'ylab kezib, hamma narsani ko'zdan kechira boshlabdi. Ukasining boyliklarini ko'rib, Nolbuning ko'ksida hasad olovi o't olibdi. Boz ustiga, shu payt uning oldidan Hilol saroyi parisi o'tib qolibdi.

— Bu ayol kim? — deb so'rabdi Nolbu.

— Mening kanizim, — deb javob beribdi Xinbu.

— Nima? Sening kanizing? Bo'lmagan gapni gapirma!

— Bu suluvni menga qaldirg'ochlar podshosining o'zi tuhfa qilgan. Uni sizga berish noqulay bo'lar edi.

— Gaping rost, — deb rozi bo'libdi Nolbu. — Ho'v anavi mo'jaz javonchaning nomi nima?

— Bu kiyimlar turadigan javon — xvachxojan.

— Senga u mos kelmaydi. Uni menga yubor.

Shuni aytish kerakki, ochko'zlikda Nolbuning xotini hatto o'z eridan ham o'tar ekan. Chiroyli buyumni ko'rsa, u es-hushini yo'qotib qo'yarkan. Bozorda birov o'z molini taxlayotgani yoki pul sanayotganini ko'rsa, u hasaddan ichi kuyib, yerga behush yiqilarkan. Shunda Nolbu uni yelkasiga ortmoqlab uyga olib kelar, shundan so'ng xotini uch oygacha to'shakda mixlanib yotar ekan. U ana shunaqa xotin ekan.

Javonni ko'rib, Nolbuning xotini erini maqtashga tushibdi:

— Yaxshi erim bor-da! Ko'chadan hech qachon quruq qo'l bilan kelmaydi. Hech bo'lmasa qoshiq yoki ovqat yeyish uchun tayoqcha ko'tarib keladi. Birovning uyida ombir yoki kurakni ko'rsa, darhol kiyimining ostiga yashirib, uyga olib keladi. Qalpog'ining ichida kosa, yengining ichida — kuchuk bolasini keltiradi. Olib kelgan javoningiz menga juda yoqdi!.. Uni qayerdan oldingiz?

— Hamma gapni bilmoqchi bo'lsang, o'tir va quloq sol, — deb javob beribdi Nolbu. — Dunyoning ishlari qiziq-da! Ximbu boyib ketibdi...

Nolbuning xotini eriga yaqinroq surilib o'tiribdi.

— Ximbu boyib ketibdi, deysizmi? Birovning molini o'ma-ribdimi?

Nolbu ukasidan eshitgan voqeani xotiniga gapirib beribdi:

— O'tgan yili Ximbuning tomi ostida bir just qaldirg'och in qurgan ekan. Ular shu yerda bola ochishibdi, biroq bir ilon ularning hammasini yeb qo'yibdi, faqat polaponlardan biri indan yiqilib, oyog'i sinibdi. Ximbu uning oyog'ini davolabdi. Ertahorda shu qaldirg'och qilgan yaxshiligi uchun Xinbuga osh-qovoq urug'ini tashlab ketibdi. Ximbu urug'ni ekan ekan, beshta qovoq unibdi. Shu qovoqlarni so'yib, Ximbu boylikka ega bo'libdi. Qani edi, bizga ham ana shunday oyog'i singan bir qaldirg'och uchrasa!..

Shundan so'ng Nolbu hali qish ekaniga qaramay to'r ko'tarib qaldirg'och ovlagani chiqibdi. Qulay bir joyga yashirilib, qaldirg'ochlarni poylay boshlabdi. Nihoyat, qandaydir bir qush uchib kelibdi.

— Mana, qaldirg'och ham uchib keldi! — debdi Nolbu xursand bo'lib.

To'rini ko'tarib, qaldirg'ochning ustiga tashlamoqchi bo'lgan ekan, qaldirg'och o'rniga Txebeksan tog'idan uchib kelgan och bir qarg'ani hurkitib yuboribdi. Qarg'a qandaydir bir so'ngakdagi go'sht qoldiqlarini yeyishga ulgurmay, qag'illab osmon-u falakka ko'tarilibdi. Nolbu qarg'ani nigohi bilan kuzatib, uyga quruq qo'l bilan qaytibdi.

Nolbuning fikr-u yodi biron-bir qaldirg'ochni to'rga ilintirish bo'lib qolibdi. Biroq ular hali-beri uchib kelishi dargumon ekan. Sabrsizlik va hasaddan Nolbu o'zini qo'yarga joy topolmay qolibdi.

Bir odam Nolbuni chuv tushirmoqchi bo'libdi va unga shunday debdi:

— Qancha poylama, baribir qaldirg'ochga yetisha olmaysan: axir sen ular tanda qurgan joyni bilmaysan-ku. Shunday odamlar borki, ular qaldirg'ochlarning isini bu qushlar uchib kelishidan ancha oldin sezishadi. Men bilan birga borsang, senga qaldirg'ochlar haqida ko'p narsa gapirib berishim mu'mkin.

Nolbu xursand bo'libdi va bu odam ko'rgan har bir qaldirg'och uchun unga yigirma lyan pul berishni va'da qilibdi.

Shundan so'ng ular baland toqqa ko'tarilishibdi va bu yerda aldoqchi uzoq-uzoqlarga diqqat bilan tikilib qolibdi.

— Ana, bir qaldirg'och Szyannanni tark etdi. Tez orada u sening uying oldida bo'ladi... Biroq oldin birinchi qaldirg'och uchun pulni to'lab qo'y.

Nolbu xursand bo'lib aldoqchiga yigirma lyan beribdi. Shundan keyin aldoqchi yana uzoq-uzoqlarga diqqat bilan tikilishda davom etibdi. Birozdan so'ng u Nolbuga:

— Ana, yana bir qaldirg'och uchib chiqdi. U ham sening uying tomonga uchib kelyapti, — deb xabar qilibdi.

Bu xabardan boshi osmonga yetgan Nolbu aldoqchiga u so'ragan pulni beribdi va kuta boshlabdi. Qish o'tibdi. Bahor

kelgani zahoti Nolbu yana to'rini ko'tarib qaldirg'och oviga yo'l olibdi. Bir vaqt u osmonda charx urib uchayotgan qaldirg'ochlar galasiga ko'zi tushibdi.

— Kish-kish! Qayerga ketyapsizlar? Qani, mening uyim tomonga qarab uchinglar! — deb yo'l ko'rsatibdi ularga Nolbu.

Nolbuning tomi ostiga in qurgan qaldirg'och o'zini qanday qismat kutayotganidan bexabar ekan!

Qaldirg'ochi tom ostiga xas-xashakdan in quribdi va tuxum qo'yibdi. Nolbu tuxumdan polaponlar chiqishini poylab uzzukun in oldida o'tirar, toqatsizlanib dam-badam tuxumni ushiab ko'rar ekan. Buning oqibatida tuxumlarning hammasi palag'da bo'libdi. Faqat bitta tuxum qolibdi va ma'lum vaqt o'tgach, undan polapon chiqibdi. Kunlar oldinma-ketin o'ta boshlabdi, polapon asta-sekin o'sibdi va onasi unga uchishni o'rgata boshlabdi.

Nolbu ko'zi to'rt bo'lib ilon kelishini kutibdi, biroq undan darak bo'lmabdi. Shunda toqati-toq bo'lgan Nolbu ilonni o'z uyi oldiga o'zi quvib kelishga qaror qilibdi. O'ntacha xizmatkori bilan u qishloq atrofida kezib ilon qidiribdi, faqat uyiga qaytayotib yo'lda Nolbu qari bir ilonga duch kelibdi.

— Hoy, ilon! — deb qichqiribdi Nolbu xursand bo'lib. — Qani, mening uyimga qarab o'rmalagin-chi. In tagida poylab tursang, qaldirg'och va uning polaponi yerga yiqiladi, men boyib ketaman. Yaxshiligingni unutmayman: bir gala jo'ja va o'nta tuxum hadya qilaman. Tezroq o'rmala!

Ilon jahli qo'zib, Nolbuni chaqishga tayyorlanibdi. Nolbu uni oyog'i bilan tepmoqchi bo'lgan ekan, ilon uni chaqib olibdi.

Nolbu og'zini lang ochib:

— Voy, do-o-d! — deb bo'kiribdi. Og'riqdan uning ko'z oldi qorong'ilashibdi, boshidan aql-hushi uchibdi. U tez uyiga yugurib kelibdi va yaraga igna sanchib zaharni chiqaribdi, so'ng unga malham surib qo'yibdi.

Odamning ilomi — Nolbuga haqiqiy ilon zahri, albatta, ta'sir qilmabdi. U tirik qolibdi. So'ng Nolbu o'zini ilon qilib ko'rsatib, indan polaponni olibdi va uning ikkala oyog'ini sindiribdi, keyin esa baqira boshlabdi:

— Bechora qaldirg'och! Qaysi yashshamagur ilon sening oyoqlaringni sindirdi? Eh sen, sho'rlik!

Shu tariqa qaldirg'ochga o'z hamdardligini bildirgach, u Xinbuga taqlidan qushchaning ikkala oyoqchasini Chxilsan dengizida uchraydigan tillabosh baliqning ingichka terisi bilan mahkam o'rabdi, so'ng ularni o'tlarning qalin poyalari bilan bog'lay boshiabdi. Biroq, tabiatan qo'pol odam bo'lgani bois, Nolbu bu ishni ehtiyotkorlik bilan bajara olmabdi. Qaldirg'ochning oyoqchalarini bog'layotib, u Xangan daryosida langar tortayotgan dengizchi yoki xaridorga mato o'lchab berayotgan savdogardek dag'al harakat qilibdi.

Qushchaning oyoqlarini bog'lagach, Nolbu uni qayta iniga solib qo'yibdi. Qushcha qiynalib bo'lsa ham tuzalibdi.

Nihoyat, to'qqizinchi oyning to'qqizinchi kuni kelibdi va qaldirg'ochlar yo'lga chiqishga tayyorgarlik ko'ra boshlashibdi. Oyoqlari singan qaldirg'och ham Nolbuning uyini tark etibdi. U osmonga ko'tarilgach, shunday deb chug'urlabdi:

— Berahm Nolbu! Kelasi yil bahorda men bu yerga qaytib kelaman va singan oyoqlarim uchun seni mukofotlayman. Hozircha omon bo'!

Ko'p o'tmay qaldirg'och o'z podshosi qarshisida hozir bo'libdi. O'sha payt podsho turli joylardan uchib kelgan qaldirg'ochlar bilan ko'rik o'tkazayotgan ekan. Podsho oqsoq qaldirg'ochga ko'zi tushib, undan:

— Oqsashingning sababi nimada? — deb so'rabdi.

Qaldirg'och podshoga shunday deb javob beribdi:

— O'tgan yili siz, a'lo hazrat, Xinbuga qovoq urug'i tuhfa qilgan edingiz, u boyib ketdi. Shunda uning akasi — Nolbu meni ushlab, oyoqlarimni sindirdi.

Qaldirg'och bo'lgan voqeani podshoga gapirib beribdi.

— A'lo hazrat, sizdan o'tinib so'rayman, Nolbudan o'ch oling! — deb iltimos qilibdi.

Qaldirg'ochning hikoyasini eshitgan podshoning qattiq jahli chiqibdi:

— Bu nobakorning qing'ir yo'l bilan topgan boyliklari oshib-toshib yotibdi, dalalari va omborlarining son-sanog'i yo'q. Ammo

o'zining yaxshi fazilatli ukasiga u hech qachon yordam bermagan. Besh aqidaga u hech qachon rioya qilmaydi, boz ustiga, u o'lgudek badkirdor odam. Yo'q, buni shunday qoldirib bo'lmaydi. Men albatta unga qilmishiga yarasha jazo beraman. Ma, manavi qovoq urug'ini ol!

Qaldirg'och qovoq urug'iga nazar tashlabdi. Urug' ustiga zarhal iyerogliflar bilan «Qasos qovog'i» deb yozilgan ekan. Qaldirg'och o'z podshosiga rahmat aytibdi va ta'zim bajo aylab, uchib ketibdi.

Bahor kelishi bilan qaldirg'och qovoq urug'ini olib Szyannanni tark etibdi. U osmon-u falakka ko'tarilibdi va kecha-yu kunduz dam olmay uchibdi. Nihoyat, olisda Nolbuning uyi ko'rinibdi.

Uy oldiga kelgach, qaldirg'och o'yin qilib ucha boshlabdi: u dam osinonga ko'tarilar, dam pastga qarab o'qdek otilar ekan. Uni ko'rgan Nolbu sevinchdan o'zini yo'qotibdi:

– Qanday sodiq qaldirg'och! Qayerda bo'lding? Qish bo'yi sendan darak bo'lmadi, bahor kelishi bilan tashrif buyuribsan! Qadamlaringga hasanot!

Qaldirg'och tumshug'ida qovoq urug'ini ushlab uyoqdan-buyoqqa uchishda davom etibdi.

Nolbu urug' o't-o'lanlar orasiga tushib, yo'qolib qolmasa edi, deya qo'rqib, keng ayvonli poxol qalpog'ini ochibdi va uni ko'tarib qaldirg'ochning ortidan yuguribdi. Nihoyat, qaldirg'och qovoq urug'ini tashlabdi. Nolbu sevinchdan dir-dir titrab, urug'ni ikki kafti orasiga olibdi va uni diqqat bilan ko'zdan kechira boshlabdi. Urug'da «Qasos urug'i» iyerogliflari ko'rga hassadek ko'rinib turar ekan. Ammo savodsiz Nolbu iyerogliflarning farqiga borar ekanmi? U qovoq urug'ini o'z «yaxshiligi» uchun mukofot deb tushunibdi.

Quvonchdan bosar-tusarini bilmay qolgan Nolbu qulay bir kunni tanlabdi va o'z uyining sharq tomondagi devori ostiga, go'ng solingan yerga qovoq urug'ini ekibdi.

To'rtinchi yoki beshinchi kuni ilk kurtaklar paydo bo'libdi. Bir kun o'tgach, qovoq gullabdi. Yana uch kundan so'ng qovoq tugunlari paydo bo'libdi. Novdalari kema machtasi kabi yo'g'on, barglari esa, har biri savatdek kelar ekan.

Bu qovoqlar o'sib kattalashibdi va butun qishloqni to'sib qo'yibdi. Shunda Nolbu hamqishloqlarining oldiga chiqib, ularga shunday debdi:

— Yaxshi-yomon odamlar, erkaklar va ayollar, qarilar va yoshlar, gapimga quloq solinglar! Qovoqlarimning novdalarini sindirmanglar. Agar kimningdir uyi qulab tushsa, unga yangi uy qurib beraman. Idish-tovog'i sinsa, o'n baravar ortiq qilib to'layman. Qovoqlar ichidan ipak qaynab chiqa boshlagach, har biringizga qalpoq va kamzul uchun bir parchadan beraman. Faqat novdalarga tegmang.

Qovoq novdalari juda qalin ekan. Har bir tugundan yaproq o'sib chiqibdi, har bir shoxda gul ochilibdi va oradan ma'lum vaqt o'tgach, qovoq o'ntadan ortiq meva tugibdi. Har bir mevaning yirikligi cheksiz ummonda suzib yuruvchi katta qayiqdek kelar ekan. U qovoq mevasini emas, balki poytaxtdagi Oq Bulut minorasi yoki baland qoyani eslatar ekan.

Buni ko'rgan Nolbu sevinchi ichiga sig'may, xotiniga shunday debdi:

— Xinbu beshta qovoq bilan misli ko'rilmagan boylikni qo'lga kiritgan edi. Bizning urug'imizdan o'ntadan ortiq qovoq undi. Ularni kessak, dunyodagi eng boy odamlarga aylanamiz. Boylik bobida I Dun ham oldimizda ip esholmay qoladi, Shi Chun bizga yugurdaklik qiladi. Hatto Osmon O'g'liga hasad qilishimizga ham hojat qolmaydi!

Nolbu qovoqlar pishishini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi, vaqt sekin o'tayotganidan jahli ham chiqibdi. Vaqt esa o'zining har doimgi maromida o'tayotgan ekan. Yozning uch oyi o'tibdi va avgust oyida qovoqlar pishibdi. Ularning hammasi sip-silliqlik, sirtida gard ham yo'q, temir tayoqlardek baquvvat ekan.

IV

Endi Nolbuga bir qarang! U sevinchi ichiga sig'may, qovoqlarni yorish va boyliklarni qo'lga kiritishga oshiqibdi. Avval eng yirik va yaxshi yetilgan qovoqni tanlabdi va xotini bilan birga uni arralay boshlabdi. Biroq ular buni uddalay olishmabdi: qovoq toshday qattiq ekan.

Nolbu qo'shni qishloqdan duradgorlarni taklif qilishga majbur bo'libdi. Ular butun qishloqni chaqirishibdi, mehmonlar sharafiga cho'chqa so'yishibdi, dasturxonga uch marta qaynatilgan guruch, besh davra may tortishibdi. Bu xarajatlardan Nolbuning isitmasi chiqib ketibdi. Zero, u ilgari biron-bir mehmonga bir qoshiq guruch ham tortmagan, hatto ajdodlar ruhiga qurbonlik keltirishga bag'ishlangan ma'rakalarda ham ovqat pishirmagan ekan. Kelganlar orasida shu qishloqda yashaydigan ikki barzangi — Bukur va Tirtiqlab ham bor ekan. Ular mo'may pul topish imkoniyati paydo bo'lganidan sevinib, darhol oldinga chiqishibdi va Tirtiqlab Nolbuga quyidagi so'zlar bilan murojaat etibdi:

— Agar har bir qovoq uchun yigirma lyandan zakalat bersang, biz ikkovlon hamma ishni bajaramiz.

Misli ko'rilmagan boyliklarni qo'lga kiritish ilinjida turgan Nolbu savdolashmasdan ularga zakalat — ikki yuz lyan pulni beribdi. Bukur va Tirtiqlab pulni teng ikkiga bo'lishibdi va so'ng yeng shimarib ishga tushishibdi.

Bir vaqt qovoq qars etib ikkiga bo'linibdi va uning ichidan bir yanban «Men-szi»ning birinchi bobini baland ovozda o'qib chiqib kelibdi.

Hayratdan lol qolgan Nolbu qari yanbandan:

— Davlat imtixonini qayerda topshirgansiz? — deb so'rabdi.

Bunga javoban o'qimishli zot Nolbuni so'ka boshlabdi:

— Hoy, Nolbu, itning bolasi! Otang va onang, razil qullar, qorong'i tunda yashirinch qochib ketishgan va bir necha o'n yildirki, ular qidiruvda. Ularning boshi uch ming lyanga baholangan. Darhol pulni to'la!

Shu so'zlarni aytib yanban o'z xizmatkori Opsveni chaqiribdi. Birdan paydo bo'lgan Opsve ko'z ochib yumguncha Nolbuning qo'l-oyoqlarini bog'labdi va uni qari qayrag'ochga osib, xivchin bilan savalay boshlabdi.

Yanban esa Nolbuni so'roq qilishga kirishibdi:

— Aka-ukalaring bormi?

— Men yolg'iz o'g'ilman, — deb javob beribdi qo'rquvdan aqli boshidan uchgan Nolbu.

— Opa-singillaring ham yo'qmi?

– Uchta singlim bor.
– Kattasining yoshi nechchida?
– Bu yil yigirma ikki yoshga to‘lgan.
– Haligacha sening uyingda yashaydimi?
– Xanganda katta qayiq'larga egalik qiluvchi seullik boyga kanizak qilib berganman.

– Ikkinchi singling-chi? – deb so‘rabdi yanban.
– Ikkinchi singlimning yoshi o‘n to‘qqizda. Uni men Seuldagi Choy ko‘chada yashaydigan soliq yig‘uvchiga kanizak qilib berganman.

– Uchinchi singlim qayerda?
– Uchinchi singlimning yoshi o‘n oltida. Hozircha uning boshi ochiq.

Buni eshitgan yanban xursand bo‘lib ketibdi.

– Qovoqda yolg‘iz o‘tirib zerikdim. Qani, singlingni bir ko‘ray-chi! Agar u xunuk bo‘lmasa, uni o‘zimga kanizak qilib olaman.

Qo‘rquvdan rangi o‘chgan Nolbu singlisini chaqirib kelgani yo‘l olibdi. Singling bor bo‘lsa, uni chaqirib kelish ish emas. Agar u amalda bo‘lmasa-chi, u holda nima qilish kerak?

Nolbuning xotini yanbanning buyrug‘i haqida eshitib, mazasi qochibdi. U eriga qarab shunday debdi:

– Akangiz qanday boy yashashi haqida lom-mim demabsiz. Buning o‘rniga yo‘q singilni o‘ylab topibsiz va endi yanban sizdan uni ko‘rsatishni talab qilyapti. O‘zingizga yo‘q joydan bosh og‘riqni sotib olibsiz-ku!

Nolbu ikki qo‘li bilan boshini changallabdi.

– Axir men Xinbuni yomonotliq qilmoqchi bo‘lgan edim-ku! Biroq nima uchundir og‘zimdan boshqa so‘zlar va ismlar chiqdi!..

Shundan so‘ng Nolbu yanbanning oldiga qaytib boribdi va unga yalina boshlabdi:

– Men osiy bandani kechiring! Singlim qo‘rqib qayoqqadir qochib ketibdi.

– «Qochib ketibdi», deysanmi? Qayoqqa qochadi? Hoziroq uni qidirib top va oldimga boshlab kel!

Nolbuning qoʻrquvi kuchayibdi va yanbanga yana uch ming lyan pulni ohista qistiribdi.

Shunda yanban Nolbuga qarab:

— Pul tugasa, yana kelaman! — deb baqiribdi va gʻoyib boʻlibdi.

Bukur va Tirtiqlab navbatdagi qovoqni arralashga kirishishibdi. Qars etgan ovoz eshitilib, qovoq ikkiga boʻlinibdi va uning ichidan oʻn ikki torli kayagim va gong koʻtargan odamlar shovqin-suron bilan chiqib kelishibdi.

— Nolbuning misli koʻrilmagan saxovatidan darak topib, biz ataylab shu yerga keldik, — deb baqirishibdi ular. — Kelinglar, unga kuy chalib beramiz, u esa, albatta, bizni xursand qiladi!

Ular oʻz gonglarini chalib, shovqin-suron koʻtarishibdi, sakrab oʻyinga tushishibdi, Noldudan bir qop guruch, yuz lyan pul, may va gazak talab qilishibdi. Bu odamlardan **tezroq** qutulish uchun Nolbu ularga yuz lyan pul va bir qop guruch beribdi. Ular ketgach, Nolbu navbatdagi qovoqni uzibdi va Bukur bilan Tirtiqlab yana ishga kirishibdi. Qars etgan ovoz eshitilibdi va bu qovoq ham ikkiga boʻlinibdi, uning ichidan bir qari buddaviy rohib chiqib kelibdi. U bambukdan yasalgan hassasiga tayanib, tinimsiz duo oʻqir ekan. Uning ortidan gong, qoʻngʻiroq, shaqildoq va nogʻora koʻtargan rohiblar paydo boʻlishibdi. Qari rohib Nolbuga yaqinlashibdi va unga shunday debdi:

— Nolbu! Bizning muhtaram ustozimiz yer va dengiz ruhlaridan sening uyingga farovonlik keltirishni soʻrab **qirq** toʻqqiz kun tinimsiz ibodat qildi. Uning mehnati aslida bir necha oʻn ming lyanga loyiq. Ammo sen, mayli, besh ming lyan toʻlay qol.

— Qaysi ustoz? Qanaqa ibodat? — debdi hayron boʻlib Nolbu.

— Nobakor! — deya jahl bilan baqiribdi keksa rohib. — Boylikka erishishga boʻlgan umidlaring bekor! Buddaga hadya keltirmasdan, misli koʻrilmagan xazinalar haqida orzu qilishga qanday hadding sigʻdi?

— Bu xazinalarga men qachon erishaman? — deb soʻrabdi Nolbu rohibdan.

Keksa rohib unga shunday deb javob beribdi:

— Keyingi qovoqdan chiqadigan odam buni aniq biladi.

Rohiblar Buddadan o'ziga omad keltirishni so'rab iltijo qilishganini eshitib, Nolbu ulardan pulni ayamabdi va ularga besh ming lyan beribdi.

So'ng Nolbu boshqa bir qovoqni uzib olibdi va Bukur bilan Tirtiqlabga uni kesishni buyuribdi.

Biroq Nolbuning xotini erini to'xtatishga urinibdi.

– Xudo xayringizni bersin, shu qovoqni kesmang! Agar uni kessangiz, bor bud-shudingizdan ayrilasiz va o'zingizni halok qilasiz. Sizdan o'tinib so'rayman, qovoqni kesmang!

Nolbu xotinini urib, o'zidan nari haydabdi. Yana arra uyoqdan bu yoqqa borib kela boshlabdi. Qars degan ovoz eshilibdi va qovoq ikkiga bo'linibdi. Qo'ng'iroqlar jarangi eshilibdi va marhumni ko'mgani ketayotganlar safi paydo bo'libdi. Saf oxirida marhumning qarindoshlari ko'rinibdi. Ularning hammasi mayib va majruh odamlar: bukur, ko'r, tirtiqlab, kar va soqov ekan. Tobutni ko'tarib kelayotganlar uni Nolbuning hovlisida yerga qo'yishibdi va:

– Hoy, Nolbu! Ho'kiz so'yib, yuz kishiga tushlik tayyorla! – deb baqirishibdi.

Marhumning to'ng'ich farzandi esa shunday debdi:

– Biz bu yerga Szyannandan marhum otamizning hokini sening uying turgan joyda yerga qo'yish uchun keldik. Biroq bizga o'n ming lyan bersang, tobutni qaytarib olib ketishga va'da beramiz. Shunda sen g'am chekmasang ham bo'ladi. Axir «marhumsiz dafn marosimi bo'lmaydi-ku!»

«Ularning gapi rostga o'xshaydi», deb xayolidan o'tkazibdi Nolbu. U shosha-pisha o'z yerlarini arzon-garovga sotibdi va marhumning hassakashlari bilan uzoq savdolashib, uch ming lyanga kelishibdi. Ular tobutni ko'tarishibdi va hovlini tark etishibdi. Ammo Nolbu ularni ortidan quvib yetibdi va:

– Ayting-chi, qolgan qovoqlarda ham boyliklar yo'qmi? – deb so'rabdi.

Ular shunday deb javob berishibdi:

– Qovoqlarning har birida nima borligini bilmaymiz. Lekin ulardan birida oltin borligi aniq.

«Ha, ishqilib oltin bor ekan-ku!», deb xursand bo‘libdi Nolbu va navbatdagi qovoqni uzibdi.

Arra yana bir maromda uyoqdan buyoqqa borib kela boshlabdi. Qars degan ovoz eshitilibdi va qovoq ikkiga bo‘linib, uning ichldan, aftidan, sakkiz provinsiyadan yig‘ilgan shaman xotinlar to‘dasi yopirilib chiqibdi. Shu zahoti nog‘oralar chalinibdi, gong ovozi yangrabdi va shaman xotinlar zikr tushib ruhlarni chaqira boshlashibdi.

Shaman xotinlar marosimini ko‘rib Nolbuning afti bujmayibdi. Ruhlarini chaqirib bo‘lgach, shaman xotinlar Nolbuning ustiga yopirilibdi va uning ko‘ksiga o‘z nog‘oralari bilan ura boshlashibdi. Og‘riqdan Nolbuning ko‘zlaridan uchqun sachrabdi.

— Hoy, meni nega uryapsizlar? — deb baqiribdi u ko‘zlari yoshlanib. — O‘ldirmoqchi bo‘lsalaring, hech bo‘lmasa gunohimni o‘zimga aytib o‘ldiringlar?!

— Hoy, Nolbu! Biz ruhlardan sen uchun farovonlik so‘radik! Qani, besh ming lyanni oldimizga qo‘y-chi! O‘jarlik qilsang, boshingni sapchaday uzib tashlaymiz! — deb qichqirishibdi shaman xotinlar.

Nolbu qo‘rquvdan rang-u ro‘yi o‘chib, shaman xotinlarga besh ming lyan pulni beribdi va ulardan o‘zini tinch qo‘yishni yolvorib, nihoyat ularni hovlidan kuzatib chiqibdi, so‘ng jahl bilan o‘ziga shunday debdi:

— Omad kelsa — keldi, kelmasa — yo‘q! Qovoqlardan yana birini yorib ko‘raman!

Nolbu Tirtiqlabga qarab:

— Shu paytgacha kesgan qovoqlaring omad keltirmadi. Peshonaga shu yozilgan bo‘lsa kerak-da. Endi sendan hech kim gina qilmaydi, bemalol kesaver, — debdi.

Ammo Tirtiqlab tixirlik qilibdi:

— Sening qovoqlaringdan keyin kasal bo‘lib qolsam, nima bo‘ladi? Kimdan yordam so‘rayman? Bo‘lmagan gapni gapirma. Sening quruq mahmadona ekaningni hanima yaxshi biladi.

Nolbu Tirtiqlabni ko‘ndirishga qancha urinmasin, u rozi bo‘lmabdi.

— O'zingga omadliroq ishchini top, men, omadi yo'qni tinch qo'y!

— Bo'pti, boshqa sendan gina qilmayman! — debdi Nolbu va Tirtiqlabga oldin bergan puliga qo'shimcha yana yigirma lyan beribdi. Shundan keyingina Tirtiqlab ishga kirishibdi. Qovoqni oxirigacha arralab bo'lmasdan, ular qovoqning ichiga nazar tashlashibdi va u yerda sariq bir narsa yaltirayotganini ko'rishibdi. Nolbu buni o'zicha tushunibdi va sevinchi ichiga sig'may:

— Ko'rdingmi, Tirtiqlab? Qovoqning ichi to'la oltin. Kel, tezroq uni oxirigacha arralaylik! — debdi.

Qars degan ovoz eshilib, qovoq ikkiga bo'linibdi va uning ichidan yelkasiga och sariq qutilarni ortmoqlagan ko'tarmachi attorlar chiqib, mo'r-malaxdek atrofga yog'ilishibdi. Bu manzardan lol qolgan Nolbu ko'tarmachi attorlardan:

— Yelkalarindagi narsa nima? — deb so'rabdi.

Ko'tarmachi attorlar unga:

— Oyna, — deb javob berishibdi.

— Qanaqa oyna?

— Katta-kichik ko'zgular, durbinlar, rasmlarni kattalashtirib ko'rsatadigan oynalar, shuningdek sen uchun jazolar. Qara, qanday ajoyib rasmlar!

Navbatdagi qovoqni tezroq yorib ko'rish ilinjida Nolbu ko'tarmachi attorlarga uch ming lyan beribdi va ulardan o'z hovlisini tezroq tark etishni so'rabdi. Attorlar ketayotib Nolbuga shunday deyishibdi:

— Keyingi qovoqning ichi oltin va kumushga to'la bo'lsa kerak. Hech shubha qilmasdan uni arrala.

Shu so'zlarni aytib, ular bir lahzada g'oyib bo'lishibdi. Nolbu yana qo'liga arrani olibdi. Qars degan ovoz eshilibdi va qovoq ikkiga bo'linib, uning ichidan yuziga niqob taqqan son-sanoqsiz kishilar chiqib kelishibdi. Ular Nolbuga tashlanishibdi, uning yoqasidan olib yerga yiqitishibdi.

— Hoy, hoy! Bu nima qilganlaring, hurmatli niqobdorlar? Dardinglarni aytinglar — hammasini bajo keltiraman!

— Ablah Nolbu! — deb baqirishibdi niqobdorlar. — Senga nima afzal: pulmi yoki hayotmi?

— Avval odam, keyin pul paydo bo'lgan. Qanday qilib pul hayotdan afzal bo'lishi mumkin?

— Unday bo'lsa, hoziroq bizga besh ming lyan chiqarib ber!

Nachora, Nolbu niqobdorlarga besh ming lyan pulni qurtday sanab berishga majbur bo'libdi va so'ng ularga shunday debdi:

— Men sizlarga aytgan pulinglarni berdim. Iltimos, qolgan qovoqlarning ichida nima borligini menga aytinglar.

Bunga niqobdorlar shunday deb javob berishibdi:

— Qolgan qovoqlarda nima borligini biz aniq bilmaymiz, lekin ulardan birida oltin borligi shak-shubhasiz. Agar qovoqlarning hammasini yorsang, sen uni albatta topasan. — Shu so'zlarni aytib, ular g'oyib bo'lishibdi.

Niqobdorlarning so'zlari Nolbuning so'na boshlagan umidini yana o't oldiribdi. U navbatdagi qovoqni ikki bo'lgan ekan, uning ichidan daydi raqqosalar va mashshoqlar to'dasi chiqib kelibdi. Ular o'z childirmalarini chalib, bor ovozda qo'shiq kuylar va raqs tushar ekan. Ular hovlida bir davra aylanishibdi va shundan keyingina Nolbuni ilg'ashibdi.

— Ha, mana sen qayerda ekansan! — deb bo'kirishibdi daydilar va Nolbuning qo'l-oyoqlaridan ushlab, uyoqdan-buyoqqa sudray boshiashibdi. Nolbuga ichi to'kilib tushgandek, ko'zlari hozir kosasidan otilib chiqib ketadigandek bo'lib tuyulibdi.

— Bu nima qilganlaring? — deya nola qilibdi u. — Istagan narsalaringni so'ranglar! Faqat meni halok etmanglar!

Uning o'tinchiga javoban daydilar jo'r ovozda shunday deyishibdi:

— Tirik qolmoqchi bo'lsang, o'z dalalaring va yerlaringning barcha hujjatlarini bizga ber. O'jarlik qilsang, shu yerning o'zida til tortmay o'lasan!

Esi chiqib ketgan Nolbu ichkariga kiribdi va javondan hujjatlarni olib, daydilarga olib chiqib beribdi. Daydilar bu hujjatlarni o'zaro bo'lishib olishibdi va g'oyib bo'lishibdi.

Bularning barchasini ko'rgan Tirtiqlab tezroq bu yerdan tuyoqni shiqillatish kerak, degan qarorga kelibdi va Nolbuga qarab:

— Uyda shoshilinch ish chiqib qoldi. Men tezda kelaman, — debdi.

Biroq Nolbu ko'nmabdi.

— E, yo'q, og'ayni, boshiagan ishni yarim yo'lda tashlab ketmaydilar! — debdi u. — Qovoqlar oz qoldi. Ulardan birida oltin borligi aniq emish. Buyog'iga arralangan har bir qovoq uchun senga pul qo'shib beraman.

Bu gapni eshitib Tirtiqlab boshqa tixirlik qilmabdi va yana arrani qo'lga olibdi. Qars etgan ovoz eshitilibdi va qovoq ikkiga bo'linib, uning ichidan bir to'da erkak bir-biridan o'ziga urinib sakrab chiqqan boshlabdi. Qovoqdan chiqqan zahoti ular Nolbuni ushlab, qo'l-oyoqlarini arqon bilan bog'lashibdi va daraxtga osib qo'yishibdi. So'ng ular Nolbuning yuziga tarsaki solib, oyoqlari bilan tepib va chimchilab joniga ozor berishibdi. Keyin ular Nolbuni qiynay boshlashibdi. Bu qiynoqlarga Nolbu joni temirdan bo'lsa ham dosh berishi dushvor ekan. U og'zidan qon tupurib erkaklarga yalina boshlabdi:

— Menga rahm qilinglar! Meni o'ldirmanglar! Pul desanglar — sizlarga pul, guruch desanglar — guruch beray. Xotinimni so'rasanglar, uni ham sizlarga berishga tayyorman. Faqat meni hayotdan mahrum etmanglar!

Shunda erkaklar Nolbuning oyoqlarini oxirgi marta tayoqlar bilan burab ezishibdi va unga shunday deyishibdi:

— Gapimizga quloq sol, ablah! Biz Kimgansanning xushmanzara joylarini ko'rgani ketyapmiz va yo'lda xarj qilish uchun bizga pul kerak. Joningdan umiding bo'lsa, hoziroq besh ming lyan pulni oldimizga qo'y!

Qo'rquvdan karaxt bo'lib qolgan Nolbu erkaklarga ular so'ragan pulni beribdi. Pulni olgach, erkaklar o'sha zahoti g'oyib bo'lishibdi.

Qiynoqlardan keyin Nolbu qo'llari va oyoqlarini qimirlata olmaydigan bir ahvolga tushib qolibdi. Biroq shunda ham uning umidlari so'nmabdi, aksincha, oldinda o'zini baxt qushi kutayotganiga bo'lgan ishonchi ortibdi. Nolbu pushtadan yana bir qovoqni olibdi va Tirtiqlab bilan birga uni arralashga kirishibdi. Qars etgan ovoz yangrabdi va qovoq ikkiga bo'linib, uning ichidan sakkiz provinsiya'dagi ko'rlarning hammasi yopirilib chiqibdi. Ular

hassalarini do'qillatib, oq tushgan ko'zlarini lo'q qilib baqira boshlashibdi:

— Sen, ablah, endi bizdan qochib qutulolmayсан. Seni izlab biz chor-atrofni aylanib chiqdik, Mucedonda va Sangedonda bo'ldik, atrofdagi qishloqlarda kirmagan uyimiz qolmadi. Sen bo'lsang, bu yerda ekansan! Hozir biz senga nimaga qodir ekanligimizni ko'rsatamiz!

Ko'rlar hassalarini havoga sermab, Nolbuning ustiga qarab yurishibdi. Nolbu aql-hushi boshidan uchib qocha boshlabdi, biroq ko'rlar ko'zi ochiq odamlardan ham tez harakat qilib, bir lahzada uni tutib olishibdi. Ko'rlardan qochib qutula olmasligini tushungan Nolbu ularga yalina boshlabdi:

— Sizlarga nima yomonlik qildim? Yolvoraman, meni o'ldirmanglar! Har qanday amringizni bajo keltirishga tayyorman.

Biroq shu payt ko'rlar kutilmaganda Nolbuni qo'yib yuborishibdi va o'z nog'oralarini chalib, ibodat qila boshlashibdi. Ibodatni tugatgach, ko'rlar yana Nolbuga tashlanishibdi va so'yish uchun mo'ljallangan itni urgandek uni kaltaklay ketishibdi. Ularga Nolbu besh ming lyan pul berganidan keyingina uni qo'yib yuborishibdi.

Ko'rlar o'z hovlisini tark etishgach, Nolbu: «Uyda bir chaqa ham pul qolmadi. Bor boyligimni havoga sovurdim! Bilmadim, endi qanday yashayman. Biroq, «boshiagan ishni oxiriga yetkaz», deyishgan. Yana: «Achchiq ketidan shirin keladi», degan gap ham bor. Oxir-oqibat omadim kelishi kerak-ku!», deb xayolidan o'tkazibdi.

Shu o'y bilan Nolbu yana pushtadan bir qovoqni uzib olibdi va Tirtiqlabga qarab:

— Bu qovoqning oqligi va silliqligini ko'r. Ichi dur-u gavharlarga to'la bo'lsa kerak. Agar biz ularni qo'lga kiritsak, sen ham yallo qilib yashaysan. Arrani ildamroq qo'lga ol! — debdi.

Arra yana uyoqdan-buyoqqa borib kela boshlabdi. Picha arralagach, Nolbu va Tirtiqlab ehtiyotkorlik bilan qovoqqa quloqlarini qo'yishibdi: uning ichidan «Fey! Fey!» degan xitoblar eshitilibdi.

Nolbu o'zini yana bir kulfat kutayotganini tushunibdi va arrani ohista yerga qo'yib, ortga tislanibdi. Tirtiqlab ham qovoqdan o'zini nari olibdi va sekin juftakni rostlamochi bo'lgan ekan, birdan qovoq ichidan kimningdir jahldor ovozi eshilibdi:

— Namuncha imillamasalaring? Nega arralashni to'xtatdinglar? Qovoq ichida bunday o'ng'aysiz holatda o'tirish jonga tegdi. Tezroq kesinglar!

Nolbu qo'rquvdan dir-dir titrab, shunday debdi:

— Siz hozirgina qandaydir «fey»ni tilga oldingiz. Ayta olmaysizmi, bu nima degani?

Bunga javoban qovoq ichidan:

— Fey, fey, ho'kiz! — degan ovoz eshilibdi.

— Mana, siz nuqul «fey» deyapsiz, — deya surishtirishda davom etibdi Nolbu. — Qovoqni kesishni davom ettirishdan oldin siz kimni nazarda tutayotganingizni bilmoqchi edik: Tan podshosining kanizi Yan-guyfeynimi yoki boshqa birovni.

Bunga qovoq ichidan quyidagi javob yangrabdi:

— Yo'q, men o'zim haqimda gapiryapman. Men qo'shin sarkardasiman. Ismim Chjan Fey, laqabim Ide, Yanda tug'ilganman, Xan podshosining ajdodi Lyu tog'aning tug'ishgan ukasiman. Agar sen hoziroq qovoqni kesmasang, ahvoling voy bo'ladi.

Nolbu Chjan Fey ismini eshitib, qo'rquvdan qaltirab qolibdi.

— Hoy, Tirtiqlab! Endi nima qilamiz? Pul qolmadi-ku. Aftidan, kunimiz bitganga o'xshaydi, — debdi u.

Tirtiqlab unga zaharxanda bilan javob beribdi:

— Sen o'lsang, qilmishingga yarasha jazo olgan bo'lasan. Menchi, men qaysi gunohim uchun o'lishim kerak? Bu gapni yana og'zingga oladigan bo'lsang, o'zim seni narigi dunyoga jo'nataman!

— E, hazilingni qo'y! — debdi Nolbu. — Yaxshisi, qovoqni oxirigacha arralaylik-da, nima bo'lishini ko'raylik.

Arra yana o'z kuyini davom ettiribdi. Qars etgan ovoz eshilibdi va qovoq ikkiga bo'linib, uning ichidan sarkarda chiqib kelibdi.

— Yaramas Nolbu! — deb o'shqiribdi u. — Dunyoga kelib sen ota-onangga biron marta ham hurmat ko'rsatmading, ukang bilan ahil emassan, qarindoshlaringning hammasi bilan yuzko'rmay

bo'lib ketgansan. Gunohlaring boshingdagi soch tolalaridan ham ko'p. Osmon bunga befarq qarab turishi mumkinmidi? Yo'q, albatta. Sen o'zingning son-sanoqsiz gunohlaringni yuvishing uchun Nefrit podshosi menga seni o'ng ming qismga bo'laklashni buyurdi. Men bu yerga shuning uchun keldim.

Shu so'zlarni aytib, sarkarda o'zining yumshoq, lekin kuchli qo'li bilan Nolbuni ko'taribdi va xuddi bo'sh likopdek uni osmonga otib, ilib olib, aylantira boshlabdi. Qo'rquvdan Nolbu hushdan ketibdi, o'ziga kelgach esa, yig'lab shafqat so'ray boshlabdi. Sarkardaning unga rahmi kelibdi. U Nolbuni qo'yib yuboribdi va unga shunday debdi:

— Sen o'n ming qismga bo'laklashga, hech shubhasiz, loyiqsan. Biroq, o'ylab ko'rib, men seni kechirish mumkin, degan xulosaga keldim. Bundan buyon ukangni xafa qilma, u bilan ahil yasha.

Shu so'zlarni aytib, sarkarda g'oyib bo'libdi.

Nolbu esa shu zahoti pushtaga qarab yuguribdi: u yerda yana ikkita qovoq qolgan ekan. Ulardan birini sudrab kelib, Nolbu Tirtiqlabga yalina boshlabdi:

— Hech bo'lmasa sen menga rahm qil! Misli ko'rilmagan boyliklarga ega bo'lmoqchi edim, buning o'rniga bor budshudimdan ham ayrildim. Nahot qovoqlarning hammasi shunaqa bo'lsa? Menimcha, bu safar omadimiz chopadi. Kel, ko'p gapirmay, ishga kirishaylik.

Tirtiqlab uning gapini qaytarib o'tirmabdi va yana arrani qo'liga olibdi.

— Dur-u gavharlar ko'proq bo'lgani yaxshi. Faqat Xinbuga uchraganga o'xshash kanizakdan xudo asrasin, — deb gap qo'shibdi nariroqda turgan Nolbuning xotini.

Arra yana uyoqdan-buyoqqa borib kela boshlabdi. Pichadan so'ng Nolbu qovoqqa qulog'ini qo'yibdi: bu safar uning ichidan hech narsa eshitilmabdi.

— Qovoqni deyarli arralab bo'ldik, lekin ichidan hech narsa eshitilmayapti! Biz kutgan qovoq shu bo'lsa kerak, — debdi Nolbu Tirtiqlabga va arra dastasini yanada tezroq torta boshlabdi.

Biroq qovoq ikki bo'lingach, uning ichida hech narsa yo'qligini ko'rishibdi. Qovoqning ichi bo'm-bo'sh ekan!

Bu hol Nolbuni behad shod etibdi. Tirtiqlab esa: «Bunda bir gap bor. Shuncha qovoqni arraladik va ularning har biridan albatta bir balo chiqdi. Nima uchun bu qovoq boshqa qovoqlarga o'xshamaydi?», deya xayolidan o'tkazibdi. So'ng u hojat qilgani chetga chiqqandek bo'libdi va oyog'ini qo'liga olib qochib qolibdi. Nolbu uni uzoq kutibdi. Tirtiqlab hadeganda paydo bo'lavermagach, u qovoqni bolta bilan chopa boshlabdi. Ammo qovoq ichida ishtahani qo'zg'atadigan oqish etdan boshqa hech narsa yo'q ekan. Shunda Nolbu xotinini chaqiribdi va unga shunday debdi:

— Qornim ochdi. Manavi qovoq «meni ye, meni ye» deb turibdi. Undan obiyovg'on tayyorla. Butun oilamiz bilan qornimizni to'ydirib olamiz va yangi kuch bilan ikkimiz oxirgi qovoqni kesamiz. Qadimda: «Achchiq ortidan shirin keladi», deyishgan ekan. Menda ham shunday bo'ldi: avvaliga boshim balodan chiqmadi, lekin oxiri menga baxt kulib boqishi tayin. Nahot Osmon meni qo'llamasa?

Nolbuning xotini bu gapdan jonlanib, oshqovoq etini yirik-yirik bo'laklarga bo'lib to'g'rabdi, soyadan qayla tayyorlabdi, katta qozonga to'ldirib suv quyibdi va o'choqqa o't qalabdi. Choshgohga yaqin obiyovg'on tayyor bo'libdi va oilaning har bir a'zosi uni bir kosadan yebdi. Qorni to'ygach, Nolbu xotini tomonga o'girilibdi va shirin kekirib:

— Obiyovg'on juda mazali chiqibdi. Tan-don! — debdi.

— Ha, obiyovg'onmisan-obiyovg'on bo'libdi. Tan-don! — deb Nolbuning fikriga qo'shilibdi xotini.

— Ha, juda shirin bo'пти! Tan-don! — deya jo'r ovozda chug'illashibdi ularning bolalari.

— Bu nima balo? — debdi Nolbu hayron bo'lib. — Oshqovoqdan tayyorlangan obiyovg'onni ichganimizdan beri hamma-miz nima uchundir har gapdan keyin «tan-don»ni qo'shimcha qiladigan bo'lib qoldik! Tan-don!

— Gapingiz to'g'ri! — deb tasdiqlabdi xotini. — Obiyovg'onni ichganimdan beri og'zimdan g'alati tovushlar beixtiyor chiqib ketyapti!.. Tan-don!

— Oyi, biz ham endi nima uchundir «tan-don» deydigan bo'lib qoldik. Tan-don! — deya qichqirishibdi bolalar.

— Ha, bolalar, chindan ham nimadir bo'lganga o'xshaydi! Tan-don!

Shunda Nolbu so'kinib xotiniga tashlanibdi:

— Jinni bo'lma! Tan-don! Obiyovg'onni yeb ham odam tinimsiz «tan-don»deyishni odat qilarkanmi?... Tan-don!

— Kechiring, aybdorman... Tan-don! — deb javob beribdi xotini.

Nolbuning uyidan «tan-don» degan tovush kayagim torlarining ovoziidek to'xtovsiz yangrab, atrofga tarala boshlabdi. «Tan-don!», deb baqirar ekan Nolbuning qizi, «tan-don!», deb unga jo'r bo'lar ekan ukasi, «tan-don!», deb qarg'ar ekan Nolbuning xolasi, «tan-don!», deb qiyqirishar ekan xizmatkorlarning bolalari.

Shu vaqt Nolbuning uyi oldidan syusay Ban o'tib qolibdi. Chetan devor ortidan kelayotgan g'alati tovushlarni eshitib, Van Nolbudan:

— Menga qara, Nolbu! Sizlar nima yedinglarki, bunday g'alati tovushlar chiqaryapsiz? — deb so'rabdi.

Nolbu tavoze bilan unga javob beribdi:

— Hovlimda bir qovoq o'sgan edi. Shu qovoqdan biz obiyovg'on tayyorladik, uni yeganimizdan keyin og'zimizdan shu tovushlar o'z-o'zidan chiqadigan bo'lib qoldi.

Syusay Nolbuning so'zlariga ishonmabdi:

— Bo'lmagan gapni gapirma! Oshqovoqdan tayyorlangan obiyovg'onni yegan odam shunday tovushlarni chiqaradigan bo'lib qolishi mumkin ekanmi? Qani, menga shu ovqatingdan bir kosa ber-chi!

Nolbu kosaga obiyovg'ondan quyib, syusayga uzatibdi. Ovqatdan tatib ko'rib, syusay uni juda mazali deb topibdi va ishtaha bilan bir kosa obiyovg'onni paqqos tushiribdi, so'ng:

— Obiyovg'oning juda mazali chiqibdi! Tan-don!.. Voy, men ham «tan-don!» dedim, shekilli. Tan-don! — debdi.

Syusay Van obiyovg'ondan tatib ko'rishga qaror qilganidan pushaymon chekibdi va Nolbuni la'natlab, o'z yo'lida davom etibdi. Nolbu ham o'ylanib qolibdi. Boy bo'lish uchun qovoq ekan edi, bor bud-shudidan ayrildi, birovning tushiga kirmagan musibatlar boshiga tushdi. Bu ham yetmagandek, uydagilarning hammasi tinimsiz «tan-don», «tan-don» deb sayrayapti! Bunaqasi hali hech kimda bo'lmagan!

Nolbu o'z taqdirini la'natlab, qo'liga o'roq olibdi va pushtaga kelib, qovoq novdalarini g'azab bilan chopa boshlabdi. Bir vaqt qarasa, yaproqlar ostida, panada kattaligi ulkan qo'ng'iroqdek keladigan, og'irligi ming kindan kam bo'lmagan bir qovoq yotgan emish.

Buni ko'rgan Nolbu o'sha zahoti jahlidan tushibdi. Uning dilida yana umid uchquni paydo bo'libdi va u o'z-o'ziga shunday debdi:

— Nihoyat, o'zim orzu qilgan qovoqqa erishdim! Vazniga qaraganda, ichi oltinga to'la bo'lsa kerak. Shuning uchun ham u yaproqlar ostiga, begona ko'zlardan pana joyga yashirilib olgan. Men bo'lsam umidsizlikka berilib o'tiribman! Demak, kecha qovoqdan chiqqan niqobdor odamlar qolgan qovoqlardan birining ichida oltin bor, deganda, rost gapni gapirishgan ekan. Eh, ichiga oltin solingan qovoq aynan shu yerda ekanini oldinroq bilganimda, men qolgan qovoqlarni arralab o'tirmagan, ishni darhol shundan boshlagan bo'lar edim!

Biroq xotini uning yo'lini to'sibdi:

— Nima qilyapsiz? Bo'ldi, bas qiling! Nahot bu qovoqlardan bezor bo'lmadingiz? Agar buning ichidan ham yomon odamlar chiqsa-chi? Nega uni bu yerga sudrab keldingiz?

— Yo'ldan qoch, nodon xotin! — deb javob beribdi unga Nolbu. — Oltin qovoq aslida shu. Bo'lmagan gaplarni gapirmay, arraning narigi tomoniga o't.

Arra yana uyoqdan-buyoqqa borib kela boshlabdi. Arra qovoqning yarmiga yetgach, Nolbu hayajon bilan tirqishdan mo'ralabdi: qovoqning ichi toza oltinga o'xshaydigan sap-sariq bir narsaga to'la ekan.

— Nihoyat orzuimga erishdim! — deya xitob qilibdi Nolbu. — Manavi tirqishdan bir mo'rala! Sariq rangda tovlanayotgan narsalarni ko'ryapsanmi? Bular oltin yombilar!

Xotini unga shunday deb javob beribdi:

— Rangidan chindan ham tillaga o'xshaydi-ku, lekin negadir qovoqdan qo'lansa hid kelyapti-da. Buning sababi nimada ekan?

— Bo'lmagan gaplarni gapirma! — deb jerkib tashlabdi Nolbu xotinini. — Qovoqlar pishib yetilmagan va tobidan o'tib ketgan bo'lishini bilmaysanmi? Bu qovoq tobidan o'tib ketgan, shuning uchun ham undan yomon hid kelyapti. Kel, uni tezroq ikkiga bo'laylik!

Biroq arra qovoqning oxiriga yetib qolganda, er-xotin ishni to'xtatishibdi va cho'k tushib, har biri o'z tomonidan ham hadik, ham qiziqish bilan qovoqning ichiga nazar tashlashibdi. Qo'qqisdan qovoq ichidan ularning yuziga shamol urilibdi, g'uvillagan ovoz eshitilibdi va sap-sariq, sassiq odam axlati otilib chiqibdi. Nolbu va uning xotini zo'rg'a o'zlarini chetga olishga ulgurishibdi. Qovoq ichidan toshib chiqayotgan najas oqimi ko'z ochib yumguncha butun hovlini egallabdi.

Boshdan oyoq najasga belangan er-xotin qocha boshlashibdi. Ular xavfsiz joyga yetgach to'xtab ortga o'girilishibdi va uylari to'liq najas ostida qolganini ko'rishibdi.

Bu manzaradan karaxt bo'lib qolgan Nolbu o'ziga kelgach, turgan joyida yer tepib baqira boshlabdi:

— Endi nima qilamiz, xotin? Avval misli ko'rilmagan boylikka erishish ilinjida biz bor bud-shudimizdan ayrildik. Endi manavi najas bizni hatto kiyimdan ham mahrum qildi! Oh, peshonamiz muncha sho'r bo'lmasa!

Nolbu nola chekib turgan paytda najas oqimi qo'shni yanbanlarning hovlisigacha yetib boribdi va ularning uylari ichiga oqib kira boshlabdi. Shunda yanbanlar o'zaro kengashib, xizmatkor Kodusveni zudlik bilan o'z huzurlariga chaqirishibdi va unga darhol Nolbuni ushlab keltirishni buyurishibdi.

Bu xizmatkor Nolbuga qarshi ko'pdan beri tish qayrab yurgan ekan. Buyruqni olgach, Kodusve Nolbuning oldiga qanot qoqib yetib boribdi va uni yoqasidan olib, yanbanlar oldiga sudrab

kelibdi. Nolbu yanbanlar qarshisida tiz cho'kkan holatda hozir bo'lgach, ulardan biri unga qarab shunday debdi:

— Gapimga quloq sol, ablah! Sen hech qachon o'z ota-onangni hurmat qilmagansan, qarindoshlaring bilan ham, bitta-yu bitta ukang bilan ham urishgansan — puldan boshqa hech narsani o'ylamaysan. Biz, bu yerlik yanbanlar qulog'iga uyingda yuz bergan baxtsizliklar va boshingga tushgan musibatlar daragi yetib keldi. Bularning barchasi — qilgan gunohlaringning jazosi. Biroq sening qing'ir ishlaring tufayli yanbanlarning uylariga ham shikast yetdi. Sengga teng keladigan nobakor dunyoda bormikan? O'z jinoyatlaring uchun sen tez orada sud oldida javob berasan, hozir esa, quyosh botguncha bu najaslarning barchasini yig'ishtirib ol. Sustkashlik qilsang, omon qolmaysan.

So'ng yanban Kodusvega Nalbuning qo'llarini bog'lashni, sopol to'sham ustiga cho'kkaletib, katta o'g'ir dastasi bilan uni kaltaklashni, toki u najaslarni yig'ishtirib olmaganicha qo'yib yubormaslikni amr etibdi.

G'am-alamdan bukchayib qolgan Nolbu xotiniga besh yuz lyan olish va tezroq ishchilarni yollashni buyuribdi. Nalbuning xotini chor atrofdagi o'g'itfurushlarni chorlabdi, ularga yaxshi haq to'lashni va'da qilibdi va ular najaslarning barchasini yig'ishtirib olganidan keyingina Nalbuni qo'yib yuborishibdi.

Boshpanasiz qolgan er-xotin bir-birini quchib, achchiq faryod chekishibdi. Nolbu bor bud-shudidan ayrilgani va sharmandayi sharmisor bo'lganining daragi Ximbuning qulog'iga ham yetib boribdi. U o'sha zahoti Nalbuning oldiga kelibdi va akasini, uning xotinini va jiyanlarini o'z uyiga olib ketibdi. Bu yerda Xinbu mehmonlarga o'z uyining ayollar uchun mo'ljallangan qismini ajratibdi, ularni barcha zarur buyumlar va jihozlar bilan ta'minlabdi. Keyinchalik Xinbu qulay bir joyni tanlab, bu yerda hashamat bobida o'z uyidan qolishmaydigan yangi uy barpo etibdi va uni akasiga hadya qilibdi, unga xuddi o'zinikidek uy anjomlari, kiyim-kechak va oziq-ovqatlar ajratibdi.

Ximbuning olijanoblighi hatto Nalbudek uchchiga chiqqan razil odamning ham fe'lini o'zgartiribdi. Nolbu o'zining yomon qilmishlaridan pushaymon bo'libdi va aka-uka tinch-totuv yashay

boshlashibdi. Xinbu va uning xotini rohat-farogʻat va izzat-ikromda yashab, sakson yil umr koʻrishibdi. Yashma daraxtning novdalari ham yashmadan boʻladi: Ximbuning farzandlari va nabiralari ham baxt-saodat yoʻldosh boʻlibdi, uning barcha avlodlari gʻam koʻrmay va muhtojlik nimaligini bilmay yashashibdi. Shundan beri xalq Ximbuning saxovatini sharaflashdan charchamas, uning ismi asrlar osha unutilmas ekan.

SIM CHONG HAQIDA HIKOYA

Qadimda Xvangju Toxvadongda Sim Hakkyu degan koʻzi koʻr odam boʻlgan ekan. Sharoiti ogʻir, uning ustiga koʻzi ham koʻr boʻlgani uchun xotini bilan zoʻrgʻa kun kechirar ekanlar. Janob Simning ayoli Kvak xonim juda mehribon va chaqqon boʻlib, ogʻir yumushlarni ham oʻzi qilaverar, erini juda hurmat qilar ekan.

Bir kuni tunda Kvak xonim oʻz quchogʻida qiz farzandi bor ekanligini koʻribdi. Oʻn oy oʻtib, juda goʻzal qizli boʻlibdi.

Janob Sim juda xursand boʻlib, qizini yer-u koʻkka ishonmas emish. Lekin bu xursandchilik uzoqqa choʻzilmabdi. Qizni dunyoga keltirgan onasi holsizlikdan vafot etibdi.

«Voy, xotin! Mendek bir koʻrni nega yolgʻiz tashlab ket-yapsan?»

Janob Sim xotinining maʼrakalarini oʻtkazibdi.

Ertasidan boshlab onasiz qolgan qizini koʻtargancha, u uydan bu uyga chopib, bolasini amallab qornini toʻygʻizar ekan.

Qishloqning yangi farzand koʻrgan ayollari navbatma-navbat Sim Chongga koʻkrak tutishardi.

Sim Chong tez oʻsib, katta boʻlibdi. U juda goʻzal va chaqqon, nima ishni boshlasa, tezlik bilan bitiradigan boʻlib, ayniqsa, koʻr otasiga gʻamxoʻr edi.

«Ota, bugundan boshlab men koʻchaga chiqib, pul topaman va uch mahal ovqat olib kelaman».

«Qizim, meni kechir. Yosh boshing bilan ishlab pul topasanmi?»

Otasining qarshiligiga qaramay, Sim Chong uydan chiqib ketibdi va kech tushganda shu yoʻldan bir idishda guruchli boʻtqa

va bir idishda kimchi bilan qaytibdi. Otasining oldiga qasturxon yozibdi.

Shu tarzda zo'rg'a yashab, Sim Chong o'n besh yoshga to'libdi. Tirishqoqligi bilan birga chevarlik mahorati ham bo'lganligi sababli butun qishloqqa mashur tikuvchi bo'lib, oilani tebratar ekan.

Sim Chong haqidagi xabarlarini eshitgan qo'shni shaharchadagi Chang Chongsing xonim Sim Chongni chaqirtiribdi:

«Seni qiz qilib asrab olmoqchiman, fikringa nima deysan?»

«So'zingizdan boshim osmonga yetdi-yu, men tug'iliboq onamdan ajralganman. Ko'zi ojiz otam meni qiyinchilik bilan voyaga yetkazdilar. Men ketsam ojiz otamni kim parvarish qiladi?»

Sim Chong chuqur ta'zim qilib, rad etibdi.

«Sening gaping to'g'ri. Lekin meni onangdek ko'rib, boshingga biror tashvish tushganda mening oldimga kelaver».

Ayol qizga turli matolar va kiyimlar berib, g'amginlik bilan kuzatibdi.

Bir tomonda uyda bo'lgan Sim Pongsa qizining har kungidan kech qolib ketganidan xavotirlanib, tinch o'tira olmabdi:

«Biror kor-hol yuz bermadimikan?»

Qo'liga hassasini olib, ota eshikdan tashqariga chiqibdi. Asta yurib ariqqa tushib ketibdi.

«Dod, qutqaringlar, odamlar!»

Shunda yo'ldan o'tib ketayotgan bir ruhoniyl sakrab qutqaribdi.

«O'lishimga sal qolganda qutqarib qolding, rahmat senga. Kimsan?»

«Men cherkov ruhoniysi Xvajusingman. Lekin bu qanday qilib yuz berdi?»

«Voy-ey, qizimni kutib olish uchun chiqqandim».

Sim Pongsa yig'lab tashakkur izhor etibdi.

«Agar 300 qop kongyangmini Budda nomiga qurbon qilsangiz, sizning ko'zlarigiz bu dunyoni ko'rishga musharraf bo'lardi. Afsuski, sharoitingiz og'ir».

Sim Pongsa bu so'zlarni eshitib, hayrat bilan dedi:

«Agar 300 qop kongyangmi bersam, ko'zim ko'ra oladi deysanmi? Men 300 qop guruch beraman, ko'zimmi ko'radigan qilib ber».

Xvajusing xursand bo'lib, 300 qop kongyangmi olganligini hujjatga qayd eta boshlabdi. Lekin Sim Pongsa yerni urib afsuslandi.

Sim Chong kelib dasturxon yozdi. Lekin Sim Pongsaning ko'ngli yorishmadi.

«Ota, bir gap bo'ldimi?»

«Chong, bu qanday yaxshi gap-a!»

Sim Pongsa bor dardini to'kib socha boshladi.

«Agar 300 qop guruch bersak, ko'zlaringiz ochilsa, bu muammo bo'lmaydi. Oling, ovqatingizni yeng».

Shu kundan boshlab Sim Chong xudodan so'ray boshlabdi.

«Osmon-u yer xudosi! Sendan o'tinib so'rayman. Otamning ko'zlariga nur ato et».

Bir kuni qishloqning bir odami kelib, Sim Chongga bir gapni aytdi:

«Chong, Janubga savdo qilish uchun qatnovchi dengizchilar 15 yoshli qizni sotib olish uchun aylanib yurishibdi. Uni dengizni kesib o'tayotganlarida qurbonlik qilib dengizga tashlashar ekan».

Sim Chong quloqlariga ishonmay, shu yerning o'zida dengizchilarni qidirib ketibdi.

«Ko'zi ojiz otam uchun 300 qop guruch evaziga o'zinni sotmoqchiman, iltimos, meni olinglar!»

«Yaxshi, mart oyining o'n beshinchi kunida jo'nab ketamiz. Ungacha tayyor bo'lib turing».

Dengizchilar va'da qilganlaridek, 300 qop guruch ortib keldilar.

Sim Chong otasining qoshig'iga ovqatni solib berdi.

«Bugungi ovqatlar juda mazali ekan. U yerda biror kecha o'tkazdilaringmi?»

Hech narsadan xabari bo'lmagan Sim Pongsa kayfiyati yaxshi edi.

«Lekin tunda bir tush ko'rgandim. Sen bir surega o'tirib ketibsan. Sure nozik odamlar o'tiradigan joy. Demak, bizning uyda qandaydir yaxshi voqea sodir bo'ladi».

Sim Chong ko'z yoshlarini ortiq tutolmay, yig'lab yubordi:

«Voy, otajon! Qizingiz otasining ko'zlariga nur ato etish uchun dengizga qurbonlik bo'lib ketmoqda. Ko'zlaringiz ochilib, uzoq umr kechiring!»

«Qizim, bu nima deganing, sen o'lib meni ko'zlarim ochilsa, bundan nima naf? Bormaysan, bormaysan!»

Lekin dengizchilar Sim Chongni olib ketishdi.

«Bolam, ketmaysan. Ketadigan bo'lsanglar meni ham olib ketinglar!»

Sim Pongsa ularning ortidan bordi. Lekin ular kemaga o'tirib, uzoqlab ketishdi. Shunda dengiz suvlari mavjlanib, to'fon ko'tarildi. Bu dengiz hukmdori edi.

«Ey, dengiz hukmdori! Biz sizga qurbonlik olib kelganmiz. Uni oling-da, bizga yo'l oching».

«Endi Sim Chong suvga sakra».

Sim Chong ikki qo'lini qovushtirib, iltijo qila boshladi:

«Iltimos, iltijo qilaman! Men o'lganimga yarasha otamning ko'zlari ochilib, bu yorug' dunyoni ko'rsinlar!»

Sim Chong ho'ng-ho'ng yig'lab, kema chetiga chiqdi va o'zini mavjlanib turgan dengiz to'lqiniga tashladi. Shunda mavj urayotgan dengiz to'lqinlari bo'shashdi.

«Bu Sim Chongning sharofati bilan!»

Dengizchilar ikki qo'llarini bir-biriga berib, Sim Chong sharafiga tashakkur izhor etibdilar.

Dengiz ichiga kirgan Sim Chong qayerdandir qo'shiq ovozi eshitib, ko'zlarini ochdi. Shunda sohibjamol qizlar kelishib kuldilar. Hukmdorimiz sharofati ila tirik qolibsiz, darhol ajdaho janoblarining huzuriga boring. Sim Chong aravaga o'tirishi bilan sakkiz go'zal va dengiz sarkardalari uni suv podsholigiga olib ketibdilar. Bu yer pyolchonji deb atalardi. Sim Chong qizlar bergan liboslarni kiyib, mazali taomlarni yeb kunni chog' o'tkazdi.

Shu tarzda bir kuni Okjin xonim aravaga o'tirib, tashrif buyurdi. Okjin xonim begona bo'lmay, Sim Chongning onasi Kvak xonim edi. Kvak xonim Sim Chongning ajdaho saroyida ekanligini eshitib, parilarning ruxsati bilan bu yerga kelgan edi.

«Voy, bolam Sim Chong!»

«Ona, meni dunyoga keltirib, vafot etgan onamsiz-a?»

Ikki ayol bir-birlarini bag'riga bosib yig'ladilar.

«Ona, sizni ko'rib, ojiz otam yodimga tushdilar».

Okjin xonim bir necha kun qizi bilan tunab, yana osmon mamlakatiga qaytib ketibdi.

Bu tomonda qizini yo'qotgan Sim Pongsa o'lmasdan, zo'rg'a yashay boshlabdi. Qishloq odamlari Sim Chong tashlab ketgan don-dunlar bilan har doim boqib tursalar-da, birga yashaydigan hech kim bo'lmagani sababli zerikar, o'zini yolg'iz his etardi.

Bir kuni Pengdok omom degan ayol Sim Pongsaning oldiga kelib, birga yashay boshladi. U Sim Pongsaning pullarini suvdek sovurardi. Guruchni sotib, go'sht yerdi. Shunday qilib, guruchni ham qarzga olib yeydigan darajaga yetibdilar.

«Bu yerda yashashdan qishloqdoshlarim oldida uyalyapman. Bugun tunda bu yerdan jo'nab ketamiz».

Bu yerda suv hukmdori katta nilufar gul ichiga Sim Chongni solibdi va u suv yuziga chiqibdi. Janubga borib ko'p pul ishlab qaytayotgan dengizchilar bu gulni ko'rib hayratlanishibdi. Ular gulni qirolga olib boribdilar. Qirol gulni ochsa, uning ichida bir go'zal qiz va ikki pari bor ekan. Sim Chongga oshiq bo'lgan qirol unga uylanibdi.

Sim Chong hech ham ojiz otasini o'ylamay turolmabdi. Uning g'amginligini ko'rgan qirol undan nima bo'lganini so'rabdi. Sim Chong boshidan kechirgan voqealarni aytib beribdi. Shunda qirol vazirlarga ko'zi ojizlar uchun ziyofat berayotgani haqida e'lon qilishni buyuribdi.

E'lonni eshitgan Sim Pongsa ham u yerga borishga qaror qilibdi. Bunga Pengdok omom ham qo'shilibdi. Qorinni bir to'ydirib kelish maqsadida yo'lga tushibdilar. Yo'lda Xvang Pongsa degan kishi uchrab, Pengdok omomni yo'ldan uribdi. Pengdok omom bu ko'rdan ko'ra rohat-farog'atda yashaganim afzal, deya qochib ketibdi.

Asta-sekin emaklab yurib, Sim Pongsa ham qirol qarorgohiga yetib kelibdi. Uni ko'rgan kanizaklar malika Sim Chongning oldiga olib borishibdi. Sim Pongsa rosa o'zgarib, munkayib qolganligi sababli malika uni taniy olmabdi.

«Oilangiz bormi?»

«Bir necha yil avval xotinim bir qizni dunyoga keltirib, o'zi vafot etgan. Shuning uchun men bir ko'r, farzandim bilan zo'rg'a

kun kechirganman. Kunlardan bir kum ko'zim ochilishi uchun 300 qop guruchni qurbonlik qilish kerak deb aytishsa, qizim guldek 15 yoshida o'zini dengizga tashlanishiga rozi bo'lib, o'sha yerda o'lib ketdi».

Sim Pongsa ko'z yoshlarini yashirolmay yig'lab yubordi. Shu zahoti Sim Chong uning oldiga yugurib kelib qo'llaridan tutdi:

«Otajon, men osha dengizga o'zini tashlab o'lgan Sim Chongman».

«Nima, nima deding? Qani bir ko'ray, bolam!»

Shunda to'satdan mo'jiza yuz berib, Sim Pongsaning ko'z o'ngi yorug'lashdi va u yorug' dunyoni ko'rishga muyassar bo'ldi.

Qirolning buyrug'i bilan Sim Pongsaga shohona liboslar kiydirilib, oliy mansablardan biri topshirildi. Shunday qilib, malika bilan otasi birgalikda uzoq vaqtlar baxtli hayot kechirdilar.

CHXO'NG CHI VA PXAT CHI HAQIDA HIKOYA

Qadim-qadim zamonda, Cholla viloyatidagi Chonju tumanida Che Man Chun ismli bir odam yashagan ekan. U bir qancha vaqt avval amaldorlik vazifasidan iste'foga chiqqan bo'lib, xotini Cho' xonim bilan birga hayot kechirar ekan. Hanuzgacha ularning farzandlari bo'lmay, er-xotin erta-yu kech faqat shu haqida qayg'urar ekan.

Er-xotin farzandli bo'lish umidida qilmagan amallari, bormagan joylari qolmabdi. Har kuni ibodat qilib, xudodan ularga farzand ato etishini iltijo qilib so'rashar, nochor odamlarga yaxshilik qilishar ekan. Shunday kunlarning birida ularning oh-u zorlari xudoga yetib borib, Cho' xonim boshi qorong'u bo'libdi. Oradan o'n oy o'tgach, ular qiz farzand ko'rishibdi va Kxo'ng Chi deb ism qo'yishibdi. Uzoq vaqt orziqib kutilgan farzand dunyoga kelgach, xursandchilikdan o'zini qo'yarga joy topolmagan janob Che va Cho' xonim qizlarini yer-u ko'kka ishonmay o'stirishibdi. Lekin bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmabdi. Cho' xonim to'satdan og'ir kasallikka chalinib, Kxo'ng Chi yuz kunlik bo'lganida yorug' olamni tark etibdi.

Xotini vafot etib, yolg'iz qolgan janob Che go'dak farzandi bilan ming azobda uqubatli kun kechira boshlabdi. Oradan oylar, oylarning ortidan yillar o'tibdi. Kxo'ng Chi ham ulg'ayib, o'n to'rtga to'libdi. Oradan ko'p o'tmay Janob Che Pe xonim degan beva ayol bilan turmush quribdi. Shu vaqtdan boshlab butun oila xo'jaligi Pe xonimning qo'liga o'tibdi.

Pe xoninning oldingi turmushidan bir qizi bo'lib, uning ismi Pxat Chi ekan. Pe xonim mug'ombirlik va hasadgo'ylikda tengi yo'q bo'lib, qizi Pxat Chi ham o'ta badbashara va hasadgo'y ekan. Pxat Chi sal narsaga yig'lar, Pe xonim esa Kxo'ng Chini bunda ayblab, unga kun bermas ekan. Afsuski, bunday paytda janob Che ham negadir Pe xonimning gapidan chiqa olmas, hatto u ham o'z jigarbandi Kxo'ng Chini qattiq tergar ekan.

Bir kuni Pe xonim ikki qizini yoniga chaqirib, shunday debdi:

— Bugun ikkingiz ham tomorqaga chiqib, yovvoyi o'tlarni yulinglar.

Shunday qilib, Pe xonim qizi Pxat Chiga temir teshani berib, uylari yaqinidagi tuproqli tomorqani yovvoyi o'tlardan tozalashni buyuribdi. O'gay qizi Kxo'ng Chiga esa yog'ochdan yasalgan teshani berib, tog' etagida joylashgan shag'alli tomorqani tozalashni buyuribdi.

Kxo'ng Chi bitta jo'yakni tozalab ham ulgurmay, yog'ochli tesha sinib ketibdi.

— Voy, xudo! Endi nima qilaman?!

Kxo'ng Chi o'gay onasi uni qattiq jazolashidan qo'rqib, dir-dir titrabdi. O'gay onasi ishlashni xohiamagani uchun uni teshani ataylab sindirganlikda ayblab, kechki ovqatni bermay och qoldirishi munikin edi. Kxo'ng Chi shunday qo'rquv bilan yig'lab o'tirganida qayerdandir bir qora sigir paydo bo'lib, undan so'rabdi:

— Ey qizaloq! Ne sababdan bunchalik zor-zor yig'layapsan?

Kxo'ng Chi bor gapni sigirga so'zlab beribdi.

— Ha, shunday degin. Unday bo'lsa anavi ariqning tugash joyiga borib oyog'ingni, o'rtasiga borib qo'lingni, ariqning boshlanish joyiga borib esa yuzingni yuvib kel.

Kxo'ng Chi sigir aytganidek yuz-qo'llarini yuvib, ancha vaqtdan so'ng qaytib kelibdi. Shunda qora sigir unga mustahkam

tesha beribdi va turli xil mevalarni etagiga solib beribdi-yu, tutun singari ko'zdan g'oyib bo'libdi. Kxo'ng Chi sigir bergan mevalarni ota-onasi va singlisi bilan uyda hammalari birgalikda baham ko'rish niyatida bir donasini ham og'ziga olmabdi. Kxo'ng Chi kech tushgunga qadar bir nechta jo'yakni yovvoyi o'tlardan tozalab bo'lib uyga qaytibdi. Uyiga kelsa otasi, o'gay onasi va singlisi allaqachon kechki ovqatni yeb bo'lishgan ekan. Kxo'ng Chi das-turxon ustiga olib kelgan mevalarini qo'yishi bilan o'gay onasi g'azab bilan baqira ketibdi:

— Yaramas Kxo'ng Chi! Ishingni tez-tez bajargach, uyga erta qaytib, kechki ovqatni pishirib, boshqa uy yumushlarini qilsang bo'lmasmidi?! Shu paytgacha nima qilding? Manavi mevalarni qayerdan olding? Qiz bola boshing bilan o'tkinchilardan tilanib oldingmi? Hoy qizim Pxat Chi! Otangning ko'zi tush-masidan avval mana bu mevalarni darhol yeb qo'y. Otang bilib qolsa, opangning holiga voy bo'ladi. Baribir opang tomorqada to'yib yegan, sen ham tezroq yeb ol.

O'sha kuni bechora Kxo'ng Chi ovqatsiz qolib, tunni yig'lab o'tkazibdi. Shu kundan boshlab o'gay onaning uni tergashlari yanada ko'payibdi. Bir kuni o'gay ona Kxo'ng Chiga shunday buyruq beribdi:

— Bugun oshxonada turgan bo'sh ko'zaga suv tashib to'ldir.

Kxo'ng Chi o'gay onasi buyurganidek ko'zani suvga to'ldira boshlabdi. Lekin harchand urinmasin ko'za negadir suvga to'la qolmabdi.

— Voy, bu nimasi bo'ldi?

Kxo'ng Chi yana chelakni olib suv keltiray deb turganida hovlining bir burchagidan bir baqa paydo bo'lib, Kxo'ng Chiga qarab gap boshlabdi:

— Kxo'ng Chi! Sen harchand suv solganing bilan bu ko'za to'lmaydi. Chunki uning tagi teshik, shuning uchun suv oqib ketyapti. Lekin men senga yordam berishim inumkin. Ko'zani pastga og'dirsang, men uning ichiga kirib teshigini yopib turaman.

Bu gapdan xursand bo'lib ketgan Kxo'ng Chi ko'zani pastga og'dirib, baqani uning ichiga kiritib qo'yibdi. Shundan keyingina

ko'zadagi suv qilt ham etmadi. Kxo'ng Chi ko'zani to'ldirib bo'lgach, onasiga debdi:

— Oyi, ko'zani suvga to'ldirib qo'ydim.

Uning bu gapini eshitgan Pe xonim shubhali xayolga boribdi:

— Bu yashshamagur, oldingi safar qayerdandir meva olib kelgan edi. Bugun bo'lsa tagi teshik ko'zani suvga to'ldiribdi. Buni tezroq bir yoqli qilmasam bo'lmaydi.

Oradan bir necha kun o'tgach, Kxo'ng Chining bobosi ularni uyida bo'ladigan ziyofatga taklif qilibdi. Pe xonim Pxat Chi bilan birga uydan chiqib keta turib, Kxo'ng Chiga buyuribdi:

— Kxo'ng Chi! Biz tezda borib kelamiz. Sen uyni qo'riqlab o'tir. Mabodo sen ham borishni istasang, avval anavi yerda turgan bir o'ram ipdan mato to'qib, 3 qop sholini po'stidan tozalab bo'lgach, borgan.

Pe xonim shunday deb ipakdan tikilgan ko'ylagini va charmdan tayyorlangan poyafzalini kiyib, Pxat Chini yetaklab chiqib ketibdi. Kxo'ng Chi yolg'iz yig'lab qolaveribdi. So'ngra hovliga 3 qop sholini yoyib qo'yib, tikuv dastgohiga o'tirib, mato to'qishga kirishibdi. Lekin qanday qilib bugunning o'zida bir o'ram ipdan mato to'qish-u, 3 qop sholini po'stidan tozalab ulgurish mumkin?!

— Ey, xudo! Shuncha ishni qachon tugataman?

Kxo'ng Chi marhum onasini eslab, g'am daryosiga cho'kibdi. O'sha payt to'satdan qayerdandir paydo bo'lgan ipak ko'ylakli go'zal bir pari o'zidan gullar iforini taratib Kxo'ng Chining yoniga kelib, shunday debdi:

— Xonim! Matoni men o'zim to'qib qo'yaman, siz ziyofatga borib vaqtingizni chog' o'tkazib keling.

Kxo'ng Chi dastgohdan tushishi bilanoq pari qiz ko'z ochib yumguncha matoni to'qib qo'yibdi. Va shunday debdi:

— Bekam, tez orada barcha azoblaringiz tugaydi. Sizni kelajakda yorug' va baxtli hayot kutib turibdi. Faqat yana ozgina sabr qilsangiz bas. Endi bo'lsa, tezroq ziyofatga bora qoling.

Pari qiz Kxo'ng Chiga shoyi ro'molga o'ralgan yangi ipak ko'ylak, soch uchun bog'lam va ipakdan tayyorlangan yangi poyafzal berib, shunday debdi:

— Men Osmon hukmdori O'k Hvangning ruxsati bilan bu yerga keldim, endi esa tezroq ketishim kerak.

Pari qiz shunday deb osmonga uchib ketibdi. Bir muddat hushini yo'qotib qo'ygan Kxo'ng Chi tezda o'ziga kelib uy tomonga yugurib ketibdi. Shu payt Kxo'ng Chi biroz oldin hovliga yoyib qo'ygan sholisini bir chumchuq cho'qiyotganini ko'rib qolibdi. Odam qadami tovushini eshitgan chumchuq «pir» etib uchib ketibdi. Kxo'ng Chi sekin borib qarasa, chumchuq hamma sholining po'chog'ini ajratib, uni tozalab qo'ygan ekan.

— Chumchuqjon! Senga katta rahmat.

Kxo'ng Chi chumchuqning yordamidan juda ham xursand bo'libdi va yasanib ziyofatga yo'l olibdi. Yarim yo'lga yetganda ariq bo'yida o'tirib, undagi baliqlarning suzishini tomosha qilish bilan birga biroz dam olibdi. Shu mahal kimningdir orqadan baqirgan tovushi eshutilibdi:

— Hoy! Yo'ldan qoch!

Kxo'ng Chi orqasiga o'girilib qarasa, lavozimiga yangi tayinlangan qishloq oqsoqoli kelayotgan ekan. Shoshib qolgan Kxo'ng Chi ariqdan o'taman deb bir poy poyafzalini suvga tushirib yuboribdi. Qattiq qo'rqib ketgan Kxo'ng Chi poyafzalini suvdan olishni xayoliga ham keltirmay, bir poy poyafzalda ziyofatga yugurib ketibdi.

Oqsoqol ariqdan o'tayotganda suvda yaltirayotgan bir narsaga ko'zi tushibdi. Xizmatkoriga suvda yaltirayotgan g'aroyib narsani keltirishini buyuribdi. Xizmatkor suvdan bir poy ipak poyafzalni olib chiqibdi. Oqsoqol qishloq boshqarmasiga borishi bilan xizmatkoriga bir poy ipak poyafzalning egasini topishini buyuribdi.

Kxo'ng Chi bobosining uyiga borib tog'asi va kelinoyisiga ta'zim bajo keltiribdi. Kxo'ng Chining kelolmasligi haqidagi xabarni eshitib, ko'ngli ma'yus tortgan tog'asi uni ko'rishi bilanoq o'zida yo'q xursand bo'libdi. O'gay ona esa hovlining bir burchagida Kxo'ng Chini tergov qilishni boshiabdi:

— Hoy Kxo'ng Chi! Matolarni to'qib qo'ydingmi? Sholini-chi? Sholini ham tozalab qo'ydingmi? Ustingdagi kiyimni qayerdan o'g'irlading?

Shu payt tashqaridan ovoz eshutilibdi:

— Hoy odamlar! Yaqin orada bir ayol ipak poyafzalini yo‘qotib qo‘yibdi. Shunday ayol bo‘lsa kelib, uni kiyib ko‘rib olib ketsin!

Xizmatkor ziyofatga kelgan mehmonlarning har biriga poyafzalni kiydirib ko‘ribdi. Shunda Pe xonim o‘rtaga chiqib shunday debdi:

— Janob! Bu poyafzalning egasi menman. Tezroq uni menga bering.

Xizmatkor biroz ikkilanib turib, Pe xonimga poyafzalni kiydirib ko‘ribdi. Ammo Pe xonimning oyog‘ining yarmi ham poyafzalga kirmabdi. Xizmatkor Pe xonimning bu qilmishini qattiq qoralabdi. Yana boshqalarga navbatma-navbat kiydirib ko‘ribdi. Biroq uning egasi chiqmabdi. Xizmatkor ziyofat bo‘layotgan xonadonni tark etmoqchi bo‘lib turganida, bir kekxa ayol uning yoniga borib shunday debdi:

— Bu bir poy poyafzalning egasini nega izlayotganingizni bilmadim-u, lekin Kxo‘ng Chi degan qiz bir poy poyafzalini yo‘qotib qo‘yibdi. Ammo uyalganidan sizning yoningizga kelolmayapti. Bu poyafzalning egasi Kxo‘ng Chi bo‘lishi mumkin.

Bu gapni eshitgan xizmatkor darhol Kxo‘ng Chiga qo‘lidagi poyafzalni kiydirib ko‘ribdi. Kxo‘ng Chi bir oz uyalib oyog‘iga poyafzalni kiygan ekan hamki, poyafzal xuddi uning uchun tikilgandek ayni mos kelibdi. Xizmatkor Kxo‘ng Chidan tashqarida turgan taxti ravonga o‘tirib, u bilan birga qishloq boshqarmasiga borishini iltimos qilibdi. Lekin Kxo‘ng Chi qiz bola boshi bilan yolg‘iz borishga ko‘nmay, tog‘asi bilan borishini aytibdi. Kxo‘ng Chi o‘tirgan taxtiravon qishloq boshqarmasiga yetib borgach, buni ko‘rgan oqsoqol hayron bo‘lib qolibdi. Ariq suvida qalqib turgan poyafzaldan g‘aroyib nur taralayotganida oqsoqol bu kimning poyafzali ekan, degan o‘yga tolgan ekan. Poyafzalning egasi yoshgina qiz ekanligi uni hayron qoldiribdi.

Oqsoqol Kxo‘ng Chidan nega poyafzaldan g‘aroyib nur taralayotganini so‘rabdi. Kxo‘ng Chi oqsoqolga bo‘lib o‘tgan hamma voqeani so‘zlab beribdi. Kxo‘ng Chining so‘zlaridan hayratga tushgan oqsoqol uning go‘zalligi va oqilaligidan lol qolibdi. So‘ngra oqsoqol Kxo‘ng Chidan unga turmushga

chiqishini so'rabdi. Kxo'ng Chi uning bu taklifiga rozilik beribdi. Pe xonim Kxo'ng Chining baxtini ko'rolmay, ich-etini yebdi:

— Yaramas Kxo'ng Chi! Sen hozir yalt-yult kiyimlarni kiyib, qimmatbaho taqinchoqlarni taqib yuribsan. Lekin shoshmay tur! Men seni baribir tinch qo'ymayman.

Shunday kunlarning birida Pxat Chi Kxo'ng Chining uyiga mehmon bo'lib boribdi. O'sha mahal oqsoqol qishloq bosh-qarmasiga chiqib ketgan, Kxo'ng Chi esa qimmatbaho liboslarni kiyib olganicha, ayvonda o'tirib, nilufar gullarni tomosha qilayotgan ekan. Pxat Chi Kxo'ng Chini ko'rishi bilan ko'nglidagi hasadini sezdirmaslikka harakat qilib, kulib gap boshlabdi:

— Voy opajon! Meni ko'rishni xohlamagan bo'lsangiz ham sizni sog'inib uyingizga keldim. Keling, shu paytgacha oramizda bo'lib o'tgan dilxiraliklarni unutib, haqiqiy opa-singillardek yashaylik.

Kxo'ng Chi chehrasida tabassum bilan Pxat Chini iliq kutib olibdi, dasturxon tuzab, singlisini mehmon qilibdi. Ammo Pxat Chi ko'nglining tubidagi hasadidan o'zini qo'yarga joy topolmabdi:

— Nima qilsam bu Kxo'ng Chini yo'q qilishim mumkin ekan?

Pxat Chi opasiga hovlidan oqib o'tadigan ariqda birga cho'milishni taklif qilibdi. Kxo'ng Chi Pxat Chining taklifiga rozi bo'libdi.

Hammasi o'sha paytda boshlanibdi.

Pxat Chi opasi Kxo'ng Chini ariqning chuqur joyiga tortib olib boribdi. Ko'z ochib yumguncha Kxo'ng Chi suvga cho'ka boshlabdi. Bundan ko'ngli taskin topgan Pxat Chi shunday debdi:

— Ish bunchalik oson bitishini bilmagan edim.

Pxat Chi darhol suvdan chiqib, Kxo'ng Chining kiyimlarini kiyib olib, nilufar gullarni tomosha qilish uchun ayvonga chiqib o'tiribdi.

Biroz o'tgach, oqsoqol boshqarmadan uyga qaytibdi. Pxat Chi uni ko'rishi bilanoq ayvondan yugurib tushib, kutib olgani oshiqibdi.

— Xo'sh, xonim, bugun nilufarlarni tomosha qildingmi?

Oqsoqol tabassum bilan xotiniga qarab soʻz qotibdi. Lekin u xotiniga tikilib qarasa, yuzlari qoraygan va yuzining har yer-har yerida botiq chandiqlar bor emish.

— Shoshma, yuzingga nima boʻldi?,— hayratdan yoqa ushlabdi oqsoqol.

— Xojam, kun boʻyi ayvonda oʻtirib sizni kelishingizni kutdim. Quyoshning kuchli nurlaridan yuz terim biroz qoraygan koʻrinadi. Sizning kirib kelganingizni koʻrib behad boshim koʻkka yetganidan qoshingizga yugurib keta turib, qoqilib yiqilib tushdim. Shundan yuzimda chandiqlik paydo boʻldi.

Oqsoqol Pxat Chining soʻzlariga ishonibdi. Oradan bir necha kun oʻtibdi. Bir kuni oqsoqol uyga har doimgidan erta qaytibdi. Va biroz hordiq chiqarish maqsadida nilufarlar ochilgan ariq boʻylab sayr qilishni ixtiyor etibdi. Shu mahal oqsoqolning koʻzi ilgari hech koʻrmagan goʻzal nilufar guliga tushibdi.

— Oh! Bunchalar goʻzal boʻlmasa, bu gul!

Goʻzal nilufarga mahliyo boʻlgan oqsoqol xizmatkoriga uni uzdirib, yotoqxona eshigi oldidagi guldonga solib qoʻyishini buyuribdi. Oqsoqol har safar xonaga kirib chiqqanida nilufar gulga nazar tashlar ekan. Pxat Chi oqsoqol suyub termuladigan bu gulga ham hasadi kelibdi, ham oqsoqolning bu harakatini tushuna olmabdi. Bir kuni oqsoqol uydan chiqib ketganida nilufar gulga diqqat bilan termulibdi:

— Bu qanday gul boʻldi ekan?

Shunday kunlarning birida Pxat Chi xonasidan tashqariga chiqayotganida nilufar gulning ichidan odam qoʻllari koʻrinib, uning sochlarini tortishga intilayotgandek tuyulibdi.

— Ha, bildim! Bu gulga Kxoʻng Chining ruhi oʻrnashib olgan, deb oʻylabdi Pxat Chi.

Soʻngra darhol gulni guldondan olib, olov yonib turgan oʻchoqqa tashlab yuboribdi. Shundan soʻng Pxat Chi oʻzini yengil his qilib, Kxoʻng Chining qimmatbaho liboslarini kiyib, uning rolini oʻynashni davom ettiribdi. Shu payt qoʻshni kampir oqsoqolning oʻchogʻidan choʻgʻ olish maqsadida uning hovlisiga kirib kelibdi. Lekin kampir oʻchoqqa borib qarasa, choʻgʻdan asar ham yoʻq, uning oʻrniga marvaridlar turgan ekan. Kampir

kimdir ko'rib qolishidan cho'chib, tezda marvaridlarni ko'ylagining etagiga solibdi-da, uyiga shoshib chiqib ketibdi. Kampir xonaga kirib marvaridlarni sandiqning ichiga berkitib qo'yibdi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, sandiq ichidan ayol kishining tovushi eshitila boshlabdi:

— Buvi, buvijon!

To'satdan eshitilgan bu ovozdan qo'rqib ketgan kampir asta borib, sandiqni ochibdi. Qarasa, sandiqning ichida oqsoqolning xotini Kxo'ng Chi o'tirgan emish. Kxo'ng Chi kampirga o'zining o'limi tafsilotlarini batafsil so'zlab beribdi va bir hiylani birgalikda amalga oshirishni iltimos qilibdi.

Ertasi kuni qo'shni kampir oqsoqolni uyiga ziyofatga taklif qilibdi. Oqsoqol ziyofatda taomlardan tanavvul qilish uchun cho'pchalarni qo'liga olibdi. Lekin ularning biri kalta, biri uzunligidan qo'lda ushlash noqulay bo'libdi. Ziyofatga birga kelgan oqsoqol yordamchisi bu holdan g'azablanibdi:

— Bu qanaqasi bo'ldi? Mehmonlarga shunchalik ham e'tiborsiz bo'ladimi?!

Kampir og'iz juftlab ulgurmay, kutilmaganda ichkaridan shunday gaplar yangrabdi:

— Cho'plarning ikki xilligini darhol sezgan oqsoqol nahotki xotini boshqa ekanligini sezmayapti?!

— Bu nima deganing?

Oqsoqol o'tgan vaqt mobaynida xotinining xatti-harakatlari o'zgarib qolganligini o'ylab, uyiga qaytish uchun chog'lanibdi. Shu mahal uyning ichidan ipak ko'ylak kiygan go'zal ayol chiqib, oqsoqolga ta'zim bajo keltirib, so'z qotibdi:

— Janob! Meni taniyapsizmi?

— Ey xudo! Kxo'ng Chi! Bu qanaqasi bo'ldi?

— Men singlimning hiylasi sababli nilufar gullar ochilgan ariqqa cho'kib, ruhga aylandim. Mayli, mening taqdirimda shular bor ekan. Siz singlim bilan bir unmr baxtli yashang.

Bu gaplarni eshitgan oqsoqol hushi o'zida bo'lmay uyiga qaytib kelibdi va Pxat Chini so'roq qilibdi. Pxat Chi opasining gaplari rostligini tan olibdi. Oqsoqol odamlarni chaqirib, ariqning suvini to'xtattirib qo'yibdi. Shunda ariqning tubida Kxo'ng Chining

jasadi xuddi uyquga ketgandek yotgan ekan. Odamlar jasadni ariqdan chiqarib dafn etmoqchi bo'lishibdi. Shu payt jasadga jon bitib, nafas ola boshlabdi. Ayni o'sha payt qo'shni kampirnikida o'tirgan Kxo'ng Chining ruhi ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Shundan so'ng oqsoqol Pxat Chi va uning onasiga og'ir jazo beribdi. Va Kxo'ng Chi bilan birga uzoq vaqt baxtli hayot kechirib, uch o'g'il va bir qizli bo'lib, ularni birgalikda tarbiyalashibdi.

XO SENG QISSASI

Juda qadim zamonda Namsan tog'ining tagidagi Mukchokdong degan joyda Xo Seng nomli odam yashagan ekan. U juda kambag'al bo'lib, rafiqasi tikuv ishiari orqaligina tirikchilik qilishar, judayam qashshoq holda yashashar edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Xo Seng faqat kitob o'qishni yaxshi ko'rar, kechasi-yu kunduzi faqat kitob o'qir edi.

Kunlardan bir kun ochlik, yetishmovchilik joniga tekkan Xo Sengning rafiqasi baland ovoz bilan dedi:

«Buncha ko'p kitob o'qishingni nima foydasi bor bizga? Undan ko'ra, biror narsa tayyorlaydigan ish yoki savdo qilganing foydali emasmi?»

Shu payt Xo Seng hoholab kulib dedi:

«O'o', biror narsa yasashni o'rganmasdan, hisobingda bir tiyinsiz savdoni qanday amalga oshirish mumkin axir».

Rafiqasi to'satdan g'azabi chiqib, o'qrayib qarab dedi:

«Kechasi-yu kunduzi tinmay kitob o'qishdan nima foyda topish mumkin!»

Shu payt Xo Seng kitobni berkitib, o'rnidan turib uzun gavjum Unjong ko'chasi bo'ylab borayotib odamlardan Xanyang (Seul)dagi eng badavlat odam kimligini so'rab, janob Pyonni qidirib bordi.

«Men juda ham qashshoqligim sababli nima ish bo'lsa ham qilishni istayman, menga faqatgina o'n ming von qarzga berolmasizmi?».

Janob Pyon hech bir so'zsiz unga o'n ming von berdi.

Xo Seng hech qanday rahmat ham aytmay jo'nab ketdi.

Janob Pyonning o'g'illari, uydagi boshqa odamlar o'zini bechoradek ko'rsatgan Xo Sengni ko'rib hayratlandilar. Beldagi kamari tushgan, eskirgan charm kiyimi ham tovonigacha yirtilgan, o'z shaklini yo'qotgan holdagi kiyimlari barchani lol qoldirdi.

Xo Seng kirib kelgandan so'ng barcha odamlar alanglab qoldi.

«Bu odamni bilasizlarmi?»

«Qarang-a, qayerda yashashini, kimligini bilmay turib, bu odamga o'n ming von berib yubordingiz-a?»

«Odatda biror kimsaga nimanidur qarzga berayotgan paytda albatta o'zining uzundan uzun iltimosi bo'lishi tabiiy. Biroq, bu odamning faqatgina qashshoqman deganiga berganimning sababi uning soddaligi, ko'zlarida manmanlik, kibr yo'qligidir. Unda mol-mulk bo'lmasa ham, hech qachon oddiyligini yo'qotmay, biror bir kichik ish bo'lsa ham qilaveradi, rad etmaydi. Shuningdek, bu odamni bir sinab ko'rish ko'nglimga keldi».

Xo Seng uy tomon kirib borar ekan, to'xtab turib nimanidur chuqur o'ylaydi.

«Aslida, Ansong Kyongido va Chungchondoning ajralgan qismi bo'lib, Chungchondo bilan Challado hamda Kyongsandoni barbod qilishni istaganlarga kirish qismidir»

Xo Seng qadam bosib, to'ppa-to'g'ri Ansong tomon boradi. Hamda ishchilarni himoya qilib, kashtan, xurmo, nok, anor, mandarin kabi mevalarni bozor narxida baholab, hammasini sotib oladi.

«Iya, meva narxi nima uchun bunchalik ko'tarilgan?»

Xo Seng mevalarni hammasini qo'lga kiritgandi, xalq endi ziyofat va marosimlarni nishonlay olmay qoladi. Biroq Xo Sengga ikkita nokning narxiga to'g'ri keladigan darajada mevalarni sotgan do'kondor bu safar o'nta nokning narxida sotib olishdan boshqa iloji yo'q edi.

Xo Seng chuqur nafas olib, dedi:

«Atigi o'n ming von orqali bu davlatning bozorini silkitgan edim, davlatning asl holatini bilib oldim».

Xo Seng mevalarni sotgan puliga bug'doy, paxta, ipak kabilarni sotib olib, olisdagi Chejudo tomon jo'nab ketdi. Sotilayotgan

manggon (koreys milliy bosh kiyimi)ni tayyorlash paytida kerak bo'ladigan otning dumini ham sotib oldi.

«Oradan bir necha o'tgach davlatdagi ichki nizolar ham to'xtay boshladi».

Xosengning taxminiga ko'ra bir necha kundan so'ng manggonning narxi o'n barobar oshib ketdi.

Bir kuni Xo Seng dengizchidan so'radi:

«Bu atrofda odamlar yashaydigan orol yo'qmikin?»

«Men kunlardan bir kuni kuchli shamollarga duch kelib, g'arb tomon yurib uch kun bir orolda kun o'tkazdim. Gul va daraxtlar ko'p bu joyda hattoki turli xil meva va sabzavotlar ham mustaqil ravishda o'sar edi. Kiyiklar yugurib yurar, baliqlar suvda suzar edi. Ular odamni ko'rib hech qanday hayratga tushmadilar».

Xo Seng dengizchilarga bor ovozi bilan dedi:

«Meni qayig'ingizda orolning narigi tomoniga olib o'tib qo'ying».

Dengizchilar eshkak yordamida orolga yetib bordilar.

O'sha paytda Pyon tog'ining atrofida qaroqchilarning bir guruhi gavjum edi. Ular davlatni to'liq idora etolmas edilar. Biroq, dengizchilar paydo bo'lib, talon-taroj qilib, ochlikda qolgandilar.

Xo Seng qaroqchilarning boshlig'ini qidirib so'radi:

«Ming kishi ming vonni o'g'irlashsa, bir odamga qanchadan tegadi shunda?»

«Bir odamga bir vondan to'g'ri keladi»

«Unday bo'lsa, rafiqangiz bormi?»

«Yo'q»

«Yering bormi?»

«Ey, inson, yer bo'lsa, rafika bo'lsa, qanday qilib o'g'irlik qilish mumkin?»

«Unday bo'lsa, nima uchun oila qurib, sigir sotib olib, yer haydab hosil yig'ib, oila bilan yashamaysan?»

«Ha-ha-ha, kim ham xohlamaydi bunday yashashni? Shunchaki pul yo'qligi asosiy muammo».

«Talonchilik qila turib nima uchun pul yo'q deysiz. Ertaga dengizda men bilan shamol orqali hilpiragan bayrog'i bor kema

kelishiga qarang. O'sha kemada to'la pul bor, xohlaganingizcha oling».

Xo Seng gapini tugatgach, qaroqchilar hayratdan kulishdi. Biroq, ertasi kuni ertalab, dengizga chiqqan qaroqchilar ko'zlari katta ochilib ketdi. Chunki, Xo Seng o'z va'dasida turib, haqiqatan ham kemaga o'ttiz ming von ortgan edi. Barcha qaroqchilar hayratlanib, hammasi Xo Sengga ta'zim qildilar.

Shu payt Xo Seng baland ovozda dedi:

«Men bu yerda sizlarni kutganimning sababi, har biringiz alohida yuz vondan olib, oila quring, sigir sotib oling va yaxshi hayot kechiring».

Xo Seng barcha qaroqchilarni yig'ib, orolga olib borib, bundan keym talon-torojlik qilmasligini ta'kidladi.

Ular orolga yetib kelganlaridan so'ng, daraxtlarni kesib, uy qur-dilar, yer maydonlariga ekin ekib, oziq-ovqat yetishtira boshladilar.

Yig'im-terim tugagach, uch yilgacha yetadigan darajada g'amlab qo'yishadi, qolgan qismini esa, yaqinidagi Changgido nomli orolda yashovchi och odamlarga berib, ularni o'limdan asrab qolishadi.

Bir kuni Xo Seng oroldagi barcha ayol va erkaklarni to'plab, baland ovozda dedi:

«Men avvaliga sizlar bilan bu orolga kelganimda dastavval sizlarni boy qilish, so'ng xat-savodingizni chiqarish hamda yaxshi kiyimlarning yangi turini yaratishni niyat qilgandim. Biroq, maydon yetishmasligi hamda axloqiy tarbiyaning kamligi sababli men bu orolni tark etmoqchiman. Ammo, sizlar farzandli bo'linglar va tug'ilgan farzandingizga sucho («koreys milliy qoshig'i») orqali ovqatlanishni va uni o'ng qo'lda ushlashni o'rgatishdan boshlang».

Xo Seng shuningdek, oroldagi barcha qayiqlarni yoqib tashladi va dedi:

«Qayig'ingiz bo'lmasa, bu yerga keluvchi odam ham bo'l-maydi».

Xo Seng shuningdek, ellik ming von kumushni ko'lmak ichiga tashlab yubordi va dedi:

«Yuz ming von bir davlat uchun katta pul bo'lsa, bu tor orolga esa gapirmasa ham bo'ladi!»

Xo Seng yana harf biladigan odamlarni qayiqqa o'tkazib, jo'nab ketayotib dedi:

«Bu orolda yashashga endi hech qanday asos qolmadi».

O'sha paytdan boshlab Xo Seng barcha davlatlardagi och, kambag'al, yordamga muhtojlarga yordam qo'lini cho'zdi. Shu bois ham uning atigi o'n ming kumush vom qolgandi.

Xo Seng janob Pyonni qidirib topib, unga o'n ming vonni berayotib, dedi:

«Avvaliga men och, kambag'al insonlarga yordam berib, qolgan pulim atigi o'n ming vonni senga berishim juda uyatli bo'ldi».

Pyon hayratlanib, Xo Sengga ta'zim qilaturib dedi:

«Siz nima uchun meni sotuvchidek hisoblaysiz!»

Xo Seng to'satdan g'azabi chiqib, kiyimlari silkinib chiqib ketdi.

Pyon sezdirmay uning orqasidan bordi, Xo Seng Namsan tog'ining tagidagi eski vayrona uy tomon kirib ketdi.

Pyon o'sha vaqt ko'lmakda kir yuvib o'tirgan bir qariyadan so'radi:

«Anavi kichik vayrona uy kimning uyi?»

«Xo Sengning uyi. U juda kambag'al bo'lishiga qaramasdan, o'qishni juda yaxshi ko'radigan odam bo'lib, kunlardan bir kun uyidan chiqib ketib, mana besh yildirki qaytmadi. Hozirda yolg'iz yashayotgan rafiqasi u chiqib ketgan kuni unga atab qurbonlik ham qildi».

Keyingi kuni Pyon Xo Sengni qidirib, olgan o'n ming vonini hammasini qaytarib bermoqchi bo'ladi, biroq Xo Seng qattiq qarshilik ko'rsatadi.

«Men badavlat bo'lmoqchi bo'lganimda yuz ming vonni tashlab o'n ming vonni olib qolarmidim? Rostdan ham shunday bo'lganida, uyimning ahvoli, faqat tanamni yopib turish uchungina kiygan kiyimlarim bunday bo'lmasdi».

Pyon o'sha paytdan boshlab Xo Sengning xo'jalik ishlariga yordam qo'lini cho'za boshladi.

Xo Sengning holati achinarli bo'lsa-da, aroq olib borgan Pyonga qarshilik qilmadi va ular mast holatgacha ichishdi. Ancha yildan beri ko'rishmagan Xo Seng va Pyonning do'stligi yanada ortdi.

Kunlardan bir kun Pyon asta so'radi:

«Siz bilan besh yil orasida yuz ming von bo'lgani, ya'ni siz pul ishlab topganingiz bilan bog'liq, shunday emasmi?»

Xo Seng javob berdi:

«O'ylab ko'rsam, bu oson ish ekan. Chosondan kemada boshqa mamlakatga emas, oddiy aravada har bir kichik tumanlarga qatnash degan gap. Ya'ni, barcha xomashyolarni shu yerning o'zida ishlab chiqarib, shu yernig o'zida iste'mol qilinishi deganidir. Umuman olganda, ming von kichkina pul bo'lsa, bitta mahsulotga ega bo'lolmaydi. Biroq, ming vonni o'nga bo'lsa, yuz vondan o'n dona sotib olsa bo'ladi. Bir dona mahsulotning bozor narxi yaxshi bo'lmasa ham, qolgan to'qqiz narsaning bahosi albatta yaxshi bo'ladi. Lekin, bu narsani kichik Tovar egalari qila oladi. Bu safar esa, o'n ming vonga egaman. O'n ming vonga mahsulotning hammasini sotib ololaman. Aravaga yoki kemaga yuklangan barcha mahsulotni sotib, bir qishloqqa yetkazsa bo'ladi. Ammo, bu narsa aholidan o'g'irlash bilan bir xil, ya'ni bir amaldor bunday ishni amalga oshirsa, o'sha davlat gullab-yashnaydi».

Pyon hayratlanib yana so'radi:

— «Avvaliga siz meni qanday qilib o'n ming vonni shundayligicha beradi deb o'yladingiz?»

— «Mening mustaqil va talantli ekanligim yetarli darajada bo'lgani uchun yuz ming vonni topa olaman deb o'yladim, taqdirim shunday bo'lishi va siz pul berishingizni bilarmidim? Biroq, menga ishongan odam baxtli odam va katta boylik egasi bo'ladi-yu, menga pul bermaydimi? Shuningdek, o'n ming vonni yo'qotgandan keyin bu boylikka faqat erishish emas, qilinaotgan har bir ishingiz muvaffaqiyatli bo'lishi kerak».

Pyon yana so'radi:

— «Hozirda dvoryanlar Koreyaning janub qismidagi tog' tepasidagi qal'alarda yashovchi ko'chmanchi aholiga o'zingizni ahvolingizdan uyaling deydi. Hozirda siz kabi qochgan odam ko'ngilsizliklarga duch kelmagan deysizmi?»

Xo Seng javob berdi:

— «Bunga misol qilib ularning og'ir turmushga ko'milgan odamlar yo'q deysizmi? Men ham shu qatorda».

Bu gapdan keyin Pyon asta nafas olib chiqib ketdi.

Pyon aslida Jongsin I-van bilan yaqin munosabatda edi. I-van davlat xizmatidagi general bo'lgan paytda so'ragan:

— «Balki sizning atrofingizda talantli katta ishlarni amalga oshira oladigan inson bormi?»

Bunga Pyon Xo Sengning gaplarini aytib beradi va ular birgalikda Xo Sengni izlab kelishadi.

Pyon I-vanni tashqarida eshik oldida qoldirib, yolg'iz o'zi Xo Sengga gapiradi, ammo Xo Seng hech nimani tinglamay, aroq ichishda davom etadi.

Kun ham qorayib qolay deganda Xo Seng nihoyat dedi:

— «Endi mehmoningiz kirishi mumkin».

I-van kirib kelganda ham Xo Seng o'rnidan turmaydi. U davlat uchun vakolatli shaxs qidirayotganini aytadi.

Shunda Xo Seng so'radi:

— «Siz meni Va Ryong ustoz kabi nomzodlar orasidan tanlaganingizga ishonchingiz komilmi?»

I-van biroz o'ylanib javob berdi:

— «Buni aytish qiyin. Ikkinchi marta ayyorlik qila olasizmi?»

Xo Seng anglay olmay takror so'radi:

— «Davlat generali va boshqaruvchilari Chosonga foydali ish qilgan bo'lishlari mumkin, biroq davlat yo'q bo'lib ketgach, ularning o'g'illari bizdan kelib boshpana olganlar. Ular hozirda u yer, bu yerlarda hayot kechirib yurishadi, sizlar mol-mulkni ana o'shalarga bera olasizmi?»

I-van biroz boshini ushlab o'yga cho'mdi va dedi:

— «Bu ham qiyin masala».

— «Uni ham qiyin desangiz, buni ham qiyin desangiz, o'zi nimaga imkoniyatingiz bor? Bu juda oson ish, siz bir bor qilib ko'rmaysizmi?»

— «Javobingizni kutyapman».

— «Aslida bu yerda asl maqsad aholining har qaysi qatlamidan guruh tuzish kerak, boshqa davlatni egallash uchun esa avval u yerga ayg'oqchi yuborilmasa, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Lekin hozirda Manjuriyaning bir guruhi o'z yetakchisini tayinlab, bizning yerlarga egalik qilish, tortib olish maqsadida kirib

kelmoqdalar. Ular ham xuddi shu yo'lni tanlaganlar. Bu esa biz uchun uyatli holat emasmi?»

I-van dedi:

— «Unday bo'lsa, hamma o'z joniga ehtiyotkor bo'lmoqlari darkor, biroq kim o'sha ko'chmanchilar kabi sochini o'stirib, ular kabi kiyim kiyadi?»

Xo Seng baland ovozda dedi:

— «Ajabo, davlat qurish nima o'zi! Avvallari davlatni asrash uchun kiyim kiyishni ahamiyati bo'lmagan va uyat hisoblamaganlar. Kelajak uchun harakat qilganlar. Men hozir aytganlarim orasidan birini tanlamasangiz qanday qilib maqsadga erishish mumkin axir!»

Xo Seng g'azab bilan qarardi...

Biroq, I-van hech bir so'zsiz chiqib ketdi.

Keyingi kuni u yana kelib, Xo Sengni uydan qidiradi, biroq Xo Seng allaqachon uyni tark etgan edi.

PAK XONIM HAQIDA QISSA

Asar Choson Sukjon davrida yozilgan bo'lib, muallif va aniq yili noma'lum. Asar qahramonlari Li Sibek va uning xotini Pak xonim mamlakatni bosqinchilardan qutqarganlar. Pak xonim orqali o'sha davrda Chosonning ayollari qanday kuchga ega bo'lganliklari namoyon etiladi.

Oldingi Choson Injo qirolligi davri edi.

Kimgang tog'i etaklarida bir qishloqda donoligi bilan ajralib turuvchi Pak chosa degan kishi bo'lgan ekan. Uni barcha hurmat qilib, Muqaddas ustoz deb chaqirishar ekan.

Pak Chosaning ikki qizi bo'lib, ularning kattasi juda xunukligi uchun yoshi 17 dan ohsa ham turmushga chiqa olmay, singlisi avvalroq uzatilibdi.

Lekin Pak Sujo tashqi ko'rimishi xunuk bo'lishiga qaramay, qalbi go'zal va dunyoda bilmagan narsasi yo'q oqil edi.

Bir kuni panso Li Dikchonning og'li Li Sibek odamgarchiligi yaxshi, mahoratli ekanligini eshitgan Pak Chosa qizini unga uzatibdi.

Biroq birinchi nikoh kechasida Li Sibek yangi nikoh xonasidan qochib chiqib ketibdi.

Hayron bo'lgan Panso o'g'lini urishibdi.

— «Ey, sen nega xonangdan qochib chiqding?»

Shunda Sibek xo'mrayib javob qilibdi:

— «Ota, kelinning yuziga qaragan edim, u xuddi vahshiy maxluqdek bo'lib, ustiga-ustak tanasidan yoqimsiz hid ham kelgani uchun uni hammayoqqa tarqaladi deb o'ylab, shoshib chiqib keldim. Bunday qiz bilan umuman er-xotinlik rishtalarini bog'lay olmayman. Kun ochilishi bilan Xanyangga chiqib ketmoqchiman.

Li Panso ham hayratlanib, o'g'lining o'ylamay gapirgan fikridan qaytarishga tushdi.

— «Ey, bolapaqir! Otangni ham o'ylamay bunday bema'ni gapni qanday aytyapsan? Zarracha ham o'ylamay, yosh va maftunkor qiz qidirmoqchi bo'lsang ahmoq ekansan. Hoziroq xonangga qaytib kirib, xotining bilan birga baxtli yashamasang, seni oq qilaman.

Li Sibek otasining gapini ikki qilolmay xonasiga qaytib kirdi. Lekin xotinini yana ko'rishdan qo'rqib, xonaning bir burchagida kiyimini ham yechmay yotgancha tong otmasdan qo'rqib qochib ketdi.

Kunlarning birida mamlakatda davlat imtihoni boshlandi.

Li Sibek imtihon tayyorgarligini tugatib, tashqariga chiqmoqchi bo'lgan erta tong chog'i edi. Pak xonim xizmatkor Kexvaga xo'jayinini chaqirishini buyurdi.

Shunda Li Sibek jahli chiqqan holda:

— «Nega endi u xonim menga buyruq berar ekan?» — dedi.

Kexva Pak xonimga borib bu gapni aytdi. Pak xonim diqqat bilan o'ylab ko'rib, Kexvaga yana buyurdi:

— «Qizlarning gapiga quloq solmaslik yaxshi emas. Imtihonda zarur bo'ladigan bir asbobni topshirmoqchiman».

— «Nega buncha jahlimni chiqaradi. Yo'linga to'g'anoq bo'lmoqchimi? Uni ko'rishga ko'zim yo'q».

Shunda Sibek beayb Kexvani urib solibdi.

Kexva o'ttizta kaltakni yeb, yig'lagancha Pak xonim oldiga borib, barchasini aytib beribdi.

— «Kexva, mening aybim bilan kaltaklanibsan, meni kechir. Men ham shu kungacha chidab keldim. Nega qiz bola buncha kuchsiz bo'lmasa-ya!»

Pak xonim ko'z yosh to'kib nola qilibdi. Hamda kecha tunda tushida nilufar ko'lidan olgan mo'jizali oq toshni berib, buyuribdi:

— «Ota-onasiga g'amxo'r bo'lsinlar. Men ularga to'g'ri kelmadim. Boy oilaning qiziga uylanib, baxtli hayot kechirsinlar.

Kexva yana Sibekning oldiga borib, Pak xonimning gaplarini ehtiyotkorlik bilan aytdi.

Li Sibek bu toshni ko'rib hayratlandi:

— «Iye, bu toshga aylangan osmon xazinasi emasmi!»

Li Sibek xotini qadriga yetib boshlab, mayin ovozda gapirdi.

— «Kexva, men fe'lim biroz tezligi sababli besabab seni ham urdim. Bunday noyob toshni berib, imtihonni yaxshi topshirishimga omad tilagani uchun xotinimga rahmat deb qo'y».

Kexva bu so'zlarni aytganda Pak xonini jimga tingladi.

Axiyri Li Sibek imtihon topshirdi.

«Changvon(1-turdan muvaffaqiyatli o'tgan va birinchi o'rinni egallagan), Xanyangda yashovchi Li Sibek!»

Shu tarzda, Pak xonim kelin bo'lib, kelganiga 3 yil to'lgan kecha edi. Osmondan birdan turnaning yig'i ovozi eshitilib, bulutga minib, Chinjong ota bilan Pak Chosa tushib keldi.

Pak Chosa qizining qo'lidan ushlab, quvonib gap boshladi:

— «Qizim, bu yil avvalgi hayoting tugabdi».

Pak Chosa qo'lini qizining yuziga qo'ygan edi, badbashara qizdan asar qolmay, sohibjamolga aylandi.

Shunda Li Sibek uni yoqtirib ne qilarini bilmay qoldi.

— «Xotin, juda go'zal ekansan-ku!»

Shundan so'ng Li Sibek va Pak xonini shuncha vaqt bo'l-magan tuyg'ularga burkanib baxtli yashay boshlabdilar. Bir qancha vaqt o'tib, egizak o'g'il ko'ribdilar.

«Voybo', bizning kelin eng zo'ri!»

Li Panso ayoli bilan nabiralariga Xegi va Xein degan ism qo'yib, sevib voyaga yetkazibdilar.

Shu paytlarda Shimoliy Xitoyning qirolı Xovang imkon topildi deguncha Chosonni egallashga urinar edi. Xovangning qizi malika:

— «Ota, men Chosonga borib, Li Sibekni yakson qilaman», — deb aytibdi.

Xovang bundan shod boʻlib, malikaga erkaklar kiyimini kiydirib, qoʻliga uchar pichoq beribdi.

Shu kuni Li Sibekka xotini Pak xonim jiddiy aytibdi:

— «Ertaga quyosh botgandan soʻng Sol Jungme degan kisen qarorgohingizga keladi. Bordi-yu Siz unga yaqinlashsangiz yarador boʻlishingiz mumkin. U qizni aldab uyga kiritsangiz, men oʻzim uni yaxshilab mehmon qilaman».

Chindan ham shu kuni kechda bir qiz Li Sibekni qidirib kelib, taʼzim bajo qildi. Yoshi yigirmalarda boʻlib, osmondan tushgan paridek juda goʻzal edi.

— «Bu yerda odamlar juda koʻp, ichkariga kirib tursang tun yarmidan oshganda seni chaqirib, tunni osuda oʻtkazamiz», — dedi.

Sol Jungme ichkariga kirishi bilanoq Pak xonim Kexvaga stol bezatishni buyurib, aroq quyib uzatdi.

«Men aslida aroq icha olmayman-u, sizning taklifingizni rad etsam boʻlmas».

Sol Jungme aroqni olib ichdi. Soʻngra aroqning kuchidan yiqilib, uxlab qoldi. Pak xonim uxlayotgan qizni yaxshilab kuzatdi. Uning yuzidagi qahr va belidagi oʻtkir qinini koʻrdi.

Pak xonim pichoqni qinidan sugʻurmoqchi edi, pichoq sakrab Pak xonimga sanchildi. Pak xonim pichoqni orqasidan ushlab sugʻurdi.

Ikki kun oʻtgach, Sol Jungme uyqudan uygʻondi. Pak xonim ovozini koʻtarib gapirdi:

— «Sen meni oxirigacha aldamoqchi boʻldingmi? Sen Shimoliy Xitoy qirolining malikasi Kirongdesan, shundaymi?»

Kirongde hech narsaga tushunmagandek qutqarishini soʻrab iltijo qildi.

— «Sening qiroling Chosonni kuchsiz deb oʻylab, bosib olishga urinmoqda. Borib ayt! Sening davlating qanchalik kuchli boʻlmasin, Chosonni yenga olmaydi».

Pak xonim baland ovozda qichqirgan edi osmonda chaqmoq chaqib, jala quydi. Sol Jungme shalabbo bo'lib, chuqurga tushib ketibdi.

Sol Jungme bo'lgan voqeani boricha otasiga aytib berdi.

— «Ota, Chosonga borib, sal qolsa sizni ko'rolmay qolardim».

— «Xo-xo, Sibekning xotini bunchalik kuchli ekanligini bilmagan ekanman. Shu kichik Chosonda kuchli odamlar kam emas ekan-da».

Xovang Yongolde va Yongholde ikki aka-ukani noyabr oyida Chosonga borishga buyurdi.

Bu paytda Pak xonim eriga buyurdi:

— «Qirol Xovang aka-ukalarni shu yil noyabrning 28- kunida Tongdemun tomondan bostirib kirishni buyurgan. Qirolni tog' ortiga yashirib qo'yishimiz zarur. Ularni men o'zim bir yoqlik qilaman».

Bu so'zlarni eshitib, lavozimi yana oshgan Li Sibek qirolga yetkazdi.

Qirol hayratlanib, tog' ortiga yashirinishga otlandi. Lekin vazirlardan biri bunga qarshi chiqdi. Li Sibekni yolg'on gapirayotganlikda ayblab, qatl qilinishi kerakligini aytdi.

Shunda birdan osmonni tuman qoplab, pari sifat bir qiz tushdi.

— «Men Sibekning xotini Pak xonimning xizmatchisi Kexva bo'laman. Li Sibekning gaplari rostdir. Siz darhol qochmasangiz, talofot ko'rishingiz mumkin. Ikkilanishga vaqt yo'q».

Gapini tamomlagan Kexva osmonga uchib, bir zumda g'oyib bo'ldi.

Qo'rqib ketgan vazirlar qirolni to'g' ortiga kuzatib ketdilar.

Qirol ketishi bilan Xovangning odamlari Xanyangga bostirib kelib, odamlarni o'ldirib, boyliklarni talab ketganliklari haqidagi xabar yetib keldi.

Yongolde qirolning tog' ortida ekanligini bilib, bostirib kela boshladi. Qirol nahotki 300 yillik tarixga ega bo'lgan Choson davlatiga yakun yasaladigan bo'lsa, deya yig'lab o'tirgan edi. Shu payt osmondan ovoz eshitildi. Bu Pak xonimning ovozi edi.

— «Hoziroq Yongoldega shartnoma yozib bering».

Qirol uning aytganini qildi va shartnomani yozib, Yongoldega jo'natdi.

Yongolde shartnomani olib tog' ortidan chiqqanda, Yon-goldening Kexva tomonidan o'ldirilib, boshi daraxtda osilib turganini ko'rdi.

Jahli chiqqan Yongolde Pak xonimni topib, unga:

— «Qanday balo xotinsan? Begona erkakni o'ldirib, kallasini daraxtga osib qo'yibsan. Buyoqqa chiq. Endi mening pichog'imni totib ko'r».

— «Sen bizning kuchimizni ko'rib qo'y».

— «Iltimos, bo'ldi. Meni qo'yib yuboring. Men Chosonni tark etaman. Faqat o'ldirmang».

Shunday qilib, Pak xonim va uning oilasi butun bir davlatni bosqinchilar zulmidan qutqarib qolibdi.

Bir yili kuz fasli, sentabr oyining o'n beshinchi kunida Pak xonim, Li Sibek, ularning farzand-u nabiralari yig'ilib, kecha o'tkazibdilar. Barcha shod-u xurram.

— «Mana, yoshimiz sakson beshga borib qolibdi. Farzand-larimiz baxtli. Endi biz bu dunyoni tark etsak ham bo'ladi».

Er-xotin kechiasi uxlayotgandek birga yotib, ko'z yumishibdi.

Bundan xabar topgan qirol chuqur xo'rsinib, g'amga ko'milibdi. Ularni turli sharaflı nomlar bilan siylabdi.

NOMA'LUM MUALLIF

SADOQATDA TENGI YO'Q CHXUNXYAN HAQIDA QISSA

Hikoya qilishiaricha, Li sulolasidan bo'lgan podsho Indjo davrida Chollado provinsiyasidagi Namvon shahri hokimining o'n olti yashar o'g'li bo'lgan ekan. Mashhur Du Mu singari go'zal bo'lgan bu yigitcha taniqli xitoyshunos Li Bo singari ajoyib she'rlar ham yozar ekan. Yigitcha erta-yu kech darsxonada o'tirib, saboq olarkan.

Majnuntollar gullaydigan fasl — bahor kelibdi. Butun tiriklik, hatto maysalar va daraxtlar ham bahor quyoshining hayotbaxsh nurlaridan bahra olibdi. Bo'rsiq to'rtta nevaralik bo'libdi, baqa ham bola tug'ibdi — mana shunday bir palla ekan! Bahor nafasi

yigitchani ham o'ziga tortibdi, u tabiat qo'yniga chiqish uchun xizmatkorni chaqiribdi.

— Men provinsiyamizning diqqatga sazovor joylarini borib ko'rmoqchiman, ularning eng chiroylilari haqida menga gapirib ber!

— Aytishlaricha, Pxenyandagi Pubyonnu minorasidan ajoyib manzara ochilar emish, Xedjudagi Mevoldan ibodatxonasini, Chindjudagi Chxusonnu minorasini, Kannindagi Kyonpxode ayvonini, Yan'yandagi Naksansa monastirini, Kogyondagi Samilpxo buxtasini, Txonchxondagi Chxonsokchon shiypoini, Samchxokdagi Chuksoru minorasini, Pxyonxvadagi Volson-djon shiypoini, Uldjindagi Man'yandjon shiypoini va Kansondagi Chxongandjon shiypoini ham maqtashadi. Ammo bizning Kvanxallu minoramizdan ochiladigan nihoyatda go'zal manzaraning dong'i sakkiz provinsiyaga tarqalgan. Bu joy go'zallikda faqat Szyannandan keyinda turadi.

— Gaping rost bo'lsa, Kvanxallu minorasiga boramiz! — debdi yigitcha. — Go'zal manzaradan lazzatlanmoqchiman.

U yo'l bo'ylab xizmatkor ortidan yengil qadamlar tashlab boribdi. Kvanxallu minorasining oldiga kelgach, yigitcha uning atrofini aylanib chiqibdi va so'ng xizmatkorni o'z yoniga chaqiribdi:

— Ajoyib manzara! Mashhur Yueyan minorasi va Qaqnuslar ayvoniga yoki Sariq turna minorasidan va Gusu ayvonidan ochiladigan manzaraga intilib nima qildik?!

Ayyor xizmatkor yolg'on gapiribdi:

— Bu yer shu darajada go'zalki, tiniq havoda, tuman va bulutlar tarqalganda, bu yerga Osmonda yashovchilar tushishadi.

— Ha, bu yer juda ham chiroyli ekan, — deb uning fikriga qo'shilibdi yigitcha.

Shu kun bayram — beshinchi oyning beshinchi kuni ekan. Shu yerlik *kisen* Chxunxyan kiyinib, pardoz-andoz qilib arg'imchoq uchgani chiqibdi. Uning go'zal chehrasi bilan faqat bahor go'zalligi bellasha olar ekan. Kamon qoshlari tog' cho'qqilarini, oq tishlari va aqiq lablari esa tunda ochilgan shaftoli gulini eslatar ekan. Qora bulutlarni eslatadigan sochiarini u taroq

bilan yarim oy shaklida o'rib, pushtirang tasmalar bilan bog'lab olgan ekan. Egniga ipak ko'ylak ustidan oq ipakdan chakmon tashlab olgan ekan. Boshiga ipak ro'mol o'ragan, oyoqlariga ip gazlamadan paypoq va qizil kovush kiygan ekan...

Qiz yengil qadamlar tashlab yam-yashil adirga ko'tarilibdi, gullar teribdi, shaffof suvli soyda cho'milibdi, qirg'oqda chig'anoqlar terayotib majnuntollar shoxiga qo'ngan zarg'aldoq qushni cho'chitib yuboribdi. Chxunxyan tog'lar bag'rida hayratlanib kezibdi. Kimsasiz darada u arg'imchoq arqonini nozik oq qo'llari bilan ushlab, oyoqlari bilan yerni itaribdi va ko'kka ko'tarilibdi. Havoda uning oyoqlari bir-biriga urilar, ular shaftoli daraxtining gullagan shoxlariga tekkanda, ulardan gul yaproqlari duvillab yerga to'kilar ekan. Qiz arg'imchoq uchishga berilib ketganidan sochining turmagidan tilla to'g'nog'ich tushib ketgani va toshlarga jiringlab urilganini ham payqamabdi.

Yigitcha Li shu vaqt tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lib, she'r satrlarini eslabdi va birdan daraxtlar orasida bir sohibjamol arg'imchoq uchayotganini ko'rib qolibdi. U xursand bo'lib ketibdi va darhol xizmatkorini o'z yoniga chaqiribdi.

— Ho'v, anavi nima?

— Qayerda? — deb so'rabdi xizmatkor.

— Ho'v anavi ko'rinayotgan narsa? Balki bu osmondan tushgan paridir?

— Bu yer Penlay, Fanchjan yoki Inchjou kabi muqaddas tog' emas-ku, pari bu yerda nima qiladi? — deb javob beribdi xizmatkor.

— Unda bu, balki, oltindir?

— «Oltin Lishuy daryosida uchraydi», deyishadi, bu yerda Lishuy yo'q. Oltin qayerdan bino bo'lishi mumkin?

— Balki bu nefritdir?

— Aytishlaricha, nefrit Kunlun tog'larida bo'lar ekan. Bu yer Kunlun tog'lari emas-ku. Bu yerga nefrit qayerdan kelishi mumkin?

— Unda nima bu? Yovvoyi atirgulmi?

— Bu yerda toza dengiz qumi yo'q, atirgul qanday o'sadi?

— Balki bu alvastidir?!

— Bu yerda baland qoyali tog‘lar yo‘q-ku, alvasti qayerdan bino bo‘ladi?

— Unda nima bu? — debdi Li toqati toq bo‘lib.

— Ha, umi, — debdi xizmatkor gap nimada ekanini tushumb. — Axir bu Chxunxyan — «Bahor atri». Shu yerlik kisen Volmening qizi.

— Juda yaxshi, — debdi yigitcha, — ashulachi bo‘lsa, u bilan ko‘rishish mumkinmi? Uni bu yoqqa chaqir-chi!

Xizmatkor lazzatdan labini chapillatib, bolutdan bir dasta shox sindirib olibdi va Chxunxyanning e‘tiborini tortish uchun qattiq shovqin ko‘tarib uning oldiga qarab yuribdi. Qizga yaqinlashgach, kaftini peshonasiga soyabon qilib qo‘yib:

— Chxunxya-ya-yan! — deb baqiribdi.

Chxunxyan qo‘rqib ketibdi va arg‘imchoqdan sakrab tushibdi.

— Kim meni chaqiryapti?

— Yosh janob Li, — deb javob beribdi xizmatkor. — Muhim ish bor! Tezroq yur!

— Hoy, yaramas! Nega meni qo‘rqitib, yuragimni yording? Maza qilib arg‘imchoq ham ucha olmadim. Bahor atrimanmi, boshqamanmi — seni necha pullik ishing bor?.. Nega men haqimda yosh janobga aytding?

— Arg‘imchoqni biror ko‘zdan pana joyda uchmasmiding, — deb e‘tiroz bildiribdi xizmatkor. — Hokimning o‘g‘li janob Li tabiat qo‘ynida bahra olmoqchi bo‘ldi, Kvanxallu minorasiga chiqdi va daraxtzor orasida sening ketingga ko‘zi tushdi. Shu zahoti seni chaqirishni buyurdi. Bormaslik mumkin emas! Endi osmondan tosh yog‘sa ham janob Li bu yerdan seni ko‘rmasdan ketmaydi. Yasan-tusan qilibsan-ku, xo‘p, hech bo‘lmasa ketingni sirtga chiqarma. Yosh janob chap dumbangga ko‘zi tushdi-yu, mahliyo bo‘ldi-qoldi — dunyodagi hamma narsani unutdi! Senga shu ma‘qulmi?

Chxunxyan kokillarini kulrang ipak tasma bilan bog‘lab, turmaklab olishga majbur bo‘libdi. Ko‘k ipak yubkasining etaklarini nozik qo‘llari bilan yig‘ishtirib, sollana-sollana qadamlar tashlab yigitcha tomonga yuribdi. Minora eshigi oldida Chxunxyan to‘xtabdi va yigitcha qarshisida tavoze bilan ta‘zim

qilibdi. Yigitcha qizga nazar tashlashi bilan ko'z oldi qorong'i tortibdi va bor ovozda baqiribdi:

— Hoy, qarol! Buyruqni shunday bajaryapsanmi? Qani, tez xonimni yuqoriga boshlab chiq!

Chxunxyan minora maydonchasiga ko'tarilishga majbur bo'libdi. Yigitcha uni o'tqizib:

— Yoshing nechchida? Isming nima? — deb so'rabdi.

Chxunxyan mayin ovozda:

— Yoshim ikki karra sakkizda, ismim esa Chxunxyan, — deb javob beribdi.

Yigitcha jilmayibdi.

— Ikki karra sakkiz — demak, o'n olti. Mening yoshim ham o'n oltida, demak, biz tengdosh ekanmiz! Omadni qara! Isming Bahor atri, o'zing ham isming kabi go'zalsan. Ammo yillar o'tadi va sen qurigan daraxt shoxidagi boyo'g'liga o'xshab qolasan. Tug'ilgan kuning qachon?

— Tug'ilgan kunim yozda, to'rtinchi oyning boshida, sakki-zinchi kunda, Sichqon soatida, — deb javob beribdi Chxunxyan.

— To'rtinchi oyda deysanmi? — deb xitob qilibdi yigitcha. — Axir bir bir oyda tug'ilgan ekanmiz-ku. Buni qara, bizga turmush qurishni taqdirning o'zi buyuribdi! Attang, kun va soat ham mos kelmabdi-da.

Chxunxyanning qarshisida o'tirgan yigitcha ham juda go'zal ekan.

— Men seni bekorga taklif qilganim yo'q, — debdi u. — Seulda yashaganimizda, uchinchi oyda, bahor shabadasi mavsumida, o'ninchi oyda — kuzgi shamollar va sariq xrizantemalar davrida men kunni qovoqxonalarda va yashil kulbalarda kech qilganman, suluv qizlarning ko'pini ko'rganman. Seni ko'rdim-u, boshqa hamma narsani unutdim. Qalbim torlari junbushga keldi. Kel, hayotimizni yuz yillik rishtalar bilan bog'laylik!

Chxunxyan uning gaplarini eshitib, qoshlari chimirilibdi:

— Men bir qo'shiqchi qiz bo'lsam ham, lekin qalbim toza. O'lsam ham kanizak bo'lmayman! Siz bir-birimizga qasamyod berishimizni taklif qilyapsiz, lekin men bu istagingizni bajo keltira olmayman!

— Biz sen bilan olti to'y marosimining hammasini, albatta, o'tkaza olmaymiz, lekin bizning ittifoqimiz haqiqiy bo'ladi, — debdi yigitcha. — Vaqtni behuda sovurmaylik. Rozi bo'!

— Men rozi bo'lganimdan keyin otangiz poytaxtga ketishi kerak bo'lib qolsa-chi? — deb e'tiroz bildiribdi Chxunxyan. — Axir siz ham u bilan birga ketasiz-ku! Keyin dongdor oiladan bo'lgan qizga uylanisiz va qalblaringiz sozning torlari kabi jo'r ovozdada yangray boshlaydi. Shunda siz menday bir kanizakni eslar ekansizmi? Yo'q, men rozi emasman!

Yigitcha yana uni gapiga ko'ndira boshlabdi:

— Otam poytaxtga ketsa ham seni tashlamayman. Albatta, men o'z onamga qarashim kerak bo'ladi, lekin seni qo'sh ot qo'shilgan aravada o'zim bilan birga olib ketaman. Yanban so'zini ko'kka sovurmaydi. Tezroq rozi bo'!

— Mahkamadagidek qasam iching va meni hech qachon unutmasligingiz haqidagi va'dani yozib bering! — debdi qiz.

Yigitcha xursand bo'lib ketibdi. Qog'ozni yoyibdi va siyohga mo'yqalamni botirib, unga quyidagi so'zlarni bitibdi: «Falon yil, falon oy va falon kunda Chxunxyanga uni hech qachon unutmaslikni va'da beraman. Tabiat manzaralaridan bahramand bo'lish niyatida men Kvanxallu minorasiga chiqdim va bu yerda Osmon menga ato etgan turmush o'rtog'imni uchratdim. Tuyg'ularim jo'sh urdi va u bilan yuz yillik ittifoq tuzdim. O'lsak o'lamizki, bu qasamimizni hech qachon buzmaymiz!»

Chxunxyan qog'ozni olibdi va uni to'rt buklab, cho'ntagiga solib qo'yibdi.

— Mening nasl-nasabim past. Mish-mish tarqalib, otangiz bo'lgan voqeadan xabar topsa, menga faqat yolg'izlikda o'lish qoladi. Sizdan iltimos qilaman, ehtiyot bo'ling!

Yigitcha bunga shunday deb javob beribdi:

— Otamning o'zi ham yoshligida juda sayoq bo'lgan. Hozir buni eslamasa-da, lekin eng yomon fohishaxonalarga ham kirgan deb aytishadi. Sira tashvish chekma!

Ular uzoq gaplashib o'tirishibdi, suhbat oxirida yigitcha qizdan:

— Uying qayerda? — deb so'rabdi.

Chxunxyan nozik qo'llarini havoga silkitibdi.

— Ho'v o'sha tog'dan o'tasiz, so'ng yana bir tog'dan oshib o'tasiz, keyin yana bir tog' keladi, undan ham o'tsangiz, quyuq bambukzorni ko'rasiz. Mening uyim o'sha yerda.

Chxunxyanni kuzatib qo'ygach, yigitcha darsxonaga qaytib kelibdi, lekin uning yuragi hanuz junbushda ekan. Shunda u tuyg'ularini jilovlash maqsadida kitob o'qishga tushibdi. Ammo har bir satrda, har bir iyeroglifda u faqat Chxunxyanni ko'rar ekan. Bir iyeroglif, boshqasi... bir satr, ikkinchisi — hammasi Chxunxyan! Uning jahli chiqibdi va nima qilib bo'lmasin o'zini o'qishga majburlamoqchi bo'libdi.

— «Osmon — chxon, yer — chi, qora — xyon, sariq — xvan...», «Yer va osmondagi barcha jonzotlar orasida eng abjiri odam!..». «Osmon podshosi «daraxt» stixiyasi homiyligi ostida hukm surgan. U o'z hayoti bilan o'rnak bo'lish orqali fuqarolarga ta'sir ko'rsatgan...». «Osmon yo'lining mohiyati nimada? Ibtido, rivojlanish, namoyon bo'lish, barkamollik — Osmon yo'lining mohiyati ana shunda...». «Marosimlar kitobi» — inson hayotining asosi...». «Buyuk ta'limot» yo'li — oliy quvonchga erishishda...». «Faylasuf: «Tirishqoqlik bilan ta'lim olishdan quvonchli narsa bormi?», degan». Men-szi Lyan podshosi Xuey-vanga o'zini tanishtirdi. Podsho shunday dedi:

«Siz ming li yo'l bosib kelibsiz. Sizda mening saltanatimga foyda keltirishga qodir bo'lgan biror narsa bormi?»

«Daryodagi qamishzorda o'rdaklar karillayapti.

Orol kichkina. Bu yerda ular in qurgan.

Bu qiz juda chiroyli va kamtar.

Bu qizni qallig'i sevib qoldi».

«Qadim zamonlarni o'rganar ekanmiz, biz shuning guvohi bo'lamizki, podsho Yao...», deyilgan. «Yuan, xen, li, chjen...». E! Kitob o'qish ham jonga tegdi!

Hamma iyerogliflar chalkashib ketibdi. «Osmon» iyeroglifi «katta» iyeroglifiga aylanibdi, «Muxtasar tarix» unga «bosqinchilik» bo'lib tuyulibdi, «Xitoy tarixi»ni u «qurigan olxo'ri» deb o'qibdi, «Suhbatlar va mulohazalar» unga «olabug'a» bo'lib ko'rinibdi, «Men-szi»ni u «yovvoyi mandarin» deb mutolaa

qilibdi, «Qo'shiqlar kitobi»ni u «ipak parda» deb, «O'zgarishlar kitobi»ni esa «poxol chakmon» deb o'qibdi. Yigitcha qayerga qaramasin, hamma joyda uning ko'ziga Chxunxian ko'rinar emish. Xizmatkorlar, uyezd mahkamasining amaldorlari, mirshablar — hammasi Chxunxyanga o'xshab qolishibdi. Hatto oila a'zolari ham uning ko'ziga Chxunxyanga o'xshab ko'rina boshlashibdi! Yigit bir lahzaga bo'lsa ham uning visoliga yetishni orzu qilar ekan! Oxiri u chidayolmay, «Chxunxyanni ko'rishni istayman!», deb baqiribdi. Uning ovozi mahkamadagilar ham eshitishibdi. Hokim xizmatkorni chaqirib:

— Tez darsxonaga bor-da, nima uchun yosh janob dars qilmasdan, tomoq yirtib baqirayotgani, kimnidir ko'rmoqchi bo'layotgani sababini bilib kel, — deb buyuribdi.

Xizmatkor darsxonaga kirib, yosh janobga otasining so'zlarini yetkazibdi.

— Kitob o'qib o'tirib, «O'zgarishlar kitobi»dagi «Yettinchi oy» qo'shig'ini ko'rgim keldi, shuning uchun «ko'rgim kelyapti» deb baqirdim, — debdi yigitcha. So'ng o'z xizmatkorini chaqirib: — Quyosh qachon botadi? — deb so'rabdi.

— Hozir quyosh endi tikkaga keldi, — deb javob beribdi xizmatkor osmonga ishora qilib.

Yigitcha xo'rsinibdi.

— Bu kunni shoshirishning iloji yo'qmikan? Namuncha imillamasa?! Nima, uni bog'lab qo'yishganmi?..

Ko'p o'tmay xizmatkor xontaxtada ovqat olib kelibdi.

— Nima bu, guruchmi yo boshqa narsami? Bugun quyoshning botish niyati bormi o'zi? — deb so'rabdi u yana.

— Quyosh Syanchida botgan, lekin sharqiy cho'qqilar uzra ko'tarilgan.

Mahkamada xizmat vaqti tugagani haqida signal yangragani zahoti, Li yashirincha devordan oshib o'tibdi va xizmatkor ortidan aylanma yo'l orqali Chxunxyanning uyiga qarab chopibdi.

Chxunxian shu vaqt bambukzordagi shitirlarga quloq tutib, ipak parda tutilgan derazani yarim ochibdi va tizzasiga komungoni qo'yib, mushtozlik kuyini chala boshlabdi. Shu payt Li eshik oldiga kelibdi va Chxunxyanning onasini chaqiribdi.

— Ie, bu yosh janob-ku? — debdi Chxunxyanning onasi va o'zini qo'rqib ketgan qilib ko'rsatibdi. — Agar hokim bu yerga kelganingizni eshitsa, qizim bilan meni o'lasiz qilib kaltaklashadi! Tez bu yerdan keting!

— Hech narsa bo'lmaydi, — deb tinchlantiribdi uni yigitcha. — Uyga kiraylik.

— Mayli, kiring, faqat ko'pga emas, — debdi Chxunxyanning onasi.

Yigitcha Chxunxyanning uyini ko'zdan kechira boshlabdi. Devorga osilgan rasmlardan birida Pensze okrugi hokimi, szinlik zohid Tao Yuan-min tasvirlangan ekan. Boshqa bir rasmda «Uch podsholik» davridan bir manzara — Xan imperatorlari avlodi Lyu Syuan-de ustoz Vo-lunni ko'rgani o'zining «Qizil quyon» laqabli sodiq otida ketayotgani aks ettirilgan ekan.

Chxunxyan ayvondan tez tushib kelibdi va Lini qo'ldan ushlab, o'z xonasiga olib kiribdi. Taklifdan foydalanib, yigitcha o'tiribdi va atrofga alanglabdi. Katta pardada fen'yanlik Go o'z oilasi bilan, kichik pardada esa — Lantin shiyponida dam olayotgan Van Sichji tasvirlangan ekan.

Chxunxyan may va gazak olib kelib, ularni mehmonga tavoze bilan taklif qilibdi. Dasturxonga katta tovoqda qovurilgan go'sht, kichik tovoqda esa — cho'chqa go'shti tortilibdi. Dasturxonda yana sonpxyon va asalga qorilgan kulchalar bor ekan. Mevalardan nok, tozalangan kashtan, olxo'ri, uzum, limon, xurmo, olma, anor, qovun va tarvuz bor ekan. Ularning yoniga har xil maylar solingan xumchalar qo'yilgan ekan. Bir xumchaga uzumdan tayyorlangan Li Bo mayi, boshqasiga — Tao Yuan-min mayi, uchinchisiga — guruchdan tayyorlangan may, boshqalariga esa — Osmonda yashovchilarning ming kunlik mayi va bir yillik may, oq guruchdan va asaldan tayyorlangan maylar, Shirin shudring mayi va Alvon tuman mayi quyilgan ekan.

Chxunxyan dengiz to'tisi chig'anog'idan qadahni mayga to'ldirib, Liga uzatibdi va mehmondorcliilik qo'shig'ini ayta boshlabdi:

*«Iching, iching,
may to'la qadah —*

*Sizning bahoringiz
ming yilga cho'zilsin,
Ming yilliklar
sizni oldinda kutar:
Hayotbaxsh suvga
xanlik U-di ham shod bo'lgan.
Bir tomchi ham qoldirmang,
mayni oxirigacha sipqoring,
Shirinmi u, achchiqmi —
baribir iching.
Ichmagan odam
qurumsokka o'xshaydi,
Kimningdir taqinchoqlari
tuyqus do'kondan g'oyib bo'ldi.
Hayot uziladi —
kim sizga: «May ich», deb aytadi?
Toki tirik ekanmiz,
ichib qolaylik!
Azizim mendan yiroqda...
Men bugun
U bilan ko'rishishni istayman
hech bo'lmasa tushimda.
Tuyg'ular junbush urmoqda —
ularni hayday olmaysan,
Bu orada tun chekina boshladi,
zulmat tarqalib ketdi!..*

Yigitcha xiyol mast bo'libdi va Chxunxyandan iltimos qilibdi:
— Meni yana xursand qil!
Shunda Chxunxyan yana bir qo'shiqni aytibdi:

*«Maysazordagi kulba ortida
kakku qush kukulayapti.
Men qayerga bosh uray! Yashirmayman,
g'am-hasratimni yashira olmayman.
«Ku-ku»da bu so'zlar faqat*

*«yigit» va «qiz»ni anglatadi...
Keragi yo'q, kakku qush,
derazamdan nari uch!
Devorning chaqirilmagan mehmoni,
sevgi talab qilma,
Kimsasiz tog'larga qarab uch
va o'sha yerda kukula!»*

Qiz qo'shiq aytayotganda Li qadah ketidan qadah ko'taribdi va oxiri shu darajada mast bo'lib qolibdiki, og'zidan har xil bo'lmag'ur gaplar chiqa boshlabdi. O'zi shunaqa bo'ladi: may gapira boshlaganda, aql jim turadi.

— Katta Ayiq g'ujanak bo'lib olibdimi? — deb g'o'ldirabdi u. Chxunxyanga bu zerikarli bo'lib tuyulibdi.

— Osmonga oy chiqdi, vaqt yarim kechadan oshdi, siz bo'lsangiz bo'lniag'ur gaplarni valdirayapsiz!

— Juda yaxshi-da! — debdi iyigit. — Yechingin-da, yot!

— Yo'q, avval siz, — debdi Chxunxyan.

Ular gap talasha boshlashibdi. Shunda Li taklif qilibdi:

— Mening kayfim oshib qoldi. Kel, bir-birimizni she'r bilan ovutishga harakat qilamiz.

Ular to'yda ikki yosh ichadigan mayni sipqorishibdi va yigit bilgan she'rlarini oldinma-ketin o'qiy boshlabdi:

*«Uchrashuv kunimiz oldindan belgilangan.
«Uchrashuv» so'zini «pon» belgisi bilan yozamiz.
Biz yonma-yon o'tirdik — juda yaxshi.
«Yaxshi» so'zi uchun «xo» ishlatamiz.
Baxtli nikohimiz yuz yilga cho'ziladi.
«Baxt» so'zi o'rnida bu yerda «nak» iyeroglifi.
Yarim kechasi oy yorug'ida
Biz bir-birimizning qarshimizda yalang'ochmiz.
«Yalang'och» o'rnida «txal» iyeroglifi,
Bundan aniq belgi bo'lmasa kerak.
Bir to'shakda biz ikkalamiz uxlaymiz.
«Uyqu»ni «chxim» iyeroglifi ifodalaydi.*

*Biz ikkalamiz bir yostiqa bosh qo'yamiz.
«Qo'ymoq» so'zi uchun «va» belgisini tanlaymiz.
Qo'llar bir-birini quchar, oyoqlar chirmashar,
Ikki vujud bir jon-u bir tanga aylanar.
«Quchmoq» uchun «pxo» juda aniq belgi,
Boshqa belgi bilan uni ifodalash mumkin emas.
Lablarning bo'sada blrikishi,
«Bo'sa» uchun «nyo» belgisi ma'qul.
Senda botiq joyni ko'raman.
«Botiq joy»ni «yo» belgisi bilan tasvirlayman.
Mening bo'rtiq joyimga qara.
«Bo'rtiq joy» uchun — «txol» iyeroglifi.*

— Endi dunyoni suv bossa, mening to'pig'imga chiqmaydi.
Muhabbat lochinning dumiga bog'langan qo'ng'iroqdek, sholi
solig'ini qabul qiladigan mahkamadek, mayda tangadek bir gap!

Uning ko'z o'ngida yer-u osmon qo'shilib ketibdi va u bundan
hayratga tushib, shunday debdi:

— Bizni esa bir-birimiz bilan taqdir bog'ladi. Kel, taqdir haqida
qo'shiq aytamiz, uning har bir satrida «odam» so'zi mavjud bo'lsin.

*Taqdir shuni istadiki, yashil darada
men bir yaqin odamni uchratishimni.*

*Oy baland minorani yoritdi,
bu yerda ko'p odamlar bor!*

*Hozirgi dorilomon zamonni men qadimgi
odam yashagan zamon bilan solishtiraman!*

*Men saroy devori osha sakradim —
yo'limda biror odam uchramadi.*

*Ming li narida, o'zga yurtda,
odam eski do'stini uchratdi.*

*Atrofda sershox majnuntollar —
yo'lda odam do'sti haqida o'ylaydi.*

*Lo ko'prigi kimsasiz, ammo qor va shamol
yarim tunda odamni ortga qaytardi.*

Hurmatli odam, katta odam, qashshoq odam, qari odam, yosh odam — ko'plab odamlar bir-biri bilan taqdir rishtalari vositasida bog'langan. Ikki odam nikoh rishtalari bilan bog'lanadi va bunga behad shod bo'ladi!

Chxunxian bunga javoban shunday debdi:

— Yosh janob «odam» so'zi bilan qo'shiq to'qibdi, men esa har satrida «yil» so'zi bo'lgan qo'shiqni to'qishga harakat qilib ko'raman.

*Yomg'irni va yomon havoni
taqdir yuz yilga yubormaydi.*

*Hammamiz qarilikni yomon ko'ramiz,
lekin yoshlik yillarini qaytarib bo'lmaydi.*

*Bir juft qaqnus hayotdan xursand,
ular yil bo'yi tinim bilmaydi!*

*Atrof kimsasiz, tabiat qashshoq
yaqindan beri, lekin yuz yildan beri emas!..*

*Bolalikdan chiqmagan odamlarda
olijanoblik ruhini tarbiyalash kerakmikan?..*

*Uzoq chegara yo'liga chiqqanimizga bir yil bo'tdi!..
Bunday yillardan yana nechitasi o'tar ekan?..*

*Osoyishta hayot kechirsang,
yillar o'tayotganini ham payqamaysan ...*

Bir yil, o'n yil, ming yil, o'tgan yil, bu yil esa yuz yilga bog'lagani bejiz emas, yuz yil — axir bu juda ko'p yillar deyishadi-ku!

— Biz sen bilan muhabbat rishtalari orqali o'n ming yilga bog'langanmiz, — deb qo'shilibdi uning fikriga yigitcha.

*Dunyo bilan vidolashish fursati keladi —
Sen qaqnus ham, kakku ham,*

*Qirg'ovul ham, o'rdak ham bo'lmaysan!
Tanasiz qushga aylanasan.*

*Men o'laman va suv bo'lib quyilaman:
Xuanxe daryosiga aylanmayman,*

*To'qqiz irmoqqa evrilmayman —
Men In-Yan daryosiga aylanaman,*

*Sen, vujudsiz qush,
Mening to'liqlarimda arg'imchoq uchishing uchun.*

*Sen kimson qand og'ochiga aylanasan,
Men esa pechakka aylansam kerak:*

*Yozda seni chirmab olaman
Ildizingdan shoxlaringning uchigacha.*

*Shoxlar bir-biri bilan chirmashadi —
Birlashishning haqiqiy belgisi!
Shunda bizni bu dunyoda
Hech narsa bir-birimizdan ayira olmaydi!*

Shu tariqa ular baxt sharobidan mast-u mustag'riq bo'lishibdi. Tong otdi deguncha uy-uylariga tarqalishar, qorong'i tushgani zahoti yana uchrashishar va bir-birini baxtli qilisharkan. Ular har tunni odamlardan yashirincha birga o'tkazishar ekan.

Shu orada podsho Namvon hokimi xalqparvar va adolatparvar ekanini eshitib, uni moliya palatasi boshlig'i etib tayinlabdi. Namvon hokimi poytaxtga o'tlanadigan bo'libdi va huzuriga o'g'lini chaqiribdi:

— Yo'lga o'tlan, sen birinchi bo'lib ketasan!

Bu xabarni eshitib, yigitning dami ichiga tushib ketibdi. U eshitilar-eshitilmas:

— Men hozir, faqat... — deb g'o'ldirabdi.

U o'zini yo'lga tayyorgarlik ko'rayotgandek qilib ko'rsatib, Chxunxyanning oldiga chopibdi. Chxunxyan uni qarshi olgani yugurib chiqibdi va yuzining ifodasini ko'rib, yomon bir ish bo'lganini tushunibdi. U yig'lab yuboribdi va yigitning yelkalaridan ushlab siltalay boshlabdi.

— Nima bo'ldi? Nega siz g'amginsiz?

— Bizni ayriliq kutyapti!

— Agarda hozir ayrilsak, nahot hech qachon ko'rishmaymiz? Har qanday ayriliq yomon, lekin tirik odam uchun undan yomoni yo'q. Oh, bu ayriliq! Shamolda va janubda podsholar fuqarolardan ayrilganlar, karvonsaroylarda aka-ukalar vidolashganlar, erlarni xotinlari va farzandlaridan minglab li masofa ajratgan. Har qanday ayriliq yomon deydi, lekin bizning ayrilig'imizdan yomoni bormikan?

— Nega buncha g'am chekyapsan?

Yigitcha yuzini yengi bilan artibdi, lekin shu payt tomog'iga yong'oqdek bir narsa kelib tiqilibdi va u ham yig'lab yuboribdi.

— Yig'lama, Chxunxyan! Sening ko'z yoshing yuragimni o'rtayapti! Yig'lama! Men umr bo'yi sen bilan birga bo'lishni istayman. O'lganimizdan keyin ham biz kapalakka aylanamiz va har bahorda birga bo'lamiz. Ammo odamlar ko'p ishlar bilan band... Mana, biz ham ayrilishimiz kerak, lekin bu abadiy emas!

— Ketganingizdan keyin meni unutasiz, — debdi Chxunxyan.

— Men kim uchun yasan-tusan qilaman, qish oqshomlari, yoz kunlari nima qilaman? Yaxshisi, meni o'ldiring-da, keyin keting!

— Menga qara, Chxunxyan, agar dadam moliya palatasi boshlig'i lavozimini olmaganida, uyezd hokimi bo'lib qolganida, biz sen bilan hech qachon ayrilmagan bo'lardik. Yig'lama, taqdir

bizni abadiy birlashtirgan. Vaqt o'tadi va biz yana uchrashamiz. Yomon o'ylarni miyangdan hayda. Axir muhabbatimiz olovi hech qachon so'nmaydi!

Ayriliq ko'z yoshini tiyish juda qiyin. Yigitcha cho'ntagidan ko'zgu chiqaribdi va uni Chxunxyanga uzatibdi:

— Mening qalbim shu ko'zgu kabi toza. U yuz yildan keyin ham o'zgarmaydi.

— Siz ketyapsiz, — debdi Chxunxyan, — qachondir qaytib kelarmikansiz? Qurigan daraxt yana gullarmikan? Pardaga chizilgan xo'roz qachondir qichqirarmikan? Kimgansan tog'lari tekis dalaga aylanarmikan?

Shu so'zlarni aytib, u barmog'idan nefrit uzugini chiqaribdi va uni yigitchaga uzatibdi.

— Mening sadoqatim shu nefrit uzukka o'xshaydi. U o'n ming yil changda yotsa ham o'zining tozaligini yo'qotmaydi. Bir kuni kelib biz albatta uchrashamiz. Oq yo'l sizga!

Yigitcha ketayotib qiz uchun qo'shiq to'qibdi:

*«Yaxshi qolishni tilayman,
Sen esa menga oq yo'l tila.*

Biz abadiy xayrlashayapmizmi — bilmayman,

Lekin men ketyapman, sen esa — g'am chekma.

Uyg'onasan — va yoningda men bo'lmayman,

*Sevgiling uzoq joylarda,
Sen uning yodidasan... G'am chekma,
Ammo meni tez-tez yod et».*

Chxunxyan qo'shiqni eshitib, unga qo'shiq bilan javob beribdi:

*«Siz: «G'am chekma...», deyapsiz,
Sizni kuzatyapman — ma'lum vaqtgami yoki abadiymi?»*

*O'rtamizda tog'lar silsilasi qad rostlaydi,
Yuzlab daryolar oqib o'tadi.*

*Istagim bitta: yo'lingiz oq,
Safaringiz bexatar bo'lsin.
Xayrlashyapmiz — ko'nglim g'am-hasratga to'la,*

Ketsangiz, ko'ksim xo'rsinishdan og'riydi».

Chxunxyan sevgilisini o'n li masofagacha kuzatib boribdi.

— Azob-uqubatlaring cheksiz, — debdi u xayrlashayotib, — siz meni unutasiz. Poytaxtga borgach, o'qishga kirasiz, so'ng katta amalga o'tirasiz. Hech bo'lmasa o'shanda meni ko'rgani keling, men sizni zoriqib kutaman.

— Nega bunday deyapsan, — deb koyibdi uni yigitcha. — Sen o'zingni ehtiyot qil va mening qaytishimni kut.

Shu so'zlarni aytib, u istar-istamay otga minibdi va yo'lga chiqibdi. Tog'dan oshib o'tibdi — besh li orqada qolibdi, daryodan kechib o'tibdi — o'n li orqada qolibdi, Chxunxyan uzoqda ko'zdan yo'qolibdi. Nima ham qilardi? Endi uning qismati — sog'inch.

Chxunxyan sevgilisini kuzatgach, shimolga qarab ko'z yoshi to'kibdi, lekin azizi uzoqda ekan. Endi uni ko'rishning ham iloji yo'q ekan. Qiz uyga qaytib kelibdi, o'z liboslari va upa-eliklarini yig'ishtirib qo'yibdi, eshiklarni zich berkitibdi, derazalarga ipak parda tortibdi. Chxunxyan uchun g'am-hasrat davri kelibdi!

Shu orada Namvonga yangi hokim tayinlanibdi. Poytaxtga mahalliy mahkamadan mulozimlar uni Namvonga kuzatib borish uchun tashrif buyurishibdi. Hokim zaruriy ko'rsatmalarni beribdi, so'ng gap orasida qiziqqan bo'libdi:

— Sizlarning uyezdingizda... Yan ismli bittasi bor...

— Bizning uyezdimizda bitta ham qo'y yo'q, — deb javob beribdi mulozimlardan biri, — echklilar esa bor, bir necha bosh.

— Ahmoq, — debdi hokim jahl bilan. — Men Yan ismli kisen haqida gapiryapman!

— Ha, Chxunxyan ismli qo'shiqchi qiz bor, — debdi mulozim, — lekin kisenlar kitobida uning ismi yo'q.

*O'rtamizda tog'lar silsilasi qad rostlaydi,
Yuzlab daryolar oqib o'tadi.*

*Istagim bitta: yo'lingiz oq,
Safaringiz bexatar bo'lsin.
Xayrlashyapmiz — ko'nglim g'am-hasratga to'la,*

Ketsangiz, ko'ksim xo'rsinishdan og'riydi».

Chxunxyan sevgilisini o'n li masofagacha kuzatib boribdi.

— Azob-uqubatlarim cheksiz, — debdi u xayrlashayotib, — siz meni unutasiz. Poytaxtga borgach, o'qishga kirasiz, so'ng katta amalga o'tirasiz. Hech bo'lmasa o'shanda meni ko'rgani keling, men sizni zoriqib kutaman.

— Nega bunday deyapsan, — deb koyibdi uni yigitcha. — Sen o'zingni ehtiyot qil va mening qaytishimni kut.

Shu so'zlarni aytib, u istar-istamay otga minibdi va yo'lga chiqibdi. Tog'dan oshib o'tibdi — besh li orqada qolibdi, daryodan kechib o'tibdi — o'n li orqada qolibdi, Chxunxyan uzoqda ko'zdan yo'qolibdi. Nima ham qilardi? Endi uning qismati — sog'inch.

Chxunxyan sevgilisini kuzatgach, shimolga qarab ko'z yoshi to'kibdi, lekin azizi uzoqda ekan. Endi uni ko'rishning ham iloji yo'q ekan. Qiz uyga qaytib kelibdi, o'z liboslari va upa-eliklarini yig'ishtirib qo'yibdi, eshiklarni zich berkitibdi, derazalarga ipak parda tortibdi. Chxunxyan uchun g'am-hasrat davri kelibdi!

Shu orada Namvonga yangi hokim tayinlanibdi. Poytaxtga mahalliy mahkamadan mulozimlar uni Namvonga kuzatib borish uchun tashrif buyurishibdi. Hokim zaruriy ko'rsatmalarni beribdi, so'ng gap orasida qiziqqan bo'libdi:

— Sizlarning uyezdinizda... Yan ismli bittasi bor...

— Bizning uyezdimizda bitta ham qo'y yo'q, — deb javob beribdi mulozimlardan biri, — echkilar esa bor, bir necha bosh.

— Ahmoq, — debdi hokim jahi bilan. — Men Yan ismli kisen haqida gapiryapman!

— Ha, Chxunxyan ismli qo'shiqchi qiz bor, — debdi mulozim, — lekin kisenlar kitobida uning ismi yo'q.

Yangi hokim taajjublanibdi:

— Kisenlar kitobida yo‘q? Bu qanaqa yangilik bo‘ldi?

— Gap shundaki, u eski hokimning o‘g‘li bilan nikoh ittifoqi tuzgan va endi uyning ayollar qismida unga sodiqlikni saqlamoqda, — deb javob beribdi mulozim.

— Nima bo‘lyapti o‘zi? — debdi hayratlanib hokim. — Qo‘shiqchi qiz kanizak bo‘libdimi? Bunaqasini birinchi marta eshitishim!

Hokim xizmat joyiga qarab yo‘lga chiqibdi. U Janubiy darvozadan chiqib, ko‘prikdan oshib o‘tibdi, Chxonpxadan, so‘ng oydin tun og‘ushidagi Bronza chumchuq manzilgohidan o‘tibdi va Sinsuvonda tunabdi. Ertasiga Sannyuchxon va Xaryuchxon daryolari oralig‘ida qad rostlagan Omve tog‘larini ortda qoldirib, hokim Chinviipda tushlik qilibdi va Chxirvondagi pochta bekatida tunabdi... Ertalab u yana yo‘lga chiqibdi va uzoq yo‘l yurib, nihoyat Namvonga yetib kelibdi. Uyezdning barcha amaldorlari yasan-tusan qilib, yangi hokimni izzat-ikrom bilan kutib olgani chiqishibdi. Kutib oluvchilar saflarining oldini sarkardalar va boshqa harbiy amaldorlar egallashibdi. Hokim paydo bo‘lgani zahoti, uning ikki tomonida otliq qo‘shin saf tortibdi, harbiylar ortida esa bir necha qator bo‘lib saf tortib kisenlar turishar ekan. Oldinda — qizil yubka va yashil kamzul kiygan yosh kisenlar, ularning orqasida — yoshi kattaroq kisenlar, keyingi qatorlarda esa — qari kisenlar turisharkan. Mulozimlar biri olib-biri qo‘yib yangi boshliqning ko‘nglini ovlashga harakat qilar ekan. Ammo hokimning xayoli faqat Chxunxyanda ekan. Namvonga kelganidan so‘ng bu xayol uni bir lahza ham tark etmabdi.

Shuning uchun ham hokim uni izlab topish ilinjida eng avvalo kisenlarni ko‘zdan kechirish niyatini bildiribdi. U o‘z oldiga kitobni qo‘yib, ularni yo‘qlama qila boshlabdi. Ammo kitobda Chxunxyan ismi yo‘q ekan. Shunda u mahkama ishlari boshqaruvchisini chaqiribdi va:

— Nima uchun ro‘yxatda Chxunxyan ismi yo‘q? — deb so‘rabdi.

— Chxunxyan erga tekkan va endi unga sadoqatni saqlamoqda, — deb javob beribdi amaldor.

— Buni qarang-a, qo'shiqchi qiz sadoqat saqlayotgan emish, — deb kinoya qilibdi hokim. — Qani, tez uni huzurimga keltiringlar!

Mirshablar jazolash ishlarini boshqaruvchi amaldor bilan birga buyruqni bajarish uchun chopishibdi. Ular Chxunxyanning uyiga bostirib kirib, uni chaqirishibdi. Chxunxyan qo'rqib ketibdi va shosha-pisha ulardan tashriflarining sababini so'rabdi.

— Seni hokimning huzuriga olib kelishni buyurishdi.

Chxunxyan yig'lab yuboribdi va onasini chaqiribdi. Onasi darrov dasturxon yozibdi va mirshablarni may bilan mast qilib, ularga pul ham beribdi.

— Kam bo'lsa ham ko'p o'rnida ko'rasizlar. Har qalay, ichkilikka yetadi, — debdi u.

Mirshablar tixirlik qilib o'tirishmabdi va pulni olishibdi.

— Biz halol odamlarmiz. Tashvish chekmang. — Shu so'zlarni aytib, ular uydan chiqib ketishibdi va mahkamaga qaytgach: — Chxunxyan uch-to'rt oydan beri kasal yotgan ekan, ahvoli og'ir bo'lgani uchun keltira olmadik. Amringizga muntazirmiz, — deyishibdi.

Yangi hokim darg'azab bo'libdi va anirini bajarmagan mirshablarni jazolab, zindonga tashlashni buyuribdi, Chxunxyanni olib kelgani esa boshqa mirshablarni yuboribdi.

— Qani, buyrug'imni bajarmay ko'ringlar-chi! Jazolayman! Hokimning so'zini ikki qilishga kimning haddi sig'adi?

Mirshablar Chxunxyanning uyiga qarab yo'l olishibdi.

— Seni deb boshqalar jabr ko'rishi mumkin. Mahkamaga borishga majbursan, tezroq qimirla!

Chxunxyan yig'lab yuboribdi:

— Odam o'z gunohlarini bilmaydi. Mening aybim nimada? Qaysi gunohlarim uchun meni ushlayapsizlar?

Mirshab javob beribdi:

— Senga rahmimiz kelayotgan bo'lsa ham qo'limizdan hech narsa kelmaydi, biz bilan birga borishingga to'g'ri keladi.

Chxunxyan boshiga ro'mol o'rabdi, eski kamzuli va yirtiq yubkasini kiyibdi, oyoqlariga poshnasi yeyilgan kovushini kiyibdi va oyoqlari chalishib yo'lga tushibdi. U ko'zlaridan duv-duv yosh

quyilib mahkamaga kirib kelibdi. Yangi hokim unga ko'zi tushgani zahoti:

— Oldimga keltiringlar! — deb buyuribdi.

Eshik oldida uymalashib turgan mirshablar darhol Chxunxyanga tashianishibdi va uning sochidan changallab, polga uloqtirishibdi. Hokim Chxunxyanga nazar tasblabdi va yuragi jiz etibdi. U Szinshan tog'idagi qimmatbaho nefritga, yuzini bulutlar to'sgan to'lin oyga o'xshar ekan. Hokimning vujudi jo'xori poyasidek titrab ketibdi, hatto og'zidan suvi kelibdi. Mulozimga o'girilib:

— Menga qanday tavsiflashgan bo'lsa, shunday ekan! — debdi.

Mulozim qulluq qilib, uning gapiga qo'shilibdi. Uning o'z fikri yo'q ekan va bu hokimga juda ma'qul kelibdi.

— Sen shu yerlik kisensan-ku, — debdi u Chxunxyanga qarab, — nega hokim chaqirsa, kelmaysan?

— Amringizga bo'ysunmaganimning sababi shundaki, men eski hokimning o'g'liga xizmat qilganman va endi uning oilasiga mansubman, — deb javob beribdi Chxunxyan.

Bu gapdan yangi hokimning afti burishibdi.

— Senday bir sayoq qiz sadoqat haqida gapirishining o'zi g'alati. Bu gapni eshitsa, xotinim hushini yo'qotadi. Bunaqa bo'imag'ur gaplarni qo'y! Bugundan boshiab mening xizmatimni qilasan.

— O'lsam o'lamanki, sizga bo'ysunmayman! — debdi Chxunxyan.

— Ko'p vaysamay, buyruqni bajar! — debdi hokim jahli chiqib. Chxunxyan bunga shunday deb javob beribdi:

— Qadimda: «Sodiq fuqaro ikki podshoga xizmat qilmaydi, bokira ayol ikki marta erga tegmaydi», deyishgan. Boshimizga kulfat tushib, mamlakatimiz isyonchilar hukmi ostida qolsa, siz, hokim, ularning oldida bosh eggan bo'lardingiz.

Bu gapni eshitgan hokimning ko'zlariga qon quyilibdi va u Chxunxyanni jazolashni buyuribdi. Mirshablar yugurib kelib Chxunxyanning qo'llarini qayirishibdi va jinoyatchilar so'risiga uloqtirishibdi. Hakam shu zahoti aybnomani o'qib eshittiribdi:

— «Sen, shu yerlik bir qo‘shiqchi bo‘la turib, o‘zboshimchalik bilan o‘zingni fazilatli va olijanob deb atading. Sen yangi hokimga tuhmat toshini otding, buyrug‘ini bajarishdan bosh tortding. Bundan ortiq bedodlik bormi! Sening jinoyating o‘n ming o‘limga loyiq, lekin avval seni qattiq jazolashadi».

— Yaxshilab savalanglar, — degan buyruq yangrabdi.

Chxunxyanning yuragi tovoniga tushib ketibdi. Jallod jazo uchun tayoqlardan bir nechtasini sinab ko‘rib, chetga uloqtiribdi. So‘ng ulardan birini tanlabdi va bor kuchi bilan so‘riga uribdi. Xuddi osmonda momaqaldiroq guldiragandek ovoz yangrabdi.

— Endi ham buyruqqa bo‘ysunmaysanmi? — deb so‘rabdi hokim Chxunxyandan.

— Bu haqda gapirish behuda, — deb javob beribdi Chxunx-
xan. — O‘tkir qilichingiz bilan vujudimni tilkalang, yaralarimga tuz seping, lekin qalbimda g‘azab yanada ortadi va u poytaxt sari uchadi.

— Aybiga iqrор bo‘lmaguncha, ayamasdan savalayveringlar! — deb buyuribdi hokim.

Jallod ikki darra uribdi, so‘ng biroz nafasini rostlab, yana uribdi va Chxunxyanning oppoq oyoqlaridan qon chiqibdi. Buni ko‘rgan hammaning qizga rahmi kelibdi. Chxunxyanga o‘n, o‘ttiz darra tushibdi va u hushdan ketibdi. Shunda hokim qizni zindonga tashlashni buyuribdi. Turma boshiig‘i buyruqni bajaribdi.

— Men besh muqaddas amr va uch ma‘naviy asosni bil-
maymanmi? — deb nola qilibdi Chxunxan. — Men davlatning donini o‘g‘irlabmanmi? Meni tayoq urib jazolash adolatdanmi! Nima uchun bo‘ynimga va oyoqlarimga kanga kiydirishdi? Sevgilimni bir marta ko‘rish uchun o‘limga ham roziman, lekin peshionamga azob-uqubatlarda o‘lib ketish yozilganga o‘xshaydi. Naqadar ayanchli!

Onasi esa o‘zinikini uqtirar emish:

— Sening sodiqliging kimga kerak? Qanday dahshatli jazoga dosh berishingga to‘g‘ri keldi! Gapimga kirib, hokimga kanizak bo‘lishga rozilik berganingda, bunday bo‘lmas edi. Namvonda hamma narsani o‘z qo‘lingga olarding, butun uyezd hukming ostida bo‘lardi! Sening sodiqliging hech kimga kerak emas. Men,

so‘qqabosh ayol, seni oltin va nefrit kabi avaylab asradim, qachondir baxtli kunlar keladi, deb o‘ylagan edim. Endi men g‘am chekmay, kim g‘am cheksin?

Bo‘lgan voqea xabari butun Namvonga tarqalibdi. Chxunxyan bilan xayrlashgani dugonalari va qo‘shnilar kelishibdi, hammaning unga rahmi kelibdi, uni hushga keltirish uchun dori-darmonlar keltirishibdi, shirinliklar berishibdi. Hamma unga yordam berishga oshiqibdi. Musuk Chxunxyanni o‘z yelkasida zindonga eltgunga qadar Kunpxyon qizni yelpib boribdi, Txodjun uning kanga kiydirilgan boshini ko‘tarib turibdi, Txepxyon va Kunbin orqada borishibdi. Zindon eshigiga ular zo‘rg‘a sig‘ishibdi.

Chxunxyan hammani uy-uyiga jo‘natibdi va yolg‘iz qolgach, yig‘lab yuboribdi:

— Endi kunlar ketidan kunlar, oylar ketidan oylar azob tortaman! Qadimda chjoulik mashhur Ven-van Yuli zindonida o‘tirgan, lekin keyinchalik o‘z podsholigiga qaytgan edi. Balki men hiam zindonni qachondir tark etarman va sevgilim bilan ko‘risharman?

U ustiga bo‘z mato tashlangan chorpoyaga yonboshiab, uxlab qolibdi. Shu vaqt Chxunxyanning onasi unga qaynatilgan guruch keltiribdi.

— Chxunxyan, tirikmisan? Agar tirik bo‘lsang, ovoz ber! Nega jimsan?

Onasi yig‘lab yuboribdi. Chxunxyan cho‘chib hushiga kelibdi.

— Naqadar mazali taom, — deb maqtabdi Chxunxyan. — Naq sakkiz anvoyi taomning o‘zi. Chinni kosadagi shudring!.. Nahot sevgilim bilan ko‘rishmay o‘lib ketaman? Kunim bitgan ko‘rinadi. O‘lsam, meni Yukchi matosiga o‘ranglar. Yurtimizda katta daryolar va baland tog‘lar bor, lekin meni bu yerda dafn etmanglar! O‘ligimni poytaxtga olib boringlar va sevgilim yuradigan yo‘lning chetiga ko‘minglar. Qabriming yomidan o‘tayotganda meni eslasin.

— Bu nima deganing? — debdi onasi ranjib.— Seni bolaligingdan papalab katta qilganman. Sen bo‘lsang bir nobakorning gapiga uchding, unga sadoqat saqlayapsan. Boz ustiga, buning uchun jazolanding. Menga ham oson tutma. G‘ururingni jilovlab,

tanangga o'ylab ko'r. Hokimga kanizak bo'lsang, hammasi iziga tushib ketadi.

— Onajon, bunday gaplarni boshqa gapirmang, — deb nola qilibdi Chxunxyan. — Vaqt o'tadi, qish kuz bilan almashadi, lekin inson qilmishlari o'zgaruvchan emas. O'lsam o'laman, lekin qalbim osmon va yer kabi toza bo'lib qoladi. Onajon, siz behuda tashvish chekmang. Yaxshisi, uyga boring.

Qiz g'am-hasrat va yolg'izlikda bir necha oyni o'tkazibdi. Bir kuni tushiga yer-u osmon o'rtasida turgan bir uy kiribdi. Uyning eshigi ustiga qo'g'irchoq osilgan, hovlining yuzi olcha gullari bilan to'shalgan, u o'zini ko'radigan katta ko'zgu o'rtasidan darz ketgan ekan. Qiz cho'chib uyg'onib ketibdi. G'aroyib tush — Nanke haqidagi tushga o'xshaydi! Bu tush bekorga kirmagan ko'rinadi. Nanyanda, tomiga chim bosilgan kulbada ko'rilgan uzoq tushga o'xshaydi! Bu nimani anglatishi mumkin? «O'ladigan kunim yaqinlashganidan darak bo'lsa kerak, — deb o'ylabdi Chxunxyan. — Men o'limdan qo'rqmayman, lekin sevgilim bilan ko'rishmay o'ladigan bo'lsam, ko'zim ochiq ketaman».

Chxunxyan shunday o'ylar bilan hasrat chekib turgan bir paytda, zindon oldidan qo'shni qishloqlik bir ko'r o'tib qolibdi. Qiz zindonbondan ko'rni chaqirishni so'rabdi.

— Hoy, seni Chxunxyan chaqiryapti, — debdi u ko'rga.

Ko'r zindonga qarab yuribdi. Yo'lakni o't bosgan, u axlatdan tozalanmagan ekan. Ko'r hassasi bilan yerni paypaslab borar ekan, birdan mol axlatiga sirpanib ketibdi va it axlati ustiga yuztuban yiqilibdi. U tirsagiga tiralib turibdi va yig'lab yuboribdi.

— Mana, sirpanib ketdim...

Qo'lini silkitgan ekan, turma devorining bo'rtiq joyiga qattiq urilibdi. U og'riqqa chidayolmay, qo'lini og'ziga tiqibdi. Bundan kulmay bo'larkanmi? Ko'r zindonning eshigi oldiga kelibdi.

— Kiring, — deb chaqiribdi uni Chxunxyan.

Ko'r ichkariga kirib o'tiribdi va:

— Holingni so'rab nima qildim? Kel, yaxshisi, kaltak yegan joylaringni ushlab ko'raman, — debdi.

Ammo behayo ko'rning niyati yaxshi emas ekan. U qizning yaralarini ushlab ko'rish bahona, uning yubkasi etagini ko'taribdi.

— Shunday go'zal qizni kaltaklashibdi-ya! Kim qildi buni? Kimmi yoki Limi? Menga hammasini gapirib ber.

— Menga fol ochib qo'ysangiz. Meni nima kutyapti: hayotmi yoki o'limmi?

— Sen hali ulardan o'ch olasan, — debdi ko'r va qizni paypaslashda davom etibdi, asta-sekin qo'li yuqoriga ko'tarilib boribdi va nihoyat, eng nozik joylarga yetib boribdi. Chixunxyan uyatdan qip-qizarib ketibdi, ko'rning yuziga tarsaki solmoqchi bo'libdi, lekin fol ko'rmay qo'yishidan qo'rqib o'zini tiyibdi.

— Otamday yoki katta akamday odam ekansiz. Boshimga musibat tushgan, otam bolaligimda qazo qilgan. Siz menga akalik qiling. Kelajagimni aytib bering.

Ko'r uning fikrini tushunibdi, lekin o'zini go'llikka solib shunday debdi:

— Sen haqsan, o'rtamizda do'stlikdan boshqa hech narsa bo'lishi mumkin emas. Balki biz hatto qarindosh ham chiqarmiz. Axir sen qishlog'imizdagi Lining qarindoshisan-ku. Demak, biz sen bilan bir-birimizga uzoq qarindosh bo'lamiz.

Chxunxyan uning gapini eshitib:

— Yo'q, biz qarindosh emasmiz. Yaxshisi, menga fol ochib qo'ying, — debdi va unga pul uzatibdi. Ko'r avval: «Pulingni boshimga uramanmi!», deb rad etgan bo'libdi, lekin keyin pulni olibdi va qizdan qanday tush ko'rganini so'rabdi.

Chxunxyan tushini gapirib beribdi, ko'r esa toshlarini baland ko'tarib fol ocha boshlabdi.

— Osmon, sen nima deysan? Sendan so'rayapman! Ilohlr va o'lganlarning ruhiari, menga muruvvat ko'rsating. Shu yil, shu oy va shu kuni ayting! Er-xotin — falon yili Namvonda tug'ilgan xotin va falon yili tug'ilgan erkak baxtli bo'lishadimi? Falon tunda xotin falon tushni ko'ribdi, buning ta'biri qanday?! Iltimos, tushuntirib bering! Shao Kan-sze, chjoulik Shao-gun, Go Pu, Li Chun-fen, Chjuge Kun-min, barcha buyuk ustozlar! Hal qiling: baxtmi yoki baxtsizlik?! — Fol ochib bo'lgach, u shunday debdi: — Gullar to'kilgani mevalar yetilishidan, ko'zgu singani — ko'p shovqin bo'lishidan darak! Eshik ustida qo'g'irchoq osilgan bo'lsa, hamma odamlar senga hurmat ko'zi bilan

qarashadi! Mana, bu nimani anglatadi. Yosh janob Li imtihon topshirib keladi va sizlar yana uchrashasizlar!

— Bunga umid qila olamanmi! — deya xo'rsinibdi Chxunxyan.

— Ko'yलगingning tasmalarini bog'lab ol va tashvish chekma! Hammasi joyida bo'ladi, — deya tinchlantiribdi uni ko'r va ketishga taraddud ko'ra boshlabdi.

— Ishqilib, aytganingiz kelsin! — deb xitob qilibdi Chxunxyan.

U kecha-yu kunduz azob chekibdi. Shu orada Li poytaxtga kelgach, ilmga mukkasidan berilibdi. «Ming so'zlik», «Uch kitob», «To'rt kitob» va «Tanlik yuz shoir»ni o'qib tushiribdi. Hammadan ko'p u Li Tay-bo va Lyu Szun-yuanni, Bo Le-tyan va Du Muni yaxshi ko'rar ekan. Xitoylik shoirlarga xos iste'dod uning o'zida ham yo'q emas ekan?

Mamlakatda tinchlik-osoyishtalik hukm surar, dalalar yaxshi hosil berar ekan. Hammasi chillak o'ynovchining qo'shig'ida aytilgan zamonni eslatar ekan. Podsho iste'dodli yordamchilarni tanlash uchun imtihon o'tkazishga qaror qilibdi.

Li insho uchun qog'ozmi olib, imtihon supasiga ko'tarilibdi va mavzuni o'qibdi: «Tinch ko'chalarda xalq qo'shiqlarini eshitdim». U bir lahzada inshoni yozib bitiribdi. Imtihon oluvchi inshoni o'qib chiqib, har bir satrni qizil doira bilan, har bir iyeroglifni esa — nuqta bilan belgilabdi. Lining inshosi eng yaxshi insho deb e'tirof etilibdi, imtihondan o'tganlar ro'yxatida uning ismi hammadan yuqorida qayd etilibdi. Lining muvaffaqiyatlari haqida e'lon qilingach, u nefritdan qurilgan supaga ildam ko'tarilibdi va podshoga marhamati uchun rahmat aytibdi, ketayotganda uning boshiga dolchin daraxtining barglaridan yasalgan toj, egniga ko'k to'n kiydirishibdi, beliga qimmatbaho kamar bog'lashibdi. Chap qo'lga oq nefritdan yasalgan qush, o'ng qo'lga esa — qizil yog'ochdan yasalgan qushni tutqazishibdi. Musiqa yangrabdi. Yigitcha oq otga, zarhal iplar bilan tikilgan egarga minibdi va shohko'cha bo'ylab uyiga qarab yo'l olibdi. Atrofdan: «Bu o'sha, imtihondan birinchi bo'lib o'tgan yigit!», degan ovozlari eshitilibdi. Uch kunlik ziyofatdan so'ng yigitcha

ajdodlar qabrini ziyorat qilibdi, so'ng ta'zim bajo keltirib, nefrit zinalardan tepaga ko'tarilibdi. Podsho unga shunday debdi:

— Otang — mamlakatimiz tayanchi, endi biz sening iste'dodlaringdan ham xabar topdik. Bu ajoyib bir hol emasmi? — U yigitchadan uning yozgan asarlari haqida so'rabdi.

Li tavoze bilan javob beribdi.

— Osmon ostida hozir tinchlik va osoyishtalik hukm surmoqda. Ammo, qayerdadir amaldorlar o'z mansab mavqeyini suiiste'mol qilayotgan bo'lsalar kerak. Men xalqimiz o'z taqdiridan norozi emasligiga ishonch hosil qilish uchun sakkiz provinsiyaning hammasini aylanib chiqishga tayyorman va hammayoqda siz, a'lo hazrat amrlarini vojib etaman.

Podshoga uning gaplari ma'qul bo'libdi.

— Sodiq fuqaroning gaplarini gapirding. Mening o'ng qo'lim bo'lasan! Hozirning o'zida podsho taftishchisi sifatida uch janubiy provinsiyaga yo'l ol!

Li uyidagilar bilan xayrlashib, yo'lga o'tlanibdi. U oyog'iga bekatlarda ot olish uchun taxtachani bog'labdi va o'z xizmatkoriga:

— Mendan oldinda bor va xalq gapiga quloq sol! — deb buyuribdi.

O'zi hech kim tanimasligi uchun juldur kiyim kiyib olibdi. Sunnemun darvozasidan chiqqach, toshloq yo'ldan yurib Peksadjandan o'tibdi va Bronza chumchuq shaharchasini ortda qoldiribdi, rohiblar ochgan so'qmoq bo'ylab Namtxeryon tog'iga ko'tarilibdi, Kvachxon va Indogvon daryolaridan kechib o'tib, Kalmve, Sagire, Bolutli shiypenni ham ortda qoldiribdi, horg'in qadamlar tashlab Chinvi, Chxirvon, Sose, Sonxvandan o'tibdi, so'ng Chxonandagi chorraha va Chingedagi pochta bekatini ortda qoldiribdi, Tokpxyop, Von-txo, Illyugvon, Kvandjon, Xvarvon qovoqxonasi, Murvonsa monastiridan o'tibdi, Kimgan va Kondjuni, Chopchxoy va Nosonni ortda qoldiribdi, Indjin, Takkiri, Yosan va Samnedan o'tibdi, nihoyat, taxta ko'prikdan o'tib, Chondju shahriga yashirincha kirib kelibdi.

U shahar bo'ylab kezibdi, xalq nima haqida gapirayotganiga quloq solibdi va Imsilgacha yetib boribdi.

Bahorning ayni avj pallasi ekan. Tabiatning go'zal manzalarini tomosha qilgachi, yigitcha yo'lida davom etibdi va yo'l burilgan joyda dehqonlar ishlayotgan sholizorlarga ko'zi tushibdi; kimdir yer shudgorlayotgan, kimdir ekin ekayotgan ekan. Bularning barchasi chillak o'yinchisining qo'shig'ida aytilgan dorilomon zamonlarni eslatarkan.

*«Biz dehqonlarmiz. Tinch-omon kunlarda
Dalalarni shudgorlash, ekin ekish uchun chiqdik.*

*Qadim zamonlarda podsho Yao
Dehqonlar qo'shig'ini eshitishni yoqtirar ekan.*

*Tinch zamon ekan va dehqonlar bu haqda kuylasharkan.
Biz ham Yaoning nasihatlariga rioya qilamiz.*

Ol-nol-nol-sansade!

*Dehqon — to'q, dehqon — xursand...
O'n ming yil shunday bo'lsin!*

Ol-nol-nol-sansade!

*Podsho Shun idish-tovoqlarni o'zi yasar ekan,
Lishan tog'ida yerni o'zi yumshatarkan.*

*Shen-nun dehqonlarga yengillik beribdi:
Aytishlaricha, omoch uning ixtirosi emish.*

Podsho hamma tomondan dehqonga o'xshar ekan...

Biz bo'lsak ochlikdan kechasi barmog'imizni so'ryapmiz!

Ol-nol-nol-sansade!

Qop bizga chorpoya bo'lib xizmat qilyapti,

Qayrag'och sharbati biz uchun — nilufar sharbati!

Ol-nol-nol-sansade!»

Ular qo'shiq kuylayotgan paytda taftishchi yuzini yelpig'ich bilan berkitib turibdi, qo'shiq oxiriga yetgani zahoti u dehqonlarni chaqiribdi:

— Hoy, yigitlar, sizlarda gapim bor!

Dehqonlar ishini to'xtatib qomatlarini rostlashibdi, ulardan biri yigitchaga yaqinlashibdi.

— Bu ovloq tog'larga qayerdan kelib qolding? Senga nima kerak? Buncha qo'rqinchlisan, nima, tog' ostida uxladimgi?

Boshqa dehqon shu vaqt o'z sheriklariga quyidagi so'zlarni aytib turgan ekan:

— Eshitishimcha, yurtimizga taftishchi yuborilgan emish. Bu odamga yomon gapirmaganimiz ma'qul. Ko'rinishdan u anoyiga o'xshamaydi. U bilan muloyimroq bo'lganimiz ma'qul!

Bu gapni eshitgan Li: «Chol sezgir ekan!», deb xayolidan o'tkazibdi.

— Hokimingiz yurtni qanday boshqaryapti? — deb so'rabdi u dehqonlardan. — Xalqqa ozor yetkazmayaptimi? Aytishlaricha, u o'ta xotinboz ekan va Chxunxyanni kanizak qilib olgan emish?

Dehqonning g'azabi qaynabdi.

— Hokimimiz yaxshi bo'ladimi, yomon bo'ladimi, bu bolutni baribir hech kim sindira olmaydi!

— Mahkamadagi ishlar haqida nimalarni eshitgansiz?

Dehqon xaxolab kulib yuboribdi.

— Mahkamadagilar hammasini bir-birining aybini yashiradi. Hokim ochko'zmi, ochko'z emasmi — bilmadim-u, lekin xalqdan bor sholi va paxtani tortib olyapti. Boz ustiga, u buzuq odam, lekin Chxunxylan unga kanizak bo'lishdan bosh tortdi va buning uchun shafqatsiz jazolandi. Eski hokimning o'g'liga ham qoyil qolmadim: bu yerdan ketdi-yu, qorasi o'chdi. Bu ablah qayerga gum bo'ldi ekan?

— Aljirama! Birovning ishlari haqida sen nima bilarding? — debdi Li jahli chiqib va yuzini chetga buribdi. Dehqonning

xayolidan: «Bu janob nechukdir qattiq xafa bo'ldi», degan o'y o'tibdi.

Yigitcha yo'lida davom etibdi, dehqonlar esa yana ketmonlarini qo'lga olib, «Tog'lardagi gullar» qo'shig'ini kuylay boshlashibdi:

*«Kimgadir taqdir — jazo,
kimgadir— mukofot:*

*To'qchilik, oliftalik,
bekorchilik, ko'ngilxushlik;*

*Ajdodlar aybi uchun ular
xun haqi to'lamaydilar...*

*Boshqalarning peshonasiga
to'rt yomon qismat yoziladi,*

*Ular o'lguncha qutulmaydilar
kulfat va azoblardan.
Atrofda to'qchilik va yo'qchilik,
quvonch va qayg'u hukmron!»*

Yosh yigitlar esa quyidagi qo'shiqni kuylashayotgan ekan:

*«Bizning sohibjamol qizimiz
Qo'shni qishloqlik yigitga yoqib qoldi!..»*

Ha, dunyoning ishlari chindan ham ajoyib! Yigitcha bularni kuzatib turib: «Hov anavi bola hali enagasining qo'lidan ovqat yeydi, manavi yigit esa, hali uylanmagan bo'lsa ham erta-yu kech mehnat qiladi!»

U uzoq-uzoqlarga ko'z tashlabdi: u yerda Xvanxasu daryosining suvlari Xansu daryosiga quyiladi. Ular bir-biriga qo'shilib, sharshara bo'lib oqadi. Gullar ochiladi va so'ladi, shamol barglarni yulib uchiradi. Bularning hammasi g'aroyib emasmi?

U yo‘l bo‘ylab yana biroz yuribdi. Muyulishdan o‘tganda qovoqxona oldida elliklarga borgan bir erkak o‘tdan arqon eshlab, «Umrning yarmi o‘tdi» qo‘shig‘ini xirgoyi qilib o‘tirgan ekan:

*«Umrning yarmi o‘tdi,
Yoshlikni endi qaytarib bo‘lmas,
Ammo men qarilikni
bo‘ynimga olmayman.*

*Sochlarimga qarayman —
«Sen yana biroz qaribsan»,
Deya pichirlashadi menga
mening qirov bosgan sochlarim».*

U ingichka arqonlar eshayotgan ekan. Li u bilan gaplashmoqchi bo‘libdi, lekin qariya uning savollariga javob bermabdi, faqat uni boshdan oyoq ko‘zdan kechiribdi. Qo‘shig‘ini tamomlab u shunday debdi:

— «Saroyda amalga, qishloqda — sochning oqiga qara», degan maqol bor. O‘zingdan kattaga salom berish kerakligini bilmaysanmi?

— Uzi. Men sizdan faqat bir narsani so‘ramoqchi edim, — deb o‘zini oqlay boshlabdi yigitcha. — Eshitishimcha, bu yerning hokimi buzuq odam ekan, Chxunxyanni kanizak qilib olganmish. Shu rostmi?

Qariya qoshini chimiribdi:

— Bu g‘iybatni gapirib, Chxunxyanning sha‘niga tuhmat qilma. Hokim, albatta, buzuq odam, lekin Chxunxyan unga kanizak bo‘lishga rozilik bermadi va shuning uchun zindonga tashlandi. Tez orada ruhga aylansa ham ajab emas. Qaroqchining o‘g‘li — janob Li shunday qizni tashlab ketdi va holidan xabar ham olmayapti. Bunaqa nobakor dunyoda bormikan?

Qariyaning gapini eshitgandan so‘ng Chxunxyan xayoli yigitchaning yuragimi battar o‘rtay boshlabdi. U qolgan yo‘lni tez bosib o‘tibdi va Namvonga kelibdi. Ko‘chada odamlarning gapiga quloq solibdi. Odamlar orasida g‘ala-g‘ovur ko‘tarilgan

ekan: «Taftishchi kelibdi!» Mahkamada eski hisob-kitob daftarlarini shosha-pisha tartibga keltira boshlashibdi. Endi to'rt kyol keladigan yer maydonidan bir miqdor sholi, olti kyol keladigan yer maydonidan esa — uch miqdor sholi o'lpon olisharkan. G'arbiy va sharqiy omborlarda he yo'q-be yo'q qarzga guruch, yung va ip gazlama bera boshlashibdi. Unvonlar mahkamasi boshlig'i va g'aznachi qo'rquvdan dir-dir titrab, kitoblardagi noto'g'ri yozuvlarni tuzata boshlashibdi.

Bularning barchasidan xabar topgach, Li Chxunxyanning uyiga qarab yo'l olibdi. Hovlida Chxunxyanning onasi ko'z yoshi to'kib yovg'on xo'rda pishirayotgan ekan.

— Qismat ham shunchalik achchiq bo'ladimi! Men erta yetim goldim, keyin erimdan ayrildim, qarigan chog'imda esa qizimdan ham ayrildim. Bu nobakor Liga ishondim! Nega bunday bo'ldi? Osmon podshosi, menga rahm qil!

Yigitchaning unga rahmi kelibdi.

— Hozir boshingizga shunday musibat tushgan, lekin yaxshi kunlar ham kelar? — debdi u xo'rsinib va Chxunxyanning onasini chaqiribdi. U joyidan dik etib turibdi.

— Kim bu? Og'ir kunlarimda oldimga kim keldi?

U ko'rgani chiqibdi.

— Gadoga o'xshaydi. Ko'rmi, deyman? Bu yerda qashshoq odamlar yashashini ko'rmayotganga o'xshaydi. Bitta-yu bitta qizim bor edi, uni ham zindonga tashlashdi. Bor bud-shudimni sotishga majbur bo'ldim. Sadaqa berishga holim yo'q, nari o'taver!

Yigitcha jilmayibdi va ayolni yana chaqiribdi.

— Onaxon meni tanimayapti shekilli?

— Kimsan o'zi? Kim Gvonnnonmisan? O'zingni ko'rsat! Kimligingni bilmayapman.

Shunda yigitcha:

— Yosh janob Li keldi, — debdi.

Chxunxyanning onasi unga sinchiklab qarabdi va:

— Yuzingdan chindan ham yosh Liga o'xshaysan, lekin kiyimingga qarasam, gadodan farqing yo'q. Nima bo'ldi? Bu ahvolda kimga ko'rinasiz? Boshimizga musibat tushdi. Sizni deb qizim Chxunxyan hozir zindonda jon beryapti. Kecha-yu kunduz

sizga umid qilgan edik, janob Li, faqat sizni mushtaq bo'lib kutgan edik. Siz bo'lsangiz shu ahvolda bino bo'ldingiz! Endi bizning holimiz nima kechadi?

Yigitcha o'zini hech gapdan xabari yo'q qilib ko'rsatibdi va nima bo'lganini surishtira boshlabdi. Chxunxyanning onasi yig'lab yuboribdi va bo'lgan voqeani hikoya qila boshlabdi.

— Taqdirning o'zgaruvchanligini qarang! Mening taqdirim ham baxtli bo'lmadi. Imtihondan o'tmadim, ishlarim ham yurishmadi. Shuning uchun ham men bu yerga qaytib keldim. Yuring, Chxunxyanning oldiga boramiz! — debdi yigit.

Sho'rlik ayol yigitchaning ortidan ergashishga majbur bo'libdi. Yigitcha yirtiq qalpoq va poxol choriqda yo'l chetidan zo'rg'a sudralib borarmish. Shamolda xuddi kasal odam kabi chayqalarmish. Ular turma darvozasi oldiga kelishibdi va Chxunxyanni chaqirishibdi.

— Musibat bir kelsa, qo'shilib keladi, deyishadi. Qara, oldingga Qo'ng'iroqxona ko'chasidan gado keldi! Chiqib ko'r, nodon qiz!

Shunda yigitchaning jahli chiqibdi va ayolni oldidan quvib solibdi. U zindonga yaqinlashibdi va yana Chxunxyanni chaqiribdi.

Chxunxyan ruhi tushib, boshini kanguga qo'yganча mudrab qolgan ekan, o'zini chorlagan ovozni eshitib o'rnidan sakrab turibdi.

— Meni izlayotgan kim? Inshuy daryosidan zohidlar Chao-fu va Syuy-yu dunyoning ishlari haqida men bilan gaplashgani kelishdimi? Yoki may bilimdonlari meni ziyofatga chaqirish-yaptimi? Balki shouyanshanlik Bo-i va Shu-si meni sadoqatni saqlab o'lishga chaqirishayotgandir yoki E-xuan va Nyuy-in meni o'zlari bilan birga Shunyuning eri oldiga borishga taklif qilishayotgandir? Balki Li Tay-bo men bilan she'riyat haqida suhbatlashmoqchidir? Balki muqaddas Tayshan tog'idan tushgan pari Ma-gu Sukxyanni chaqirishimni istayotgandir? Kim meni chaqiryapti?

Shunda yigitcha uni yana chaqiribdi. Bu safar Chxunxyan uning ovozini tanibdi va sevinchdan mast bo'lib qolibdi. U zo'rg'a o'rindan turib, sochini tarabdi.

— Bu mening tushimmi yo o'ngimmi? — debdi u to'liqlanib. — Bu yerda u meni qanday topdi? Balki osmondan tushgandir? Yoki bulutda uchib keldimi? Balki xizmatda band bo'lgani uchun kela olmagandir?

*«Yozda bulutlar shakldor bo'ladi,
tog' cho'qqilariga o'xshaydi...».*

Balki siz o'sha tog'lar juda baland bo'lgani uchun kelmagandirsiz?

*«Bahorda quyilgan suvlardan
daryolar ham, ko'llar ham ho'ppa semiradi...».*

Balki suv sizning yo'lingizni to'sgandir? Nima uchun sizdan hatto ikki enlik xat ham kelmadi? Axir men o'lib ketishim mumkin edi, shunda biz faqat narigi dunyoda uchrashgan bo'lardik. Endi biz ko'rishdik va men bundan behad xursandman! Go'yo Yetti yillik qurg'oqchilik paytida yomg'ir yog'di, Buyuk suv toshqini paytida quyoshi charaqladi. Qanday xursandchilik! Sizning so'zlaringiz meni hayotga qaytardi.

U kundadagi oyoqlarini zo'rg'a bosib, turma darvozasi oldiga kelibdi va tashqariga qarashga harakat qilibdi.

— O, sevgilim meni chorlayapti! Hozir uning yuzini ko'raman! Yigitcha yaqinroq kelibdi. Chxunxyan eshikdagi tirqishdan mo'ralabdi. U tinimsiz hiqillab ko'z yoshi to'kar ekan.

— Nahotki bu mening sevgilim? Nima uchun siz bunday ahvoldasiz? Siz endi gadosiz, men esa o'laman va ruhga aylanaman. Osmonga biz nima yomonlik qilgan edik?

— Mening taqdirim ham o'xshamadi, — deb javob beribdi yigitcha. — Imtihondan o'tolmadim, shuning uchun ham shunday ahvoldaman. Lekin bizning ittifoqimiz mustahkam, oldingga ming li yo'l bosib keldim. G'am chekma! Yaxshi kunlar ham keladi!

— Qanday musibat! Qanday musibat! — debdi bosh chayqab Chxunxyan. — Nima uchun men bunday baxtsizman? — U onasini chaqiribdi.

— Meni chaqirgandan nima foyda! — debdi onasi. — Men kecha-yu kunduz umid qilgan edim, endi umid qiladigan narsaning o'zi qolmadi. Bekorga kutgan ekanmiz. Bundan ortiq baxtsizlik bormi dunyoda?

— Bunday demang, — debdi unga Chxunxyan. — «Osmon ag'darilib tushsa ham qutulish uchun tuynuk topish mumkin!», degan maqol bor. G'am chekmang, yaxshisi, aytganimni qiling: uyga qaytib, janobga qarang. Ovqat tayyorlang, uni yaxshilab mehmon qiling, so'ng xobgohda unga o'rin solib, meni bolalikda qanday allalab uxlatgan bo'lsangiz, uni ham shunday allalab uxlatib. Qolgan buyumlarimni soting va janobga yaxshi ko'ylak olib bering. Siz esa, — deb yigitchaga murojaat etibdi u, — mening uyimga boring va xotirjam dam oling. Ertaga hokimning tug'ilgan kuni, ziyofat tugagach, meni qatl etishadi.

Qizning kangadagi boshi titrab ketibdi. Li esa, qizni qo'lidan kelgancha ovutib, uning onasi ortidan ergashibdi. Ular yo'l ayrilgan joydan o'tishgach, qizning onasi yigitchadan so'rabdi:

— Siz nima qilmoqchisiz?

Yigitcha unga shunday deb javob beribdi:

— Men haqimda yomon o'ylayotgan bo'lsangiz ham, bugun uyingizda tunayman, ertaga esa biron yoqqa ketaman. Tashvish chekmang.

U Chxunxyaning uyiga kelib shu yerda tunabdi, ertasiga saharda mahkama darvozasiga qarab yo'l olibdi.

Bu yerda bayramga tayyorgarlik avjida ekan. Ziyofatga birinchi bo'lib yaqin uyezdlardan oliy martabali mulozimlar kelishibdi, so'ng qari kisenlar olabayroq ko'ylak kiygan yosh shogirdlari kuzatuvida paydo bo'lishibdi. Dasturxonlar tuzalgan, mashshoqlar musiqasi baraila yangrayotgan ekan. Kisenlar «*ipchxum*»ni o'ynashibdi, so'ng qilichlar bilan raqsga tusha boshlashibdi. Komungo xuddi qayiq'larni eslatar ekan.

Ziyofat o'tayotgan xonaga yigitcha ham kirmoqchi bo'lgan ekan, uni eshikdan tashqariga turtib chiqarishibdi.

— Senlarning xursandchiliging hali ko‘z yoshi bilan tugaydi, — deb g‘udillabdi u. — Hozircha o‘ynab qollaring! Hali senlarni bir boplay! Qo‘rquvdan ishtonlaringga qilib qo‘yasanlar! — U stehzo bilan iljayibdi.

Tez orada yut chala boshlashibdi. Yigit mahkama atrofida larg‘azab holatda kezibdi. Bir payt darvoza oldida turgan mirshab o‘shob qilgani chetga o‘tibdi. Li shundan foydalanib ichkariga kiribdi. Uni ko‘rgan hokimning jahli chiqibdi va mirshabni oldiga chaqirib, gadoni bu yerdan haydab solishni buyuribdi. Shu zahoti yaqinroq turgan mirshablar yugurib kelib yigitchani g‘iribonidan ushlabdi va tashqariga qarab sudrashibdi. G‘azabini zo‘rg‘a tiyib, yigitcha yana mahkama darvozasi oldida zg‘iy boshlabdi, ichkariga kirishning yo‘lini izlabdi. Shu vaqt mahkama orqasidagi devorda guruch qopi bilan yopib qo‘yilgan teshikka ko‘zi tushibdi. Yigitcha shu teshik orqali chkariga kiribdi va to‘ppa-to‘g‘ri ziyofat bo‘layotgan xonaga kirib borib, hokimga murojaat etibdi:

— Men shaharlaringga tasodifan kelib qoldim. Ajoyib dasturxon-ingizdan tamaddi qilsam bo‘ladimi?

Hokimga bu yoqmadbi, Unbondan kelgan sarkarda esa kulib yuboribdi:

— Chap tomonimga o‘tirs, men qarshi emasman, — debdi u.

Yigitcha o‘tiribdi va birpasda patnisdagi bor ovqatni gupillatib ushiribdi. Shunda Unbondan kelgan sarkarda Liga may keltirishni buyuribdi. Xizmatkor yigitchaga may quyib uzatibdi, lekin u olmabdi.

— Bu yerlik kisenlardan birortasi «Ziyofat» qo‘shig‘ini kuy-lasin! Ziyofat qo‘shig‘isiz may ichishning qizig‘i yo‘q. Men bo‘ydoq odamman, menga kisenlar orasidan eng chiroylisini tanlanglar! — debdi u.

Bu gapni eshitib, hokimning jahli chiqibdi.

— Nobakor! Unbonlik sarkardani deb unga chidashga majbur bo‘lyapman.

Sarkarda esa kulib yuboribdi va kisenlardan biriga gadoning oldiga kelishni buyuribdi. Kisen istamaygina yuqoriga ko‘tarilibdi va yigitchaga yaqinlashibdi.

— Qani, boshla! Ziyofat qo'shig'isiz may tomog'imdan o'tmaydi! — debdi u qizga.

Kisen qadahga may quyibdi va ashulani boshlabdi:

*«Sipqoring, sipqoring
qadah to'la mayni.
Sizning bahoringiz
mingyilliklarga cho'ziladi,*

*Oldinda sizni
mingyilliklar kutadi:
Bu obi hayotga
xanlik U-di ham o'ch bo'lgan.*

*Bir qultum ham qoldirmang,
bu mayni iching.
Shirinmi u, achchiqmi — baribir iching..».*

— Qoyil! — deb xitob qilibdi Li. — Yana ayt!
Kisen yana qo'shiq boshlabdi:

*«Sening ishlaring bizni ayirdi,
To'shakda yolg'iz uxlay olmayapman — titrayapman!
Sensiz har lahzada g'am-hasrat og'ushidaman,
Achchiq qismatimni kimga aytayin?*

* * *

*Osmonga oy chiqdi,
U Li Tay-bo asir etgan edi.
Shoir allaqachon o'lib ketgan,
Oy, nega sen nuringni to'kyapsan?!*

* * *

*Men erta uyg'ondim
bahor uyqusidan,
Derazaga osilgan ipak pardani
ochib qo'ydim.*

*Gullar ochildi,
hovli yuzini ular yashnatdi,
Gullarda kapalaklar qotib qoldi
qanotlarini yig'ib.*

*Tog' tomonda, daryo bo'yida
majnuntollar quyuq o'sgan,
Oqim uzra ular
o'z boshlarini xam qilgan.*

* * *

*Sochiga oq tushgan baliqchi
suv bo'yida yashaydi.
Bu yerda erkinroq, deydi,
tog'larga u sig'mas emish...*

*Suvga tez qayiqni tushir,
daryo suvi qaytmasdan mehnatni boshla,
Kechga tomon suv yana quyila boshlaydi,
buning ovozi tobora baralla yangraydi.
Chi-guk-chxon, chi-guk-chxon,
osa-va!..*

*Ana, u qayiqni itaryapti,
kafilarini burniga tirab.
Baliqchining yelkasi
Boshqalarnikidan baland ko'tarildi.*

* * *

*Seni ushlaymayman, oq chag'alay,
mendan qochma.
Afsus, podsho mendan yuz o'girdi,
faqat sen qalbimga malhamsan.*

*Oltin yuganli oq otda
gulzorda sayr qilaman.
Yam-yashil besh majnuntol oldida
bahorning avj pallasi.*

* * *

*Sokin yashil tog'lar orasida,
Shoshqin shaffof suvlar oldida,
Yengil shabada og'ushida,
Oyning yorqin nurlari ostida,
Barcha kasalliklarni yengib,
Qariguncha xotirjam yashayman.*

* * *

*Katta Ayiqning barcha yulduzlariga
Hasratdan, ayriliqdan shikoyat qilaman,
Faqat yulduzlar menga javob berishmaydi,
Sevgilim bilan uchrashamanmi — aytishmaydi.
Tong esa yaqinlashib kelyapti,
She'rimda men o'z shikoyatimni aytaman.
Balki tong yulduzi mening
Do'stinga, yupanchimga aylanar...».*

Kisen qo'shiqni tamomlagach, mehmonlarga anvoyi taomlar tortilibdi. Lining oldiga bir tovoq lag'mon, bir burda non, bir bo'lak go'sht va kashtan qo'yishibdi. Unga mazkur taomni tavoze bilan keltirishgan bo'lishsa-da, u xafa bo'lib, xontaxtani tepib yuboribdi. Hamma o'zini o'ng'aysiz his qilibdi, lekin yigitcha shuning o'zi bilan qanoatlanmabdi: to'kilgan mayni yengi bilan sidirib olibdi-da, chap tomonda o'tirganlarga qarata sepibdi. Hokimning yuzi ham maydan ho'l bo'libdi. U aftini burushtiribdi.

— Qanaqa ahmoq odamlar bor-a! Bu unbonlikni deb men haqorat ostida qoldim. Nega men uning gapiga quloq soldim?

Shunda Li tilga kiribdi:

— Ota-onam menga g'amxo'rlik qilishgan va ilm berishgan. Bu yerda men yaxshi yeb-ichdim. Shuning uchun ham shunday chiqib ketish men tomonidan hurmatsizlik bo'ladi. Qarshi bo'lmasangizlar, berilgan qofiya bo'yicha she'r to'qir edim?

Chap tomonda o'tirganlar qofiyani aytishibdi:

— Vujud — «ko» belgisi, baland — «ko» belgisi.

Yigitchaga siyoh va mo'yqalam berishibdi. Li shu zahoti quyidagi misralarni yozibdi:

*«Qadahlarda may o'ynoqlaydi,
odamlar qoniga u o'xshaydi.*

*Nefrit tovoqlarda anvoyi taomlar —
axir bu tirik vujud-ku!*

*Yonayotgan shamlardan mum oqyapti —
xalq ko'z yoshiga o'xshaydi u,*

*Hammayoqda qo'shiqlar baland yangramoqda —
aslida odamlar nolasi bu!»*

Chap tomonda o'tirganlar she'rni o'qib chiqishibdi va mulohaza yurita boshlashibdi, Unbondan kelgan sarkarda esa, bir nigoh tashlashning o'zida uning ma'nosini anglabdi: «Oltin qadahlardagi ajoyib may — bu o'n minglab kishilar qoni, nefrit tovoqlardagi anvoyi taomlar — bu minglab kishilar tanasi, shamdan oqayotgan mum — bu xalqning ko'z yoshi, qo'shiq baland kuylanayotgan joyda xalq faryod chekmoqda».

«Boshqaruvni tanqid qilyapti va xalq haqida qayg'uryapti — bu juda shubhali. Bir vaqtlar Chjou-sinlan o'ttiz olti odamning ichida birinchi bo'lgan ekan, men ham bu yerdan tezroq jo'nab qolganim ma'qul», deb qaror qilibdi u va hokimga shunday debdi:

— Ertaga dehqonlarga sholi tarqatadigan kunim. Sizlar bilan xursandchilikni davom ettira olmayman. Menga ruxsat berasizlar. — Shu so'zlarni aytib, u ziyofatni tark etibdi.

Shu vaqt taftishchining xizmatkori taftishchi nishonini chiqaribdi va darvozani taqillatib:

— Xufiya taftishchi tashrif buyurdi! — deb baqiribdi.

Mahkama xodimlari birpasda ayqash-uyqash bo'lib ketishibdi. Xegimlar, naylar, komungo va nog'oralar oyoq ostida qolib sinibdi. Yuksak martabali mulozimlar xuddi sichqonlardek to'rt tomonga tum-taraqay bo'lib qochishibdi. Imsil hokimi qalpog'ini shoshgandan teskari kiyyib:

— Qalpog'imning teshigini kim berkitib qo'ydi? — deb bo'kiribdi va tashqariga otilib chiqib ketibdi.

Chondju hokimi bu taloto'pda otga teskari minibdi va xizmatkorga:

— Otning boshi qayoqqa yo'qoldi?.. E... yo'qolsa yo'qolar, tupurdim, ketdik bu yerdan tezroq! — debdi.

Yosan hokimi shu darajada qo'rqib ketibdiki, o'zini kokilidan ushlab, o'zini o'zi ura boshlabdi.

— Voy, meni kimdir ushlab oldi, — deb baqirar emish u. — Qochdik tezroq bu yerdan!

Chokson hokimi qo'rqqanidan ishtonini to'ldirib qo'yibdi, unvonlar mahkamasining boshlig'i hushdan ketibdi, uyezd mu-lozimlari esa ishtonlarini ho'l qilib qo'yishibdi. Namvon hokimi-ning o'zi qo'rquvdan qalt-qalt titrab: «Bunaqada men jinni bo'lib qolaman-ku. Bu yerda hammamiz axlatga botamiz», debdi va bu yerdan qochib chiqib ketibdi.

Shu orada taftishchi saroyga xabarnoma yuboribdi, Namvon hokimini esa xizmatdan chetlatibdi. Shundan keyin u mahkama ishini tartibga keltiribdi, so'ng mahbuslarni, birinchi navbatda — eng katta jinoyatchi Chxunxyanni o'z huzuriga keltirishni buyuribdi.

Zindonbon Chxunxyanni oldiga solib kelibdi. U kangani ushlab, shunday der emish:

— Men yosh janobdan hech bo'lmasa bugun menga kiydirilgan kangani ushlab turishni so'ragan edim, lekin u sovqotdi shekilli, qayergadir ketib qoldi. Hozir mening hayot-mamotim hal bo'ladi, u esa yonimda yo'q. Boshiga biror musibat tushmadimikan? — Qiz yana ho'ngrab yig'lab yuboribdi.

Mirshab Chxunxyanga yaqinlashib, unga shunday debdi:

— Bugundan e'tiboran sen hokim buyrug'iga binoan kanizak sifatida uning ixtiyoriga o'tasan. Tayyorgarligingni ko'r!

— Men eski hokimning o'g'li bilan yuz yillik nikoh tuzgan-man, — deb e'tiroz bildiribdi Chxunxyan. — Men hokimning buyrug'iga bo'ysunmayman!

Shunda unga taftishchi murojaat etibdi:

— Sayoq qiz o'zini bokira qilib ko'rsatyapti! Buning yosh janobga ishongani va unga sodiq qolayotgani-chi. Menga kanizak bo'lasan! Gap tamom-vassalom!

— Kim bo'lsam ham o'z xohishimga qarshi bormayman, ayniqsa menga berilgan og'ir jazodan so'ng, — debdi Chxunxyan.

— Ahdimdan hech kim qaytara olmaydi, hatto hokim ham!

— Sening sadoqatingga qoyil qolmay bo'ladimi?! — deb xitob qilibdi taftishchi va qizning yaqinida turgan kisenlarga undan kangani yechib olishni buyuribdi.

Kisenlar taftishchining buyrug'ini bajarishibdi.

— Boshingni ko'tar va menga qara! — debdi qizga taftishchi.

— Qaramayman sizga, — debdi bunga javoban Chxunxyan. — Boshqa siz bilan gaplashmayman ham, yaxshisi meni o'ldiring! Sho'rlik bir qizning oxirgi istagini bajo keltiring!

Taftishchining unga rahmi kelibdi.

— Hazar qilsang ham, bir lahzaga boshingni ko'tar va menga qara.

Chxunxyan uning ovozigga quloq solibdi, ikkilangandek bo'libdi va boshini ko'tarib, unga nazar tashlabdi: axir bu yosh janob Li-ku! U sevinchi ichiga sig'may yigitchaning oldiga yugurib kelibdi.

— Bu qanday baxt! Bunaqasi hech qachon bo'lmagan! To'g'ri, qadimda Xan Sin kirchining puliga yashagan, so'ng Xan davrida sarkarda lavozimiga erishgan. Bu kimning xayoliga kelgan? Szyan-taygun ham sakson yil yo'qchilikda yashagan va Veysxuy daryosida baliq ovlagan, so'ng Chjou podsholari davrida bosh vazir bo'lgan. Buni oldindan taxmin qilish mumkinmi? Men gado qiyofasida kelgan sevgilim taftishchi bo'lib chiqadi deb o'ylaganmidim? Zindonda azob chekayotganimda yorug' dunyoni ko'rishim va sevgilim bilan uchrashishimni xayolimga keltirganmidim? Bu qanday baxt! Erim — taftishchi! Bu tush emasmi? Quvonchim cheksiz, siz ham, sevgilim, quvoning! Kecha oldinga gado bo'lib kelgan edingiz, bugun taftishchisiz — buni men oldindan bilishim mumkin edimi?

Qiz quvonchi ichiga sig' masdan sakray boshlabdi. Shu vaqt uning onasi qaynatilgan guruch ko'tarib kelib qolibdi. Uni ko'rgan mulozimlar tabriklay boshlashibdi.

— Qanday baxt! Qanday baxt!

— Nima bo'ldi? — deb so'rabdi Chxunxyanning onasi hayron bo'lib va darvozadagi tirqishdan mo'ralabdi. Xursandligidan qo'lidagi tovoqni otib yuboribdi va chapak chala ketibdi. — Buni qarang! Dunyoda bunaqa g'aroyib ishlar qachon bo'lgan? Chxunxylan — taftishchining xotini! Chxunxyanning onasi esa — taftishchining qaynonasi! Qanday baxt! — Shu so'zlarni aytib u o'yinga tusha ketibdi.

Ular xursand bo'lib turishgan paytda Namvon marosimlar mahkamasining boshlig'iga ziyofatga tayyorgarlik ko'rishni buyurishibdi. Hamma xursand bo'libdi va Chxunxyanni tabriklabdi. Taftishchi unga qanday o'qigani, qanday qilib imtihon topshirgani va taftishchi lavozimini egallagani haqida gapirib beribdi. Chxunxylan unga o'z boshiga tushgan musibatlar haqida so'zlabdi. Ziyofat kechgacha davom etibdi. So'ng taftishchi ko'r folbinni chaqiribdi va unga ko'p miqdorda oltin hadya etib, to'g'ri fol ochgani uchun maqtabdi. Zindonbonni yaxshi xizmati uchun taqdirlabdi. Ziyofatdan so'ng ertasiga u qolgan barcha ishlarni oxiriga yetkazibdi va taftish ishlari bilan keyingi provinsiyaga jo'nabdi.

Podsho bo'lgan voqeani eshitib xursand bo'libdi.

— Qadimda sadoqatni saqlovchilar ko'p bo'lgan, hozir bu juda kam uchraydi. Qanday ajoyib voqea!

Podsho Chxunxyanga «sodiq xotin» unvonini beribdi. Taftishchini esa yaxshi xizmati uchun maqtabdi va taqdirlabdi. Taftishchi podshoga yuz karra ta'zim qilib va marhamati uchun minnatdorchilik bildirib, Chxunxylan bilan birga poytaxtni tark etibdi. Ular o'g'illar va qizlar ko'rishibdi, yuz yil birga yashab murod-u maqsadlariga yetishibdi.

Umuman olganda, ajoyib sadoqat erlik xotinlarda ham kam uchraydi, qo'shiqchi ayoliarda-ku, gapirmasa ham bo'ladi va bu yerda eng muhimi ham shu! Men bu voqeani mazkur ajoyib sadoqat avlodlarga o'rnak bo'lishi uchun muxtasar qilib yozdim.

Podsho xizmatida bo'lgan erkaklar esa o'z burchlari haqida zinhor-bazinhor unutmasinlar!

TUSTOVUQ VOQEASI

Osmon yerdan ajralgach, turli-tuman mavjudotlar paydo bo'lishibdi. Ularning eng olijanobi inson, tubani esa boshqa jonzotlar: uch yuz xil qush va uch yuz xil hayvon ekan. Uchadigan jonzotlar orasida tustovuq ham bor ekan. Tustovuqqa bir qarang! Egnida besh rangli libos, bekorga uni «olifta» deb aytishmaydi.

O'z tabiatiga ko'ra bu yovvoyi tog' qushi. Odamlardan chetda, quyuq qayrag'ochzorlarda, ovloq o'rmonlarda, pog'onasimon tog'larda yashaydi. Dalalarda o'sadigan donli mahsulotlarni iste'mol qiladi. Nafsilamrini aytganda, himoyasiz jonzot, qirol ovchilari va ularning itlariga oson o'lja bo'ladi.

Shunda tustovuq go'shtini qirolning uch bosh maslahatchisi va olti vaziri, provinsiyalarning gubernatorlari va oldi boylari, katta boshliqlarning hammasi tanovul qiladi.

Tustovuqning chiroyli patlarini qirol xizmatkorlari yulib oladi va ulardan supurgilar yasashadi yoki ular qirol choparlari bayroqchalarining dastalarini bezaydi.

Ko'rib turganimizdek, u kam foyda ketirmaydi.

Tustovuq odamlardan qochishga majbur bo'lib, oq bulutlar ortiga, yuksak cho'qqilarga chiqadi va o'sha yerda turib tabiat go'zalliklarini tomosha qiladi.

Ammo shu zahoti unga lochin qiyqirib chang soladi yoki ovchining shovqini uni hurkitib yuboradi. Tustovuq ulardan qanday qilib qochib qutuladi?

Odamlar yashaydigan joyga yaqinlashsa, u yerda ham har qadamda ovchi. Hammasining qo'lida qurol bor. Sovuq qishda tustovuq och, yalang'och hoida qayerga boradi? Quyoshli kunda dalalar, adirlar va jarliklarga borish, don topib yeyish mumkin...

Shu davrda tustovuqning eri qanday yasan-tusan qilishini bir ko'rsangiz edi! Egnida atlas ko'ylak, yoqasi oq ipakdan. Boshida mulozimlarnikiga o'xshaydigan bashang qalpoq, dumi — o'n ikki patdan. Xullas, erkak go'zalligi timsoli!

Endi tustovuqning xotiniga qarang! Egnida chiroyli kamzul.
Qolgan kiyimlari ham o'ziga yarashgan.

Oldida uning to'qqiz o'g'li, orqasida o'n ikki qizi boradi.

Onasi ularni shoshiradi:

— Chiaqqon-chaqqon yuringlar! Tekis dalada oldinma-ketin tizilishib yuramiz. Sizlar ho'v anavi vo'ha bo'ylab boringlar, biz bu vo'ha bo'ylab o'tamiz. Har birimiz bittadan don topsak ham, odamlarga havas qiladigan joyimiz qolmaydi. Har bir hayvonning o'z alohida qismati bor. Biz uchun bir marta to'yib yeyish ham katta baxt. Shu tariqa ular o'z yo'llarida davom etisharkan. Bir vaqt qarashsa, yo'lda qizil yumaloq don yotgan emish.

Tustovuqning eri shunday debdi:

— Ko'rinishidan yaxshi donga o'xshaydi! Osmon ehsoni... Uni rad etib nima qilaman? Bunday ne'matdan voz kechib bo'larkanmi!

Xotini unga yalimbdi:

— Iltimos, tegmang! Qordagi odam izlari menga shubhali tuyulyapti. Ular haddan tashqari silliq, xuddi birov ustidan supurgi bilan supurgan yoki og'zi bilan puflagandek. Xudo haqqi, bu donga tegmang!

Tustovuq bunga javoban shunday debdi:

— Bo'lmag'ur gaplarni gapirma! Ko'chada qish, hammayoqda qor. Osmonda qushlar ham ko'rinmaydi. Bu yerda inson qadami yetgan joyning o'zi yo'q. Odam izlari bu yerda qayerdan paydo bo'lsin?

Xotini e'tiroz bildiribdi:

— Balki gagingiz rostdir... Lekin o'tgan tun men bir yomon tush ko'rdim...

Eri bunga javoban shunday debdi:

— O'tgan tun men ham tush ko'rdim. Sariq patli turnaga minib, osmon-u falakka parvoz qilibman va kimsan — Yashma imperatorining holidan xabar olgani boribman. Jasoratim uchun Yashma imperatori menga «O'rmon va tog'larga dam olgani ketgan» unvonini beribdi va o'z omboridan bir katta qopda don hadya qilibdi.

Manavi don bizga bekorga uchragani yo‘q. Bemalol qornimizni to‘ydirsak bo‘ladi!

— Ha, siz chindan ham yaxshi tush ko‘ribsiz, — debdi xotini. — Lekin men juda yomon tush ko‘rdim. Mozor joylashgan tog‘ tomondan kuchli yomg‘ir bostirib kelganmish. Ko‘m-ko‘k osmonga ikki kamalak ko‘tarilib, birdan, xuddi qilichdek, boshingizni kesib tashlaganmish. Juda yomon tush! U sizning o‘limingizdan darak beradi. Yana bir marta yolvoraman, bu donga tegmang!

Tustovuq taslim bo‘lmabdi:

— Tushingning ta‘birini men aytaman. Yaqinda davlat imtihonlari bo‘ladi. Ularni qirolning o‘zi imtihonlar palatasida qabul qiladi. Imtihondan birinchi bo‘lib men o‘taman. Shunda boshimga gullardan qo‘sh toj kiydirishadi va men poytaxtimizning shoh ko‘chasi bo‘ylab o‘taman. Tushingning ma‘nosi shu.

Xotini yana erini fikridan qaytarishga harakat qilibdi:

— Keyingi tushimda siz, boshingizda katta cho‘yan qozon, tubsiz dengizga qulayotgan emishsiz. Men esa, dengiz qirg‘og‘ida yolg‘iz qolib, faryod chekayotgan emishman. Bu tush ham sizga halokat yo‘llayapti. Sizdan yolvoraman, donga tegmang!

— O, bu tush oldingisidan ham yaxshi, — deb javob beribdi tustovuq. — Hozir uni senga tushuntiraman. Buyuk Min sulolasini tiklash fursati kelib, qutqarish lashkarlari bu jasoratni sodir etishga chaqirilgani zahoti, men ularga bosh bo‘lib, boshimda dubulg‘a, Amnokkandan oshib o‘taman va O‘rta tekislik mamlakatini ishg‘ol etib, g‘olib sarkarda sharafiga erishaman.

— Mayli, shunday bo‘lsin, — debdi unga yana xotini,— lekin keyingi tushim bundan ham yomon. Tushimda qandaydir yigitchalar va amaldor qariyalar ziyofat qilishayotgan emish. Birdan yigirma ikki bo‘lak matodan tikilgan shiypondan uch qulochi yirtilib, ikkalamizning ustimizga tushibdi. Keyingi tushimda osmondagi yulduzlardan biri uzilib, oyoqlaringizning ostiga tushgan emish. Aytishlaricha, Uch podsholik davrida Uch-janyuanda Chjuge Lyan o‘layotganda ham uning vafoti oldidan Sarkarda yulduzi uchgan ekan.

— Ammo tustovuq o‘z fikridan qaytmabdi:

— Tashvish chekma. Birinchi tushing shu tun yam-yashil tog'dagi o'tloqda to'nka bizga yostiq, nilufar barglari — to'shak, bolut yaprog'i esa — ko'rpa bo'lishini anglatadi. Ko'rpaga o'ralib biz ertalabgacha ishrat qilamiz. Endi uchgan yulduz haqida. Qadimda Katta Ayiq nuridan Sariq podshoning onasi homilador bo'lgan va buyuk o'g'lonni tuqqan ekan. Yettinchi oyning yettinchi kunida Somon yo'li bir-biridan ajratgan Cho'pon va Chevar uchrashadi. Demak, sen menga yana bir o'g'il tug'ib berasan. Bunday tushlar senga ko'proq kirsin!

Xotini o'zinikini qo'yabdi:

— Xo'rozlar qichqira boshlagan pallada yana tush ko'rdim: yasan-tusan qilib yashil tog'da sayr qilib yurgan emishman. Birdan qora pahmoq it paydo bo'libdi! U tishini qayrab menga tashlanibdi va tirnay boshlabdi. Qo'rqqanimdan, qayoqqa qochishimni bilmay, nashazorga qochibman. Bu yerda qalin bir nasha poyasi mening nozik tanamni mahkam chirmab olibdi. Yomon tush! Bu beva qolishim va sizga aza tutishimdan darak. Xudo xayringizni bersin, shu donga tegmang!

Tustovuqning g'azabi qaynabdi — xotinini jahl ustida ikki-uch marta tepibdi va shunday debdi:

— Bu tushning ta'biri boshqacha! Sen, buzuqi, yasan-tusan va pardoz-andoz qilib begona erkak bilan osh-qatiq bo'lasan!.. Buning uchun qanotlaringni sariq-qizil arqon bilan bog'lab, poytaxtning to'rt shoh ko'chasi bo'ylab nog'ora sadolari ostida sazoyi qilishadi! Gavronlar va uch qovurg'ali kaltaklar bilan savalashadi! Yana shunaqa tush ko'radigan bo'lsang, oyog'ingni sindiraman!

Xotini shunday deb javob beribdi:

— Yovvoyi g'ozlar shimolga uchib ketayotganda o'z bo'qog'ida yo'lda yeyish uchun ovqat olib ketadi. Bu erkakning omilkorligi. Qaqnus uzoq yo'lga chiqqanida tariq cho'qimaydi. Bu olijanob jonzotning kamtarligi. Biz tagi past qushlar bo'lsak ham, shu olijanob odatdan o'rnak olsangiz, yaxshi bo'lar edi. Bu sizga sabr-toqat nimaligini anglab yetishga yordam beradi. Aka-uka Bo I va Shu Si Chjouning nonini yeyishdan bosh tortgan, dono Chjan Szifan qariganda unli ovqatdan qaytgan ekan. Agar siz

ularga ergashmoqchi va ehtiyotkorlikka rioya qilib, unli ovqatdan qaytmoqchi bo'lsangiz, o'tinaman, shu donni yemang!

— E, sen hech narsani tushunmaysan, — debdi tustovuq qizishib. — Faylasuf Yanszi sabr-toqatlilik va kamtarlik timsoli bo'lsa ham o'ttiz yildan ortiq yashamagan. Bo I va Shu Si o'z sabr-toqati va kamtarligi bilan Shouyan tog'larida ochlikdan o'lgan. Chjan Szifan qariganda unli ovqat yeyishdan qaytib, Chisunszi ortidan soyalar saltanatiga ravona bo'lgan. Sabr-toqatlilik va kamtarlikning narxi bir chaqa. Ovqat — hamma narsaning podshosi! Venshuni esla... Xutoxe daryosi oldida arpa bo'tqani to'yib yeganidan so'ng u tiklangan Xitoy imperatori bo'lgan. Xan Sin ham kambag'allik paytida kirchi xotin keltirgan sovuq bo'tqani gupillatib tushirar ekan. Keyinchalik u buyuk Xan sarkardasi bo'lib yetishgan! Kim bilsin, balki shu donni yesam, men ham buyuk zot bo'lib ketarman!

— Shu donni yeb kim bo'lishingizni sizga men aytaman! — debdi xotini. — Yashil tog'larni abadiy tark etishingizga to'g'ri kelmasa edi... Narigi dunyo podshosi sizni o'z saltanatida nozirlik lavozimiga tayinlashni mo'ljallayotganga o'xshaydi. Xudo haqqi, o'tinchimga quloq soling! O'jarlik — yaxshi odat emas. Qadimda sinlik Shi-xuan to'ng'ich o'g'li Fusuning gapiga quloq solmagani uchun qirq yildan so'ng, uning vorisi Ershi davrida xalq g'alayon ko'targan va Sin sulolasi taxtdan ag'darilgan. Chu podshosi Fan Szenning maslahatlariga quloq solmay, sakkiz ming askarni nobud qilgan va isnodga chidayolmay o'zimi o'zi so'ygan. O'jar Xueyvan Syuy Yuanning nasihatlariga quloq solmagan va natijada Uguan yaqinida pistirmaga uchrab, halok bo'lgan. Bunaqa o'jarlik qilsangiz, siz ham ajalingizdan besh kun oldin o'lasiz.

Tustovuq xotiniga shunday deb javob beribdi:

— Kim don yesa, uni o'lim kutarkanmi?! Bo'lmagan gap! Qadimgi kitoblarda aytilishlcha, ismi «T» harfi bilan boshlanadigan odamlar uzoq yashashgan va yuksak lavozimlarni egallashgan. Qadimda Osmon podshosi Tyan-xuan o'n sakkiz ming yil yashagan, dono Tay-xao Fusi o'n besh avlod hukm surgan. Xanlik Tay-szu va tanlik Tay-szun urushlar va g'alayonlar davrida yangi sulolalarga asos solishgan. Donlar ham bizning tilimizda «T» harfi

bilan boshlanadi... Szyan Taygun sakson yil qashshoqlikda yashagan va oxiri katta boylikka erishgan. Buyuk shoir Li Taybo kitda osmonga uchib ketgan. Shimol yulduzi Txeilson — yulduzlar orasida malika. Shu donni yesam, balki men ham Taygun kabi uzoq umr ko'rarman, Li Taybo singari osmonga parvoz qilarman yoki Txeilson kabi Shimol yulduzi podshosi bo'larman!

Xotini tustovuqni fikridan qaytishga ko'p va xo'b urinibdi.

Xo'sh, tustovuq nima qilibdi?

U o'n ikki patli dumini yelpig'ich qilib yoyib, qaddini g'oz tutib, don sari yuribdi. Don oldiga kelgach, uni yarim oy shaklidagi tumshug'i bilan qattiq cho'qibdi. Shu lahza tustovuqning boshi uzra qandaydir ovoz yangrabdi va u ikki marta o'mbaloq oshib, qopqonga ilinibdi.

Bir vaqtlar Chjan Szifan bilan shunday bo'lgan ekan: Din podshosi Shi-xuanni mo'ljalga olgan bo'lsa-da, o'qi boshqa aravaga tekkan ekan...

Tustovuqning xotini chinqirib yuboribdi:

— Nahot u shunday bo'lishini sezmagan edi? Mana, erkaklarning ahvoli! Xotinlar gapiga kirib, bor bud-shudlarini havoga sovurishadi; ularning gapiga parvo qilmasdan, halok bo'lishadi.

U sochlarini yoyib faryod chekibdi, o'zimi yerga uribdi, tirnoqlari bilan yerni tirnabdi, sochlarini yulibdi va halok bo'lgan eriga aza tutibdi. To'qqiz o'g'li va o'n ikki qizi, hamma qarindoshlari va do'stlari tustovuqni eslab yig'lashibdi. Ularning faryodi olamni tutibdi.

— Kimsasiz tog'lar orasida, oy nuri ostida kakkuning sayrashini ko'nglimdagi g'am-hasratni yanada kuchaytiradi, — debdi tustovuqning xotini alam bilan. — «Hammaning ko'zgusi»da o'qigan edim: «Dori achchiq bo'lsa ham foyda keltiradi; haqiqat achchiq bo'lsa ham hayot uchun foydali». Erim gapimga quloq solsa, shu fojia yuz berarmidi?! Oh, achchiq qismat!.. Hayotimiz qanday yaxshi edi! Endi buni eslashdan nima foyda?!

Tustovuqning xotini tinimsiz ko'z yoshi to'kibdi. Uning ko'z yoshiaridan asta-sekin ko'l hosil bo'libdi, og'ir xo'rsiniqlari shamolga aylanibdi. Ichi esa olovdek yonar ekan.

— Endi nima qilaman? Endi nima qilaman?

Qopqonga tushgan tustovuq xotinining bu gaplarini eshitib toqat qila olmabdi va unga qarab baqiribdi:

— Hoy, nobakor jonzot! Buncha shovqin qilmasang? O'rmon-ga yo'l olgan odam yo'lbarsning changaliga tushishini oldindan bilar ekanmi?! Boshingdan o'tkazmasang, qulay vaziyatni boy berishing mumkin... Sababsiz o'lim bo'lmaydi. Aytishiaricha, odamlar tomirini ushlab ko'rib odamning tirik yoki o'likligini bilar emish. Tomirimni ushlab ko'r-chi, tirikmanmi men yoki o'likmi?

Xotini javob beribdi:

— Oshqozoningizning tomiri urmayapti... Jigaringizning tomir urishi sekinlashyapti... Oyoqlaringizning tomir urishi yo'qolyapti. Yurak urishingiz esa pasayib boryapti... Oh! O'jarlik — sizning dushmaningiz!

— Demak, tomir urishim yaxshi emas. Ko'zlarim-chi? Ko'z qorachig'im butunmi? — deb so'rabdi tustovuq.

Xotini xo'rsinib, erining ko'zlariga qaray boshiabdi.

— Kuningiz bitibdi! Bir ko'zingizning qorachig'i sizni tark etibdi, ikkinchisi yo'lga tushish arafasida: ashqol-dashqolini yig'ishtirib, yo'lga hozirlik ko'ryapti. Eh, taqdirim muncha achchiq bo'lmasa! Nima uchun erlarim buncha ko'p o'lishadi? Birini topgandim — lochin ko'tarib ketdi, boshqasini topgandim — it tortib ketdi, uchinchisiga tekkandim — men bilan bir kun yashamasidan ovchining o'qiga uchradi. Nihoyat, men mana bu erga tegdim va u bilan yaxshi yashay boshladik. To'qqizta o'g'il va o'n ikkita qiz ko'rdik. Erim bo'lsa, o'g'illarini uylantirishga va qizlarini erga berishga ulgurmay, don yegisi kelib qoldi va qopqonga ilindi. «O'z qorning — o'zingga dushman!», deganlari rost. Hech qanday umid yo'q, bir-birimizdan abadiy ayrilyapmiz... Yo peshonamning yozig'imikan bu? Sho'rlik erim! Axir u qarilikdan, kasallikdan o'lmadi-ku? Nahot uning peshonasiga ham shu yozilgan bo'lsa? Yo faqat o'jarlik ruhi uni go'rga tiqdimikan? Uni hayotga qaytarish uchun nima qilish mumkin? U bo'lmasa, o'g'illarimizni kim uylantiradi, qizlarimizni kim erga beradi? Qornimdagi bolani kim voyaga yetkazadi? O'rmondagi uyimiz

oldiga yuz yillik o'tni ekan, u biz bilan birga yuz yil yashaydi, deb umid qilgan edik. Afsuski, oradan uch yil o'tmay, u abadiy ayriliq o'tiga aylandi. Bunaqa erni men endi qachon va qayerdan topaman?... Men endi bir sho'rpushona bevaman!

Uning nolasini eshitgan tustovuq bir ko'zini xiyol ochibdi va shunday debdi:

— Ko'p g'am chekma! Uch marta beva xotinga uylangan ahmoq menman... Gap bilan o'likni tiriltirib bo'lmaydi. Meni boshqa ko'rmaysan. Ammo, eringni juda ko'rging kelsa, ertalab, nonushtadan so'ng, qopqon egasining ortidan ergash. Men yo Kimchxondagi, yo Chonchjudagi, yo Chxonchjudagi bozorda osig'liq tursam kerak. Balki meni gubernator, sarkarda yoki shahar hokimining omboriga joylashar, boshqa hadyalar yoniga qo'yishar; mulozimning dasturxoniga sotishlari yoki kelin o'z qaynonasiga sovg'a sifatida taqdim etishi ham mumkin. Nima bo'lganda ham, meni qayta ko'rish senga nasib etmaydi... O'lganimdan keyin marhum eriga sodiq beva bo'l! Yig'lama, xotin, yig'lama! Hayotimning so'nggi torlari uzilyapti...

Tustovuq qopqondan chiqmoqchi bo'lib oxirgi kuchlarini ishga solibdi. Ammo qopqondan chiqishning iloji bo'lmabdi. Faqat patlari uzilib uchibdi. Shu vaqt qopqonning egasi — qishki libosdagi, boshiga olmaxon mo'ynasidan telpak kiygan Txak ismli zot paydo bo'libdi. U qopqonga tustovuq ilinganini uzoqdan payqabdi va ildam qadamlar tashlab kelib, o'ljani qopqondan chiqarib olibdi.

— Qoyil! — debdi Txak sevinchdan o'yinga tushib. — Annam-san tog'idagi buloqdan suv ichgan yoki Pannam-san tog'ida shaftoli gullaganini ko'rgan bo'lsang kerak... Balki yashil tog'da och qolib, don yemoqchi bo'lgan va qo'limga ilingandirsan! Ochlik o'limga olib kelishini bilmagandirsan! Hozir seni tog' ruhiga qurbonlik keltiraman, u menga urug'ingni quritishimga yordam bersin.

Shu so'zlarni aytib Txak tustovuqning og'zidan chiqib turgan tilini sug'urib olibdi, uni tosh ustiga qo'yib, qo'llarini qovushtiribdi va duo o'qibdi:

— «Namu Amitxa-Budda!

O rahmdil Kvanseim bodisattva!

Sizdan o'tinaman, qopqonimga tustovuqning xotini ham tushsin!»

Shundan so'ng Txak bu yerni tark etibdi. Tustovuqning xotini u duo o'qigan joyga kelib, erining yerda sochilib yotgan patlarini teribdi va avval kichik, so'ng katta kafanlash taomilini bajaribdi. Marhumga kafan bo'lib o't-o'lanlar xizmat qilibdi.

Shundan so'ng beva sariq nilufardan yasalgan gulchambarga erining ismi, nasabi va unvonini yozib, uni qayrag'och shoxiga osib qo'yibdi, bir anallab qabr qazib, uning ichiga mayitni qo'yibdi va ustidan tuproq tashiab ko'mibdi.

Ruh — tog'lar homiysi va buddalarga qurbonlik keltirilganidan so'ng tustovuqning xotini erini yod etish marosimiga tayyorgarlik ko'ra boshlabdi. U bolut barglaridan shudringni yig'ib olib, yong'oqlardan yasalgan piyolalarga quyibdi, qirqbo'g'in shoxlaridan ovqat yeyish uchun tayoqchalar yasabdi. So'ng yod etish marosimini ado etuvchilarni chorlabdi.

Ularning qatoriga kim kiribdi?

Po'rini turnadan birinchi yod etish so'zini aytishni so'rashibdi. Yengil qanotli qaldirg'och mehmonlarni kutib olish majburiyatini o'z zimmasiga olibdi. Shirinsuxan to'tiga marosimni olib borish topshirilibdi. Ibis tiz cho'kib duo o'qibdi. Bu duoda shunday deyilgan ekan: «Falon yil, falon oyining falon kunida beva tustovuq shuni ma'lum qiladiki, erining ruhi tanasi bilan birga go'rda yotibdi, uning o'lmas ruhi esa o'z uyiga qaytib keldi. Marhumning barcha unvonlari yozilgan gulchambar tayyor. Tiz cho'kib yolvoramiz: uning ruhiga o'tmishdagi gunohlari unutilsin va u yangi hayotdan xursand bo'lsin!»

Dasturxonni yig'ishtirishayotganda osmonda kalxat uchib o'tibdi. U och bo'lib, o'lja qidirayotgan ekan. Birdan uning ko'zi tustovuqlarga tushibdi.

— Qaysi biri semizroq? Uni o'zim bilan birga olib ketaman!

Kalxat shiddat bilan yerga sho'ng'ib, yosh tustovuqlardan biriga chang solibdi va uni olib baland tog'lar sari uchib ketibdi. Eng baland cho'qqilardan biriga joylashib o'tirib, u quyidagi so'zlar bilan o'ljani u biqinidan bu biqiniga o'gira boshlabdi:

— Shamollab yotib qoldim, o'n kun hech narsa yemadim. Bugun birinchi marta hatto odam ham hazar qilmaydigan luqma og'zimga tegdi... Trepang, sakkizoyoq va dengiz quloqchasidan sho'rva — bosh vazir dasturxonidagi eng anvoyi taom. O'n yilda bir marta meva beradigan daraxtdan uzilgan shaftoli — Sivanmu xush ko'rgan shirinlik. Bir yil tindirilgan damlama ko'proq Shanloushan tog'idagi to'rt cholga ma'qul keladi. Harom o'lgan itvachcha va kecha tuxumdan chiqqan jo'jalar — podsho qavmiga mansub kalxatlarning sevimli ovqati. Ammo bu tustovuq — yoshmi u, qarimi, hamonki changalimga tushgan ekan, och bo'lganim uchun tanlamasdan yeyman!

Shu so'zlarni aytib yirtqich quvonchdan raqs tusha boshlagan ekan, changalidan tustovuq chiqib, tog'lar orasiga qulabdi va izziz g'oyib bo'libdi. Kalxat ta'bi tirriq bo'lib joyiga o'tiribdi va xo'rsinib shunday debdi:

— Uch podsholik davrida Xuachjundagi tor yo'lda mashhur sarkarda Guan Yuy adolat haqida eslab, o'zi asir olgan Sao Saomi qo'yib yuborgan ekan. Mana, men ham, garchi tabiatan berahm bo'lsam-da, tustovuqni qo'yib yubordim. Bu qilmish bag'rikenglikdan boshqa narsa emas. Bu mendan ko'p sonli nasl qolishidan darak.

Shu vaqt Txebeksan tog'idan Pugakka qarg'a uchib kelibdi. Yo'lda qorni ochib, u mevalarni tanovul qilibdi, dam olibdi va tustovuqqa ta'ziya bildirgani kelibdi.

— Eringiz, shunday ko'rkam va fazilatli qush, uzoq yashaydi, deb o'ylagan edim, — debdi u xo'rsinib. — Bitta donni deb ajalidan besh kun oldin o'lib ketdi... Afsus! Men ikki dunyodayam donga uchmagan bo'lardim. Menga qarang, shunday kunda bu haqda gapirish noo'rin bo'lsa-da, lekin: «Pahlavon tug'ilsa, qanotli ot ham keladi, so'z ustasi paydo bo'lsa, yaxshi mo'yqalam ham topiladi», degan qadimdan qolgan gap bor. Beva qolganingizni eshitganim zahoti oldingizga uchdim. Gulni ko'rgan kapalak olovdan hurkmas, suvni ko'rgan g'oz ovchidan qo'rqmas... Sizning oilaviy ahvolingiz menga yaxshi ma'lum, mening oilaviy ahvolimni ham siz yaxshi bilasiz. Oilaviy baxt ishini o'z qo'limizga olib, umrimizning oxirigacha er-xotin bo'lib yashasak, degan edim. Bu taklifimga nima deysiz?

— Men, albatta, zotsiz bir qushman, — debdi xo'rsinib tustovuq. — Ammo beva uch yil aza tutmasdan qayta erga tegishi mumkinligi qaysi marosim kitobida yozilgan? «Bulut ajdarga bo'ysunar, shamol — yo'lbarsga», degan matal bor. Xotin esa, qonunga ko'ra, erkakka bo'ysunishi kerak. Axir har bir ayol shunday ish ko'rmaydimi?

Qarg'a bunga javoban shunday debdi:

— Bu gapingiz kulgili. «Shiszin»da shunday deyilgan: «Ona qalbiga hatto yetti o'g'il ham malham bo'lolmaydi». Bu so'zlarni yetti o'g'ilning onasi beva qolgach, yana nikohga kirayotganda xo'rsinib tilga oladi. Nahotki sizdek kichik bir jonzot marhumga itoat qilib, umringizni yolg'iz o'tkazishingiz kerak? Tustovuqning xotini bevalikda sodiq bo'lishi haqida biron-bir matn ko'rmagan ekanman!

Shu vaqt ukki uchib kelibdi. U tustovuqqa ta'ziya izhor etibdi va so'ng qarg'aga qarab shunday debdi:

— Seni tanang qora, tumshug'ing esa ilmoqqa o'xshaydi. Boz ustiga, sen takabbursan, kattalarni ko'rganda o'rningdan turmaysan!

Qarg'aning jahli chiqibdi:

— Hoy sen, beso'naqay ukki! Ko'zlaring peshonangning ichiga kirib ketgan, qulog'ing bigizga o'xshaydi!.. Qanaqasiga sen kattasan? Tanamning qoraligidan kulish bekor ish. Patim qora bo'lsa, ichim ham qora ekanmi?.. Bir kuni tog'ning soya tomonidan uchib o'tgan edim, qorayib qoldim... Tumshug'imni ham masxara qilma! Hatto yueylik knyaz Gouszyanning og'zi ham qarg'aning tumshug'iga o'xshash bo'lgan. Shunga qaramay, u o'z qasos qilichini o'n yil yashirinch a charxlagan va oxir-oqibat xou-van mavqeyiga erishgan. Darvoqe, sen mumtoz adabiyotdan bexabarsan-ku. Yana o'zingni katta deganingga o'laymi?.. Yo'q, buni shunday qoldirib bo'lmaydi! Marosimdan keyin hammani majlisga yig'ib, bu surbetni yanbanlar ro'yxatidan o'chirib tashlash kerak!

Qarg'a va ukki bir-biri bilan uzoq janjallashishibdi. Shu vaqt ko'm-ko'k osmonda uchib ketayotgan yakka g'oz ularning oldiga tushibdi va uzun bo'ynini oldinga cho'zib, shunday debdi:

— Shamollab yotib qoldim, o'n kun hech narsa yemadim. Bugun birinchi marta hatto odam ham hazar qilmaydigan luqma og'zimga tegdi... Trepang, sakkizoyoq va dengiz quloqchasidan sho'rva — bosh vazir dasturxonidagi eng anvoyi taom. O'n yilda bir marta meva beradigan daraxtdan uzilgan shaftoli — Sivanmu xush ko'rgan shirinlik. Bir yil tindirilgan damlama ko'proq Shanloushan tog'idagi to'rt cholga ma'qul keladi. Harom o'lgan itvachcha va kecha tuxumdan chiqqan jo'jalar — podsho qavmiga mansub kalxatlarning sevimli ovqati. Ammo bu tustovuq — yoshmi u, qarimi, hamonki changalimga tushgan ekan, och bo'lganim uchun tanlamasdan yeyman!

Shu so'zlarni aytib yirtqich quvonchdan raqs tusha boshlagan ekan, changalidan tustovuq chiqib, tog'lar orasiga qulabdi va izziz g'oyib bo'libdi. Kalxat ta'bi tirriq bo'lib joyiga o'tiribdi va xo'rsinib shunday debdi:

— Uch podsholik davrida Xuachjundagi tor yo'lda mashhur sarkarda Guan Yuy adolat haqida eslab, o'zi asir olgan Sao Saoni qo'yib yuborgan ekan. Mana, men ham, garchi tabiatan berahm bo'lsam-da, tustovuqni qo'yib yubordim. Bu qilmish bag'rikenglikdan boshqa narsa emas. Bu mendan ko'p sonli nasl qolishidan darak.

Shu vaqt Txebeksan tog'idan Pugakka qarg'a uchib kelibdi. Yo'lda qorni ochib, u mevalarni tanovul qilibdi, dam olibdi va tustovuqqa ta'ziya bildirgani kelibdi.

— Eringiz, shunday ko'rkam va fazilatli qush, uzoq yashaydi, deb o'ylagan edim, — debdi u xo'rsinib. — Bitta donni deb ajalidan besh kun oldin o'lib ketdi... Afsus! Men ikki dunyodayam donga uchmagan bo'lardim. Menga qarang, shunday kunda bu haqda gapirish noo'rin bo'lsa-da, lekin: «Pahlavon tug'ilsa, qanotli ot ham keladi, so'z ustasi paydo bo'lsa, yaxshi mo'yqalam ham topiladi», degan qadimdan qolgan gap bor. Beva qolganingizni eshitganim zahoti oldingizga uchdim. Gulni ko'rgan kapalak olovdan hurkmas, suvni ko'rgan g'oz ovchidan qo'rqmas... Sizning oilaviy ahvolingiz menga yaxshi ma'lum, mening oilaviy ahvolimni ham siz yaxshi bilasiz. Oilaviy baxt ishini o'z qo'limizga olib, umrimizning oxirigacha er-xotin bo'lib yashasak, degan edim. Bu taklifimga nima deysiz?

— Men, albatta, zotsiz bir qushman, — debdi xo'rsinib tustovuq. — Ammo beva uch yil aza tutmasdan qayta erga tegishi mumkinligi qaysi marosim kitobida yozilgan? «Bulut ajdarga bo'ysunar, shamol — yo'lbarsga», degan matal bor. Xotin esa, qonunga ko'ra, erkakka bo'ysunishi kerak. Axir har bir ayol shunday ish ko'rmaydimi?

Qarg'a bunga javoban shunday debdi:

— Bu gapingiz kulgili. «Shiszm»da shunday deyilgan: «Ona qalbiga hatto yetti o'g'il ham malham bo'lolmaydi». Bu so'zlarni yetti o'g'ilning onasi beva qolgach, yana nikohga kirayotganda xo'rsinib tilga oladi. Nahotki sizdek kichik bir jonzot marhumga itoat qilib, umringizni yolg'iz o'tkazishingiz kerak? Tustovuqning xotini bevalikda sodiq bo'lishi haqida biron-bir matn ko'rmagan ekanman!

Shu vaqt ukki uchib kelibdi. U tustovuqqa ta'ziya izhor etibdi va so'ng qarg'aga qarab shunday debdi:

— Seni tanang qora, tumshug'ing esa ilmoqqa o'xshaydi. Boz ustiga, sen takabbursan, kattalarni ko'rganda o'rningdan turmayсан!

Qarg'aning jahli chiqibdi:

— Hoy sen, beso'naqay ukki! Ko'zlaring peshonangning ichiga kirib ketgan, qulog'ing bigizga o'xshaydi!.. Qanaqasiga sen kattasan? Tanamning qoraligidan kulish bekor ish. Patim qora bo'lsa, ichim ham qora ekanmi?.. Bir kuni tog'ning soya tomondan uchib o'tgan edim, qorayib qoldim... Tumshug'imni ham masxara qilma! Hatto yueylik knyaz Gouszyanning og'zi ham qarg'aning tumshug'iga o'xshash bo'lgan. Shunga qaramay, u o'z qasos qilichini o'n yil yashirinch a charxlagan va oxir-oqibat xou-van mavqeyiga erishgan. Darvoqe, sen mumtoz adabiyotdan bexabarsan-ku. Yana o'zingni katta deganingga o'laymi?.. Yo'q, buni shunday qoldirib bo'lmaydi! Marosimdan keyin hammani majlisga yig'ib, bu surbetni yanbanlar ro'yxatidan o'chirib tashlash kerak!

Qarg'a va ukki bir-biri bilan uzoq janjallashishibdi. Shu vaqt ko'm-ko'k osmonda uchib ketayotgan yakka g'oz ularning oldiga tushibdi va uzun bo'ynini oldinga cho'zib, shunday debdi:

— Sizlar katta bo'ldinglarmi? Xan sulolasi davrida gunlar Su Uni o'n to'qqiz yil zindonda saqlagan va u haqda hech qanday darak bo'lmagan davrda, u menga o'zidan darak bergan va uning xatini men shaxsan imperatorga yetkazgan edim. Demak, bu yerda katta menman. Sizlar... bu unvonga erishishlaringga hali ancha bor!

Nilufar ko'lida yashaydigan o'rdak yetti xotinidan ayrilgan bo'lib, o'ziga xotin qidirayotgan ekan. Tustovuq beva qolganini eshitib, u taomilga ko'ra oldin sovchi ham yubormasdan, kuyov yo'lga tushishga tayyorgarlik ko'ra boshlabdi. Kelinning uyiga to'y g'ozini olib kirish uchun u g'ozni, oshnalikka kaptarni, kuyov jo'ralikka esa — naynov turnani taklif qilibdi. Ko'rkam ko'kto'rg'oq qush esa kelinning oldiga sovg'a-salomlar bilan yo'l olibdi. U kelib:

— Kelin — tustovuq uydami? Uni yo'qlab kuyov — o'rdak kelyapti! — debdi.

Bu gapni eshitib tustovuq yig'lab yuboribdi va:

— Men bir o'jiz beva bo'lsam-da, toki, taomilga ko'ra, to'rt baxtli sanani aniqlamaguncha, hech kim menga hatto kuch ishlatib ham uylana olmaydi, — debdi.

Shu orada bu yerga yetib kelgan o'rdak javob beribdi:

— Ikki beva qo'shilayotganda barcha taomillarga kim rioya qiladi va to'rt baxtli sanani aniqlaydi? Bunday hollarda kelin va kuyov bir-birlariga baxt keltirish-keltirmasliklarini aniqlash uchun qaysi stixiya ostida tug'ilganlarini solishtirishlarining o'zi kifoya qiladi. Xo'p, mayli, to'y uchun eng qulay sanani tanlaylik.

O'rdak taomilga ko'ra fol ochib, shunday debdi:

— Bizga shu tun juda mos ekan. Bunday tunda tuzilgan nikoh — baxt manbayi. Shuning uchun ham ko'p gapirmay, nikoh to'shagiga marhamat qiling!

Tustovuq kulib:

— Hoy, erkak, bemaza gaplarni gapirmang! — debdi.

Shunda o'rdak o'z turish-turmushini maqtay ketibdi:

— Bilasizmi, men qanday hashamatda yashayman?! Penlay tog'idagi va Inchjou orolidagi mamlakatlar menga kaftdek ko'rinib turadi. Odamlar u yerdagi daryolarning ko'm-ko'k suvlarida

qayiqlarda sayr qilishlari, oylarga termulishlarini kuzatib turaman. Bu yerda o'zimga in qurib, Duntin ko'li va Syan daryosi suvlarida xumordan chiqquncha cho'milaman, kumushrang baliqni to'yib yeyman. Bu dunyoda mendan baxtli jonzot yo'q!

Tustovuq unga shunday deb javob beribdi:

— Suvda hayot yaxshi deydilar. Ammo quruqlikdagi hayot bilan uni tenglashtirib bo'larkanmi? Biz keng tekisliklarda sayr qilamiz, baland tog'larga ko'tarilamiz, u yerdan atrofni tomosha qilamiz! Bahor adog'ida, hammayoq gullagan pallada g'amgin kakku sayray boshlaydi. Uning «ku-ku»si «qaytganim yaxshi» degan ma'noni anglatadi, g'amgin nolasi o'tlar va daraxtlar, qushlar va hayvonlarning dilini o'rtaydi. Bundan ajoyib manzara bor ekanmi?! Oltin kuz, sakkizinchi oy, xrizantemalar gullaydigan payt-chi? Bunday pallada pishgan mevalarni yig'ib, o'z atrofiga tog'dek uyib qo'rganidan baxtga to'lib-toshgan tustovuq ham kuylab yuboradi. Quruqlikdagi hayot bilan taqqoslaganda, sizlarning suvdagi hayotingiz hech narsaga yaramaydi!

O'rdak tustovuqning gaplarini miq etmay eshitibdi.

Shu vaqt bevani yupatgani kelgan tustovuq paydo bo'libdi. U shunday debdi:

— Beva qolganimdan so'ng to'liq uch yil o'tdi, lekin o'zimga mos dugonani hanuz topa olganim yo'q. Boshingizga tushgan musibat haqida eshitib, sizni yupatgani keldim. Xudolar va osmon yostiqdoshlikka menga sizni ro'para qilganini tushundim. Keling, taqdirimizni bog'laylik, oila quraylik, bola-chaqali bo'laylik. O'g'illarimizni uylantiramiz, qizlarimizni erga beramiz, o'zimiz esa yuz yil baxtli yashaymiz.

Beva tustovuq unga shunday deb javob beribdi:

— Marhum erimni o'ylasam, qayta turmush qurgim kelmaydi. Ammo yillarimni hisoblab ko'rib, shunga amin bo'ldimki, men yosh ham, qari ham emas ekanman. Mening yoshimda hali baxtli bo'lish, oilaviy hayotni yuritish mumkin ekan. Bugun sizni ko'rdim-u, umrimni bevalikda o'tkazish niyatim yo'qoldi. Menga ko'pchilik sovchi bo'lib keldi, men bo'lsam tagi toza zotlar og'iz solarmikan deb poyladim... Ammo, qadimgilar aytishganidek, «Ot

otga, yosh — yoshga to‘g‘ri keladi». Men ham sizga tegsam, to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu gapni eshitgan tustovuq darrov patlarini yozib, o‘zini bozorga sola boshlabdi.

Ular turmush qurishibdi. Omadi yurishmagan kuyovlar — qarg‘a, ukki va o‘rdak o‘rinlaridan turib, uyatdan yal-yal yonib, uchib ketishibdi. Ularning ketidan mehmonlar ham bu yerni tark etishibdi.

Shunda er-xotin yo‘lga chiqishibdi. Oldinda tustovuq, uning orqasida — xotini, ulardan keyinda esa — xotining to‘qqiz o‘g‘li va o‘n ikki qizi borar ekan. Qor bo‘roni osha ular ovloq o‘rmonga, pog‘onasimon tog‘larga qaytishibdi...

So‘ng yana bahor kelibdi... Tustovuqning to‘qqiz o‘g‘li uylanibdi, o‘n ikki qizi erga tegibdi. Er-xotin tustovuqlar daryolar va tog‘lar bag‘rida, tabiat qo‘ynida bahra olishgach, o‘ninchi oyning oy to‘lgan kuni chuqur suvga sho‘ng‘ib, jon berishibdi.

Xalqda shunday bir matal bor: ikki tavaqali chig‘anoq — bu bir-biridan abadiy ayrilmaslik uchun chuqur suvga sho‘ng‘igan er-xotin tustovuq.

MALIKA BARI

Qadim zamonlarda uch davlat (osmon, yulduzlar va tog‘lar) podshosi Qirol Obi (Buyuk qirol) yashagan ekan. U yaxshi podsho sifatida nom chiqargan, biroq so‘qqabosh ekan. Podshoning so‘qqaboshligini bilgan mulozimlar qirolga mos keladigan xotinni topish haqida farmon chiqarib, uni butun qirollik bo‘ylab tarqatishibdi. Talabgorlar tanlovining uch davrasidan o‘tgan Kildeni qirol oldiga boshlab kelishibdi. Qirol o‘z a‘yonlariga shunday debdi:

— Men qirollik kelajagini bilmoqchiman. Biron-bir usta folbin bormi?

Xizmatkorlar qirolga xabar qilishibdi:

— Chonxagung qirolligida olim Gari (donishmand, shaman) bor, Chjesokgung qirolligida donishmand Sosuraksi (donishmand Moraban, Sosilegi-si) bor, aytishiaricha, u Myongdugung qirolligining barcha donishmandlaridan o‘tkir ekan.

Podsho amr etibdi:

— Chonxagung qirolligiga boring va kelajakni bilib keling.

Qirol a'yoni qimmatbaho toshlar, oltin va pul olib Chonxagung qirolligiga, donishmand Gari huzuriga kelibdi.

Donishmand kuraksimon o'simlik ildizini qirqilgan oq ildiz ustiga qo'yibdi va fol ocha boshiabdi.

— Birinchi tog' — qulagan tog', ikkinchi tog' — darvozasi tepaga qaragan tog', uchinchi tog' — diqqatga sazovor biron-bir jihati bo'lmagan tog'.

Donishmand saroy a'yoniga shunday deb tushuntiribdi:

— Agar qirol bu yil uylansa, undan yetti qiz tug'iladi, agar u kelasi yil uylansa, taxt vorisi — shahzoda dunyoga keladi.

Saroy a'yoni qaytib borgach, buni qirolga xabar qilibdi. Qirol uning gapini eshitib istehzo bilan:

— Kim bilsin, balki donishmand adashayotgandir, — debdi. — Hatto bir lahzani kechga surish ham mushkul, bir kun men uchun o'n kunga teng, kelasi yilgacha qanday toqat qilaman?

Qirol saroy marosimlar boshqaruvchisiga uchinchi martga birinchi marosimni, beshinchi mayga — Tano bayramiga ikkinchi marosimni tayinlashni, yettinchi iyulga esa bosh nikoh marosimini tayinlashni buyuribdi va shundan keyin hamma to'yga tayyorgarlik ko'ra boshlabdi.

Vaqt oqar suvdek shoshqin ekan, ko'z ochib yumguncha uch oy o'tibdi. Kilde o'zini g'alati hls qila boshlabdi. Uning yeganida ham, ichganida ham halovat yo'q ekan. Tortilgan taom pishmagan bo'lib tuyular, suvdan qo'lansa ta'm kelar, mushk-anbarlar o't hidini taratar, sho'rvadan esa xom soya hidi kelar ekan. Bu haqda qirolga xabar qilishibdi. Qirol:

— Qirolicha, tushingga nima kirdi? — deb so'rabdi.

Qirolicha shunday javob beribdi:

— Ko'ksimda oy yaltirayotgan emish, o'ng qo'limda esa bronza rangli gul tutgan emishman.

Qirol saroy a'yoniga donishmand huzuriga borishni buyuribdi. Chonxagung podsholigimning donishmandi fol ochibdi va saroy a'yoniga shunday debdi:

— Qirolicha Gildening ko'zi yoriydi va malika tug'iladi.

Qirolga buni xabar qilishibdi. Qirol buni eshitib jilmayibdi va:

— Folbinning hamma aytganlari o'ngidan keladi, deyishadi, u hamma narsani qayerdan bilishi mumkin? — debdi.

Oradan o'n oy o'tibdi va malika tug'ilibdi. Malika tug'ilgani haqida qirolga xabar qilishgan ekan, u shunday deb buyuribdi:

— Hamonki taxt vorisi — shahzodani emas, balki malikani tuqqan ekansan, uni tegishli darajada olijanoblik bilan tarbiyalayver.

Malika tug'ilganidan keyin oradan uch oy o'tgach, unga Malika Chxong De (Malika orxideya, Orxideyadan tug'ilgan) degan ism berishibdi, biroq hamma uni Daridang-si (Oy qirolichasi) deb chaqirar ekan.

Oradan vaqt o'tibdi va qirolichaning yana bo'yida bo'libdi. U shunday tush ko'ribdi: ko'ksida qulagan Katta Ayiq yulduzi yiltirayotgan emish, o'ng qo'lida esa shaftoli gulini ushlab turganmish.

Yana qiz tug'ilibdi va unga Malika Xong De (Malika Shaftoli guli, Shaftoli gulidan tug'ilgan) degan ism berishibdi, biroq hamma uni Byoridang-si (Yuiduzlar malikasi) deb chaqirar ekan. Shundan keyin hamma o'g'il tug'ilishini kutgan ekan, lekin faqat qizlar tug'ilibdi va ularning soni oltitaga yetibdi. Shundan so'ng qirolicha Kildening yana bo'yida bo'libdi.

— Bu safar nima ko'rding? — deb so'rabdi undan qirol.

— Bu safar shuni ko'rdimki, homilaga faqat bir xavf tahdid solayotgan emish. Katta Demengchjon¹ maydonida sharqiy va sariq ajdarlar ko'zga miltillab ko'rinayotgan emish, o'ng qo'limda o'rgatilgan lochin, chap qo'limda oq ot ushlaganmishman, chap tizzamda qora toshbaqa o'tirgan emish, ortimdan quyosh va oy ko'tarilayotganmish.

Qirol xotinining so'zlarini eshitib xursand bo'libdi:

— Bu safar taxt vorisi — shahzoda tug'ilishi tayin.

¹ Demengchjon — qirol saroyining nomi.

Qiroi saroy a'yoniq donishmand huzuriga borib, uning bashoratini bilib kelishni buyuribdi. Saroy a'yoni donishmand huzuridan qaytib kelibdi va qiroiqa xabar qilibdi:

— Bu safar ham u malikani ko'ryapti.

— Bunday tush bekorga kirmaydi. Axir donishmand ham yanglishishi mumkin-ku. Bunday tush faqat bir narsani — taxvori bo'lgan shahzoda tug'ilishni anglatishi mumkin, — debdi qiroi va to'rt bosh darvozaning barchasiga og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarni afv etish va ozod qilish haqidagi farmonni osib qo'yishni buyuribdi.

Nihoyat, o'ninchi oy kelishi bilan qiroiichaning ko'zi yoribdi va yana qiz tug'ilibdi. Qiroiicha Kilde ho'ngrab yuboribdi. Qiroi esa, achchiq xo'rsinib, shunday debdi:

— O'tgan hayotda qilgan gunohlarim uchun Budda yetti qiz yuborib meni jazolagan ko'rinadi. G'arbiy dengiz Xudosiqa sovg'a yuborish kerak.

Yashma ustasini chaqirishibdi va unga yashmadan sandiq yasashni, uning qopqog'iga esa «Davlat malikasi» degan so'zlarni o'yib yozishni buyurishibdi. Qiroiicha alamli xo'rsinibdi va:

— Qiroiim, odam ham shunaqa shafqatsiz bo'ladimi? — debdi. — Axir siz o'z farzandingizni tashlab yubormoqchi bo'lyapsiz. Undan ko'ra qizingizni farzandsiz fuqarolarga bering, boqib olishsin.

Biroq qiroi xotiniining so'zlariga quloq solmabdi va:

— Tashlab yuborilayotgan bolaga ism beraylik, — debdi.

— Bahridan o'tiladigan narsaning bahridan o't, tashlanadigan narsani tashlab yubor. Uning Malika Bari bo'lsin.

Qiroi o'zining, qiroiicha va bolaning tug'ilgan sanalarini yozib, bu xatni kiyim tasmachasiga bog'labdi va bolaning og'ziga yashmadan yasalgan idishda sut solib, uni sandiq ichiga joylabdi. Oltin toshbaqa ko'rinishidagi qulfni va qora toshbaqa ko'rinishidagi qulfni berkitib, xizmatkorlarni chaqiribdi va ularga sandiqni dengizga tashlab yuborishni buyuribdi.

Xizmatkorlar sandiqni Xvanchon daryosi va Yusa¹ daryosi oralig'idagi suv oqimiga tashlashibdi, biroq asov to'lqinlar sandiqni

¹ Yusa daryosi — narigi dunyoga o'tish joyi.

quruqlikka chiqarib tashlabdi. Sandiqni suvga ikkinchi marta tashlashibdi va bu safar ham to'liq uni quruqlikka chiqarib tashlabdi. Sandiqni suvga uchinchi marta tashlashibdi — bu safar u cho'ka boshlabdi, biroq Osmon o'z panohiga olgan bolani qayerdandir paydo bo'lgan oltin toshbaqa olib ketibdi.

Shu vaqt o'zining uch ming nafar shogirdiga dars berayotgan Sokasechjonda¹ odamlarga nisbatan tashvish paydo bo'libdi va yuragiga tushgan g'ulg'ulani tekshirib ko'rish uchun u dunyoviy hayotga nazar tashlashga qaror qilibdi. Osmondan tushib u Txxyang tog'idan atrofga nigoh tashlabdi: qorong'i tushishi bilan osmonni Avroraning yog'dusi chulg'ar, tong otishi bilan esa osmonni quyuq tuman va bulutlar qoplar ekan. Bu unga g'alati bo'lib tuyulibdi.

Shunda Sokasechjon o'z shogirdini chaqiribdi va unga shunday debdi:

— Menga qara, Mok Ryon², ho'v anavi yerda Osmon o'z panohiga olgan banda bo'lishi kerak, borib tekshirib kel.

Mok Ryon aytilgan joyga borib kelib Sokasechjonga:

— Men u yerda hech kimni ko'rmadim, — debdi.

— Hali sening tajribang yo'q, — debdi Sokasechjon va toshdan qayiq yasab o'sha joyga borgan ekan, bu yerda yettinchi malikaga ko'zi tushibdi.

— O'g'il bola bo'lganida, menga shogird tushar edi, qiz boladan esa foyda yo'q, — deya afsus bilan xo'rsinibdi Soka-sechjon.

U to'rt atrofga nazar tashlabdi va bo'yniga to'rtva osib, qalpog'ini qo'nqaytirib kiyib, qo'llarida Budda sutralarini ko'tarib kelayotgan va qo'shiq kuylayotgan qariya Biri va uning kampiriga ko'zi tushibdi. Sokasechjon:

— Beg'am-betashvish daydib yurgan bu chol-kampir kim bo'ldi? — deb so'rabdi.

— Biz, chol va kampir Biri, buddaviy rohiblar uchun ibodatxona, ko'prik va o'n ming kishi uchun uylar qurganmiz,

¹ Sokasechjon — Buddaning ismlaridan biri.

² Mokryon — Budda shogirdining ismi.

kambag'al odamlarga o'z kiyimimizni berish, ularning qornini to'ydirish va yetim bolalarga sut berish — bizning asosiy ishimiz.

— Mana, sizlarga Osmon o'z panohiga olgan bola, uni olinglar va tarbiyalanglar.

Sokasechjonning so'zlarini eshitgan kampir shunday debdi:

— Bahorda va kuzda biz ochiq dalada yashasak, qishda esa g'orda kun kechirsak, Osmon farzandini biz qanday qilib olishimiz va o'stirishimiz mumkin?

— Agar shu bolani o'stirish uchun olsangiz, sizlarda uy ham, ust-bosh ham paydo bo'ladi, olinglar va o'stiringlar.

Sokasechjon gapini tamomlab, xuddi shamoldek qo'qqisdan g'oyib bo'libdi. Shundagina chol-kampir o'zlari bilan gaplashgan zot Sokasechjon ekanini tushunishibdi. Sandiq ustiga engashib ular «Davlat malikasi» degan yozuvni o'qishibdi. Sandiq tepasida izzat-ikrom, muhabbat, haqiqat va qonuniylik duolarini tilovat qilib, ular sandiqning qopqog'ini ochishibdi. Sandiq ichida yotgan go'dakka qarab uning og'zi ulkan o'rgimchaklarga, quloqlari qizil chumolilarga to'la ekanini, beliga esa ilon chirmovuqdek o'rah ib olganini ko'rishibdi. Ular chaqaloqni qo'lga olib, uning egnidagi qora kiyimni yechishibdi va toza suvga olib borib cho'miltirishibdi. Shu ishni bajarishga ulgurmaslaridan, ortga o'girilishibdi va poxol tomli kichkina yog'och uy paydo bo'lganini ko'rishibdi. Chol-kampir bolani shu uyda o'stirishga qaror qilishibdi.

Bola ulg'aya boshlabdi. Yetti yoshga to'lganida u bilmaydigan narsaning o'zi qolmabdi. U o'ziga hech kim o'rgatmagan fanlar: astronomiya, geologiyani va falsafaning uch turini yaxshi bilar ekan. Bir kuni qizaloq:

— Bobojon va buvijon, mening otam va onam qayerda? — deb so'rabdi.

Chol-kampir:

— Sening otang — Osmon, onang esa — Yer, — deb javob berishibdi.

— Bobojon va buvijon, meni aldamang. Axir Yer va Osmon odam bolasini tug'ishi mumkinmi?

Kampir hovliga chiqibdi va egnidagi kiyimini to'g'rilab, bidirlay ketibdi:

— Bizga ishonib topshirilgan yetim, sen o'z ota-onangni izlayapsan. Sening otang — Cholladodan keltirilgan bambuk, onang esa — orqamizda joylashgan tog' yaqinida o'sgan katta pavloniya.

— Meni aldamang, buvi. Axir hayvonlar, qushlar va o'simliklar odam bolasini tug'ishi mumkinmi? Bambuk o'lsa, uning tepasi va pastidan qirqib olishadi va bukib hassa sifatida ishlatishadi. Pavloniya o'lsa, uning ham tepasi va pastidan qirqib olishadi va bukib hassa sifatida ishlatishadi. Ular qanday qilib mening ota-onam bo'lishi mumkin?

Oradan yana vaqt o'tibdi. Qiz 15 yoshga to'libdi. Shu payt qirol va qirolicha bir lahzada ayni bir kasallikka yo'liqishibdi va bu holdan saroy a'yonlari qattiq tashvishga tushishibdi. Qirol oldiga o'z xizmatkorini chaqiribdi va unga:

— Bir paytlar ochilgan fol aniq va to'g'ri chiqqan edi. Borib mening taqdirimni so'rab kel, — deb buyuribdi.

Saroy a'yonlari munajjimning oldiga boribdi va u ochgan folni eshitibdi.

— Sharqda quyosh yiqilyapti, G'arbda esa oy yiqilyapti, qirol va qirolicha bir lahzada va bir vaqtda vafot etadi. Malika Barini topinglar.

Qirol saroy a'yonining xabarini eshitib alam bilan xo'rsinibdi:

— Qirollik tizginini men kimga topshiraman, fuqarolarim uchun kim himoyachi va tayanchga aylanadi, mening saroyim, oilam va a'yonlarimni kim himoya qiladi?

Shu yerda qirol ho'ng-ho'ng yig'lab mudrab qolibdi. Bir vaqt bog' o'rtasida osmonrang libos kiygan elchi paydo bo'libdi va qirolga ta'zim qilibdi.

— Sen kimsan? Saroy ichiga qanday qilib kirding?

Elchi qirol oldiga ko'tarilibdi va shunday deb javob beribdi:

— Siz, qirol, qirolicha bilan birga bir lahzada va bir vaqtda vafot etasiz. Hozir sizlarning oldingizga o'lim ruhlari kelishyapti.

— Men vazirliklarning mulozimlariga biron yomontik qilibmanmi? Yoki saroy a'yonlarining xotinlarini xafa qilibmanmi? Yoki odamlarning ko'ngliga ozor yetkazibmanmi? — deb so'rabdi qirol.

Elchi bunga shunday deb javob qaytaribdi:

— Hech qanday xafachilik va yomonlik yo‘q. Bu osmon yuborgan va siz suvga tashlashni buyurgan malikaga nisbatan sodir etilgan jinoyat uchun jazo.

— Qayta yosharish uchun nima qilish kerak?

— Qayta yosharish uchun Osmon xudosining saroyida tayyorlangan dorini ichish kerak, Bongne Bangchjangda¹ tayyorlangan obi hayotni ichsa ham bo‘ladi. Malika Barini toping.

Shu so‘zlarni aytib elchi g‘oyib bo‘libdi. Qirol ko‘zini ochibdi va bularning barini tushida ko‘rganini tushunibdi.

Qirol saroy a‘yonlarini chaqiribdi va ulardan:

— Oralaringda mening sog‘ayishim uchun obi hayot topib kelishga tayyor odam bormi? — deb so‘rabdi.

— Sharqiy dengiz xudosining saroyi ham, G‘arbiy dengiz xudosining saroyi ham biron-bir tirik jonzo‘tning qadami yetmagan joylardir. U yerga faqat o‘lgandan keyin tushish mumkin. U yerga borishga jur‘ati yetadigan xizmatkor yo‘q.

Saroy a‘yonlarining javobini eshitib, qirol qayg‘usini yashirmasdan qattiq xo‘rsinibdi va:

— Malika Barini topgan odamga misli ko‘rilmagan boyliklar hadya etaman, — debdi.

Qirolning zudlik bilan malika Barini qidirish haqidagi buyrug‘ini qirollik fuqarolariga e‘lon qilishibdi. Qirol huzuriga bir fuqaro kelibdi va shunday debdi:

— Men oldingizga urug‘im avlodlar osha siz davlat xazinasidan ajratgan pullar hisobiga yashab kelgani uchun minnatdorchilik bildirishga keldim. Osmonga qarab men G‘arbda tun qo‘nishi bilan Avrora yog‘dusi taralayotganini, kunduzi esa osmonni quyuq tuman va bulutlar qoplayotganini payqadam. Malika Bari o‘sha yerda bo‘lsa kerak. Men darhol uni qidirish uchun o‘sha yoqqa jo‘nayman.

Qirolicha xo‘rsinib shunday debdi:

— Qayerga borishni bilmay turib, sen bir vaqtlar tashlab yuborilgan bolani qayerdan topasan?

— Baribir men boraman, — deb e‘tiroz bildiribdi xizmatkor.

¹ Bongne Bangchjang — Budda yashaydigan joy.

— Mayli, bora qol, — debdi qirol umid bilan. U xizmatkor bilan xayrlashibdi va uni safarga kuzatibdi.

Saroy darvozasidan chiqqach, xizmatkor qayerga borishini bilmay to'xtab qolibdi. Shu payt qayerdandir qora qarg'a paydo bo'libdi va boshi bilan ishora qilib yo'l ko'rsata boshlabdi. Shunda daraxtlar va maysalar ham o'sha tomonga og'ib, xizmatkorga yo'l ko'rsatishibdi. Shu tariqa u quyosh botadigan joyni topibdi. Bu joy G'arbiy osmon deb atalar ekan.

Xizmatkor bu joyga kelib ulgurmasidan Quyosh va Oy elchilari paydo bo'lishibdi va:

— Odamning hidi kelyapti. Sen kimsan — odammi yoki arvothmi? Hayvonlar ham, qushlar ham kira olmaydigan bu yerga nima uchun kelding? — deb so'rashibdi.

— Men bu yerga qirol va qirolicha nomidan malika Barini topish uchun, hayot va mamot masalasini hal qilish uchun keldim.

Quyosh va Oy elchilari uni darvoza oldiga boshlab kelishibdi. U temir eshikni qoqib chaqirgach, uning oldiga Barini boqib olgan chol-kampir chiqibdi.

— Sen kimsan — odammi yoki arvothmi? Hayvonlar ham, qushlar ham kira olmaydigan bu yerga osmon qonunini buzib nima uchun kelding?

— Men bu yerga qirol va qirolicha nomidan malika Barini topish uchun keldim.

Xizmatkorning oldiga malika Bari chiqibdi va:

— Sen qirollik nishonlarini olib keldingmi? — deb so'rabdi.

— Men yetti kunlik chaqaloq yaktakchasini olib keldim, — debdi xizmatkor. — Menga bu qirollik nishonlarini berayotib, ular ko'z yoshi to'kishdi, Osmon o'z panohiga olgan bolani tashlab katta jinoyat sodir etishganini aytishdi.

Malika Bari qirol, qirolicha va bolaning tug'ilgan sanalari yozilgan hujjatga nazar tashlabdi — hammasi mos kelibdi.

— Shunga qaramay men sen bilan birga keta olmayman, boshqa nishonlarni olib kel.

Qirol o'zining nomsiz barmog'ini xiyol kesib, toza suv solingan jomga qonini tomizibdi. Malika Bari ham xuddi shunday qilib,

oltin jomdagi suvga o'z qonini tomizib aralashtiribdi va shundan keyingina:

— Ha, bu mening otam. Men sen bilan birga ketaman, — debdi va yo'lga otlana boshlabdi.

— Malika nimada ketmoqchilar — qirolning oltin taxtiravonidami yoki qirolning yashmadan yasalgan taxtiravonidami? — deb so'rashibdi undan.

Biroq malika ularning ikkalasidan ham bosh tortibdi:

— Qirol avlodiga ko'rsatiladigan izzat-ikrom menga tanish emas. Men o'z oyoqlarim bilan yurib boraman, — debdi u.

Shunday qilib, malika Bari o'zi o'sgan joyni tark etibdi va qirol saroyiga qarab yo'l olibdi. Yo'ldoshlar bir necha kun yurishibdi, keyin yana bir necha kun yo'l yurishibdi va nihoyat, manzilga yetib kelishibdi.

— Biz qirol saroyimning darvozasi oldiga keldik.

Saroy a'yonlari bu haqda qirolga xabar qilish uchun oshi-qishibdi.

— Ularni ichkariga kiriting! — deb buyuribdi qirol.

Demyongchjon saroyiga kirgach, malika Bari ta'zim qilibdi va yig'lab yuboribdi. Qirol ham ko'z yoshi to'kib shunday debdi:

— Qo'y, qizim, yig'lama. Men seni yomon ko'rganim uchun emas, balki jahl ustida tashlab yuborganman. Bahorda, qishda sen qanday yashading, och qolmadingmi?

Malika Bari yig'idan to'xtab javob beribdi:

— Sovuqdan ham, issiqdan ham, ochlikdan ham ko'p azob chekdim.

— Men bundan qattiq afsusdaman. Qizim, sen ota-onangning hayotini qutqargani borasanmi?

— Nima uchun mening to'qson to'qqiz devor ortida yashagan, qirol xosxonalarida uxlagan, izzat-ikromda tarbiyalangan opalarim sizlarning hayotingizni qutqargani bora olishmaydi?

Shu yerda turgan opalari may va iyundagi karqurlar yanglig' sayray ketishibdi:

— Biz dunyoning to'rt tomoni qayerda joylashganini farqlay olmaymiz, hatto saroy ortidagi toqqa sayr qilgani chiqqanimizda

ham saroyga yo'lni topa olmaymiz, qirollik chegarasidan tashqariga qanday qilib chiqamiz?

Oxir-oqibat malika Bari borishga qaror qilibdi.

— Men o'zimni qornida o'n oy ko'tarib yurgan validamdan behad minnatdorman, shuning uchun ham boraman, — debdi u.

Qirol malika Bariga ipak va temir liboslar va poyafzal berishni buyuribdi. Malika kiyinib saroydan chiqibdi. Saroy darvozasidan chiqqach, u qayoqqa yurishini bilmay to'xtab qolibdi. Shu vaqt qora qarg'a uchib kelibdi va unga yo'l ko'rsatibdi. Malika Bari o'zining temir hassasini ko'tarib bir qadam tashlagan ekan, 1000 li masofani bosib o'tibdi, ikkinchi qadamni tashlagan ekan, 2000 li masofani bosib o'tibdi, uchinchi qadamni tashlagan ekan, uch-to'rt ming li masofani bosib o'tibdi. Bu payt ajoyib bahor fasli kelgan, chor atrofdagi gullar barq urgan, daryo suvi har doimgidan ham osoyishta oqayotgan ekan. Yam-yashil majnuntol shoxlarida oltin zarg'aldoqlar sayrayotgan, tovuqlar o'z zebziynatini namoyish etmoqda ekan.

Malika Bari oltin qoya ostonasida, bahaybat qayrag'och soyasida shashka o'ynab o'tirgan Sogka Yore va Chjichjang Bosalg' ko'zi tushibdi. Malika ularga yaqinlashib ikki marta ta'zim qilibdi va tavoze bilan salom beribdi. Shunda Sogka Sechjon ko'zlarini yumib, xotirjam ovozda:

— Sen kimsan — odammi yoki arvothmi? Bu yerga, osmon saroyiga hayvonlar ham, qushlar ham kira olmaydi, bu osmon qonuniga qarshi jinoyat hisoblanadi, — debdi.

— Men Choson qirolligining yettinchi vorisiman, ota-onamni qutqarish uchun dori olib kelgani ketyapman, biroq hozir yo'lni topa olay turibman. Tangrim Budda, menga to'g'ri yo'l ko'rsat.

Shunda Sogka Sechjon ko'zlarini ochibdi va shunday debdi:

— Men yetti malika tug'ilganini eshitganman, biroq yettinchi farzand taxt vorisi — shahzoda bo'lganini birinchi marta eshityapman. Sen osmonni aldashing mumkin, lekin meni alday olmaysan. Seni tashlab yuborishganidan so'ng quyosh g'arb osmonidagi ufq ortiga botadigan joyda o'lar holda topgan va

¹ Sogka Yore va Chjichjang Bosalg' — Buddaning ismlari, Budda timsollari.

qutqargan zot men bo'laman. Sen esa meni aldamoqchi bo'l-yapsan. Budda qarshisida yolg'on gapirish — do'zaxning sakson to'rt ming davrasidan o'tishga loyiq jinoyat. Shunga qaramay, quruqlikdan olti ming li masofani bosib kelganing uchun sen maqtovg'a loyiqsan. O'nqir-cho'nqir yo'llardan yana uch ming li masofa yurishing kerak. Sen bunga tayyormisan?

— Meni u yerda o'lim kutayotgan bo'lsa ham boraman.

Sogka Sechjon qizning ahdini ma'qullab, bosh silkibdi va:

— So'zlaring samimiy va maqtovg'a loyiq, — debdi. — Men senga yo'lni ko'rsataman. Sen nilufar gulining ochilmagan g'unchasini keltirdingmi?

— Shoshilinchda uni olishni unutibman.

Sogka Sechjon qizga uch dona nilufar guli va oltin asoni berib, shunday debdi:

— Agar shu aso bilan yursang, o'nqir-cho'nqir yo'l tekislanadi, ulkan dengiz esa kichik bir ko'lmakka aylanadi.

Malika Bari tuhfalarni ehtirom bilan ikki qo'llab qabul qilibdi va xayrlashib yo'lga chiqibdi. U yo'l yurib bir joyga kelibdi. Bu joy sakson to'rt ming davradan iborat do'zax ekan. Bu yerda do'zaxning har xil turlariga eltuvchi darvozalar bor ekan: pichoqlar tog'laridan iborat do'zaxga; olovli do'zaxga; zaharli ilonlardan iborat do'zaxga; abadiy muzliklardan iborat do'zaxga; ilonlar do'zaxiga. Shu yerda osmono'par temir qal'a ham joylashgan ekan. Qal'a shu qadar baland ekanki, hatto shamollar va bulutlar ham undan oshib o'tishdan oldin nafas rostlab olishga majbur bo'lishar ekan. Malika quloq solibdi va do'zaxilarning dahshatli baqir-chaqir ovozlari eshitibdi. U nilufar gulini silkigan ekan, temir qal'a qulab tushibdi va shu zahoti uning ichidan gunohkorlar to'da-to'da bo'lib chiqib kelishibdi. So'qir, qo'lsiz va oyoqsiz gunohkorlar hamda ularning ruhlari malika Baridan o'zlarini qutqarishni so'rab yolvora boshlashibdi. Malika Bari Budda sutralarini tilovat qilibdi va Xudodan ularga jannatga tushishda yordam berishni so'rabdi. Bu yerdan o'tgach, malika Bari ulkan dengizga ko'zi tushibdi. Bu dengiz ustidan birorta ham qush uchib o'tmagan, dengiz bo'ylab birorta ham qayiq suzib o'tmagan ekan. Malika Bari avvaliga o'zini yo'qotib qo'yibdi, biroq so'ng

Buddaning soʻzlarini eslabdi va oltin asoni osmonga otibdi. Shunda kamalak paydo boʻlibdi va malika uning ustidan yurib dengizdan oshib oʻtibdi. Dengizning narigi tomonida Muchjang Singning ulkan yogʻoch haykaliga koʻzi tushibdi. Haykalning boshi osmonga tegib turar, koʻzlaridan nur taralar, yuzi temir patnisdek kelar ekan. U malikadan soʻrabdi:

— Sen odammisan yoki arvohmi? Hatto shamol va bulutlar ham ustidan dam olmasdan oʻta olmaydigan doʻzaxning temir qalʼasidan qanday oʻtding? Butun quruqlikni oʻz suvlari bilan bosgan uch ming li masofa dengizdan qanday oshib oʻtding?

— Men Choson qirolligining taxt vorisi boʻlgan yettinchi shahzodasiman. Ota-onamni qutqarish uchun dori topgani keldim.

— Sen yoʻl uchun haqni keltirdingmi?

— Shoshilinchda hech narsa olganim yoʻq.

— Yoʻl uchun haq evaziga sen uch yil daraxt kesasan.

— Xoʻp.

— Suv uchun haq evaziga sen uch yil menga suv tashiysan.

— Xoʻp.

Ikki marta uch yildan — jami olti yil vaqt oʻtibdi. Bir kuni Muchjang Sing shunday debdi:

— Koʻrinishdan chuvrindiga oʻxshasang-da, yuzingdan qirol nafasi ufuradi, biroq sening tanang — ayol tanasi va shu bois men oʻz taqdirimni sen bilan baham koʻrmoqchiman. Menga xotin boʻl va yetti oʻgʻil tugʻib ber.

Malika Bari va Muchjang Sing birga yashay boshiashibdi. Osmon ularga chodir boʻlib, oy — chiroq boʻlib, qurigan daraxtlar — koʻrpa va toʻshak boʻlib xizmat qilibdi. Vaqt oʻtibdi va nihoyat, malika Bari yetti oʻgʻil tugʻibdi. Shunda malika Bari endi uyga qaytish niyatida ekanini bildiribdi.

— Xotinlik burchini bajarish muhim, biroq kech boʻlmasidan oʻz ota-onamga ham hurmat koʻrsatishim kerak.

— Dengiz suvini toʻyib tomosha qilgin-da, keyin bora qol.

— Men dengizga qarashni istamayman.

— Togʻ gullariga toʻyib qarab olgin-da, keyin bora qol.

— Men gullarga qarashni istamayman. Kecha kechqurun tushimga qirol kiyimining uzilgan tugmasi kirdi. Bu tush qirol

va qirolichaning o'limidan darak beradi. Zudlik bilan yo'lga chiqishim kerak.

— Unda o'zing menga tashigan suvni ol — sen qidirgan obi hayot shu, o'zing o'rgan o'tni ham olib ket — ko'zni ochuvchi giyoh shu. Tog'da o'suvchi gullarni ol — ular nafas, suyak va tanaga jon kirituvchi gullar. Nafas, suyak va tanaga jon kirituvchi gullarni ko'zlar ustiga, giyohni ko'krakka qo'y, obi hayotni esa og'izga quy.

Malika Bari yuqorida aytilgan barcha narsalarni olib xayrlashibdi va yo'lga tushmoqchi bo'lib turgan ekan, Muchjang Sing ham u bilan birga borish niyatini bildiribdi.

— Ilgari men yolg'iz yashar edim, biroq endi yolg'izlikda kun kechira olmayman. Men sen bilan birga boraman.

Malika Bari uydan bir o'zi ketib, unga to'qqiz kishi bo'lib qaytibdi.

Ular Desichji va Galchi tog'larining cho'qqilaridan oshib o'tishgach, kemalar suzib ketayotgan qonli dengizni ko'rishibdi.

— To'rt tomondan nilufar gullari bilan bezalgan, ichida kimdir Budda sutralarini kuylayotgan, ko'k va sariq ajdarlar tortib ketayotgan, toshbaqa esa ortidan itarayotgan bu kema qanday kema bo'ldi? — deb so'rabdi malika Bari shu kemadagilarning biridan.

— Bu kema narigi dunyoga o'tayotganlarni, o'z dunyosida yashash paytida o'n ming kishiga sadaqa bergan, yo'lovchilar uchun uylar qurgan, buddaviylarning ibodatxonalarini barpo etgan, odamlarga o'z kiyim-kechaklarini ehson qilgan, ochlarning qornini to'ydirgan, Budda sutralarini ixlos bilan o'qigan, o'n ming kishiga yaxshilik qilgan va endi o'zining birdan bir orzusi — jannatga ketayotgan kishilarni tashiydi.

Uning ortidan boshqa bir kema suzib ketayotgan ekan. Malika Bari yana so'rabdi:

— Quvnoq bayram qo'shiqlari, raqslar va xushchaqchaq kulgi ovozlari eshitilayotgan, anvoyi hid va sof kuch-g'ayrat taralayotgan bu kema qanday kema bo'ldi?

— Bu kema o'z mamlakatiga sadoqat bilan xizmat qilgan, ota-onasiga izzat-ikrom ko'rsatgan, o'z aka-ukalari va opa-singillari bilan ahil yashagan, o'z oilasiga sadoqatni saqlagan,

qo'shnilar bilan yaxshi bo'lgan, kambag'allarga yordam qo'lini cho'zgan, umrini toza qalb bilan yashab o'tgan, vafot etgach, jannatga tushishga yordam beruvchi shamanlar marosimidan uch karra o'tgan narigi dunyoga ketayotgan odamlarni tashiydi.

— Qo'rqinchli musiqa sadolari yangrayotgan, kamon bilan qurollangan kishilar qo'riqlayotgan, kiyimsiz, sochlari to'zg'igan odamlarning faryodi va ko'z yoshiga to'la bu kema qanday kema bo'ldi?

— Bu kemada mamlakatga xoinlik qilgan, o'z ota-onasiga izzat-ikrom ko'rsatmagan, aka-ukalari va opa-singillari bilan ahil bo'lmagan, o'z atrofida qilarga yomonlik qilgan, ularni bir-biri bilan urishtirgan, o'ldirgan, ochko'zligi tufayli ko'p olib kam qaytargan, hayvonlarni o'ldirgan va shu tariqa Budda aqidalarini buzgan marhumlar do'zaxga ketishyapti.

Uning ortidan yana bir kema ko'rinibdi. Bu kemada chiroq ham, egalari ham yo'q, u juda tinch suzib kelayotgan ekan.

— Bu qanday kema?

— Bu kemada tug'ruq paytida jon bergan, narigi dunyoga tushishga yordam beruvchi shamanlik marosimidan o'tmagan va shu bois yo'lni yo'qotib, mazkur dengiz suvlari bo'ylab bu kemada maqsadsiz suzib ketayotgan o'g'il bolalar va qiz bolalarning ruhlari ketyapti.

Ularga malika Barining qattiq rahmi kelibdi, u Budda sutralarini o'qib, ularning jannatga tushishini tilabdi.

Ular Yusa daryosidan o'tib odamlar dunyosiga qadam qo'yishibdi. Bu yerda malika katta va kichkina tobutlardan iborat dafn marosimiga ko'zi tushibdi. U daraxt kesayotgan bolalardan:

— Bu tobutlar kimniki? — deb so'rabdi.

Bolalar unga:

— Mukofot olsak, aytamiz, — deb javob berishibdi.

Malika Bari yettinchi o'g'lini o'z yelkasiga bog'lash uchun o'ragan ro'molni yechib olibdi va uni bolalarga beribdi. Shunda bolalar:

— Bu narigi dunyoga bir kun va bir soatda jo'nagan qirol va qirolicha tobutlari, — deb javob berishibdi.

Malika Bari motam bayroqlariga qarab hamma gapni tushunibdi. U yetti o'g'li va Muchjang Singni yashirib, sochlarini yoyibdi va oldinga chiqibdi, saroy a'yonlarini chetlatib kafanlarni yirtibdi, qo'llar va oyoqlardan yetti marta aylantirib bog'langan arqonlarni yechibdi, o'ng va chap qo'llarni bo'shatibdi. Shundan keyin voqeani kuzatib turgan ko'pchilikning ko'z o'ngida Sochon Soyokdan¹ keltirilgan obi hayotni qirol va qirolicha o'ziga quyibdi, ularning ko'ksiga keltirilgan giyohni qo'yibdi, nafas, suyak va tanaga jon kirituvchi gullarni ko'zlariga qo'ygan ekan, qirol va qirolicha chuqur nifas olishibdi va xuddi hozir uyg'ongandek turib o'tirishibdi.

— Bu tushimizmi yoki o'ngimizmi? Barcha saroy a'yonlari va mulozimlar bu yerga nima uchun to'planishdi? Dengizni tomosha qilganimi? — deb so'rashibdi.

Saroy a'yonlari ularga:

— Tashlandiq bola obi hayot olib keldi. Siz, qirol va qirolicha, narigi dunyoga ketgan edingiz. U sizlarni shoshilinch hayotga qaytardi, — deb xabar qilishibdi.

Saroydan chiqishayotganida aza tutishayotgan ekan, saroyga hamma xursand va xushchaqchaq alfozda qaytibdi. Saroy a'yonlari, mulozimlar, xizmatkorlar va xalqning sevinchi ichiga sig'mas ekan. Butun mamlakat quvonchga to'libdi. Qirol saroyga qaytib kelib o'z taxtiga o'tirgach, u malika Baridan:

— Qirollikning yarmini senga beraymi? — deb so'rabdi.

— Yo'q, mamlakat menga kerak emas, — deb javob beribdi malika.

— G'aznaning yarmini senga beraymi?

— Bu ham menga kerak emas. Men gunoh qilganman.

— Nima gunoh qilgansan?

— Sizlarni qutqargan obi hayotni qo'lga kiritish uchun men Muchjang Singga erga tegdim va yetti o'g'il tug'dim.

— Bu gunoh seniki emas, balki bizniki.

Qirol uning eriga saroyga kelishini buyuribdi. Birozdan so'ng xizmatkorlar kirib:

¹ Sochon Soyok — joy nomi.

— U kira olmayapti, qalpog'i Gvanxa¹ darvozasiga qadalib qolyapti.

— U kirishi uchun darvozani buzib, kengroq ochinglar.

Muchjang Sing kirib kelgach, uni ko'rib qirolning kapalagi uchibdi.

— Haybatingdan ot hurkadi, boz ustiga yetti o'g'ling bor, lekin men sizlar yaxshi yeb, yaxshi yashashlaring uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qilaman, — debdi u.

Shunda malika Bari:

— Chol-kampir Biriga ham marhamat ko'rsating, — debdi va chol-kampir o'ziga qilgan yaxshiliklar haqida ota-onasiga gapirib beribdi.

Qirol hammani taqdirlabdi.

Muchjang Sing tog' ruhiga qilingan sadaqalar hisobiga yashay boshlabdi. Biri kampir shamanlarning narigi dunyoga o'tish marosimi chog'ida buddaviylar ibodatxonasi oldiga qo'yib ketishgan xayr-ehsonlar hisobiga yashabdi. Malika Barining yetti o'g'li taxt vorislari — shahzodalarga aylanishibdi. Malika Barining o'zi esa hammaning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'libdi, Hindistonda unga ko'rsatilgan hurmat belgilarini buddaviylarning har bir ibodatxonasida ko'rish mumkin. U odamlar dunyosiga kelganida, boshiga shamanlarning kumushrang qalpog'ini kiyib, qo'lga shamanlarning qo'ng'iroqchalari va yelpig'ichini olib, vafot etganlarga ularni narigi dunyoga kuzatish uchun shamanlik marosimlarini o'tkazar ekan.

* * *

Bu qo'shiq ota-onasi tashlab yuborgan, ularni qutqarish uchun ko'p azob-uqubatlarga dosh bergan yettinchi qiz — malika Barining ko'rgan-kechirganlari bayoni. Shamanlar o'z marosimlarini o'tkazayotganda kuylaydigan bu qo'shiq afsona, rivoyat, shamanlar qo'shig'i bo'lib, unda malika Bari ismli shaman ruhi haqida hikoya qilinadi. Shamanlik marosimi o'lgan odamning

¹ Gvanxa darvozasi — qirol saroyiga kirish joyidagi bosh darvozaning nomi.

ruhini tinchlantirish va narigi dunyoga jo'natish uchun o'tkaziladi. Malika Bari haqidagi qo'shiqning har xil nomlari bor: Cholladoda u «Ogupxuri (Umrboqiylik giyohi)», Seulda «Bari gongchju (Malika Bari)», Xamgyongdoda «Chilgongchju (Yettinchi malika)» deb ataladi va h.k. Bu ism «tashlamoq» so'zidan kelib chiqqan va «tashlandiq bola» degan ma'noni anglatadi. Hikoya zamirida bir odam hayotining bayoni yotadi. Bari haqidagi hikoyaning bosh mavzusi – «ota-onaga hurmat», hikoya syujetini esa, muxtasar qilib o'z ota-onasining hayotini saqlab qolish uchun sinovlarga dosh berish deya tavsiflash mumkin.

Barcha sinovlar jarayonida malika Bari halok bo'lgani yo'q, balki ulardan o'tib odamlarning umrboqiylik haqidagi orzularini ro'yobga chiqardi. Malika Bari o'z ota-onasini bedavo kasallikdan xalos etgani keyinchalik uni shamanizmdagi ruhlardan biriga aylantirdi.

«Malika Bari» rivoyati quyidagi voqelikni o'zida aks ettiradi. O'limning mavjudligini o'zida ifodalovchi ruh hisoblangan Bari buddaviylarning ibodatxonalarida e'zozlanuvchi ilohdir. Shu bilan bir vaqtda, o'z ota-onasiga hurmat ko'rsatgan qiz va yuksak martabali davlat arbobi siymosida, u umumxalq qahramoniga aylangan, barcha odamlarning o'limini boshqaruvchi iloh sifatida tan olingach esa, diniy e'tiqod ob'yektiga aylangan.

Shunday qilib, boshqa odamlar hayoti uchun o'zini qurbon qiluvchi va ayni vaqtda o'limdan keyim dunyoviy hayot bilan aloqani uzishga ko'maklashish jarayonini boshqaruvchi qahramonning ikkiyoqlama xarakteri – inson ikkiyoqlama ruhiy dunyosining in'ikosidir.





UCHINCHI DAVR (XIX asr oxirigacha)

1. *Esse va kundaliklar*

PAK CHIVON (1737–1805)

«XITOIY KUNDALIGI»DAN

YUYSYADA KECHQURUN AYTILGAN HIKOYALAR

Yuysyaga qaytib kelgach, men va yoʻldoshlarim karvonsaroyga joylashdik. Kechqurun biz hammamiz bir yerga yigʻildik va davra qurib oʻtirib, turli-tuman qiziqarli voqealarni navbatma-navbat hikoya qila boshladik.

Mana, birinchi hikoya.

Bir vaqtlar Pekin fuqarolari juda sodda va ishonuvchan odamlar boʻlishgan ekan: Tarjimalar palatasining koreyalik kichik mulozimiga ham uning bir ogʻiz gapiga uchib katta miqdorda pul qarz berishlari mumkin ekan. Keyinchalik baʼzi bir odamlar ularning bu ishonuvchanligidan oʻz manfaatlarida foydalana boshlabdilar va bunda vatandoshlarimizning ham aybi bor.

Oʻttiz yilcha muqaddam Pekinga shunday bir mulozim kelibdi. Uning yonida hech qanday yuki, hatto puli ham yoʻq ekan. Oradan bir necha kun oʻtgach, u karvonsaroyda koʻzda yosh bilan paydo boʻlibdi. Karvonsaroy egasi undan nima gapligini soʻrabdi. Mulozim unga shunday deb javob beribdi:

«Menga gʻazna kumushini chegaradan olib oʻtish topshirilgan edi. Bugun qarasam — uni oʻgʻirlab ketishibdi. Oʻzimning bor mol-mulkimni ham oʻmarishibdi. Endi men hech narsasi yoʻq bir gadoman. Bu yogʻiga yashashdan naf yoʻq, undan koʻra shu yerda va hozir oʻlganim yaxshi!»

Shu soʻzlarni aytib u pichogʻini qinidan sugʻuribdi va oʻzini oʻzi oʻldirmoqchi boʻlibdi. Karvonsaroy egasi kapalagi uchib unga tashlanibdi va qoʻlidan pichoqni tortib olibdi.

«Sizdan qancha pul oʻgʻirlashdi?»

«Uch ming lyan».

Karvonsaroy egasining unga rahimi kelibdi: «Joningizga qasd qilayotganingizda xotiningiz va bola-chaqangizni oʻylamadingizmi? Pul yoʻqolsa, uni topish mumkin, lekin oila boshligʻi yoʻqolsa, uning oʻmini hech kim toʻldirolmaydi. Men sizga pul berib turaman. Besh yilga yetadigan miqdorda. Bu vaqt ichida siz ularni koʻpaytirib, qarzni qaytarasiz».

Mulozim undan pulni olibdi va turfa xil mollar xarid qilib, oʻz yurtiga joʻnab ketibdi. Bu pullar haqida hech kim hech narsa bilmas ekan. Hamma mulozim xizmati evaziga haq olgan boʻlsa kerak, deb oʻylabdi.

Oradan besh yil oʻtibdi. Mulozim Tarjimalar palatasidagi xizmatni tashlabdi va savdo-sotiq bilan shugʻullanib, katta boylik toʻplabdi. Pekinga u boshqa qaytib bormabdi.

Kunlarning birida yangi chiqqan boyniing bir doʻsti oʻz ishlari bilan Xitoy poytaxtiga otlanibdi. Boyvachcha uni kuzatar ekan, shunday debdi: «Agar karvonsaroyda uning egasi sendan men haqimda soʻrasa, unga meni oʻzi ham, uning oilasi ham yuqumli kasallikdan oʻlib ketgan, deb aytgin».

Doʻsti uning bu gapini eshitib dovdirab qolibdi, hatto yuzining rangi ham oʻzgaribdi.

Boyvachcha gapini davom ettiribdi: «Agar iltimosimni bajar-sang, senga yuz lyan beraman».

Doʻsti Pekinga boribdi va xuddi oʻsha karvonsaroyga joylashibdi. Karvonsaroy egasi undan mulozim haqida soʻrabdi. Doʻsti oʻziga oʻrgatilgan gaplarni takrorlabdi. Javobni eshitib, karvonsaroy egasi yuzini qoʻllari bilan berkitib yigʻlab yuboribdi va: «E, Osmon! Yaxshi odamni sen nima uchun jazolading?», deb xitob qilibdi.

U xoʻrsinib, boyvachchaning doʻstiga yuz lyan beribdi. «Hammalari oʻlib ketibdi, ularni xotirlaydigan odam qolmabdi. Mana, sizga yuz lyan. Elligiga oʻz yurtiingizda chiqarilgan mollarni sotib olib menga joʻnating, qolgan elligini doʻstingizning xotirasiga qurbonlikka sarflang: narigi dunyoda uning ruhi shod boʻlsin!»

Do'sti pullarni olishga majbur bo'libdi: bir marta yolg'on gapirib, uni keyin ham davom ettirishga majbur bo'libdi.

Yurtiga qaytib kelsa, bu yerda uni aqlni lol qoldiradigan xabar kutib turgan ekan: sobiq mulozim, uning xotini va bolalari chechak kasalligini yuqtirishibdi va azob-uqubatlarda vafot etishibdi. Do'sti bu xabarni eshitib larzaga tushibdi. Karvonsaroy egasi bergan pullarning hammasiga u mol sotib olibdi va Pekinga jo'natibdi. O'zi umrining oxirigacha ham u yerga bormabdi: jonkuyar pekinlik bilan yangi uchrashuvga dosh bera olmasligini his qilibdi...

«Adashmasam, Tarjimalar palatasida Li degan bir zot chindan ham xizmat qilgan, — debdi tinglovchilardan biri. — Bu yerda u yaxshi xizmatchi sifatida tanilgan va surunkasiga qirq yil topshiriqlar bilan Pekinga qatnagan. Lekin u kumush bilan biron-bir firibgarlikka aralashmagan va birovdan qarzga pul ham olmagan. Hamma uni halol odam sifatida tanigan».

Biz ikkinchi hikoyani tinglay boshladik.

Min davrida, Van-li shiori yillarida Tarjimalar palatasida tagi Tanson uyezdidan bo'lgan bir yuksak martabali mulozim xizmat qilgan ekan. Bir kuni Pekinga kelgach, unda ko'ngilxushlik uyida tunni o'tkazish miyati paydo bo'libdi. Shuni aytish kerakki, bu uydagi narxlarni hammaning ham cho'ntagi ko'taravermas ekan. Qiz qancha chiroyli bo'lsa, uning narxi shuncha baland ekan. Mulozim ming tilla turadigan eng chiroyli qizni keltirishni buyuribdi. Uning oldiga husniga ko'z to'ymaydigan o'n olti yashar qiz kelibdi. U Xonning qarshisiga o'tiribdi-da, yig'lab yuboribdi. Yig'lab turib, u o'zi haqida quyidagilarni hikoya qilibdi:

«Menga erkaklarning birortasi ham men uchun ming tilla bermaydi va bokira bo'lib qolaman deb o'ylagan edim, shuning uchun ham o'zimga shu haqni tayinlagan edim. Avvaliga bu yerda ikki-uch kun bo'lib, bekani aldayman va qochib ketaman deb o'ylagandim. Keyin biron-bir olijanob zot paydo bo'lib, meni sevib qolishi va bu yerdan haqimni to'lab, meni olib chiqib ketishini orzu qila boshladim. Ammo besh kun o'tdi — hech kim meni olgani kelmadi, hech kim menga ming tilla taklif qilmadi. Bugun nihoyat taqdir menga kulib boqdi: siz keldingiz. Ammo siz boshqa yurtdan kelgansiz, sizga meni olib ketishga ruxsat

berishmaydi: sha'nimga dog' tushgan va uni biron-bir suv bilan yuvib bo'lmaydi».

Xonning qizga rahmi kelibdi va undan Ko'ngilxushlik uyiga qanday kelib qolganini so'rabdi. Qiz ko'z yoshini artib shunday debdi: «Otam Nankinda O'lpon palatasi boshlig'ining yordamchisi bo'lib xizmat qilar edi. Uni o'g'rilikda ayblashdi va turmaga tashlashdi. Shunda men otam uchun haq to'lash va umi o'limdan qutqarib qolish uchun o'zimni mana shu muassasaga sotdim».

Qizning iqrori Xonni larzaga solibdi.

«Umrimda bunaqasini birinchi marta eshitishim! Men seni albatta bu yerdan olib chiqib ketaman. Qancha pul kerak?»

«Ikki ming lyan».

Xon shu zahoti qizga u aytgan pulni sanab beribdi va xayrlasha boshlabdi. Qiz unga uzoq ta'zim qilibdi, uni o'zining ikkinchi otasi deb atabdi. Shu kuni Xon yurtiga jo'nab ketibdi. Tez orada u qiz haqida o'ylashni ham unutibdi.

Xon Xitoyga yana tashrif buyurganida, ko'chada odamlar uni: «Shahrimizga Xon Sunon kelyapti!», deb baqirib qarshi olishibdi. Pekinning shohko'chasida, uning o'ng tomonida Xon hashamatli pavilyonga ko'zi tushibdi. Uning eshigidan bir odam: «Janob Xon, Harbiy palata boshlig'i janob Shi sizni kutyapti», degan so'zlar bilan chiqib kelibdi va uni ichkariga taklif qilibdi. Pavilyon zinasida mulozim Shining o'zi uni qarshi olibdi va ta'zim bajo keltirib: «Xush kelibsiz. Qizingiz sizni ko'zi to'rt bo'lib kutyapti», debdi.

U Xonning qo'lidan ushlab, ichkariga, uyning ayollar qismiga boshlabdi. Bu yerda uni bashang kiyingan bir ayol — Harbiy palata boshlig'ining xotini ta'zim bilan qarshi olibdi. Xon o'zini yo'qotib qo'yibdi. U hech narsani tushunmas ekan. Mulozim Shi esa jilmayar emish.

«Siz tutingan qizingizni unutganga o'xshaysiz», debdi u.

Shundagina Xon qarshisida Ko'ngilxushlik uyidagi o'sha qiz turganini anglabdi. Uning yordamida ozodlikka chiqqach, qiz tez orada mulozim Shiga erga tegibdi. Mulozim Shi qizning yuksak fazilatlarini darhol yuksak baholabdi. Endi u obro'li odamning xotini bo'lsa-da, lekin avvalgidek o'zi ipak matolar to'qir va ularda «hadya» va «minnatdorlik» iyerogliflarini tikar ekan. Xayrla shayotib

berishmaydi: sha'nimga dog' tushgan va uni biron-bir suv bilan yuvib bo'lmaydi».

Xonning qizga rahmi kelibdi va undan Ko'ngilxushlik uyiga qanday kelib qolganini so'rabdi. Qiz ko'z yoshini artib shunday debdi: «Otam Nankinda O'lpon palatasi boshlig'ining yordamchisi bo'lib xizmat qilar edi. Uni o'g'rilikda ayblashdi va turmaga tashlashdi. Shunda men otam uchun haq to'lash va uni o'limdan qutqarib qolish uchun o'zimni mana shu muassasaga sotdim».

Qizning iqrori Xonni larzaga solibdi.

«Umrimde bunaqasini birinchi marta eshitishim! Men seni albatta bu yerdan olib chiqib ketaman. Qancha pul kerak?»

«Ikki ming lyan».

Xon shu zahoti qizga u aytgan pulni sanab beribdi va xayrlasha boshlabdi. Qiz unga uzoq ta'zim qilibdi, uni o'zining ikkinchi otasi deb atabdi. Shu kuni Xon yurtiga jo'nab ketibdi. Tez orada u qiz haqida o'ylashni ham unutibdi.

Xon Xitoyga yana tashrif buyurganida, ko'chada odamlar uni: «Shahrimizga Xon Sunon kelyapti!», deb baqirib qarshi olishibdi. Pekinning shohko'chasida, uning o'ng tomonida Xon hashamatli pavilyonga ko'zi tushibdi. Uning eshigidan bir odam: «Janob Xon, Harbiy palata boshlig'i janob Shi sizni kutyapti», degan so'zlar bilan chiqib kelibdi va uni ichkariga taklif qilibdi. Pavilyon zinasida mulozim Shining o'zi uni qarshi olibdi va ta'zim bajo keltirib: «Xush kelibsiz. Qizingiz sizni ko'zi to'rt bo'lib kutyapti», debdi.

U Xonning qo'lidani ushlab, ichkariga, uyning ayollar qismiga boshlabdi. Bu yerda uni bashang kiyingan bir ayol — Harbiy palata boshlig'ining xotini ta'zim bilan qarshi olibdi. Xon o'zini yo'qotib qo'yibdi. U hech narsani tushunmas ekan. Mulozim Shi esa jilmayar emish.

«Siz tutingan qizingizni unutmanga o'xshaysiz», debdi u.

Shundagina Xon qarshisida Ko'ngilxushlik uyidagi o'sha qiz turganini anglabdi. Uning yordamida ozodlikka chiqqach, qiz tez orada mulozim Shiga erga tegibdi. Mulozim Shi qizning yuksak fazilatlarini darhol yuksak baholabdi. Endi u obro'li odamning xotini bo'lsa-da, lekin avvalgidek o'zi ipak matolar to'qir va ularda «hadya» va «minnatdorlik» iyerogliflarini tikar ekan. Xayrla shayotib

u Xonga shunday kashtalar tikilgan ipak mato, shuningdek boshqa xil ipak matolar va son-sanoqsiz oltin hadya qilibdi.

Oradan bir necha yil o'tgach, Koreyada Imchjin urushi boshlanibdi. Mulozim Shi Xitoy qo'shinlarini Koreyaga jo'natish yo'lida astoydil jon kuydiribdi: u shu mamlakat fuqarolarini qattiq hurmat qilar ekan.

«PANGYON PAVILYONIDAGI NORASMIY TARJIMAYI HOLLAR» TO'PLAMIDAN

SAXOVATLI HOJATXONA TOZALOVCHI HAQIDA HIKOYA

Faylasuf Songyul qariya Omni uzoq yillardan beri tanir ekan. Om Ajdodlar minorasidan sharq tomonda yashar va qishloq hojatxonalarini axlatdan tozalab, uni dalalarga olib chiqib to'kish bilan shug'ullanar va shu yo'l bilan tirikchilik qilar ekan. Hamqishloqlari hojatxona tozalovchini «Om tog'a» deb chaqirisharkan, faylasuf esa uni «Saxovatli axlatchi janob» deb atarkan.

Kunlarning birida faylasufning oldiga shogirdlaridan biri kelibdi va unga shunday debdi: «Yaqinda men sizdan do'st kim deb so'ragan edim, siz: «Do'st — bu xotining, faqat u sen bilan yotmaydi; bu og'ang, faqat u sen bilan tug'ishgan emas», deb javob berdingiz. Demak, siz hamma bilan ham do'st tutinavermaslikni maslahat berasiz. Biroq men amalda nimani ko'ryapman? Dongdor oilalardan bo'lgan odamlar sizning ilmingizni yuksak baholab, siz bilan do'stlashishning yo'limi qidirishadi, siz bo'lsangiz ulardan burun jiyirasiz, ularga hatto nigoh ham tashlamaysiz, ular haqida yaxshi gap ham gapirmaysiz. Om tog'ani esa, olijanob zotni ko'rgandek qarshi olasiz, uning fazilatlarini ko'klarga ko'tarib maqtaysiz, u bilan do'st bo'lishga harakat qilasiz, holbuki, u oddiy bir hojatxona tozalovchi, qishloqdagi eng faqir odam. Hamma uni ko'rganda burnini jiyiradi. Sizning unga bo'lgan munosabatingiz men uchun isnoddan boshqa narsa emas. Sizning qo'lingizda o'qishni istamayman!»

Songyul yigitga qarab jilmayibdi va unga shunday deb javob beribdi: «O'tir va gapimga quloq sol. «Tabib o'zini o'zi davolamaydi, shaman o'ziga o'zi duo o'qimaydi», degan matalni eshitganmisan? Ba'zan inson o'zini barkamol zot deb hisoblaydi, hamma narsaga osmondan turib qaraydi — faqat odamlar unda e'tiborga loyiq hech narsani ko'rishmaydi, hech kim uni barkamol inson sifatida e'tirof etmaydi. Shunday odamlar ham borki, ular o'z kamchiliklarini aytishni so'rab yopishib olishadi. Bunaqa odamni qancha maqtama, u faqat qo'l siltaydi. Kamchiliklarini gapirsang, darhol qovoq-tumshug'i osiladi — malomat qilyapsan, deb hisoblaydi. Shuning uchun sen unga bu odamda mavjud bo'lmagan kamchiliklarni ayt — sen hatto oshirib yuborsang ham u senga qilmaydi, hatto ustingdan kulishi ham mumkin. Shundan keyin sen uni o'zi g'ururlanib gapiradigan fazilatlarini uchun maqtatib qo'y, shunda uning ko'ngli ko'tariladi, xuddi uzoq yillar izlaganini topgandek, birov uning ko'pdan beri qichiyotgan joyini qashlab qo'ygandek mamnun bo'ladi. Darvoqe, qichiyotgan joyni qashishni ham bilish kerak, buning qoidalarini bor: yelkani qashiyotganda qo'ltiqqa tegib ketma, ko'krakni qashiyotganda bo'yiga qo'l tekkiзма. Odamni uning fazilatlarini uchun maqtashni va kamchiliklari uchun uni koyimaslikni o'rgan — shunda u senga o'z quchog'ini ochadi va birgina sen uni tushunishingni aytadi!».

Shogird quloqlarini qo'llari bilan berkitibdi va: «Ustoz, siz savdogarlarning hunarlarini va ikkiyuzlamachi odamlarning qiliqlarini targ'ib qilyapsiz!», debdi.

Faylasuf bosh chayqabdi: «Hayot sen o'ylagandan ham murakkab. Aslini olganda, savdogarlarda do'stlik manfaatga, unvon va mansabdan boshqa narsaga qiziqmaydigan amalparastlarda esa — ikkiyuzlamachilikka asoslanadi. Ularning davrasida shunday odat bor: agar sen undan biror narsani uch marta so'rasang, sen do'st emas, dushmanga aylanasan; agarda o'zing unga biror narsani uch marta hadya qilgan bo'lsang, sen unga dushman emas, balki eng yaqin do'stsan! Biroq manfaatga asoslangan do'stlik va zamirida ikkiyuzlamachilik yotuvchi do'stlik ko'pga cho'zilmaydi. Odam bilan jiddiy do'stlashmoqchi bo'lsang, uning unvoni va amaliga qarama, do'stlik mustahkam bo'lishini istasang, manfaatga umid qilma.

Do'st tutinish uchun ruhi va fe'l-atvori yaqin, yaxshilik va burchga sodiq odamni tanla — bunday do'st o'rnini ming yildan keyin ham hech kim bosa olmaydi, bunday do'st ming li masofa narida turib ham doim yoningda bo'ladi.

Masalan, Om tog'ani olaylik. Men uni doim maqtaganim maqtagan. Holbuki, u hech qachon mening do'stim bo'lmagan. Uning nimasi yaxshi? Dasturxon ustida og'zini chapillatadi, uxlayotganda xurrak otadi, lapanglab yuradi, odamlar orasida to'nkadek ovoz chiqarmaydi yoki shunday xaxolab kuladiki, qulog'ingni berkitgin keladi. O'ziga loydan kulba qurgan, tomini poxol bilan yopgan, kirish va chiqish uchun tuynuk qoldirgan — engashib teshikka kiradi-da, itdek g'ujanak bo'lib yotadi. Erta saharda turib yelkasiga savatini osadi-da, qishloq bo'ylab kezib go'ng yig'adi, sentabrdan sovuqdan diydirdaydi va oktabrda muz bo'ylab sirpanadi. Hojatxonalardan axlatni oltindek avaylab sidirib oladi, otxonalarni, molxonalarni, tovuqxonalarni go'ngdan tozalaydi, itlarning, g'ozlarning, o'rdaklarning va chumchuqlarning axlatini tozalashdan ham hazar qilmaydi. Ishlayotganda uning o'zi don terayotgan ulkan qushni eslatadi. Hech kim uni keraksiz ish bilan shug'ullanadi, faqat o'zi uchun ishlaydi deb ayta olmaydi — go'ngsiz biron-bir dehqonning ishi unmaydi, yeri yaxshi hosil bermaydi! Uni san'at asarlari hayratga solmaydi, nafis musiqa elitmaydi. Hamma boylik va amalga intiladi, biroq ular hammaga ham nasib qilavermaydi — shu tufayli ham Om ularning ortidan quvmaydi. Uni maqtashsa, hech qachon burni ko'tarilmaydi, koyishsa, aslo xafa bo'lmaydi.

Bir yilda u olti yuz lyan daromad oladi, chunki eng olis dalalarga ham go'ng tashiydi — natijada Vansimda turp, Salkochchida sholg'om, Sokkyoda baqlajon, bodring, qovun va oshqovoq, Yonxvegunda qalampir, sarimsoq va piyoz, Chxonpxada petrushka, Litxeinda yertuxum o'sadi. Uning o'zi ertalab, ishga chiqishdan oldin bir tovoq, kechqurun, ishdan keyin yana bir tovoq guruch yeyish bilan kifoyalanadi. Uni go'sht bilan mehmon qilishsa, yeyishdan bosh tortadi va go'sht, sabzavot qorinni teng to'ydiradi, mazasi esa ahamiyatga ega emas, deb aytadi; unga chiroyli kiyim

taklif qilishsa, u keng yenglar va uzun etaklar go'ng tashishga xalaqit beradi, deb javob qaytaradi. Yangi yilning birinchi kunidagina u yangi qalpoq, yangi boshmoq va yangi to'n kiyishni o'ziga ravo ko'radi va erta tongda barcha qo'shnilarnikiga navbatma-navbat kirib, ularni bayram bilan tabriklaydi. So'ng u yana eski-tuski kiyimlarini kiyib, yelkasiga savatini osadi va hojatxonalarni tozalash uchun jo'naydi. Umuman olganda, shunday deyish mumkin: Om tog'a va unga o'xshagan odamlar iflos ishlarni bajaradilar, lekin ular bu bilan xayrli ish qiladilar!

Qadimgi kitoblarda shunday deyilgan: «Boylar va oqsuyaklar boylar va oqsuyaklar kabi, kambag'allar va tagi pastlar — kambag'allar va tagi pastlar kabi yashaydi». Buning ma'nosi shu: peshonangga qanday yashash yozilgan bo'lsa, shunday yasha. «Shiszin»da men quyidagi so'zlarni o'qidim: «Odamlar erta-yu kech mehnat qilishadi, har kimning o'z qismati bor». Bu inson taqdiri oldindan belgilab qo'yiladi va u shunga qanoat qilishi kerak, degani. Aks holda u bugun krevetkalarni tanovul qilsa, ertaga tuxum yegisi kelib qoladi, bugun bo'zdan tikilgan kiyimni kiysa, ertaga nafis matolardan tikilgan libos kiyganlarga hasadi keladi. Dunyoda hamma g'alayonlar shundan kelib chiqadi, oddiy xalq isyon ko'taradi, dalalar bo'shab qoladi va xarob holga keladi. Esla: U Guan va Syan Szi ularda Sin mamlakatining boyliklarini egallash niyati tug'ilgunga qadar tinchgina yer haydash va chopiq qilish bilan shug'ullangan edi. «Iszin»da: «Kim boylik to'plasa, u o'g'rilikni rag'batlantiradi», deb bejiz aytilmagan. Demak, mulozimning bashang libosida ham iflos dog'larni topish mumkin, zero boylik, agar u halol mehnat bilan topilgan bo'lmasa, iflosdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, boy odam bu dunyoni tark etganda, uning og'ziga oq dur donasini poklanish timsoli sifatida soladilar. Om tog'a go'ng yig'adi va uni dehqonlarga sotadi — shu bilan u tirikchilik qiladi. U iflos hunar bilan shug'ullanadi, axlatda yashaydi va undan sassiq hid keladi, deb aytish mumkin. Ammo uning fazilatlarini inkor etish mumkin emas. Xuddi shuningdek, mulozimni boyligi uchun koyish o'rinli bo'lmaydi, agar u o'z boyliklarini xayriya ishiga sarflasa, albatta. Demak, toza joyda ham ifloslik, iflos narsada ham toza unsur topiladi.

Odatda, odamning boshiga og'ir kun tushsa, u yaxshi yashayotgan odamlarga hasad bilan qaraydi. Biroq Om tog'a hamma qiyinchiliklarga chidaydi, u hatto birovga hasad qilish yoki biror narsani o'g'irlashni xayoliga ham keltirmaydi. Nafsilamrini aytganda, u haqiqiy «barkamol zot»dir!

Kambag'al olim boyib ketsa, o'z kambag'alligini eslashga uyaladi, boyib ketsa, yaxshi yeb-ichish va yashashdan uyalmaydi. Om tog'a bunday odam emas, u har qanday sharoitda ham o'zligiga xiyonat qilmaydi. Men uni o'z do'stim deb atashni istar edim, lekin bu haqda hatto o'ylashga ham haddim sig'maydi. Om tog'aga hurmatim katta bo'lgani uchun men hech qachon uning ismini aytib chaqirmayman, u men uchun — «Saxovatli axlatchi janob».

«JEXEY KUNDALIGI» DAN

YO'LBARSNING JAVOBİ

Yo'lbars — ajoyib hayvon! U iste'dodli va aqlli, o'qimishli va olijanob, u dono, u ota-onasini hurmat qiladi, u chopqir va topqir, u kuchli va mard. Osmon ostida unga teng keladigan raqib topilmasa kerak. To'g'ri, *Feyvey, chjunyu, bo, szibay* kabi maxluqlar va Szyuymudagi tog'da joylashgan g'orda yashaydigan besh rangli sher yo'lbarsni o'ldiradi va yeydi deb aytishadi. Xuan'yao yo'lbars va qoplonning yuragini yeydi, suyaksiz *xua* esa, yo'lbars va qoplon uni yutib yuborishgani zahoti, ularning jigarini kemiradi. *Syuer* yo'lbarsni bo'laklarga ajratadi va uni yeydi, yo'lbars *men'yunga* ro'para kelib qolganda esa, u qo'rquvdan ko'zlarini yumib oladi va hatto unga qarashga ham jur'at qilmaydi. Odam *men'yundan* qo'rqmaydi, yo'lbarsdan esa qo'rqadi. Yo'lbars naqadar qo'rqinchli hayvon!

Yo'lbars itni yesa, mast bo'lib qoladi, odamni yesa, ajoyib qobiliyatlar kasb etadi. Yo'lbars yegan birinchi odamning ruhi «*syuyge*» deb ataladi va doim yo'lbarsning qo'ltiqlari ostida turadi. *Syuyge* yo'lbarsni odamning uyidagi oshxonaga boshlab kiradi va qozonning qulog'ini yalaydi. Uy egasi o'sha zahoti qorni ochganini his qila boshlaydi va xotiniga ovqat tayyorlashni buyuradi.

Yo'lbarsga esa faqat shu kerak! Yo'lbars yegan ikkinchi odamning ruhi «*iu*» deb ataladi. U yo'lbarsning og'ziga o'rnashib oladi. *Iu* baland joyga chiqib, oldinda biron-bir tuzoq yoki qopqon bor-yo'qligini kuzatadi. Ularga ko'zi tushsa, darhol oldinga o'tadi va ularni yo'lbarsning yo'lidan olib tashlaydi. Yo'lbars yegan uchinchi odamning ruhini «*yuyxun*» deb atashadi. Uning joyi — yo'lbarsning pastki jag'i ostida va u odatda yo'lbarsga o'z oshnag'aynilarining ismlarini ma'lum qiladi...

— Kun kech bo'ldi, — debdi bir kuni yo'lbars shu ruhlarga. — Ovqatlansak bo'larmidi?!

— Men bir hayvonni mo'ljallab qo'yanman, — deb javob beribdi *syuyge*. — Uning shoxlari ham, yungi ham yo'q. Kallasi qora, qadam bosishi g'alati: qorda siyrak iz qoldiradi. Dumi ham orqasida emas, balki peshonasida!

— Sharqiy darvoza oldida yeyishga bir narsa bor, — debdi *syuyge* ortidan *iu*. — Bu taom «tabib» deb ataladi. Tabib doim turli giyohlarni sinash uchun yeydi, shu bois uning go'shti xushbo'y. G'arbiy darvoza oldida ham quling o'rgilsin taom bor. Uni «shaman xotin» deb atashadi. Shaman xotin turli ruhlarning ko'nglini ovlash uchun har kuni tahorat qiladi va go'shtli ovqatdan o'zini tiyadi. Balki shu taomlardan birini xush ko'rarsiz?

— Tabibni yeb baraka topmaysan, — deb bo'kiribdi yo'lbars mo'ylovini tarvaqaylatib. — O'zining shubhali dorilari bilan u har yili minglab kishilar hayotiga zomin bo'ladi. Shaman xotin esa — boshog'riqning o'zi. Ruhlar yordamida u minglab kishilarning boshini aylantiradi va ularga juda katta ziyon yetkazadi. Odamlar nafrati bu ablahlarning qon-qoniga singib ketgan va dahshatli zahar — «*szin-san*»ga aylangan. Bunday zaharli ablahlarni yeb bo'larkanmi?

— Yaqin daraxtzorda ajoyib bir hayvon yashaydi, — deb suhbatga qo'shilibdi shunda *yuyxuan*. — Uning jigari toza, o't pufagi ham bezovta qilmaydi. U o'z podshosiga va e'tiqodlariga sodiq. Miyasida faqat nazokat, oyoqlarida esa faqat marosimlar. Uning og'zidan faqat nasihatlar yog'iladi va yuragida noma'lum qonunlar yo'q. Bu hayvonning ismi — «yuksak ma'naviyatli va o'qimishli konfutsiychi». Uning qomati tik, tanasi semiz va unda

barcha ta'mlar — shirin, achchiq, sho'r va nordon bor. Bundar ajoyib taom bo'lmasa kerak!

Yo'lbars bu gapni eshitgani zahoti uning qoshlar chimirilbdi va og'zining suvi kelibdi. U boshini ko'taribdi va istehzo bilan:

— Bu o'lja haqida eshitganman. Ammo, uning ta'mi yaxshilig rostmikan? — debdi.

Shunda ruhlar biri olib, biri qo'yib hayvonni maqtay boshlashibdi: In va Yan qo'shilib Dao hosil qilishini faqat chir konfutsiychi biladi; birinchi elementlardan beshtasi bir-biri qanday hosil qilishini va tabiatning olti asosi bir-biri bilar qanday o'zaro aloqa qilishini faqat u anglab yetgan. Dunyoda bundan anvoyi taom bormikan?! Ammo birdan yo'lbarsning qovog'i osilibdi va u norozi ovozda shunday debdi:

— In va Yan kuchlari o'z tabiatiga ko'ra yagona: ular dam ko'payadi, dam kamayadi. Konfutsiychi esa ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Shuning uchun ham bu kimsaning go'shti shirinligiga shubham bor. O'z-o'zicha mavjud bo'lgan besh birinchi element bir-birini hosil qiladi, bir-biri bilar ona-bolalik munosabatlariga kirishadi va yo sho'r, yo nordon ta'mli bo'ladi. Bu fikr konfutsiychi go'shtining mazasini buzadi. Tabiatning olti asosi tabiiy aylanma harakat qiladi va hech kim ularni men boshqaryapman deb ayta olmaydi. Konfutsiychi esa, vaqti kelganda bu harakatni men boshqaraman, deb maqtanadi. Shuning uchun ham uning go'shti qattiq, sertomir bo'lsa kerak, boz ustiga, u yaxshi hazm bo'lishiga ham shubham bor!

...Chjen podsholigining poytaxtida dunyoviy shuhratni mensimaydigan bir olim odam yashagan ekan. Uni janob Bey-go deb atasharkan. Qirq yoshga to'lguncha u birovlarining salkam o'n ming *szyuan* asarlarini o'z qo'li bilan tuzatgan va o'zi ham qariyb o'n besh ming *szyuan* asar yozgan, ularda eski kitoblarni sharhlagan ekan. Osmon o'g'li janob Bey-goning o'z burchiga sodiqligidan hayratda ekan, tuman hokimlari uning ismini hurmat bilan tilga olisharkan. Poytaxtning sharqiy qismida esa sohibjamol yosh beva ayol yashar ekan. Uning ismi Dun-

li ekan. Osmon o'g'li ayolning bokiraligidan hayratlanarkan, tuman hokimlari uni fazilatlari uchun hurmat qilisharkan. Shuning uchun ham beva Dun-liga u yashaydigan bir necha *lidan* iborat hudud hadya etilibdi. Dun-li o'z marhum eriga sodiq ekan, biroq uning har xil nasabli besh o'g'li bor ekan.

Kunlarning birida besh o'g'lon yig'ilib, gurung qilishibdi:

— Daryoning narigi betidagi qishloqda xo'rozlar qanot qoqyapti. Tog' ostidagi qishloqda tonggi yulduzlar miltillayapti. Uyimizning ayollar yashaydigan qismida esa ovozlari eshitilyapti. Ulardan biri janob Bey-goning ovozigina o'xshaydi! — Besh aka-uka eshik teshigidan navbatma-navbat mo'ralashibdi. (Chindan ham u yerda Bey-goning o'zi bor ekan.)

— Men azaldan janobni fazilatlari uchun hurmat qilaman, — debdi Dun-li Bey-goga. — Ushbu tunda uning she'rlarini eshitishni istayman. Iltimos, o'qib bering!

*«Biz sen bilan — misli nar va moda o'rdak,
Devorda o'tirgan baxtiyor juftlik;
Qop-qorong'i tun haqida
Zulmatda miltillayotgan chirildoqlar darak beryapti.*

*Bu yerda qarshimizda
O'sha xumcha va qadah turibdi...
Men ularning kimligini va
Va ularning siyratini bilmoqchiman».*

— Odob-axloq qoidalariga ko'ra, begona erkak beva ayolning ostonasidan hatlab ham o'tmasligi kerak, — deb shivirlashibdi aka-ukalar. — Janob Bey-go esa juda hurmatli odam.

— Eshitishimcha, shahar darvozasi xarobalarida tulkimning ini bor, — debdi aka-ukalardan biri. Aytishlaricha, agar tulki ming yil yashasa, sehrli xossalar kasb etar va odamga aylana olar ekan. Balki o'sha tulki janob Bey-goning shakl-shamoyiliga kirib keltandir?

barcha ta'mlar — shirin, achchiq, sho'r va nordon bor. Bundan ajoyib taom bo'lmasa kerak!

Yo'lbars bu gapni eshitgani zahoti uning qoshlari chimirilibdi va og'zining suvi kelibdi. U boshini ko'taribdi va istehzo bilan:

— Bu o'lja haqida eshitganman. Ammo, uning ta'mi yaxshiligi rostmikan? — debdi.

Shunda ruhlar biri olib, biri qo'yib hayvonni maqtay boshlashibdi: In va Yan qo'shilib Dao hosil qilishini faqat chin konfutsiychi biladi; birinchi elementlardan beshtasi bir-birini qanday hosil qilishini va tabiatning olti asosi bir-biri bilan qanday o'zaro aloqa qilishini faqat u anglab yetgan. Dunyoda bundan anvoyi taom bormikan?! Ammo birdan yo'lbarsning qovog'i osilibdi va u norozi ovozda shunday debdi:

— In va Yan kuchlari o'z tabiatiga ko'ra yagona: ular dam ko'payadi, dam kamayadi. Konfutsiychi esa ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Shuning uchun ham bu kimsaning go'shti shirinligiga shubham bor. O'z-o'zicha mavjud bo'lgan besh birinchi element bir-birini hosil qiladi, bir-biri bilan ona-bolalik munosabatlariga kirishadi va yo sho'r, yo nordon ta'mli bo'ladi. Bu fikr konfutsiychi go'shtining mazasini buzadi. Tabiatning olti asosi tabiiy aylanma harakat qiladi va hech kim ularni men boshqaryapman deb ayta olmaydi. Konfutsiychi esa, vaqti kelganda bu harakatni men boshqaraman, deb maqtanadi. Shuning uchun ham uning go'shti qattiq, sertomir bo'lsa kerak, boz ustiga, u yaxshi hazm bo'lishiga ham shubham bor!

...Chjen podsholigining poytaxtida dunyoviy shuhratni men-simaydigan bir olim odam yashagan ekan. Uni janob Bey-go deb atasharkan. **Qirq** yoshga to'lguncha u birovlarining salkam o'n ming *szyuan* asarlarini o'z qo'li bilan tuzatgan va o'zi ham qariyb o'n besh ming *szyuan* asar yozgan, ularda eski kitoblarni sharhlagan ekan. Osmon o'g'li janob Bey-goning o'z burchiga sodiqligidan hayratda ekan, tuman hokimlari uning ismini hurmat bilan tilga olisharkan. Poytaxtning sharqiy qismida esa sohibjamol yosh beva ayol yashar ekan. Uning ismi Dun-

li ekan. Osmon o'g'li ayolning bokiraligidan hayratlanarkan, tuman hokimlari uni fazilatlari uchun hurmat qilisharkan. Shuning uchun ham beva Dun-liga u yashaydigan bir necha *lidan* iborat hudud hadya etilibdi. Dun-li o'z marhum eriga sodiq ekan, biroq uning har xil nasabli besh o'g'li bor ekan.

Kunlarning birida besh o'g'lon yig'ilib, gurung qilishibdi:

— Daryoning narigi betidagi qishloqda xo'rozlar qanot qoqyapti. Tog' ostidagi qishloqda tonggi yulduzlar miltillayapti. Uyimizning ayollar yashaydigan qismida esa ovozlari eshitilyapti. Ulardan biri janob Bey-goning ovozigina o'xshaydi! — Besh aka-uka eshik teshigidan navbatma-navbat mo'ralashibdi. (Chindan ham u yerda Bey-goning o'zi bor ekan.)

— Men azaldan janobni fazilatlari uchun hurmat qilaman, — debdi Dun-li Bey-goga. — Ushbu tunda uning she'rlarini eshitishni istayman. Iltimos, o'qib bering!

*«Biz sen bilan — misli nar va moda o'rdak,
Devorda o'tirgan baxtiyor juftlik;
Qop-qorong'i tun haqida
Zulmatda miltillayotgan chirildoqlar darak beryapti.*

*Bu yerda qarshimizda
O'sha xumcha va qadah turibdi...
Men ularning kimligini va
Va ularning siyratini bilmoqchiman».*

— Odob-axloq qoidalariga ko'ra, begona erkak beva ayolning ostonasidan hatlab ham o'tmasligi kerak, — deb shivirlashibdi aka-ukalar. — Janob Bey-go esa juda hurmatli odam.

— Eshitishimcha, shahar darvozasi xarobalarida tulkinginini bor, — debdi aka-ukalardan biri. Aytishlaricha, agar tulki ming yil yashasa, sehirli xossalar kasb etar va odamga aylana olar ekan. Balki o'sha tulki janob Bey-goning shakl-shamoyiliga kirib kelgandir?

— Hikoya qilishlaricha, tulkinining qalpog'ini topsang, boy bo'lib ketarkansan, — deya bir-biri bilan shivirlashishda davom etishibdi aka-ukalar. — Tulkinining oyoq kiyimini qo'lga kiritsang, kuppa-kunduz kuni yursang ham hech kimga ko'rinmas ekansan. Tulkinining dumini qo'lga kiritsang, odamlarni osongina sehrlay olarkansan. Kelinglar, tulkini tutamiz va bu sehrli buyumlarni o'zaro bo'lishib olamiz. Qoyilmaqom ish bo'ladi!

Shu zahoti besh o'g'il qo'qqisdan Dun-lining xobgohiga yopirilib kirishibdi. Janob Bey-go qo'rqqanidan yuragi yorilib o'layoziydi. U qochmoqchi bo'libdi, biroq, odamlar o'zini tanib qolishlaridan cho'chib, oyoqlari bilan yer tepibdi va gir aylanib o'ynab, iblisona xaxolay boshlabdi. Bir amallab darvozadan tashqariga chiqib olgach, u oyoqlarini qo'lga olib qocha boshlabdi, biroq tuyqusdan dalada qazilgan o'ra ichiga tushib ketibdi. Suyuq go'ng to'ldirilgan bu o'radan amal-taqal qilib chiqqan paytda uning yo'lini yo'lbars to'sibdi! Yo'lbarsning afti burishibdi va qayt qilibdi. U burnini old oyoqlari hilan berkitib, aftini chetga buribdi va iringan ovoza:

— Hoy, olim, buncha sassiqsan! — debdi.

Qo'rqquvdan janob Bey-goning boshi yelkalari ichiga kirib ketibdi. U tiz cho'kkan holatda yo'barsga uch marta ta'zim qilibdi va shundan keyingina boshini ko'tarib bidirlay ketibdi:

— Janob yo'lbars! Sizning marhamatingiz shu darajada kengki, uni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Buyuk insonlar sizning rang-barang iste'dodlaringizga taqlid qilishadi, imperatorlar sizdan qadam tashlashni o'rganishadi, bolalar sizdan ota-onani hurmat qilishni o'rganishadi, sarkardalar esa urushda siz kabi qo'rqinchli bo'lishni orzu qilishadi. Sizning ismingiz muqaddas ajdar ismi bilan teng: biringiz shamolni, biringiz esa — bulutlarni boshqarasiz. Men, bir kichik odam, sizdan iltimos qilishga jur'at etaman: menga siz, a'lo hazratga xizmat qilishga ruxsat bering!

— Menga yaqinlasha ko'rma! — deb bo'kiribdi yo'lbars. — Olimlarning hammasi ablah odamlar ekanini ilgari eshitgan edim. Bu gap rostga o'xshaydi. Odatda sen mening boshimga dunyodagi eng yomon la'natlarni yog'dirasan. Hozir esa, ahvoling voy bo'lib turgan bir paytda, qo'rqquvdan tilyog'lamalik qilyapsan. Ammo

sening so'zlaringga kim liam ishonar edi? Dunyoda faqat bitta haqiqat bor. Yo'lbarsning fe'l-atvori yomon bo'lsa, insonning fe'l-atvori ham yomon. Insonning fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, yo'lbarsning fe'l-atvori insonnikidan ham yaxshiroq. Sen nuqul gapiradigan narsalar besh negiz va uch axloqiy asos chegarasidan tashqariga chiqmaydi. Garchi sen odamlarni ularga rioya qilishga chorlasang-da, gavjum shaharda bu negizlarni buzgan nobakorlar ko'p — xunuk tovonlari, yuzidagi tamg'alari buni isbotlaydi. Siyoh va qiynoq qurollari kundan kunga ko'proq ishlatiladi. Odamlarning bu vahshiyona odati bekor qilinadigan kun hech qachon kelmaydigan ko'rinadi.

Yo'lbarslarda bunday qatllar hech qachon bo'lmagan. Axir yo'lbarslar odamlardan rahmdilroq emasmi? Yo'lbarslar o't, meva va barg yemaydi, hasharot va baliq tanovul qilmaydi, ichkilik ichmaydi, bo'g'oz hayvonlarga tegmaydi. Tog'larda ular bug'u va arxar, vodiya tushganda esa — sigir va ot ovlaydi. Qornini to'yg'izish uchun yo'lbarslar birovning moliga ko'z olaytirmaydi va sudma-sud yurib da'volashmaydi. Axir yo'lbarslar odamlardan odobliroq emasmi? Yo'lbars bug'u va arxar ovlayotganda, siz, ablahlar, tovush ham chiqarmaysiz. Ammo biron ot yoki sigirga tekkanimiz zahoti bizni darhol qaroqchi deb e'lon qilasiz. Nima uchun? Shuning uchunki, bug'u va arxardan siz foyda ko'rmay-siz, sigir va ot esa sizga har qadamda foyda keltiradi. Ular erta-yu kech sizlarning xizmasingizni qilishadi. O'z egalariga ular juda qattiq bog'lanib qolishgan. Sizlar esa buni hatto payqamaysiz. Ularni rahmsizlik bilan kushxonaga haydaysiz, so'yasiz va shunday bo'laklaysizki, ulardan shox ham, yol ham qolmaydi!

Ammo sizga bu ham oz. Siz yo'lbarslarning birdan-bir yemishi bo'lgan bug'ular va arxarlarga ham ochko'zlarcha chang solasiz. Biz tog'larda qorin to'ydira olmasdan ovqat qidirib vohalarga tushishga majbur bo'lamiz. Agar biz Osmondan odilona hukm chiqarishni so'rasak, u yo'lbarslarga odamlarni yeyishni amr etgan bo'lmasmidi? Birovning mollni olgan — o'g'ri, birovning hayotiga zomin bo'lgan esa — qonxo'r qaroqchi. Siz kecha-yu kunduz qo'llaringizni shop qilib, ko'zlaringizni olaytirib u yoqdan-bu yoqqa yurasiz. Ko'zingizga nima tushsa, o'zingizniki qilib

olasiz va uyingizga tashiysiz. O'taketgan razil odamlargina pulni «akaginam Kunfan» deb atashi mumkin! Biringiz esa, sarkarda lavozimini egallash uchun hatto o'z xotinini o'ldirgan! Bunday ablahlar bilan besh negiz va uch asos haqida gaplashishdan naf yo'q!

Ammo sizlarga bu ham kam. Ninachilarning tumshug'i tagidan ovqatini tortib olasiz, ipak qurtlarining kiyimiga ko'z olaytirasiz, asalarilarni inidan quvib, ularning asalini o'g'irlaysiz. Qavmingizning eng jirkanch vakillari esa chumoli tuxumlarini o'g'irlashadi va o'z ota-bobolarini yod etib, ularni tanovul qilishadi. Dunyoda sizlardan rahmsiz va shafqatsiz jonzot bormikan? Siz dunyoning oqilona qonunlari bilan hisoblashmasdan, insonni ko'klarga ko'tardingiz va ikki gapning birida Osmonga havola qilasiz. Osmon uchun esa, gapning po'skallasini aytganda, yo'lbars ham, inson ham bir. Osmon va yerdagi tirik jonzotlarning barchasi — yo'lbarslar ham, ninachilar ham, ipak qurtlari ham, asalarilar ham, chumolilar ham, odamlar ham ahil yashashlari va bir-birlariga hujum qilmasliklari kerak. Yaxshilik va yomonlikni ajratadigan bo'lsak, kuppa-kunduz kuni asalarilar va chumolilar inini buzuvchi nobakor aslida haqiqiy qaroqchi emasmi? Ninachi va ipak qurtini vijdonsizlarcha talayotgan ablahchi, u adolat tuyg'usidan mahrum bosqimchi emasmi?!

Yo'lbars qoplonni o'ldirmaydi, chunki o'z qavmdoshlariga tegish mumkin emas. Bug'ular va arxarlar, sigirlar va otlarni, hatto odamlarni ham yo'lbarslar odamlarning o'zlarichalik ko'p o'ldirishmaydi. O'tgan yili Shansi viloyatida bo'lgan kuchli qurg'oqchilik paytida odamlar o'zlarining o'n minglab qavmdoshlarini o'ldirishdi va yeyishdi. Bir necha yil oldin Shandun viloyatida yuz bergan suv toshqini paytida ham bir necha o'n ming odam yeyilgan edi. Ammo, odamlar bir-birini o'ldirishlari haqida gap ketganda, tarixda «Bahorlar va Kuzlar» davridagi xunrezlikka tenglashadigan biror voqea bormi? O'shanda odamlar «haqiqat uchun» o'n yettita, «dushmanidan o'ch olish uchun» esa — o'ttizta urush olib borgan edilar. Qon bir necha ming li uzunlikda daryo bo'lib oqqan, yuz minglab murdalardan devorlar qurilgan edi! Yo'lbarslar uchun suv toshqini ham,

qurg'oqchilik ham mavjud emas, shu sababli ular Osmonga sig'inishmaydi. Ular dushmanni ham, do'stni ham eslamaydi, dunyoda ular yomon ko'radigan jonzotning o'zi yo'q. Ular Osmon qanday belgilagan bo'lsa, shunday, o'z tabiatiga mos hayot kechiradi. Ular o'z taqdiridan rozi, ularda hatto shaman xotinlar yoki tabiblar qurboni bo'lish uchun ham imkoniyat yo'q, ular odamlar dunyosida hukm suruvchi ochko'zlik kasalligini yuqtirishlari mumkin emas.

XONG MANJONG

KITOBDA PUL BO'LSA GAR...

Qadimda Konfutsiy ta'limotini biluvchi bir «dono-bilimdon» inson yashagan ekan. Matnning ma'nosini bilmasa-da o'zining qaysarligi tufayli boshqalarga ta'lim berar ekan. Dars jarayonida Konfutsiy ta'limotidagi matn parchalaridan o'qir («Va agarda, odob-axloq va haqiqat yo'lidan chetlashsam, men yo'limni yog'och solda dengizga yo'naltiraman, mening ortimdan ergashgan hamrohim yolg'iz Djung Yu bo'lur») va ularni o'zicha talqin qilar ekan:

«Kunlarning birida zodagon insonning o'g'li quruqlikda ketayotib, o'z yo'lini yog'och solda dengizga yo'naltirishga qaror qilibdi».

Shunda shogird savol beribdi:

«Yu so'zining ma'nosi nedur?»

«Bu yo'lovchiga bo'sh vaqt berilganligining ma'nosidur».

«Unga bo'sh vaqt nega berilgan?»

«Suvda suzish quruqlikda yurishdan ko'ra qiyinroq va ko'proq vaqt egallaydi, shuning uchun unga yuvinib olish va kirlarni yuvish uchun vaqt berilgan».

Bilimdon o'zicha «odob-axloq va haqiqat» iyeroglifini «kun» iyeroglifi sifatida o'qibdi. Shu bilan birga bilimdon Djung Yu ismini bo'sh vaqtni bildiruvchi iyeroglif bilan adashtiribdi.

Matn parchasini o'qir ekan: «Djung Dalning o'zi halok bo'lgan Dje Gallyandan mag'lubiyatga uchrafti» va shu so'zlarni quyidagicha talqin qilibdi:

«Halok bo'lgan Dje Gal qochib ketibdi va shundan so'ng Djung Dal dunyoga kelibdi».

Shunda shogird yana savol beribdi:

«Halok bo'lgan odam qochib ketib o'g'il tug'ibdimi?»

«Ha shunday, shuning uchun ham u Dje Gallyang-da!»

I Bekning she'rini o'qib («Kulgili! Araqxo'r birgalikda may ichmaymizmi?»), uni quyidagicha talqin qilibdi:

«Kulib, araqxo'rni o'ldirdi».

Shogird yana so'radi:

«Kulib, o'ldirdi» — buning ma'nosi nedur?»

«Buning ma'nosi shuki, g'azabda kulgini ushlab turish qiyindur».

«Nega u ichmaydi?»

«Chunki qotillik — bu kamyob holdur».

Kunlarning birida bilimdon matnni o'qib («Yolg'iz yo'lovchiga ortga yo'l yo'qdur»), uni quyidagicha talqin qilibdi:

«Kunlarning birida bir yo'lovchi bir odamni uchratib, unga bir so'z aytmay qaytib ketibdi».

Shogird yana so'radi:

«Nega hech narsa deya olmadi?»

«Chunki u shoshilayotgan edi. Chunki bu vaqtda suvning qaytishi kutilayotgan va shu sababli katta suv toshqini bo'lishi mumkin edi».

Va yana quyidagi jumlaning talqini o'qib: «Tog'larda ustoz O Ryu yashyar edi», uni quyidagicha talqin qilibdi:

«Avvaliga beshta oqtol paydo bo'ldi va ularning ildizi tog'da joylashgan edi».

Va uning barcha safsatalari shunga o'xshagan edi. Va shunga qaramay u dars berishda davom etar va o'z darslariga haq olar edi. Shu bilan birga o'z darslarini sifatiga ahamiyat bermas edi.

Kinlarning birida bilimdon tush ko'ribdi. Tushida uni do'zax elchisi tutib, uni do'zax hukmdori Yamaning qarshisiga olib ketibdi. Hukmdor g'azabda debdi:

«Sening gunohingdan og'irroq gunoh yo'qdir, qadimiy ta'limotlarning ma'nosini noto'g'ri aytib, sen o'z kissangni va

oshqozoningni to'ldirgansan. Noto'g'ri ta'lim bergan gunohkorlar o'limidan so'ng do'zaxning Isol maxluqlariga aylangaylar».

Shunda bilimdon hukmdorga iltijo qilibdi:

«Men do'zax maxluqiga aylanaman, lekin urg'ochi maxluqga aylanishga ijizat ber».

Uncha ajablanmagan do'zax hukmdori so'radi:

«Urg'ochi ham maxluq-ku? Nega sen aynan urg'ochi bo'lmoqchisan?»

Ta'limotda aytilishicha: «Boylikka ega bo'lib, o'zingga kambag'allikni izlama. «Mogu» bu «urg'ochi» demakdir. Bu esa agar men urg'ochi bo'lsam, shunda menga boylik ham bo'lar.

«Mogu» kambag'allikni anglatuvchi iyeroglifini «urg'ochi» ma'nosi bilan adashtirib yubording. Sening barcha xatolaring shudir, seni qanday jazolasam ekan?»

Va shunday qilib, do'zax hukmdori kula-kula uni barcha gunohiarini kechiribdi. Bilimdon bir kerishib olib uyg'onibdi va barchasi tush ekanligini anglabdi.

Keyingi kuni esa o'layotib, u o'z o'g'lini yoniga chaqirib debdi:

«Men o'lganimdan so'ng dafn etish marosimlarini o'tkazma».

Shunda farzand sababini so'radi va bilimdon javob beribdi:

Chinsang gokmusin ta'limotida ota-ona vafoti cheksiz qayg'udir. «Gok»ning ma'nosi «kerak emas» deganidir. Agar shunday bo'lsa, qayg'urmoqqa na hojat. Otang o'lsa ham unga qayg'urmoq barcha odob-axloq qoidalariga ziddur. Dafn etish marosimlarini tashkillashtirma».

Buni eshitgan odamlar qah-qah otib kulishibdi.

O'sha vaqtdan boshlab xalq og'ziga tushibdi. Chalasavodli inson o'zining o'jarligi bilan dars o'tgani tufayli boshqa odamlarga kulgi bo'libdi. Matnlarning ma'nosini noto'g'ri anglab, shu qatorda xatosini bilib turib, o'z xohishi bilan do'zax hukmdori Yamaning do'zaxida urg'ochi bo'lish niyatini bildirib, yana bir marotaba Konfutsiy ta'limotini noto'g'ri tushunishini namoyon qilib, do'zax hukmdorini kuldiribdi. Hattoki o'limning qarshisida ham tushiga ahamiyat bermay o'z o'g'liga valdirab dafn etish marosimlarini o'tkazmaslikni buyuribdi. Bunday insonning qismati — butun dunyoga kulgi bo'lishdur. Meng Djaning

oshqozoningni to'ldirgansan. Noto'g'ri ta'lim bergan gunohkorlar o'limidan so'ng do'zaxning Isol maxluqlariga aylangaylar».

Shunda bilimdon hukmdorga iltijo qilibdi:

«Men do'zax maxluqiga aylanaman, lekin urg'ochi maxluqga aylanishga ijozat ber».

Uncha ajablanmagan do'zax hukmdori so'radi:

«Urg'ochi ham maxluq-ku? Nega sen aynan urg'ochi bo'l-moqchisan?»

Ta'limotda aytilishicha: «Boylikka ega bo'lib, o'zingga kambag'ailikni izlama. «Mogu» bu «urg'ochi» demakdir. Bu esa agar men urg'ochi bo'lsam, shunda menga boylik ham bo'lar.

«Mogu» kambag'allikni anglatuvchi iyeroglifini «urg'ochi» ma'nosi bilan adashtirib yubording. Sening barcha xatolaring shudir, seni qanday jazolasam ekan?»

Va shunday qilib, do'zax hukmdori kula-kula uni barcha gunohlarini kechiribdi. Bllimdon bir kerishib olib uyg'onibdi va barchasi tush ekanligini anglabdi.

Keyingi kuni esa o'layotib, u o'z o'g'lini yoniga chaqirib debdi:

«Men o'lganimdan so'ng dafn etish marosimlarini o'tkazma».

Shunda farzand sababini so'radi va bilimdon javob beribdi:

Chinsang gokmusin ta'limotida ota-ona vafoti cheksiz qayg'udir. «Gok»ning ma'nosi «kerak emas» deganidir. Agar shunday bo'lsa, qayg'urmoqqa na hojat. Otang o'lsa ham unga qayg'urmoq barcha odob-axloq qoidalariga ziddur. Dafn etish marosimlarini tashkillashtirma».

Buni eshitgan odamlar qah-qah otib kulishibdi.

O'sha vaqtdan boshlab xalq og'ziga tushibdi. Chalasavodli inson o'zining o'jarligi bilan dars o'tgani tufayli boshqa odamlarga kulgi bo'libdi. Matnlarning ma'nosini noto'g'ri anglab, shu qatorda xatosini bilib turib, o'z xohishi bilan do'zax hukmdori Yamaning do'zaxida urg'ochi bo'lish niyatini bildirib, yana bir marotaba Konfutsiy ta'limotini noto'g'ri tushunishini namoyon qilib, do'zax hukmdorini kuldiribdi. Hattoki o'limning qarshisida ham tushiga ahamiyat bermay o'z o'g'liga valdirab dafn etish marosimlarini o'tkazmaslikni buyuribdi. Bunday insonning qismati — butun dunyoga kulgi bo'lishdur. Meng Djaning

aytishicha, «Insonlarga bu xususiyat xos boʻlib — ularga oʻzgalarga ustozlik qilish yoqadi». Bu soʻzlarga ishonmaslikni iloji yoʻq!

ALDANGAN BOLA

Bir qishloqda Xong Xin ismli oliynasab amaldor boʻlgan ekan. Uning oʻn besh yoshli oʻgʻli boʻlgan ekan. Bu bola juda ham oʻtkir zehqli va uddaburon boʻlgani uchun Xong oilasi unga mushkul ishlarni buyurishardi.

Chimabavi togʻi yonbagʻirlarida Xong oilasining paxta dalasi bor edi. Yigʻim-terim payti boshlangani uchun oila aʼzolari bolani dalaga paxta terish uchun joʻnatishdi.

Kun boʻyi ishlagan bola, oʻn *kin*¹ paxta terdi. Kech tushub qolgani uchun uyga ketmoqchi boʻlib, shahar darvozasining oldiga keldi. Lekin shahar darvozasi yopiq edi. Nima qilishni bilmay turganida, uzoqdan irkit kiyimli, boshiga *kat*² kiyib olgan bir odam koʻrindi. Bu odam bolaning oldiga kelib, shunday dedi:

«Kech tushib qolganda koʻchada nima qilib yuribsan?»

Bola oʻzining boshidan kechirganlarini gapirib beribdi. Bu soʻzlarni tinglagan odam shunday debdi:

«Men otang bilan uchrashgani sizlarning uyingizga bormoqchil edim. Men otangning tanishiman, lekin sen meni tanimaysan. Ovqatlaningmi?» Bola ovqatlanmaganini aytganda, tunash joyi ham yoʻqligini aytdi. Buni eshitgan odam unga shunday taklif bildirdi:

«Sen bilan uchrashganimiz sharofati bilan seni issiq ovqat va shinam joyga taklif qilaman. Bu kecha tunaganimizdan soʻng ertaga ertalab uyingga etib qoʻyaman».

Bu taklifga bola tezda koʻnibdi. Ikkalovi yoʻlda ketayotib, bir mehmonxonaga kirishibdi. Mehmomxona egasiga ovqat buyurishibdi va evaziga esa bir kin paxta berishibdi. Ovqatlanib boʻlishganidan soʻng tunashga joy soʻrashibdi. Buning evaziga yana bir kin paxta berishibdi. Bundan soʻng erkak shunday debdi:

¹ Kin — 0,6 kg ga teng koreys oʻlchov birligi.

² Kat — koreys milliy bosh kiyimi.

«Kecha juda sovuq, bizga sul¹ olib keling!» Buni evaziga yana bir kin paxta berishibdi. Erkak mehmonxona xo'jayinini chaqirib, qiz va yana sul olib kelishini aytibdi. Bola bunga qarshilik qilibdi, paxta kam qolganini aytibdi. Bu gapni eshitgan erkak bolani boshini silab shunday debdi:

«Axir biz kelishgan edik. Sen hozir paxtani ber, ertaga uyga borgandan so'ng hamma paxtani o'zim qaytaraman. Sen xavotirlanma!» Bu gaplarga ishongan bola paxtani berib yuboribdi. Ertasiga ertalab erkak mehmonxona xo'jayini oldiga borib toza kiyim berishini so'rabdi va uni evaziga oyoq kiyim olib kelishga va'da beribdi. Shunday qilib, ular o'zaro kelishib olishibdi. Bola bilan kishi sotuvchining oldiga borishibdi. Lekin oyoq kiyim sotib olish uchun pul yetishmabdi. Sotuvchi va erkak bolani qoldirib ketish evaziga oyoq kiyimni olib ketibdi. Kech tushsa ham, erkak qaytib kelmabdi. Shu sababli, sotuvchi boladan bo'lgan barcha voqeani so'rabdi va birgalikda mehmonxonaga borishibdi. Lekin mehmonxona egasi uni bu yerga kelmaganini aytibdi. Xullas, bola uyiga borib bo'lgan barcha voqeani gapirib beribdi. Oila a'zolari esa uni allaqachon o'lgan deb o'ylashgandi.

NOMSIZ QISSA

Kunlarning birida bir odam o'n *djaga* teng yog'och topib olib, duradgordan peshtob yasab berishini so'rabdi. Barcha peshtoblar ingichka, uzun va shu bilan birga mustahkam yog'ochdan bo'lishi lozim. Duradgor yog'ochga ishlov berayotib bexos uni qoq peshtob yasab bo'lmas darajada o'rtasidan yorib yuboribdi.

Ana shu payt duradgor xo'jayinga peshtob o'rniga *navoy* yasab berishni taklif qilibdi. Navoy — bu to'qish dastgohi ustiga o'rnatiladigan, ikki chetlari to'rtburchak, o'rtasi esa ingichkaroq bo'lib, unga bambukka mustahkamlanadigan chilvir o'raladigan moslamadur. Duradgor yana ishlov berayotib navoy yasab bo'lmas darajada bir uchini chopib tashlabdi.

¹ Sul — koreys spirtli ichimligi.

Shunda duradgor xo'jayinga navoy o'rninga belkurak sopining pastki qismini yasab berishini taklif qilibdi. Belkurak sopining pastgi qismi uzunchoq ko'rinishida bo'lib, uning bir tomoni yo'g'onroq bo'lishi lozim. Uning bir uchiga arqon o'ralib, shu arqon yordamida yer chopiladi. Duradgor ishlov berayotib, yana xato qilibdi. Bu safar esa duradgor bulkurak sopini o'rninga *malmok* yasab berishni taklif qilibdi.

Shunda xo'jayin g'azab otiga minib, duradgorni xipchini bilan kaltaklab haydab yuboribdi.

Gar bu olamda o'z qobiliyatiga ishonib, qo'llari bilan boylikka erishadigan insonlar bor ekan, uzun yog'ochdan qobiliyatsizligi va bilimsizligi tufayli kichik malmok yasay oluvchi insonlar ham bor.

Bilimli, qobiliyatli insonlar o'z qo'llari bilan ortig'i bilan ovqat, may, go'zal qiz, hattoki kiyim-kechakga ham erisha oladi. Qobiliyatsiz insonlar esa peshtob yasashni boshlab undan navoy, navoy yasashni boshlab undan belkurak sopini, belkurak sopini yasab turib undan kichik bir keraksiz buyum yasab kaltaklanib qolurlar.

A-a-a! Axir uzun yaxshi yog'ochdan kichik bir keraksiz buyum yasab, so'ng kaltaklangan men emasmi...

I IK

TOVUQ HAQIDA HIKOYA

KO'R ONA TOVUQNING JO'JALARINI TARBIYALASH USULI

Bir tovuq bor edi. U tuxum bosib yotardi. Ammo u ko'r edi. Ya'ni, o'ng ko'zi to'liq ko'r, chap ko'zi esa yarmi ochiq edi.

Agar oldida don kam bo'lsa, cho'qib terib yeya olmas, devorga urilib ketsa, u yoqdan bu yoqqa aylanib yuraverardi. Shuning uchun boshqa tovuqlar uning polopon jo'jalarni boqib, katta qila olishiga shubha bilan qarashardi.

Va nihoyat, jo'jachalar tuxumdan yorib chiqishibdi. Ular dunyoga kelishi bilanoq boshqa tovuqqa berib yuborishibdi. Bir tomondan ko'r tovuqqa achinish mumkin, biroq boshqa yo'li yo'q edi-da. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, jo'jachalarning uzoqqa ketib qolmasdan, yaxshigina bo'lib katta bo'layotganlarini ko'rish mumkin bo'lardi. Agar boshqa tovuqlarga qaraydigan bo'lsak, ularning ko'pchiligi kasal bo'lib qoladilar yoki jarohat olib o'lib qoladilar. Ba'zi tovuqlar esa umuman jo'ja katta qilishni eplay olmaydilar.

Aytishlaricha, jo'jalarni kam-u ko'stsiz katta qilishning ona tovuqlar uchun ikkita usuli mavjud. Bular — yemish topa olish va himoyalaniş qobiliyatlari. Yemish topish uchun sog'lom bo'lmoq kerak, himoyalaniş uchun mard bo'lish kerak.

Poloponlar tuxumdan chiqqanida ona tovuq yashirinib yotgan qurt-qumursqalarni topish maqsadida yerni kovlay boshlaydi, jo'jachalar har tomonga ketib qola boshlagach esa ona tovuq ularni chaqiradi. Umuman olganda, jo'jachalar yorib chiqqach, ona tovuqda bo'sh vaqt bo'lmaydi. Agar ona tovuq osmonda kalxat yoki qarg'ani ko'rib qolsa, yoki yon-atrofda mushuk, kuchukka ko'zi tushkudek bo'lsa, shu ondayoq tumshug'ini to'g'irlaydi, qanotlarini keng yoyadi va jasur askardek o'z hayotini xavfga qo'yib bo'lsa-da qahrli nigoh bilan dushmaniga qarab harakatlanadi. Va har tomonga tarqab ketgan jo'jalarini chaqirganida mittigima jo'jachalar pipilab, chayqalib-chayqalib onalari tomon oshiqadilar.

Ammo aynan shunaqa damlarda ular kuchsizlanadilar va juda oson kasallikka chalinadilar. Va yana bo'lishi mumkinki, jo'jachalar o'z yo'llarini yo'qotib qo'yadilar. Bunday paytlarda ularga suv yoki olovga tushib ketish ehtimoli xavf soladi. Yana tovuqlar orasidagi o'zaro janglarda kamida 6—7 jo'ja halok bo'ladi. Yoki yaqin orada odamlar bo'lmagan hollarda, ularga o'tkir ko'zli qirg'iy hamla qilishi mumkin. Bunday damlarda esa himoya hech qanday foyda keltirmay qoladi.

Ko'r tovuq boshqalardan farq qiladi. U uzoqqa keta olmagan bo'is doimo odamlar yaqinida aylanib yuradi. Ustiga-ustak, u ko'ra olmagan bo'is har bir harakatini qo'rquv va ehtiyotkorlik

bilan qiladi. Shuning uchun garchand ko'r ona tovuqning sa'y-harakatlari natijasi ko'rinmasa-da, jo'jalar boshqa tovuqlardan yiroqlashmay katta bo'lishadi. Umuman olganda, jo'jalarni katta qilish go'yoki kichkina baliqni qovurishchalik murakkab jarayon. Shu sababdan, bu ishda betartiblik nojoiz hisoblanadi. Garchi ko'r tovuqda aql bo'lsa-da, ko'z nuri bo'lmagani uchun unda sog'inish hissi umuman mavjud emas.

Men shuni angladimki, tarbiya — bu to'yib, to'kin ovqatlantirishda emas. Har kim o'z taqdirini o'zi yaratmog'i lozim. Men jo'jalarni tarbiyalash jarayonini ko'rib, odamlarni tarbiyalash usulini tushunib yetdim.

TOVUQLAR O'RTASIDAGI DO'STLIK

Men ona muhabbati tuyg'usi kuchli tovuqni boqqanman. Uning ko'ksida siyrak-siyrak patlari bor edi, orqasida esa haligacha momiqlari saqlanib qolgandi. Kunlarning birida dala yirtqichlari o'sha tovuqni va nisbatan kattaroq jo'jani o'g'irlab ketishdi. Biroq tovuq qochishga muvaffaq bo'ldi. Lekin uning boshi va qanotlaridagi patlari yulingan, butun tanasi tirnalgan edi. O'ziga kelgan yarador ona tovuq jo'jachalarini chaqirib, ularni qanotlari ostiga yashiribdi.

Xonadon sohibiari boshda e'tibor berishmabdi, ammo tez orada ular shunga guvoh bo'lishibdiki, ona tovuq yemishni ko'rishi bilanoq, «qu-qu-qu»lab jo'jalarini chaqirarmish. Jo'jalar yemishni cho'qilab, yeyayotgan paytda esa ona tovuq qanotlarini keng yozib, poloponlari atrofini aylanib yurar,shu yo'l bilan ularni xafvdan himoya qilishga tayyorligini ko'rsatayotgandek edi. Tasodifan jo'jachalar ko'zga ko'rinmay qolsalar, zumda ona tovuq ularni izlay boshlar, chaqira boshiarkan.

Hattoki, katta va kichik jo'jalar ham bir-biriga mehribon ekan. Ular yirtqichlarning tasodifan hujumlaridan qochish maqsadida katakning og'iz tumshug'ida, odamlarga yaqin joyda uxlarkanlar. Bir oycha davom etadigan jala paytida esa ona tovuq jo'jalarini qanotlari ostiga olib, ularning ho'l bo'lmasligining oldini olarkan.

Ona tovuq kichkina jussasi va kalta oyoqchalari tufayli hech ham egila olmas va farzandlarini qanotlari bilan yopgancha butun tunni o'tkazar ekan. Yozdan kuzga qadar bu holatni kuzatgan odamlar chindan ham hayratga tushishibdi. Odamlar bu holatni «Uge»— tovuqlar ittifoqi deb nomlashibdi. Agar odamlar qanaqadir nojoiz ishni qilib qo'ysalar, bir-birlariga «ugega qarab, o'rnak ol» deb o'sha odamga tanbeh berishadigan bo'lishibdi.

Jo'jalar nisbatan katta bo'lishib qolishganida ham ular avvalgidek «tovuqlar ittifoqi»ni saqlab, oila bo'lib yashashda davom etishibdi. Ona tovuqning hali ham farzandlarini boqayotgani, yomg'irdan pana qilishi, hattoki, kasal paytida ham jo'jalari tarbiyasi uchun bor kuchini berishini ko'rib ko'pchilik ona tovuqqa achinibdi.

Yovvoyi yirtqichlar doimo «uge» a'zolarini ko'zlab yurar ekanlar. Va bir kuni tunda bitta tovuq yo'qolib qolibdi. Odamlar uni rosa izlashibdi va oyoq ostida yotgan tovuq patini topishibdi, xolos. O'sha kuni men yo'q edim va qaytib kelib, bu haqda eshitganimda, ko'zimdan yosh oqay-oqay devdi. Keyin o'zim qaytadan o'sha tovuqning boshqa tana a'zolarini qidirib chiqdim, biroq hech nima topa olmadim. Yo'lakchada topilgan patni qutichaga solib tog' yaqiniga ko'mdim. Va bu joy «ugechon»—tovuqlar ittifoqi qishlog'i deya atala boshladi.

Aytishlaricha, hamma narsada umumiy mantiq mavjud. Bunda lochin va asalarining vazifasi alohida muhim. Asalari oilasida hamma narsa bo'linadi, u yerda yagona foydaning iloji yo'q. Xuddi shunday, lochinida ham do'stlik prinsipi mavjud emas. Agar ota-ona mehrini hisobga olmasak, odamlarga abadiy do'stlik tuyg'usini berish qiyin. Shunday ekan hayvonlardan nimani kutasiz.

Ezgu ishning amalga oshirilishi, qachonki kattalar bizga nasihat qilib, yo'l ko'rsatishganda, yoki biz an'analardan o'rnak olganimizda yuzaga keladi; shundaylar ham borki, ular shon-shuhrat uchun go'yoki ezgu ishni qilayotgandek o'zlarini tutadilar. Biroq biz tashqaridan qarab, hayvonlarning qalbi haqida, ularga kim yoki nima ustozlik qilayotgani, nima uchun ular harakat qilayotganini bila olmaymiz.

Insoniyatning harakatlari, asosan, bolalar va kattalarnikiga boʻlinadi. Shu sababli ham aql-zakovatlilik va ochiq koʻngillilik bolalarga xos. Mening shunday soʻzlarim bor: «Tugʻma zakovat — bu genezis, unda hayvonlar genezismi?» Garchand xarakterning tugʻma belgilarining hayotga tatbiq etilishi genezis ersa-da, insoniyat ham xuddi qushlar singari mashaqqatli mehnatni amalga oshirib keldi. Genezis hayvonot olamiga xalaqit bermaydimi? Jasorat koʻrsatib va ayni jasorat tufayli bu olamni tark etayotganda, bunda qanday mantiq borligi haqida gapirish mumkinmi? Boshqalar eskicha oʻylasalar-da, lekin barchasi bir-biriga juda oʻxshash. Shu sababdan ham men yoʻl chetida oʻsha tovuq uchun qabr tosh oʻrnatdim. Toki hamma uni koʻrsin.

IM DJE

VON JA XONING TUSHI

Von Dja Xo ismli shaxs yashagan ekan. U olim boʻlib, kuchli maʼnaviy anʼanalarga sodiq, adolatsizliklarga chiday olmas ekan. Bu dunyoda yashash u uchun juda ham ogʻir boʻlib, odamlar bilan munosabatda katta tajribaga ega ekan. Qornini toʻygʻazish uchun kunduzi dalada ishlar, kechasi esa qadimgi traktatlar va solnomalarni oʻqir ekan.

Solnomalarda oʻz vatanining tarixi, boshidan oʻtkazgan musibatlar haqida oʻqiganida, har doim kitobni yopib, avval chuqur xoʻrsinib, keyin achchiq koʻz yoshlar toʻkar ekan.

Muammo shunda ediki, vatani xavf ostida ekan. U vatanini saqlab qolish uchun kuchi yetmasligidan afsuslanar ekan.

Bir kuni avgust oyi kechalaridan birida, u odatdagiday kitoblarni koʻrib oʻtirar ekan, qorongʻu tushib, xontaxta ustiga boshini qoʻyib, uxlab qolibdi. Birdan uning tanasi yengil boʻlib qolibdi, yuqoriga chiroyli yulduzli osmonga koʻtarilibdi. Tanasiga sovuq havo urilibdi, qanotlarini yanada yozib, uni uyidan yanada uzoqroqqa olib ketibdi, u osmonda oʻzini xuddi farishtadek his qilibdi. Bir oz uchgach, Von Dja Xo kichkina yaylovga qoʻnibdi, yarim kechasi boʻlib, barcha insonlar, tabiat qattiq uyquga ketgan ekan.

Oy nurlari xuddi kunduzi kabi atrofni yoritir, suv esa ipak kabi yarqirar ekan. Ajoyib tabiat manzarasi, yengil shabada esar, qayerdadir o'rmonda to'kilayotgan barglarning shitirlagan ovozi eshitilgan ekan. Kutilmaganda qayerdandir hushtak ovozi eshitilibdi va olim kimningdir she'r o'qiyotganini eshitibdi. She'r g'amgin va o'kinchlarga to'la ekan.

She'r o'qish to'xtabdi va birdan uzoqdan kimningdir oyoq tovushlari eshitilibdi. Bir necha soniya o'tgach, qamishlar orasidan ajoyib yosh yigit chiqib kelibdi. U qadimgi askarlar kiyimida bo'lib, ko'rinishi juda ham jiddiy, yuz qiyofasi aqlli ekan. U Von Ja Xoga yaqinlashib, salomlashibdi va keyin so'rabdi: Nega kech qoldingiz? Bizning rahnamo allaqachon sizni kutmoqda. Von Dja Xo bu payt yigitning kimligi haqida fikr yuritibdi, balki u tog' ruhidir, balki suv ruhi. Shuning uchun u joyidan qo'zg'al-mabdi. Ammo yigit juda ham chiroyli bo'lib, gaplari ham dimog'dor emasligi ko'rinib turar ekan. Shuning uchun ham olim qo'rqmabdi, yigitga hayrat bilan boqibdi. Keyin olim yigitning orqasidan yuribdi, uzoqdan suv yuzida qalqib turgan shiyponcha ko'zga tashlanibdi. Shiyponcha ichida atrofni unga xizmat qiladigan shaxslar qurshovidagi qirolni ko'ribdi. Barcha a'yonlar juda ham chiroyli tashqi ko'rinishga ega bo'lib, juda ham kelishgan ekan. Ularning hammasi samimiy insonlar bo'lib, qirolning ishonchli odamlari ekan. Ular qonun va axloqni hurmat qilishar ekan, ularga hatto yetimlar ham bimalol murojaat qilishlari mumkin ekan. Von Ja Xo ularga yaqinlashgach, o'rinlaridan turib uni kutib olishibdi. Ja Xo avval qirol, keyin atrofdagilar bilan so'rashibdi. Barcha o'z o'rniga o'tirishini kutib turibdi va keyin u ham o'tiribdi. Ja Xo nima uchun hamma bu yerga to'planganligini bilmasdan, o'ng'aysizlanibdi. Bu payt qirol Von Ja Xoga shunday deb murojaat qilibdi: Hurmatli Von Ja Xo, men sizning chiroyli ishonchingizdan hayratdaman. Shuning uchun ham bugun ajoyib kechada siz bilan uchrashib turganimizdan hayratlanmang. Endi Ja Xo gumonlarsiz osoyishtalik bilan o'rnidan turib qirolga ta'zim qilibdi.

Keyin majlis davomida davlat ishlarini muhokama qilishibdi, davlat gullab-yashnashi uchun qanday choralar ko'rilishi kerakligi

haqida suhbatlashishibdi. Von Ja Xoni boshlab kelgan yigit o'rnidan turib, shunday debdi: «Qadimgi qirollar, ya'ni Yo, Sun, U hukmdor edilar, ammo oqibatda jinoyatchi ekanligi ayon bo'ldi. Ularning e'tiborsizligi oqibatida tulkiga o'xshagan insonlar paydo bo'ldi. Ular qirol taxtiga chiqish uchun davlatni bosib oldilar. Bunday odamlar yana o'zlarini adolatli qilib ko'rsatishga harakat qildilar. Ammo ularning xatti-harakatlarini o'g'rilikdan boshqa narsa deb bo'lmaydi!

Shunda qirolning yuzi o'zgarib, shunday debdi: «Bu qirol-larning aybi nimada? Ularning gunohi hukmdorligi ostida yomon insonlarning ko'pligidami!» Yigit boshini egib, ta'zim qilibdi va javob beribdi: «Uzr, yuragimda yig'ilib qolgan gaplar tilimga chiqdi». Qirol javob beribdi: «Hech narsa qilmaydi, kechirim so'rashning hojati yo'q. Bugun bizning oramizda hurmatli mehmon bor, oy yorqin yoritmoqda, yengil shabada esmoqda. Bunday ajoyib kechani quvonch bilan o'tkazib, shirinliklar tarqatish lozim».

Hammasi ichib bo'lgach, qirol yig'labdi: «Hamma yuragida to'planib qolgan o'z e'tirozlarini bildirdi, men esa bunday qila olmayman, menga qanchalik og'ir!» Oradan biroz vaqt o'tgach, baland bo'yli, ko'zlari yonib turgan, ko'rinishi yorqin sarkarda shoshib kelibdi. U qirolga yaqinlashib, barchaga ta'zim qilib, baland ovozda shunday debdi: Sizlar bolaga o'xshaysizlar. Sizlar faqat muhokama qilasizlar, haqiqat bilan kurashish uchun sizlarga jasorat yetishmaydi. Buning ustiga u o'zining chuqur hamdard-ligini bildirib, qilichini qinidan sug'urib, harbiy qo'shiqni kuylabdi, raqs tushibdi, uning ovozi qo'ng'iroq ovoziga o'xshar ekan. Qo'shiq harbiy ruh va g'azabga to'la ekan.

Birdan qattiq shamol turibdi, hamma qo'rquvdan o'zini yo'qotib qo'yibdi. Ja Xo ham qo'rqib ketibdi, o'ziga kelib, buning hammasi tush ekanligini tushunibdi.

Ja Xo Xe Vol ismli do'sti bu tushmi eshitib, xafa bo'libdi va shunday debdi: «Haqiqatan, qadimda qirol va amaldorlar aybi bilan mamlakat vayronagarchilikka uchragan. Ammo bizning qirol aqli bo'lib, uning olti vaziri ham davlatga sadoqatli olimlar edi, lekin ularning hammasi qatl qilingan, yurtimizda shunday yomon hodisalar bo'lib o'tgan. Ha, bularning hammasi qanchalik achi-

narli! Nahotki, bu osmonning amri bo'lsa? Osmon amrida yaxshilar yaxshilikka erishadilar, yomonlar jazolanadilar! Agarda bularning hammasi osmon amri bilan bo'lgan bo'lsa, men buni tushunmayman, bularning hammasi mening bu dunyoda yashashim uchun malol keladi.

Eslatma: Mazkur qissa o'sha davrda bo'lib o'tgan voqealarga bag'ishlangan. Taxtga qirol Mun Jonning yetti yoshli o'g'li Tan Jon o'tirishi kerak bo'lgan davrda, amakisi Su Yang o'g'lini taxtga o'tqazish uchun shahzodani qatl ettirgan, hatto qirolning ishonchli odamlarini ham o'ldirgan. Ko'plab olim va amaldorlar yangi qotil-qirolga qo'rqanlaridan xizmat qilganlar. Mazkur qissa mana shular haqida hikoya qiluvchi asar bo'lib, dahshatli voqealarni o'z ichiga olgan.



narli! Nahotki, bu osmonning amri bo'lsa? Osmon amrida yaxshilar yaxshilikka erishadilar, yomonlar jazolanadilar! Agarda bularning hammasi osmon amri bilan bo'lgan bo'lsa, men buni tushunmayman, bularning hammasi mening bu dunyoda yashashim uchun malol keladi.

Eslatma: Mazkur qissa o'sha davrda bo'lib o'tgan voqealarga bag'ishlangan. Taxtga qirol Mun Jonning yetti yoshli o'g'li Tan Jon o'tirishi kerak bo'lgan davrda, amakisi Su Yang o'g'lini taxtga o'tqazish uchun shahzodani qatl ettirgan, hatto qirolning ishonchli odamlarini ham o'ldirgan. Ko'plab olim va amaldorlar yangi qotil-qirolga qo'rqanlaridan xizmat qilganlar. Mazkur qissa mana shular haqida hikoya qiluvchi asar bo'lib, dahshatli voqealarni o'z ichiga olgan.





IZOHLAR

KIM BUSIK

«UCH DAVLAT HAQIDAGI SOLNOMALAR» DAN OSMON YA OY O'G'LI – TONMYON-VAN

29-bet.

Koguryo — milodning dastlabki asrlarida Shimoliy Koreya va Shimoli-sharqiy Xitoydagi uch qadimgi koreys davlatidan biri; VII asr oxirida qulagan.

Tonmyon-van — Koguryoning yarim afsonaviy asoschisi, tabarruk podsho unvoniga ega, miloddan avvalgi 37–20-yillarda hukmronlik qilgan.

Chumon — Tonmyon-vanning tiriklik paytida tilga olish taqiqlangan shaxsiy ismi.

Xeburu — miloddan avvalgi I asrda Shimoli-sharqiy Xitoydagi ishg'ol qilingan Puyo mamlakatining afsonaviy podshosi.

Sharqiy dengiz — Yapon dengizi.

Besh non — bu yerda: guruch, tariq, arpa, bug'doy, loviya.

Kasobvon — afsonaviy «Kasyan tekisligi» (qadimgi yetti buddadan biri)ning nomi Koreya sharqidagi joyga berilgan, hozir bu yerda Kannin shahri (Kantvondo provinsiyasi) joylashgan.

30-bet.

Ubalsu — daryo nomi bo'lib, u joylashgan yer Shimoliy Pxyonando provinsiyasidagi Yonbyon uyezdi bilan bog'lanadi.

Txebeksan — bu yerda: Yonbyon uyezdidagi Myoxyansan tog'ining eski nomi.

Xabek — koreys mifologiyasida suv stixiyasi ilohi.

Unsimsan — tog‘ nomi aniqlanmagan.

Amnokkan (xitoycha Yaluszyan) — Koreya va Xitoy chegarasidagi daryo, Sariq dengizga quyiladi.

Sin — o‘n hovuch yoki 1,8 l ga teng hajm birligi.

31-bet.

Omxosu — Dunszyatszyan daryosi, Amnokkan daryosining shimoli-sharqiy irmog‘i (Lyaonin provinsiyasi, Xitoy) nazarda tutiladi.

Modungok — Sonchxon uyezdida (Janubiy Pxyonondo provinsiyasi) joylashgani taxmin qilinadigan voha.

Cholbonchxon — hozirgi Kayyuan shahri (Lyaonin provinsiyasi) o‘rnida joylashgan bo‘lsa kerak.

SOL XONIM

37-bet.

Chinpxyon-van — 579–631-yillarda hukmronlik qilgan Silla qirolli.

Chongok — joy, keyinchalik Janubiy Kyonsando provinsiyasining Sanchxon uyezdidagi pochta bekati.

38-bet.

Baxtli kun — qadimda Koreyada, xuddi Xitoyda bo‘lganidek, har qanday marosim, shu jumladan to‘y uchun fol ochish yo‘li bilan yoki jadvallar yordamida qulay kun aniqlangan.

SOL CHXON VA «GULLAR PODSHOSIGA OGOHLANTIRISH»

39-bet.

Sol Chxon (VII asr — VIII asr boshi) — Silla davlatidagi yirik olim.

Vonxyo (617–686) — sillalik buddaviylar rahnamosi, uning nomi bilan ataladigan mazhab asoschisi.

Daoslar ta’limoti — dunyoning rang-barangligini belgilovchi universal tabiat qonuni (Dao) haqidagi, shuningdek insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishi haqidagi qadimgi xitoy ta’limoti.

Daosizm asoschisi sifatida Lao-szi (taxminan miloddan avvalgi VI asr) e'tirof etiladi.

Klassik adabiyot namunalaridan to'qqiztasi — konfutsiychilik ta'limoti ifodalangan asosiy kitoblardan to'qqiztasi — «Iszin» («O'zgarishlar kitobi»), «Shuszin» («Tarixiy rivoyatlar kitobi»), «Shiszin» («Qo'shiqlar kitobi»), «Chjouli» («Chjou sulolasi hukmlari»), «Ili» («Marosimlar va amrlar»), «Liszi» («Marosimlar kitobi»), «Chunsyu» («Bahorlar va kuzlar»), «Syaotszin» («O'g'il hurmati to'g'risidagi kitob») va «Lunyuy» («Suhbatlar va mulo-hazalar») nazarda tutiladi.

Sinmun-van — birlashgan Sila davlati qiroli, 681—691 yillarda hukmronlik qilgan.

Gullar podshosi — piyongul nazarda tutiladi; mazkur gullar Xanchjou (Xitoy)da Tan sulolasi davrida yetishtirila boshlagan.

«KVANGETXO-VAN YODGORLIK TOSHI»DAGI BITIK

46-bet.

Chxumo — Chumon ismining arxaik shakllaridan biri. Samguk sagida ko'rsatilishicha, Chumo o'lganidan so'ng Tonmyon-van ismini olgan.

47-bet.

Osmon g'ildiragi mamlakatni tark etdi — podshoning vafotini anglatuvchi majoziy ibora.

«SHARQIY TO'PLAM»DAN

LIM CHXUN

DENGA HAQIDA HIKOYAT

51-bet.

Xuan-di — miloddan avvalgi III yillikda Xitoyda hukmronlik qilgan afsonaviy imperator. Fanlar va hunarmandchilik asoschisi hisoblanadi.

Chjou — Xitoyda hukmronlik qilgan sulola (miloddan avvalgi 1122–247-yillar).

Xan — Xitoyda hukmronlik qilgan sulola (miloddan avvalgi 209–milodiy 220-yillar).

Pi — Xitoydagi mulk hokimi, o'zboshimchalik bilan mis tanga zarb etishni buyurgan; miloddan avvalgi 154-yilda Xan sulolasiga qarshi qo'zg'olon ko'targan.

U-di — Xan sulolasi imperatori (miloddan avvalgi 140–87-yillar).

Yuan-di — Xitoy imperatori (miloddan avvalgi 8–33-yillar).

Gun Yuy (miloddan avvalgi 124–44-yillar) — podsho maslahatchisi va sensorat boshlig'i. Yuan-di davrida saroydagi ortiqcha hashamatni va mulozimlarning nomunosib ishlarini qoralovchi ma'lumotlar taqdim etgan, g'alayonlarni bartaraf etish va soliqlarni kamaytirish yo'llarini taklif qilgan.

Gulyanning «Bahorlar va Kuzlar» asariga sharh — Konfutsiy tomonidan tuzilgan Lu podsholigi solnomasi. Qadimdayoq uch sharh yozilgan. «Gulyan sharhi» — shulardan biri. Uchala sharh ham Konfutsiy qonuniga kiradi.

Min yurti tojirlari — Min viloyati (hozirgi Funzyan provinsiyasi) boshqa yurtlar bilan savdo-sotiq olib borgan o'z dengizchilari bilan mashhur bo'lgan.

Szin — Xitoyda hukmronlik qilgan sulola (265–420).

Xe Syao (?–292) — katta boylikka ega bo'lgan odam.

Lu Bao (III asr oxiri — IV asr boshi) — daosizm mazhabiga mansub zohid, «Pulga o'chlik haqida mulohaza» traktati muallifi.

Jun Syunszi (Juan Syu, 270–311) — «O'zgarishlar kitobi» va Lao-szi bilimdoni, «sof suhbatlar» ta'limoti tarafdori. Uzatninishin hayot kechirgan.

Van Ifu (Van Yan, 256–311) — qadimgi Xitoyda daosizm namoyandasi; o'zining beg'arazligi bilan dong taratgan, u pul so'zini hatto tilga ham olmagan.

Lyu Yan (715–780) — iqtisodchi, moliya va soliqqa tortish bo'yicha mutaxassis, «Ovqat va pul haqida traktat» muallifi.

Kan-yuan, Tyan-bao — imperator Syuan-szun hukmronligi yillari, tegishli ravishda 713–741 va 741–756-yillarning shiorlari. Bu yillar Xitoydagi Tan sulolasi ravnaq topgan davr hisoblanadi.

Shen-szun — Xitoydagi Sunn sulolasi imperatori (1068–1085-yillarda hukmronlik qilgan), uning davrida mashhur Van Anshi islohotlari o'tkazilgan.

Van Anshi (1021–1086) — yozuvchi, davlat arbobi. Sun davrida Xitoy iqtisodiy va siyosiy tizimini isloh qilish uchun harakatga rahbarlik qilgan.

Lyuy Xuysin (1031–1110) — Van Anshi islohotlar uchun harakatining taniqli arboblardan biri. Islohotchilar mag'lub bo'lishgachi, surgunda vafot etgan.

Su Shi (Su Szichjan, 1036–1101) — yozuvchi, faylasuf, davlat arbobi, Van Anshi islohotlar uchun harakatining asosiy muxoliflaridan biri; murosasiz mulohazalari uchun surgun qilingan.

Sima Guan (1019–1086) — «Boshqaruvga yordam beruvchi umumiy ko'zgu» deb nomlangan Xitoy umumiy tarixi muallifi, davlat arbobi, Van Anshining islohotlar bekor qilinishiga erishgan asosiy muxoliflaridan biri.

LI GOK

BAMBUK XONIM

56-bet.

Szyan-taygun (haqiqiy ismi — Lyuy Shan) — Veyshuy daryosida baliq ovlab kun kechirgan va Chjou podshosi U-van (miloddan avvalgi 1122–1115-yillar)ning katta maslahatchisi lavozimiga erishib, «taygun» yuksak unvonini olgan xitoylik zohid.

...*musiqa ishlarini boshqaruvchi*... — Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, musiqa davlatning muhim taomillaridan biri hisoblanadi.

Yuy — Xitoydagi Sya sulolasining afsonaviy asoschisi (miloddan avvalgi 2205–1783-yillar) bo'lib, konfutsiychilar tomonidan ideal podsho deb e'tirof etilgan. Rivoyatlarga qaraganda, Yuy sibizg'a chalganda, uning ovozig'a qaqnuslar uchib kelar va atrofda uyg'unlik qaror topar ekan.

Fu-si — xitoylik afsonaviy podsho bo'lib, iyeroglif yozuvi kashfiyotchisi sifatida e'tirof etiladi. Qog'oz ixtiro qilingunga qadar bambuk yoki yog'och taxtachalarga, suyaklar va teriga yozishgan.

Sin kulfatlari — yagona Xitoy imperiyasi asoschisi Sin Shixuan (miloddan avvalgi 246–209-yillar)ning jabr-zulmga asoslangan podsholik davri nazarda tutiladi; uning buyrug'iga binoan qadimgi va konfutsiychilik yozuv yodgorliklari o'tga tashlangan va to'rt yuz-u oltmishdan ortiq konfutsiychi olimlar tiriklayin ko'milgan.

Li Si — Sin Shixunning yaqin maslahatchisi, o'ziga o'xshaganlar bilan birga Sin imperiyasini barbod qilgan amalparast shaxs.

Say Lun — xitoy imperatori Xe-di maslahatchisi, yozish uchun ipak, qog'oz va siyohni birinchi bo'lib qo'llagan shaxs.

Ven-van («Ma'rifatli podsho», miloddan avvalgi XII asr) — xitoylik podsho, Chjou sulolasi asoschisining otasi, donishmandlik va yuksak fazilatlar egasi sifatida o'rnatilib qolib ko'rsatiladi.

Si mulki — qadimgi Xitoyda hozirgi Shandun provinsiyasi hududidagi qudratli podsholiklardan biri (miloddan avvalgi XII–III asrlar).

Yanchjou — hozirgi Szyansu provinsiyasi (Xitoy)ning janubidagi shahar.

Xu mulki — shimoldagi xu ko'chmanchi qabilalarining Xitoyga qo'shni mulki bo'lib, keyinchalik ular jumlasiga syunnu (gunnarlar) kiritilgan.

Van Szi-yu — mashhur xattot Van Si-chjining o'g'li bo'lib, u bambukka muhabbat va hurmat bilan qaragan, uni «janob» deb atagan.

Knyaz Qayrag'och — burchga sadoqat timsoli. Sin Shixuan davrida qayrag'ochga knyaz unvoni berilgan.

Olxo'ri Meyning irodaliligi — hali qor erimagan paytda gullaydigan qishki yovvoyi olxo'ri; irodalilik va bokiralik timsoli. Bu yerda xitoylik olim — zohid Mey Fu (miloddan avvalgi I asr — milodiy I asr) nazarda tutiladi.

...*Olxo'ri Li sukuti*... — Li — olxo'rining madaniy navlari nomi. Aftidan, daosizm ta'limoti asoschisi Lao-szi nazarda tutiladi. Uning nasabi Li bo'lgan. U: «Bilguvchi gapirmas», deb aytgan.

...qariya Mandarin... donishmand O'rik...— qariya Mandarin deganda g'urur va bukilmaz iroda timsoli sanalgan mandarin daraxtini madh etgan xitoy shoiri Syuy Yuan nazarda tutiladi; donishmand O'rik deganda O'rikli ayvonda shogirdlariga o'z ta'limotini o'rgatgan Konfutsiy nazarda tutiladi.

Ven Yuy-ke (Vey Tun; 1018—1079) — xitoy shoiri, xattot, bambuk mavzularida rasmlar ishlagan yirik musavvir.

Su Szi-chjan — shoir Su Dun-poning taxallusi. Uning ko'pgina asarlari bambuk obrazi bilan bog'liq.

Guchenshan — Shandun provinsiyasining shimoli-sharqidagi tog'. Xitoy afsonasiga ko'ra, bir umrboqiy zot birinchi Xan imperatori Go-szuning safdoshi Chjan Lan oldiga kelib, unga Xan sulolasining yuksalishidan darak beruvchi kitobni topshirgan, o'zi esa Guchenshan tog'i ostidagi Sariq toshga aylanib qolgan emish.

«*Bambuk qulmog'i kuni*» — Xitoydagi an'anaviy bayram. Aytishlaricha, shu kun bambuk ekilsa, u yaxshilik keltirar emish.

LI GYU BO

DONO QULMOQ

62-bet.

Maybuloq (Szyusyuan) — Gansu provinsiyasi (Xitoy)ning g'arbidagi qadimgi viloyat; bu yerda suvining mazasi mayni eslatadigan buloq mavjud bo'lgan.

Syuy Mo — xitoylik taniqli sarkarda Sao Saoning maslahatchisi, mashhur mayparast.

Chjen podsholigi qo'shinlari Chjouga hujum qilganda... — Qadimgi Xitoy Chjen podsholigi miloddan avvalgi VII—V asrlarda boshqa qo'shni podsholiklar bilan birga Chjou sulolasiga qarshi urush olib borgan.

Pin 'yuan — Xan sulolasi davrida Shandun provinsiyasidagi okrug.

Chjuanshanlik Lyu Lin (III asr) — xitoy olimi va shoiri, may kuychisi sifatida mashhur. Chjunshan — Szyansi provinsiyasidagi qadimgi okrug nomi.

Sinchjou — hozirgi Shandun provinsiyasidagi okrug. Muallif bu geografik nomni bekorga tanlamagan; u «tozalangan aroq» degan ma'noni anglatadigan so'z bilan hamohang.

Szyusisin yulduzi — tarjimada: «Qovoqxona viveskasi»; Sher burjidagi eng yorqin yulduz — Regul bo'lsa kerak. Yulduzlarga qarab fol ochish Uzoq Sharq mamlakatlarida qadimdan keng tarqalgan.

...ajdodlar ibodatxonasida bahorgi va kuzgi qurbonlik keltirishlar... — marhumlarni yod etish taomilining muhim qismi bo'lib, Konfutsiy davridan boshlab unga qat'iy rioya etilgan.

...chjen qushining patlari solinib zaharlangan may... — eng o'tkir zahar hisoblangan. Chjen — burgutga o'xshaydigan, ilon yeydigan to'q qizil rangdagi afsonaviy qush.

Chouchen — uydirma nom.

Syan — Xunan provinsiyasi (Xitoy)dagi daryo; Yansziszyanga quyiladi.

...o'ta chanqoqlik dardi... — ya'ni qand kasalligi.

LI INNO

BEKORCHILIKDAN

69-bet.

Guyszi — Xitoy shaharlaridan biri, hozirgi Shaosin (Chjeszyan provinsiyasi).

Besh Majnuntol yaqinida yashagan zohid — xitoy shoiri Tao Syan (Tao Yuanmin, 365–427)ning taxallusi.

«*Shaftoli chashmasi*» — Tao Syan asari bo'lib, unda bir baliqchi odamlar ma'murlar tazyiqsiz shod-xurram yashaydigan mamlakatga tasodifan tushib qolgani haqida hikoya qilinadi.

Lyu Sziszi — To Syanning «Shaftoli chashmasi» asari qahramoni.

Du Fu (712–770) — Tan davrida yashab ijod qilgan xitoylik mashhur shoir.

CHXVE CHA

«BEKORCHILIKDAN» TO‘PLAMIGA QO‘SHIMCHALAR

70-bet.

Li Taybo — Li Bo (701–762), Tan davrida yashab ijod qilgan xitoylik mashhur shoir.

Muhtaram Munsun — taniqli koreys shoiri Li Kyubo (1168–1241) nomi.

Chinyan knyazi — harbiy hukmdor Chxve U (?–1249) unvoni. Harbiylar va Chxve oilasi 1196-yildan 1258-yilgacha mamlakatni amalda boshqargan.

«DU» SOLNOMASIDA YOZILGAN «SINGAN KO‘ZA» HIKOYASINI TANQID QILAMAN

75-bet.

Du Mu (803–?852) — atoqli xitoy shoiri.

Kun-szi (ustoz *Kun*) — Konfutsiy.

ZOHID SIGYON

XIZMATKOR MIX

77-bet.

Nyuy-va — afsonaviy personaj, afsonaviy xitoy podshosi Fu-sining singlisi va xotini.

Szin — Xitoydagi qadimgi podsholiklardan biri, hozirgi Shan’si va Xebey provinsiyalari hududida joylashgan.

Fanlar oilasi — Fan urug’ining asoschisi, miloddan avvalgi VI–V asrlarda Szin podshosining maslahatchisi nazarda tutiladi.

Qariya Chjao (Chjao Chjou; 778–897) — xitoylik buddistlar rahnamosi, Chan mazhabi ezoterik ta’limotining namoyandasi.

Dintao — Shandun provinsiyasidagi joy nomi.

Din-sanlan — Din («Mix») nasabi va uchinchi daraja faxriy unvon (darajalar jami sakkizta).

Xuashan — Xitoy va Koreyada shu nomli bir nechta tog‘ bor (Gultog‘); bu yerda Szyansu provinsiyasi (Xitoy)dagi tog‘ nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

Xuadu — Shansi provinsiyasidagi shaharning qadimgi nomi bo‘lib, bu yerda Xitoyning besh mashhur tog‘idan biri — Xuashan tog‘i joylashgan.

KAKXUN

«DENGIZDAN SHARQDAGI MAMLAKAT MUNOSIB ROHIBLARINING KO‘RGAN-KECHIRGANLARI» DAN

KAKTOK

80-bet.

Ota-ona marhamatini rad etmoq — «tarki dunyo qilmoq» degan ma’noni anglatadigan majoziy ibora.

Yuqori davlat — Xitoy (qo‘shni vassal mamlakatlarga nisbatan).

Dengizning narigi tomonidagi yerlar — aftidan Sila nazarda tutiladi.

CHIMYON

82-bet.

Tedok (so‘zma-so‘z ma’nosi «o‘ta orombaxsh») — faxriy epiteta, sanskritcha *bxadanta* («orombaxsh etuvchi») muodili. Avval Buddaga nisbatan tatbiq etilgan, so‘ng rohiblarga hurmat izhori sifatida qo‘llanila boshlagan. Xitoyda rasmiy rohiblar unvoniga aylangan va koreyslar tomonidan o‘zlashtirilgan.

Sunshan — Xenan provinsiyasining Denfin uyezdidagi tog‘.

Xuashan — Szyansu provinsiyasining U uyezdidagi tog‘.

Szi Chja — podsho U o‘g‘li. Luda elchilik qilayotgan paytda Szi Chja chjou musiqasi ijrosini ko‘radi va davlatni boshqarish qonunlarini tushunadi.

Chju-ni — Konfutsiyning ikkinchi ismi.

Dan — Lao-szining ikkinchi ismi.

XERYUN

83-bet.

Min va Yue — Janubiy Xitoyda joylashgan knyazliklar.

Amaravati — bu mamlakat Hindistonning sharqiy qirg'og'ida, Kistna daryosi vohasida joylashgan.

Abxidxarmakosha (yoki «Abxidxarm qomusi») — buddaviy faylasuf Vasubandxu traktati bo'lib, unda buddizm falsafasi Xinayana to'liq va izchil bayon etilgan.

I-szin (635—713) — xitoylik taniqli ziyoratchi va buddizm adabiyotlari tarjimoni, «G'arbiy sarhadlarda Qonunni izlagan Buyuk Tan munosib rohiblarining ko'rgan-kechirganlari» muallifi.

IRYON

«UCH DAVLAT TARIXIGA QO'SHIMCHALAR»DAN

TIZGINLARDAN XALOS BO'LGAN VONXYO

90-bet.

Inpxi-gon va Chokte-gon — Sillada oqsuyaklarning vakillariga mulklar nomiga ko'ra berilgan zodagonlik unvonlari.

Nemal — o'n birinchi daraja unvon (darajalar jami o'n yettita bo'lgan).

Chansan — Kyonsan uyezd markazi (Shimoliy Kyonsando provinsiyasi)ning eski nomi.

«*Tan zohidlarining ko'rgan-kechirganlari*» — Xitoyda nashr etilgan, Tan davridagi mashhur buddaviy rohiblarning tarjimai hollari keltirilgan «Sun mashhur rohiblarining ko'rgan-kechirganlari» asari (X asr oxiri) bo'lsa kerak.

Xasandju — aftidan, Sandjudagi joy nomi bo'lsa kerak.

«*Lin-de*» — Tan imperatori Gaotszun (664—680)ning shiori.

Munmu-van — 661–680- yillarda hukmronlik qilgan Silla qiroli.

Sandju — Shimoliy Kyonsando provinsiyasidagi uyezd.

Xadju — Chxannyon uyezd (Janubiy Kyonsando)ning eski nomi.

Amnyangun — Kyonsan uyezdidagi Amnyan bo'lisi nomi.

Chain — shu uyezdagi bo'lis nomi.

Besh rangli bulutlar — xalq mifologiyasida: xushxabar keltiruvchi bulutlar bo'lib, unda umrboqiy zotlar harakatlanar emish.

«*Da-e*» — Suy sulolasiga mansub xitoy imperatori Yan-di shiori.

Txejon — Silla davlatining 654–660- yillarda hukmronlik qilgan qiroli.

Munchxon — Kyongido provinsiyasining Yanju uyezdidagi daryo.

Namsan — Seul shahri hududidagi kichik tog'.

«*Dengizdan sharqdagi mamlakat*» — o'rta asrlarda xitoyliklar Koreyani shunday deb atashgan. Dengiz deganda Sariq dengiz nazarda tutiladi.

«*Xuanszin*» *sutras*i («*Avatamsaka sutra*») — buddizm falsafiy asari bo'lib, VI–VII asrlarda xitoy buddizmining «Xuayan» mazhabi ta'limotiga asos bo'lgan; Xitoy va Koreyada o'rta asrlar falsafasining rivojiga ta'sir ko'rsatgan.

Punxvansa — Sillada 634-yil Liz Kyonju tomonidan asos solingan mashhur buddaviylar monastiri (Shimoliy Kyonsando).

Qirqinchi bosqichga yetdi... — buddizm ta'limotiga ko'ra, bodxisattva (avliyo) Budda holatiga erishguncha barkamollik sari ellik ikki bosqichdan o'tishi lozim.

«*Sanmeyszin*» — «Samadxi haqidagi sutra».

Teon (571–644) — Silla davlatida buddizmning buyuk rahnamalaridan biri bo'lib, Vonxyo uning va'zlarini eshitgan.

Madhiyabozlik (szan) — xitoy she'riyati turlaridan biri bo'lib, unda ma'lum, mashhur shaxs sha'niga hamd-sano o'qilgan.

SON XYON

«YONJE SHINGIL HIKOYALARI» TO‘PLAMIDAN

YANGLISHDI

99-bet.

Chonpxa — poytaxt Xanson (hozirgi Seul) yaqinidagi pochta bekati.

Kisen — o‘rta asrlarda Koreyada quyi tabaqaga mansub bo‘lgan professional mashshoq, qo‘shiqchi ayollar va raqqosalar.

Kayagim — Koreyada mashhur torli asbob.

Yanban (so‘zma-so‘z: «ikki bo‘lim») — noharbiy va harbiy mulozimlardan iborat imtiyozli dvoryanlar tabaqasi vakili.

O‘Z XOTINIGA JAZMAN BO‘LDI

100-bet.

...ayiq lahmi va qoplon murtagi... — qadimgi Koreyadagi anvoyi taomlar.

CHXON YO

«DENGIZDAN SHARQDAGI MAMLAKATDAN TURLI HIKOYALAR» TO‘PLAMIDAN

SANDIQ ICHIDAGI YALANG‘OCH CHEDOK

104-bet.

Chedok — provinsiyada quruqlikdagi va dengiz qo‘shinlari boshlig‘i.

Kyondju — Janubiy Kyonsandodagi yirik shahar.

LYU MON'IN

«OUNING ODDIY HIKOYALARI» TO'PLAMIDAN

108-bet.

Musa — harbiy amaldor.

Sonbi — olim, o'qimishli odam.

Milson, Sondju va *Sandju* — Shimoliy Kyonsando provin-siyasidagi uyezdlar va ularning markazlari nomlari.

«*Sodiq xotinga*» *arki* — qadimgi Koreyada konfutsiychilikka xos fazilatlar (bokiralik, ota-onaga hurmat va sh.k.)ni namoyon etishdagi alohida xizmatlari uchun o'rnak ko'rsatgan ayollarning uylari oldida tegishli yozuvli qizil arklar qurilgan.

O SUKKVON

«PXEGVAN USLUBIDAGI TURLI QAYDLAR» TO'PLAMIDAN

114-bet.

Yechjon — Li sulolasi qiroli, 1469 yilda hukmronlik qilgan.

Chjen-de — Min sulolasiga mansub xitoy imperatori U-szun hukmronligi yillari shiori (1506–1521).

Saniyvon — podshoni liboslar bilan ta'minlovchi palata.

Chunmyo — 1506-yildan 1544-yilgacha hukmronlik qilgan Li sulolasi podshosi Chunchjonning o'lganidan keyingi ismi.

LI KI

«SONVANING ARALASH HIKOYALARI» TO'PLAMIDAN

115-bet.

Sonbi — olim, o'qimishli odam.

Som — sochiluvchan jismlarning o'lchov birligi, taxminan 80 kg.

CHXA CHXONNO

«OSAN HIKOYALARI O'RMONI» TO'PLAMIDAN

116-bet.

Sonmyo — 1470—1494-yillarda hukmronlik qilgan podsho Sonchjonning o'limidan keyingi ismi.

LI TOKXYON

«BAMBUK DARCHA OLDIDA AYTILGAN HIKOYALAR» TO'PLAMIDAN

117-bet.

«*Sishu*» va «*Sinszin*» — Konfutsiy qonuni kitoblari. «*Sishu*» — «To'rt kitob»ga «*Men-szi*», «*Lunyuy*», «*Dasyue*» va «*Chjunyun*» kiradi. «*Sanszin*» — «Uch kitob» «*Shiszin*», «*Shuszin*» va «*Iszin*»ni o'z ichiga oladi.

Chinsa — imtihonda dastlabki uch o'rindan birini olgan shaxslarga berilgan ilmiy daraja.

NOMA'LUM MUALLIF

«BEKORCHILIKDA YOZILGAN KICHIK HIKOYALAR» TO'PLAMIDAN

AGAR BAMBUK SENIKI BO'LSA...

123-bet.

Chudjin — Shimoliy Kyonsando provinsiyasining Anpxyon uyezdidagi qishioq bo'lsa kerak.

Sonsen Un Su — dunyo kezib yuradigan buddaviy rohiblarning majoziy nomi bo'lib, tarjimada «Yugurayotgan bulutlar va tezoqar daryolar» degan ma'noni anglatadi. Bu yerda qahramonning laqabi sifatida ishlatilgan. *Sonsen* — muallim.

Kan — turarjoy maydoni birligi, 2,5 kv. m ga teng.

...*Tao Yuan-minga ergashib xrizantema o'stirar ekan...* — xrizantema — Tao Yuan-minning sevimli guli.

Chjou Mao-shu (Chjou Dun-i; 1017–1073) — xitoylik yirik mutafakkir, konfutsiychilik sunn falsafiy maktabining asoschilaridan biri; nilufar gullarini yaxshi ko'rgan.

Chjuan-szining «Uzoq umr ko'rish asoslari» — «Chjuan-szi» traktatining bobi.

Chjun Chjan-tunning «Ravnaqqa erishish haqidagi yaxshi nutqlari»—179–220-yillarda yashagan xitoy olimining traktati.

Anshan— Anxoy provinsiyasi (Xitoy)dagi tog'.

Lin Bu — XI asr xitoy shoiri.

Janob Li — aftidan, mashhur xitoy peyzajisti Li Si-syun (651–716) nazarda tutiladi.

Yuy va Juy — hozirgi Shansi provinsiyasida joylashgan kichik xitoy podsholiklari.

KIM SI SIP

«OLTIN TOSHBAQA TOG'IDA ESHITILGAN YANGI HIKOYALAR»DAN

SUZUVCHI LOJUVARD PAVILYONIDAGI MAST ODAM

127-bet.

Suzuvchi lojuvard pavilyoni (Pubyonnu) — Pxenyanda XII asrda qurilgan minora. 1951-yilgi urush paytida vayron qilingan.

Choson — qadimgi koreys qabilalari birinchi siyosiy uyushmasining nomi.

«*To'qqiz bo'limdan iborat ulug' reja*» — «Tarixiy rivoyatlar kitobi»dagi bob. Ushbu bobning to'qqiz bo'limida axloqiy me'yorlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qoidalari bayon etilgan.

Qaqnus minorasi (Ponxvande) — Pxenyanning janubi-g'arbiy qismidagi kuzatish maydonchasi.

To'rli orol (Ninnado) — Tedongan daryosidagi orol, Pxenyanda yaqinida joylashgan.

Yakkashox g'ori (Kiringul) — Suzuvchi lojuvard pavilyoni joylashgan tog' ostidagi g'or.

Osmonga Qaragan tog' (Chochxonsok) — Yakkashox g'oridan janubda joylashgan va bu g'orni Tedongan daryosidan ajratgan tog'.

Qadimgi Chxulam shahri — Pxenyandagi Chugun saroyi xarobalari.

Abadiy tiniqlik monastiri (Yonmyonsa) — Pxenyandagi to'qqiz qadimgi monastirlardan biri, IV asr oxirida sobiq Tonmyon-van saroyi o'rnida qurilgan; 1951-yilgi urush paytida vayron qilingan.

Li — uzunlik o'lchov birligi bo'lib, Koreyada 0,393 m ga teng.

Tedonmun darvozasi — Pxenyan qal'asida 1406-yilda qurilgan minorali sharqiy darvoza.

«*Oq bulutlar zinasi*» (Pegungyo) va «*Qora bulutlar zinasi*» (Chxon-ungyo) — Tonmyon-van davrida Suzuvchi lojuvard pavilyonidan janubda barpo etilgan ekan.

«*Osmonga itoat qilish davri*» (Tyan-shun) — xitoy imperatori Yan-szun (1457–1464) shiori.

Sogyon — Pxenyanning qadimgi nomi bo'lib, XI–XIII asrlarda Koryo davlatining «G'arbiy poytaxti» degan ma'noni anglatgan.

Pxegan — Tedongan daryosining qadimgi nomi.

Kidja ibodatxonasi — Pxenyanda 1105-yilda qurilgan.

Tangun ibodatxonasi — Pxenyandagi eng katta ibodatxonalardan biri.

Kumush daryo — Somon Yo'li.

Muqaddas himoya monastiri (Sinxosa) — Pxenyandagi Chxangvansan tog'ida qurilgan buddaviylar monastiri.

May tog'i (Chuam) — Pxenyan yaqinida, Tedongan daryosida joylashgan.

Chen Tan (milloddan avvalgi XVIII asr) — Xitoyda Shan-In sulolasining afsonaviy asoschisi.

Yashirin poytaxt — daosizm mifologiyasida umrboqiylar makoni.

Yashirin orollar — xitoy miflarida umrboqiylar yashovchi afsonaviy orollar.

Chan-e — xitoy miflarining o'z eri — mashhur mergan Idan obiy hayotni o'g'irlagan qahramoni.

Hayotning to'rt lazzati — yaxshi dam olish, tabiatdan bahra olish, lazzatlanish, yoqimli ishlar.

Gun-yuan va Chji-vey — Gun-yuan — xitoy afsungari Lo Gun-yuan taxallusi; Chji-vey — X asr xitoy olimi va xattoti Van Chjoning laqabi.

Vey podsholigi — Xitoyda 220–264-yillarda mavjud bo'lgan podsholik.

Kakchxok — qadimgi Koreyada tarqalgan she'r yozish bora-sidagi bellashuv.

Monmyok — Seuldagi Namsan tog'ining boshqa nomi.

Sushen — kelib chiqishiga ko'ra tungus bo'lgan, Shimoli-sharqiy Xitoyda yashagan ko'chmanchi qabilalar.

Lan'-syan — xitoy mislaridagi osmonda yashovchi Du Lan-syan bo'lsa kerak. Ayblari uchun u odamlar dunyosiga quvg'in qilingan, lekin keyinchalik osmon xudolari uni avf etishgan.

Konxu — arfaga o'xshash koreys cholg'u asbobi.

Changyonmun — Pxenyan qal'asining sobiq sharqiy darvozasi.

LIM CHJE

«KEMA OSTIDAGI SICHQON»

(parchalar)

147-bet.

Cha — o'lchov birligi, 3,3 sm ga teng.

Chxi — o'lchov birligi, 3,3 sm ga teng.

Qirol omborxonasi — qurg'oqchilik yoki tabiiy ofat yuz berganda foydalanish uchun mo'ljallangan daxlsiz don zaxiralari saqlangan hukumat ombori.

Som — sig'im o'lchov birligi sifatidagi qop, taxminan 80 kg ga teng.

...qadimgi shoirlar men haqimda «Shiszin»da yozishgan... — qadimgi xitoy «Qo'shiqlar kitobi»ning Vey podsholigi qo'shiqlari bobida «Katta sichqon» she'ri bor va unda ochko'z sichqon haqida so'z yuritiladi.

Barkamol zot mening nomimni «Liszi»da tilga olgan— Konfutsiy tomonidan yaratilgan deb taxmin qilinadigan «Marosimlar kitobi» (taxminan miloddan avvalgi IV asr) nazarda tutiladi.

Yetti teshik (boshda) — koʻzlar, quloqlar, burun teshiklari va ogʻiz.

Osmon oʻgʻli — Xitoyda imperatorni Osmonga qurbonlik keltirgani uchun shunday atashgan.

...ashulasini boshlaydi: «Orqaga qaytgan maʼqul!» — xitoy afsonasiga koʻra, Shu podshosi oʻz aʼyonlaridan birining fazilatlaridan hayratga tushib, hokimiyatni unga topshiradi va oʻzi togʻlarga bosh olib ketadi, shu yerda ikkinchi oy, kakkular kukulayotgan pallada vafot etadi. Shundan beri kakku kukulaganda Shu podshosining ruhi yigʻlayapti, deb aytish odat tusini olgan.

Besh munosabat — konfutsiychilik taʼlimotining negizini tashkil etadigan kishilar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar: podsho va fuqarolar, ota-ona va farzandlar, oilada kattalar va kichiklar, er-xotin, doʻstlar oʻrtasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Luan — xitoy afsonalaridagi qush boʻlib, umrboqiy zotlar uni minib yurishgan.

Pen — xitoy afsonalaridagi ulkan qush.

XO GYUN

XON GILDON HAQIDA QISSA

197-bet.

Sedjon — Koreyada 1418–1450-yillarda hukmronlik qilgan maʼrifatli podsho.

...davlat imtihonlaridan oʻtib, xizmatlari evaziga unvonlar palatasi boshligʻi lavozimiga erishibdi — Koreyada 958-yildan boshlab joriy etilgan unvon (harbiy yoki noharbiy) uchun davlat imtihonlari tizimi. Unvonlar palatasi — oʻrta asrlar Koreyasidagi olti palata (vazirlik)dan biri, noharbiy mulozimlarni tayinlash va bir lavozimdan boshqa lavozimga oʻtkazish bilan shugʻullangan.

...chumolilar podsholigi Nanke haqidagi tushga o'xshash!— g'aroyib tushning majoziy ifodasi, xitoy yozuvchisi Li Gun-szo (VIII–IX asrlar)ning «Nanke hokimi» novellasiga borib taqaladi.

Chan Chxunning o'g'li Kilsan — ChanChxun deganda Silla podsholigining 659-yil Pekche bilan jangda jasorat ko'rsatgan sarkardasi nazarda tutilgan bo'lsa kerak.

Koksan — Shimoliy Xvanxedo provinsiyasidagi uyezd.

«*Olti reja*» («Lyutao») — qadimgi xitoyda harbiy san'at haqidagi kitob. «Uch taktika» («San-lyue») — afsonaviy Xuan Shi-gun tomonidan yaratilgan deb aytiladigan xitoy harbiy traktati; VI–VII asrlarda yaratilgan.

«*O'zgarishlar kitobi*» («Iszin») — konfutsiychilik qonunining miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda tuzilgan eng qadimgi kitoblaridan biri. Undan fol ochishda ham foydalanilgan.

Qaroqchilar deb feodal Koreyada ma'murlarga qarshi chiqqan isyonchilarni atashgan.

Kin — vazn o'lchov birligi, taxminan 600 grammga teng.

Xapchxon uyezdidagi Xeinsa monastiri... — Koreyaning uch yirik monastiridan biri. 802-yil Janubiy Kyonsando provinsiyasidagi Kayasan tog'ida barpo etilgan.

Koreyaming sakkiz provinsiyasi — XV asrda Koreya sakkiz provinsiyaga bo'lingan, hozir ularning soni o'n yettita.

Xamgyondo — Koreyaning shimoli-sharqidagi provinsiya, hozir Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'lingan.

Qidiruv mahkamasi — o'rta asrlarda Koreyada poytaxtda va provinsiyalarning markazlarida qaroqchilarni ushlash uchun qidiruv mahkamalari tashkil etilgan. Ular ikki — o'ng va so'l departamentlarga bo'lingan.

Chi-yu — xitoy afsonalari personaji, u yarim xudo yoki yarim inson sifatida tasvirlangan.

Mugngyon — Shimoliy Kyonsando provinsiyasidagi qishloq nomi.

Shamollar oroli— buddizim ta'limotidagi ko'p sonli yer osti podsholiklaridan biri.

...*Janubiy poytaxt sari uchib ketibdi. Gildon dunyo kezib yurib Yuldoguk yurtiga borib qolibdi*— ilgari Koreyada Janubiy poytaxt

deb Seulni atashgan, lekin bu yerda Min sulolasi davrida 1368–1403-yillarda Xitoy poytaxti bo'lgan Nankin shahri nazarda tutiladi. Yuldoguk – tog'li orolda vujudga kelgan va ravnaq topgan o'lkaga aylangan afsonaviy mamlakat.

Chedo – go'yoki Xitoyning Janubiy poytaxti yo'lida joylashgan uydirma orol.

Xangan daryosi – Markaziy Koreyaning eng sersuv daryosi. Uning qirg'og'ida Seul shahri joylashgan.

Sogan kechuvi – Xangan daryosining tepa qismida joylashgan.

Mantanshan tog'iga yo'l Lochuan uyezdining yerlari orqali o'tar ekan – Mantanshan tog'i Xitoyda, Szyansu va Xenan provinsiyalari chegarasida joylashgan. Bu tog'da go'yoki sharbati o'qlarga surkash uchun zahar bo'lib xizmat qilgan o'simliklar o'sgan emish.

Chjao Te – Bo-lun singari uydirma personaj.

Oq ajdarning qizi birinchi xotin, Chjao Tening qizi esa – ikkinchi xotin bo'libdi – o'rta asrlar Koreyasida erkak hir nechta xotinga uylanishi mumkin bo'lgan, ularning orasida birinchi xotin uyda sardor hisoblangan.

...Oy cho'qqisiga ko'tarilib, dafn etish uchun yaxshi joyni tanlabdi – Oy cho'qqisi (koreyscha Volbonsan) uydirma tog' bo'lsa kerak. Qadimda Uzoq Sharq mamlakatlarida fol ochish usuli – geomantiya tarqalgan bo'lib, uning yordamida qabr, uy, monastir va boshqa inshootlarni qurish uchun yaxshi joyni aniqlash mumkin, deb hisoblangan.

Uch yilni u azada o'tkazibdi – qadimgi Koreyada o'g'il otasi yoki onasiga uch yil aza tutgan. Bu davrda amaldorlar xizmatdan ozod qilinganlar.

«*Kapcha*» yili – bu yerda 1444-yil.

«*Il'chxuk*» yili – bu yerda 1445-yil.

...chillak o'ynovchining qo'shig'ida kuylanadigan Yao va Shun... – chillak o'ynovchining qo'shig'ida afsonaviy xitoy podsholari – Yao va Shunning yalpi farovonlik davrida hukmronlik yillari madh etiladi.

Fen'yanlik Go (Go Szi-i; 697–781) – xitoylik mashhur sarkarda, oilasi ko'p sonli bo'lgani uchun «yuz o'g'il va ming nevara otasi» deb atalgan.

...aso ko'targan, boshiga qalpoq, egniga turna patlaridan ko'ylak kiygan bir chol — daos zohidi nazarda tutiladi.

NOMA'LUM MUALLIF

SADOQATDA TENGI YO'Q CHXUNXYAN HAQIDA QISSA

373-bet.

Indjo — 1623—1649-yillarda hukmronlik qilgan Koreya qiroli.

Li sulolasi — Koreyada 1392—1910-yillarda hukmronlik qilgan.

Du Mu (803—852) — xitoy shoiri; o'z chiroyi bilan dong qozongan.

Pxenyandagi Pubyonnu minorasi — Suzayotgan lojuvard pavilyoni.

Chindjudagi Chxusonnu minorasi — Chxoksonnu minorasi nazarda tutiladi. Chindju — Janubiy Kyonsando provinsiyasidagi shahar.

Kannindagi Kyonpxode ayvoni... Kansondagi Chxongandjon shiyponi... — bu yerda Kanvondo provinsiyasining Yapon dengizi sohilida va tegishli uyezdlarda joylashgan diqqatga sazovor sakkiz joyi sanab o'tilgan bo'lib, ularning faqat ikkitasi o'z nomiga ko'ra hozirgi joylarning nomlari bilan mos kelmaydi (Kogyon hozir Koson deb, Pxyonxva — Pxyonxe deb ataladi).

Kvanxallu minorasi (Kenglik va salqinlik kulbasi) — XV asrda Shimoliy Chollado provinsiyasidagi Namvon shahrida qurilgan minora.

Szyannan (Yansziszyan daryosidan janubdagi yer) — Xunan provinsiyasi (Xitoy)ning eski nomi.

Yueyan minorasi — Xunan provinsiyasining shimolidagi Duntinxu ko'li yaqinidagi minora.

Qaqnuslar ayvoni — Szyansi provinsiyasi (Xitoy) shimolidagi Szinlin uyezdida joylashgan ayvon.

Sariq turna minorasi — Xubey provinsiyasi (Xitoy)dagi minora.

Gusu ayvoni — Szyansu provinsiyasida (Xitoy)dagi Gusushan tog'ida joylashgan ayvon.

Beshinchi oyning beshinchi kuni — Koreyada bahorgi dala ishlar yakuni bilan bog'liq an'anaviy bayram.

To'qqiz irmoq — Koreyadagi eng go'zal joylardan bir (Shimoliy Chollado provinsiyasida), yirik mutafakkir va shoir L I (Yulgok; 1536–1584) tomonidan madh etilgan.

Kunlun tog'lari — maydalash paytida jarangdor tovuş chiqargan nefrit qazib olingan tog'lar.

Damin saroyi — VII asrda Xe-bey provinsiyasi (Xitoy)da qurilgan saroy.

Olti to'y marosimi — konfutsiychilik an'anasiga ko'ra, Xitoy va Koreyada nikoh marosimlari quyidagilardan iborat bo'lgan: 1) og'iz solish paytida kuyovdan kelinga sovg'alar taqdim etish; 2) nasl-nasabini surishtirish; 3) kelin-kuyovning bo'lg'usi taqdiridan fol ochilganidan so'ng unashish alomati sifatida kelinga sovg'alar taqdim etish; 4) nikoh o'qilganidan so'ng kelinga sovg'alar taqdim etish; 5) to'y muddatini taymlash; 6) kuyovning kelinni olgani borishi.

«Osmon — chxon, yer — chi..». — «Mingso'zlik»dan boshlang'ich so'zlar. Keyingi o'rinlarda konfutsiychilikning muqaddas kitoblari — «O'zgarishlar kitobi», «Tarixiy rivoyatlar kitobi», «Marosimlar kitobi», «Buyuk ta'limot», «Suhbatlar va mulohazalar», «Men-szi»dan iqtiboslar keltirilgan.

«Osmon» iyeroglifi «katta» iyeroglifga aylanibdi... — bu yerda va keyingi o'rinlarda yo yozilishiga ko'ra, yo talaffuziga ko'ra o'xshash bo'lgan xitoy iyerogliflari payrov qilinadi.

Yetti yillik qurg'oqchilik — xitoy podshosi Chen Tan davridagi kuchli qurg'oqchilik bo'lib, bu davrda u iltijolar bilan Osmondan yomg'ir so'rab olgan ekan.

To'qqiz yillik buyuk suv toshqini — Xitoydagi suv toshqini bo'lib, uni afsonaviy podsho Yuy jilovlagan.

Syanchi — xitoy afsonalaridagi oy bo'lib, har tong quyosh unda yuvinar ekan.

Pensze okrugi hokimi... — buyuk xitoy shoiri Tao Yuan-min qirq bir yoshga to'lganda o'zining oxirgi lavozimi — Pensze okrugi (Szyansi provinsiyasida) boshlig'i lavozimida uch oycha bo'lib, so'ng xizmatni butunlay tark etgan ekan.

«*Uch podsholik*» – xitoy yozuvchisi Lo Guan-chjun (1330—1400-yillar atr.)ning mashhur romani. Bu roman epizodlari va qahramonlari ko‘pincha xitoy va koreys yozuvchilari, rassomlari, baxshilari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan.

...*Lyu Syuan-de ustozi Vo-lunni ko‘rgani...ketayotgani...* – «*Uch podsholik*» romanidan bir epizod.

Sonpxyon – guruch unidan ichiga loviya yoki kashtan solib tayyorlanadigan chuchvara.

Hayotbaxsh suvga // xanlik U-di ham shod bo‘lgan – go‘yoki xitoy imperatori U-di uchun shudring va yashma talqoni qorishmasidan tayyorlangan obi hayot nazarda tutiladi.

Lo ko‘prigi – Xuanxe daryosi (Xitoy) irmog‘i – Lo daryosi ustida qurilgan ko‘prik.

To‘qqiz irmoq – qadimgi xitoy aqidalariga ko‘ra, narigi dunyo.

In‘-Yan daryosi – ikki asos – Yaxshilik va Yomonlik kuchiarining tuganmas manbasi.

Kimson qandog‘ochi – Kanvondo provinsiyasidagi Kimsonda o‘sgan qandog‘och.

Kimgansan tog‘lari – Koreya yarimorolining sharqiy qirg‘oq‘idagi xushmanzara Olmos tog‘lari.

...*Yan ismli bittasi bor... bitta ham qo‘y yo‘q...* – so‘z o‘yini. «Yan» nasab belgisi talaffuz jihatidan «Chxunxan» ismining qo‘shimchasi va koreycha «qo‘y» (yan) so‘zi bilan mos keladi.

Chxonpxa – Seul yaqinidagi sobiq pochta bekati.

Bronza chumchuq manzilgohi (Tondjokchon) – poytaxt yaqinidagi dalalar nomi bo‘lib, ulardan qirolning o‘zi o‘tkazadigan qurbonlik marosimlari uchun hosil yig‘ib olingan.

Sinsuvon – Kengido shahridagi qadimgi Suvon shahri.

Omve – Kengido provinsiyasidagi Anson yaqinida joylashgan Surisan tog‘i bo‘lsa kerak.

Sannyuchxon va *Xaryuchxon* – Sariq dengizga quyiladigan Ansonchxon daryosi irmoqlari.

Chinviip – Kyongido provinsiyasidagi Pxyontxek uyezd shah-rining eski nomi.

Chxirvon – Kengido va Janubiy Chxunchxondo provinsiyalari chegarasidagi sobiq pochta bekati.

...*Szinshan tog'idagi qimmatbaho nefrit*... — xitoy rivoyatiga ko'ra, Szinshan tog'ida qadim zamonlarda oq rangli g'aroyib nefrit topilgan ekan.

...*chjoulik mashhur Ven-van Yuli zindonida o'tirgan*... — Ven-van taxtga minishdan oldin In podshosi Chjou-van qarshisida tuhmatga uchragan va Yuli qal'asiga zindonband etilgan, do'stlari haq to'lab uni chiqarib olishgan ekan.

Sakkiz anvoyi taom — ya'ni xitoy imperatori dasturxoniga tortilgan anvoyi taomlar: ayiq soni, bug'u dumi, o'rdak tili, ilonbaliq iknasi, tuya o'rkachi, maymun labi, zog'orabaliq dumi va buqa miyasi.

Chinni kosadagi shudring — xitoy imperatori U-diga obi hayot tayyorlash uchun shudring yig'ilgan kosaga ishora.

Yukchi matosi — XV asr o'rtalarida Koreyaning shimoliy chegarasi bo'ylab ko'chmanchilar hujumidan saqlanish uchun qurilgan olti qal'a aholisi to'qigan mato.

Nan'yanda ko'rilgan tush — o'ngidan keladigan tush sinonimi. Chjuge Lyan («Uch podsholik» asari qahramonlaridan biri) mashhur strateg bo'lishdan oldin o'z taqdiridan Nanyanda zohid bo'lib yashayotgan paytda ko'rgan tushi orqali xabar topgan ekan.

Shao Kan-sze (Shao Yun; 1011–1073) — yirik xitoy mu-tafakkiri.

Chjoulik Shao-gun (miloddan avvalgi XII–XI asrlar) — Xitoy shimolidagi Yan podsholigining oqil podshosi.

Li Chun'-fen (VII asr) — xitoylik taniqli munajjim.

Chjuge Kun-min — Chjuge Lyanning ikkinchi ismi.

«*To'ri kitob*», «*Uch kitob*» — konfutsiychilik qonuni kitoblari jamlangan to'plamlar.

«*Tanlik yuz shoir*» — VII–X asrlar xitoy shoirlari antologiyasi; Van An-shi tomonidan tuzilgan deb taxmin qilinadi.

Li Tay-bo — xitoy shoiri Li Bo taxallusi.

Lyu Szun-yuan (773–819) — taniqli xitoy yozuvchisi.

...*har bir satrni qizil doira bilan, har bir iyeroglifni esa — nuqta bilan belgilabdi* — imtihon oluvchilar insholarda o'zlariga yoqqan joylarni qizil siyoh bilan belgilaganlar.

Nefrit zina — qirol saroyining majoziy belgisi.

Uch janubiy provinsiya — eski Koreyadagi provinsiyalar: Chxunchxopdo, Chollado va Kyonsando nazarda tutiladi.

Sunnemun darvozasi va undan keyingi joy nomlari — Seuldan janubda, Namvonga olib boruvchi yoʻlda joylashgan geografik obyektlar.

...*Shun...* *Lishan togʻida yerni oʻzi yumshatarkan* — xitoy rivoyatiga koʻra, oʻgay onasi uydan quvib yuborganidan soʻng Shun Lishan togʻida yer shudgorlagan ekan. Podsho Yao Shuning fazilatlaridan xabar topib, unga taxtni boʻshatib beribdi.

Shen-nun (Ilohiy ziroatchi) — odamlarni ziroatchilikka oʻrgatgan afsonaviy xitoy podshosi.

«*Togʻlardagi gullar*» — Koreyada dehqonlarning qadimgi qoʻshigʻi; sholizorda ishlash paytida aytilgan.

Xansu — Xangan daryosining oʻrta oqimi nomi.

Kyol — feodal Koreyada yer maydonining oʻlpon solinadigan oʻlchovi; 0,8 dan 3,4 ga gacha boʻlgan.

Chao-fu va *Syuy-yu* — xitoy donishmandlari.

E-xuan va *Nyuy-in* — afsonaviy Shunning xotinlari. Beva qolgach, hasratdan oʻzlarini Syan daryosiga tashlashgan.

Ma-gu — xitoy mifologiyasida oʻtlar va gullar parisi, Tayshan muqaddas togʻida yashagan.

Sukxyan — koreyalik nomaʼlum muallif qissasining hayotga koʻp musibatlariga yoʻliqqan qahramoni.

Ipchxum — Koreyada keng tarqalgan shoʻx raqslardan biri.

Yut — koreyslarning qimor oʻyini, oshiq oʻyinini eslatadi.

Unbon — Namvon uyezdidagi boʻlis.

Chjou-sinlan — Sun davrida yashagan konfutsiychi avliyo Chjou Lyan-si boʻlsa kerak.

Xegim — koreys cholgʻu asbobi; gʻijjakka oʻxshaydi.

Xan Sin (miloddan avvalgi 196-yilda vafot etgan) — xitoy sarkardasi, Xan imperatori Gao-szuning safdoshi. Rivoyatlarga koʻra, u bolaligida qashshoq boʻlgan. Shahar devori yonidagi koʻlda baliq ovlayotganda kirchi xotinlardan biri unga ovqat bergan. Mashhur boʻlib ketgach, u kirchi xotinni taqdirlagan.

Syuy Yuan (miloddan avvalgi 340–287-yillar) — buyuk xitoy vatanparvar shoiri; tuhmatga chidayolmay, oʻzini Milo daryosiga tashlagan.

TUSTOVUQ VOQEASI

417-bet.

Yashma imperatori — daosizmdagi oliy ilohi.

Amnokkan — Xitoy va Koreya chegarasidagi daryo.

O'rt a tekislik mamlakati — Xitoyning nomlaridan biri.

Sariq podsho (Xuan-di) — Xitoy afsonaviy imperatori.

Venshu — Xan imperatori Guan-di.

Tay-szun — Tan sulolasi imperatori.

Nami Amitxa-Budda — g'arb Buddasi Amitabega murojaat.

Guan Yuy (Guan Yunchan) — Uch podsholik davri sarkardasi.

To'rt baxtli sana — kelin va kuyov tug'ilgan yil, oy, kun va soat bo'lib, ularga ko'ra goroskop tuziladi.

PAK CHI VON

«JEXEY KUNDALIGI»DAN

YO'LBARSNING JAVOBI

455-bet.

Feyvey hamda xayoliy hayvonlarning boshqa nomlarini muallif xitoylarning «Tog'lar va dengizlar kitobi» («Shan-xayszin»)dan o'zlashtirgan (miloddan avvalgi VI–II asrlar).

Yo'lbars yegan birinchi odamning ruhi — qadimgi xitoylar va koreyslarning aqidalariga ko'ra, yo'lbars yegan odamning ruhi yo'lbarsning ichiga kirib o'rnashadi va uning yordamchisiga aylanadi (yo'lbarsni odamlarga yo'liqtiradi va sh.k.).

Dumi... peshonasida! — muallif inanchjurlar 1644-yilda Sin (manchjur) sulolasi taxtni egallashi bilan butun Xitoyda joriy etgan xunuk soch turmagiga ishora qiladi.

«*Szinsan*» — ipak qurtining bir turi.

Janob Bey-go (Lyao Fu) — Sharqiy Xan davri (25–220-yillar)da yashagan xitoylik olim.

Szyuan — xitoylar kitobidagi bob (o'ram).

Dun-li — miloddan avvalgi VI asrda yashagan xitoy siyosatchisi va konfutsiychi Gunsun Syao bevasining laqabi bo'lib, unga

marhum eri yashagan Chjen podsholigining poytaxtidagi Dunli dahasi nomiga ko'ra berilgan.

...imperatorlar sizdan qadam tashlashni o'rganishadi... — yo'lbars dovyuraklik timsoli hisoblangani bois, qadimda imperatorning qadam tashlashini yo'lbarsning qadam tashlashi bilan taqqoslashgan.

Sizning ismingiz muqaddas ajdar ismi bilan teng... — Uzoq Sharq mamlakatlarida ajdar — imperator darajasi timsoli.

...kesilgan oyoqlari, yuzidagi tamg'alari buni isbotlaydi — jinoyat qonunlariga ko'ra, feodal Xitoy va Koreyada konfutsiychilik me'yorlarini jiddiy buzgan shaxslar og'ir jazoga tortilgan, shu jumladan tovonlariga bambuk tayoqlari bilan urilgan va yuziga jinoyatni ifodalovchi tamg'alar bosilgan.

Biringiz esa, sarkarda lavozimini egallash uchun hatto o'z xotinini o'ldirgan! — qadimgi xitoy sarkardasi U Siga ishora (U-szi; miloddan avvalgi 381-yilda vafot etgan); u harbiy mansab pillapoyalaridan ko'tarilish uchun o'z xotinini o'ldirgan.

...chumoli tuxumlarini... iste'mol qilishadi — qadimda chumoli tuxumlaridan achitqi sifatida foydalamlilgan.

...Shansi viloyatida bo'lgan kuchli qurg'oqchilik paytida... — ya'ni 1779-yil Xitoyning Xuanxe daryosi o'rta oqimida joylashgan Shansi provinsiyasida.

...Shandun viloyatida yuz bergan suv toshqini paytida... — ya'ni XVIII asr 80-yillari boshida Xitoy sharqidagi Shandun provinsiyasida.

«Bahorlar va Kuchlar davri» (Chunsyu) — Xitoy tarixida miloddan avvalgi 722–481-yillar bo'lib, bu davrda mamlakatda bir nechta qudratli podsholiklar hokimiyat uchun uzluksiz kurash olib borganlar.



MUNDARIJA

KIRISH	3
I. QADIMGI G'OYALARNING ABADIY HAYOTI	10
KLASSIK KOREYS ADABIYOTI	10
ILK ADABIYOT. UCH PODSHOLIK VA SILLA DAVRI (X asrgacha)	10
1. Afsona va rivoyatlar	19
«Tangun haqida afsona»	19
«Pak Hyokosse haqida afsona»	20
«Qirol Kim Suro haqida afsona»	22
«Yen O Rang va Se O Hyo»	28
«Osmon va Oy o'g'li Tonmyon-van»	29
«Koguryo solnomalari. Van Temusin. O'n beshinchi yil. Shahzoda Xodon qissasi»	33
«Ondal»	34
«Sol xonim»	37
«Sol Chxon va «Gullar podshosiga ogohlantirish»	39
2. Esse	42
Che Chi Von. «Isyonchi Xvasonga maktub»	43
3. Tarixchilarning solnomalaridagi epik an'ana	46
«Kvangetxo-van yodgorlik toshi»dagi bitik	46
II. KORYO SULOLASI ADABIYOTI (X–XIV asrlar)	48
Birinchi davr (X asrning birinchi yarmi – XII asr)	48
1. Nafis nasr – allegoriya, soxta (to'qima) biografiya	51
Lim Chxon. «Denga haqida hikoyat»	51
Li Gok. «Bambuk xonim»	56
«Kuksun haqida qissa»	59
«Dono Qulmoq»	62
Ikkinchi davr (XII asr oxiri – XIV asr boshi)	68
1. Pxesol to'plamlaridan	68
Li Inno. «Bekorchilikdan	68
Chxve Cha. «Bekorchilikdan» to'plamiga qo'shimchalar	70
Li Gyubo. «Osoyishtalik yillari haqida tinchlik hikoyalari»	72
«G'aroyib bashoratchi (aytib beruvchi)» to'plamidan	72
«Porani yeb qo'ygan sigir»	72
«Ko'zgu»	74
««Du» solnomasida yozilgan «Singan ko'za» hikoyasini tanqid qilaman»	75
Zohid Sigyon. «Xizmatkor mix»	77
2. Tarixiy nasr	80
Kakxun. «Dengizdan sharqdagi mamlakat munosib rohiblarining ko'rgan-kechirganlari»	80
«Kaktok»	80
«Chimyon»	81
«Xeryun»	83

Iryon. «Qirq sakkizinchi podsho Kyonmun-Tevan»	84
«O'n ming to'liqinni tinchlantiradigan sibizg'a»	86
«Naksan tog'idan kelgan ikki ulug' donishmand va Bodxisattva Kvanim»	89
«Tizginlardan xalos bo'lgan Vonxyo»	90

III. CHOSON (LI) SULOLASI DAVRI ADABIYOTI (XV–XIX asrlar) 95

Birinchi davr (XV–XVI asrlar) 95

1. <i>Pxesol to'plamlaridan</i>	99
Son Xyon. «Yonje shingil hikoyalari» to'plamidan	99
«Yanglishdi»	99
«O'z xotiniga jazman bo'ldi»	100
«Bir savat tuproq»	101
Chxon Yo. «Dengizdan sharqdagi mamlakatdan turli hikoyalar» to'plamidan	103
«Sandiq ichidagi yalang'och chedok»	103
Lyu Mon'in. «Ouning oddiy hikoyalari» to'plamidan	108
O Sukkvon. «Pxegvan uslubidagi turli qaydlar» to'plamidan	114
Li Ki. «Sonvanmg aralash hikoyalari» to'plamidan	115
Chxa Chxonno. «Osan hikoyalari o'rmoni» to'plamidan	116
Li Tokxyon. «Bambuk darcha oldida aytilgan hikoyalar» to'plamidan	117
Kang Xi Myong. «Chxondam Xei»dan rivoyat	118
«Ota nasihati»	121
Noma'lum muallif. «Bekorchilikda yozilgan kichik hikoyalar» to'plamidan	123
«Agar bambuk seniki bo'lsa...»	123
2. <i>Kichik nasriy asarlar</i>	127
Kim Si Sip. «Oltin toshbaqa tog'ida eshtilgan yangi hikoyalar»dan	127
«Suzuvchi lojuvard pavilyonidagi mast odam»	127
Lim Chje. «Kema ostidagi sichqon»	147

Ikkinchi davr (XVII–XVIII asrlar) 159

1. <i>Koreys an'anonimiy romani</i>	161
Kim Manchjun. «To'qqiz kishining bulutli tushi»	161
Che Su. «Sol Kon Chan haqida qissa»	192
2. <i>Klassik koreys qissasi — sosol</i>	197
Xo Gyun. «Xon Gildon haqida qissa»	197
«Quyoning sarguzashtlari»	233
«Chanxva va Xonnyon»	271
«Xinbu va Nolbu»	294
«Sim Chong haqida qissa»	347
«Chxo'ng Chi va Pxat Chi haqida hikoya»	352
«Xo Seng qissasi»	361
«Pak Xonim haqida qissa»	368
Noma'lum muallif. «Sadoqatda tengi yo'q Chxunxyan haqida qissa»	373
«Tustovuq voqeasi»	415
«Malika Bari»	428

Uchinchi davr (XIX asr oxirigacha) 446

1. <i>Esse va kundaliklar</i>	446
Pak Chivon. «Xitoy kundaligi»dan	446

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. QADIMGI G'OYALARNING ABADIY HAYOTI	10
KLASSIK KOREYS ADABIYOTI	10
ILK ADABIYOT. UCH PODSHOLIK VA SILLA DAVRI (X asrgacha)	10
1. Afsona va rivoyatlar	19
«Tangun haqida afsona».....	19
«Pak Hyokosse haqida afsona».....	20
«Qirol Kim Suro haqida afsona».....	22
«Yen O Rang va Se O Hyo».....	28
«Osmon va Oy o'g'li Tonmyon-van».....	29
«Koguryo solnomalari. Van Temusin. O'n beshinchi yil. Shahzoda Xodon qissasi».....	33
«Ondal».....	34
«Sol xonim».....	37
«Sol Chxon va «Gullar podshosiga ogohlantirish».....	39
2. Esse	42
Che Chi Von. «Isyonchi Xvasonga maktub»	43
3. Tarixchilarning solnomalaridagi epik an'ana	46
«Kvangetxo-van yodgorlik toshi»dagi bitik.....	46
II. KORYO SULOLASI ADABIYOTI (X–XIV asrlar)	48
Birinchi davr (X asrning birinchi yarmi – XII asr)	48
1. Nafis nasr – allegoriya, soxta (to'qiuna) biografiya	51
Lim Chxun. «Denga haqida hikoyat»	51
Li Gok. «Bambuk xonim»	56
«Kuksun haqida qissa».....	59
«Dono Qulmoq».....	62
Ikkinchi davr (XII asr oxiri – XIV asr boshi)	68
1. Pxesol to'plamlaridan	68
Li Inno. «Bekorchilikdan	68
Chxve Cha. «Bekorchilikdan» to'plamiga qo'shimchalar	70
Li Gyuh. «Osoyishtalik yillari haqida tinchlik hikoyalari»	72
«G'aroyib bashoratchi (aytib beruvchi)» to'plamidan.....	72
«Porani yeb qo'ygan sigir».....	72
«Ko'zgu».....	74
«Du» solnomasida yozilgan «Singan ko'za» hikoyasini tanqid qilaman».....	75
Zohid Sigyon. «Xizmatkor mix»	77
2. Tarixiy nasr	80
Kaxxun. «Dengizdan sharqdagi mamlakat munosib rohiblarining ko'rgan-kechirganlari»	80
«Kaktok».....	80
«Chimyon».....	81
«Xeryun».....	83

Iryon. «Qirq sakkizinchi podsho Kyonmun-Tevan»	84
«O'n ming to'liqinni tinchlantiradigan sibizg'a»	86
«Naksan tog'idan kelgan ikki ulug' donishmand va Bodxisattva Kvanim»	89
«Tizginlardan xalos bo'lgan Vonxyo»	90

III. CHOSON (LI) SULOLASI DAVRI ADABIYOTI (XV–XIX asrlar) 95

Birinchi davr (XV–XVI asrlar) 95

1. Pxesol to'plamlaridan	99
Son Xyon. «Yonje shingil hikoyalari» to'plamidan	99
«Yanglishidi»	99
«O'z xotiniga jazman bo'ldi»	100
«Bir savat tuproq»	101
Chxon Yo. «Dengizdan sharqdagi mamlakatdan turli hikoyalar» to'plamidan	103
«Sandiq ichidagi yalang'och chedok»	103
Lyu Mon'in. «Ouning oddiy hikoyalari» to'plamidan	108
D Sukkyon. «Pxegvan uslubidagi turli qaydlar» to'plamidan	114
Li Ki. «Sonvaning aralash hikoyalari» to'plamidan	115
Chxa Chxonno. «Osan hikoyalari o'rmoni» to'plamidan	116
Li Tokxvon. «Bambuk darcha oldida aytilgan hikoyalar» to'plamidan	117
Kang Xi Myong. «Chxondam Xei»dan rivoyat	118
«Ota nasihati»	121
Noma'lum muallif. «Bekorchilikda yozilgan kichik hikoyalar» to'plamidan	123
«Agar bambuk seniki bo'lsa...»	123
2. Kichik nasriy asarlar	127
Kim Si Sip. «Oltin toshbaqa tog'ida eshitilgan yangi hikoyalar»dan	127
«Suzuvchi lojuvard pavilyonidagi mast odam»	127
Lim Chje. «Kema ostidagi sichqon»	147

Ikkinchi davr (XVII–XVIII asrlar) 159

1. Koreys an'anonimiy romani	161
Kim Manchjun. «To'qqiz kishining buluthi tushi»	161
Che Su. «Sol Kon Chan haqida qissa»	192
2. Klassik koreys qissasi — sosol	197
Xo Gyun. «Xon Gildon haqida qissa»	197
«Quyoning sarguzashtlari»	233
«Chanxa va Xonnyon»	271
«Xinbu va Nolbu»	294
«Sim Chong haqida qissa»	347
«Chxo'ng Chi va Pxat Chi haqida hikoya»	352
«Xo Seng qissasi»	361
«Pak Xonim haqida qissa»	368
Noma'lum muallif. «Sadoqatda tengi yo'q Chxunxvan haqida qissa»	373
«Tustovuq voqeasi»	415
«Malika Bari»	428

Uchinchi davr (XIX asr oxirigacha) 446

1. Esse va kundaliklar	446
Pak Chivon. «Xitoy kundaligi»dan	446

«Yuysyada kechqurun aytilgan hikoyalar»	446
«Pangyon pavilyonidagi norasmiy tarjimai hollar» to'plamidan	450
«Saxovatli hojatxona tozalovchi haqida hikoya»	450
«Jexey kundaligi»dan. «Yo'lbarsning javobi»	454
Xong Manjong. «Kitobda pul bo'lsa gar...»	461
«Aldangan bola»	464
«Nomsiz qissa»	465
I Ik. «Tovuq haqida hikoya»	466
«Ko'r ona tovuqning jo'jalarini tarbiyalash usuli»	466
«Tovuqlar o'rtasidagi do'stlik»	468
Im Dje. «Von Ja Xoming tushi»	470
Izohlar	474

KLASSIK KOREYS NASRI ANTOLOGIYASI

(Qadimiyatdan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davr)

«ISTIQLOL» – Тошкент – 2013

<i>Muharrir</i>	<i>J. Razzoqov</i>
<i>Rassom</i>	<i>H. Yoqubov</i>
<i>Musahhih</i>	<i>G. Azizova</i>
<i>Sahifalovchi</i>	<i>S. Po'latov</i>

Litsenziya raqami AI № 217. 03.08.2012-y. Bosishga ruxsat etildi 11.10.2013-y.
Bichimi 60×84¹/₁₆. Shartli bosma tabog'i 31,5. Adadi 300 nusxa. Ofset qog'oz.
Buyurtma № 51.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» MChJ, Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Tel: 244-94-36, faks: 244-51-98. El. pochta: istiqlol-nashr@mail.ru.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» MChJ matbaa bo'limida chop etildi. Toshkent sh.,
100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

나랏말싸미

異乎中

國

하

야

異

잉

는

다

글

씨

國語音

이

國

국

은

나

라

하

라

는

말

싸

國語音은소리니

訓

훈

民

민

正

정

호

스

리

만

다

國語音은소리니

訓

훈

民

민

正

정

호

스

리

만

다

ISBN 978-9943-308-74-9



9 789943 308749

«Istiqloq»